FALSAFA VA E'TIQOD:
O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI
IV-JILD

PHILOSOPHY AND FAITH:
PAST, PRESENT AND FUTURE

International Scientific and Practical Conference
PROCEEDINGS
Volume - 4

ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА:
ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Международная научно-практическая конференция
МАТЕРИАЛЫ
Том - 4

23-24-aprel, 2025

"FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI

Tashkiliy qo'mita raisi:

G'.I. Muxamedov	Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.
S.B. Qorayev	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.
D.B. Axmadjanov	O'quv ishlari bo'yicha prorektor.
O.A. Ortiqov	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.
S.X. Gayupova	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.
R.A. Ikramov	Gumanitar fanlar fakulteti dekani.
L.K. Axatov	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri.

Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:

Madalimov T.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Jo'rayev H.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Koshanova N.M.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Tashmetov T.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Karshiyev Sh.S.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Neshitov P.Yu.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Xaytmetov R.K.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Muhammadiyev L.G.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Nafasov A.K.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Eronov S.Q.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Saidusmanov B.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Usmanov A.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Sunnatov T.R.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Tuganova L.Dj.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Toshtemirov R.A.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Ilmurodova f.Sh.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Yo'ldoshev U.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Abdullayeva D.N.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Sa'dullayeva M.X.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Xolmo'minov G.B.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Miraxmedova Sh.N.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Yakubov X.M.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Imomova U.I.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Tadjibayeva R.O.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Umarova Sh.B.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Yursinboyev J.M.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Nurmanov Sh.J.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Abdullayev T.S.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Maxkamov D.Sh.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Ilyosov Sh.B.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Burliyev U.K.	Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli professor-o‘qituvchilar, muhtaram mehmonlar, aziz tadqiqotchilar va yosh izlanuvchilar!

Sizlarni Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi tashabbusi bilan tashkil etilgan **“Falsafa va e’tiqod: o‘tmish, bugun va kelajak”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyamizda ishtirok etayotganingiz bilan qutlayman!!!

Falsafa — insoniyat tafakkuri va madaniyati taraqqiyotida chuqur ildiz otgan, insonning olam, jamiyat va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini tushunishga intiladigan yuksak ilmdir. U o‘tmishda ham, bugun ham, kelajakda ham jamiyat taraqqiyotining ma’naviy va aqliy tayanchi sifatida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va tezkor global o‘zgarishlar davrida falsafa insonning ma’naviy qadriyatlarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlashda, yosh avlodda yetuk dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi konferensiyamizda turli ilmiy maktab va qarashlar, tarixiy falsafiy meros, Sharq va G‘arb falsafasining o‘zaro ta’siri, shuningdek, milliy falsafiy tafakkurning zamonaviy jarayonlardagi o‘rni muhokama etiladi. Ushbu fikrlar almashinuvi nafaqat ilmiy salohiyatni oshiradi, balki yangi izlanishlarga ham ilhom bag‘ishlaydi.

Ushbu konferensiyada qatnashib, o‘z bilim va fikrlarini baham ko‘rayotgan barcha muhtaram ishtirokchilarga minnatdorlik izhor etaman. Faol ishtirokingiz uchun rahmat aytaman va tadbirimiz barchamiz uchun samarali, mazmunli va ilmiy jihatdan foydali bo‘lishini tilab qolaman.

Shu o‘rinda, konferensiya tashkilotchilariga, ilmiy ishlarni tashkil qilishda mehnat qilgan barcha o‘qituvchilar va talabalarimizga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning sa’y-harakatlaringiz bizga yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Barchaga muvaffaqiyat tilayman va bugungi konferensiyaning samarali o‘tishiga ishonch bildiraman!

Rahmat!

Hurmat bilan, *Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori*
G‘.I. Muxamedov

KIYINISH ETIKASI- SHAXS MADANIYATINING AJRALMAS QISMI

Sevinch Ruzivoy qizi Egamberdiyeva
Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti dizayn: libos va gazlamalar yo'nalishi 24/1 guruh talabasi
Ilmiy rahbar:Koshanova Nilufar Maxsudovna

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamiz kiyinish etikasi bo'yicha tushunchalar o'ganilib, har bir joyning o'ziga xos kiyinish ma'daniyati qisqa tarzda yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: ayollar, etika, ma'daniyat, kiyim, gender tenglik, did, odob-axloq.

KIRISH.

Avvalambor, etika so'ziga alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, etika so'zi qadimgi yunonchadan olingan bo'lib, "axloq falsafasi" , "odat" degan ma'nolarni anglatadi.Etika shaxs yoki jamiyat odatlarini, axloq normalarini o'rganuvchi hamda belgilovchi falsafiy tadqiqot sanaladi.U to'g'ri yoki noto'g'ri, yaxshi yohud yomon tushunchalarini tahlil qilishga yordam beradi. Etika tushunchasi falsafa, din, huquq va kundalik hayotda katta ahamiyat kasb etadi.

Kiyim haqida ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak, kiyim inson tanasini himoya qilish, uni tashqi muhitdan asrash, bezatish va ijtimoiy maqomini ifodalash uchun ishlatiladigan matodan tikilgan liboslar majmuidir.Shu bilan bir qatorda kiyim inson tarixidagi buyuk kashfiyotlardan biri sanaladi. Kiyinish etikasi (dress code)-bu turli vaziyatlar va muhitlarga mos ravishda qanday kiyinish kerakligini belgilovchi qoidalar to'plami.U biznes uchrashuvlaridan tortib tantanali marosimlargacha, rasmiy va norasmiy holatlar uchun farqlanadi.

Kiyinish insonning didi, dunyo qarashi, qay darajada tartibli ekanligini ochib beradi. Inson kiyimi hozirgi kunda juda muhim o'rin kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, inson libosi uni ichki dunyosi qandayligini ochib beradigan omil hisoblanadi. Yon atrofdagilar dast avval tashqi ko'rinishingiz va kiyinish etikangizga qarab hulosa chiqaradilar." Insonning qalb go'zalligi kiyimlarda aks etadi "-deb bejiz aytishmaydi. Libosingiz ozoda va saramjon bo'lsa, inson qalbi ham huddi shu yo'sinda bo'ladi.

Kiyinish etikasida modaga qarab kiyinish shart emas. Sababi moda yildan yilga xattoki kundan kunga o'zgaradi desak adashmagan bo'lamiz. Moda zamon va jamiyatning bir bo'lagi. U o'zida omma didini mujassamlashtiradi. Siz esa shu omma ichida bo'lishingiz shart emas. Sababi har bir shaxs individual. Har bir shaxsning o'z

istaklari hamda didi shakllangan. Inson aynan manashu ikki narsaga tayangan holda o'zining kiyinish etikasini namoyon etadi. Yodingizda tuting, eng so'nggi modada kiyinib ham chiroyli ko'rinmaslik mumkin. Insonning o'ziga xosligi bu – didi hisoblanadi. Sodda va odmiroq libosni aksasuarlar bezab yanada go'zalroq qilish mumkin. Eng muhim maslahatlardan biri libosni qayerga va qay mavsumda kiyayotganingizda alohida ahamiyat berishingiz lozim.

Kiyinish etikasi tushunchasini diniy tomonlama yoritmasdan o'tib keta olmaymiz. Kiyinish etikasini Islom dini talqinida ko'rib chiqadigan bo`lsak, kiyim inson avratlarini yopishga xizmat qiladi. Alloh taolo shunday marhamat qiladi "Ey odam bolalari, darhaqiqat, biz sizlarga avratingizni berkitadigan libosni ham, yasan-tusan libosini ham nozil qildik. (Hammasidan) yaxshiroq libos taqvo libosidir"(A'rof surasi: 26-oyat). Islom dinida kiyinish etikasi juda go'zal tartibda. Kiyinish etikasining islom dinida ham bir necha shartlari mavjud: libos matosi inson terisini ko'rsatadigan darajada yupqa bo'lmasligi, tor bo'lmasligi, erkaklar o'zlarini ayollarga, ayollar esa aksincha erkaklarga o'xshab kiyinmasligi, erkaklarga tilla hamda ipak matolari haromligi, libosni o'ng tomondan kiyishlik, kiyimlarni pok tutishlik kabilar. Islom dini isrofgarchilikdan holi bo'lgan din hisoblangani bilan, inson mol dunyosi bo'la turib juda ham eski yertiq yamoq kiyim kiyishlik joiz emas. Pok, toza kiyinishlik kibr masalasiga kirmaydi.

Kiyim tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, insonlar o'z badanlarini yaproqlar, daraxt po'stloqlari, hayvon terisi kabi narsalardan kiyim sifatida foydalanib kelishgan. Ular shunchaki tashqi omillardan himoyalanish maqsadida foydalanishgan. Kiyimlar kashf etilganda bir necha ming yillardan so'ng go'zallik vositasi sifatida tabaqalangan. Qullar dag'al va qopol matolardan kiyimlar kiygan bo'lsa, boylar esa aksincha, ishlov berilgan matolardan foydalanishgan. XIV -XV asrlarga kelib, hozirgi bichimga ega bo'lgan kiyimlar rivojlangan. Hozirgi kunda Sharqiy mamlakatlarning deyarli barchasida milliy kiyimlar, milliy urf-odatlar yo'q bo'lib ketmoqda. Buning sababi Yevropa davlatlarining ta'siri deb hisoblaymiz. Ularning sivilizatsiyasi bilan bir qatorda kiyinish ma'daniyati ham kirib kelmoqda. Barcha yoshlar ulardan andoza olayapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Butun yer sharining kiyinish ma'daniyati deyarli bir xil bo'lib ketmoqda. Inson, eng avvalo, o'zligini, o'z yurtining kiyinish ma'daniyati, etikasi va milliy qadriyatlarni hurmat qilmog'i darkor. Yevropa ma'daniyati o'z o'rniga, biz dastavval, o'z ma'daniyatimizni unutib qo'ymasligimiz lozim. Bugungi kunda yurtimizda kiyinish etikasini rivojlantirish maqsadida milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashmoqda, ya'ni barcha ta'lim yurtlarida har juma "milliylik" kuni deb belgilandi. Milliy kiyimlar har bir xalqning madaniyati, tarixiy merosi, urd-odatlari va an'analari bilan chambarchas bog'liq. Milliy kiyimlar xalqni birlashtiradigan va ularning o'z madaniy ildizlariga bog'laydigan vosita sifatida

xizmat qiladi. Kiyinish madaniyati orqali bir xalqning birligi va milliy g'ururi namoyon bo'ladi. Avvallari yurtimizda milliy kiyimlarni deyarli ko'rmas edik. Yoshlar milliy kiyim kiyishda tortinishar edi. Ammo, hozirgi kunda milliy kiyimlarimiz moda darajasiga ko'tarildi. Milliy kiyimlarimiz bizning qadriyatlarimizda muhim o'ringa ega. Har bir inson o'z qadriyatlarini hurmat qilishi kerak. Qadriyatlarsiz hech bir xalqni tasavvur etib bo'lmaydi. Milliy kiyimlarimiz bilan yurtimizda yangi kiyinish erikasi rivojlanayapti deb ta'kidlasak mubolag'a bo'lmaydi.

Erkaklar kiyinish madaniyatiga to'xtaladigan bo'lsak, ayollarga qaraganda erkaklarda Yevropa madaniyati, etika, estetikasiga ko'proq taqlid qilishadi. Tog'ri ko'pgina kiyimlar Yevropadan kirib kelgan. Ularni rad etishning iloji yo'q. Ammo har bir madaniyatning o'z chegarasi bor. Hozirgi kunda erkaklar liboslariga ayollarning libosidagi ayrim detallar, turli gular, ipak matolari qo'shilmoqda. Bu erkaklarga juda ham yomon ta'sir o'tkazadi, ya'ni erkaklar noziklashib, ayollarga xos hatti-harakat qilishiga sabab bo'ladi. Yertiq shimlar, turli ma'nosiz yozuvlar, sut'atlar tushirilgan kiyimlar juda ham didsiz va kiyinish etikasiga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli odmilik har doim urfda deb bekorga takidlamadik. Ayollar kiyinish etikasiga to'xtaladigan bo'lsak, ayollar tabiatdan nozik hilqat egalari. Shu sababli ularga noziklik baxsh etadigan liboslar to'g'ri keladi. Hozirgi kunda ayollar esa erkaklashib ketayabdi. Bu bejis emas. Ayollar shimlar, krasofkalar va shunga o'xshash erkaklar kiyadigan kiyimlarni kiyayotgani sabab deb ayta olamiz. Buning orqasidan nosog'lom oila vujudga keladi. Ayolar o'zlarini erkaklardek tutsa, erkaklar esa teskarisi. Shu sababdan ayollarga ko'proq noziklik tavsiya etiladi. Kiyinish etikasiga to'xtaladigan bo'lsak, ayollarga ko'ylaklar, poshnali oyoq kiyimlar kiyishgani maqul. Shundagina o'zlarini ayolligini, nafosatini, nozikligini yoqotb qo'ymaydi.

Xulosa.

Etiket qoidalari, kiyinish madaniyati barcha shaxslar uchun juda muhim. Sababi xalqimizda "Mehmonning libosiga qarab qabul qilinadi, odobiga qarab kuzatiladi", degan naql bor. Demak kishi nafaqat yaxshi qabul qilinishi, balki ijobiy kuzatilishi uchun ham etiket qoidalarini bilishi shart. Zamonaviy dunyoda ma'daniyatli inson sifatida hurmat qozonish, shaxslararo munosabatda muvaffaqiyatga erishish uchun etiket qoidalari, to'g'ri kiyinish madaniyatini o'rganish muhim.

REFERENCES

1. "Etiketning oltin kitobi", Sabrina, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, Toshkent-2013, 424 bet.
2. "Libos tarixi", D.Raxmatullayev, U.Xodjayeva, F.Ataxanova, "Sano-standart" nashriyoti, Toshkent-2015, 336 bet.

3. "Kostyum tarixi", G.Xasanboyeva, V.Churuna, "Uzbekistan" nashriyoti, 2002-yil, 320 bet.

MAKTAB TA'LIMI JARAYONINING OAV BILAN UZVIYLIGI

Egamberganova Shaydo Shodlibek qizi
CHDPU Fizika va kimyo fakulteti Kimyo yo'nalishi 24-1 guruh talabasi
egamberganovashaydo107@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Ilyosov Shohrux**

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada ta'lim sohasida OAV ning o'rni qay jihatlarda yaqqol namoyon bo'lishi va hozirgi kunda maktab ta'limi sohasiga kirib kelayotgan, maktab ta'limi rivojiga sezilarli darajada hissa qo'shayotgan yangi texnologiyalar, dastur va saytlarning ahamiyatlari haqida qisqacha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Maktab ta'limi, ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalar, kundalik.com sayti, OAV ning ta'lim sohasidagi ahamiyati, OAV maktab ta'limidagi uzviyligi, onlayn darslar.

KIRISH

"O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti-bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun andozalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirishdir." Islom karimov[1].

Aholini tezkor va ishonchli axborot bilan ta'minlashda ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Jamiyatdagi o'zgarishlar, har bir sohaja amalga oshirilayotgan islohotlar, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ustuvor g'oya va tashabbuslar ma'no-mohiyatini tezkorlik va xolislik bilan keng targ'ib qilishda jurnalistlarning xizmati beqiyos.

Bugungi kunda OAV jamiyat hayotida asosiy rolni o'ynamoqda. Shu jumladan, OAV ning O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni ham tezlik bilan mustahkamlanib bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining mamlakatimizdagi faoliyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991-yili mamlakatimizda bor yo'gi 395 ta OAV faoliyat yuritgan. 2016- yilga kelib ularning soni 1437 taga yetgan bo'lsa, bugun ularning soni 2 mingga yaqinlashdi va ularning aksariyati xususiydir. O`zbekistondagi ommaviy axborot vositalari uchun zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. O`zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi va Xalqaro press klub kabi tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O`zbekistonda yetakchi xorijiy OAV

vakillari, jumladan Reuters, France press, BBC, The Economist, Xinhua, «Amerika Ovozi», «Fergana.Ru», Eurasianet muxbirlari erkin ishlamoqdalar.

Hayot ko`zgusi hisoblanmish matbuot ―to`rtinchi hokimiyat‖ darajasiga ko`tarilmog`i lozimligi ko`p bora ta'kidlangan. Bu borada hali oldimizda turgan vazifalar juda ko`p[2].

Maktab o'quvchilarini zamonaviy axborot vositalari yordamida savodli muloqot qilish, muhim va qimmatli ma'lumotlarni ajratish malakalariga o'rgatish zarurati paydo bo'ladi. Afsuski, mamlakatimizda maktab o'quvchilarining mediasavodxonligiga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shu bois mediata'limning joriy etilishi alohida dolzarb ahamiyatga ega. Mediata'lim xalqimizning urf-odatlariga, milliy qadriyatlariga tayangan holda, umuminsoniy qadr-qimmatlarga asoslanib tashkil etish zarur hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar, xususan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha soha va jabhalar, shu qatorda ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, umumta'lim maktablarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, innovatsion metodlar asosida dars berish sifatini oshirish, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish maqsadida maktablardagi informatika xonalaridan maqsadli foydalanish kabi muhim vazifalar amalga tatbiq etib kelinmoqda[3].

REFERENCES

1. arxiv.uz sayti.
2. Muhaz.org sayti
3. Uza.uz sayti.

YOSHLAR BILAN OLIB BORILADIGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li
Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada davlatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, yoshlar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar va bu ishlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ro'li ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, imkoniyatlar, shart-sharoitlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davlat dasturlari, tarbiya, tarbiyaviy ahamiyat.

Har bir jamiyatning rivojlanishi va ertangi kuni o'sib kelayotgan yosh-avlodning yaxshi ta'lim-tarbiya olishi, har taraflama kamol topishi bilan bog'liqdir. Yosh avlod jamiyatning asosiy tayanchi va ertangi kunga bo'lgan ishonchidir.

Davlatimizda yoshlarning har taraflama rivojlanishi, kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Prezidentimizning ‘‘Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etiladi [1][1]– deya ta’kidlangan fikrlarni mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan ekanligining dalili sifatida keltirishimiz mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishida, ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda, shuningdek, hayotga, ilm-fan va san'atga nisbatan qiziqishlarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yoshlarni zamonaviy muammolar, axloqiy izlanishlar va ilmiy-nazariy fikrlarning rivojlanishiga yo‘naltirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim omil bo‘ladi.

’’Jamiyatda ma'naviyatni, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish muhimdir.yoshlarni mustahkam axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, milliy g'oyani targ'ib qilish har qachongidan ham zarurdir. Shuningdek, ta'lim va ilm-fan sohasida innovatsiyalarni kiritish, yoshlarning ma'naviy taraqqiyotini kuchaytirish hal

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.;, O’zbekiston, 2016. – B.-14.

qiluvchi ahamiyatga egadir[2][2].Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat axloqiy fazilatlarni, balki insonning o'zini anglashiga, dunyoqarashining shakllanishiga, inson huquqlari, erkinlik ava adolat kabi muhim tushunchalarga bo'lgan tushunchasini oshiradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, o'z navbatida, yoshlarning jamiyatdagi o'rnini, kasbiy tayyorgarligini va fuqarolik mas'uliyatini anglashlarini ta'minlaydi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali yosh avlodga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, halollik, adolat kabi yuksak fazilatlar singdiriladi.

Prezidentning 2023-yil 22-dekabrda o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida "Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak" deya alohida ta'kidlab o'tdilar.

Prezidentning fikricha, ma'naviyat va madaniyat sohasiga alohida e'tibor qaratish, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, milliy g'oyani targ'ib etish va jamiyatda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish zarur. Bu borada ta'lim tizimini takomillashtirish, madaniyat markazlarini rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish ehtiyoji har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Yurtimizda yoshlarning ma'naviyatli inson bo'lib shakllanishi, ilmli va tarbiyali bo'lib kamolga yetishiga qaratilgan bir qator tadbirlar va dasturlar o'tkazilib kelinmoqda. Bu tadbirlar sirasiga har yili turli yosh toifasida o'tkazib kelinayotgan ''Yosh kitobxon'' tanlovini, prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan, har yili har bir hududda o'tkazib kelinayotgan, bir nechta bosqichdan iborat ''Besh tashabbus'' olimpiadasini, ''Mirzo Ulug'bek vorislari'' tanlovi, ''Bo'lajak olim'' va boshqa bir qator tadbirlarni keltirishimiz mumkin.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda, ularda vatanparvarlik va vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda, ularni madaniyat, san;at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishda prezidentimiz tashabbusi bilan joriy qilingan[2][3] 5 ta muhim tashabbus alohida o'ringa ega. Bu 5 ta tashabbus quyidagilardan iborat:

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish;

[2] Islom Karimov ''Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch''.– T.;, O'zbekiston, 2008.

[3] Prezidentimiz rahbarligida **2019-yil 19-martda** "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o'z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish;

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil qilish;

To'rtinchi tashabbus aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish;

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish;

Yurtimizda amalga oshirilayotgan Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tarbiyaviy ahamiyati bir qator jihatlarda namoyon bo'ladi. Bu jihatlarning eng muhimlaridan biri yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdir. Vatanparvarlik, avvalo, vatanni sevish va uning rivojiga munosib hissa qo'shishda namoyon bo'ladi. Inson, ayniqsa, yosh avlod vatani rivojiga, jamiyatdagi insonlar hayotiga befarq bo'lmasligi lozim. Shu o'rinda ''Odamiy ersang demagil odamiy, oni kim yo'q xalq g'amidin g'ami[3][4] jumlalarini keltirish o'rinli.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali yoshlarga odob-axloq qoidalari o'rgatiladi. Oila, jamiyat va maktabda, yon-atrofdagilar bilan to'g'ri muomala qilish, kattaga hurmat, kichikka izzat, sadoqat kabi qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi. Ma'rifiy ishlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish, ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshirish orqali yoshlar tafakkuri boyitiladi. Kitob o'qigan insonning dunyoqarashi, fikrlashi va ma'naviy dunyosi boy bo'ladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek ''Bugun bitta kitob o'qigan bola ertaga 100 ta televizor ko'rgan bolani boshqara oladi''.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning **yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan asrash**dagi o'rniga alohida to'xtalish lozim. Bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli zararli oqimlar ta'siridan himoya qilish dolzarb masala hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali ularning dunyoqarashi shakllantirilib, mustahkam e'tiqod va iymon ruhida tarbiyalanadi.Yoshlarni turli ijtimoiy va madaniy tadbirlarga jalb qilish, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini anglatish orqali faolligi oshiriladi. Bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, nafaqat ularga zarur bilimlarni berish, balki ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy muammolarga munosabatini shakllantirish va turmush tarzini yaxshilashga yordam beradi. Bu turdagi ishlar yoshlarni jamiyatda o'z o'rnini topishga, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan axloqiy, ma'naviy va intellektual resurslarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

[4] **Alisher Navoiy** *"Xamsa"* asaridan

Tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali yoshlar o'z hayotini to'g'ri yo'naltirish, axloqiy me'yorlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va jamiyatda muvozanatli, mas'uliyatli fuqaro sifatida o'z o'rnini topa olishadi. Bu jarayon, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va ehtiyojlari bilan uyg'unlashgan holda, ularda sog'lom turmush tarzi, shaxsiy ong va ijtimoiy javobgarlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, yoshlar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tarbiyaning ajralmas qismi sifatida, jamiyatni mustahkamlash va uning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
2. Islom Karimov ''Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch''
3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-martda ''Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot-texnologiyalari, kitob o'qishga qizishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'grisida'' gi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.
4. **Alisher Navoiy**ning *"Xamsa"* asari.

TA'LIM VA TADQIQOT METODLARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR, ULARINING AFZALLIKLARI VA QO'LLASH USULLARI

Egamqulova Durdona
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yonalishi 1 – bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Bu maqola modern ta'lim va ilmiy tadqiqot metodlarini o'rganishga qarshi bo'lishlar bag'ishlangan bo'lib, ularning pedagogikadagi roli, samaradorligi va amaliyotdagi qo'llash mumkinchiliklari to'xtashsiz yoritiladi. An'anaviy va innovatsion me'hodlar bir-biriga qiyosiy o'rib chiqiladi, zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli ta'lim platformalari, gamifikatsiya va loyihabazarlik kabi metodlar chuqur o'rilgan. Tadqiqot jarayonida talabalar va o'qituvchilararning fikrlari so'rovnomalar, kuzatuv va statistik tahlil orqali o'rganilib, zamonaviy metodlarning real ta'lim jarayoniga ta'siri baholangan.

Kalit so'zlar: ta'lim metodlari, tadqiqot usullari, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar, faol o'qitish, loyihabazarlik, blended learning, sun'iy intellekt, adaptiv o'qitish tizimlari, ta'lim sifatini baholash.

Abstract: This article is devoted to the study of modern educational and scientific research methods, their role in pedagogy, effectiveness and practical application are comprehensively covered. Traditional and innovative methods are compared with each other, modern technologies, in particular, digital educational platforms, gamification and project-based methods are deeply studied. In the research process, the opinions of students and teachers were studied through questionnaires, observation and statistical analysis, and the impact of modern methods on the real educational process was assessed.

Keywords: educational methods, research methods, innovative pedagogy, digital technologies, active learning, project-based learning, blended learning, artificial intelligence, adaptive learning systems, assessment of educational quality.

Dunyo bugun globallashgan bo'lib, ta'lim jarayoni ham muttasil yangilanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual haqiqat kabi yangiliklar ta'limda yetakchi o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Leksiya, mustaqil o'qish, test kabi an'anaviy yondashuvlar (leksiya, mustaqil o'qish, test) o'rniga faol o'qitish, gamifikatsiya, Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar quyidagi omillar bilan bog'liq.Texnologik innovatsiyalar: onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar, sun'iy intellektli dasturlar;

O'quvchilarning o'rganish ehtiyojlarining o'zgarishi: shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va interfaol o'rganish talabi;

Mehnat bozorining yangi talablariga moslashish: kreativlik, muammo yechish, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarning ustuvorligi.

Zamonaviy metodlarning zamonamizdagi mayda nuqtalari.

Empirik tadqiqot; Ishtirokchilar: 150 nafar talaba va 30 nafar o'qituvchi (turli universitetlar va yo'nalishlar asosida).

Usullar:

- So'rovnomalar (Google Forms orqali)
- Kuzatuvlar (darslar jarayonida faol ishtirok darajasi).
- Statistik tahlil (SPSS: ANOVA, korrelyatsiya).
- Fokus-guruh suhbatlari (sifatli ma'lumot to'plash uchun).

Taqqoslash tahlili;

- An'anaviy metodlar: leksiya, reproduktiv yodlash, frontal so'roq.
- Innovatsion metodlar:
- Faol o'qitish: "case-studies", "debate", "problem-solving".
- Loyihabazarlik: "Project-Based Learning (PBL)", "Collaborative Learning".
- Raqamli metodlar: Moodle, Canvas, Google Classroom, Zoom, Kahoot!, Quizizz.
- Gamifikatsiya: interaktiv o'yinlar, reyting tizimlari.

1. Innovatsion metodlarning samaradorligi

Faol o'qitish metodlari bilim darajasini o'rtacha 30-35% oshirdi.

PBL (loyihabazarlik) talabalar orasida kreativlik darajasini 45%, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini esa 35% ga oshirdi.

Raqamli texnologiyalar (xususan gamifikatsiya) ishtirokchilar motivatsiyasini 50% ga oshirishda muhim rol o'ynadi.

2. Fikriy tahlillar

85% talaba innovatsion metodlarni afzal ko'rishini bildirdi.

60% o'qituvchi zamonaviy metodlar samaraliroq ekanini tan oldi, ammo 70% o'qituvchi raqamli texnologiyalardan foydalanishda texnik qiyinchiliklarga duch kelganini aytdi.

3. Qiyinchiliklar va to'siqlar

Infratuzilma yetishmasligi: ayniqsa qishloq joylarda internet va zamonaviy texnik vositalarning cheklangligi.

Pedagoglarning zamonaviy texnologiyalar bo'yicha bilimlarining yetarli emasligi. Dasturiy ta'minotning ingliz tilida bo'lishi mahalliy foydalanuvchilar uchun muammo tug'diradi. Zamonaviy metodlar nafaqat bilimlarni samarali yetkazish, balki o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Masalan,

"flipped classroom" metodida talabalar darsgacha bilimni mustaqil o'zlashtirib, dars vaqtida esa amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratadilar.
Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar:
Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi;
Shaxsiylashtirilgan ta'lim imkonini beradi;
Ta'limga qiziqishni oshiradi. Biroq, bu metodlar muvaffaqiyatli qo'llanishi uchun:
1. Pedagoglarning doimiy malaka oshirishi,
2. Mahalliy infratuzilmaning mustahkamlanishi,
3. O'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish zarur.

XULOSA

Tadqiqotdan xulosa qilinadigan bo'lsa, zamonaviy ta'lim va tadqiqot metodlari ta'lim sifatini oshirish, talabalar faolligini rag'batlantirish va bilimlarni chuqur o'zlashtirishda muhim vositadir.

REFERENCES

1. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives.
2. Dewey, J. (1938). Experience and Education.
3. Hattie, J. (2009). Visible Learning.
4. UNESCO. (2021). Digital Learning and Transformation of Education.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society.
6. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants.
7.Biggs, J. (2003). Teaching for Quality Learning at University.
8. Anderson, L. W. & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing.
9. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.
10. OECD (2020). Trends Shaping Education.

DINSHUNOSLIK: TA'LIM VA TADQIQOT METODLARI

Elemesova Qunduzoy va Ergasheva Sevinch
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada dinshunoslik ta'limi va tadqiqot metodlari tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi ahamiyati yoritiladi. Dinshunoslik fanining asosiy maqsadi turli dinlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va jamiyatga ta'sirini o'rganishdan iborat. Maqolada tarixiy-taqqoslama, sotsiologik, falsafiy va empirik metodlarning mohiyati va ularning tadqiqotlardagi roli batafsil ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlarning to'g'ri metodologik asosga ega bo'lishi dinshunoslik fanining yanada rivojlanishiga va diniy bag'rikenglikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Dinshunoslik, ta'lim, tadqiqot metodlari, tarixiy-taqqoslama metod, sotsiologik metod, falsafiy metod, empirik metod, jamiyat, dinlar tarixi, e'tiqod, diniy bag'rikenglik, ilmiy tahlil, huquqiy asoslar, madaniyat, ijtimoiy jarayonlar, ekstremizm**.**

АННОТАЦИЯ.

В данной статье анализируются методы преподавания и исследования религиоведения, а также их значение в социальной среде. Основная цель религиоведения – изучение происхождения, развития и влияния различных религий на общество. В статье подробно рассматриваются сущность и роль ключевых исследовательских методов – историко-сравнительного, социологического, философского и эмпирического. Правильная методологическая основа способствует развитию религиоведения и укреплению религиозной толерантности в обществе.

Ключевые слова: Религиоведение, образование, методы исследования, историко-сравнительный метод, социологический метод, философский метод, эмпирический метод, общество, история религий, вера, религиозная толерантность, научный анализ, правовые основы, культура, социальные процессы, экстремизм.

Annotatsion. This article analyzes the methods of teaching and researching religious studies, highlighting their significance in social contexts. The main objective of religious studies is to explore the origins, development, and influence of various religions on society. The article discusses the essence and role of key research methods—historical-comparative, sociological, philosophical, and empirical—in academic studies. Establishing a proper methodological foundation

enhances the advancement of religious studies and strengthens religious tolerance in society.

Keywords: Religious studies, education, research methods, historical-comparative method, sociological method, philosophical method, empirical method, society, history of religions, belief, religious tolerance, scientific analysis, legal foundations, culture, social processes, extremism.

Dinshunoslik fan sifatida insoniyat tamadduni va uning ma'naviy hayotining muhim jihatlarini o'rganadi. Ushbu soha diniy qarashlar, e'tiqodlar, urf-odatlar va marosimlarning jamiyatga ta'sirini tahlil qiladi. Dinshunoslik faqat diniy bilimlarni o'rganish bilan cheklanmay, balki ularning falsafiy, sotsiologik va tarixiy asoslarini ham chuqur tahlil qiladi. Shu sababli, dinshunoslik ta'limi va tadqiqotlarining samarali metodlariga e'tibor qaratish muhimdir.

Dinshunoslik ta'limining asosiy maqsadi talabalarga dinlar tarixi, ularning asosiy tushunchalari va ijtimoiy hayotdagi o'rnini tushuntirishdir. Ta'lim jarayonida turli dinlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar, ularning rivojlanish tarixi, falsafiy va axloqiy tamoyillari o'rganiladi. Shu bilan birga, dinshunoslik ta'limi ekstremizm va diniy radikalizmga qarshi immunitet hosil qilishga ham xizmat qiladi. Talabalarga tanqidiy fikrlash, turli diniy manbalarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Dinshunoslikni o'rganishda qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri tarixiy-taqqoslama metodidir. Bu metod yordamida turli diniy tizimlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va bir-biriga ta'siri tahlil qilinadi. Bu yondashuv dinlarning tarixi va rivojlanish jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Sotsiologik metod orqali dinning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati o'rganiladi. Diniy e'tiqodlarning turli ijtimoiy guruhlarga ta'siri, diniy institutlarning jamiyat hayotidagi roli tahlil qilinadi. Ushbu metod din va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Falsafiy metod esa dinning inson tafakkuriga ta'siri, e'tiqod va ilm-fan o'rtasidagi munosabatni o'rganishga qaratilgan. Diniy qarashlar va dunyoviy tafakkurning o'zaro ta'siri chuqur tahlil qilinadi.

Empirik tadqiqot metodlari ham dinshunoslikda keng qo'llaniladi. So'rovnomalar, intervyular, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali jamiyatdagi diniy qarashlarning hozirgi holati va tendensiyalari o'rganiladi.

Dinshunoslik ta'limi va tadqiqot metodlarini rivojlantirish orqali jamiyatdagi diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, diniy bilimlarni oshirish va diniy ekstremizmning oldini olish mumkin. Bu esa jamiyatda barqarorlik va totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, dinshunoslik sohasidagi ta'lim va tadqiqot metodlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biridir.

Dinshunoslik insoniyat madaniyati va ijtimoiy hayotining muhim qismi bo'lib, turli dinlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va jamiyatga ta'sirini o'rganadi. Bu fan diniy e'tiqod va qadriyatlarning inson tafakkuriga, axloqiy me'yorlariga va ijtimoiy tuzilmalarga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Shu sababli, dinshunoslik ta'limi va tadqiqot metodlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Dinshunoslik ta'limining asosiy vazifasi talabalarni diniy an'analar, asosiy e'tiqodlar va ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni bilan tanishtirishdan iborat. Bu jarayonda talabalar turli dinlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni tushunish, diniy matnlarni ilmiy tahlil qilish va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Dinshunoslik tadqiqotlarida turli metodlar qo'llaniladi. Tarixiy-taqqoslama metod turli dinlarning kelib chiqishi va rivojlanish dinamikasini o'rganishga imkon beradi. Ushbu metod orqali dinlarning o'zaro ta'siri, ularning madaniy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni aniqlanadi. Sotsiologik metod diniy e'tiqodlarning jamiyatdagi ahamiyatini o'rganish uchun ishlatiladi. U orqali turli diniy guruhlar va jamiyatning diniy qarashlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boriladi. Sotsiologik tadqiqotlar jamiyatdagi diniy tendensiyalarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy yondashuv esa dinning inson tafakkuriga ta'sirini, diniy va ilmiy tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Bu metod orqali diniy g'oyalar va falsafiy qarashlar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi.

Xulosa. Dinshunoslik ta'limi va tadqiqotlarining rivojlanishi jamiyatda diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga, turli konfessiyalar o'rtasida tushunishni oshirishga va diniy ekstremizmning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bois, dinshunoslik sohasida zamonaviy metodlarni tatbiq etish va ilmiy izlanishlarni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Abdullayev M. **"Dinshunoslik"** – Dinshunoslikning asosiy tamoyillari va tadqiqot usullari.
2. Jo'rayev N. **"Din va jamiyat"** – Dinning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy hayotga ta'siri.
3. Saidov A. **"O'zbekiston va diniy bag'rikenglik"** – O'zbekistonda diniy erkinlik va bag'rikenglik masalalari.
4. To'xtasinov A. **"Dinshunoslik asoslari"** – Dinshunoslik fanining nazariy va amaliy jihatlari.
5. Vohidov Sh. **"Islom ma'naviyati"** – Islom dinining axloqiy va ma'naviy qadriyatlari.

6. Nosirov U. **"Din va zamonaviylik"** – Dinning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va rivojlanishi.
7. Muhammadiyev B. **"Diniy ekstremizm va unga qarshi kurash"** – Diniy radikalizm va ekstremizmga qarshi chora-tadbirlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Diniy erkinlik va bag'rikenglik haqidagi huquqiy asoslar.
9. Alisher Navoiy. **"Mahbub ul-qulub"** – Axloqiy qadriyatlar va ma'naviyat masalalariga oid asar.
10. Sodiqov H. **"Dinshunoslik nazariyasi"** – Dinshunoslik fanining ilmiy asoslari.
11. Karimov I. A. **"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"** – Ma'naviyat va diniy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi roli.
12. Shamsutdinov R. **"Islom va uning insonparvarlik mohiyati"** – Islom dinining tinchlik va insonparvarlik tamoyillari.

MUSEUMS IN MODERN SOCIETY AND EXISTING PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THEIR DEVELOPMENT

Ochildiyev Lochinbek Normurod o'g'li
Chirchiq State Pedagogical University, Faculty of Humanities
2nd-year student of the History Department,
locinbekocildiev858@gmail.com
Scientific supervisor: **Jumayeva Shoira Berdiyarovna**,
Doctor of Philosophy in History, Associate Professor

Abstract: This article examines how discussions and practices surrounding the usefulness, application, and impact of digital information and communication technologies in museums are evolving today. By referring to relevant museological approaches and examples of their implementation, the text raises the question of the extent to which digital technologies have been integrated into modern museology and museum studies. Such integration not only involves the use of various technologies but also necessitates the opening and exploration of museums for the application of ideas and proposals related to organizing and producing knowledge and communication. This argument concludes with the suggestion that the adoption and adaptation of old, new, and emerging technologies in museums contribute to forming a (new) museology of technology.

Keywords: museology, digital information, communication, integration, museography, development, museum studies, technologies, discussions, resources.

In 2002, Julian Spalding, in his book The Poetic Museum: Revitalizing Historic Collections, presented what he claimed to be a "global vision of the future of museums." In the book's epilogue, Spalding invites us to imagine what the British Museum (BM) would look like in 2012—ten years after the book was written and two years before the date of this article. In this exercise in futuristic museology, Spalding begins with a hypothetical story about a group of friends visiting the BM. The group consists of Jill, a 30-year-old computer programmer; Jake, her 16-year-old nephew; Sophie, her 9-year-old niece; and David, Jill's father and the children's uncle. A museum staff member encourages them to use headphones if they wish, explaining that "the entire museum is connected via audio in almost all languages" through the headphones [Spalding 2002, 157b]. As noted, visitors can explore the museum without headphones, but through them, they can choose audiovisual tours designed for different age groups. They are informed that "once you understand how to use the headphones, they do much of the work in guiding you through the exhibits you want to see" [Spalding 2002, 158b].

Visitors can interact with the options presented to them by speaking or signaling to register their interests and activate specific content on the provided portable device. Thus, in this scenario, the headset acts as a guide or assistant, accompanying the visitor from one hall to another, providing information about exhibits and objects through text, audiovisual materials, and three-dimensional projections. It also advises visitors on what to see, asks whether they want to listen to music during the tour, grants access to the museum's database, enables communication with their visiting group, and alerts them when it is time to reunite with the group. Elements of this scenario can already be found in various contemporary museums through standalone applications and museum practices, although I am not aware of any specific museum currently using such a headset. Of course, such futuristic scenarios tell us more about the conventions and contexts of the time they were written than about the period they describe. Nevertheless, what is particularly interesting in Spalding's scenario is the description of a comprehensive anthropocentric technological program that aligns with visitors' needs and the museum's broader interpretative and communicative practices. Furthermore, the specific technology is presented as being "intelligently" connected with the museum's other technological systems, such as its "database." In other words, digital technology is integrated into the museum's museological and museographic design, reaching an almost "post-digital" stage where museum technology is seamlessly embedded into its operations and "life."

Nick Poole, Chief Executive Officer of the UK Collections Trust, expresses a similar perspective on the relationship between museums and digital technologies in his blog:

"But, whisper it, haven't we all moved a little beyond Digital? Not in the sense that it no longer matters—of course, it is deeply and fundamentally important. However, the initial wave of enthusiasm has passed, and we are now beginning to think about what it means to be a post-Digital sector and a truly hybrid service industry. The digitization and physicality of different aspects of our collections, as well as the various channels through which we deliver our services, have become background facts of life for museums, archives, and libraries."

The use and partial integration of both old and new digital technologies in museum functions, as predicted by Spalding in 2002 and referenced by Poole in 2010, represent a broad generalization for most museums worldwide—one that is difficult to argue with in terms of quality or quantity. More importantly, such generalization implies a static and time-bound perception and interpretation of "digitality." When new and even newer technologies emerge so frequently and rapidly, giving the impression that there is a new technological application and a

potential candidate for integration into museums every day, can we truly speak of a "post-digital" stage for museums? Or is the process of understanding their application, usefulness, and potential integration into museums still ongoing? Furthermore, when both their impact on professional museum practices and their role in shaping public museum experiences remain in a hybrid stage, can we claim that museums have fully transitioned into a post-digital era? Despite adopting numerous "new technologies," museums do not necessarily introduce novel or fundamentally different approaches to longstanding museological issues, such as object interpretation, information presentation, and the representation of social, geographical, and temporal contexts. However, there are also applications and adaptations of technology that offer not just enhancements to professional practices but also opportunities to renegotiate the very concept of the museum itself—some examples of which are discussed below. In other words, the question of how, why, by whom, for what purpose, and with what outcomes digitality is implemented in museums remains in flux and will continue to evolve, potentially reshaping the field. While I agree with the notion that museums today exist as hybrids of material and digital exhibits, I believe this assumption does not free us from the ongoing need to examine what we define as "material" and "digital." The hybrid nature of museums is not merely about the interconnection between the material and the digital or even the interactive integration of digital hardware. Rather, it reflects the continuous evolution of museum concepts and practices through the mutations shaped by digitality and physicality, as each progressively infiltrates the other. Today, museums incorporate technological applications that not only shape the relationship between the digital and physical nature of objects, space, and experience but also influence each other qualitatively. Technologies such as 3D printing, virtual, augmented, and mixed reality, as well as big data, open data, and linked data, allow us to raise fundamental questions about the materiality of digital technology products and the digital aspects of physical objects. Digital technologies have the potential to significantly alter and redefine museum space, physical objects, visitor experiences, spatial and temporal dimensions, as well as the scale and interpretative content of exhibitions. This can be observed in the following relevant projects:

• Calbug – a crowdsourcing project in which the public helps digitize photographs, records, and book information from the arthropod collection at the Essig Museum.

• Capture the Museum – an experimental game at National Museums Scotland, where visitors compete in groups using a mobile application to answer questions and solve puzzles related to objects.

• CHESS Project – focuses on personalized digital storytelling, interactive content, and augmented reality-based applications.

• Qrator Project – explores the integration of mobile phones and other digital technologies in fostering public engagement, interpretation, and new storytelling models in museums.

• Streetmuseum – a mobile application that uses GPS technology to present users with historical photographs and images from the Museum of London's collection as they navigate city streets.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmli va har tomonlama yetuk qilib voyaga etkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishlariga undagan. Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan "Pandnoma", "Siyosatnoma", "Qobusnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi jaloliy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Nigoriston", "Bahr al-ulum", "Kachko'li sultoniy", "Jovidoni xirad", "Bistu se hikmat", "Hikoyoti dilpisand", "Odob as-solihin", "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so'z va tushunchani izohlab, keyin unga o'quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundarijasi, ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni qanchalar katta ekanini Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflaridan bilib olamiz.

[5] https://oyina.uz/uz/teahause/2333
[6] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor Oila. "HILOL-NASHR",T, 2024-y, B-355-356

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam:Har bir tug'ilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) ila tug'iladi. So'ng ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi. Bu xuddi hayvonning bus-butun hhayvon tug'ishiga o'xshaydi. Siz unda quloq-burni kesilganini his qilganmisiz? dedilar .

So'ngra Abu Hurayra Agar xohlasanggiz: (Bu) Alloh odamlarni yaratgan asl fitratdir. Allohning yaratganini o'zgartirib bo'lmas. Ushbu to'g'ri dindir, degan oyatni o'qing, der edi. Ushbu hadisi sharifda Alloh taolo insonlarni yaratish paytida sof tabiat bilan yaratsa ham, keyinchalik insonlar, xususan, ota-ona tarbiyasi sababli bu soflikka future etishi , uning buzilishi haqida so'z ketgan.

Bolani yaxshi inson qilib voyaga yetkazish uchun ota-onalar quyidagi tamoyillarga e'tibor berishi lozim:

1.O'ziga namuna bo'lish.
2.Muhabbat va e'tibor ko'rsatish.
3. Intizom va mas'uliyatni o'rgatish.
4.Kitob o'qishga rag'batlantirish.
5.Mustaqillik va qobiliyatlarni rivojlantirish.
6.Mobil telefon va internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.
7.Do'stlar va muhitni nazorat qilish.
8.Sabr va donolik bilan yondashish.

Xulosa. Farzand tarbiyasida eng muhim narsa-doimiy mehr, e'tibor va to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishdir. Bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun ota-ona ham o'z ustida ishlashi, bilim va tajribasini oshirishi kerak.

REFERENCES

1.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. "HILOL-NASHR",T, 2024-y, B-355-356
2. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya .T. B-127
3. https://oyina.uz/uz/teahause/2333
4. https://yuz.uz/uz/news/tarbiya-buyuk-nemat

ISLOMDA HALOLLIK VA POKLIK TUSHUNCHASI

Eshpo'latova Sabrina
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabasi
Ilmiy rahbar: **Nurmanov Sherzod**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Islom diniy ta'limotida halollik va poklik tushunchalariga alohida e'tibor qaratadi. Halollik va poklik nafaqat jismoniy, balki ruhiy va axloqiy holatlarni ham anglatadi. Islomda bu tushunchalar insonning o'zini to'g'ri tutishi, jamiyatga foyda keltirishi, va oxiratda najot topishi uchun juda muhimdir.Maqolada halollik va poklikning har bir jihatiga to'xtalib, ularning musulmon hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida gapirilgan.

Kalit so'zlar: Halollik, poklik, jismoniy poklik, ruhiy poklik, halol va harom, axloqiy fazilatlar, din va axloq, islomda poklikning ahamiyati.

Аннотация: Данная статья уделяет особое внимание понятиям халяльности и чистоты в исламском учении. Халяльность и чистота означают не только физическое, но и духовное и моральное состояние. В исламе эти понятия имеют большое значение для правильного поведения человека, его вклада в общество и достижения спасения в загробной жизни. В статье рассматриваются различные аспекты халяльности и чистоты, а также их роль и значимость в жизни мусульманина.

Ключевые слова: Халяльность, чистота, физическая чистота, духовная чистота, халяль и харам, моральные добродетели, религия и мораль, значение чистоты в исламе.

Annotation: This article pays special attention to the concepts of halal and purity in Islamic teachings. Halal and purity mean not only physical but also spiritual and moral states. In Islam, these concepts are of great importance for proper behavior, contributing to society, and achieving salvation in the afterlife. The article explores various aspects of halal and purity, as well as their role and significance in the life of a Muslim.

Keywords: Halal, purity, physical purity, spiritual purity, halal and haram, moral virtues, religion and morality, the importance of purity in Islam.

KIRISH:

Har bir dinning o'ziga xos qadriyatlari bo'ladi, lekin Islom dinida halollik va poklik alohida o'rin egallaydi. Musulmon inson hayotida bu ikki tushuncha – har bir harakatda, har bir niyatda muhim rol o'ynaydi. Chunki halollik odamni yomonlikdan, haromdan saqlaydi, poklik esa tozalikka, nafsni tiyishga va Allohga yaqin bo'lishga yordam beradi. Hayotda har doim ham to'g'ri yo'ldan yurish oson bo'lmasligi mumkin, lekin Islom bizga qanday yashash kerakligini ko'rsatib bergan. Shu maqolada men Islomda halollik va poklik nima degani, ular nima uchun kerak va hayotimizda qanday ahamiyatga ega – shular haqida o'z fikrlarimni yozmoqchiman.

Halollik: Islomda halollik juda muhim. Bu nafaqat halol ovqat yeyish yoki halol pul topish degani emas, balki butun hayot tarzini halol qilish demakdir. Inson nima qilmasin – o'qisinmi, ishlasinmi, savdo qilsinmi – halollikni unutmasligi kerak. Chunki har bir harakatimiz Alloh tomonidan ko'riladi. Masalan, biror narsani yashirib, yolg'on gapirib foyda olish mumkin, lekin bu vaqtinchalik. Oxir-oqibat halol yo'l bilan topilgan rizq baraka beradi. Yana bir misol: kimdir o'zi ishlamagan bo'lsa ham, osongina pul topish yo'llarini izlaydi. Islom bunday yo'lni noto'g'ri deb biladi. Chunki harom pul bilan qilgan ishda baraka bo'lmaydi. Shu bois musulmon odam har doim halol yo'lni tanlashi kerak – hatto u qiyin bo'lsa ham.

Poklik: Poklik – bu faqatgina badan yoki kiyimni toza saqlash emas. Bu – qalbni, niyatni, gapni va ishni ham pok saqlashdir. Islomda namoz o'qishdan oldin tahorat olish, pok joyda ibodat qilish – bularning barchasi poklikka kiradi. Toza joyda ibodat qilgan odamning qalbi ham toza bo'ladi. Lekin poklik faqat tashqi tozalik bilan tugamaydi. Agar inson ich-ichidan g'azab, hasad, yolg'on, kibr kabi illatlarni chiqarib tashlasa, uchinchi darajadagi poklikka erishadi – bu qalb pokligi. Qalb pok bo'lsa, tilimiz ham, ishimiz ham pok bo'ladi. Pok odam boshqalarga zarar yetkazmaydi, doimo to'g'rilikni istaydi. Shuning uchun poklik musulmon hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda halollik va poklik har qachongidan ham muhimroq bo'lib qolgan. Chunki zamon o'zgarib, odamlar orasida aldov, harom yo'l bilan boyishga urinish, yolg'on gapirish kabi holatlar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida "tez boyish", "oson pul topish" degan tushunchalar kuchaymoqda. Lekin Islom dini bizni bunday yo'ldan qaytaradi va halol rizq ortidan yurishni targ'ib qiladi.

Xuddi shuningdek, poklik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda odamlar ko'proq tashqi tozalik haqida o'ylashadi, lekin ruhiy poklik, ya'ni yurakdagi hasad, g'iybat, kibr kabi illatlardan tozalash haqida kamroq o'ylashadi. Aslida, jamiyatda tinchlik, do'stlik va halollik bo'lishi uchun har bir inson avval o'z qalbini pok tutishi kerak. Shundagina biz chin musulmon bo'lib yashashga yaqinlashamiz.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, halollik va poklik har bir musulmon hayotining ajralmas qismidir. Bu ikki fazilat bizni to'g'ri yo'lga boshlaydi, boshqalarga foydali inson bo'lishga o'rgatadi. Bugungi kunda ham halol bo'lish, pok yurak bilan yashash oson emas, lekin kimki shuni uddalasa, Allohning roziligiga erishadi. Har birimiz harakatlarimizni va niyatlarimizni halol va pok saqlashga intilsak, jamiyatda ham baraka, ham tinchlik bo'ladi. Men o'ylaymanki, Islom dinida halollik va poklikka berilgan bu katta e'tibor bejiz emas.

Shuning uchun har bir musulmon inson halollik va poklikni faqat ibodatda emas, balki kundalik hayotda ham saqlashi kerak. O'qishda, ishlashda, hatto oilaviy hayotda ham bu fazilatlar juda muhim. Halol niyat, pok yurak bilan qilingan har bir ish oxir-oqibat o'z samarasini beradi. Shaxsiy hayotimizda ham, jamiyatda ham halollik va poklik asosida yashasak, Allohning roziligi, odamlarning hurmati va hayotdagi barakaga erishishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Qur'oni Karim. – Toshkent: O'zbekiston musulmonlari idorasi nashriyoti, 2018.
2. Al-Buxoriy, Imom. Sahihi Buxoriy (Tanlangan hadislar to'plami). – Toshkent: Hilol-Nashr, 2016.
3. Shamsiddin Muhammad. Islom axloqi asoslari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
4. www.muslim.uz – O'zbekiston musulmonlari idorasi rasmiy veb-sayti.
5. www.islom.uz – Islomiy ta'limotlar va ma'naviy tarbiya haqidagi maqolalar.

DINSHUNOSLIK: TA'LIM VA TADQIQOT METODLARI

Sunnatov Tohir Ravshanbekovich
tohirsunnatov761@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Turmamatova Dilsora Nomozboy qizi
7blacksharkuzb@gmail.com
Nurullayeva Sevinch Azamat qizi
sevincnurullaeva@gmail.com
Lespayeva Ayana Janyabay qizi
naabeyyyaa@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabalari

ANNOTATSIYA:

Dinshunoslik – bu dinlarni o'rganish, ularning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va falsafiy jihatlarini tadqiq etuvchi ilmiy soha. Dinshunoslikni o'rganish, shuningdek, dinlarning insoniyat hayotidagi o'rnini, ularning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotdagi ta'sirini tushunish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: dinshunoslik, diniy bilimlar, muloqot, zamonaviy metodlar, nazariy bilimlar, muhokama, amaliy yondashuvlar

Abstract: Religious studies is the scientific field that studies religions, their historical, social, cultural and philosophical aspects. The study of religious studies also allows us to understand the place of religions in human life and their influence on social and cultural development.

Keywords: religious studies, religious knowledge, dialogue, modern methods, theoretical knowledge, discussion, practical approaches.

Dinshunoslik ta'limi, asosan, diniy bilimlarni berish va diniy an'analarni tushunishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida talabalar dinlarning asosiy tushunchalari, tarixiy rivojlanishi, diniy matnlar, ritual va marosimlar haqida ma'lumot olishadi. Dinshunoslik ta'limi ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi, jumladan, teologiya, diniy falsafa, dinlararo muloqot va diniy antropologiya. Bu yo'nalishlar har biri o'ziga xos metodologiyaga ega bo'lib, dinlarni turli jihatdan o'rganishga imkon beradi. Dinshunoslik ta'limi an'anaviy va zamonaviy metodlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy metodlar, asosan, darsliklar, ma'ruzalar va seminarlar orqali amalga oshiriladi. Talabalar darslarda o'qituvchilardan ma'lumot olishadi, muhokamalar o'tkazishadi va o'z fikrlarini ifoda etishadi. Bu jarayon talabalar uchun nazariy bilimlarni olish imkonini beradi. Biroq, an'anaviy metodlar ko'pincha talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi, bu esa amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin.

Zamonaviy metodlar esa interaktiv va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, talabalar dinshunoslik sohasida tadqiqotlar olib borishlari, turli xil diniy tadbirlar va marosimlarda ishtirok etishlari, shuningdek, dinlararo muloqotda faol ishtirok etishlari mumkin. Bu metodlar talabalarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashga yordam beradi va ularning diniy bilimlarni yanada chuqurroq tushunishlariga imkon yaratadi. Dinshunoslik tadqiqot metodlari esa bu sohada ilmiy izlanishlar olib borish uchun zarur bo'lgan usullarni o'z ichiga oladi.

Dinshunoslikda tadqiqot metodlari empirik va nazariy tadqiqotlarga bo'linadi. Nazariy tadqiqotlar esa diniy falsafa, teologiya va dinshunoslikning boshqa aspektlarini o'rganishga qaratilgan. Bu metodlar orqali tadqiqotchilar diniy matnlarni tahlil qilish, diniy g'oyalarni o'rganish va dinlarning tarixiy rivojlanishini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Nazariy tadqiqotlar ko'pincha ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va monografiyalar shaklida namoyon bo'ladi. Dinshunoslikda ta'lim va tadqiqot metodlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim jarayoni tadqiqot metodlarini o'z ichiga olishi va talabalarni amaliy tadqiqotlar olib borishga tayyorlashi kerak. Shuningdek, tadqiqotlar natijalari ta'lim jarayonida qo'llanilishi va yangi metodlarni ishlab chiqishga yordam berishi lozim. Bu jarayonlar dinshunoslik sohasining rivojlanishiga xizmat qiladi va diniy bilimlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Dinshunoslik ta'limi va tadqiqot metodlari, shuningdek, dinlararo muloqot va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Dinshunoslik sohasida olingan bilimlar, turli dinlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishga, diniy tolerantlikni oshirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Dinshunoslik ta'limi, shuningdek, yosh avlodni diniy an'analar va qadriyatlar bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, dinshunoslik ta'limi va tadqiqot metodlari bu sohaning rivojlanishi va chuqur tushunilishini ta'minlaydi. Dinshunoslik ta'limi talabalarga diniy bilimlarni berish, diniy an'analarni tushunish va dinlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini anglash imkonini beradi. Tadqiqot metodlari esa dinshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish uchun zarur bo'lgan usullarni taqdim etadi. Ushbu metodlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, dinshunoslik sohasining rivojlanishiga xizmat qiladi va aholi orasida diniy bilimlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Dinshunoslik, shuningdek, diniy tolerantlikni oshirish, dinlararo muloqotni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dinshunoslik ta'limi va tadqiqot metodlari orqali olingan bilimlar, shuningdek, global muammolarni hal qilishda ham o'z o'rnini topadi. Dinshunoslik sohasida olingan

bilimlar insoniyatning diniy va madaniy merosini saqlash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Abduqodirov, A. (2020). "Dinshunoslik asoslari". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Murodov, S. (2019). "Din va ijtimoiy hayot". Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashri.
3. Karimov, R. (2021). "Dinshunoslik tadqiqot metodlari". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
4. Tashkent, D. (2022). "Diniy antropologiya va uning metodlari". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
5. Xalilov, M. (2023). "Dinlararo muloqot: nazariy va amaliy jihatlari". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
6. Nurmurodov, A. (2021). "Diniy bilimlar va ta'lim metodlari". Andijon: Andijon Davlat Universiteti.
7. Qodirov, F. (2022). "Dinshunoslikda zamonaviy yondashuvlar". Nukus: Qoraqalpog'iston Davlat Universiteti.

DUNYOQARASHNING MOHIYATI, TUZILISHI VA ASOSIY FUNKSIYALARI

I. N. O'taganova
K. A. Klichdurdiyeva
B. O. Niyozmatova
CHDPU:1- bosqich talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson tafakkurining markaziy tushunchalaridan biri bo‘lgan “dunyoqarash” fenomeni tahlil qilinadi. Uning mohiyati, tuzilishi, turlari va funksiyalari haqida chuqur fikr yuritilib, shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, dunyoqarashning shakllanish omillari va uning mafkuraviy-axloqiy ahamiyati haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so'zlar:Dunyoqarash, inson tafakkuri, e’tiqod, bilish jarayoni, qadriyatlar, maqsad, ideallar, emotsiyalar, falsafa, ilmiy dunyoqarash, diniy dunyoqarash, hayotiy qarashlar, axloqiy funksiyalar, baholash, yo‘naltirish, integratsiya, jamiyat, shaxs, falsafiy tahlil, madaniyat, tarix, mafkura.

KIRISH

Dunyoqarash har bir insonning hayotda tutgan yo‘li, fikrlash tarzi va qarorlar qabul qilish jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. U jamiyatning madaniyati, tarixi, diniy e’tiqodlari va ilm-fan taraqqiyotining aksidir. Shaxsning dunyoni anglash darajasi, hayotiy pozitsiyasi va maqsadlarining asosida aynan dunyoqarash yotadi (Abdullaev E., Falsafa asoslari, 2018).

DUNYOQARASHNING MOHIYATI

Dunyoqarash – bu insonning atrof-muhit, jamiyat va o‘z hayotiga nisbatan shakllangan umumiy nazariy va amaliy qarashlar tizimidir. U ilmiy bilimlar, e’tiqod, qadriyatlar, tajriba va emotsiyalarning sintezidan iborat bo‘lib, shaxsning hayotdagi pozitsiyasini aniqlaydi (Karimov A., Shaxs va dunyoqarash, 2015).

Tarix davomida dunyoqarash doimiy rivojlanib, jamiyatlar va madaniyatlar taraqqiyotiga mos ravishda yangilanib kelgan. Masalan, antik davr falsafasida dunyoqarash tabiat hodisalariga e’tibor bergan bo‘lsa, o‘rta asrlarda diniy yondashuvlar ustunlik qilgan. Uyg‘onish davrida esa inson markazga chiqdi – bu esa dunyoqarashda inqilobiy burilish bo‘ldi (G‘afurov S., Zamonaviy falsafa masalalari, 2020).

2. DUNYOQARASHNING TUZILISHI

Dunyoqarashning tuzilmasi bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

2.1. Bilimlar

Ilmiy, empirik va kundalik bilimlar dunyoqarashni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ular orqali inson dunyoni anglaydi, uni tushunishga harakat qiladi (Abdullaev E., 2018).

2.2. E'tiqod

E'tiqod – bu bilimdan farqli o'laroq, ko'proq ichki ruhiy ishonch va hissiy holat bilan bog'liq. U diniy, mafkuraviy yoki shaxsiy qadriyatlar asosida shakllanadi (Nasriddinov B., E'tiqod va tafakkur uyg'unligi, 2017).

2.3. Qadriyatlar

Qadriyatlar – bu inson uchun muhim bo'lgan tushunchalar: erkinlik, tinchlik, mehnat, adolat, halollik. Bu qadriyatlar jamiyat madaniyati va an'analari bilan chambarchas bog'liq (G'afurov S., 2020).

2.4. Maqsad va ideallar

Maqsad – bu inson harakati yo'nalgan natija, ideal esa mukammallik mezonidir. Shaxs o'z ideallariga qarab harakat qiladi, bu esa uning dunyoqarashida aks etadi (Karimov A., 2015).

2.5. Emotsiyalar

Hissiyotlar ham dunyoqarashga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Inson faqat aqliy emas, hissiy ong asosida ham qarorlar qabul qiladi (Nasriddinov B., 2017).

3. DUNYOQARASHNING ASOSIY FUNKSIYALARI

3.1. Kognitiv (bilish) funksiyasi

Insonning borliq haqidagi bilimlari va tushunchalari aynan dunyoqarash orqali tizimlashtiriladi (Abdullaev E., 2018).

3.2. Axloqiy funksiyasi

Qanday yashash kerak, nima yaxshi-yomon – bu savollar dunyoqarashning axloqiy funksiyasi orqali hal qilinadi (Karimov A., 2015).

3.3. Baholovchi funksiyasi

Hodisa va voqealarni baholashda dunyoqarash inson ongiga mezon bo'lib xizmat qiladi (G'afurov S., 2020).

3.4. Yo'naltiruvchi funksiyasi

Shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi yo'nalishlar dunyoqarash orqali shakllanadi. U insonni maqsad sari yetaklaydi (Harari Y.N., Sapiens, 2021).

3.5. Integratsion funksiyasi.

Turli bilimlar, e'tiqodlar va qadriyatlarni yagona butunlikda uyg'unlashtirish funksiyasini bajaradi (G'afurov S., 2020).

4. DUNYOQARASH TURLARI

Dunyoqarash tarixiy va madaniy omillarga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

Ilmiy dunyoqarash – dalillarga tayanadi, tajribaga asoslanadi. Bu tur zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan (Abdullaev E., 2018).

Diniy dunyoqarash – ilohiy tushunchalar va muqaddas matnlarga asoslanadi. U inson qalbi va ruhiyatini boshqarishda muhim o'rin tutadi (Nasriddinov B., 2017).

Oddiy hayotiy dunyoqarash – oddiy kishilarning kundalik tajribasi va urf-odatlariga asoslangan (Karimov A., 2015).

Falsafiy dunyoqarash – hayotning mazmuni, inson tabiatining mohiyati kabi chuqur savollarga javob berishga intiladi (G'afurov S., 2020).

XULOSA

Dunyoqarash shaxsning hayotga bo'lgan umumiy qarashlar tizimidir. U bilim, e'tiqod, qadriyat va hissiyotlar asosida shakllanadi. Har bir insonning dunyoqarashi uning harakatlari, qadriyatlari va jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Shu bois, har bir jamiyatda sog'lom, ilmiy asoslangan va axloqiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

REFERENCES

1. Abdullaev E. – Falsafa asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Karimov A. – Shaxs va dunyoqarash. Toshkent: Fan, 2015.
3. G'afurov S. – Zamonaviy falsafa masalalari. Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
4. Nasriddinov B. – E'tiqod va tafakkur uyg'unligi. Toshkent, 2017.
5. Harari Yuval Noah – Sapiens: Insoniyat tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

TARBIYANING GLOBALIZATSIYASI

Xalmaxanova Asida Janbo'lat qizi
xolmaxanovaasida@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Turizm fakulteti, Xorijiy tillar va adabiyoti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada odob va axloq tushunchalarining ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri hamda turli falsafiy oqimlar, xususan, Suqrot va Konfutsiy ta'limotlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiyaning globallashuvi jarayoni, uning ilm-fan almashinuvi, texnologiyalar integratsiyasi va madaniy bag'rikenglikka ijobiy ta'siri yoritilgan. Shu bilan birga, globalizatsiyaning ta'lim tizimiga keltirishi mumkin bo'lgan tahdidlar, jumladan, milliy madaniyat va tillarning yo'qolishi, ta'limning tijoratlashuvi va intellektual migratsiya masalalari muhokama qilinadi. Maqolada ushbu muammolarga qarshi muvozanatli yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: odob, axloq, falsafa, Suqrot, Konfutsiy, globalizatsiya, ta'lim, madaniyat, intellektual migratsiya, innovatsiya.

Аннотация: В статье анализируется роль понятий этикета и морали в общественной жизни, их влияние на развитие общества, а также их применение к различным философским течениям, в частности, к учениям Сократа и Конфуция. В нем также подчеркивается процесс глобализации образования, его положительное влияние на обмен знаниями, интеграцию технологий и культурную толерантность. В то же время обсуждаются угрозы, которые глобализация может нести системе образования, включая утрату национальных культур и языков, коммерциализацию образования и интеллектуальную миграцию. В статье подчеркивается важность сбалансированного подхода к решению этих проблем.

Ключевые слова: этикет, мораль, философия, Сократ, Конфуций, глобализация, образование, культура, интеллектуальная миграция, инновации.

Abstract: This article analyzes the role of the concepts of etiquette and morality in social life, their impact on the development of society, and various philosophical movements, in particular, the teachings of Socrates and Confucius. It also discusses the process of globalization of education, its positive impact on the exchange of knowledge, integration of technologies, and cultural tolerance. At the same time, it discusses the threats that globalization may pose to the education system, including the loss of national cultures and languages, the commercialization

of education, and intellectual migration. The article emphasizes the importance of a balanced approach to these problems.

Keywords: etiquette, morality, philosophy, Socrates, Confucius, globalization, education, culture, intellectual migration, innovation.

Odob va axloq insoniyat tamaddunining ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning muvozanatli shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Falsafiy tafakkurda bu tushunchalar qadimdan o'rganilib, Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan chuqur tahlil etilgan. Jamiyatning ma'naviy kamoloti odob va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u insonning o'zini anglashidan tortib, jamiyatdagi muvozanatli munosabatlarni shakllantirishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Odob - shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar bilan munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi. Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va me'yorlari, shuningdek, maqsadga muvofikdik va go'zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharm-xayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik singarilar)ni o'z ichiga oladi. Insonning diniy e'tiqodi uning odobli bo'lib, kamol topishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Odob ta'lim-tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o'rganadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos

axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari ham bor. Bunday axloq meyorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Suqrot ta'limoticha, axloq masalalari falsafaning markazida turmog'i lozim. Jamiyat ravnaqi, tinch va osoyishtalikka, farovon hayot esa axloq-odob yuksak bo'lishiga bog'liq. Suqrot inson bilimining cheksizligi, haqiqatning nisbiyligi, olamning bepoyonligini teran anglagan. Uning "Kuch – bilimda", "Qancha ko'p bilsam, shuncha ko'p bilmasligimni bildim", "O'z-o'zingni angla" kabi fikrlari jahon xalqlarining hikmatli so'zlari xazinasidan joy olgan. Suqrot qarashlari insoniyatning ma'naviy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Suqrot Perikl xonadoni to'garagida (tabiatshunos Arxelay, faylasuf Anaksagor, sofizm ta'minoti asoschisi Protagor, aporiyalar muallifi, paradoksal fikrlovchi Zenon, me'mor Fidiy va boshqa faylasuflar ishtirok etadigan to'garak) "Jamiyat jaholatdan xalos bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy takomillik sari borishi, inson erkinlik ne'matidan oqilona foydalana olishi mumkinmi?" degan savolni o'rtaga tashlagan va umrining oxirigacha javob izlagan. Bu savolga esa hozirga qadar javob izlanadi.

Odob uchun misol keltiradigan bo'lsak, masalan: salomlashish odobi. Salomlashish – qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o`zaro insoniy munosabat , muomala va muloqotni salomdna boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog`liq bo`lgan o`z urf-odatlari bor. Hindlar qo`l kaftlarini birlashtirgancha peshonalariga tirab, afg`onlar yuzlarini yuzlariga suykagancha kift urushtirib salomlashishsa,inglizlar bosh kiyimini olib,yengil ta`zim qilisadi. Biz, o`zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko`rganimizda «assalomu alaykum»deya qo`l olishib ko`rishamiz. «Assalomu alaykum» iborasi arabcha «sizga tinchlik tilayman» degan ma`noni bildiradi. «Vaalaykum assalom» esa «sizga ham tinchlik tilayman» javob salomi sanaladi.

Axloqiy tafakkur taraqqiyotida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari muhim o'rin tutadi. Uning ta'limotining ta'siri nafaqat Xitoy, balki boshqa mamlakatlarda ham yaqqol sezilgan. 1988-yilda Xalqaro Nobel mukofotining Parijdagi yig'ilishi Murojaatnomasida insoniyat XXI asrda yashab qolishini istasa, 25 asr ilgari yashab ijod etgan Konfutsiyning donishmandligidan yaxshi xabardor bo'lmog'i darkor degan e'tirofdan ham buni anglash mumkin Konfutsiyning o'z nomi bilan ataluvchi ta'limoti tom ma'noda ijtimoiy-axloqiy, falsafiy g'oyalarga to'liq bo'lib, hikmatli amaliy xususiyati bilan ajralib turadi. "O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma" 1 shiori Konfutsiy K'oyalarining markazida turadi. Konfutsiyning o'z-o'zini anglash haqidagi "ramziy" fikrlari diqqatni jalb qiladi. Daraxt – odamlarga muhabbat, mehribonlik. Bu odamiylikning boshlanishi. Inson o'zining axloqiy burchini anglamay turib, o'zini anglay olmaydi. Inson o'zini o'zidan topadi. Temir haqiqat, adolat. Inson yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishi

lozim. Olov - udum, odatga sodiqlik. Masalan, ota-onaga hurmat ko'rsatish. Olov hammaga barobar issiqlik va yorug'lik taratadi. Suv - poklik, sog'lom fikr, donolik, oqillik, o'z xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, o'ziga chetdan qarash va baho bera olish. Yer -saxovat, saxiylik.

Tarbiya globallashuvi – bu ta'lim tizimining xalqaro miqyosda rivojlanishi, tajriba almashinuvi va dunyo miqyosida bilim olish imkoniyatining kengayishidir.

Uning birnechta foydali tomonlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat: Ilm-fan va tajriba almashinuvi – Turli davlatlarning ilg'or ta'lim uslublari, texnologiyalari va tajribalari o'zaro almashiladi, bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Xalqaro imkoniyatlar – Talabalar va o'qituvchilar chet el universitetlarida ta'lim olish va ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning bilim va ko'nikmalarini boyitadi. Til o'rganish imkoniyati – Globallashuv natijasida ko'p tilli ta'lim tizimi kengayadi, talabalar chet tillarini o'rganib, xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishadi. Texnologiyalarning joriy etilishi – Raqamli ta'lim vositalari, onlayn kurslar va masofaviy ta'lim rivojlanib, bilim olish imkoniyatlari kengayadi. Madaniy tushuncha va bag'rikenglik – Turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish orqali talabalar dunyoqarashlarini kengaytiradi va boshqalarni tushunish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.Mehnat bozorida ustunlik – Global ta'lim olgan mutaxassislar xalqaro mehnat bozorida talabgir bo'lib, ko'proq ish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Uning ba'zi zararli tomonlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Mahalliy madaniyat va til yo'qolishi – Globalizatsiya tufayli xalqaro ta'lim dasturlari kengayib, ingliz tili va g'arbiy ta'lim tizimlari ustunlik qilmoqda. Bu esa milliy ta'lim tizimlarining ahamiyatini pasaytirishi va milliy tillarning ta'limdagi rolini kamaytirishi mumkin. Yagona standartlar va xilma-xillikning yo'qolishi – Global ta'lim tizimlari bir xil model asosida ishlashi natijasida turli mamlakatlarning o'ziga xos ta'lim yondashuvlari yo'qolishi mumkin. Bu esa innovatsion va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini cheklashi ehtimoli bor. Ta'limning tijoratlashuvi – Xalqaro universitetlar va xususiy ta'lim muassasalari ta'limni biznesga aylantirib, uni faqat moliyaviy imkoniyatga ega bo'lganlar uchun ochiq qilishlari mumkin. Bu esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Kuchli mamlakatlarning ta'siri ortishi – Katta iqtisodiy va siyosiy qudratga ega davlatlarning ta'lim standartlari global miqyosda hukmron bo'lishi mumkin. Natijada, boshqa mamlakatlar o'z ta'lim tizimini o'zgartirishga majbur bo'lib, milliy manfaatlardan chetlashish xavfi tug'iladi. Kadrlar "miyasi oqimi" muammosi – Globalizatsiya tufayli iste'dodli talabalar va mutaxassislar rivojlangan davlatlarga ko'chib ketishi mumkin, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarning intellektual salohiyatini pasaytiradi. Ta'lim tizimining standartlashtirilishi – Globalizatsiya ko'plab davlatlarni xalqaro test tizimlariga (PISA, TOEFL, IELTS) moslashishga majbur qiladi. Bunday testlar esa har bir

mamlakatning ta'lim an'analarini inobatga olmasligi mumkin. Axborotga qaramlik va o'z fikrini shakllantirish qiyinligi – Ochiq axborot makonida ko'p hollarda G'arb manbalari ustunlik qiladi, bu esa talabalarni bir tomonlama qarash shakllantirishga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, tarbiya globalizatsiyasining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning milliy ta'lim tizimiga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun muvozanatli yondashuv ham zarur bo'ladi.

REFERENCES

1. B.M. Ochilova "Axloq falsafasi" 2019. (12-13).
2. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent. 2000. Birinchi jild.
3. Tafakkur manzili. 2022-May. (1).

FALSAFA MILLATLARARO VA DINLARARO TOLERANTLIK.

Abujakinova O'g'iljon Risqali qizi
Abdumajidova Komila Abrorbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va muhandistlik grafikasi yo'nalishi 1-bosqich talabalari

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada falsafa haqida tushuncha va millatlararo va dinlararo tolerantlik haqida tushunchalar keltirib o'tilgan. Falsafa o'zi nima? kabi turli savollarga javoblar ham keltirilgan. Yurtimizdagi bag'rikenglik sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar haqida ma'lumotlar bayon qilingan. Konistitutsiyamizda boshqa din vakillariga bolgan e'tibor haqida ham yoritilgan.

Kalit so'z: Falsafa, millatlararo va dinlararo bag'rikenglik, tolerantlik.

Falsafa va insoniyat taraqqiyoti birgalikda teng rivojlanib kelgan va turli yo'nalishlarda takomillashib, o'zgarib kelmoqda. Falsafa so'zi yunonchadan "philosophia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "philo" – sevgi, "sophia" – donishmandlik, ya'ni donishmandlikni sevuvchi degan ma'noni anglatadi. Falsafa milloddan avvalgi VII-VI asrlarda qadimgi Hindiston, Yunoniston va Xitoyda shakillangan deb ham hisoblanadi. Falsafaning ilk davrlarda paydo bo'lishi:
Qadimgi Yunon falsafasida - loniyalik faylasuflari Anaksimandr, Fales va Anaksimen borliq va tabiat haqida milloddan avval VII-VI asrlar davomida o'zaro mulohazalar yuritganlar.

Hind falsafasi - Vedalar va Upanishadlar asosida shakillangan bo'lib, millodan avalgi IX-VI asrlarda turli maktablar Vedanta, Yoga, Sankhya rivojlangan.

Xitoy falsafasi – axloq, tabiat qonunlari va davlat boshqaruvi haqida millodan avvalgi VI-V asrlarda Xitoy faylasuflari Lao Tzi, Mo Tzi va Konfutsiy fikr yuritganlar.

Endi esa falsafaning asosiy yo'nalishlariga to'htalib o'tsak. Assosan falsafa 8 ta yo'nalishga bo'linadi;

1. Ontologiya- borliq va haqiqat mohiyatini o'rganadi.
2. Tarixi Shariq va G'arb falsfasi
3. Gnoseologiya – bilish falsafsi
4. Inson
5. Jamiyat – insonlar orasidagi munosabatlar yig'indisi
6. Mantiq – insonni fikirlashi va tafakur qilishi
7. Etika – insonni ichgi go'zaligi va ahloqi
8. Estetika – insonni tashqi go'zalligi shularga bo'linadi.

Millatlararo va dinlararo tolerantlik o'zi nima? – bu turli millat va din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, tinch-totuv yashash,bir-birini tushinish va hamkorlikda faoliyat yuritish tamoillariga asoslangan munosabatdir.

Avvalo tolerantlik atamasiga ta'rif berib o'tsak – tolerantlik so'zi lotincha (tolerantia) so'zidan olingan bo'lib, sabirtoqat ma'nosini bildiradi. Tolerantlik atamasini nazariy va amaliy qo'llashda 1995-yilgi "Tolerantlik tamoillari Deklaratsiyasi" da berilgan ta'rifga tayanilmoqda.

Mazkur hujjatda bunday deyilgan:

Bag'rikenglik- bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

2000-yilning sentabrida BMTning Ming yillik sammiti bo'lib o'tgan. Unda to'plangan dunyodagi ko'gina mamlakatlar rahbarlari insoniyat oldida turgan va sivilizatsiyani saqlab qolish maqsadida kechiktirmay hal etishi lozim bo'lgan asosiy muammolarni belgilab o'tganlar [4, 6-b.].

Millatlararo tolerantlik: ma'lumki O'zbekistonda ko'plab millat va ellatlar istiqomat qilishadi, bulardan qozoq, rus, qirg'iz, tojik va qoraqalpoqdir. Bu millatlar orasida:

- o'zaro hurmatni saqlash,
- kamsitmaslik
- madaniy xilma-xillikni qadirlash
- birgalikda tinch hayot kechirishni anglatadi.

Dinlararo tolerandlik – bu esa turli din vakillarini - musmonlar, nasroniylar, buddistlar, yahudiylar va boshqa din vakllari tashkil etadi. Bu:

- diniy erkinlikni hurmat qilish,
- e'tiqod asosida kamsitmaslik
- bir-birining diniga nisbatan bag'ri keng bo'lish demakdir.

Bag'rikenglik hodisasining noyob mohiyati uning fanlararo xususiyatidan iborat bo'lib, u shuning uchun ham aksariyat gumanitar fanlar tomonidan o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonunlarda yozilishicha din erkinligi va boshqa din vakillarining huquqlari kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga binoan, "Har kim vijdon erkinligiga ega. Har kim xohlaga diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi." deb ta'kidlab o'tilgan va bag'rikenglik haqida Konstitutsiyamizning 18-moddasida

shunday deyilgan: "Barcha fuqorolar jinsidan, irqidan, millatidan, tilida, diniy e'tiqodidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, e'tiqodidan, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar." Bulardan tashqari, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi Qonun (1998-yil, yangi tahrirdagi versiyasi 2021-yilda qabul qilingan) ham bor. Ushbu qonunlar quyidagich belgilangan:

- Har kim diniy e'tiqodiga ko'ra amal qilish yoki qilmaslik huquqiga ega.
- Diniy tashkilotlarni erkin tuzish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.
- Diniy marosimlarni amalga oshirish tartibi.
- Diniy adabiyotlarni tarqatish qoidalari.
- Diniy asosda kamsitish yoki majburlash taqiqlangan.

REFERENCES

1. A.Tilalov, A. Abdujalilov. "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik" darslik, Toshkent: "Go To Print" 2020.
2. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.

ISLOMDA OILA MUQADDASLIGI VA UNING AHAMIYATI

Sa'dullayeva Zulxiya
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti
24/5-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" asari asosida Islom dinida oilaning muqaddasligi, uning jamiyatdagi tutgan o'rni va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Oilaning islomiy tamoyillar asosida barpo etilishi, o'zaro hurmat, muhabbat, sadoqat va sabr kabi qadriyatlar orqali jamiyat barqarorligiga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi.

Аннотация: В этой статье, основанной на произведении «Счастливая семья» шейха Мухаммада Садыка Мухаммада Юсуфа, обсуждается святость семьи в исламе, ее роль в обществе и ее социальное значение. В статье анализируется, как создание семьи, основанной на исламских принципах, посредством таких ценностей, как взаимное уважение, любовь, преданность и терпение, влияет на стабильность общества.

Abstract: This article, based on the work of Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf "The Happy Family", discusses the sanctity of the family in Islam, its role in society and its social significance. It analyzes how the establishment of the family based on Islamic principles, through values such as mutual respect, love, loyalty and patience, affects the stability of society.

Kalit so'zlar: Islom, oila, baxtli oila, Shayx Muhammad Sodiq, jamiyat, tarbiya, Qur'on, Sunnat, axloq

Ключевые слова: Ислам, семья, счастливая семья, шейх Мухаммад Садык, общество, воспитание, Коран, Сунна, мораль

Keywords: Islam, family, happy family, Sheikh Muhammad Sadiq, society, upbringing, Quran, Sunnah, morality

KIRISH. Oila – insoniyat jamiyatining eng muhim hujayrasi, hayotning tayanchi va taraqqiyotning boshlanish nuqtasidir. Har bir sog'lom jamiyat, avvalo, sog'lom oiladan boshlanadi. Oila nafaqat shaxsiy hayotning bir bo'lagi, balki insoniy qadriyatlarning namoyon bo'ladigan, avlodlar bog'lanadigan, ijtimoiy va ma'naviy tarbiyaning amalga oshadigan muhitidir. Islom dini oilani muqaddas deb e'tirof etadi va uning poydevorini Qur'on va Sunnat asosida mustahkamlashni buyuradi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" asari ushbu muhim ijtimoiy tushunchani chuqur tahlil qilib, musulmonlar uchun amaliy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda. Asarda oila qurishdan boshlab, uni asrab-avaylash, o'zaro hurmat, sadoqat, farzand tarbiyasi, moliyaviy mas'uliyat va ruhiy yaqinlik kabi ko'plab jihatlar chuqur yoritilgan. Aynan shu jihatlar orqali oila nafaqat dunyoviy hayotning markaziga, balki Allohning roziligiga eltuvchi yo'lga aylanadi. Shu bois, oilaning muqaddasligini anglash va unga jiddiy yondashish har bir musulmonning burchidir.

Islomda oila qurish – ibodat darajasiga ko'tarilgan muqaddas amal hisoblanadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislari va Qur'oni karim oyatlarida oila haqida ko'plab ijobiy ko'rsatmalar mavjud. "U zot (s.a.v) aytganlar: 'Nikoh mening sunnatimdir. Kim mening sunnatimdan yuz o'girsa, u mendan emas'" (Imom Buxoriy). Dinimizda oila qurishga erkak va ayol birdek targ'ib qilingan. Oila qurmasdan, tarkidunyochilik yo'lini tutish qoralanib, buning aksi bo'lgan nikoh ibodat darajasiga ko'tarilgan. Payg'ambarimiz (alayhissalom) nikohlanish faqat o'zlarining sunnati emas, balki o'tgan barcha payg'ambarlarning ham sunnati ekanini aytganlar. Payg'ambarimizdan (alayhissalom) bu borada rivoyat qilingan hadislarning birida: «Ey yigitlar, sizlardan qay biringiz oila qurishga qurbi yetsa, uylansin. Uylanish nomahramlarga ko'z tashlashdan, zinokorlikdan asraydi. Qurbi yetmagan kishi ro'za tutsin, toki unga to'siq bo'lsin», deyilgan (Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy). Darhaqiqat, Alloh insonni, u erkak yoki ayol bo'lsin, nafsiy rag'bat bilan yaratgan. Ayni paytda ushbu rag'batni halol-pok yo'l bilan qondirishni buyurib, nikohni joriy qilgan. Albatta, har qanday inson bolog'at yoshiga yetgach, undagi yashirin nafsoniy rag'bat avj ola boshlaydi. Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida yozilishicha, oila va nikoh masalasida ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hukmlardan biri ayolning nikohda qanday haq-huquqlari borligi haqidagi bilimga ega bo'lishidir: «Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo'lishi shart. Chunki, qiz bola faqat ilm bo'lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo'lolmaydi» [3:675]. "Hidoya"da oila va nikohga oid hukmlarning ijtimoiy ahamiyatga ega tomoni erkak va ayolning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va aqliy jihatdan bir-biriga teng bo'lishiga e'tibor qaratilganidir: «Nikohda tenglik e'tiborga olinadi. Payg'ambarimiz (S.A.V.) aytganlarki: **"Ogoh bo'lingki, ayollarni faqat o'zlariga teng bo'lgan kishigagina bersinlar"** (3:680).

Shayx Muhammad Sodiq "Baxtiyor oila" asarida oilani Alloh tomonidan insoniyatga berilgan eng buyuk ne'matlardan biri sifatida ta'riflaydi. Oila orqali inson iymon, mehr, sabr, fidoyilik kabi fazilatlarni amalda namoyon etadi. Islomiy qadriyatlarga asoslangan oila – barqaror jamiyat garovidir. Asarda oilada o'zaro hurmat, sadoqat, vijdon, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlar yuksak baholanadi. Er va

xotin o'rtasidagi muomala, murosa va mas'uliyat taqsimoti jamiyatda ijtimoiy uyg'unlikni shakllantiradi. Islom dini farzandni imonli, axloqli, bilimli va jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalashni buyuradi. Asarda ota-onaning farzand oldidagi burchlari, ularning diniy-ma'naviy tarbiyasiga e'tibor berilishi zarurati keng yoritilgan.

Farzand tarbiyasi oilaning barqarorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jamiyat kelajagiga bevosita ta'sir qiladi. Farzand misoli bir nihol bo'lib, nihol parvarishga muhtoj bo'lgani kabi bola ham tarbiyaga muhtojdir**. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak**. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Shuning uchun ham ota-ona farzandlariga doimo yaxshi va go'zal o'rnak bo'lishlari lozim. Barcha yaxshi sifatlarni namoyish qilib, barcha yomon sifatlardan uzoqda bo'lishlari kerak. Ota-ona bolalariga shaxsiy namuna ko'rsatishlari bilan birga, ularga odoblarni qunt bilan, zerikmasdan o'rgatib borishlari zarur. Chunki ota-onaning bolalarga beradigan narsalari ichida eng qimmatlisi va zaruriysi odobdir.

Xulosa:

Islom dini oilani nafaqat ijtimoiy, balki ma'naviy jihatdan ham muqaddas deb biladi. "Baxtiyor oila" asari musulmonlar uchun oila masalasida puxta nazariy va amaliy bilim manbaidir. Har bir musulmon o'z oilasini Qur'on va Sunnat asosida tashkil qilsa, jamiyatda tinchlik, baraka va adolat hukm suradi. Oila bu – ibodat, mehr, sadoqat va fidoyilik maktabidir. Oila faqat ikki inson o'rtasidagi nikoh rishtasi emas — u ishonch, sabr, muhabbat, tarbiya, baraka, iymon, hayot sinovlari va oxirat tayyorgarligining maktabidir. Islomda oila qurish – ibodat, uni asrash – farz, oilani mustahkamlash – savobli amal sanaladi. Har bir musulmon oila bu yuksak qadriyatlarni anglab, o'z hayotida qo'llasa, nafaqat o'z baxtini, balki jamiyat tinchligini va ummat salomatligini ta'minlaydi.Zamon o'zgarishi bilan oila hayotidagi qiyinchiliklar, sinovlar va tahdidlar ko'paymoqda. Shunday vaqtda islomiy tamoyillarga tayangan holda, Shayx Muhammad Sodiq kabi allomalarning asarlari orqali muqaddas oilani saqlash, mustahkamlash har doimgidek dolzarbdir. Demak, har bir musulmon oila Islomda belgilangan tartib-qoidalarni chuqur o'rganib, ular asosida yashasa, baxtli, barakali va Alloh roziligiga sazovor hayot kechiradi

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Baxtiyor oila". – Toshkent: Hilol nashriyoti, 2018.-B.518.

3.Abdulla Domla. Oila va jamiyatda islomiy qadriyatlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
4.Said Ahmad. Oilaviy tarbiya va axloqiy mas'uliyat. – Toshkent: Adolat, 2014.

MILLATLARARO VA DINLARARO TOLERANTLIKNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

I. B. Mamadjonov
M. Z. Tilovberdiyeva
CHDPU, 1-bosqich talabalari

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada falsafa va din nuqtai nazaridan millatlararo va dinlararo tolerantlik tushunchasi tahlil qilinadi. Falsafa tolerantlikni inson tafakkuri, axloqiy qadriyatlari va erkinligi bilan bog'liq holda o'rganadi, din esa bag'rikenglikni ilohiy ahkomlar asosida asoslaydi. Maqolada turli falsafiy yondashuvlar, dinlarda tolerantlik tamoyillari hamda millatlararo va dinlararo bag'rikenglikning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tolerantlik, falsafa, din, millatlararo munosabatlar, dinlararo muloqot, bag'rikenglik, axloqiy qadriyatlar, madaniyatlararo hamkorlik, diniy erkinlik, barqaror jamiyat.

Zamonaviy dunyoda millatlararo va dinlararo tolerantlik tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har bir jamiyatda turli millatlar va din vakillarining o'zaro hurmat asosida yashashi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Ushbu maqolada falsafa va din nuqtai nazaridan tolerantlik tushunchasi, uning ahamiyati va amaliy tatbiqlari tahlil qilinadi.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируется концепция межнациональной и межрелигиозной терпимости с точки зрения философии и религии. Философия исследует терпимость в связи с человеческим мышлением, моральными ценностями и свободой, в то время как религия обосновывает терпимость на основе божественных предписаний. В статье раскрываются различные философские подходы, принципы терпимости в религиях, а также роль межнациональной и межрелигиозной терпимости в стабильности и развитии общества. Кроме того, анализируется государственная политика Узбекистана, направленная на обеспечение межнационального согласия и религиозной терпимости.

Ключевые слова:Терпимость, философия, религия, межнациональные отношения, межрелигиозный диалог, терпимость, моральные ценности, культурное сотрудничество, религиозная свобода, стабильное общество.

ANNOTATION:

This article analyzes the concept of interethnic and interfaith tolerance from the perspectives of philosophy and religion. Philosophy explores tolerance in relation to human thinking, moral values, and freedom, while religion justifies tolerance based on divine commandments. The article discusses various philosophical approaches, the principles of tolerance in religions, and the role of interethnic and interfaith tolerance in the stability and development of society. Additionally, the state policy of Uzbekistan aimed at ensuring interethnic harmony and religious tolerance is also analyzed.

Keywords: Tolerance, philosophy, religion, interethnic relations, interfaith dialogue, tolerance, moral values, cultural cooperation, religious freedom, stable society.

Falsafiy yondashuv. Falsafa tolerantlikni inson tafakkuri, axloqiy qadriyatlari va erkinligi bilan bog'liq holda o'rganadi. Aristotel, Kant, Mill kabi buyuk faylasuflar inson huquqlari, erkin fikrlash va o'zaro hurmat tamoyillariga urg'u berib, tolerantlikning zaruriyatini ta'kidlaganlar. Falsafada tolerantlik insonlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish va nizolarni oldini olish vositasi sifatida qaraladi.

Shuningdek, zamonaviy falsafada bag'rikenglik turli nuqtai nazar va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligi tamoyili sifatida tushuniladi.Postmodernizm va multikulturalizm ta'limotlari tolerantlikning jamiyatdagi o'rnini kengroq tushuntiradi. Masalan, postmodernist faylasuflar Lyotard va Derrida turli madaniy tafovutlarni tan olish va hurmat qilish zarurligini ta'kidlaydi. Madaniyatlararo hamkorlik va erkin fikr almashinuvi tolerantlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

Diniy yondashuv. Ko'pgina dinlar tolerantlikni muhim axloqiy qadriyat sifatida ko'rsatadi. Islom dini bag'rikenglik va tinch-totuv yashashni targ'ib qiladi. Qur'onda: "Dinda majburlash yo'q" (Baqara, 256) degan oyat mavjud bo'lib, bu har bir insonning e'tiqod erkinligini hurmat qilishni bildiradi. Xristianlikda ham Iso Masih insonlarni mehr-oqibat, kechirimlilik va tinchlikka chorlagan. Buddizm va hinduizmda esa bag'rikenglik va insonparvarlik muhim axloqiy tamoyillar qatoriga kiradi.

Millatlararo va dinlararo tolerantlikning ahamiyati. Globalizatsiya jarayonida millatlar va dinlar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turli madaniyatlar va e'tiqod vakillarining birgalikda tinch yashashi nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning ham omili hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada milliy siyosat yuritilib, turli millat va din vakillarining o'z an'ana va qadriyatlarini saqlab qolishiga sharoit yaratilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tolerantlikni targ'ib qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. 16-noyabr — Xalqaro Bag'rikenglik kuni sifatida nishonlanib, turli

davlatlarda tolerantlik bo'yicha tadbirlar o'tkaziladi. Shuningdek, madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantirish va diniy erkinlikni ta'minlash xalqaro siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda tolerantlik siyosati. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritadi. Davlat diniy erkinlikni ta'minlab, turli e'tiqod vakillarining huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik qo'mitasi hamda Respublika baynalmilal madaniyat markazi bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlarida millatlararo munosabatlar va tolerantlik bo'yicha maxsus kurslar o'qitilib, yosh avlod ongida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasida e'tiqod erkinligi kafolatlangan bo'lib, har bir fuqaro o'z diniy qarashlariga ko'ra erkin yashash huquqiga ega. Davlat turli din vakillarining o'z an'ana va marosimlarini bajarishlariga sharoit yaratadi, bu esa millatlararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Falsafa va din tolerantlikni insoniyatning umumiy qadriyatlaridan biri sifatida ko'rib chiqadi. Bag'rikenglik va hurmat tamoyillariga rioya qilish jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga yordam beradi. Bugungi kunda bu tamoyillarni kuchaytirish va mustahkamlash global miqyosda muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, diniy va milliy bag'rikenglikni rivojlantirish nafaqat ichki barqarorlik, balki xalqaro maydonda ham ishonchli hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Madaniyatlararo hamkorlik va diniy erkinlikni mustahkamlash orqali jamiyat yanada uyg'un va barqaror bo'lishi mumkin.

REFERENCES

1. S.Otamurotov. 2008. Toshkent. Globallashuv va millat. Yangi asr avlodi nashriyoti
2. X.S.Jumaniyozov. 2023. Toshkent. Globallashuv asoslari. Lesson Press nashriyoti.
3. J.M.Termiziy. 2016. Toshkent .Globallashuv va milliy ma'naviyat. Ma'naviyat nashriyot
4. .Макбрайен Д. От секуляризма к исламу: религия в современном Кыргызстане. - Санкт-Петербург: Библиороссика; Бостон: Academic Studies Press, 2023. - 341 с

FALSAFA VA DIN UYG'UNLIGIDA TOLERANTLIK VA BAG'RIKENGLIK

Reimboyeva Munisa Sharafatdin qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada millatlararo va dinlararo tolerantlik tushunchasining falsafiy va diniy jihatlari tahlil qilinadi. Tolerantlik jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa globallashuv davrida bu mavzuning dolzarbligi ortib bormoqda. Maqolada tolerantlikning falsafiy asoslari, turli diniy an'analarda unga berilgan baho va zamonaviy dunyoda ushbu hodisaning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, falsafa, din, millatlararo munosabatlar, globallashuv, madaniy muloqot, bag'rikenglik,

Anotation.This article analyzes the philosophical and religious aspects of interethnic and interfaith tolerance. Tolerance plays a crucial role in societal development, especially in the era of globalization. The article examines the philosophical foundations of tolerance, its interpretation in various religious traditions, and its importance in the modern world.

Key words: tolerance, philosophy, religion, interethnic relations, globalization, cultural dialogue, open-mindedness

Аннотация.В данной статье анализируются философские и религиозные аспекты межнациональной и межрелигиозной толерантности. Толерантность играет важную роль в развитии общества, особенно в эпоху глобализации. В статье рассматриваются философские основы толерантности, её оценка в различных религиозных традициях и значение данного феномена в современном мире.

Ключевые слова: толерантность, философия, религия, межнациональные отношения, глобализация, культурный диалог, открытость

Bugungi kunda dunyoda turli din va millatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hamkorlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda falsafa va dinning roli beqiyosdir.

Tolerantlik – turli madaniyat, din va e'tiqod vakillarining bir-biriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini anglatadigan tushuncha. Tolerantlik tushunchasi insoniyat tarixida doimo muhim bo'lib kelgan. Uning asoslari qadimgi falsafiy ta'limotlarda ham o'z aksini topgan. Bugungi globallashgan dunyoda esa tolerantlik nafaqat jamiyat ichidagi barqarorlik, balki xalqaro munosabatlar va tinchlik uchun ham zaruriy omil sifatida ko'riladi.

Tolerantlikning kelib chiqish tarixi qadimgi sivilizatsiyalar, jumladan, Misr, Mesopotamiya va Hindiston madaniyatlarida ham kuzatiladi. Ushbu qadimgi jamiyatlarda turli din va e'tiqodlar o'rtasida hamkorlik va bag'rikenglik an'anasi mavjud bo'lgan.

Falsafiy nuqtayi nazardan tolerantlik inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Qadimgi yunon faylasuflari – Platon va Aristotel inson tafakkurining o'sishi uchun turli qarashlarning to'qnashuvi zaruriyatini ta'kidlaganlar Keyinchalik Immanuil Kant va Jon Styuart Mill erkin fikrlash va bag'rikenglik tamoyillarini o'z falsafiy qarashlarida ilgari surganlar.

Zamonaviy falsafa tolerantlikni demokratik jamiyatning asosi sifatida ko'radi. Dinlarda tolerantlik tushunchasi.Islom dinida tolerantlik va bag'rikenglik muhim qadriyatlar hisoblanadi. Qur'onda: "Dinda majburlash yo'q" (Baqara, 256) degan oyat bor bo'lib, bu dinning bag'rikenglik tamoyiliga asoslanganligini ko'rsatadi. Islom tarixida turli din vakillari o'rtasida tinch-totuv munosabatlar hukm surgan. Xristian cherkovlari bugungi kunda dinlararo muloqotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Budda falsafasi bag'rikenglik va zo'ravonlikka qarshi bo'lish g'oyalariga asoslanadi. Buddizmning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan "ahimsa" (zo'ravonlikdan tiyilish) barcha tirik mavjudotlarga hurmat va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Zamonaviy dunyoda tolerantlikning o'rni.Bugungi kunda tolerantlik xalqaro munosabatlar va ijtimoiy barqarorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.
Xalqaro tashkilotlar va tolerantlik. Turli konferensiyalar, forumlar va tadqiqotlar orqali tolerantlik tamoyillari keng targ'ib etilmoqda.

O'zbekistonda tolerantlik siyosati.O'zbekiston diniy bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlaydigan davlat sifatida tanilgan. Mamlakatda turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'zbekistonda masjidlar, cherkovlar va sinagogalar yonma-yon faoliyat yuritib, o'zaro hurmat tamoyillari asosida ishlamoqda.

Shuningdek, O'zbekiston hukumati yosh avlodni tolerantlik ruhida tarbiyalash maqsadida ta'lim tizimida bu mavzuga alohida e'tibor qaratmoqda. Diniy bag'rikenglik bo'yicha maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilgan.

XULOSA

Tolerantlik falsafa va din nuqtayi nazaridan jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosi hisoblanadi. U inson huquqlari, erkinlik va madaniy xilma-xillikni hurmat qilishni ta'minlaydi. Zamonaviy dunyoda millatlararo va dinlararo tolerantlikni mustahkamlash tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun muhim vositadir.

Kelajakda tolerantlik g'oyalarini yanada kengroq targ'ib qilish, yosh avlodga bag'rikenglik tamoyillarini singdirish ham global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

REFERENCES

1. Platon, Aristotel. The Collected Works of Plato and Aristotle. Oxford University Press.
2. Kant, I. (1785). Groundwork of the Metaphysics of Morals. Cambridge University Press.
3. Mill, J. S. (1859). On Liberty. Oxford University Press.
4. Popper, K. (1945). The Open Society and Its Enemies. Routledge.
5. Qur'on, Baqara surasi, 256-oyat.
6. Rikyor, P. (1992). Oneself as Another. University of Chicago Press.
7. YuNESKO (2021). Intercultural Dialogue and Tolerance. UNESCO Publishing.
8. Huntington, S. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992). Toshkent.

FALSAFA VA DIN: MILLATLARARO VA DINLARARO TOLERANTLIK

Toxir Ravshanbekovich Sunnatov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: tohirsunnatov761@gmail.com
Azamxonova Mohina Mansurxon qizi
Abdullayeva Shodiyona Imomboy qizi
Chirchiq davlat universiteti 1-kurs talabalari

ANNOTATSIYA

Falsafa va din insoniyat tarixida bag'rikenglik, tinchlik va o'zaro hurmatni shakllantirishda muhim o'rin tutgan. Ular inson ma'naviyatini yuksaltirish va jamiyatda totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir falsafiy oqim va diniy ta'limot axloqiy fazilatlarni shakllantirib, insonlarni hurmat va e'tiborga undaydi. Turli millat va din vakillari o'rtasidagi totuvlik mustahkam bo'lsa, jamiyat barqaror rivojlanadi va madaniyatlar bir-birini boyitadi. Globallashuv sharoitida bag'rikenglik va diniy erkinlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Falsafa tanqidiy fikrlash va ochiqlikni, din esa mehr-oqibat va sabr-toqatni targ'ib qiladi. Ushbu maqolada falsafa va dinning tolerantlikka ta'lim berishdagi o'rni, uning ahamiyati va jamiyatdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: falsafa, din, bag'rikenglik, tolerantlik, millatlararo munosabatlar, diniy erkinlik, tinchlik.

АННОТАЦИЯ

Философия и религия сыграли важную роль в формировании толерантности, мира и взаимного уважения в истории человечества. Они способствуют возвышению духовности человека и обеспечению гармонии в обществе. Каждое философское направление и религиозное учение формирует нравственные качества, побуждая людей к уважению и внимательному отношению друг к другу. Гармония между представителями различных народов и религий способствует стабильному развитию общества и взаимному обогащению культур. В условиях глобализации толерантность и религиозная свобода приобретают особую значимость. Философия учит критическому мышлению и открытости, а религия пропагандирует милосердие и терпение. В данной статье анализируются роль философии и религии в воспитании толерантности, их значение и влияние на общество.

Ключевые слова: философия, религия, толерантность, межнациональные отношения, религиозная свобода, мир.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida millatlararo va dinlararo tolerantlik jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Turli madaniyat va e'tiqod vakillarining bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, o'zaro tushunish va hamjihatlik muhitini yaratish jamiyat taraqqiyotoga xizmat qiladi.Falsafa inson tafakkurini shakllantirish orqali bag'rikenglik va adolat tamoyillarini ilgari suradi.

Din esa insonlarni ezgulikka, sabr-toqat, va mehr-oqibatga chorlaydi. O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, hozirgi kunda 130 dan ortiq millat va ellat, 16 diniy konfessiya vakillari yagona oila farzandlaridek yashab, mehnat qilib kelmoqdalar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda bag‘rikenglik insoniy fazilat, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Turli millat va din vakillarining bir-birini tushunishi, o‘zaro hurmat hamda hamkorlik asosida yashashi jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Falsafa va dinning bu boradagi ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. Falsafa insonni erkin va tanqidiy fikrlashga undasa, din ezgulik, sabr-toqat va mehr-oqibat tamoyillarini targ‘ib qiladi. Falsafa va din tolerantlik shakllanishida qanday rol o‘ynaydi? Falsafa inson tafakkurini rivojlantirish orqali bag‘rikenglik va adolat tamoyillarini ilgari suradi. Aristotel o‘zining “Nikomax axloqi” asarida insonning fazilatli bo‘lishi va jamiyatdagi uyg‘unlikka intilishi muhim ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Imom al-G‘azzoliy ham inson axloqining poklanishi jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda asosiy omil ekanligini qayd etgan. Din esa insoniyatni ezgulikka, sabr-toqat va mehr-oqibatga chorlaydi. Masalan, Qur’oni Karimda shunday deyiladi: “Sizlar o‘zaro mehribon va rahmdil bo‘lingiz”. Biz bu tamoyillarni turli dinlarda ham uchratamiz: nasroniylik va buddizm ham bag‘rikenglik va tinchlikni muhim qadriyat sifatida ilgari suradi.

Millatlararo tolerantlik madaniy xilma-xillikni tan olish va hurmat qilish orqali barqaror jamiyat qurishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi globallashuv davrida bu yanada dolzarb masalaga aylangan. Shuningdek, dunyoning ko‘plab davlatlarida turli millatlar va dinlar vakillari birgalikda yashab kelmoqda.

Millatlararo totuvlik jamiyat barqarorligi uchun juda muhimdir. S. Xantington o‘zining Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi kitobida madaniyatlararo hamkorlik va bag‘rikenglikni saqlab qolish zamonaviy dunyodagi asosiy masalalardan biri ekanligini qayd etgan.

Diniy tolerantlik – turli diniy konfessiyalarga mansub kishilarning hamjihatlikda yashashini anglatadi. Har bir din o‘z izdoshlariga tinchlik va mehr-muruvvatni targ‘ib qiladi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Bag‘rikenglik

tamoyillari deklaratsiyasi" diniy erkinlik va o'zaro hurmat har qanday jamiyatning muhim negizlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Bugungi dunyoda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash uchun davlat siyosati ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida: "Har kim o'z e'tiqodiga ko'ra dinga munosabatda bo'lish huquqiga ega" deb belgilangan. Bu tamoyil BMT tomonidan qabul qilingan "Diniy e'tiqod erkinligi deklaratsiyasi" bilan hamohangdir.

G'arb falsafasida J. Lokk, I. Kant va Volter tolerantlikni inson huquqlari va erkinliklarining asosi sifatida ilgari surgan bo'lsa, Sharq falsafasida bu g'oya Al-Farobiy, Imom al-Buxoriy va Jaloliddin Rumiy tomonidan targ'ib qilingan.

Al-Farobiy o'zining Fozil odamlar shahri asarida insonlarni bag'rikenglikka, tinchlikka va jamiyat barqarorligiga undagan. Unga ko'ra, fozil jamiyat insonlarning o'zaro hurmati va hamjihatligiga asoslanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida turli madaniyat va dinlar o'rtasida muloqotni mustahkamlash muhim masalaga aylanmoqda. Ko'plab xalqaro tashkilotlar bu borada tadqiqotlar olib bormoqda. K. Teylor "Ko'p madaniyatlilik siyosati" kitobida global dunyoda tolerantlikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Tolerantlikning rivojlanishi nafaqat ijtimoiy totuvlikni mustahkamlaydi, balki turli madaniyatlarning o'zaro boyishiga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Falsafa va din tolerantlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Falsafa insonni erkin fikrlashga undaydi, din esa mehr-oqibat va sabr-toqatni targ'ib qiladi. Jamiyatda tolerantlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi choralar muhim:

Ta'lim tizimida tolerantlik bo'yicha maxsus dasturlarni joriy etish;
Turli millat va din vakillari o'rtasida muloqotni kuchaytirish;
Diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan qonunchilikni rivojlantirish.

Ushbu tamoyillar amalga oshirilgan taqdirda, jamiyatda tinchlik va barqarorlik ta'minlanadi va turli madaniyatlarning uyg'unlikda yashashi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

REFERENCES

1. Aristotle (350 BC). Nicomachean Ethics. Cambridge University Press.
2. Al-Ghazali, I. (1100). Ihya Ulum al-Din. Dar Al-Kotob Al-Ilmiyah.
3. Al-Farabi (900). Fozil odamlar shahri. Toshkent: O'zbekiston.
4. Huntington, S. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster.
5. Mirziyoyev, S. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston.

6. UNESCO. (1995). Declaration of Principles on Tolerance. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
7. Voltaire, F. (1763). Treatise on Tolerance. Cambridge University Press.
8. Taylor, C. (1994). Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition. Princeton University Press.
9. Qur'on (49:10). The Holy Quran. King Fahd Complex.

FALSAFANING JAMIYAT IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI

Rajabova Gulnoza Xayrullo qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti Tojik tili va adabiyoti 1- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Axatov Lutfillo Karamatilloyevich**

ANNOTATSIYA:

Falsafa fanining jamiyatdagi roli juda muhim va keng qamrovli. U, nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va madaniy sohalarda ham jamiyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Falsafa jamiyatdagi turli jarayonlarni tushunishga yordam beradi, qarorlar qabul qilishda yo'l ko'rsatadi va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit sòzlar: Falsafa, faylasuf, tafakkur, nazariya, jamiyat, donishmandlik, borliq, uyg'onish, mamlakat, fan.

Jamiyat ijtimoiy hayotining muhim omili bu ilm-fan taraqqiyotiga aloqador. Shunday ekan, bu borada fanlararo integratsiyaning ham o'z o'rniga ega bo'lgan falarni tahlil qilish asosiy vazifa bo'ladi. Bu borada falsafa va uning o'z xossasi, vazifasi va strukturasi ham yetakchilik qiladi. Bunda falsafa òzi nima degan masalaga tóxtalib ótaylik. U insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardandir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak uning òzi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson umrinig mohiyati, borliq va yóqlik kabi kòplab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir. Falsafa fan sifatida borliqni ya'ni tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri tarqqiyotining eng umimiy muammolarini órganadi. Falsafa fanini òrganish jarayonida talabalar falsafiy atamalar bilan ishlash kònikmasini hosil qilishlari lozim. Shu nuqtayi nazardan avvalo, falsafa òzi nima? Degan masalaga tòxtalib òtaylik. Falsafa asoslari bayon qilingan aksariyat darsliklardan ushbu atama qadimgi yunon tilidagi «phileosophia» sòzidan olingani va « donishmandlikni sevish»(«filo»-sevaman, «sofiya» -donolik) degan ma'noni anglatishi ta'kidlanadi. Bu-ushbu sòzning, atamaning lug'aviy ma'nosi bòlib hisoblanadi. Asirlar davomida filosofiya sózining ma'no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o'rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo'lgan, bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o'zgarib borgan. Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayoni qanchalik kengaysa va chuqurlashsa, fuqarolarimiz falsafiy iqtidoriga bólgan talab shuncha oshib boradi. Bundan tashqari falsafa ilmining yana bir muhim jihati shundaki, u qanchalik òzlashtirilsa, òzlashtiruvchi òz oldiga yana yangi-yangi muammolarni qòyaveradi, qòyilgan har bir muammoning yechimi yangi bir muammoning debochasi

hisoblanadi. Bizning nazarimizda ustoz va talabalar shu narsaga diqqatlarini qaratishlari lozimki, mustaqillik bizga nafaqat siyosiy erkinlikni, balki, millatimizga millatdek, xalqimizga xalqdek yashash, mustaqil fikrlash erkinligini ham berganligini, shu tufayli biz falsafani,uning tarixini, dunyoviylik, insonparvarlik nuqtayi-nazardan òrganish imkoniyatiga ega bólganligimizni e'tirof etmoqlari lozim. Ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmida tóplangan hikmatlar xazinasi eng muhim òrin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari bóladi. Ular òz yurti va xalqining tafakkuri ruhiyati hamda orzu intilishlarini falsafiy ta'limotlarida, muayyan darajada,ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalarni òrtaga tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari etaklovchi bayroq sifatida namoyon bòladigan bu g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Insoniyat bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Fan va texnika, madaniyat va maorif beqiyos rivojlandi.

Odamzod òzining aql-zakovat va mehnati bilan juda kòp yangiliklar yaratdi. Dunyoning kòplab sir- asrori kashf etildi, buyuk ixtirolar qilindi. Falsafa odamlarni dunyo va uning mazmuni haqida chuqurroq fikrlashga undaydi. Bu insonning ma'naviy va axloqiy jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Falsafa, ayniqsa, siyosiy va ijtimoiy falsafa, jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlashga qaratilgan g'oyalarni rivojlantiradi. Bu fuqarolik huquqlari, erkinliklar va ijtimoiy adolat kabi mavzularda jiddiy muhokamalarni keltirib chiqaradi. Falsafa siyosat va jamiyat tuzilmasi bilan bog'liq savollarni ko'rib chiqadi, bu esa siyosiy tizimlar va institutlarning ishlashiga ta'sir ko'rsatadi. Falsafa ilmiy izlanishlarni va tadqiqotlarni rivojlantiradi, chunki u bilish va bilimning tabiati haqida savollar beradi. Bu orqali insonlar yangi bilimlarni qabul qilish va mavjud bilimlarni tahlil qilishga tayyor bo'lishadi.

Falsafa shaxslarni tizimli va tanqidiy fikrlashga undaydi, bu esa jamiyatda sog'lom va murosali muhokamalarni rivojlantiradi. Shuni ta'kidlash lozimki,Pifagor ham,qadingi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab falsafa tushunchasiga uning keyinchalik paydo bòlgan va mohiyat etiboti bilan, falsafani "barcha fanlar podshosi" darajasiga kòtargan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar ózlarini donishmand deb hisoblaganlar va donolikka davo ham qilmaganlar, zero òsha davrda keng tarqalgan tasavvurga kòra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros bòlib qolgan, asrdan asrga òtib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng sóngi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bólgan bashoratgòylar, kohinlar va oqsoqollar etirof etilgan. Ularning sòzlari birdan-bir tòg'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa qadimgilar fikriga kòra donishmandlik muxlisi bólishi, etiqod

sifatida qabul qilingan tayor haqiqatlarga emas, balki òz aqliga tayanib, ijodiy yól bilan, shuning dek boshqa faylasuflar tomonidan olinga bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilish lozim bòlgan.

Xulosa qilib aytganda, falsafa jamiyatda muhim rol o'ynaydi, chunki u dunyoqarashni shakllantiradi, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantiradi, si yosiy va ijtimoiy tizimlarga ta'sir ko'rsatadi, va insonlarni erkin fikrlashga, tanqidiy yondashuvga undaydi. Falsafa, shuningdek, ilmiy va madaniy taraqqiyotga hissa qo'shadi va jamiyatdagi muhim masalalar haqida chuqur fikr yuritishga imkon beradi. Shunday qilib, falsafa jamiyatni ma'naviy, axloqiy va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1.Qandov Bahodir Mirzayevich . Falsafa-Toshkent 2022.
2.Davronov Z. Shermuhammedova N, Qahhorova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa-Toshkent:TMU,2019.
3. www.ziyonet.uz
4. http://www.falsafa.dc.uz

''BUGUNGI KUN JAMIYATIMIZDA ETIKA VA ESTETIKA FANINING TUTGAN O'RNI''

Xannazarova Robiya Inomjon qizi
TDTUOF 3-bosqich talabasi
Eronov S.Q

ANNOTASIYA:

Maqolada bugungi kunda yoshlar orasida global muammo bo'lib kelayotgan axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirish,etika va estetika fanini keng targ'ib qilish,axloq psixologiyasida gender muammosi,davlat xizmatchilari etikasi hamda etik va estetik nazariyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Hozirgi kunda etika va estetikaninng dolzarb muammolari, Gender muammolari, kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi, kirish,muhokama,nazariya,natija,xulosa.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda axloq va nafosat ilmiga e'tibor kuchaydi. Falsafiy tafakkur taraqqiyotida axloq va nafosat masalalari muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Har qanday falsafiy ta'limotning asosini tashkil etuvchi insonning tabiat,jamiyat bilan axloqiy va estetik munosabatlarining falsafiy munosabatlarini yechimini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Falsafiy tafakkurni insonsiz tasavvur etib bo'lmaganidek,axloq va nafosat rivojini inson omilisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Ilmiy muomalada azaldan qo'llanib kelinayotgan Etika (Axloqshunoslik) va Estetika (Nafosatshunoslik) vaqtlar o'tishi bilan alohida fan sifatida shakllandi. Etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini,insonning jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi." Axloq" so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlarini, fe'lini,tabiatini anglatadi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan ma'naviy hodisa.

Axloq-jamiyat, zamon, umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi.

Jamiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida etikaning o'z o'rni bor ya'ni har tomonlama kamol topgan zamon kishisini tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Etika ya'ni axloqning G'arb mintaqalarida hamda Sharq mamlakatlarida turlicha ko'rinishi mavjud. Masalan, Sharq yoshlaridan yapon yoki o'zbek xalqini aytadigan bo'lsak, bu xalq vakillarida odob, tarbiya muhim ro'l o'ynaydi, misol uchun ota-onaga tik qarash, gap qaytarish, behurmat qilishni axloqiy qoidalarni oyoq osti qilinishi deb tushunishadi. Aksincha ota-onaga ko'zini yerga tikib muloyimlik bilan o'z fikrini bildirishni afzal deb bilib, ularga bo'ysunishni

burch sifatida olib qaraydi. G'arb mamlakatlarida esa bundan aksi o'laroq ota-onaga bo'lgan hurmat va izzatni yetishmasligi, balog'at yoshiga yetgandan so'ng o'z ixtiyori bilan ularning qaramog'idan ketishini, mustaqil hayot kechirishlarini ko'rishimiz mumkin. Axloq insonga beshikdan to qabrgacha as qotadi. Ota-ona tomonidan berib kelinayotgan tarbiya go'dakdagi axloqni yuzaga keltiradi. Axloqning tarbiyaviy vazifasini amalga oshirishda turli xil vositalar hamda omillar ishtirok etadi. Jumladan, pand-nasixat(o'git), adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari kabi.

Bugungi XXI asr yoshlarining axloqi va xulqida juda achinarli holatlarni ko'rishimiz mumkin. Chunki hozirda global muammoga aylangan "internet" sahifalari yoshlarning ongini zaxarlamoqda. Ularni ijtimoiy tarmoqlarda uzatilayotgan turli kerakli va keraksiz xabarlarni ko'rishi axloqning buzulishiga olib keladi. Globallashuv davri o'zi bilan ijobiy yangiliklar bilan birga milliylikka xavf soluvchi unsurlarni ham tashiydi. Shuning uchun globallashuv jarayonida axloqiy-estetik bilimlar ijtimoiy-ma'naviy zaruriyatga aylanishi kuzatilmoqda. Chunki yoshlarning globallashuv taqdim etayotgan keng imkoniyatlardan foydalanishdagi qoidalarni chetlab o'tayotgani ularni birmuncha milliylikdan begonalashuviga olib kelishi, noto'g'ri yo'llarni o'zlarida qo'llashi axloqiy estetik bilimlarning dolzarbligini yana bir bor namoyon etadi.

Gender tenglik deganda bu faqat ayollar manfaatlarini ifodalash nazarda tutilmaydi. Aksincha har ikki jins vakillarining o'z orzu maqsadlari sari dadil odimlashini, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Bugungi kunda rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlarini tengligini ta'minlashdir. Buning samarasini esa mamlakatda siyosiy va iqtisodiy o'sishga erishilishi mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tildi. Masalan, O'zbekistonda muxandis, olima, dasturchi, jarroh ayollar kam. Bu sohalarda ayollarga bo'lgan ehtiyoj mavjud. Ushbu yo'nalishlarga qizlarni ko'proq jalb qilib o'qitish, buning uchun ularga alohida shart-sharoitlar yaratish pozitiv diskriminatsiya deyiladi.

Pozitiv diskriminatsiya bu kam sonli bo'lgan guruh yoki qatlamga alohida imkoniyatlar va kvotalar berish degani. Bu ta'limda, ilmda va boshqa sohalarda gender tenglikka erishish uchun qo'llanadigan usuldir. Gender tenglik to'g'risidagi qonun ijtimoiy-siyosiy sohalarda ayollarning rolini ochirish uchun zamin yaratadi. Ayolga imkoniyat va vakolat berish, uni faollashtirish jamiyatni yanada rahm-shavqatli, insonparvar va ma'rifatli qiladi.

Kasbiy etiket bu kasbi bo'yicha birlashgan guruh a'zolarining bir-biriga nisbatan, rahbar xodimlar va ularga bo'ysunadigan kishilar o'rtasidagi hamda o'z kasbiy burchiga nisbatan o'zini tutish va hatti-harakat qilish qoidalarini o'z ichiga

oladi. Kasbiy etiket qoidalariga yana kasbiy ish kiyimlariga, o'zlarining tashqi ko'rinishlariga va so'zlashishlariga qo'yiladigan estetik talablarni o'z ichiga oladi. Kasbiy etika kategoriyalariga asosan kasbiy burch, vijdon (diyonat), or-nomus, obro' kiradi. Inson o'z kasbiy burchini oqlashi hamda vijdon bilan ish tutishi, or-nomusni saqlagan holda faoliyat olib borishi uning obro'sini yuksaltiradi.

REFERENCES

1. Falsafa. Axmedova M. taxriri ostida.-T.:UFMJ,2006.
2. Mamashokirov S. Taxriri ostida. Falsafa.-T.:Sharq,2005.
3. Mamanov A. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: Zarafshon-2015.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
5. Abdulla Sher. Estetika / Darslik. Toshkent: O'zbekiston, 2015.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. -T.:Yangi asr avlodi,2016.
7. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Proffesional etika va etiket. Darslik. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.
8. Muhammadjonova L.A., Abidjanova F.A. Etiket. O'quv qo'llanma. T.:Universitet, O'zMU, 2018.
9. Otamurodov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.

Internet saytlar:

1. ***http://edu.uz***
2. ***http://lex.uz***
3. ***http://bimm.uz***
4. ***http://ziyonet.uz***

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF KITOBI ASOSIDA OTA-ONANING FARZAND OLDIDAGI BURCHLARI

Xudiyarova Aydana
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti BOT 24/12 guruh talabasi
Ilmiy rahbar:**Koshanova Nilufar**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Islom shariatida ota-onaning farzand oldidagi burchlari va farzand huquqlari haqida so'z yuritiladi. Ota-onaning mas'uliyati homila paydo bo'lishidan oldin, homiladorlik davrida va bola tug'ilgandan keyin qanday bo'lishi kerakligi shar'iy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, farzand tarbiyasida irsiyat, axloqiy meros, ma'naviy va jismoniy tarbiyaning o'rni, shuningdek, ota-onaning duosi va taqvosi muhim ekanligi yoritiladi. Maqolada homilador ayollarning diniy huquqlari, shariatga ko'ra homila oldirishning taqiqlanishi va homilani himoya qilish masalalari ham ko'rib chiqilgan. Islomiy ta'limotlarga ko'ra, ota-ona o'z farzandining kelajagi uchun nafaqat moddiy, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham mas'ul ekanligi ta'kidlanadi. Maqolada shuningdek, ota-onaning o'z umr yo'ldoshini tanlash mas'uliyati, solih zurriyot uchun duo qilish va farzand tarbiyasida ijtimoiy muhitning ta'siri muhim ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Islomiy qarashlar, Homila huquqlari, Ro'za tutish, Shariat hukmlari, Ona va bola, Diniy ruxsat, Fiqh, Homilador ayol, Sog'liqni saqlash, Ota-ona mas'uliyat, Moddiy tovon, Taqvo, Diniy marosim, Halol va harom, Oila qadriyatlari, Johiliyat odatlari, Qonuni mas'uliyat, Duoning ahamiyati, Ijtimoiy ta'siri, Axloqiy tamoyillar.

Kirish

Islomda farzandlarning huquqlari qat'iy rioya qilingan bo'lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgandir. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilish majburiydir. Ota-onaning farzandlar oldidagi burchlari ularning paydo bo'lmasidan oldingi, homila holatidagi va tug'ilganlaridan keyingi qismlarga bo'linadi:

Asosiy qism

Ota-onaning farzand paydo bo'lmasidan oldingi majburiyatlari:

1.Farzandga munosib ota va ona tanlash majburiyati:

Shariat ta'limotlariga ko'ra, ota-onaning farzand oldidagi burchlari oila qurishdan avval — umr yo'ldoshini tanlash paytida boshlanadi. Har bir shaxs o'zining bo'lajak farzandi uchun munosib ota va ona tanlash majburiyatidadir.

Oisha (roziyallohu anho)dan rivoyat qilinadi:

"Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: 'Urug'laringizga e'tibor bering. Tenglarni nikohingizga oling va ularga nikohlaning.'"(Ibn Moja rivoyat qilgan).Ushbu hadishda Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam) bo'lajak ota va onalarga murojaat qilib, o'zlarining bo'lajak farzandlari uchun munosib ota va ona tanlashni buyurmoqdalar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, musulmon inson oila qurayotganida faqat o'z manfaatini emas, balki bo'lajak farzandining kelajagini ham o'ylashi lozim.

Har bir inson oila qurish chog'ida o'zidan va jufti halolidan dunyoga keladigan farzand haqida ham qayg'urishi kerak. Chunki ota va onaning sifatlari va hususiyatlari irsiyat orqali bolaga o'tadi. Shu sababli, bolaga ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan yetuk ota va ona tanlash zarur. Toki farzand ulg'aygach, ota-onasi bilan va ularning har tomonlama yetuk fazilatlari bilan faxrlanib yashasin.

Shariat ta'limotiga ko'ra, inson umr yo'ldoshini tanlashda nafaqat o'zining baxtini, balki kelajak avlodning tarbiyasi va nasl pokligini ham o'ylashi lozim. Ayniqsa, qiz bola o'ziga munosib turmush o'rtog'ini tanlar ekan, uning axloqi, fe'l-atvori va odatlarini chuqur tahlil qilishi kerak.Chunki insonning xislatlari va odatlari nasl orqali o'tishi isbotlangan haqiqatdir. Agar tanlangan umr yo'ldoshning zararli odatlari bo'lsa, bu nafaqat oila mustahkamligiga, balki kelajakda dunyoga keladigan farzandning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, qiz bola turmush qurishga qaror qilganida, faqatgina tashqi ko'rinish yoki moddiy holatga emas, balki insoniy fazilatlar va ma'naviy poklikka ham e'tibor berishi lozim.

Farzand – bu inson uchun Allohning buyuk ne'mati va omonati. Uni solih, odobli va komil qilib tarbiyalash har bir ota-onaning burchidir. Menimcha, ota-ona farzandni tarbiyalashda faqatgina duo bilan cheklanib qolmasligi kerak. Chunki duoning qabul bo'lishi uchun insonning o'zi ham harakat qilishi lozim. Masalan, ota-ona avvalo o'zlarini to'g'ri yo'lga solishi, yaxshi fazilatlarni namoyon etishi va farzandiga o'rnak bo'lishi kerak.

Shuningdek, bolaga bolaligidan mehr-muhabbat bilan yondashish, unga to'g'ri tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki farzandning kelajakda qanday inson bo'lib voyaga yetishi ko'p jihatdan ota-onaning munosabatiga bog'liq. Agar ota-ona Allohdan solih farzand so'rab, lekin uning tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermasa, bu to'g'ri bo'lmaydi. Shu bois harakat va duo birgalikda bo'lgandagina natija kutilganidek bo'ladi, deb o'ylayman.

3. Alloh taolodan solih farzand tilab, duoda bo'lishni davom ettirish

Allohning marhamati bilan homila shakllangandan keyin ham ota-onalar uning solih farzand bo'lishi uchun duo qilishda davom etishlari lozim. Bu Odam Ato va Momo Havvodan qolgan merosdir. Alloh taolo "A'rof" surasida shunday deydi:"U

sizlarni bir jonatdan yaratgan va sokinlik topsin uchun undan juftini yaratgan Zotdir. Vaqtiki u (juftini) o'raganida, engil homilador bo'ldi. Bas, u bilan yurdi. U og'irlashganda esa, ikkovi Robbilari Allohga: 'Agar bizga solih (farzand) bersang, albatta, shukr keltiruvchilardan bo'lamiz', - deb duo qildilar" (189-oyat).

Homila rivojlanib, ona og'irlashgan sari ota-onada tabiiy hissiyotlar kuchayadi. Ular farzandlarining sog'-salomat va axloqan solih bo'lishini orzu qilishadi. Shu bilan birga, onaning omon-eson tug'ib olishi haqida xavotir ham seziladi. Ota-onada umid ham, hayajon ham mavjud bo'lgani sababli, ular doimo Allohdan solih farzand so'rab duo qilishlari tavsiya etiladi.Homila davrida va undan avvalgi davrda ota-onaning qiladigan bunday duolari ham foydali, ham zarur ekanini zamonaviy fan ham tasdiqlaydi.

Irsiya va ruhiy holatning ta'siri

Irsiya bo'yicha olimlar odamlarning bora-bora mehribonlikdan uzoqlashib, oila ichida hurmat va ehtirom yo'qolib borayotganining sababini aniqlashdi. Ularning fikricha, bunday holatning asosiy sababi ota-onalar tomonidan istalmagan holda tug'ilgan farzandlardir.Bu shuni anglatadiki, asosan, zinodan yoki istalmagan homiladorlik natijasida tug'ilgan bolalar mehr-muhabbatdan uzoq bo'lishadi. Ota-onaning ruhiy holati homilaga o'tishi aniq bir haqiqatdir. Ota-onasi istamagan farzand ona qornidayoq salbiy ta'sirga uchrashi shubhasizdir.Shu sababli, Islom ta'limotida kelin-kuyovlar doimo Allohdan solih farzand so'rab, tinimsiz duo qilishlari ta'kidlanadi.Bu ishni Alloh taoloning nabiylari ham qilgan. Alloh taolo «Oli Imron» surasida shunday deb marhamat qiladi:"Shu chog'da Zakariyo Robbiga duo qilib: 'Robbim, menga O'z huzuringdan pokiza zurriyot bergin. Albatta, Sen duoni eshituvchisan', — dedi" (38-oyat).

Shuning uchun kelin-kuyovlar doimo Alloh taolodan solih farzand so'rab, doimiy ravishda duo qilib turishlari kerak. Bu juda muhimdir.Farzand dunyoga kelishi faqat biologik jarayon emas, balki ulkan mas'uliyatdir. Ota-ona o'z bolasi uchun nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham tayyor bo'lishi kerak. Farzand ota-onaning istagi, sevgisi va duosi bilan dunyoga kelganida, uning axloqiy tarbiyasi ham shunga yarasha bo'ladi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarini xohish bilan, mehr bilan, mas'uliyat bilan kutib olishlari lozim.

Bu mavzu jamiyat va din nuqtayi nazaridan juda muhim ahamiyatga ega. Homila huquqlari masalasida Islomning yondashuvi inson salomatligi va ruhiy holatiga e'tibor berilishi bilan ajralib turadi. Homilador ayollarga ro'za tutmaslik ruxsati yoki homilaga zarar yetkazmaslik uchun ehtiyot choralarining ko'rilishi diniy qoidalar inson hayotiga qanday moslashtirilganini ko'rsatadi

4. Homilaning jismoniy va ruhiy toliqishlarsiz, yaxshi rivojlanib borishini ta'minlash Homila har jihatdan yaxshi o'sib borishi uchun uning onasini jismoniy va

ruhiy jihatdan toliqtirib qo'ymaslikka shariatda katta e'tibor berilgan. Bu e'tibor shunchalik muhimki, hatto Alloh farz qilgan va Islomning ruknlaridan biri bo'lgan ro'zaning homilador ayollar tomonidan tutilmay, keyinchalik qazosini ado etishi joiz deb belgilangan.Chunki homilador ayol ro'za tutsa, uning charchashi orqali homilasi ham ta'sirlanishi mumkin. Shu sababli, homilani toliqishdan saqlash maqsadida onasiga ro'za tutmaslikka ruxsat berilgan.Islomda insonni toqatidan tashqari ishga taklif qilish yo'q. Shu jumladan, ro'za masalasida ham shunday. Alloh taolo juda qari bo'lib, ro'za tuta olmaydigan keksalar uchun ro'za tutmaslikka ruxsat bergan. Shuningdek, homilador ayollar va safardagi kishilar ham agar o'zlariga yoki homilalariga zarar yetishidan qo'rqsalar, ro'za tutmasliklari mumkin. Hanafiya mazhabiga ko'ra, bunday ayollar keyinchalik ro'zaning qazosini tutishlari lozim. Islom shariatida homilaga nisbatan qilingan jinoyat, to'liq insonga nisbatan qilingan jinoyat deb qaraladi.

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadisga ko'ra, Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam) tushib qolgan homila uchun bir qul yoki cho'rining bahosi to'lanishi haqida hukm chiqarganlar.Shariatga ko'ra, homilani oldirib tashlash mutlaqo mumkin emas, chunki unga to'la inson sifatida qaraladi. Bu ish johiliyat davridagi qizlarni tiriklay ko'mishga tenglashtiriladi. Faqat ayrim istisno holatlargina bunga ruxsat beradi. Homila masalasiga Islom dini juda jiddiy yondashadi. Onaning ham, farzandning ham haqqi himoya qilinadi. Homilador ayollarga ro'za tutmaslikka ruxsat berilishi shariatning inson tabiatiga mosligini ko'rsatadi. Bu diniy qonun-qoidalarning inson salomatligini birinchi o'ringa qo'yishini anglatadi. Homilani oldirish masalasi esa jamiyat uchun ham, din uchun ham katta ahamiyatga ega. Homila allaqachon shakllangan bir jon bo'lgani uchun unga zarar yetkazish gunoh hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyot ham onaning ruhiy holati homilaga ta'sir qilishini tasdiqlaydi. Demak, ota-ona nafaqat farzandining jismoniy salomatligi uchun, balki uning kelajakda yaxshi inson bo'lib yetishishi uchun ham mas'uldir. Shunday ekan, ota-ona farzandni rejalashtirishda va unga tarbiya berishda e'tiborli bo'lishlari kerak. Chunki tug'ilmagan bola ham tirik jonzot sifatida qadr topadi va uning huquqlari himoyalanadi.Shuningdek, homilani oldirish masalasining qattiq taqiqlanishi va bunga nisbatan jiddiy yondashuv jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi zamonaviy dunyoda bu boradagi qarashlar har xil bo'lishiga qaramay, Islom shariatining yondashuvi inson hayotini eng oliy qadriyat deb bilishga asoslangan.

Bizning fikrimizcha, ota-onaning homilaga va farzand tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyati nihoyatda katta. Bu nafaqat diniy nuqtayi nazardan, balki jamiyatning kelajagi uchun ham muhim. Tug'ilmagan bolaning ham huquqlari borligi va ota-onaning uni har jihatdan himoya qilishi kerakligi juda dolzarb masala. Shuning uchun

har bir inson oila qurishda, farzand tarbiyasida va uning huquqlarini ta'minlashda ongli ravishda yondashishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, solih farzand tarbiyasida duo va harakat bir-birini to'ldiruvchi muhim omillardir. Islom dini ota-onalarni farzand dunyoga kelishidan avval ham, undan keyin ham uning tarbiyasiga mas'ul qilib belgilagan. Allohdan solih zurriyot so'rash ezgu amal bo'lsa-da, ota-ona o'z burchini unutmasligi, farzandiga mehr bilan munosabatda bo'lishi, unga yaxshi tarbiya berishi lozim. Chunki kelajak avlodning qanday inson bo'lib yetishishi ota-onaning ma'naviy va jismoniy mehnatiga bog'liqdir. Shu sababli, har bir ota-ona o'z farzandi uchun nafaqat duo qilishi, balki unga ta'lim-tarbiya berishda ham faol bo'lishi zarur.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq "Baxtiyor oila" T.: "Hilol nashr", 2021.-B.518.
2. Imoduddin Ismoil Ibn Kasir. Tafsiri Qur'oni Azim. Dor Ihya'il Kutubil Arabiya.
3. Muhammad Ali as-Sobuniy. Rawa'i'ul Bayan Tafsiri Ayatil Ahkam Minal Qur'an.
4. Muhammad Ali as-Sayis. Tafsiri Ayatil Ahkam. Matba'atu Muhammad Ali Subayh.
5. Abdulloh ibn Ahmad an-Nasafiy. Tafsiri an-Nasafiy. Dorul Kitabil Arabiy, Bayrut.

FALSAFIY MEROS: RATSIONAL VA IRRATSIONAL TAKAFFUR USULLARI

Yo'ldosheva Xurshida Qozoqboy qizi,
Muradova Zuhra Ahmad qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim fakulteti, 1- kurs talabalari
Email: yoldoshevax0@gmail.com,
zuxramrdv@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Sa'dullayeva Mahfuza Husenovna**

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada falsafiy meros doirasida ratsional va irratsional tafakkur usullari tahlil etiladi. Avvalo, ratsional tafakkur tushunchasi, uning asosiy mezonlari va falsafiy ildizlari ko'rib chiqiladi. Aristotel, Dekart va Kant kabi mutafakkirlarning ratsional tafakkur haqidagi qarashlari tahlil qilinib, ilm-fan va mantiqiy tahlildagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, irratsional tafakkur mohiyati va uning namoyon bo'lish shakllari muhokama qilinadi. Mistitsizm, intuisiya va diniy-falsafiy oqimlarda irratsional tafakkurning tutgan o'rni ko'rib chiqilib, Shopenhauyer, Nitsshe va Bergson qarashlari misolida tahlil qilinadi. Maqolada ushbu ikki tafakkur usulining o'zaro bog'liqligi ham yoritilib, inson tafakkurida ularning uyg'unligi, san'at va ijoddagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Zamonaviy falsafada ratsional va irratsional tafakkurning tutgan o'rni, shuningdek, ularning hayotiy jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ratsional va irratsional tafakkur inson tafakkurining ajralmas qismi bo'lib, ularning uyg'unligi falsafiy merosning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Falsafiy tafakkur, ratsional (mantiqiy) va irratsional (mantiqsiz) tafakkur, Aristotel, Dekart va Kant, mistitsizm, intuisiya.

Abstract: This article analyzes the methods of rational and irrational thinking within the framework of philosophical heritage. First, the concept of rational thinking, its main criteria, and philosophical foundations are examined. The views of thinkers such as Aristotle, Descartes, and Kant on rational thinking are analyzed, highlighting its role in science and logical analysis. Additionally, the essence of irrational thinking and its manifestations are discussed. The role of irrational thinking in mysticism, intuition, and religious-philosophical movements is explored, with an analysis of the perspectives of Schopenhauer, Nietzsche, and Bergson. The article also examines the interconnection between these two thinking methods, emphasizing their harmony in human cognition and their significance in art and creativity. The

role of rational and irrational thinking in modern philosophy and their importance in life processes are analyzed. The study concludes that rational and irrational thinking are inseparable parts of human cognition, and their balance plays a crucial role in the development of philosophical heritage.

Keywords: Philosophical thinking, rational (logical) and irrational (illogical) thinking, Aristotle, Descartes, and Kant, mysticism, intuition.

Kirish. Inson tafakkuri uzoq asrlar davomida falsafaning asosiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Turli davrlarda mutafakkirlar tafakkurning mohiyatini, uning manbalarini va ishlash mexanizmlarini tushuntirishga harakat qilganlar. Shu jarayonda tafakkurning ikki asosiy shakli – ratsional va irratsional tafakkur shakllangan. Ratsional tafakkur mantiq va dalillarga asoslangan bo'lsa, irratsional tafakkur his-tuyg'ular, intuisiya va tasavvur orqali bilishga urg'u beradi. Bu ikki tafakkur turi inson hayotining turli jabhalarida qanday rol o'ynaydi? Ularning o'zaro bog'liqligi qanday namoyon bo'ladi? Falsafiy merosda qaysi tafakkur turi ustunlik qiladi? Zamonaviy jamiyatda ratsional va irratsional tafakkurning o'rni qanday? Ushbu maqolada ana shu savollarga javob izlanadi.

Falsafiy tafakkur – bu insonning borliq, bilim, axloq, ong, haqiqat va hayotning mazmuni haqida chuqur mushohada yuritish jarayonidir. U oddiy tafakkur shakllaridan farqli o'laroq, fundamental savollarni qo'yadi va ularga mantiqiy, tahliliy yoki konseptual yondashuv orqali javob izlaydi.

Manbalarda keltirilishicha: "Falsafiy tafakkur ajablanish va shubhalanish asosida shakllanadi. Ilk jamiyatlarda odamlar afsonaviy tasavvurlarga tanqidiy yondashmagan, ularni muhokama qilmagan. Falsafiy tafakkur esa boshqalardan farqli ravishda ko'rgan va eshitgan narsalarga shubha bilan qarashni talab qiladi. Faylasuflar turli narsalarning o'xshashligi va farqliligini kuzatib, haqiqatni aniqlashga intilganlar. Natijada, ular an'anaviy qarashlar emas, balki ijodiy bilimga tayanish muhimligini tushunib yetganlar."

Falsafiy tafakkur quyidagi xususiyatlarga ega:

1.	**Abstrakt fikrlash**	Aniq hodisalar ortidagi umumiy qonuniyatlarni izlash.
2.	**Tanqidiy yondashuv**	Mavjud g'oyalar va nazariyalarga shubha bilan qarash, ularni tekshirish.
3.	**Mantiqiy tahlil**	Fikrlash jarayonida dalillarga tayanish va xulosalarni asoslash.
4.	**Umumbashariy savollar**	Inson, jamiyat va borliq haqida fundamental savollar qo'yish.

Shunday qilib, falsafiy tafakkur insoniyat tafakkurining eng chuqur shakllaridan biri bo'lib, u jamiyat, fan, axloq va san'at rivojiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

✓ Falsafiy tafakkurning insoniyat merosidagi o'rni

Falsafiy tafakkur insoniyatning intellektual merosining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa inson tafakkurining eng chuqur savollariga javob izlash jarayoni bo'lib, haqiqat, bilim, axloq, ong, borliq va hayotning ma'nosi kabi masalalarni o'rganadi.

1. Bilim va ilmiy taraqqiyot. Falsafiy tafakkur insoniyatning bilim va ilmiy taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qilgan. Qadimgi yunon faylasuflari – ***Platon, Aristotel*** va ***Sokrat*** – mantiqiy fikrlash, dialektika va metodologiyaning tamal toshlarini qo'yganlar. Keyinchalik bu tamoyillar tabiiy fanlarning rivojlanishiga turtki bergan.

2. Axloq va ijtimoiy qadriyatlar. Falsafiy tafakkur insoniyat axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan. ***Konfutsiy, Ibn Sino, Farobiy, Kant*** va boshqa mutafakkirlar axloqiy me'yorlar, adolat, ezgulik va inson huquqlari haqida ta'limotlar yaratganlar. Ularning g'oyalari bugungi demokratik tamoyillarning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

3. Diniy va ma'naviy hayot. Falsafiy tafakkur turli diniy tizimlar va ma'naviy ta'limotlarning shakllanishida ham ishtirok etgan. Din va falsafa ko'p hollarda inson hayotining ma'nosi, ruh va moddiyat, erkinlik va taqdir kabi masalalarni turlicha talqin qilgan bo'lsa ham, ularning bir-biriga ta'siri katta bo'lgan.

4. Jamiyat va siyosiy tizimlar. Falsafiy tafakkur jamiyatning siyosiy tuzilishini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Platonning ideal davlat haqidagi qarashlari, Aristotelning siyosat falsafasi, Jon Lokk va Russo kabi faylasuflarning fuqarolik jamiyati va inson huquqlari haqidagi ta'limotlari hozirgi davlat boshqaruvi tizimlarining shakllanishiga asos bo'ldi.

✓ Ratsional va irratsional tafakkur usullari

Tafakkur usullari – bu insonning atrof-muhitni tushunish, bilim olish va xulosa chiqarish jarayonida qo'llaydigan yondashuvlari. Ular orasida ratsional va irratsional tafakkur asosiy yo'nalishlar sifatida ajralib turadi.

1. Ratsional tafakkur usullari. ***Ratsional tafakkur*** – mantiq, tahlil va dalillarga asoslangan tafakkur shakli bo'lib, unda xulosalar aniqlik va asoslanganlik tamoyillariga tayanadi. U ilmiy va falsafiy izlanishlarning asosiy vositasidir.

"Ratsional, abstrakt-mantiqiy tafakkur hodisalar olamining qonuniyatli aloqalarini bilishga imkon beradi, bu esa insonga tashqi dunyoni bemalol tushunib

olish va tevarak-atrofdagi voqelik hodisalari va jarayonlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun zarurdir."[7]

"Ilmiy falsafa olamni bilish, uni xarakterlash mumkin, deb mulohaza qiladi. Insonning aql idrokini cheksiz, deb biladi. Ilmiy falsafa, falsafa yaratgan nazariy bilimlardan xulosa qilgan holda, barcha hodisalaming o'zaro munosabatini, aloqadorlik va bog'lanishlarni ***mantiqiy tafakkur*** yordamidan anglash mumkin, deb biladi."[8]

Asosiy usullari:

- ***Deduksiya*** – umumiy qonuniyatlardan xulosa chiqarish.
- ***Induksiya*** – xususiy kuzatuvlardan umumiy xulosalar chiqarish.
- ***Tahlil va sinthez*** – ma'lumotlarni ajratish va umumlashtirish.
- ***Mantiqiy xulosa chiqarish*** – asosli dalillar orqali fikrlash.
- ***Tajriba va kuzatuv*** – real faktlarga asoslangan bilim olish.

➤ Ratsional tafakkur asosan ilmiy, texnik va nazariy bilim sohalarida qo'llaniladi, chunki u dalillarga asoslangan va obyektiv xulosalar chiqarishga yordam beradi.

2. Irratsional tafakkur usullari. ***Irratsional tafakkur*** – intuitiv, hissiy va tasavvurga asoslangan tafakkur shakli bo'lib, unda mantiqiy dalillar va qat'iy asoslangan xulosalar ikkinchi darajaga tushib, ong osti, hissiyot va ichki sezgi ustuvorlik qiladi. Bu tafakkur turi san'at, din, mistitsizm va falsafiy tafakkurning ayrim oqimlarida keng qo'llaniladi.

Asosiy usullari:

- ***Intuisiya*** – ichki sezgilar orqali tushunish.
- ***Metafora va simvolik tafakkur*** – abstrakt tushunchalarni obrazlar orqali ifodalash.
- ***Ijodiy tafakkur*** – noodatiy va innovatsion fikrlash.
- ***Mistitsizm*** – tajribaga asoslanmagan bilim olish.
- ***Emotsional tafakkur*** – hissiyotlarga asoslangan idrok.

"Mistisizm (qadimgi yunoncha: μυστικός – sirli) – falsafiy va diniy ta'limot bo'lib, his-tuyg'ular, intuitsiya va irratsionalizmga asoslanadi. Mistisizmning asosini ilohiyot bilan bevosita aloqa o'rnatish, u bilan birlashishga intilish tashkil etadi."[9]

"**Intuisiya** - bu ongli fikrlash yoki tushuntirishga muhtoj bo'lmasdan bilimga ega bo'lish qobiliyati."[10]

[7] Falsafa / M. A. Ahmedova tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. (317.b).
[8] Davronov Z., Shermuxamedova N., Fayziyo'jayeva D., Nurmatova M., Husunov B., Qahhorova M., Sultanova A. Falsafa (I qism). Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 17 b.
[9] Мистицизм", Большой Энциклопедический словарь, 2000. // Большой энциклопедический словарь
[10] Intuition". Oxford Dictionaries. Archived from the original on July 19, 2012. Retrieved 22 December 2014.

➤ Irratsional tafakkur ijod, san'at, diniy va falsafiy tushunchalarda muhim rol o'ynaydi, chunki u yangi g'oyalar va innovatsiyalarni yaratishga imkon beradi.

✓Aristotel, Dekart va Kant qarashlarida ratsional tafakkur.

1. Aristotelning ratsional tafakkur haqidagi qarashlari

Asosiy g'oya: Aristotel ratsional tafakkurni mantiq va tajribaga asoslangan bilim olish vositasi sifatida ko'rgan.	U mantiq (logika) fanining asoschisi bo'lib, bilim olishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi. Uning "Organon" asarida tasvirlangan syllogizm usuli – xulosa chiqarishning asosiy mantiqiy usullaridan biridir.
	Aristotel tafakkurni empirik yondashuv bilan bog'lagan, ya'ni u inson bilimi tajriba va kuzatuv orqali shakllanishini ta'kidlagan. U borliqni tushuntirishda "to'rt sabab" tamoyilini ilgari surgan (moddiy, formal, harakatlantiruvchi va maqsad sabablar), bu esa ilmiy tahlilda hamon qo'llaniladi. ➤ Xulosa: Aristotel ratsional tafakkurni mantiqiy qoidalar, tajriba va kuzatuv orqali haqiqatni aniqlash vositasi deb bilgan.

2. Dekartning ratsional tafakkur haqidagi qarashlari

Asosiy g'oya: Dekart bilim olishda faqat aql va mantiqqa asoslanish kerakligini ta'kidlagan, uning falsafasi "metodik shubha" va "men o'ylayapman, demak, mavjudman" (Cogito, ergo sum) tamoyiliga asoslanadi.	Dekart mavhum tafakkur va matematik metodlar orqali bilim olishni ilgari surgan. U haqiqatni aniqlash uchun hamma narsaga shubha bilan qarash lozimligini ta'kidlagan va bilim faqat aniq va ravshan g'oyalar orqali olinishi mumkinligini ilgari surgan.

	Uning ratsionalizmi empirik kuzatuvlardan ko'ra, tafakkurning ichki mantiqiga ko'proq tayanadi. ➤ ***Xulosa:*** Dekart ratsional tafakkurni shubha qilish, analiz qilish va aniq mantiqiy xulosalar chiqarish jarayoni deb hisoblagan.

3. Kantning ratsional tafakkur haqidagi qarashlari

Asosiy g'oya: Kant ratsional tafakkur va tajriba o'rtasidagi muvozanatni izlagan. U bilimning ikki manbasi borligini ilgari surgan: a priori (tajribadan oldingi) va a posteriori (tajribaga asoslangan) bilimlar.

Kant "Sof aql tanqidi" asarida inson tafakkuri qanday ishlashini tahlil qilgan va bilim olish jarayoni subyekt (inson aqli) va obyekt (tashqi dunyo) o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasi ekanligini ta'kidlagan.

U haqiqatni anglashda aqlning faol rolini ta'kidlab, ratsional tafakkur inson tomonidan oldindan shakllantirilgan kategoriyalar orqali amalga oshishini tushuntirgan.

Kantning fikricha, inson ongida borliqni tushunish uchun zarur bo'lgan "kategoriyalar" mavjud, masalan: sababiyat, zaruriyat, birlik va boshqalar.

➤ ***Xulosa:*** Kant ratsional tafakkurni faqat empirik tajriba yoki sof aql natijasi sifatida emas, balki inson tafakkurining faol ijodiy jarayoni sifatida ko'rgan.

Xulosa qilib aytganda, ratsional va irratsional tafakkur inson tafakkurining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ular ilm-fan, falsafa va kundalik hayotda muhim rol o'ynaydi. Ratsional tafakkur mantiq, dalillar va tahlilga asoslanib, bilimni tizimli shakllantirishga yordam beradi. Irratsional tafakkur esa intuisiya, hissiyot va tasavvurga tayangan holda ijodiy jarayonlarni shakllantiradi.

Aristotel mantiq va ilmiy metodlarni asoslab, ratsional tafakkurning fundamental tamoyillarini ishlab chiqqan. Dekart esa tafakkur asosida shubha qilish tamoyilini ilgari surib, bilimni sof aql orqali qabul qilish zarurligini ta'kidlagan. Kant esa ratsional tafakkur va tajriba o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratib, inson tafakkurining chegaralarini o'rganishga harakat qilgan. Zamonaviy ilm-fan va falsafa har ikkala tafakkur usulining muhimligini tan oladi.

REFERENCES

1. M. A. Axmedova. "Falsafa". Darslik. Toshkent – 2018 (52.b)
2. Falsafa / M. A. Ahmedova tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. (317.b).
3. Davronov Z., Shermuxamedova N., Fayziyo'jayeva D., Nurmatova M., Husunov B., Qahhorova M., Sultanova A. Falsafa (I qism). Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 17 b.
4. Мистицизм", Большой Энциклопедический словарь, 2000. // Большой энциклопедический словарь
5. Intuition". Oxford Dictionaries. Archived from the original on July 19, 2012. Retrieved 22 December 2014.

XXI ASR: YANGI FALSAFIY TENDENSIYALAR

Abduqayumova Omatoy va Ismatullayeva Gulsanam
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
O'qituvchi:**Sunnatov.T.R**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XXI asr falsafasining asosiy tendensiyalari tahlil qilinadi. Texnologik rivojlanish, globalizatsiya, sun'iy intellekt, ekologik muammolar va postmodernistik yondashuvlar zamonaviy falsafiy tafakkurda qanday o'z aksini topayotgani ko'rsatib beriladi. Maqolada inson va mashina, haqiqat va simulyakr, axloq va algoritm kabi dolzarb mavzular falsafiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, ekologik ong, axborot jamiyati va insoniyatning kelajagi borasidagi falsafiy qarashlar tahlil qilinadi.

ABSTRACT

This article analyzes the main trends in philosophy of the 21st century. It shows how technological development, globalization, artificial intelligence, environmental problems and postmodern approaches are reflected in modern philosophical thinking. The article covers such topical topics as man and machine, reality and simulacrum, morality and algorithms from a philosophical perspective. It also analyzes philosophical views on ecological consciousness, the information society and the future of humanity.

KIRISH

XXI asr — bu fan-texnika inqilobi, axborot jamiyati va global madaniyat asridir. Insoniyat ilgari hech qachon bu darajada tezkor o'zgarishlar, texnologik yuksalish va murakkab muammolarga duch kelmagan. Bu jarayonlar faqat ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy sohalargina emas, balki falsafiy tafakkurga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy falsafiy savollar zamonaviy kontekstda yangicha mazmun kasb etmoqda: ong va sun'iy intellekt, haqiqat va simulyakr, inson va texnologiya o'rtasidagi murakkab munosabatlar — bular XXI asr falsafasining dolzarb muammolaridir. Ushbu maqolada biz yangi davr falsafiy tendensiyalarini yoritishga harakat qilamiz.

Asosiy qism

Zamonaviy falsafaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri — bu texnologik falsafa. Sun'iy intellekt, transgumanizm, biotexnologiyalar, raqamli haqiqat (virtual reality) kabi tushunchalar falsafiy muhokama maydoniga aylandi. Inson va mashina o'rtasidagi chegaraning tobora noaniq bo'lishi, insoniyatning o'z ongini raqamli

shaklga o'tkazish ehtimoli — bular yangi ontologik va axloqiy savollarni tug'diradi. "Aqlli" texnologiyalar qarorlar qabul qila boshlagan bir paytda, falsafa bu qarorlar ortidagi mas'uliyat kimga yuklanishini izohlashga intiladi.

XXI asr falsafasi axborot oqimining ortib borishi bilan bog'liq muammolarni ham o'rganadi. Postmodernistik ta'sir ostida haqiqatning nisbiyligi, simulyakr kabi tushunchalar dolzarb bo'lib qoldi. Ba'zida real haqiqat bilan yolg'on o'rtasidagi farqni aniqlash mushkul bo'lib qoladi. Bu holat "post-haqiqat" davri deb nomlanadi. Bu sharoitda falsafa haqiqatni qanday aniqlash mumkinligini, axborotning axloqiy chegaralari qanday bo'lishi kerakligini o'rganadi.

Zamonaviy falsafa ekologik muammolarga ham befarq emas. Ekofalsafa yoki yashil falsafa atrof-muhitni muhofaza qilish, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga chaqiradi. Global isish, resurslarning kamayishi, hayvonot dunyosining qisqarishi insoniyatni ekologik ongni shakllantirishga majbur qilmoqda. Bu tendensiyada antropotsentrik yondashuv tanqid ostiga olinadi va biotsentrizm g'oyalari ilgari suriladi.

Sun'iy intellekt bilan bog'liq falsafiy muammolar tobora chuqurlashmoqda. Sun'iy ong — faqat algoritmlar majmuasimi yoki u ongli mavjudotga aylanishi mumkinmi? Bu savollar inson mohiyatini aniqlash, ongning chegaralarini belgilashga urinishni taqozo etadi. Shuningdek, agar sun'iy intellekt o'zini "inson" deb hisoblasa, u holda unga huquq va erkinliklar berilishi kerakmi, degan muhokamalar mavjud.

Postmodernizm hali ham XXI asr falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yo'nalish haqiqatning ko'plikda mavjudligini, yagona dunyoqarashning yo'qligini, har qanday nazariyaning muvaqqatligini ilgari suradi. Buning natijasida tolerantlik, ko'plik (plüralizm), cheksiz talqinlar g'oyasi keng yoyiladi. Biroq bu holat ba'zida haqiqatni anglashdagi chalkashliklarga ham olib kelishi mumkin.

Xulosa

XXI asr falsafasi – bu global muammolar, texnologik taraqqiyot, axborot oqimi, ekologik inqirozlar, sun'iy ong va madaniy ko'plik bilan yuzlashgan insoniyatning javobidir. Bu falsafa an'anaviy yondashuvlarni davom ettirish bilan birga, yangi savollarni qo'yadi va yangi yo'nalishlar bilan boyiydi. Shubhasiz, XXI asr falsafasi insoniyatning kelajagini belgilovchi g'oyaviy poydevor bo'lib qoladi.

REFERENCES

1.Karimov, S. (2020). „Zamonaviy falsafa yo'nalishlari". Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2.Yo'ldoshev, A. (2019). „Global muammolar va falsafa".Toshkent: "Ilm-Ziyo" nashriyoti.
3.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Falsafa"

4.www.ensiklopediyam.uz (murojaat qilingan sana: 2025-yil 5-aprel).
5.Omonulla Fayzullaev. –T.: 2006. 4-8 betlar. (Maqola mualliflari V.Qobulov va S. Shermuxamedov).[6]
6.Falsafa (o'quv qo'llanma). E.Yusupovning umumiy tahriri ostida. -T.: Sharq, 1999.
7.Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. -T.: O'qituvchi, 1997.
8.Falsafa asoslari (Q.Nazarov). -T.: O'zbekiston, 2005.

ONA SUTI VA UNING SOG'LOM AVLOD TARBILASHDAGI AHAMIYATI

Fayzullayeva Aygerim
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova NilufarMaxsudovna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona sutining Islomdagi ahamiyati va bolaning rivojlanishidagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, ona suti va bolaning o'rtasidagi aloqaning mustahkamlanishi hamda bu jarayonning axloqiy jihatlari haqida ham so'z boradi. Maqola, ona suti va uning bolaning rivojlanishiga ta'siri haqida chuqur ilmiy va diniy tahlillarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ona suti gormonal o'zgarishlar, sut tarkibi, kolostrum, laktatsiya, emizish jarayoni, sut miqdori, nutritiv qiymat, laktasiya muammolari, tug'ruqdan keyingi davr.

Ona suti, ko‘krak suti – emizikli ayolning sut bezlari ishlab chiqaradigan suyuqlik (sekret).Ona suti go‘dak uchun eng yaxshi ozuqa hisoblanadi, chunki bu davrda u tarkibi va oziq moddalar nisbatiga ko‘ra go‘dakning ovqat hazm qilish va moddalar almashinuvi xususiyatlariga mos keladi. Ona bilan bola o‘rtasida homiladorlikning dastlabki kunlaridan boshlaboq „Ona—yo‘ldosh—homila“ tarzida o‘zaro mustahkam aloqa bog‘lanadi, bola dunyoga kelgach esa bu munosabat „Ona – ko‘krak suti – bola“ tariqasida davom etadi. Shu uzviylik tufayli bola onadan kerakli ozuqa va biologik faol moddalarni qabul qiladi, shuningdek, ona bilan bola o‘rtasida mehr rishtalari bog‘lanadi.

Ona suti haqidagi dastlabki ma’lumotlar Ibn Sino qo‘lyozmalarida ham qayd etilgan. U ona sutini quyosh nuriga qiyos qilgan, chunki yer yuzidagi barcha tirik mavjudot (o‘simliklar dunyosi) uchun quyosh nuri qanchalik zarur bo‘lsa, o‘sayotgan murg‘ak go‘dak uchun ham ona suti shunchalik zarurdir.

Ona sutining Islomdagi musulmonlar uchun juda muhim va qadrlanadigan bir tushunchadir. Islomda ona sutini ichish, farz bo‘lmasa-da, bu amaliyot farz bo‘lgan narsa kabi qadrlanadi. Qur'onda va hadislar orqali, ona sutining bolaning rivojlanishiga bo‘lgan foydalari haqida ko‘p so‘z borgan. Ona sutini ichish bolaning fizik va ruhiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Islomda ona sutining farzand uchun ahamiyatiga alohida e'tibor berilgan. Qur'oni Karimning “Luqmon” surasida ona va bola o‘rtasidagi aloqaga, onaning bola tug‘ishdagi mehnatini yuksak qadrlashga doir oyatlar mavjud. Shuningdek, hadisda ham ona sutini emishning bolaga ko‘plab foydalari borligi, shuningdek, bu bolaning va onaning o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan.

Hadislarda ham shunday degan: "Ona sutini ichishning o'zi bolaga jannat yo'li bo'ladi." Bu hadis bolani ona sutidan mahrum qilmaslikni, ona sutining ahamiyatini ko'rsatadi. Islomda, shuningdek, bolaning ona sutini ichishi kerakli davrda, ya'ni, ikki yil davomida bo'ladi. Bu davrda ona sutining bolaga foydali ekanligi, uning immun tizimini mustahkamlash, ruhiy va jismoniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Bola tug'ilgandan so'ng, dastlabki 2—3 kunda onaning sut bezlari sarg'imtir rangli suyuqlik – og'iz suti ajratadi. U, endigina dunyoga kelgan murg'akka eng zarur ovqat; unda oqsil, tuz, shuningdek, yog' tomchilari bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq, ona ko'kragiga qancha erta tutilsa, shuncha ko'p og'iz sutidan bahramand bo'ladi. Shuning uchup ham onaning ko'zi yorishi bilan dastlabki 20—30 daqiqada chaqaloqni onasining ko'ksiga yotqizib, har ikki ko'krakdan emizishga yordamlashish maqsadga muvofiq. Ilk soatdagi bir lahzali „badanma-badan" jismiy yaqinlik ona bilan murg'ak o'rtasidagi aloqani yanada mustahkamlaydi. Tug'ruqdan keyingi birinchi hafta oxiridan yog'larga boy bo'lgan o'tkinchi sut, 2—4 haftadan keyin doimiy sifatli sut paydo bo'ladi. Yetilgan ona suti tarkibida barcha zarur oziq modlalar va vitaminlar bor; ular to'liq hazm bo'lish va singish xususiyatiga ega.

Ona suti yengil hazm bo'ladigan, to'yimli, turli mikroblardan xoli, pishirish va isitishni talab qilmaydigan tayyor ozuqa. Unda 100 dan ortiq kerakli moddalar bo'lib, u faqat miqdor jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham bolaning yoshiga, sog'ligiga mos keladi. Ona sutidagi oqsil, yog', uglevodlar tarkibi yangi tug'ilgan bola organizmidagi xuddi shunday moddalar tarkibiga yaqin turadi. Ona sutida oqsil, yog', uglevodlar 1:3:6 nisbatda bo'ladi va bola ehtiyojini to'la qoplaydi. Sut oqsillari juda to'yimli va chaqaloq ichagida yengil hazm bo'ladi. Yog'lar ham emulsiya holida bo'lgani uchun to'la-to'kis so'rilib ketadi. Ona suti tarkibidagi uglevodlar ozuqali xususiyatidan tashqari, ichaklarda mikroblarning o'sishiga to'sqinlik qiladi va shu tariqa ovqat hazm bo'lishini osonlashtiradi. Ona sutida zarur miqdorda tuzlar, ayniqsa kaltsiy va fosfor tuzlari bo'ladi, ular bola skeletining to'gri shakllanishi va rivojlanishi uchun g'oyat muhim. Ona sutidagi mineral moddalar va vitaminlar o'sayotgan bola ehtiyojiga mos keladi va organizmda yaxshi singishi bilan sigir sutidagi shunday moddalardan farq qiladi.

Ona sutidagi temir moddasining axamiyati nihoyatda katta, uning o'zlashtirilishi ona sutida odatda 70%ni tashkil etsa, sigir sutida 30%, aralashmalarda esa 10%ni tashkil etadi. Sog'lom onadan tug'ilgan sog'lom bolalarda temir zaxirasining yetishmagan qismi ona suti hisobiga to'ldiriladi, lekin bola, ona sutidan sigir suti yoki aralashmaga o'tkazilsa unda kamqonlik rivojlanishi mumkin.

Ona sutida vitaminlar miqtori tez o'zgaruvchan bo'lishiga qaramay bola extiyojini dastlabki oylarida to'liq qoplaydi. Ona sutida „O" vitamini uncha ko'p

emas, shuning uchun emizikli chaqaloqni o'z vaqtida toza havoga, quyosh nuriga olib chiqib turilsa, bolaning „O" vitaminga bo'lgan ehtiyoji to'la-to'kis qondiriladi.

Ona suti turli kasallik viruslari va mikroblariga qarshi moddalar – antitelolarga boy bo'ladi. Bolani emizganda iloji boricha ko'krakda yig'ilgan hamma sutni bola bir emganda tugatishiga harakat qilish lozim, aks holda, bola o'ziga kerakli sutning yuqori kaloriyali qismini ololmaydi, go'dakni emizib bo'lgach, ko'krakda qolgan sutni, hatto u kam bo'lsa-da, oxirgi tomchisigacha sog'ib olish lozim, bu sut ko'payishiga yordam beradi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ona suti bolani rak kasalliklaridan saqlaydi, uning bu jihatini o'rgangan olimlar, rakka qarshi dori ishlab chiqarishda bundan foydalanish mumkinligini aytishmokda.

Bola ona sutidan ajratilsa va sigir suti yoki sutli aralashmalar bilan boqilsa, u muhim himoya omillaridan mahrum bo'ladi, bu bolaning ichi ketishi, ovqat hazm qilish tizimining buzilishi singari noxushliklarga olib keladi. Ona suti onaning o'zini ham turli kasalliklardan saqlaidi; mastshp, sut bezlari raki, ginekologik kasalliklar bolani ko'kragi bilan emizmagan ayollarda 20—25 barobar ko'p uchraydi. Bolani ko'krak suti berib boqqan onalarda kamqonlik kam kuzatiladi.

Kuzatuvlarga ko'ra, ona sutiga, ona organizmiga tushadigan hamma moddalar o'tadi, shunga ko'ra emizikli ayol o'z ovqagiga katta e'tibor berishi, u to'gri va to'yimli ovqatlanishi, yetarli miqdorda suyuqlik, meva sharbatlari ichib turishi, sof havodan bahramand bo'lishi, tiniqib uxlashi lozim.

Emizish – bolaga ona sutini berish jarayoni. Ko'krak suti bilan boqish to'gridan to'g'ri ko'krakni bolaning og'ziga tutish orqali yoki mahsus sut sog'uvchi pompalar orqali ko'krakdan ajratib olinib keyin chaqaloqqa berilishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) emizishni chaqaloq dunyoga kelgan dastlabki soatidanoq boshlashni tavsiya etadi. Bunda chaqaloq o'zi hohlagan vaqtida va hohlaganicha emizilishi kerak. Sog'liqni saqlash tashkilotlari, shu jumladan JSST, chaqaloq hayotining dastlabki 6 oyida faqatgina ona suti bilan boqishni tavsiya etadi Bu davr davomida bolaga ona sutiga qo'shib faqat D vitamin berilishi mumkin boshqa qo'shimcha ozuqa vostilari berish tavsiya etilamydi[6]. JSST 6 oylikdan boshlab oson hazmlanuvchi qo'shimcha nutrientlar berishni boshlash haqida ko'rsatmalar beradi, lekin bola 2 yoshga to'lgunicha bo'lgan vaqtda ona sutidan to'liq ajratilmaydi balki unga qo'shimcha ravishda turli bo'tqalarga moslashtirib boriladi, agar bolaga 6 oylikdan boshlab birdaniga turli xil qo'shimcha ozuqa moddlar berilsa bu rivojlanayotgan bolaning sog'ligiga salbiy ta'sir etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili tug'ilgan 135 million chaqaloqlarning atigi 42 foizi hayotning birinchi soatida ko'krak suti bilan oziqlanadi, onalarning atigi 38 foizigina birinchi olti oyda farzandini faqat ko'krak suti bilan boqishadi va 58 foiz onalar ikki yoshga to'lgunga

qadar emizishni davom ettiradilar, albatta bu ko'rsatkichlar juda ham past hisoblanadi.

Ko'krak suti bilan boqish onaga ham, chaqaloqqa ham bir qator foydali bo'lib, chaqaloqlarga suniy sutdan ko'ra ona sutining foydasi ko'proq . Aholi daromadi kam va o'rta daromadli mamlakatlarda ko'krak sutini emizishni oshirish orqali har yili besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'lim miqdorini taxminan 820 000 taga kamaytirish mumkin. Rivojlanayotgan varivojlangan mamlakatlarda ko'krak suti bilan boqish ko'rsatkichining yuqoriligi sababli nafas yo'llari infektsiyalari, quloq infeksiyalari, chaqaloqlarning kutilmagan o'limi va chaqaloqlar orasidagi diareya xavfini kamaytiradi . Bundan tashqari astma, oziq-ovqat allergiyasi va qandli diabet xavfini kamaytirish uchun ham aynan chaqaloqlarni to'liq ona suti bilan boqish kerak . Emizish, shuningdek, kognitiv rivojlanishni yaxshilashi va kattalarda orasida ommalashib borayotgan semirishni kamaytirishi ilmiy isbotlangan. Emizishning ona uchun foydali tomonlari: tugu'ruqdan keyingi qon yo'qotishni kamaytiradi, bachadon *tonusi*ni oshiradi, tug'ruqdan keyingi depressiyani oldini oladi . Ko'krak suti bilan boqish qayta hayz ko'rishni kechiktiradi bu esa kutilmagan homiladorlikdan onani himoya qiladi bu jarayon laktatsiya amenoreya deb nomlanadi. Onaning o'z chaqalog'ini emizishi juda ham kuchli sog'lomlashtiruvchi ta'sirga ega bo'lib ko'krak saratoni havfini kamaytiradi, yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, metabolik sindrom va revmatoid artrit bilan kasallanish havfini kamaytirishi isbotlangan . Ko'krak suti bilan boqish iqtisodiy tomondan ham anchagina arzonroq. Emizish o'rtacha 30-45 daqiqa davom etadi, asta sekinlik bilan chaqaloq so'rish-yutish-nafas olish aktini o'rganib boradi. Lekin bolaning emish ko'nikmalari shakllanishi hamda onaning sut yo'llari kengroq ochilishi hisobiga emizish davomiyligi qisarib boradi ya'ni endi bola 30-45 daqiqa emas balki kamroq vaqt ichida o'ziga kerakli bo'lgan sut miqdorini sut bezlaridan ajratib oladi. Shu sababli ham bola 6 oylik bo'lganida 10-15 daqiqa emadi holos . To'g'ridan-to'g'ri ko'krak suti bilan boqishning iloji bo'lmaganda, ko'krakni bo'shatish uchun sut turli maxsus pompalar orali so'rib olinadi, bu esa sutning ko'krak ichida achib qolishini hamda ko'krak infektsiyasidan himoyalanish uchun zarur. Bu usul ko'krakni sut bilan to'lib ketishi yoki umuman sut ishlab chiqarish funksiyasini normal holatda saqlab turish uchun muhim va zarurat bo'lganda bola yana ko'krak sutiga qaytarilishi mumkin . Bazi holatlarda bola ona sutidan ajratilishi kerak bo'ladi[4], masalan tinchlantiruvchi dori qabul qilayotgan onalar emizishi mumkin emas, lekin hozirda ko'pgina dori vositalari ichish vaqtida emizishga qarshi ko'rsatmalar mavjud emas. So'ngi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, COVID-19 infeksiyasi ona suti orqali yuqishi mumkin emas . Tamaki chekish va cheklangan miqdordagi spirtli ichimliklar, qahva iste'mol qilish emizishga salbiy tasir ko'rsatmaydi. Bola onasining ko'kragini emganda,

oksitotsin deb ataladigan gormon sutni alveolalar (lobulalar)dan kanallar (sut kanallari) orqali areola orqasidagi qoplarga (sut havzalariga) oqib kela boshlaydi va bolaning og'ziga sut kelishni boshlaydi.

Ko'krak bezlarining rivojlanishi balog'at yoshidanoq boshlanadi. Dastlab sut yo'llari, yog' hujayralari va biriktiruvchi to'qimaning faollashuvi boshlanadi. Ko'krakning bezing kattaligi yog' hujayralarining soniga bog'liq. Ko'krak bezining hajmi onaning emizish ko'nikmalariga hamda ko'krakdan ishlab chiqariladigan sut miqdoriga bog'liq emas ya'ni ko'krak bezi kichik bo'lsa ham yetarlicha sut ishlab chiqarishi mumkin. Ko'krak bezida hosil bo'lish jarayoni **laktogenez**deb ataladi va u 3 bosqichdan iborat. Birinchi bosqich homiladorlikdavrida sodir bo'lib, bu davrda ko'krakning rivojlanishi va ilk sutini ishlab chiqarilishi sodir bo'ladi, bu sutning hajmi kam lekin ozuqa moddalarga juda boy bo'ladi. Bolaning platsentadan ajralishi bilan sut hosil bo'lishining ikkinchi jarayoni boshlanadi va bu jarayonda hosil bo'ladigan sut toki uchinchi bosqich boshlangunicha ishlab chiqariladi. Sut ishlab chiqarishning uchinchi bosqichi tug'uruqdan bir necha hafta o'tgandan keyin sihlab chiqarila boshlanadi va bu jarayon 2 yilgacha davom etadi. Bu bosqich laktogenezning ikkinchi bosqichidan farq qiladi, u markaziy ravishda (miyada) platsenta tug'ilgandan keyin tabiiy ravishda paydo bo'ladigan gormonal aloqa zanjirlari bilan tartibga solinadi.

Ko'krak suti ikkita asosiy tarkibiy qismlardan iborat: ozuqaviy qismi va biologik faol qismi, ya'ni chaqaloqqa ovqatlanishdan tashqarida yordam beradigan fermentlar,oqsillar, antikorlar.

Ko'krak sutidagi ozuqaviy moddalarning miqdori bolaning ehtiyojini qoplash uchun to'liq yetadi. Ko'krak sutiga ozuqa moddalari ona organizmidan o'tadi. U chaqaloqning yoshiga mos, o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, yog', shakar, suv va oqsilning kerakli miqdorini o'zida saqlaydi. Shuni yodda tutish kerakki, ona sutining ozuqaviy tarkibiga turli omillar, jumladan, homiladorlik davri, chaqaloqning yoshi, onaning yoshi, onaning zararli odatlari: chekishi, spirtli mahsulotlar ichishi kabilar ta'sir ko'rsatadi.

Ona sutining ozuqaviy tarkibidan tashqari, ona suti chaqaloqning o'sishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi fermentlar, antitelolar va boshqa moddalar ham mavjud. Ona sutining biologik faol qismi bolaning sog'lom rivojlanishida juda ham muhim hisoblanadi. Masalan, chaqaloq yuqori nafas yo'llari infektsiyasidan va boshqa turli infeksiyalardan zararlanmasligi uchun ona suti taarkibidagi antitelolar juda ham muhim hisoblanadi.

Ona suti, tarkib jihatidan boshqa sutlar bilan taqqoslaganda, o'ziga xos va juda murakkab bir tarkibga ega bo'lib, faqat ona sutining bolaga to'liq mos ravishda

rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq, ona sutini boshqa sutlar bilan taqqoslaganda, u ko'proq qoramol sutiga o'xshashdir, ammo u o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qoramol suti bilan taqqoslaganda, ona sutida quyidagi farqlar mavjud:

1. Ona suti tarkibida bolaga o'z rivojlanishining dastlabki bosqichida kerak bo'ladigan barcha oziq moddalar mavjud: oqsillar, yog'lar, karbongidratlar, vitaminlar, minerallar va immun tizimini qo'llab-quvvatlaydigan antitanachalar.

2. Qoramol suti ko'proq oqsil va kaltsiyga boy bo'lib, lekin bolaning oshqozon-ichak tizimi va umumiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha tarkibiy qismlar mavjud emas.

Shu bilan birga, ona sutining tarkibi bolaning yoshiga qarab o'zgarib turadi va shu sababli u har doim bola uchun optimal hisoblanadi. Qoramol suti yoki boshqa sutlar bilan taqqoslaganda, ona sutidagi muhim farq shundaki, u faqat ona va bola o'rtasidagi biologik aloqaning natijasi sifatida maxsus ravishda ishlab chiqiladi.

Xulosa. Ona suti, Islomda nafaqat fiziologik jihatdan, balki ma'naviy va diniy nuqtai nazardan ham juda katta ahamiyatga ega. Qur'on va hadislar ona sutining bolalarga qanday foydali ekanligini ta'kidlab, uning emizish davrida bolaga beriladigan eng to'liq va tabiiy oziqa ekanligini ko'rsatadi. Ona suti bolaga nafaqat jismoniy kuch va sog'lik beradi, balki uning ruhiy va aqliy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Islomda ona sutining ahamiyati yuqori baholanib, onaga va bolaga o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlanishi lozimligi haqida o'rgatadi.

Shuningdek, ona sutining emizish davri ikki yil davom etishi kerakligi, bu vaqt ichida bolaning rivojlanishi uchun eng muhim oziq moddalar bilan ta'minlanishi ta'kidlanadi. Ona sutining tarkibi bolaning yoshiga qarab o'zgarib turadi va uning sog'lig'ini saqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Islomda ona suti va uning ahamiyati, nafaqat fiziologik, balki axloqiy, ma'naviy jihatdan ham juda katta o'rin tutadi. Ona sutini emizish bolaning to'liq rivojlanishi uchun zarur bo'lib, uning sog'lig'ini mustahkamlashda beqiyos rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ona va bola o'rtasidagi chuqur hissiy aloqalar va ishonchning shakllanishiga yordam beradi.

REFERENCES

1. Shamsi, A. Islomda bolaning tarbiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2017.
2. Xasanov, B. Islomda ona va bola. Toshkent: "Sharq" nashriyoti. 2016.
3. Abduqodirov, S. Islomda sog'liq va uning ahamiyati. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2018.
4. Alimov, A. Ona suti va uning bolaning rivojlanishidagi roli. Samarqand: "Yangi Nizom" nashriyoti.2019.

5. Tursunov, F. Islomda emizish va uning afzalliklari. Toshkent: "Zarafshon" nashriyoti. 2015.

FINLYANDIYA BOSHLANG'ICH TALIMINING MUVAFFAQIYATLI ELEMENTLARI VA O'ZBEKISTONGA TADBIQ QILISH IMKONIYATLARI

Ilmuradova Feruza
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Fayzullayeva Aygerim
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Finlyandiya boshlang'ich ta'limi tizimining muvaffaqiyatli elementlarini tahlil qiladi va ularni O'zbekiston sharoitida tadbiq etish imkoniyatlarini o'rganadi. Finlyandiya ta'limi dunyoda eng ilg'orlardan biri hisoblanib, o'zining yuqori natijalari, o'quvchilarga individual yondashuvi va stresssiz muhiti bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqotda Finlyandiya ta'limining o'qituvchilarning yuqori malakasi, moslashuvchan o'quv dasturi, baholashning o'ziga xos usullari, inklyuziv ta'lim, o'yin orqali o'qitish va ota-onalar bilan hamkorlik kabi asosiy elementlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu elementlarni joriy etishdagi imkoniyatlar va qiyinchiliklar tahlil etiladi. Xususan, o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv dasturini takomillashtirish, baholash tizimini o'zgartirish, inkluziv ta'limni rivojlantirish va ta'limni moliyalashtirish masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va Finlyandiya tajribasidan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Finlyandiya ta'limi, boshlang'ich ta'lim, ta'lim islohotlari, O'zbekiston ta'limi, muvaffaqiyatli elementlar, tadbiq qilish imkoniyatlari, o'qituvchilar malakasi, o'quv dasturi, baholash tizimi, inkluziv ta'lim, o'yin orqali o'qitish, ota-onalar hamkorligi, ta'lim sifati, ta'lim siyosati, chet el tajribasi .

Аннотация. В статье анализируются успешные элементы финской системы начального образования и изучаются возможности их внедрения в условиях Узбекистана. Финское образование считается одним из самых передовых в мире, отличается высокими результатами, индивидуальным подходом к ученикам и отсутствием стресса. В этом исследовании рассматриваются ключевые элементы финского образования, такие как высокая квалификация учителей, гибкая учебная программа, уникальные методы оценки, инклюзивное образование, игровое обучение и партнерство с родителями. В нем также анализируются возможности и проблемы внедрения этих элементов в узбекскую систему образования. В частности, будут обсуждаться вопросы повышения квалификации педагогов, совершенствования

учебных программ, изменения системы оценивания, развития инклюзивного образования, финансирования образования. Результаты исследования помогут разработать практические рекомендации по модернизации системы образования Узбекистана и эффективному использованию опыта Финляндии.

Ключевые слова: Финское образование, начальное образование, образовательные реформы, узбекское образование, успешные элементы, возможности внедрения, квалификация учителей, учебная программа, система оценки, инклюзивное образование, обучение через игру, вовлечение родителей, качество образования, образовательная политика, зарубежный опыт.

Annotation. This article analyzes the successful elements of the Finnish primary education system and explores the possibilities of their implementation in the conditions of Uzbekistan. Finnish education is considered one of the most advanced in the world, distinguished by its high results, individual approach to students and stress-free environment. This study examines the main elements of Finnish education, such as high qualifications of teachers, a flexible curriculum, unique assessment methods, inclusive education, game-based learning and cooperation with parents. It also analyzes the opportunities and difficulties in implementing these elements in the Uzbek education system. In particular, the issues of improving the skills of teachers, improving the curriculum, changing the assessment system, developing inclusive education and financing education are discussed. The results of the study will help to develop practical recommendations for modernizing the Uzbek education system and effectively using the Finnish experience.

Keywords: Finnish education, primary education, educational reforms, Uzbek education, successful elements, implementation opportunities, teacher qualifications, curriculum, assessment system, inclusive education, learning through play, parental involvement, quality of education, educational policy, foreign experience.

Nufuzli iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, finlyandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi. Finlyandiyada o'rtacha majburiy umumta'lim tizimi ikki bosqichli maktabni o'z ichiga oladi: — quyi (alakoulu), 1-6 sinf; — yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf. Qo'shimcha 10-sinfda o'quvchilar o'z baholarini yaxshilashlari mumkin. So'ngra

bolalar yo professional kollejga yo'l olishadi, yoki litsey (lukio)da o'qishni davom ettirishadi.

Finlyandiya boshlang'ich ta'limining muvaffaqiyatli elementlarini quyidagicha umumlashtirishadi:

1. Yuqori malakali va hurmatli o'qituvchilar: Magistr darajasiga ega, yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va doimiy ravishda o'z malakasini oshirib boradigan o'qituvchilar. O'qituvchilik kasbi jamiyatda yuqori qadrlanadi va raqobatbardosh.
2. O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim. Har bir bolaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim. O'quvchilarga erkinlik va mas'uliyat beriladi. O'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va saqlab qolishga e'tibor qaratiladi.
3. O'yin orqali o'qitish. O'yinlar ta'limning muhim qismi bo'lib, bolalar o'yin orqali o'rganishadi va rivojlanishadi.
4. Stresssiz muhit. Raqobat past darajada. Standartlashtirilgan testlar kam qo'llaniladi (faqat o'quvchilarning o'sishini kuzatish uchun). Baholash o'quvchilarning rivojlanishiga qaratilgan, ularni saralashga emas.
5. Inklyuziv ta'lim. Maxsus ehtiyojli bolalar ham umumiy sinflarda o'qishadi va ularga qo'shimcha yordam beriladi.
6. Erta yoshdagi ta'limga e'tibor. Maktabgacha ta'lim bolalarning ijtimoiy, hissiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.
7. Resurslar bilan ta'minlanganlik. Yaxshi jihozlangan maktablar. Kichik sinflar (o'qituvchilar har bir o'quvchiga e'tibor qaratishga imkon beradi). Bepul ta'lim, shu jumladan bepul ovqatlanish va transport.
8. Ota-onalar bilan yaqin hamkorlik. Ota-onalar farzandlarining ta'limida faol ishtirok etishadi. Maktablar ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lishadi.
9. O'zgaruvchan o'quv dasturi. Milliy standartlar mavjud, ammo o'qituvchilar o'quv dasturini o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish uchun erkinlikka ega.
10. Ishonch. Jamiyat o'qituvchilarga ishonadi va ularning professional qarorlarini hurmat qiladi.

Ushbu elementlar birgalikda Finlyandiya ta'limini dunyoda eng muvaffaqiyatlilaridan biriga aylantirgan.

Ona (fin) tili va o'qish, matematika, tabiat, din (e'tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san'at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo'la bir necha fan o'tilishi mumkin. 3–6 sinflar: Ingliz tili o'rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo'shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda o'ynashni o'rgatishadi, bolalar 9 yillik ta'lim davomida barcha musiqiy asboblarida o'ynashni

mashq qilib ko'rishadi. Til o'rgatish jarayonlarimizga kelsak . Bizning ta'limga ham Fillandiya ta'lim kabi jarayonlarni olib kirsak yanada samarali bo'ladi. O'quvchilarimizga avvalo o'z ona tilida yozishni, o'qish jarayonini chet tillarini qo'shmadan o'gatsak bizda ham til o'rganish jarayoni yanada osonlashadi. Finlyandiya ta'limda chet tili 4 sinfdan qo'shiladi . Samarasi ham yuqori . Bizning ta'lim jarayonida ham bu tizimni joriy qilsak, yuqori natijaga erishishimiz mumkin. Sababi ma'lum bir tilni chuqur o'rganmasdan boshqa tillarni ham o'zlashtirish yuklamasi bizning ta'lim jarayonimizda til o'rganish jarayonini sekinlashtirib yubormoqda. b. Oz ozdan qisman o'rganish va samara kam. Ona tili o'qitish metodikasining metodologiyasi asosi borliqni bilish nazaryasidir.Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlaydi. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi,og'zaki metod, ko'rgazmali metot kabi turli metotlar bilan ularga krativ yondashib o'quvchilarga o'yinlar orqali qisqa muddatda samarali o'z ona tilini o'qitish uchun yangi darsliklardan foydalanishga ehtiyojimiz katta.

Finlyandiya boshlang'ich ta'limining muvaffaqiyatli elementlari:

1. O'qituvchilarning yuqori malakasi va maqomi: Finlyandiyada o'qituvchi bo'lish juda nufuzli va talab yuqori. O'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishi kerak va pedagogika sohasida chuqur bilimga ega bo'lishadi.
2. Erta yoshdagi ta'limga e'tibor: Finlyandiyada maktabgacha ta'limga katta e'tibor beriladi. Maktabgacha ta'lim bolalarning ijtimoiy, hissiy va kognitiv rivojlanishiga qaratilgan.
3. O'quv dasturining moslashuvchanligi: O'quv dasturi milliy standartlarga asoslangan, lekin o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish uchun katta erkinlikka ega.
4. Baholashga yondashuv: Finlyandiyada standartlashtirilgan testlar kam qo'llaniladi. Baholash o'qituvchilarning kuzatuvlariga, o'quvchilarning ishlariga va portfoliolariga asoslanadi. Asosiy maqsad - o'quvchilarni o'rganishga rag'batlantirish va ularning o'sishini qo'llab-quvvatlash.
5. Inkluziv ta'lim: Barcha o'quvchilar, shu jumladan maxsus ehtiyojli bolalar ham umumiy ta'lim muhitida o'qishadi. O'qituvchilarga qo'shimcha yordam beriladi.
6. O'yin orqali o'qitish: O'yinlar o'quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi. O'yinlar bolalarga o'rganishga qiziqish uyg'otadi va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.
7. Maktab muhiti: Maktablar qulay va xavfsiz muhitga ega. Sinf xonalari yaxshi jihozlangan va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan.

8. Ota-onalar bilan hamkorlik: Maktablar ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Ota-onalar o'quv jarayonida faol ishtirok etishadi va farzandlarining ta'lim olishiga yordam berishadi.
9. Bepul ta'lim: Barcha darajadagi ta'lim, shu jumladan oliy ta'lim ham bepul.

Finlyandiya ta'lim modelining ba'zi elementlarini O'zbekistonga tadbiq qilish mumkin, lekin bu jarayon oson bo'lmaydi va bir qator omillarni hisobga olish kerak.Buning uchun ta'lim sohasida quyidagilarni joriy etish kerak.

O'zbekistonda o'qituvchilarning malakasini oshirishga katta e'tibor qaratish kerak. O'qituvchilar uchun pedagogika sohasida chuqur bilim beradigan magistratura dasturlarini yaratish va amaliyotga yo'naltirilgan treninglar tashkil etish zarur. O'qituvchilarning maqomini oshirish uchun ularning ish haqini oshirish va jamiyatda hurmatini ko'tarish kerak. Maktabgacha ta'limga investitsiyalarni ko'paytirish va sifatini oshirish kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish lozim.

O'quv dasturini milliy standartlarga asoslangan holda, lekin o'qituvchilarga o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish uchun erkinlik beradigan qilib ishlab chiqish kerak. Standartlashtirilgan testlardan voz kechish va o'qituvchilarning kuzatuvlariga, o'quvchilarning ishlariga va portfoliolariga asoslangan baholash tizimini joriy etish kerak. Inkluziv ta'limni rivojlantirish: Maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy ta'lim muhitida o'qitish uchun sharoit yaratish va o'qituvchilarga qo'shimcha yordam berish kerak. O'yinlarni o'quv jarayonining muhim qismiga aylantirish va o'qituvchilarni o'yinlardan foydalanishga o'rgatish kerak. Maktablarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash va qulay muhit yaratish kerak. Ota-onalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish va ular bilan muntazam ravishda muloqotda bo'lish kerak. Ta'lim sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish va resurslarni samarali taqsimlash kerak.

Bu borada o'ziga yarasha qiyinchiliklar bo'ladi. Xususan:

- Resurslar cheklanganligi: O'zbekistonda ta'lim sohasiga ajratilgan resurslar Finlyandiy

aga nisbatan kamroq.

- O'qituvchilarning malakasi: O'zbekistonda o'qituvchilarning malaka darajasi har xil.
- O'quv dasturining qattiqligi: O'zbekistonda o'quv dasturi Finlyandiyaga nisbatan qattiqroq.
- Baholash tizimi: O'zbekistonda baholash tizimi standartlashtirilgan testlarga asoslangan.
- Infratuzilma: O'zbekistonda maktablarning infratuzilmasi Finlyandiyaga nisbatan yaxshi emas.

• Mentalitet: O'zbekiston jamiyatida ta'limga bo'lgan munosabat Finlyandiya jamiyatiga nisbatan farq qilishi mumkin.

Xulosa. Finlyandiya ta'lim modelining muvaffaqiyatli elementlarini O'zbekistonga to'liq tadbiq etish qiyin, lekin ulardan ba'zilarini moslashtirib, O'zbekiston ta'lim tizimini yaxshilash mumkin. Bu jarayon uzoq muddatli va bir qator islohotlarni talab qiladi. Asosiy e'tibor o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv dasturini moslashtirish, baholash tizimini o'zgartirish, inkluziv ta'limni rivojlantirish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirishga qaratilishi kerak.

REFERENCES

1. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T:, "Fan va texnologiya" nashriyoti 2010-yil. 464-bet.
2.Mavlonova R.A. va boshqalar. Pedagogika (darslik). T: "O'qituvchi" nashriyoti. 2002 yil.
3.Mavlonova R., Arabova M., Pedagogik texnologiya (metodik qo'llanma) –T: 2008 yil. 47 bet.
4.Mavlonova R.A., Arabova M., Salohiddinova G'. Pedagogik texnologiya. –T: "Fan"nashriyoti. 2008 yil., 123 bet.
5. Goziev E.G. Oliy maktab psixologiyasi. ToshDU 1996 y.
6.Lyaudis V.L. – Metodika prepodavaniya psixologii. iz.vo 2000 URAO
7.T.G.Stefanenko. Etnopsixologiya.-M.:1999
8.X.Alimov. Milliylik va ijtimoiy ruxiyat.-T.:1992
9.I.Xudoyberdiev. Islom, shaxs va milliy psixologiya.-T.:1994

Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yhati:

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycho.all.ru
3. www.psychology.net.ru

IJTIMOIY MEDIA SHAKLLARI

Fazliddinov Sultonbek
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Qo'shma ta'lim dasturi, Biologiya yo`nalishi 4 – kurs talabasi
fazliddinovsultonbek701@gmail.com

Annotatsiya: Maqola "Ijtimoiy Media Shakllari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bu sohadagi rivojlanishlarni va yangi shakllarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ta'sirini o'rganadi. Ijtimoiy media - bu foydalanuvchilarga kontent yaratish, almashish va ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini beradigan onlayn platformalardir

Kalit so`zlar : Ijtimoiy media, ijtimoiy tarmoqlar, internet-platformalar, onlayn hamkorlik, kontent almashish, ta'sir o'tkazish, video platformalar, bloglar.

Kirish

So'nggi yillarda ijtimoiy media insonlar o'rtasidagi muloqot va axborot almashishning yangi shaklini yaratib, global miqyosda keng tarqaldi. Ijtimoiy media platformalari nafaqat shaxsiy aloqalarni o'rnatish, balki biznes, siyosat, madaniyat va boshqa sohalarda ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu yangi media shakllari, an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli o'laroq, foydalanuvchilarga faqat kontentni iste'mol qilishni emas, balki uni yaratish va boshqalar bilan baham ko'rishni ham ta'minlaydi. Ijtimoiy media shakllarining rivojlanishi bilan birga, ularning foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqalari, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarga ta'siri ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqdaIjtimoiy media, asosan, foydalanuvchilar o'rtasida axborot almashinuvi, fikrlar va tajribalar bilan bo'lishish imkonini beruvchi onlayn platformalar va vositalardan iborat. Bugungi kunda ijtimoiy media shakllari turli xil va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ijtimoiy tarmoqlar

Ijtimoiy tarmoqlar, eng keng tarqalgan ijtimoiy media shakli bo'lib, odamlarning o'z fikrlarini, rasmlarini, videolarini va boshqa turdagi kontentlarini yaratish, almashish va tarqatish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar individual sahifalar yaratib, do'stlari yoki keng auditoriya bilan interaktiv tarzda muloqot qiladilar. Facebook, Instagram, Twitter, LinkedIn kabi platformalar ijtimoiy tarmoqlarga misol bo'lib, har biri o'zining maqsadi va foydalanuvchi auditoriysi bilan ajralib turadi. **Facebook** – bu dunyodagi eng katta ijtimoiy tarmoq bo'lib, foydalanuvchilarga turli xil ma'lumotlarni baham ko'rish, fotosuratlar va videolarni joylashtirish, shuningdek, turli guruhlarda muhokama qilish imkoniyatini yaratadi. Facebook shuningdek, bizneslar uchun marketing vositasi

sifatida ham xizmat qiladi. **Instagram** esa, asosan, vizual kontentga qaratilgan platforma bo'lib, foydalanuvchilarga rasmlar va videolar orqali o'z ijodiy ishlanmalarini namoyish etish imkonini beradi. **Twitter** qisqa xabarlar (tweets) bilan mashhur bo'lib, odatda yangiliklar va tezkor fikrlar almashish uchun ishlatiladi.**LinkedIn** professional tarmoq bo'lib, asosan ishbilarmonlar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan, u yerda foydalanuvchilar o'z kasbiy aloqalarini o'rnatadilar.

Bloglar

Bloglar – bu ijtimoiy media shakllaridan yana biri bo'lib, foydalanuvchilar o'zlarining fikrlarini, tajribalarini yoki ma'lumotlarini keng jamoatchilikka taqdim etish uchun yozadilar. Bloglar orqali odatda matnli kontent yaratilib, ularni tahlil qilish va baholash mumkin. Blog yozuvchilari o'zlarining kontentlarini o'quvchilar bilan baham ko'radilar va ularni tahlil qilishni rag'batlantiradilar. Bloglar asosan shaxsiy yoki guruhli muhokama uchun mo'ljallangan va ularni yaratish uchun ko'plab platformalar mavjud. WordPress va Medium eng mashhur blog platformalariga misoldir.

Video Platformalar

Video platformalar ijtimoiy media shakllaridan yana biri bo'lib, ular orqali foydalanuvchilar video kontentni yaratib, uni internetda tarqatishlari mumkin. YouTube eng mashhur video platformasi bo'lib, foydalanuvchilar o'z videolarini yuklab, ularni baham ko'rish va ko'rish imkoniyatiga ega. TikTok esa qisqa videolarni yaratish va tarqatishga qaratilgan, ayniqsa yoshlar orasida juda ommabop.Video platformalar shuningdek, vloglar, o'quv kurslar va jonli translyatsiyalar orqali ko'plab sohalarda axborot tarqatishning samarali usuliga aylandi.

Messenjlar va Chat Platformalar

Messenjlar va chat-platformalar ijtimoiy media shakllarining yana bir turi bo'lib, ular orqali foydalanuvchilar tezda xabar almashishlari mumkin. Bu platformalarda odatda matnli, ovozli va video xabarlar orqali muloqot amalga oshiriladi. WhatsApp, Telegram, Facebook Messenger va Snapchat kabi messenjerlar global miqyosda keng tarqalgan va odamlar o'rtasida bevosita muloqotni ta'minlaydi. Bu platformalar shuningdek, guruhli chatlar va shaxsiy xabarlar yuborish imkoniyatini ham taqdim etadi.

Forumlar

Forumlar – bu foydalanuvchilar o'rtasida biror mavzu bo'yicha fikr almashish va muhokama qilish uchun mo'ljallangan saytlar. Forumlarda foydalanuvchilar turli savollar berib, ularning javoblarini olishlari, tajriba almashishlari mumkin. Reddit va Quora forumlarga misoldir, bu saytlarda foydalanuvchilar o'zlarining savollariga javoblar olishlari yoki ma'lumotlarni izlashlari mumkin.

Ijtimoiy O'yinlar

Ijtimoiy o'yinlar ham ijtimoiy media shaklidan biri sifatida qaraladi. Onlayn o'yinlar orqali odamlar birgalikda o'ynab, o'zaro muloqot qilishlari mumkin. Bu o'yinlar ko'pincha jonli translyatsiyalar orqali kuzatiladi va foydalanuvchilar o'z o'yinlarini boshqalar bilan baham ko'rishadi. Fortnite va Twitch kabi platformalar bu sohada yetakchilik qilmoqda.

Xulosa

Ijtimoiy media shakllarining rivojlanishi va kengayishi, insonlarning o'zaro aloqalarini tubdan o'zgartirdi. Hozirgi kunda ijtimoiy media nafaqat shaxsiy kommunikatsiya vositasi, balki biznes, siyosat, ta'lim va boshqa sohalarda ham samarali vositaga aylandi. Har bir ijtimoiy media shakli o'zining o'ziga xos funksiyalari va foydalanuvchi auditoriysi bilan jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy media shakllarining kelajagi, ular orqali amalga oshiriladigan yangi innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar bilan bog'liq bo'ladi.

REFERENCES

1. Castells, M. (2009). Communication Power. Oxford University Press.
2. Boyd, D. M., & Ellison, N. B. (2007). Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 13(1), 210–230.
3. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media. Business Horizons, 53(1), 59–68.
4. Shirky, C. (2008). Here Comes Everybody: The Power of Organizing Without Organizations. Penguin Press.
5. Morris, M. R., Teevan, J., & Panovich, K. (2010). A survey of social media users and their use of mobile applications. In Proceedings of the 28th international conference on Human factors in computing systems (pp. 883-892). ACM.

YANGI O'ZBEKISTONDA FALSAFA FANINNG ASOSIY VAZIFALARI.

Ishpulatova Mahkamtosh
ToshDTU Olmaliq filiali 1k-22 MET gurux talabasi
faridaishpulatova1@gmail.com

Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida falsafa fani muhim o'rin tutadi. Falsafa inson tafakkurini yuksaltiradi, jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jarayonlarni tahlil qilishga yordam beradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida falsafa fanining vazifalari yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Falsafa fanining asosiy vazifalari:

1. Milliy g'oya va qadriyatlarni mustahkamlash Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Falsafa fani bu jarayonda xalqimizning tarixiy merosi, madaniy an'analari va zamonaviy rivojlanish jarayonlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

2. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish Yangi O'zbekistonning har bir fuqarosi ilmiy fikrlashga asoslangan dunyoqarashga ega bo'lishi zarur. Falsafa fani insonlarni tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatib, yolg'on ma'lumotlar va noto'g'ri tushunchalarga qarshi immunitetni shakllantiradi.

3. Ijtimoiy adolat va huquqiy ongni rivojlantirish Demokratik jamiyat qurishda fuqarolarning huquqiy ongi va ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash muhimdir. Falsafa huquqiy madaniyatni rivojlantirish, shaxs erkinliklari va mas'uliyatini anglashga yordam beradi.

4. Ma'naviy barkamollikni yuksaltirish Falsafa insonning ma'naviy dunyosini boyitadi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni madaniy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning ma'naviy yetuk shaxs bo'lib yetishishida falsafa fanining roli katta.

5. Yangi ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va hal qilish yo'llarini ishlab chiqish Jamiyat doimiy ravishda o'zgarib boradi. Yangi O'zbekistonda shaharsozlik, ekologiya, axborot texnologiyalari va global integratsiya kabi dolzarb muammolar mavjud. Falsafa bu masalalarni tahlil qilib, ularni hal qilish uchun ilmiy va mantiqiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Falsafa insonning dunyoqarashini shakllantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Dunyoqarashni shakllantirish

Falsafa insonning borliq, tabiat, jamiyat va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini aniqlashga yordam beradi. Bu esa shaxsning o'z o'rnini anglashiga, hayotiy

maqsadlarini belgilashiga va jamiyatdagi faoliyatini ongli ravishda amalga oshirishiga zamin yaratadi. Falsafa insoniyat tomonidan ibtidoiy jamoa tuzumi va uning tanazzuli davrida to'plangan ma'naviy tajriba asosida paydo bo'ldi. Falsafaning paydo bo'lishi urug' qabilachilik tuzumi va afsonaviy ong tanazzulining natijasi bo'ldi. Har qanday falsafa insonning dunyoga nisbatan u yoki bu munosabatini ifodalab, muayyan dunyoqarashni shakllantiradi. Falsafaga berilgan eng oddiy va dastlabki ta'riflar: falsafa - bu dunyoqarash yoki boshqacha aytganda: falsafaning mavzusi - «dunyo - inson» tizimidir.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Falsafa insonni mustaqil va tanqidiy fikrlashga, voqelikni chuqur tahlil qilishga o'rgatadi. Bu qobiliyat shaxsning turli muammolarni hal etishda, to'g'ri qarorlar qabul qilishda va yangiliklarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Falsafa o'z oldiga ongli tarzda muayyan muammolarni qo'yadi va ularni ma'lum tamoyillar asosida maxsus joriy qilingan va ishlab chiqilgan tushuncha (kategoriya) va usullar orqali hal qiladi. Falsafa o'z shakllanishining boshidanoq narsalarni mantiq va dalil, kundalik tasavvurlarga tanqidiy munosabat, yuzaki voqea-hodisalarning ichki, tashqi nigohdan yashirin mohiyatini to'g'ri xulosa, fikr qilish orqali topishga qaratilgan.

3. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash

Falsafa jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. U insonni ezgulik, adolat, halollik kabi fazilatlarni qadrlashga, axloqiy me'yorlarga rioya qilishga undaydi. Bu esa jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni yaratishga xizmat qiladi. Falsafa fanlarining hozirgi holati va bo'lajak mutaxassislarda mushohada qilish qobiliyatining shakllanishi, shaxsning xatodan hidoyatga, nafratdan muhabbatga, nopoklikdan halollikka, bid'atdan poklikka yo'naltirilishi dalillarga asoslangan.

4. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish

Falsafa ilm-fan asoslarini o'rganish orqali insonda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu esa shaxsni ilm-fan yutuqlarini to'g'ri qabul qilishga, ilmiy bilimlarni hayotga tatbiq etishga va ilmiy-texnik taraqqiyotga hissa qo'shishga undaydi. Falsafa fanining nazariy-metodologik asoslari, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalari uchun konseptual ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda tahlil qilindi.

5. Ijtimoiy muammolarni hal etishda yo'l-yo'riq ko'rsatish

Falsafa jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda nazariy asoslar yaratadi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy adolat va tenglikka erishishga ko'maklashadi. Yangi O'zbekiston uchinchi uyg'onish davri uchun zamin yaratishga kirishar ekan, tarixiy misollar uning falsafiy ilmiy nazariya va metodologiyaga tayanganligini ko'rsatadi.

6. Madaniy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish

Falsafa milliy madaniyat va an'analarni o'rganish, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa xalqning o'zligini anglashiga, milliy g'urur va iftixorni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur maqolada milliy g'oya, xususan, milliy yuksalish g'oyasi va falsafiy-diniy ta'limot tamoyillari O'zbekistonda falsafaning nazariy va uslubiy asosi sifatida ham talqin etildi.

7. Ta'lim tizimini takomillashtirish

Falsafa ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, insonlarning mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimining innovatsion va zamonaviy talablariga javob berishi uchun falsafa fanining roli yanada ortib bormoqda.

Xulosa. Yangi O'zbekiston falsafa fanining asosiy vazifalari – milliy qadriyatlarni mustahkamlash, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotini tahlil qilish va globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlashdir. Bu vazifalar mamlakatning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Falsafa fani inson tafakkurini chuqurlashtirib, ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishlarini tushunishga yordam beradi. U tarixiy tajribani tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni asrab-avaylash va ilm-fan hamda texnologiyalar rivojini falsafiy nuqtayi nazardan baholashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, falsafa jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirish, erkin va adolatli jamiyat barpo etish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston sharoitida falsafaning vazifasi – yosh avlodni milliy g'urur, vatanparvarlik va tanqidiy fikrlash ruhida tarbiyalashdir.

REFERENCES

1.Falsafa fanidan ma'ruzalar matni
2."Falsafa"N.Oblomuradov, X.Alikulov
3."Falsafa va fan metodologiyasi" N.Shermuhamedova
4."Falsafa" B.S.Turdiyev, E.X.Zoirov

ANGLIYANING TA'LIM TIZIMI: BOSHLANG'ICH TA'LIMNING XUSUSIYATLARI, O'QITISH USLUBLARI VA METODIKALARI

Baltabayeva Beksulu Nurjan qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang`ich ta`lim fakulteti Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi
24/12 gruh 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Ilmurodova Feruza Shakirovna**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Angliyaning ta'lim tizimi, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi batafsil yoritiladi. Biz boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan o'qitish uslublari, metodikalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida tahlil yuritamiz. Shuningdek, Angliya va boshqa davlatlar ta'lim tizimlari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ko'rib chiqiladi.

Kirish

Angliyaning ta'lim tizimi butun dunyoda o'zining yuqori sifatli dasturlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlari bilan mashhur. Britaniya maktablari o'quvchilarga ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beruvchi turli xil o'qitish metodikalarini qo'llaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni kelajakdagi akademik muvaffaqiyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada biz Angliyaning boshlang'ich ta'lim tizimi, unda qo'llaniladigan asosiy o'qitish uslublari va metodikalari haqida batafsil ma'lumot beramiz.

Angliyaning ta'lim tizimi: umumiy ko'rinish

Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi — **Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligining** tarkibiy qismlari va undan oldin **Britaniya orollari**, shuningdek, turli qit'alardagi dominionlar va Britaniya **mustamlakalarini** o'z ichiga olgan **Britaniya imperiyasining** ta'lim muassasalari to'plami[1].

Buyuk Britaniyada ta'lim 5 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan barcha fuqarolar uchun majburiydir. Mamlakatda ikkita ta'lim sektori mavjud: davlat (bepul ta'lim) va xususiy (pullik ta'lim muassasalari, xususiy maktablar). Buyuk Britaniyada ikkita ta'lim tizimi osonlikcha birga bo'lishi mumkin: biri **Angliya**, **Uels** va Shimoliy **Irlandiyada**, ikkinchisi **Shotlandiyada** joylashgan[2].

UNESKO va **OECD** ma'lumotlariga ko'ra, **2012**-yilda mamlakatda 3,5 million talaba tahsil olgan, ulardan 427 ming nafari xorijiy fuqarolardir[3].
O'quvchilarning yoshi bo'yicha maktablarning tasnifi

- **To'liq tsiklli maktablar** — bu yerda 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan barcha yoshdagi bolalar o'qiydi
- **Maktabgacha ta'lim muassasalari** — 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bolalar bog'chalari deb ataladi. Bu yerda ular o'yinlar orqali o'qish, yozish, hisoblash, rivojlanishni o'rgatishadi. Odatda bunday maktablar kichik yoshdagi o'quvchilar maktablari bilan birgalikda tashkil etiladi. O'quvchilarning yoshi 2 yosh 9 oydan 4 yoshgacha.

Yosh talabalar uchun muassasalar

Boshlang'ich maktab — o'quvchilarning yoshi 4 yoshdan 11 yoshgacha. SAT 2 bosqichda, ikkinchi va oltinchi o'qish yilida o'tkaziladi. Ikkinchi imtihon natijalari O'rta maktabga kirish uchun muhimdir.

- **O'rta maktab** — 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun. Bu yerda bolalar turli fanlar bo'yicha maxsus boshlang'ich umumiy o'qitish tsiklidan o'tadilar, bu umumiy kirish imtihonlari bilan yakunlanadi. Bunday imtihondan muvaffaqiyatli o'tish o'rta maktabga kirishning asosiy shartidir

O'rta maktab o'quvchilari uchun muassasalar

- **Katta maktablar** — 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar uchun. Bu yerda bolalar birinchi navbatda GCSE imtihonlarini topshirish uchun ikki yillik treningdan o'tadilar, so'ngra yana ikki yillik dastur: A-Level yoki International Bakalavr.
- **O'rta maktab** — 11 va undan katta yoshdagi bolalar uchun ta'lim.
- **Grammatika maktabi** — 11 yosh va undan katta yoshdagi bolalar uchun chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha ta'lim. Xuddi shu maktablarda siz universitetga tayyorgarlik ko'rishingiz mumkin (oltinchi sinf).
- **Universitetlarga tayyorgarlik ko'rish maktablari**— 16-18 yoshli katta o'smirlar uchun.

Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'limni ham davlat, ham xususiy ta'lim muassasalarida olish mumkin. Asosan ota-onalar farzandlarini 3-4 yoshida bolalar bog'chasiga yuborishadi.

Tayyorgarlik ta'lim

Xususiy maktablarda tayyorgarlik yoki boshlang'ich sinflarga 5 yoshdan boshlab bolalar qabul qilinadi. Chet ellik talabalar maktabga 7 yoshdan kirishadi va 11-13 yoshda darhol o'sha xususiy maktabning o'rta sinflariga o'tkaziladi[9].

Boshlang'ich maktab ta'limi

Ko'pchilik britaniyalik bolalar 5 yoshida davlat boshlang'ich maktablariga kiradi va keyin 11 yoshida o'sha maktabdagi o'rta ta'lim sinflariga o'tadi yoki kollejga boradi. Boshlang'ich maktabda bolalar ingliz tili, matematika, tarix, geografiya, musiqa, sanoat texnologiyasi va san'at fanlarini o'rganadilar. Mavzular

ota-onalar tomonidan tanlanadi. Ba'zi tuman va tumanlarda 11 yoshli bolalar o'rta ta'lim uchun maktab tanlash imkoniyatini kengaytirish uchun " 11+ " deb nomlangan kengaytirilgan imtihon topshirishlari mumkin. Ilgari, bu imtihon Angliya va Uelsda qo'llangan, ammo standartlashtirilgan test bilan almashtirildi

Angliyada ta'lim tizimi davlat maktablari va xususiy maktablar orqali amalga oshiriladi. Majburiy ta'lim 5 yoshdan boshlanib, 18 yoshgacha davom etadi. Ta'lim bosqichlari quyidagicha ajratiladi:

1. Boshlang'ich ta'lim (Primary Education) – 5 yoshdan 11 yoshgacha
2. O'rta ta'lim (Secondary Education) – 11 yoshdan 16 yoshgacha
3. Yuqori ta'lim (Further & Higher Education) – 16 yosh va undan keyin

Boshlang'ich ta'lim (Primary Education)

Angliyada boshlang'ich ta'lim Key Stage 1 (5-7 yosh) va Key Stage 2 (7-11 yosh) bosqichlariga bo'linadi. Maktab o'quvchilari quyidagi asosiy fanlarni o'rganadilar:

- Ingliz tili
- Matematika
- Tabiiy fanlar
- San'at va dizayn
- Jismoniy tarbiya
- Diniy ta'lim

Buyuk Britaniyada juda ko'p turli xil maktablar mavjud. Turli ma'lumotnomalar, onlayn, jurnal va gazeta maqolalari maktablarni tasniflash uchun turli mezonlardan foydalanishi mumkin. Buyuk Britaniyada maktabning keng tarqalgan turi bu internat maktablari bo'lib, unda talabalar ham o'qiydilar, ham yashaydilar. Birinchi maktab-internatlar Britaniyada erta o'rta asrlarda — asosan monastirlarda paydo bo'lgan XII asrda Rim papasi barcha Benediktin monastirlarini ular bilan xayriya maktablarini ochishga majbur qildi. Biroz vaqt o'tgach, bunday maktablarda o'qish pulli bo'la boshladi. Aristokratik oilalar monastir maktablaridan ko'ra uyda ta'lim olishni afzal ko'rsalar ham, vaqt o'tishi bilan o'smirlar uchun, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, tengdoshlari bilan birga o'qish foydaliroq, degan e'tiqod tarqaldi. Ushbu e'tiqod imtiyozli maktab-internatlarni (davlat maktablari) tashkil etish va rivojlantirish uchun asos bo'ldi, ular orasida ming yildan ortiq vaqt davomida zamonaviy Britaniya jamiyatining elitasini tarbiyalayotgan, o'qitgan va shakllantirganlar bor. Dunyodagi eng qimmat va nufuzli maktablar ro'yxatiga Britaniya maktab-internatlari ham kiritildi

O'qitish uslublari va metodikalari

1. O'yin orqali o'qitish (Play-based Learning)

O'yin orqali o'qitish boshlang'ich ta'limda keng qo'llaniladi. Ushbu metod orqali bolalar tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Masalan, matematika darslarida o'yinlar orqali hisoblash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

2. Differensial yondashuv (Differentiated Instruction)

O'qituvchilar har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda, turli darajadagi topshiriqlarni ishlab chiqadilar. Bu yondashuv o'quvchilarning qobiliyatlarini inobatga olib, ularni individual o'qitish imkonini beradi.

3. Interfaol ta'lim (Interactive Learning)

Maktablarda darslar interfaol usulda olib boriladi. O'qituvchilar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun turli texnologiyalar (masalan, interaktiv taxtalar) va guruhli ishlash metodlarini qo'llaydilar.

4. Loyihaviy o'qitish (Project-Based Learning)

Bu metod orqali o'quvchilar real hayotiy muammolarni hal qilish bilan shug'ullanadilar. Masalan, ekologiya bo'yicha loyihalar orqali o'quvchilar tabiatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini oshiradilar.

Ta'lim 18 yoshdan boshlab

Ikki yillik A-darajali kursni tugatgandan so'ng, talabalar professional yokida oliy ma'lumot olishlari mumkin

Qo'shimcha ta'lim kasbiy tayyorgarlik kurslarini va oliy ta'lim uchun ba'zi kurslarni (bakalavr darajalari) o'z ichiga oladi. „Kasb-hunar ta'limi" atamasi 16 yoshda maktabni tark etganlar uchun kurslarga nisbatan qo'llanadi. Buyuk Britaniyada 600 dan ortiq davlat va xususiy qo'shimcha ta'lim kollejlari mavjud. Ushbu muassasalar turli xil o'quv dasturlarini taklif qiladi, jumladan, ingliz tili kurslari, O'rta ta'limning umumiy sertifikati va A-level, professional kurslar

Oliy ta'lim bakalavriat, aspirantura (magistratura, doktorantura) va MBA dasturlarini o'z ichiga oladi. „Oliy ta'lim" atamasi oliy yoki doktorlik darajasini taklif qiluvchi universitetlar, kollejlar va institutlardao'qishni anglatadi

1960-yillargacha mamlakatda oliy ta'lim 23 ta institutlarda olib borilgan, ulardan 16 tasi Angliyada, 1 tasi Uelsda, 4 tasi Shotlandiyada, 2 tasi Shimoliy Irlandiyada bo'lgan. Biroq, oliy ta'lim sohasidagi o'zgarishlar tufayli 1970-yillarning boshlariga kelib, universitetlar soni ikki baravar ko'paydi va ularda tahsil olayotgan talabalar soni yanada oshdi.

Xulosa

Angliya ta'lim tizimi ilg'or pedagogik texnologiyalar va metodikalarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. O'yin orqali o'qitish, differensial yondashuv, interfaol ta'lim va loyihaviy

o'qitish kabi metodikalar yordamida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi. Ushbu tajribani boshqa davlatlarning ta'lim tizimlariga joriy etish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Department for Education, UK. The National Curriculum in England: Key Stages 1 and 2 Framework Document. 2014. Retrieved from https://www.gov.uk/government/publications/national-curriculum-in-england-primary-curriculum
2. British Council. Innovative Teaching Methods in UK Primary Schools. Retrieved from https://www.britishcouncil.org/
3. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. Norton & Company.
4. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiyalash bo'yicha tavsiyalar. Retrieved from https://www.uzedu.uz/
6. UNICEF Uzbekistan. Milliy o'quv dasturidan tavsiyalar. Retrieved from https://www.unicef.org/uzbekistan/en/recommendations-national-curriculum-framework

YANGI O'ZBEKISTONDA FALSAFA FANINNG ASOSIY VAZIFALARI.

Ishpulatova Mahkamtosh
ToshDTU Olmaliq filiali 1k-22 MET gurux talabasi
faridaishpulatova1@gmail.com

Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida falsafa fani muhim o'rin tutadi. Falsafa inson tafakkurini yuksaltiradi, jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jarayonlarni tahlil qilishga yordam beradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida falsafa fanining vazifalari yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Falsafa fanining asosiy vazifalari:

1. Milliy g'oya va qadriyatlarni mustahkamlash Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Falsafa fani bu jarayonda xalqimizning tarixiy merosi, madaniy an'analari va zamonaviy rivojlanish jarayonlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

2. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish Yangi O'zbekistonning har bir fuqarosi ilmiy fikrlashga asoslangan dunyoqarashga ega bo'lishi zarur. Falsafa fani insonlarni tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatib, yolg'on ma'lumotlar va noto'g'ri tushunchalarga qarshi immunitetni shakllantiradi.

3. Ijtimoiy adolat va huquqiy ongni rivojlantirish Demokratik jamiyat qurishda fuqarolarning huquqiy ongi va ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash muhimdir. Falsafa huquqiy madaniyatni rivojlantirish, shaxs erkinliklari va mas'uliyatini anglashga yordam beradi.

4. Ma'naviy barkamollikni yuksaltirish Falsafa insonning ma'naviy dunyosini boyitadi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni madaniy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning ma'naviy yetuk shaxs bo'lib yetishishida falsafa fanining roli katta.

5. Yangi ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va hal qilish yo'llarini ishlab chiqish Jamiyat doimiy ravishda o'zgarib boradi. Yangi O'zbekistonda shaharsozlik, ekologiya, axborot texnologiyalari va global integratsiya kabi dolzarb muammolar mavjud. Falsafa bu masalalarni tahlil qilib, ularni hal qilish uchun ilmiy va mantiqiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Falsafa insonning dunyoqarashini shakllantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Dunyoqarashni shakllantirish

Falsafa insonning borliq, tabiat, jamiyat va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini aniqlashga yordam beradi. Bu esa shaxsning o'z o'rnini anglashiga, hayotiy

maqsadlarini belgilashiga va jamiyatdagi faoliyatini ongli ravishda amalga oshirishiga zamin yaratadi. Falsafa insoniyat tomonidan ibtidoiy jamoa tuzumi va uning tanazzuli davrida to'plangan ma'naviy tajriba asosida paydo bo'ldi. Falsafaning paydo bo'lishi urug' qabilachilik tuzumi va afsonaviy ong tanazzulining natijasi bo'ldi. Har qanday falsafa insonning dunyoga nisbatan u yoki bu munosabatini ifodalab, muayyan dunyoqarashni shakllantiradi. Falsafaga berilgan eng oddiy va dastlabki ta'riflar: falsafa - bu dunyoqarash yoki boshqacha aytganda: falsafaning mavzusi - «dunyo - inson» tizimidir.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Falsafa insonni mustaqil va tanqidiy fikrlashga, voqelikni chuqur tahlil qilishga o'rgatadi. Bu qobiliyat shaxsning turli muammolarni hal etishda, to'g'ri qarorlar qabul qilishda va yangiliklarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Falsafa o'z oldiga ongli tarzda muayyan muammolarni qo'yadi va ularni ma'lum tamoyillar asosida maxsus joriy qilingan va ishlab chiqilgan tushuncha (kategoriya) va usullar orqali hal qiladi. Falsafa o'z shakllanishining boshidanoq narsalarni mantiq va dalil, kundalik tasavvurlarga tanqidiy munosabat, yuzaki voqea-hodisalarning ichki, tashqi nigohdan yashirin mohiyatini to'g'ri xulosa, fikr qilish orqali topishga qaratilgan.

3. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash

Falsafa jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. U insonni ezgulik, adolat, halollik kabi fazilatlarni qadrlashga, axloqiy me'yorlarga rioya qilishga undaydi. Bu esa jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni yaratishga xizmat qiladi. Falsafa fanlarining hozirgi holati va bo'lajak mutaxassislarda mushohada qilish qobiliyatining shakllanishi, shaxsning xatodan hidoyatga, nafratdan muhabbatga, nopoklikdan halollikka, bid'atdan poklikka yo'naltirilishi dalillarga asoslangan.

4. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish

Falsafa ilm-fan asoslarini o'rganish orqali insonda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu esa shaxsni ilm-fan yutuqlarini to'g'ri qabul qilishga, ilmiy bilimlarni hayotga tatbiq etishga va ilmiy-texnik taraqqiyotga hissa qo'shishga undaydi. Falsafa fanining nazariy-metodologik asoslari, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalari uchun konseptual ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda tahlil qilindi.

5. Ijtimoiy muammolarni hal etishda yo'l-yo'riq ko'rsatish

Falsafa jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda nazariy asoslar yaratadi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy adolat va tenglikka erishishga ko'maklashadi. Yangi O'zbekiston uchinchi uyg'onish davri uchun zamin yaratishga kirishar ekan, tarixiy misollar uning falsafiy ilmiy nazariya va metodologiyaga tayanganligini ko'rsatadi.

6. Madaniy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish

Falsafa milliy madaniyat va an'analarni o'rganish, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa xalqning o'zligini anglashiga, milliy g'urur va iftixorni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur maqolada milliy g'oya, xususan, milliy yuksalish g'oyasi va falsafiy-diniy ta'limot tamoyillari O'zbekistonda falsafaning nazariy va uslubiy asosi sifatida ham talqin etildi.

7. Ta'lim tizimini takomillashtirish

Falsafa ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, insonlarning mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimining innovatsion va zamonaviy talablariga javob berishi uchun falsafa fanining roli yanada ortib bormoqda.

Xulosa Yangi O'zbekiston falsafa fanining asosiy vazifalari – milliy qadriyatlarni mustahkamlash, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotini tahlil qilish va globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlashdir. Bu vazifalar mamlakatning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Falsafa fani inson tafakkurini chuqurlashtirib, ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishlarini tushunishga yordam beradi. U tarixiy tajribani tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni asrab-avaylash va ilm-fan hamda texnologiyalar rivojini falsafiy nuqtayi nazardan baholashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, falsafa jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirish, erkin va adolatli jamiyat barpo etish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston sharoitida falsafaning vazifasi – yosh avlodni milliy g'urur, vatanparvarlik va tanqidiy fikrlash ruhida tarbiyalashdir.

REFERENCES

1.Falsafa fanidan ma'ruzalar matni
2."Falsafa"N.Oblomuradov, X.Alikulov
3."Falsafa va fan metodologiyasi" N.Shermuhamedova
4."Falsafa" B.S.Turdiyev, E.X.Zoirov

BOBUR IZIDAN: ANDIJONDAN HINDISTONGACHA

Mahammadjonova Feruzaxon
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24/10 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Feruza Shakirovna**

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li yoritiladi. Andijonda tug'ilib,Samarqand uchun kurashgan, lekin oxir-oqibat Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solgan hukmdorning taqdiri tasvirlanadi.Boburning Andijonga bo'lgan muhabbati,uning tarixiy qarorlari va nega tug'ilgan yurti emas,balki Hindistonga taxtiga yetib borgani haqida fikr yuritiladi.Bu maqola Boburning nafaqat siyosiy yurishlari, balki inson sifatida boshdan kechirgan sinovlari haqida ham hikoya qiladi. Uning yo'li – bu faqat Andijondan Hindistongacha bo'lgan masofa emas, balki jasorat, bardosh va orzular sari intilish yo'lidir.

Kalit so'zlar: Bobur, Andijon, Samarqand, Kobul, Hindiston, Panipat jangi, Boburiylar imperiyasi, tarix, sarkarda, davlat arbobi.

Tarix ko'p hukmdorlarni eslaydi. Ba'zilar yurishlari, ba'zilar esa qattiqqo'lligi bilan nom qoldirgan. Ammo Bobur o'z nomini nafaqat janglari, balki o'zining fikri, tiliga sadoqati va orzulari bilan tarixga muhrlagan shohdir. Bobur 1483-yilda Andijonda tug'ildi. Uning bolaligi bog'lar ichida, tabiat go'zalligi bilan o'ralgan holda o'tdi. U "Boburnoma" asarida Andijonni shunday eslaydi:

"Andijon obod shahar, suvi shirin, bog'-bo'stonlari ko'p. Bu yerning xalqi sof turkiy tilida so'zlaydi. Mevalari, ayniqsa, anori va uzumi mashhur." Boburning otasi Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyatini boshqargan, onasi Qutlug' Nigorxon esa barakali xonadon sohibasi edi. Bobur tug'ilgan davr Movarounnahr uchun sinovli yillar edi – Temuriylar o'rtasidagi nizolar, Shayboniylar tahdidi va kuchayib borayotgan ichki ziddiyatlar yosh shahzodaning hayot yo'lini keskin o'zgartirishga majbur qildi. Bobur bolaligidan she'riyatga, tabiatga, ilm-fanga mehr qo'ydi. Ammo u oddiy shoir emas, balki taqdir uni buyuk yurishlar sari yetaklagan shaxs edi. 12 yoshga yetganda otasi vafot etdi va Bobur taxt vorisi bo'lib qoldi. Shunday qilib, uning mashaqqatli, lekin buyuk yo'li boshlanib ketdi.

U bu yurtda befarzand emas edi. Onasining tarbiyasi, otasidan meros qolgan jasorat, o'z xalqiga bo'lgan muhabbat – hammasi Boburning harakatlantiruvchi kuchi edi.Lekin taxt oson saqlanadigan narsa emas. Bobur juda yosh hukmdor edi va uning atrofida tajribali, kuchli raqiblar ko'p edi. Taqdir odamni uzoq yo'llarga boshlaydi. Ba'zan u tug'ilgan yurtining ko'chalarida yurishni orzu qiladi, ammo oyoqlari uni

boshqa manzillarga olib boradi. Bobur ham shunday bo'ldi – Andijon bog'larida o'sgan yigit Hindiston taxtiga yetib bordi. Nega bunday bo'ldi? Nega Bobur o'zining yashil vodiysidan, shirin anorlaridan, sof turkiy tilidan uzoqlashdi. Bobur yoshligidan ajdodlari singari Samarqand taxtini egallashni istagan. Bu shaharga ikki marta yurish qilib, uni qo'lga kiritdi, lekin uzoq ushlab tura olmadi. Shayboniyxon bilan bo'lgan kurashda mag'lub bo'lib, nafaqat Samarqandni, balki Andijonni ham tark etishga majbur bo'ldi. Endi unga Movarounnahrda joy qolmadi. Bobur Samarqandni boy bergach, Afg'onistonga yo'l oldi va 1504-yilda Kobulni zabt etdi. U yerda o'z hokimiyatini mustahkamlab, yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rdi. Bobur uchun Kobul nafaqat boshpana, balki katta yurishlarga tayyorgarlik markazi ham bo'ldi. 1526-yilda Bobur katta qarorga keldi – u Hindiston sari yo'l oldi. Panipat jangida Ibrohim Lodiy ustidan g'alaba qozonib, Dehliga yo'l ochdi. Shundan keyin Rajputlar va boshqa mahalliy hokimiyatlar bilan kurashib, o'z davlatining poydevorini qo'ydi. Bobur Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos soldi. Bu davlat keyinchalik Hindiston tarixining eng buyuk saltanatlaridan biriga aylandi. U faqat jangchi emas, balki madaniyat homiysi ham edi. Bobur Hindistonga faqat qurol bilan emas, bilim va madaniyat bilan ham bordi. Nega bunday bo'ldi?

Bobur Andijonda dunyoga kelgan, lekin taqdir uni Hindistonga yetakladi. Bu shunchaki tarixiy tasodifmi yoki Boburning o'zi tanlagan yo'lmi? U vatani Andijonni sevardi. Lekin taqdir unga boshqa yurtni berdi. U Samarqandni orzu qilardi, lekin Hindistonni oldi. U o'z xalqi orasida qolishni istardi, lekin boburiylarning keyingi avlodlari allaqachon boshqa millat bilan qorishib ketgan edi. Hayot ba'zan biz kutgan yo'nalishda kechmaydi. Bobur o'z tug'ilgan yeridan uzoqda hayotini yakunladi, lekin u qurgan davlat tarixning eng buyuk imperiyalaridan biriga aylandi.

Xulosa:

Boburga ikki yo'l bor edi: u Andijonda qolib, kichik hukmdor sifatida yashashga yoki katta tarix yaratishga harakat qilishga qaror qilishi mumkin edi. U ikkinchi yo'lni tanladi. U o'z yo'lida ko'p mag'lubiyatlarga uchradi, lekin har safar kuchini yig'ib, yangi ufqlarga intildi. Bobur Hindistonda saltanat barpo etdi, lekin yuragida Andijon yashar edi. Uning orzulari Samarqandda boshlangan bo'lsa ham, qadamlari Dehlida o'z izini qoldirdi. Boburga Andijonda qolish, uzumzor bog'lar orasida kichik hukmdor bo'lish ham mumkin edi. Lekin u tarixni tanladi. U Samarqandni yo'qotsa ham, umidni yo'qotmadi. Oxir-oqibat uning yo'li Hindistonga eltib, uni buyuk hukmdorga aylantirdi. Bu taqdirning hazilimidi? Yo'q. Bu jasorat, qat'iyat va maqsadga intilishning natijasi edi. Bobur bir vatanni qo'msab, boshqa yurtda buyuk saltanat barpo etdi. Lekin qayerga bormasin, qayerda g'alaba qozonmasin, u doimo Andijonlik edi! Bugungi kunda ham biz Boburni yodga olar

ekanmiz, uning nafaqat buyuk sarkarda, balki jasoratli inson ekanligini unutmaymiz. Chunki haqiqiy g'olib faqat jang maydonida emas, balki hayot maydonida ham o'z yo'lini topa bilgan kishidir.

REFERENCES

1.Zahiriddin Muhammad Bobur – Boburnoma, 1857-yil, Qozoq nashri
2.Primqul Qodirov –Yulduzli tunlar,1978-yil,Toshkent ,G'ofur G'ulomov nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti
3.V.A.Smith –Hindiston tarixi,1919-yil,London
4.Yahyo G'ulomov –O'zbek xalqi tarixi,1950-yil,Toshkent
5.''Bobur"maqolasi –Vikipediya *uz.wikipedia.org*

SAMARQAND-NODIR DURDONALAR MASKANI

Feruza Shakarboy qizi Nishonova
Chirchiq davlat pedogogika unversiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
Il**miy rahbar:** Ilmurodova Feruza Shakirovna

ANNOTATSIYA:

Maqolada Sharq gavharining noyob me'moriy obidalari,ularning tarixi va madaniy o'rni yoritib berilgan.Samarqandning yuragi Shohizinda majmuasi,Amir Temur maqbarasi ,Ulug'bek rasadxonasi va Bibixonim masjidi ,Imom al-Buxoriy maqbarasi kabi qadimiy inshootlarning memoriy jozibadorligi va ularning qadimiy o'rni haqida so'z boradi.SHuningdek,risolada Temuriylar meros shahrida ilm-fan va madaniyatning o'rni ham aytib o'tiladi.Osmon toqiga tutashgan gumbazlar shahrining mo'jizakor merosi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Registon,YUNESKO,madrasa,maqbara,me'morchilik,O'rta Osiyo,Saudiya Arabiston

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimizda ko'plab betakror va beqiyos shaharlar bor. Masalan, Samarqand,Buxoro,Xiva,Xorazm kabi qadimgi karvon yo'lining tarmoqlari bo'ylab joylashgan.Ushbu shaharlar asrlar davomida Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo,madaniyat va ilm-fan almashinuvi markazlari bo'lib xizmat qilgan.O'zbekistonning tarixiy poytaxti bo'lmmish Samarqand haqida so'zlar ekanmiz ko'z oldimizga registon maydoni kelaveradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOTDOLOGIYA

Registon(fors-mayda tosh to'shalgan joy)-O'rta Sharq mamlakatlari shaharlaridagi asosiy maydon,turli maqsadlarda odamlar to'planadigan joy bo'lgan.O'rta Osiyo javohiri majmuasida Ulug'bek,Tillakori va Sherdor madrasalaridan tashkil topgan.Madrasalarning devorlari koshinli bezaklarga ega,madrasa eshiklariga esa qur'on oyatlari va suralari bitilgan.

Markaziy Osiyodagi me'morchilikning eng noyob namunalarini o'z ichiga olgan sharq me'morchiligining durdonasi 2001-yilda YUNESKO tomonidan jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.Majmuadagi birinchi madrasa bo'lgan Ulug'bek madrasasi 1417-1420 yillarda temuriylardan bo'lgan sulton va olim Ulug'bek tomonidan qurilgan.Ushbu bilim dargohida ko'plab olimlar va faylasuflar yetishib chiqqan.Undan keyin Sherdor madrasasi 1619-1635 yillarda qurilgan Sherdor

madrasasi Ulug'bek madrasasining ro'parasida joylashgan.Bu ilm dargohi ikki qavatdan iboratdir.Madrasaning nomi kirish qismidagi oq ohuni quvayotgan sher tasviridan kelib chiqqan.Ulug'bek va Sherdor madrasalarining o'rtasida joylashgan Tillakori madrasasi 1646-1660yillarda Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan qurilgan.Ushbu obida bezaklariga ko'p miqdorda oltin qo'llanilganligi sababli bu madrasa ''Tillakori''ya'ni ''tilladan ishlov berilgan''deb nomlangan .Yana bir mashhur qadamjolaridan biri Imom al-Buxoriy maqbarasidir.Musulmon olamining taniqli muhandislaridan biri Imom al-Buxoriy 810-yil 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan,870-yilda Samarqanddan 25 km uzoqda joylashgan Xartang qishlog'ida (Samarqand viloyatining hozirgi Chelak tumani)da vafot etgan va o'sha yerda dafn etilgan.Biroq bu joy asrlar davomida qaravsiz holatda qolgan edi.O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng , majmua qayta tiklandi.1997-yilning 29-aprelida O'zbekiston Respublikasi hukumatining '' Imom al- Buxoriy '' tug'ilgan kunining hijriy oy tqvimi bo'yicha 1225-yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori qabul qilindi.Majmua qurilishi va undagi obodonlashtirish ishlari birinchi prezdentimiz I.Karimov boshchiligida amalga osgirilgan.Devorlari och yashil ,havorang,oq qoplamali plitalar ,marmarlar bilan bezalganan.Ayvonlarning umumiy maydoni 214 kv.m masjidda bir vaqtning o'zida 1500 kishi nomoz o'qishi mumkin. Mehrob tokchasida Islom Karimovga Saudiya Arabistoni qiroli Fahd ibn Abdulaziz tomonidan hadya qilingan kisva-Ka'baning qoplamasi osilgan.Hovlining chap qanotida ,yordamchi xonalari bilan zal (miyansaroy)joylashgan.Bu binoda kutubxona,ilmiy xodimlarning kabinentlari va boshqa xonalardan tashkil topgan.Kutubxonada Qur'onning noyob namunalari ,ilk nashrlar hamda Imom al-Buxoriy asarlarining namunalari saqlanadi.Imom al-Buxoriy majmuasi yurtimizdagi oxirgi vaqtlarda barpo etilgan shu turdagi inshootlarning eng katta va betakror qadamjolardan biri hisoblanadi.prezident Islom Karimovning so'zlariga ko'ra ,bu majmua faqatgina muqaddas ziyorat joyi bo'lib qolmasdan ,balkiO'zbekistondagi yurtimiz dovrug'ini dunyoga yoyuvchi va o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida muhim ro'l o'ynovchi ,har bir kishini hayot va mangulik to'g'risida o'ylashga majbur qiluvchi joylardan biridir.2024-yil 26-avgust kuniPrezident SHavkat Mirziyoyev Samarqandga tashrif buyurdi.Azaliy qadryatlarimizga muofiq, avvalo Imom al-Buxoriy maqbarasi ziyorat qilindi.Qur'on tilovat etilib duo o'qildi.Ma'lumki ,prezidentimiz tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasi yangidan barpo etilmoqda.Maqbara maydoni 600 kv.m balandligi 28 metr etib kengaytirilgan.10 ming kishiga mo'ljallangan masjid bunyod etilgan Majmuaning to'rt burchagidagi 75 metrlik minoralar uning ko'rkiga ko'rk bag'ishlab turibdi.Davlatlatimiz rahbari ushbu qurilish va pardozlash ishlari bilan tanishdi.Endi majmuada zamonaviy ,xavfsiz boshqaruvni joriy etish zarurligini ta'kidladi.-Bu majmua buyuk ma'naviy ustun

bo'lishi kerak,-dedi Prezident.Qadimiy inshootlar inson ruhiyati va ma'naviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi.Ular bizga o'tmishni his qilish,ajdodlar hayoti va qadryatlarini anglash, milliy g'urur va ruhiy barkamollikka erishish imkoniyatini yaratib beradi.Tarixiy yodgorliklar san'at va me'morchilik mo'jizalari bo'lib,inson qalbida ajoyib estetik zavq uyg'otadi.U yerga tashrif buyurgan odamning ichki olamida osoyishtalik va ma'naviy tozalik barq uradi.Ajdodlar merosi -o'tmish va bugun o'rtasidagi ruhiy ko'prikdir.Ular bizga milliy o'zlik,ma'naviy boylik,estetik zavq va ruhiy barqarorlik bag'ishlaydi.Shu sababli ularni ziyorat qilish, qadrlash va asrab asrab avaylash barchamizning burchimizdir.

REFERENCES:

1.Islomov.U, Jo'rayev.R. ''O'zbekistonning madaniy merosi''.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2018.
2.Muhammadjonov.A. '''Sharq me'morchiligi durdonalari''-Toshkent:Sharq,2015
3.Jo'rayev.N.'''O'zbekiston tarixi va madaniy yodgorliklari''-Toshkent:Fan,2010
4.Registon va Samarqand yodgorliklari-www.registon.uz
5.UNESCO madaniy meros obidalari-whc.unesco.org

FRANSIYADAGI BOSHLANG`ICH TA`LIM

Tangatarova Aynura Begali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang`ich ta`lim fakulteti Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Ilmurodova Feruza Shakirovna**

ANNOTATSIYA:

Bilamizki, har bir davlatning o'ziga yarasha sifatli ta'lim tizimi bo'ladi. Ta'limsiz davlat nuragan imoratga o'xshaydi. Ta'lim har sohaning qurilish poydevori hisoblanadi. Mana shunday kuchli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlardan biri Fransiyadir. Fransiyada ta'lim juda ko'p bo'linmalarga ega bo'lgan yuqori markazlashtirilgan tarzda tashkil etilgandir. Fransiya ta'limi uch bosqichga: boshlang'ich, o'rta, oliy ta'limga bo'lingan. Fransiyada bolalarning maktabga kirish yoshi ikki yoshdir. Lekin ikki yoshli bolalar boshlang'ich maktabni boshlashdan avval, maktabgacha ta'limni boshlaydilar. Oti yoshga to'lgach, Fransiyadagi bolalar boshlang'ich maktabni boshlash huquqiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: Fransiya ta'limi, ta'lim tizimi, maktabgacha tarbiya, chuqurlashtirilgan bosqich,boshlang`ich ta`lim.

Аннотация: мы знаем, что в каждом штате будет своя система качественного образования. Необразованное государство похоже на облученное здание. Образование-это строительная основа каждой отрасли. Одна из стран с такой сильной системой образования-Франция. Образование во Франции организовано высоко централизованно, с большим количеством подразделений. Французское образование делится на три этапа: начальное, среднее, высшее. Во Франции возраст поступления детей в школу составляет два года. Но двухлетние дети начинают дошкольное образование еще до того, как начнут начальную школу. Когда лошадь достигает совершеннолетия, дети во Франции имеют право на поступление в начальную школу.

Ключевые слова: французское образование, система образования, дошкольное образование,углубленный этап, начальное образование.

Annotation: we know that each state will have its own quality education system. Without education, the state is like a nuragan building. Education is the building foundation of every industry. One of the countries with such a strong education system is France. Education in France may have been organized in a highly centralized manner with a large number of units. French education is divided into three stages: Primary, Secondary, Higher Education. In France, the age at which

children enter school is two years old. But two-year-olds start pre-school before starting elementary school. Upon reaching the age of Oti, children in France are eligible to start primary school.

Keywords: French education, education system, preschool education,deepened stage, primary education.

Fransiya xalqining hozirgi davrda amal qilib kelayotgan "Ta'lim haqida" gi Qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har bir sohada kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatish, ularni jamiyatga nafi tegadigan komil inson qilib tarbiylashdir.

Mamlakatda maktablar davlat maktabi, xususiy maktab, oraliq maktablariga bo'linadi. Darslarning qirq besh foizi gumanitar fanlar, qolganlari esa tabiiy fanlardir. Sinflarning o'rtacha haftalik darslari yigirma olti soatdan iborat bo'lib, darslarning davomiyligi oltmish minutdir. Sinflardagi bolalarning soni o'rtacha o'ttiz besh va qirqtani tashkil qiladi. Fransiyada o'quv yili beshta chorakka bo'linadi.

Boshlang'ish sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa fanlardan saboq oladilar. Fransiya maktablarida ona tili, adabiyot hamda matematika - asosiy fanlar, tarix, geografiya, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya fanlari esa rivojlantiruvchi fanlar hisoblanadi.

Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqich "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishga ko'maklashishdan iborat. Fransiya ta'lim tizimida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabga o'qitish uchun tayyor holda olib kelinishi g'oyat muhim masala hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya bosqichida tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

1. Kichik guruh (ikki yoshdan to'rt yoshgacha);
2. O'rta guruh (to'rt yoshdan besh yoshgacha);
3. Katta guruh (besh yoshdan olti yoshgacha);

Besh, olti yoshli bolalardan iborat guruh Fransiyada tayyorlov guruh hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Boshlang'ich talim. Fransiyada boshlang'ich maktablarga olti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich ta'lim barcha uchun majburiy va bepuldir.

O'qish mashg'ulotlari ertalab soat to'qqizdan o'n ikkigacha, hamda soat o'n to'rtdan o'n oltigacha - besh soat davom etadi. Ovqatlari pullik, lekin juda arzon va hamyonbop.

Ikkinshi bosqich - boshlang'ich kurs bo'lib, bu ikki yil davom etadi. Tayyorlovdagi bilimlar yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bo'limida bitta o'qituvchi ishlasa, boshlang'ich bo'limida ikkita o'qituvchi (har biri bir yildan) ishlaydi.

Ushinshi bosqich - chuqurlashtirilgan bosqich. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va boshlang'ich bosqichidagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Dasturlarda o'quv bo'limlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida - alohida talablar qo'yiladi.

Fransiyada ta'lim juda ko'p bo'linmalarga ega bo'lgan yuqori markazlashtirilgan tarzda tashkil etilgan. U boshlang'ich ta'lim (*enseignement primaire*), o'rta ta'lim (*enseignement secondaire*) va oliy ta'lim (*enseignement supérieur*) kabi uch bosqichga bo'lingan. Fransiyada bolaning maktabga kirishining asosiy yoshi 2 yoshdir. Ikki yoshli bolalar boshlang'ich maktabni boshlamaydilar, ular maktabgacha ta'limni boshlaydilar. Keyin, olti yoshga kelib, Fransiyadagi bola boshlang'ich maktabni boshlaydi.

OECD tomonidan 2018-yilda muvofiqlashtirilgan Xalqaro talabalarni baholash dasturi 15 yoshli fransuzlarning umumiy bilim va ko'nikmalarini o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha dunyoda 26-o'ringa qo'ydi va OECD o'rtacha 493 ko'rsatkichidan past Iqtisodiy hamkorlik va hamkorlik tashkilotining 15 yoshli fransuz o'quvchilarining fan va matematika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari pasaydi, o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha past natijalarga erishganlarning ulushi keskin o'sish tendentsiyasini Fransuz o'quv dasturida asosan yevropalik fransuz yozuvchilarining asarlariga urg'u berilgan. Ferri va boshqalar adabiyotni fransuz o'ziga xosligining elimi deb hisoblashgan. Talabalar jamoasining etnik va madaniy demografik xususiyatlari talabalarga „umumiy madaniyat" ni o'tkazishga intilishda ta'sir qilmadi.

Adabiyot singari, tarix ta'limi ham yoshlarning shaxsiyatini shakllantirish va immigrantlarning fransuz o'ziga xosligiga integratsiyalashuvi uchun juda muhim hisoblanadi. Ferrining qarashlari bugungi kunda ham ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Vazirlik hisobotlari „umumiy madaniyat" ni targ'ib qilishda maktablarning qoidasi faqat o'quvchilar xilma-xilligi darajasining o'sishi bilan yanada muhimroq ekanligini tasdiqladi. Vazirlik ma'lumotlariga ko'ra, Fransiyada tarix ta'limi bir asr davomida „italiyaliklar, polyaklar, afrikaliklar va portugaliyaliklar bolalarining integratsiyalashuvini" ta'minladi. Davlat boshlang'ich va o'rta maktablarining barcha o'qituvchilari davlat xizmatchilari bo'lib, *vazirni* mamlakatdagi eng yirik ish

beruvchiga aylantiradi. Fransiya universitetlarida professor va tadqiqotchilar ham davlat tomonidan ishlaydilar.Boshlang'ich va o'rta darajalarda o'quv rejasi davlat, yarim davlat va subsidiyalangan muassasalarni o'z ichiga olgan har qanday sinfdagi barcha fransuz talabalari uchun bir xil. Biroq, talabalar tanlashi mumkin bo'lgan maxsus bo'limlar va turli xil variantlar mavjud. Barcha fransuz o'qituvchilari uchun ma'lumotnoma *buletin officiel de l'éducation nationale, de l'enseignement supérieur et de la recherche (BO)* bo'lib, unda barcha joriy dasturlar va ta'lim yo'riqnomalari keltirilgan. U har yili ko'p marta o'zgartiriladi. Fransiyada maktabda o'qish majburiy emas (garchi ko'rsatmalar bo'lsa ham).

Fransiya qonunchiligi maktabga borish shart emas, faqat *ta'limni* talab qilganligi sababli, oilalar qonunda belgilangan ta'lim standartlariga rioya qilishlari va davlat tomonidan nazorat qilinishi sharti bilan o'zlari ta'lim berishlari mumkin.Fransiyada o'quv yili sentabr boshidan iyul oyining boshigacha davom etadi. Maktab taqvimi butun mamlakat bo'ylab standartlashtirilgan. May oyida maktablar imtihonlarni tashkil qilish uchun vaqt kerak (masalan, bakalavr). Fransiya Metropolitanidan tashqarida maktab taqvimi mahalliy *rektor* tomonidan o'rnatiladi.

Asosiy dam olish kunlari quyidagilar:

- Barcha azizlar (*la Toussaint*), ikki hafta (2012-yildan beri) taxminan oktabr oyining oxiri va noyabr oyining boshi;
- Rojdestvo (*Noël*), Rojdestvo kuni va Yangi yil kuni atrofida ikki hafta;
- qish (*hiver*), fevral oyining o'rtalaridan boshlab ikki hafta;
- bahor (*printemps*) yoki Pasxa (*Pâques*), aprel o'rtalaridan boshlab ikki hafta;
- yoz (*été*), iyul boshidan boshlab ikki oy. (o'rta maktab o'quvchilari uchun iyun oyining o'rtalarida).

Ko'pgina ota-onalar farzandlarini 3 yoshga to'lganlarida maktabgacha ta'lim muassasasiga (*maternelle*) yuborishni boshlaydilar. Ba'zilar hatto 2 yoshida *kichik bo'limda* (" *TPS* ") boshlanadi. Maktabgacha ta'limning dastlabki ikki yili (TPS va *kichik bo'lim* " *PS* ") jamiyat hayotiga kirish; bolalar qanday qilib talaba bo'lishni o'rganadilar va arifmetika haqidagi birinchi tushunchalari bilan tanishadilar, harflarni taniy boshlaydilar, og'zaki nutqni rivojlantiradilar va hokazo. So'nggi ikki yil maktabgacha ta'lim, *moyenne bo'limi* va *grande bo'limi,* ko'proq maktabga o'xshaydi; o'quvchilar o'qish, yozish va boshqa matematika bilan tanishadilar. Bolalar 10-11 yoshgacha 5 yil davomida boshlang'ich maktabda qoladilar. Bir necha o'n yillar oldin boshlang'ich maktab o'qituvchilari Écoles Normalesda ta'lim olishgan va o'rta maktab o'qituvchilari " Agrégation " imtihoni orqali ishga qabul qilingan. Vaziyat 1950-yillarda o'rta maktab o'qituvchilari uchun CAPES imtihonining kiritilishi va 1990-yillarda " Instituts Universitaires de Formation des

Maîtres " (IUFM) institutining kiritilishi bilan rang-baranglashdi, ular Ecoles Supérieures du Professorat et de nomini oldi.

Aniqrog'i, maktab o'qituvchilari ikkiga bo'lingan:

INSPEda ta'lim olgan boshlang'ich maktab va bolalar bog'chasi o'qituvchilari (Professeurs des écoles) odatda „magistr" (Bac+5) darajasiga ega. Ularning haftalik xizmati haftasiga taxminan 28 soatni tashkil qiladi.

Universitetda ham, INSPEda ham ta'lim olgan sertifikatlangan o'qituvchilar (Professorlar sertifikatlari) „magistr" darajasiga ega (Bac+5) va Certificat d'Aptitude au Professorat de l'Enseignement du Second degré (CAPES) deb nomlangan tanlov imtihonidan o'tishlari kerak. ma'lum bir domen. Ularning martabasi odatda martabalarining birinchi yillarida geografik joylashuvini belgilaydi. Ularning aksariyati *kollejda* (o'rta maktabda) dars berishadi.

Agrégés o'qituvchilari (Professeurs agrégés) har bir domenda ancha yuqori darajadagi *Agrégation* deb nomlangan boshqa tanlov imtihonlari orqali ishga olinadi. Ular sertifikatlangan o'qituvchilar yoki domen bo'yicha kamida „magistr" (Bac+5) ning tashqi egalari bo'lishi mumkin. Ikkinchi holda, ular INSPEda o'qitish bo'yicha qo'shimcha ta'limda qatnashishlari kerak. *Agrégés* o'qituvchilarining maoshi yuqori va haftalik xizmatlari kamaytirilgan. Ularning aksariyati *litseyda* (o'rta maktab) dars beradi.Fransiya 1800-yillar vositasida o'z xalqiga ta'lim berish bo'yicha katta faoliyat olib bordi. Shuningdek, 1800-yillarda ular 10-20 yoshdan boshlab 50 000 ga yaqin yosh yigitlarga klassik ta'lim berishdi. Aniqroq bo'ladigan bo'lsak, Fransiyada o'qitishning eng yaxshi ko'tarilishi 1821—1837-yillarga to'g'ri keldi, ayni paytda shaharlar yangi kollejlar yaratildi. 1837—1867-yillar davomida o'sish to'lovi sekinlashdi, chunki hokimiyat aholi gavjum qishloq joylariga etib bordi. Keyinchalik, 1867—1906-yillardagi vositalar yordamida birinchi darajali kollej va o'qitishni chuqurlashtirishga e'tibor qaratildi. 1880-yilda Camille Sée ayollar uchun o'rta maktablarni qo'shdi, bu esa u o'rta fakultetni ayollar uchun o'qitish bosqichini ta'minlaganligi sababli muhim o'tishga aylandi. 1896-yilda Fransiyada 36 ta shunday kollej mavjud edi.Fransuz boshlang'ich maktablarida barcha fanlar, rus tilidagi kabi, bitta o'qituvchi tomonidan o'qitiladi. Va bu darajadagi ta'limni tugatgandan so'ng, talabalar imtihon topshirishadi, uning natijalari bolaning qaysi o'rta maktabga kirishini aniqlaydi.

Fransiyada bir nechta xususiy maktablar mavjud - boshlang'ich darajadagi umumiy ulush 16% dan oshmaydi. Ko'pchilik frantsuzlar oddiy davlat maktablariga boradilar. Qizig'i shundaki, qabul test sinovlari va bo'lajak talaba bilan suhbatdan so'ng amalga oshiriladi. Biroq, bu tartib-qoidalar qobiliyatsizlarni qabul qilishni rad etish uchun emas, balki hammani mavjud bilimlariga muvofiq sinflar va guruhlarga taqsimlash uchun kerak.Chet elliklar, agar ota-onalari doimiy yoki vaqtincha

Frantsiyada istiqomat qilsalar, Frantsiya davlat maktablariga umumiy asosda qabul qilinadi. Frantsiya davlat maktablarida o'rta maktab o'quvchilarini to'liq pansion asosida qabul qiladigan cheklangan miqdordagi dasturlar mavjud. Biroq, ota-onasi u bilan birga mamlakatga ko'chib o'tmagan bolani davlat boshlang'ich maktabiga yuborish mumkin bo'lmaydi.Kichik xalqaro talabalarning ota-onalari odatda xususiy boshlang'ich maktablarni tanlaydilar. Ularning ko'pchiligi xalqaro miqyosda tan olingan dasturlarni taklif qiladi, ular qisman ingliz tilida o'qitilishining muhim afzalligi hisoblanadi. Oddiy maktablarda chet tili faqat o'rta maktabda - 11 yoshdan boshlab paydo bo'ladi. Bu erda, o'qishni tugatgandan so'ng, bola ikki tilni - frantsuz va ingliz tillarini yaxshi biladi.Fransiyada ta'limning boshlang'ich darajasidan boshlab bolalarni qabul qiladigan xalqaro o'quv dasturiga ega xususiy maktablar kam. Ushbu muassasalar birinchi darajali ta'limni taqdim etadi, bu sizga istalgan Evropa davlatida o'qishni davom ettirish imkonini beradi.Ecole de Roches xususiy maktab bo'lib, 6 yoshdan boshlab bolalarni qabul qiladi. Uni yaratish modeli an'anaviy ingliz maktab-internatlari edi, ammo 1899 yildayoq bu erda ta'lim innovatsiyalarga asoslangan edi. Maktab o'rganish zavqli bo'lishi kerakligiga ishonadi va ular bunga qanday erishishni biladilar.Boshlang'ich maktab o'quv dasturi frantsuz milliy o'quv dasturiga amal qiladi, biroq o'quvchilar haftasiga 6 ta ingliz tili darslarida qatnashadilar. Bu o'rta maktabda keyingi ikki tilli ta'lim uchun yaxshi poydevor yaratish imkonini beradi.Maktab Parijdan 100 kilometr uzoqlikda, Verneuil-sur-Avre kichik shaharchasi yaqinida joylashgan. Toza havo va sokin muhit bolaning barkamol rivojlanishi uchun juda mos keladi - o'quvchilar ko'p yurishadi va ochiq havoda sport bilan shug'ullanishadi.Provans xalqaro ikki tilli maktabi 1984 yilda o'z eshiklarini ochgan zamonaviy maktabdir. Bolalar bu erda bolalar bog'chasidan (ikki yoshdan) o'qitiladi, lekin ko'pchilik o'quvchilar bu erga boshlang'ich maktabga kelishadi - oltida.Treningning boshidanoq bu erda alohida o'quv haftasi joriy etiladi. Bu shuni anglatadiki, ba'zi kunlarda o'qitish frantsuz tilida olib boriladi va shunga mos ravishda bolalar faqat ushbu tilda so'zlashuvchilar bilan, ba'zi kunlarda esa ingliz tilida muloqot qilishadi - va bu holda vaziyat ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar vakillari bilan takrorlanadi.Bunday bo'linishga qaramay, bolalar o'rganadigan barcha fanlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq - o'qituvchilar darslarni ushbu aloqalarni ta'kidlaydigan tarzda tuzadilar. Dars davomida bolalar ko'p o'ynaydi, tajriba o'tkazadi, atrofdagi dunyoni o'rganadi, sport va ijodkorlik bilan shug'ullanadi.Bu maktab ham qishloqda, lekin Fransiyaning janubida joylashgan. Kampusga eng yaqin shahar Eks-en-Provens bo'lib, Marselgacha bo'lgan masofa 20 kilometrni tashkil qiladi.Fransuz ta'limi dunyoviy, shuning uchun maktablarda din darslari yo'q. Biroq, Frantsiyada o'z farzandlariga diniy ta'lim berishni xohlaydiganlarning huquqlari hurmat qilinadi, shuning uchun ko'plab maktablar haftaning maktab kunlaridan birini (odatda

payshanba) dam olish kuni qiladi. Ko'pgina bolalar bu kuni yaqin atrofdagi cherkovda ruhoniy tomonidan olib boriladigan maxsus diniy darslarga qatnashadilar.Fransiyadagi boshlang'ich maktab ta'limini tugatgandan so'ng, talabalar o'rganganlarini namoyish qilish uchun imtihon topshirishadi. Bu ko'proq rasmiyatchilikdir, chunki mutlaqo barcha bolalar o'z yashash joyidagi kollejda (o'rta ta'lim beruvchi frantsuz muassasasi) o'qishni davom ettiradilar, ammo uning natijalari kollejdagi darslarning taqsimlanishiga ta'sir qilishi mumkin.Boshqa davlatdan kelgan bola Frantsiyadagi davlat boshlang'ich maktabida ota-onasidan biri u bilan doimiy ravishda shu mamlakatda yashasagina o'qishi mumkin. Aksariyat bolalar, bizning mamlakatimizda bo'lgani kabi, maktablarga "ro'yxatga olish asosida" borishadi, shuning uchun boshlang'ich maktab yoshidagi bola bilan mamlakatga ko'chib o'tishda kelajakdagi yashash joyini diqqat bilan tanlash muhimdir.

Davlat maktablariga muqobil xususiy maktablar bo'lib, ular mamlakatda, masalan, qo'shni Buyuk Britaniya bilan solishtirganda, nisbatan kam. Frantsiyada xususiy maktablarning ikki turi mavjud. Birinchisi davlat bilan shartnoma asosida ishlaydi, ya'ni ular frantsuz ta'lim standartiga qat'iy rioya qiladi va faqat tasdiqlangan ta'lim dasturlaridan foydalanadi. Ikkinchidan, davlat litsenziya berib, keyinchalik ta'lim sifatini baholagandagina nazorat rolini o'ynaydi. Bularga ingliz yoki amerika o'quv dasturidan foydalangan holda ingliz tilida ta'lim beriladigan xalqaro maktablar kiradi.

Davlat maktablarida fransuzcha ta'lim mutlaqo bepul. Ota-onalardan talab qilinadigan narsa bu maktab tushliklarini to'lashdir.

Fransiyadagi xususiy boshlang'ich maktabda o'qish narxi uning joylashgan joyiga va dasturning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Misol uchun, Parijdan 100 kilometr uzoqlikda joylashgan Ecole de Rochesda quyi sinflarda o'qish uchun yiliga 23 600 evro to'lashingiz kerak. Bu miqdorga ta'lim muassasasida to'liq pansion asosida yashash kiradi. Bu yerda hatto kichik sinflarda ham ingliz tilini jadal o'rganish kutilmoqda, yuqori sinflarda esa bolalar frantsuz yoki xalqaro bakalavr dasturlari bo'yicha o'qishni tanlashlari mumkin.

REFERENCES

1.Beyker, Donald N. va Patrik J. Harrigan, muharrirlar.*Fransuzlarning yaratilishi: Fransiyada ta'lim tarixining hozirgi yo'nalishlari, 1679-1979* (Waterloo, Ontario: Historical Reflections Press, 1980).

2.Clark, Linda L. „Zamonaviy fransuz ta'limi tarixiga yondashish: so'nggi so'rovlar va tadqiqot qo'llanmalari", *Fransiya tarixiy tadqiqotlari* (1987) 15 # 1 pp. JSTOR da 157-165

3.Korbett, Anne va Bob Mun, muharrirlar. *Fransiyada ta'lim: 1981—1995-yillarda Mitteran davridagi uzluksizlik va o'zgarish* (Routledge, 2002)
4.*E*urydice France (Wayback Machine saytida 2017-10-10 sanasida arxivlangan), Eurydice: Yevropa ta'lim tizimlari uchun portal
5.Fransiya Milliy ta'lim, oliy ta'lim va tadqiqot vazirligi (Wayback Machine saytida 2017-12-18 sanasida arxivlangan) (ingliz tili)
6. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 734-745 (2023).
7. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 710-719. (2023)
8.https://allterra.ru/articles/177887/.

MEDIA MAYDONDA AXBOROT TARQATISH MADANIYATI

Gadoyeva Gulandon
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Biologiya 24/1 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Ilyosov Shohrux**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Media maydonda axborot tarqatish madaniyati yoritilgan bo'lib,bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish,jamiyatni axborotlashtirish jarayoni,yoshlar va kattalar ongida axborotning tarqalishi haqida nazariy qarashlar berilgan.

Kalit so'zlar: Media, OAV, axborot savodxonligi, mediata'lim, mediakompetent, internet, ong darajasi.

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning axborot madaniyatini shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o'zi, ko'pincha, sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko'ra chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Chunki axborotlashtirish jamiyatning bir shakldan boshqa, ijtimoiy taraqqiyotning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo'lgan shakliga o'tishni anglatadi hamda jamiyatning istiqboldagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Tashviqot, feyk axboroti, pranking, raqamli tajovuz, trolling va h.k. hodisalar oqibatida mediamakondagi buzilishlar tufayli jurnalistika sohasida hozirgi paytda inqiroz kuchayib bormoqda. "Ortiqcha axborot" "axborot mavhumligi"ni keltirib chiqarmoqda. Ushbu vositalar yordamida ong bilan manipulyatsiya qilish shunga olib keladiki, auditoriyaning "tanqidiy avtonomiyasi" mavjud emasligi tufayli dunyoda har qanday ma'lumotlarni "yutib yuborish" kuchaymoqda. 1982 yilda YUNESKO Xalqaro Simpoziumida qabul qilingan Mediata'lim bo'yicha Gryunvald Deklaratsiyasida 19 ta a'zo mamlakat vakillari shunday deb ta'kidladi: "Axborot vositalarining muqarrar kuchini muhokama qilish yoki ma'qullash o'rniga biz uning hayotning barcha jabhalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va singib borishini mavjud fakt sifatida tan olishimiz, shuning dek, ularning zamonaviy madaniyatning ajralmas elementi sifatidagi ahamiyatini hisobga olishimiz zarur.

Siyosiy va ta'limiy dasturlar shuni tan olishi kerakki, fuqarolar tomonidan kommunikatsiya hodisasini tanqidiy anglashga ko'maklashish ularning majburiyatini tashkil etadi... mediata'lim bo'yicha dalillar ongli fuqarolikni tayyorlash vositasi sifatida hozir muayyan ikkilanishlarga sabab bo'lsa, eng yaqin kelajakda, kommunikatsion texnologiyalarda sakrash ro'y bergach, ushbu dalillar muqarrar bo'lib qoladi". Mediasavodxonlik konsepsiyalari rivojlanishi va zarurati munosabati bilan OAV va jurnalistikaning mediata'lim funksiyasi faol rivojlanmoqda. Bu

ommaviy auditoriyaning mediakompetentligini oshirish, uning OAVdagi ma'lumotlarni mos ravishda qabul qilish, uni tahlil etish hamda axborot madaniyati me'yorlari va tamoyillariga mos keladigan ijtimoiy ahamiyatga ega mediamatnlarni yaratish layoqatini rivojlantirishdan iborat. Shu narsa oydinki, faqat boshqalar tomonidan yaratilgan ma'lumotlar va axborotlarni topish, tahlil qilish, ushbu ma'lumotlar va axborotlardan voqealar yaratish ko'nikmalariga ega jurnalistlargina o'z funksiyalarini bajara oladi. Ijtimoiy voqealar nimani anglatishini va o'quvchilar bunga tayyor bo'lish uchun nimalar qila olishini tahlil etadigan va bundan so'ng nimalar bo'lishini tushuntira oladigan jurnalistlargina auditoriyaga bilimli, hammaga tushunarli bo'lgan ma'lumotlarni yetkazishi mumkin.

Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Xususan, axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg'or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiy darajasini oshirishni ta'minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda shaxs axborot psixologik xavfsizlikni ta'minlanganlik darajasini sotsiologik o'rganish yangi konsepsiyalar bilan boyitish bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi uchun o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni ta'qiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi.

Ma'lumki, hozirgi zamon yoshlarining hayotiy tushuncha va tasavvurlarini, asosan, internet shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'ymoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi. Shuning uchun ham mazkur muammo faqatgina ma'lum bir davlat chegaralaridan chiqib, global xarakterga ega bo'ldi. Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq.

Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa, o'z navbatida, borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan mutanosib bo'lishi darkor. Shuning uchun, birinchi navbatda, axborot olayotgan kishi uni mutlaqlashtirmasdan, o'z shuuri darajasida tahlil qilib, so'ng qabul qilishi lozim. Zamonaviy jamiyatning farqli

belgilaridan biri – bu o'sib kelayotgan yosh avlodni tevarak atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga doimiy moslashtirib borish hisoblanadi. sivilizatsiyaning rivojlanishida uning asl mohiyatini oldin qanday bo'lganligi bilan taqqoslaymiz. Uning o'ziga xoslik belgilari uzluksizlik, shiddatlilik, global xarakterlilikdir. Axborotlashtirish asrida axborot xurujining avj olishi, ayniqsa, yoshlarda axborot olish madaniyati, o'qish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugun axborot shiddat bilan yangilanib, hajmi oshib bormoqda. Natijada, bilimning o'sish sur'ati ilgarilab ketmoqda. Amerikalik muhandis, matematik va birinchilardan bo'lib axborot nazariyasini yaratgan olim Klod Shennon axborotni «oydinlashtirilgan mavhumlik», – deya ta'riflagan.

Buning ma'nosi shundan iboratki, axborotni qabul qilib inson yangi bilimlar bilan tanishadi, ilgari mavhum bo'lgan narsalarni anglaydi, savollariga javob topadi. Bu tugamas va doimiy jarayondir. Bugin kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, ulkan hajmdagi axborot resurislaridan oqilona foydalanishda jamiyat va inson uchun axborot madaniyati fenomenining global ahamiyatini anglash talab etiladi.

«Axborot savodxonligi» tushunchasini birinchi marta P.Zurkovskiy XX asrning 70-yillarida ish va kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishda axborot resurslaridan to'g'ri foydalana olgan insonga nisbatan ishlatgan. «Axborot resurslarini o'z hayot faoliyatida to'g'ri tatbiq qila olgan odamlarni axboriy-savodxon deb atash mumkin» deydi. Keyingi o'n yilliklar davomida axborot savodxonligi AQSHning kundalik hayotida, maktabda, ish joylarida eng faol tushunchaga aylandi. Ushbu tushuncha evolyutsiyasiga rasmiy asos AQSH Prezidenti ma'muriyatining axborot savodxonligi to'g'risidagi hisoboti bo'ldi. Unga ko'ra «axboriy-savodxon inson deb axborotga talabni his qilgan, axborotni qidirish, baholash va to'g'ri qo'llay olishni bilgan shaxsni atash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda insonlar ongida ommaviy axborot vositalarining kirib borishi juda ham oson.Tarixning guvohlik berishicha,radio ommaviy auditoriyani jalb qilishi uchun 40 yil kerak bo'lgan,televidenie esa bunga 14 yilda erishgan,Internet tizimining dunyo auditoriyasini jalb qilishi uchun esa atiga 4 yil kifoya qiladi.Bundan ko'rinib turibdiki,har bir yosh avlod yoki kattalar hayotida internet juda ham muhim rol o'ynaydi.

REFERENCES

1. Toshtemirov R.A., Virtual haqiqat va uning insonga ta'siri, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2-qism, 2023, 306-309 B.
2. Тоштемиров Р.А., Ўқувчиларда ўқишга нисбатан ижобий муносабатни намоён бўлишнинг динамик хусусиятлари //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 86-92.

3. Toshtemirov R.A., Category of Justice in the Moral Views of Husain Voiz Koshifi //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – T. 2. – C. 12.
4. Toshtemirov R.A., MEDIATA'LIM-YOSHLARNI SALBIY AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISHNING MUHIM OMILI //SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 29. – C. 187-195.
5. Toshtemirov R.A., MEDIA MUHITIDA BOLA HUQUQLARI //ISSN 2181 4147 VOLUME 1, ISSUE 34 DECEMBER 2023. – 2023. – T. 1. – №. 34. – C. 131.

ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA DINIY SAVODXONLIK MASALASI

G'aybullaeva Dilbar

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi
o'qituvchisi **Nurmanov Sherzod**

ANNOTATSIYA:

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib, internet inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bir davrda diniy bilimlarni to'g'ri anglash va talqin qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Global axborot makonida diniy mazmundagi turli fikrlar, fatvolar va ta'limotlarning ko'pligi, ayniqsa yoshlar orasida diniy savodxonlik darajasining pastligi noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy axborot makonida diniy savodxonlik tushunchasi, uning ahamiyati, xavf-xatarlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada rasmiy diniy manbalar, mutaxassis ulamolar va ta'lim muassasalarining roli alohida o'rganiladi.

Kalit so'zar: Diniy savodxonlik, axborot makoni, soxta manbalar, raqamli axborot xavfsizligi, fatvo madaniyati, dinni to'g'ri talqin qilish, rasmiy diniy manbalar.

Abstract: Today, in an era when information technologies are rapidly developing and the Internet has become an integral part of human life, the issue of correct understanding and interpretation of religious knowledge is of particular importance. The abundance of various opinions, fatwas and teachings of religious content in the global information space, especially the low level of religious literacy among young people, leads to the formation of misconceptions. This article discusses the concept of religious literacy in the modern information space, its importance, and dangers. The article also separately studies the role of official religious sources, expert scholars, and educational institutions.

Keywords: Religious literacy, information space, fake sources, digital information security, fatwa culture, correct interpretation of religion, official religious sources.

Аннотация: Сегодня, в то время, когда информационные технологии стремительно развиваются и Интернет стал неотъемлемой частью жизни человека, вопрос правильного понимания и интерпретации религиозных знаний

приобретает особое значение. Обилие различных мнений, фетв и учений религиозного содержания в глобальном информационном пространстве, особенно низкий уровень религиозной грамотности среди молодежи, приводит к формированию заблуждений. В данной статье рассматривается понятие религиозной грамотности, ее значение и опасность в современном информационном пространстве. Также в статье рассматривается роль официальных религиозных источников, ученых-экспертов и образовательных учреждений.

Ключевые слова: Религиозная грамотность, информационное пространство, фейковые источники, цифровая информационная безопасность, культура фетв, правильное толкование религии, официальные религиозные источники.

KIRISH:

Bugungi kunda texnologiyalar va axborot vositalarining tez rivojlanishi tufayli insoniyat hayoti yanada global, zamonaviy va interaktiv bo‘lib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia platformalarining keng tarqalishi axborot oqimining miqdorini keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, diniy ma’lumotlarning tezda tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Shunday bo‘lsa-da, axborot makonida noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma’lumotlarning mavjudligi, diniy g‘oyalar va aqidalar haqidagi noaniq talqinlar o‘smirlar va yoshlar orasida diniy qarashlarning noto‘g‘ri shakllanishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy axborot makonida diniy savodxonlik masalasi ayniqsa muhimdir. Chunki diniy savodxonlik insonning e’tiqodini to‘g‘ri anglash, uni kundalik hayotida amalda qo‘llash va jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarga to‘g‘ri yondashish imkoniyatini beradi. Diniy savodxonlik nafaqat diniy radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda, balki xalqaro diniy bag‘rikenglikni rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Diniy savodxonlik — bu insonning diniy bilimlarga bo‘lgan to‘g‘ri yondashuvi, diniy qadriyatlarni chuqur tushunish va ularni amaliyotda qo‘llash san’ati. U faqatgina diniy aqidalarni bilib olish emas, balki axloqiy, ma’naviy va ruhiy jihatdan to‘g‘ri hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omildir. Diniy savodxonlik, bir tomondan, shaxsning o‘z e’tiqodini yanada mustahkamlashga yordam bersa, boshqa tomondan, jamiyatda diniy bag‘rikenglik, tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashga turtki bo‘ladi. Zamonaviy axborot makonida diniy savodxonlik ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan diniy g‘oyalar va axborotlar, ba’zida noto‘g‘ri tushunilgan yoki radikal fikrlar asosida shakllanadi. Shuning uchun, diniy savodxonlik faqat ma’lumot olishning o‘zi bilan cheklanmaydi, balki ma’lumotni to‘g‘ri talqin qilish, tanqidiy fikrlash va aniq manbalar asosida e’tiqod qilishni ham o‘z ichiga oladi. Diniy

savodxonlikni oshirish, avvalo, ma'naviy va axloqiy hayotimizni yaxshilashga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga, insonni qalban poklashga yordam beradi. Har bir inson o'z diniy bilimlarini chuqurlashtirgan sari, jamiyatda o'z o'rnini yanada mustahkam qiladi va tinchlik, baxt-saodatga erishadi. Bu esa butun insoniyat uchun muhim bo'lgan ulkan qadriyatlarni anglashga va qadrlashga yo'l ochadi.

Dinda soxta manbalar tarqalishining sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Birinchidan, diniy savodxonlikning pastligi, odamlarning diniy matnlarni to'g'ri tushunmasligi va tekshirishni unutishlari sababli soxta ma'lumotlar tarqaladi. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va internetning tezkor tarqalishiga qarab, soxta diniy manbalar tez va keng tarqaladi. Bunday manbalar, ba'zan, odamlarning diniy qarashlariga zarar yetkazadi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlaydi. Soxta diniy manbalar tarqalishi, nafaqat diniy aqidalarni buzish, balki jamiyatdagi diniy barqarorlikni ham tahdid qiladi. Bu manbalar, ba'zan, ekstremistik g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va radikalizmni yoyish uchun ishlatiladi. Natijada, odamlar o'z e'tiqodlarini noto'g'ri shakllantirib, ijtimoiy ziddiyatlar va to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarni oldini olish uchun diniy savodxonlikni oshirish, soxta manbalarni aniqlash va faqat tasdiqlangan diniy manbalarga murojaat qilish zarur. Soxta diniy manbalar bilan kurashish uchun ishonchli diniy muassasalardan foydalanish, ilmiy tafsirlar va mutaxassislar tomonidan berilgan fatvolarga tayanish muhimdir. Diniy matnlarni to'g'ri talqin qilish va ularni yangicha tushunish orqali soxta ma'lumotlarga qarshi samarali kurashish mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan, diniy savodxonlik va soxta manbalarni aniqlashni o'rganish har bir inson uchun zarurdir. Faqatgina bu yo'l bilan diniy e'tiqodlar va aqidalarni haqiqiy shaklda saqlab qolish mumkin.

Diniy axborotlarning o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, ularning noto'g'ri talqin qilish yoki soxta manbalar orqali tarqatilishi xavfi mavjud bo'lishi, axborot xavfsizligining diniy sohadagi alohida muammolarini keltirib chiqaradi. Raqamli axborot xavfsizligini ta'minlashda diniy manbalarni tekshirish, ishonchli va tasdiqlangan axborotlardan foydalanish, diniy tafsir va ilmiy ishlanmalarni ommalashtirish kabi muhim choralar ko'rilishi kerak. Foydalanuvchilarni axborotning to'g'riligini tekshirishga, shaxsiy axborotlarni himoya qilishga va soxta diniy ma'lumotlarga qarshi kurashishga o'rgatish zarurdir. Shuningdek, diniy axborot xavfsizligi muammosi butun jahon bo'ylab muhimdir. Internetdagi diniy axborotlarning global tarqalishi, uni turli tillar va madaniyatlarda talqin qilishni taqozo etadi, shuning uchun bu jarayonda ishonchli manbalarni aniqlash va faqat tasdiqlangan va rasmiy manbalardan foydalanish muhimdir. Raqamli axborot xavfsizligi orqali diniy axborotlarning haqiqiyligini saqlash, jamiyatda diniy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fatvo madaniyati, diniy e'tiqodlar va

amaliyotlarni chuqur tushunish va ularga muvofiq yo'l tutishning muhim jihatidir. Fatvo, islomda diniy masalalar bo'yicha bilimdon olimlar tomonidan beriladigan rasmiy hukm yoki qarordir. Bu madaniyat, diniy hayotni tartibga solishda va muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Fatvo madaniyati faqat diniy bilimni yoki aqidalarni qamrab olmaydi, balki bu madaniyatning ijtimoiy, axloqiy va ilmiy aspektlari ham mavjud. Fatvo madaniyatini rivojlantirishda, diniy bilimlarni kengaytirish, zamonaviy muammolarni diniy nuqtai nazardan tushunish va fatvo jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish juda muhimdir. Bu, diniy axloqni rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Fatvo madaniyatining barqarorligi, insonlarning diniy ehtiyojlarini, jamiyatdagi o'zgarishlarni va ularning ma'naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda shakllanadi.

Rasmiy diniy manbalar diniy e'tiqodlarni shakllantirish va amallarni boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Islomda bunday manbalar o'zining muqaddasligi va tasdiqlanganligi bilan ajralib turadi. Qur'on, hadislar, ijtihod kabi asosiy manbalar islomiy hayotni tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Rasmiy diniy manbalar faqat diniy amallarni tartibga solibgina qolmay, balki musulmon jamiyatining ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy hayotini ham shakllantiradi. Ular, diniy masalalarda to'g'ri yo'l tutish, soxta ma'lumotlar va radikal tafsirlardan saqlanishda muhim vosita bo'ladi. Diniy tashkilotlar va jamiyatlar, shuningdek, mutaxassislar o'rtasida ishonchli va xavfsiz ma'lumot almashinuvi uchun texnologik vositalardan foydalanish muhimdir. Diniy ma'lumotlar va tafsirlar internetda, ijtimoiy tarmoqlarda va forumlarda tez tarqalishi mumkin, ammo ular ko'pincha ishonchsiz manbalardan keladi, bu esa noto'g'ri tushunchalar va diniy aqidalarni shakllantirishga olib kelishi mumkin. Raqamli axborot xavfsizligini ta'minlashda diniy manbalarni tekshirish, ishonchli va tasdiqlangan axborotlardan foydalanish, diniy tafsir va ilmiy ishlanmalarni ommalashtirish kabi muhim choralar ko'rilishi kerak. Foydalanuvchilarni axborotning to'g'riligini tekshirishga, shaxsiy axborotlarni himoya qilishga va soxta diniy ma'lumotlarga qarshi kurashishga o'rgatish zarurdir.

Xulosa: Zamonaviy axborot makonida, diniy savodxonlik nafaqat diniy matnlarni to'g'ri o'qish va tushunishga, balki axborotlarni tekshirish, soxta ma'lumotlarga qarshi kurashish va faqat ishonchli manbalarga tayanishga yordam beradi. O'quvchilar, talabalar va jamiyat a'zolari uchun diniy savodxonlikni oshirish, axborot xavfsizligi va diniy tushuncha bo'yicha ongli yondashuvni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi jamiyatda tinchlik, barqarorlik va birligini ta'minlashga xizmat qiladi. Diniy savodxonlik, shu bilan birga, insonlarni o'z e'tiqodlarini hurmat qilishga va boshqa e'tiqoddagi insonlar bilan tinch va hurmatli munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

REFERENCES

1. "Raqamli asrda Islomiy savodxonlik: onlayn maydonlarda diniy savodxonlikka bo'lgan ehtiyoj"—Jane Smith, 2020. ning tarjimasi:
2. "Diniy savodxonlik: diniy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalari" – Muhammad X. (2022).
3. "Raqamli ommaviy axborot va Islom dunyosi: ijtimoiy tarmoqlarning diniy munozaraga ta'siri"– M. Huseynov, 2021.
4. "Raqamli asrda diniy bilim"– M. Rahmanov, 2020.
5. "Zamonaviy jamiyatda diniy savodxonlikning roli"— A. Karimov, 2023.

"GLOBALLASHUV: ZAMONAVIY DUNYONING RITMIDA YASHASH HODISA VA TUSHUNCHASI"

O'rinboyeva Xumora Akmal qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti kechki 1-kurs talabasi
Murodova Feruza Bahodir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti kechki 1-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA

Zamonaviy dunyoning eng dolzarb jarayonlaridan biri bo'lgan globallashuv tushunchasining mazmuni, mohiyati va uning insoniyat hayotidagi o'rni yoritib berilgan. Unda globallashuvning iqtisodiy, madaniy, siyosiy va axborot sohalariga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari haqida fikr yuritilib, milliy qadriyatlar va madaniyatning saqlanishi zarurligi ta'kidlangan. Ishda misollar va faktlar asosida globallashuv hodisasining jamiyat hayotiga ta'siri yoritilgan bo'lib, bu mavzuni o'rganayotgan o'quvchi yoki tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: globallashuv, siyosiy, iqtisodiy, jamiyat, faktlar, axborot, insoniyat, jahon, tadqiqot, ilmiy – texnika, tushuncha.

Аннотация

Концепция концепции глобализации, одного из самых насущных процессов современного мира и ее места в жизни человечества освещена. Он анализирует влияние глобализации на экономические, культурные, политические и информационные области. Также отмечается, что благоприятные и негативные аспекты глобализации подчеркивают необходимость национальных ценностей и культуры. На основании примеров и фактов влияние глобализации в жизни компании может быть охвачено жизнью этой темы, которая может быть полезна для учащихся или исследователей, которые изучают.

Ключевые слова: глобализация, политическая, экономическая, общество, факты, информация, человечество, человечество, исследования, научные методы: концепция.

Annotation

The concept of the concept of globalization, one of the most pressing processes of modern world, and its place in the life of humanity is illuminated. It analyzes the impact of globalization on economic, cultural, political and information areas. It is

also noted that the favorable and negative aspects of globalization, emphasizes the need for national values and culture. On the basis of examples and facts, the impact of the globalization in the life of the company may be covered by the life of this topic, which can be useful to the students or researchers who are studying.

Keywords: Globalization, Political, Economic, Society, Facts, Information, Humanity, Humanity, Research, Scientific Techniques.

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda jahonda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar, ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalarida kuzatilayotgan tezkor taraqqiyot globallashuv jarayonining jadal tus olganligini ko'rsatadi. Globallashuv zamonaviy davrning eng muhim va ta'sirchan hodisalaridan biri bo'lib, u butun dunyo mamlakatlarini yagona iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy makonga aylantirish yo'lida katta ta'sir kuchiga ega. Bu jarayon orqali davlatlar o'rtasidagi chegaralar nisbatan ochiqlashib, xalqaro savdo, axborot texnologiyalari, investitsiya, migratsiya va madaniy almashinuvlar yanada erkin shakllana boshladi.

Adabiyotlar tahlili.

Globallashuv tushunchasi, avvalo, murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni bir yoqlama talqin etib bo'lmaydi. U nafaqat iqtisodiy integratsiyani, balki dunyoqarashlarning yaqinlashuvi, umumiy madaniy qadriyatlar shakllanishi, turli mintaqalar o'rtasida doimiy axborot oqimi mavjudligi kabi ko'plab omillarni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, globallashuv ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, turli muammolar va qarama-qarshiliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Milliy iqtisodiy tizimlarning zaiflashuvi, madaniy yakkalikka putur yetishi, ekologik muammolarning kuchayishi, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tafovutlarning ortishi kabi jihatlar ham globallashuvning salbiy oqibatlari sifatida qaralmoqda. Ushbu mavzuda biz globallashuv tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini, uning tarixiy shakllanish bosqichlarini, asosiy omillarini, hamda bugungi kunda dunyo va O'zbekiston hayotida tutgan o'rni va ta'sirini atroflicha tahlil qilib chiqamiz. Globallashuvning qanday ijobiy imkoniyatlarga ega ekani, shu bilan birga, qaysi jihatlarda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur ekanini o'rganish mazkur mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Globallashuv tushunchasi — bu dunyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot aloqalarining kuchayishi, ya'ni insoniyatning yagona tizimga yaqinlashuvi jarayonidir. Bu jarayon natijasida chegaralar ahamiyati kamayib, turli mamlakatlar o'zaro bog'liq bo'lib qolmoqda.

Globallashuv hodisasi — bu yuqoridagi tushunchaning amalda namoyon bo'lishidir. Masalan, texnologiyalar orqali tezkor axborot almashinuvi, xalqaro

savdoning kengayishi, bir davlatdagi voqea butun dunyoga ta'sir qilishi, turli madaniyatlarning aralashuvi — bular globallashuv hodisasining aniq ko'rinishlaridir.

1. Dastlabki bosqichlar (Qadimgi dunyo):

Savdo yo'llari: Qadimgi davrlarda Xitoy bilan Yevropa o'rtasida karvon yo'llari (masalan, Buyuk Ipak yo'li) orqali tovarlar, g'oyalar va texnologiyalar almashinuvi boshlangan.

Imperiyalar ta'siri: Rim, Parfiya, Xitoy imperiyalari o'z hududlarida madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish orqali ilk "global" tizimlarni vujudga keltirgan.
2. Kashfiyotlar davri (XV–XVII asrlar): Yevropa davlatlari Hindiston, Afrika, Osiyo va Amerikaga dengiz yo'llari orqali sayohatlar qilib, kolonial tizimni yo'lga qo'ydilar.

Bu davrda tovarlar (masalan, shakar, kofe, paxta), quldorlik va madaniy almashinuv kengaydi.

Global savdo va iqtisodiy aloqalar shakllanib bordi.
3. Sanoat inqilobi davri (XVIII–XIX asrlar): Sanoat inqilobi tufayli ishlab chiqarish hajmi oshdi, temiryo'llar va kemalar orqali savdo osonlashdi.

Tezkor aloqa (telegraf, pochta) shakllandi. Yirik imperiyalar o'z mustamlakalarini iqtisodiy va siyosiy jihatdan bog'lab qo'ydi.
4. XX asr (Urushlar va integratsiya): Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tashkilotlar (BMT, Jahon banki, Xalqaro valuta fondi) tuzildi.
1944 yilda Bretton-Vuds tizimi asosida iqtisodiy integratsiya kuchaydi.
1990-yillarda Sovet Ittifoqi qulagach, liberal iqtisodiyot va bozor munosabatlari butun dunyoga keng tarqaldi.Internet va raqamli texnologiyalar globallashuvni yangi bosqichga olib chiqdi.
5.XXI asrda globallashuv: Internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn savdo (Amazon, Alibaba), xalqaro kompaniyalar va raqamli valyutalar globallashuvni tezlashtirdi. Biroq ayni vaqtda milliy xavfsizlik, identitet, iqtisodiy tengsizlik, ekologik muammolar globallashuvning salbiy oqibatlari sifatida yuzaga chiqmoqda.

Xulosa

Globallashuv — bu zamonaviy dunyo taraqqiyotining eng muhim va ta'sirchan jarayonlaridan biridir. U insoniyat hayotining barcha sohalariga – iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ilm-fan, texnologiya va axborot almashinuviga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon tufayli dunyoning turli hududlari o'rtasidagi masofa va chegaralar nisbatan yo'qolib, butun dunyo "bitta global makon"ga aylanmoqda.

Globallashuv natijasida davlatlar o'zaro bog'liq bo'lib, xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Rivojlangan mamlakatlar texnologik yutuqlarini boshqa hududlarga eksport qilib, rivojlanayotgan davlatlarga yangicha imkoniyatlar yaratmoqda.

Shuningdek, odamlar orasida o'zaro madaniy anglashuv kuchaymoqda, til o'rganish, xorijda ta'lim olish, xalqaro biznes va turizm yanada ommalashmoqda.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. G'aniyeva N., Qodirova Z. Sotsiologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
3. Rasulov I., Tursunov B. Globallashuv va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalar to'plami, turli yillar.
5. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. Din va falsafa. – Toshkent, 2016.
6. Mulla Sadra. Ilmiy va diniy qarashlarning o'zaro munosabati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
7. Ibn Sino. Falsafa va din. – Toshkent: Sharq, 2003.
8. Xo'ja Ahmad Yassavi. Falsafiy va diniy qarashlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
9. Al-Farobi, Abu Nasr. Falsafiy ta'limotlar. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
10. Shahmurodov, I. Din va falsafa: O'zaro ta'sirlar. – Toshkent: Nafis, 2018.
11. G'aniyev, N. & Qodirova, Z. Falsafa. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.

GLOBALLASHUV: TAFAKKUR VA E'TIQOD UYG'UNLIGI

Ro'ziqulova Mushtariy Baxtiyor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi
Ashurova Ma'mura Narzullo qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi
Sattorova Mehriniso Olimjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Sunnatov.T.R**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada globallashuv jarayonining inson tafakkuri va e'tiqodi bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Dunyoqarashlar xilma-xillashib borayotgan bir davrda, globallashuv madaniy va diniy qadriyatlarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, shuningdek, milliy tafakkur va e'tiqodni saqlab qolish zarurati yoritiladi. Maqolada g'oyaviy uyg'unlik, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va global ta'sirlar bilan milliy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni topish masalalari ham muhokama qilinadi. Asosiy e'tibor zamonaviy yoshlarning tafakkurida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarga, ularning e'tiqodiy qarashlariga globallashuvning ta'sir darajasiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, tafakkur, e'tiqod, din va falsafa uyg'unligi, dinlararo bag'rikenglik, ma'naviyat, ma'rifat.

АННОТАЦИЯ

В этой статье будут проанализированы аспекты процесса глобализации связанные с человеческим мышлением и убеждениями. В эпоху, когда мировоззрение становится все более разнообразным, подчеркивается, как глобализация влияет на культурные и религиозные ценности, а также на необходимость сохранения национального мышления и веры. В статье также обсуждается идеологическая гармония, уважение к культурному разнообразию и поиск баланса между глобальными влияниями и национальными ценностями. Основное внимание уделяется изменениям в мышлении современной молодежи, степени влияния глобализайии на их убеждения.

Ключные слова: глобализация, мышление, вера, сочетание религии и философии, межконфессиональная терпимость, духовность, просвещение.

ABSTRACT

This article analyzes aspects of the globalization process related to human thought and belief. In a time when worldviews are becoming more diverse, it highlighted how globalization affects cultural and religious values, as well as the need to maintain national thinking and belief. The article also discusses issues of ideological harmony, respect for cultural diversity, and finding a balance between global influences and national values. The main focus is on the changes that are taking place in the thinking of modern youth, the degree of influence of globalization on their ecclesiastical views.

Key words: globalization, belief, contemplation, harmony of religion and philosophy, interfaith tolerance, spirituality, enlightenment.

Kirish.

Globallashuv (globalizatsiya) lotincha ,,glob'' so'zidan olingan bo'lib, aynan uni ,,dumaloqlashuv'', ,,kurralashuv'' deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. ,,Global'' tushunchasi lug'aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida ,,umumiy'', lotin tilida esa ,,globus'' ,,Yer shari'' ma'nolarini bildiradi.

Globallashuv atamasi birinchi bor 1960-yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Bu atama 20-asrning 90-yillarigacha deyarli foydalanilmagan. 1985-yilga kelib amerikalik sotsiolog R.Robertson ,,globallashuv'' atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981-yildan beri qo'llanilib kelingan. Ammo bu so'zning to'liq ma'nosi, konsepsiyasi 1990-yilning yarmida amerikalik olim Charlz Taz Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan. Globallashuv – butunjahon iqtisodiy, siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir-biriga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish,shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo'shilish va yaqinlashuvidir.

Asosiy qism

Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog'langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o'zgartirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Transmilliylashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog'liqligi hisoblanadi. Shu asosida yagona

jahon tarmog'i, bozor iqtisodiyoti, geoiqtisodiyot va uning infratuzilmalari shakllanmoqda, ko'p asrlar davomida xalqaro munosabatlarning asosiy xarakteri bo'lib kelgan davlat suvereniteti ta'sirining pasayishi sodir bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni bu davlat tomonidan shakllantirilgan bozor tizimlari evolyutsiyasining natijasidir.

Globallashuv bugungi kunda insoniyat tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan eng muhim jarayonlardan biridir. Texnologik taraqqiyot, axborot almashinuvining yengillashuvi va madaniy ochiqlik insonlar dunyoqarashini kengaytirmoqda. Biroq bu jarayon nafaqat tafakkur, balki e'tiqod sohasida ham chuqur o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Yangi g'oyalar, qarashlar va hayot tarsi ko'plab xalqlarning qadimiy urf-odatlari, diniy e'tiqodlari bilan to'qnash kelmoqda. Bu holat, bir tomondan, ayrim milliy qadriyatlar va an'anaviy e'tiqodlarning zaiflashuviga ham sabab bo'lmoqda. Shu sababli, globallashuv davrida tafakkur va e'tiqod uyg'unligini ta'minlash eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Inson tafakkuri ochiqligi bilan ajralib tursa-da, u o'z ildizlaridan, e'tiqodiy negizlaridan voz kechmasligi kerak.

Bugungi yosh avlod zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo'lishi barobarida, milliy va diniy qadriyatlarga sodiqlikni ham saqlashi lozim. Tafakkur va e'tiqodning uyg'unligi shundaki, u insonni nafaqat ilm va taraqqiyot sari yetaklaydi, balki ma'naviy yuksalish, axloqiy tozalik va ijtimoiy mas'uliyatni ham kuchaytiradi.

Globallashuv jarayonida axborot vositalarining, ayniqsa internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi odamlar tafakkurini shakllantirishda kuchli vositaga aylandi. Har kim dunyoning istalgan nuqtasidagi yangiliklardan xabardor bo'lib, turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlari, e'tiqodi bilan tanishmoqda. Bu esa insonni keng fikrlashga, yangilikka ochiq bo'lishga o'rgatadi. Biroq aynan shu erkinlik ortida ma'naviy tanazzul, begona g'oyalarning ongga singgish xavfi ham bor.

Tafakkur – bu insonning fikrlash doirasi, dunyoni anglash qobiliyati bo'lsa, e'tiqod – uning qalbidagi ishonch, ruhiy tayanchi, hayotga nisbatan ma'naviy mezonidir. Bu ikki tushuncha bir-birini to'ldirgan taqdirdagina sog'lom jamiyat vujudga keladi. Agar insonning tafakkuri o'zgarib, zamonaviy dunyo bilan moslashayotgan bo'lsa, e'tiqodiy negiz ham ham shu asosda mustahkam bo'lishi kerak. Aks holda inson tafakkur bilan oldinga intilsa-yu, e'tiqodiy tayanchi yo'qolsa, maqsadsiz hayotga duch keladi. Globallashuv sharoitida dinlararo muloqot, madaniyatlararo hamkorlik kabi tushunchalar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa insonlarni o'z e'tiqodiga sodiq qolgan holda boshqalarning e'tiqodiga hurmat bilan qarashga o'rgatadi. Ayniqsa, yoshlarda bu

fazilatlarni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Maktab, oila va jamiyat bu borada muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, globallashuv milliy qadriyatlar bilan universal qadriyatlar o'rtasida muvozanat saqlashni talab qiladi. Har bir xalq o'zining tarixiy, madaniy va diniy merosini asrab-avaylashi, uni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish yo'llarini izlashga majbur. Bunda tafakkur – yo'lchi yulduz, e'tiqod esa yurak quvvati bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv – bu inkor etib bo'lmaydigan jarayon bo'lib, u inson tafakkurini boyitadi, dunyoqarashini kengaytiradi va zamonaviy hayotga moslashishga chorlaydi. Biroq bu taraqqiyot yo'lida e'tiqod, ya'ni ma'naviy negizlarimizni, qadriyatlarimizni saqlab qolish nihoyatda muhimdir. Tafakkur va e'tiqodning uyg'unligi bizni faqat moddiy taraqqiyot sari emas, balki ma'naviy yuksalish sari ham yetaklaydi. Aynan shu uyg'unlik orqali jamiyatda sog'lom fikrli, axloqiy barkamol va vatanparvar avlodni voyaga yetkazish mumkin. Demak, globallashuv sharoitida tafakkur va e'tiqodning muvozanatini toppish – har bir inson, ayniqsa yosh avlod oldidagi dolzarb vazifadir.

REFERENCES

1.Sodiqov, M. Globallashuv va uning jamiyat hayotiga ta'siri. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2.Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent, „O'zbekiston'' , 2021.
3.Baxtiyorov B. Globallashuv va uning jamiyat hayotiga ta'siri. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
4.Nosirov A. Ma'naviy tahdidlar va g'oyaviy kurash. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
Tafakkur va e'tiqod uyg'unligi zamonaviy davr talabiga moslashinuvi.

GLOBALLASHUV DAVRIDA INTERNET XAVFI

Madaminova Mubinaxon Nazim qizi,
Toshkent davlat transport universiteti
Aviatsiya muhandisligi fakulteti 1-bosqich talabasi.

ANNOTASIYA:

Globallashuv davrida internet inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarning transformatsiyasiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, internetning jadal rivojlanishi kiberjinoyatchilik, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini buzish, dezinformatsiya tarqalishi va psixologik manipulyatsiya kabi xavflarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada globallashuv davrida internet xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar tahlil qilinib, ularning global miqyosdagi oqibatlari hamda oldini olish strategiyalari yoritiladi. Turli ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va amaliy tadqiqotlar asosida internet xavfsizligi muammolarining jamiyatga ta'siri keng qamrovli tarzda o'rganiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining taraqqiyoti bilan bog'liq holda xavfsizlikni ta'minlash yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, internet xavfsizligi, kiberjinoyatchilik, feyk yangiliklar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, psixologik ta'sir, axborot texnologiyalari, raqamli makon, ijtimoiy tarmoqlar, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi, manipulyatsiya.

KIRISH.

Globallashuv jarayonida internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi axborot almashinuvi, iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga tub o'zgarishlar olib keldi. 2023-yil holatiga ko'ra, dunyo aholisining 66 foizi internetdan faol foydalanayotgan bo'lib, bu raqam yil sayin ortib bormoqda. Internet iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylangan bo'lsada, uning salbiy jihatlari ham tobora keskin tus olmoqda. Kiberjinoyatchilikning ko'payishi, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi buzilishi, dezinformatsiya va psixologik manipulyatsiyalar bugungi raqamli jamiyatda jiddiy tahdidlar qatoriga kiradi.

Shu tariqa, internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi, manipulyatsiya, feyk yangiliklar va kiberjinoyatchilik global muammolarga aylanmoqda. Quyidagi misollar turli sohalarda yuzaga kelgan real tahdidlarni yoritadi.

So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, 2022-yilda kiberjinoyatlar global iqtisodiyotga 8,4 trillion AQSh dollari miqdorida zarar yetkazgan, 2025-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 10,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 2020-yildan beri feyk

yangiliklarning tarqalishi rekord darajada ortgan bo'lib, bu nafaqat jamoatchilik fikriga, balki davlat boshqaruv tizimlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida 2010-223 yilgacha bo'lgan global internet xavfi doir statistik ma'lumotlardan. Shuningdek, Facebook, Yahoo, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlaridagi shaxsiy ma'lumotlarning xavsizlik masalalari yoritilgan. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

2016-yilda AQSh prezidentlik saylovlari chog'ida Facebook orqali tarqalgan yolg'on axborot millionlab odamlarning saylov qarorlariga ta'sir ko'rsatgani aniqlangan. Bundan tashqari, shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi ham keng tarqalgan muammoga aylangan. 2017-yilda AQShning eng yirik kredit axborot agentliklaridan biri Equifax serverlariga uyushtirilgan kiberhujum natijasida 147 milliondan ortiq mijozning shaxsiy ma'lumotlari, jumladan, ijtimoiy sug'urta raqamlari, kredit tarixlari va haydovchilik guvohnomalari raqamlari o'g'irlangan. Ushbu hujum kompaniyaning axborot xavfsizligi bo'yicha sust siyosati tufayli yuzaga kelgan va AQSh hukumati tomonidan keng ko'lamda tekshiruv o'tkazilgan. Equifax hodisasi kiberjinoyatchilik, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, va kiberxavfsizlik siyosati muhimligini ko'rsatadi. Ushbu holatdan so'ng AQShda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qoidalar kuchaytirildi.

2020-yilda SolarWinds kompaniyasining IT monitoring dasturiy ta'minotiga zararli kod kiritilib, AQSh hukumatining muhim agentliklari, yirik korporatsiyalar va IT kompaniyalari hujumga uchradi. Xakerlar bir necha oy davomida maxfiy davlat va tijorat ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu hujum raqamli makon va axborot texnologiyalarining himoyalanmagan tizimlari global xavfsizlikka qanday tahdid solishini ko'rsatdi. SolarWinds voqeasi kiberxavfsizlik strategiyalarini qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirdi.

So'nggi yillarda deepfake texnologiyalari (sun'iy intellekt yordamida soxta videolar yaratish) ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalmoqda. 2019-yilda Facebook kompaniyasi tomonidan tarqatilgan bayonotga ko'ra, platformada soxta videolar soni sezilarli darajada oshgan, jumladan, siyosatchilar va mashhurlar nomidan noto'g'ri bayonotlar berilgan. Deepfake texnologiyalari psixologik ta'sir, manipulyatsiya, va feyk yangiliklar tarqalishiga sabab bo'ladi. Bu esa saylov natijalariga, jamoatchilik fikriga va hatto shaxsiy obro'ga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Dastlab 2013-yilda, keyin esa 2014-yilda sodir bo'lgan Yahoo! kiberhujumlari tarixdagi eng yirik ma'lumotlar buzilishlaridan biri hisoblanadi. 2017-yilda oshkor qilingan ma'lumotlarga ko'ra, bu hujum natijasida 3 milliarddan ortiq foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari (e-mail loginlari, parollar, telefon raqamlari) o'g'irlangan. Ushbu hodisa ijtimoiy tarmoqlar va raqamli makon foydalanuvchilari qanday xavf ostida ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, bu holat shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik muammolarini jiddiy o'rganish zarurligini yana bir bor isbotladi.

2020-yilda bir guruh xakerlar Twitter platformasining ichki tizimlariga noqonuniy kirib, Barak Obama, Elon Musk, Jeff Bezos va Bill Gates kabi mashhur shaxslarning akkauntlarini egallab oldilar. Xakerlar ushbu akkauntlardan foydalanib, Bitcoin orqali firibgarlik sxemalarini targ'ib qildilar va minglab odamlarni aldashga muvaffaq bo'ldilar. Ushbu hodisa ijtimoiy tarmoqlarning kiberxavfsizligi, ma'lumotlar maxfiyligi, va psixologik manipulyatsiya masalalarini yoritdi. Twitter xavfsizlik tizimining zaifligi katta zarar yetkazdi va platformalar o'z xavfsizlik siyosatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun quyidagi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: Korxonalar va davlat tashkilotlari ma'lumotlarni shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya, va ilg'or xavfsizlik protokollaridan foydalanish orqali himoyani kuchaytirishi kerak. Ommaviy ravishda kiberxavfsizlik bo'yicha trening va ta'lim dasturlarini joriy qilish foydalanuvchilarning xabardorligini oshiradi. Internet kompaniyalari va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini ishlatishda yanada shaffof siyosat yuritishi lozim.Yevropa Ittifoqining GDPR qoidalariga o'xshash qonunlar butun dunyoda qabul qilinishi shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash darajasini oshiradi.Ijtimoiy tarmoqlar sun'iy intellekt asosida feyk yangiliklarni filtrlash tizimlarini takomillashtirishi lozim.Ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari media savodxonlik dasturlarini rivojlantirish, aholiga axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatish kerak.

Turli sohalarda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirgan internet, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Biroq, bu imkoniyatlar bilan birga kiberjinoyatlar, shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi, manipulyatsiya va psixologik ta'sir kabi xavf-xatarlar ham keskin oshdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va huquqiy chora-tadbirlarni takomillashtirish bugungi jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

XULOSA

Hozirgi davrda texnologiyalar hayotimizni yengillashtirayotgani shubhasiz, lekin ularni to'g'ri boshqarmasak, ularning insoniyatga yetkazadigan zarari

foydasidan ko'proq bo'lishi mumkin. Shu sababli, davlatlar, tashkilotlar va har bir fuqaro internet xavfsizligi, axborot madaniyati va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish borasida mas'uliyat bilan yondashishi shart.Faqat shu yo'l bilan biz raqamli dunyoning tahdidlariga qarshi tura olamiz va internetni haqiqatan ham xavfsiz, ishonchli hamda foydali vositaga aylantira olamiz.

REFERENCES

1. Statista (2023). "Global Internet Usage Statistics." [Online]. Available at: www.statista.com
2. Europol (2023). "Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA)." [Online]. Available at: www.europol.europa.eu
3. Cybersecurity Ventures (2023). "2023 Cybercrime Report." [Online]. Available at: www.cybersecurityventures.com
4. MIT Technology Review (2021). "Fake News and Social Media Manipulation." [Online]. Available at: www.technologyreview.com
5. Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). "Social Media and Fake News in the 2016 Election." Journal of Economic Perspectives, 31(2), 211–236.

BUTUN DUNYO BO'YLAB IQTISODIY, SIYOSIY, MADANIY VA DINIY INTEGRATSIYA VA BIRLASHISH JARAYONI: TAFAKKUR VA E'TIQOD UYG'UNLIGI.

M. M. Baxtiyorova
M.O. Shermatova
S. Y. Urozboyeva
CHDPU 1-bosqich talabalari
baxtiyorovamuhlisa0@gmail.com
shermatovam200@gmail.com
urozboyevasevinch73@gmail.com

ANNOTATSIYA

Globallashuv dunyoni bir-biri bilan chambarchas bog'langan madaniyatlar, iqtisodiyotlar va jamiyatlar tarmog'iga aylantirdi. Ushbu maqola globallashuvning inson tafakkuri va e'tiqod tizimlariga ta'sirini o'rganib, uning g'oyalar va mafkuralarning uyg'un kombinatsiyasini qanday ta'minlashiga urg'u beradi. Globallashuv bilimlar almashinuvi va madaniy integratsiyaga olib kelgan bo'lsa-da, madaniy bir hillashuv va mafkuraviy to'qnashuvlar bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqardi. Ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganib, ushbu maqola o'zaro tushunish va hurmat orqali yanada bag'rikeng va birlashgan dunyoni yaratish uchun globallashuv imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

ABSTRACT

The global world has become a network of closely interconnected cultures, economies, and societies. The three globalizations affect human thought and belief systems, emphasizing how to ensure a harmonious combination of ideas and ideologies. While global knowledge production and cultural integration have led to cultural homogenization and ideological clashes, they have also resulted in the connection of cultural homogenization and ideological clashes. Examining its strengths and weaknesses, this article emphasizes global integration for a richer world of knowledge through mutual assistance and respect.

Globallashuv xalqaro savdo, aloqa va madaniy almashinuvni rivojlantirish orqali jamiyatlarni qayta shakllantirgan dinamik kuchdir. Bu nafaqat iqtisodlarga ta'sir qildi, balki inson tafakkuri va e'tiqod tizimini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Transchegaraviy fikr almashuvi turli xil populyatsiyalar o'rtasida kengroq tushunishga olib keldi va global birlik tuyg'usini rag'batlantirdi. Biroq, madaniyatlar

va mafkuralarning uyg'unligi haqiqiy uyg'unlikni ta'minlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Globallashuvning fikr va e'tiqodga ijobiy ta'siri.Globallashuvning eng muhim hissalaridan biri bu madaniy almashinuvni osonlashtirishdir. Raqamli platformalar orqali ma'lumotlarning keng tarqalishi odamlarga turli falsafalar, diniy e'tiqodlar va axloqiy nuqtai nazarlardan foydalanish imkonini berdi. Ushbu ta'sir ochiq fikrlashni, bag'rikenglikni va xilma-xillikni qadrlashni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, globallashuv ilm-fan, texnologiya va ta'lim sohasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni rag'batlantirdi, umumiy yutuqlar va innovatsiyalarga olib keldi.

Globallashuvning kengayishi bilan har xil dunyoqarashlar, diniy e'tiqodlar va madaniy qadriyatlar o'zaro muloqotda bo'lib, ular o'rtasida to'qnashuvlar va moslashuvlar ro'y bermoqda. Bu jarayonda ikki asosiy yo'nalish kuzatiladi:

Tafakkur erkinligi va e'tiqod xilma-xilligi: Globallashuv natijasida turli madaniyatlar va e'tiqodlar o'rtasidagi chegaralar yumshamoqda. Bu odamlarning turli g'oyalarga ochiq bo'lishiga va yangi qarashlarni o'zlashtirishiga yordam beradi. Shu bilan birga, ba'zi hollarda e'tiqodlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar yoki qarama-qarshiliklar yuzaga keladi.

Uyg'unlik va ziddiyat:Tafakkur erkinligi va e'tiqod o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash qiyinchilik tug'diradi. Masalan, zamonaviy ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti ayrim an'anaviy diniy qarashlarga zid kelishi mumkin. Bunday holatlar e'tiqod va tafakkur o'rtasida ziddiyatni keltirib chiqaradi.

Globallashuv va milliy qadriyat.Globallashuv jarayoni bir tomondan dunyo xalqlarini yaqinlashtirsa, ikkinchi tomondan milliy o'zlikni saqlash masalasini yanada dolzarblashtiradi. Bugungi kunda har bir millat o'z qadriyatlarini saqlab qolgan holda global jarayonlarga moslashish yo'llarini izlamoqda. Bu jarayonda tafakkur va e'tiqod o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi ham asrlar davomida shakllangan o'z qadriyatlari, urf-odatlari va an'analarini saqlab qolgan holda zamonaviy dunyoga integratsiyalashmoqda. Bu jarayonda milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish, shu bilan birga global jarayonlarga moslashish o'rtasidagi muvozanatni topish muhimdir.

Mafkuraviy uyg'unlik muammolari. O'zining afzalliklariga qaramay, globallashuv madaniy homogenlashuvga olib keldi, bu yerda hukmron madaniyatlar mahalliy an'analar va e'tiqodlarga soya soladi. Iste'molchilik g'oyalari va G'arbga asoslangan qarashlarning tarqalishi ba'zan mahalliy madaniyat va an'analarning yo'q qilinishiga olib keldi. Bundan tashqari, g'oyalarning tez almashinuvi ham mafkuraviy to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Global uyg'unlik uchun muvozanatni saqlash.Barkamol global jamiyatga erishish uchun madaniy integratsiya va xilma-xillikni saqlash o'rtasidagi muvozanatni

saqlash juda muhimdir. Bunga madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, o'zaro hurmatni rag'batlantirish va farqlarni bostirish o'rniga ularni nishonlaydigan inklyuziv siyosatni rivojlantirish orqali erishish mumkin. Ta'lim birgalikda yashash ongini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi, odamlarga xavf tug'dirmasdan, turli nuqtai nazarlarni qadrlashga yordam beradi.

Tafakkur va e'tiqod .Tafakkur va e'tiqod insonning ma'naviy dunyosining ikki muhim komponenti hisoblanadi. Tafakkur- bu insonning aqliy faoliyati, dunyoni anglash va o'zlashtirish jarayoni bo'lsa, e'tiqod- bu insonning ichki ishonchi, qadriyatlari va dunyoqarashidir.

Globallashuv sharoitida ular o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, zamonaviy dunyoda yashash uchun ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish, innovatsion fikrlash zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, ma'naviy qadriyatlarni saqlash, axloqiy prinsiplarga sodiq qolish ham muhimdir.

Globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida ham yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Zamonaviy ta'lim nafaqat ta'lim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning tafakkuri va e'tiqodini uyg'unlikda shakllantirish vazifasini ham bajarishi kerak.

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy bilimlarni berish bilan birga milliy qadriyatlarni o'rgatish, ma'naviy tarbiyaga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi ta'lim muhitida o'quvchilarni zamonaviy, kreativ hamda xalqaro standartlarga javob bera oladigan dars jarayonini tashkil etishda individual yondashuv muhiti asosida raqamli mexanizmlar, raqamli axborotlar bilan ishlash usuli samara bermoqda. Individual yondashuv o'quvchilarda shaxsiy rivojlanish, muammolarni to'g'ri tahlil asosida yechish, shuningdek, erkin va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu yondashuv o'quvchilar duch kelgan turli xil jarayonlarda vaziyatga mos holda psixologik protsesslarsiz kreativ hamda mantiqan to'g'ri yondashuv asosida chiqishga ko'maklashadi.

Axborot texnologiyalari va ma'naviyat.Axborot texnologiyalari rivojlanishi globallashuv jarayonini yanada tezlashtirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot vositalari orqali turli g'oyalar, qadriyatlar va dunyoqarashlar tarqalmoqda. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash, axborotni to'g'ri baholash va saralash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda axborot texnologiyalaridan foydalanishda ma'naviy immunitetni shakllantirish muhimdir.

Globallashuv turli millatga mansub odamlarni bilim va e'tiqodlarini baham ko'rish uchun birlashtirib, birdamlik uchun qudratli kuch bo'lish imkoniyatiga ega. Biroq, haqiqiy uyg'unlikni amalga oshirish uchun madaniy eroziya va mafkuraviy to'qnashuvlar kabi muammolarni hal qilish juda muhimdir. Xilma-xillikni qamrab

olish va o'zaro tushunishni rivojlantirish orqali globallashuv tafakkur va e'tiqod tizimlari tinch-totuv yashaydigan dunyoni yaratib, yanada uyg'un global jamiyatga olib kelishi mumkin.

REFERENCES

1. **Abdullayev, G. (2015).** "Globallashuv va uning ijtimoiy-tafsilotlari." Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. **Jumaniyozov, A. (2020).** "Tafakkur va e'tiqod o'rtasidagi muvozanat: zamonaviy o'zbek jamiyatida globallashuvning ta'siri." Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. **Xudoyberganov, D. (2019).** "Mafkuraviy uyg'unlik va global integratsiya." Madaniy integratsiya masalalari
4. **Nazarov, K. (2020).** "Ma'naviy tarbiya va globallashuv: o'zbek xalqining qadriyatlari." Toshkent: O'zbekistonda ta'lim va madaniyat.
5. **Toshmatov, S. (2017).** "Axborot texnologiyalarining globallashuvdagi roli." O'zbekiston ilmiy jurnali

GLOBALLASHUV: O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI.

ChDPU "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabasi.
Sodiqova Dilobaod Iqboljonovna
sodiqovadilobar649@gmail.com
"Maktabgacha ta'lim'' yo'nalishi talabasi
Yaxshiboyeva Sevinch Erkinjon qizi
Sevinchyaxshiboyeva8@gmail.com
Ilmiy rahbar: Sa'dullayeva Mahfuza Husenovna

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada O'zbekistonda globallashuv jarayonida ta'limga oid islohotlar va ularning ahamiyati,ta'limdagi yangiliklar,o'zgarishlar, kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Koreya ta'lim tizimidagi va O'zbekiston ta'lim tizimiga oid o'xshashliklar va farqli jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, texnologiya, kadrlar tayyorlash milliy tizimi, ta'lim to'g'risidagi qonun, Janubiy Koreya, islohotlar, so'nggi yangiliklar.

ANNOTATION. This article contains information on education reforms and their significance in the process of globalization in Uzbekistan, innovations and changes in education, application of advanced technologies in teaching professional subjects. Similarities and differences in the Korean education system and the education system of Uzbekistan are highlighted.

Keywords: globalization, technology, national training system, education law, South Korea, reforms, latest news.

АННОТАЦИЯ. Данная статья содержит информацию о реформах в образовании и их значении в процессе глобализации в Узбекистане, нововведениях и изменениях в образовании, применении передовых технологий в преподавании профессиональных дисциплин. Выделены сходства и различия в корейской системе образования и системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: глобализация, технологии, национальная система обучения, закон об образовании, Южная Корея, реформы, последние новости.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustqaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi,ta'lim sohasini tubdan isloh qilish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida Ta'lim to'g'risidagi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul

qilingan,Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.[11] Ta'lim to'g'risidagi qonun juda muhim. Chunki rivojlangan har bir davlatda ta'lim ustuvor hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim mussasalari bolalarni 3-yoshda qabul qilib 6-7 yoshgacha maktab ta'limiga tayyorlab beradi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (1 — 11 sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (1— 4 sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (5 — 9 sinflar);

o'rta ta'lim (10 — 11 sinflar)[12].

Umumiy o'rta ta'limga yetarlichae'tibor qaratilmoqda.Unda o'quvchilar zamonaviy ta'lim va texnologiyalar asosida o'qituvchilar tomonidan bilim olmoqda.Aynan umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga kirishda yetakchi o'rin tutadi. Xozirgi kunda o'quvchilar 9-yillik umumiy o'rta ta'limdan so'ng o'z tanloviga ko'ra kollej yoki akademik litseylarda taqsil olishlari mumkin.Yoki 10-11-sinflarida o'qishni davom ettirishadi.[13]

Oliy ta'limga keladigan bo'lsak u yetuk kadrlarni tayyorlab beradi.Oliy ta'limga davlat va nodavlat universitetlar,institutlar va akademiyalar kiradi.Bu jarayonida uzliksiz ta'lim yuksak malakali kadrlar tayyorlashning asosini ta'shkil etib,ta'limning barcha turlarini,davlat ta'lim standartlarini, kadrlash tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish mazmun-mohiyatini ifoda etadi. Hozigi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar shundan iboratki,ta'lim tizimining tizimining barcha jabhalarida ya'ni,maktabgacha ta'lim tashkilotidan tortib to doktaranturagacha o'quvchilarni o'qitishda ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda darslar o'tilmoqda. "Ta'kidlash kerakki, yurtimizda xotin-qizlar ta'limiga qaratilayotgan e'tibor har birimizning hayotimizda o'z ifodasini topayotgani barchamizni quvontirdi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Men hurmatli ota-onalarga qarata aytmoqchiman: qizlaringizni o'qiting, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishlarida ularga ko'makchi bo'ling! Ulug'larimiz aytganlaridek, o'g'il bolani o'qitsak, bir kishi savodli bo'ladi. Qiz bolani o'qitsak, butun oila,butun jamiyat bilimli bo'ladi deya ta'kidlagan edi. Prezidentimiz boshchiligida olib borilayotgan mazkur islohotlar, birinchi navbatda, demokratik jarayonlarga asoslangan tarzda umumxalq tafakkuri va

[11] https://lex.uz/uz/docs/-5013007

[12] Xudoyqulov X.J., Jumanova F.YU.Ishonch hamkor tashkiloti,Tohskent-2021,74-76-betlar.

[13] F.R. Qodirova,Sh.Q.Toshpo'talovnaN.M.Kayumovna,M.N.A'zamovna Tafakkur anshriyoti,Toshkent -2019,56-bet

xalqimizning o'sib borayotgan siyosiy ongi, madaniyati hamda inson kapitalining manfaati birinchi darajali ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimini tahlil qilar ekanmiz, uning fuqarolari kuniga 11-12 soat davomida bilim olishga qodir bo'lib aksariyat aholisining asosiy maqsadi sifatli bilim olish va yaxshi mutaxassislikni o'zlashtirishdir. Zamonaviy ota-onalar, o'z farzandlarining erta rivojlanishini rag'batlantirishni istab, bolasini uch kunlikdan boshlab bolalar bog'chasiga yuborishlari mumkin. Bolalar bog'cha u yerda ham ikkita turda mavjud bo'lib: davlat va xususiy. Koreyslar ikkinchisini afzal ko'rishadi. Ushbu maktabgacha bosqichda Janubiy Koreyada ta'lim asosan har tomonlama rivojlanishga qaratilgan bo'lib, maktabga boradigan bola jismonan baquvvat, hissiy jihatdan barqaror va o'ziga ishongan bo'ladi.

Janubiy Koreyada 'Talim haqida"gi Qonun 1948-yilda qabul qilingan.Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan,6-yillik quyi maktab,3-yillik orta,yana 3-yil oliy maktab, songra 4-yillik kollej va bakalavr unvoni berilar ekan.Tanlangan fan uchun yana 2-yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistrlik unvonini olish mumkin ekan.Fan doktori bo'lish uchun esa 3-yil vaqt o'qish yetarli bo'ladi.

Bizda ham oliy ta'lim muassalari soni kundan kunga ko'payib,o'quvchilarning oliy ta'limda o'qish istagi ortmoqda.Va bunga mamlakatimizda ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda.Kitobga bo'lgan qiziqish ortib kitobxonlik madaniyati oshmoqda.

Bugungi kundagi yangi islohotlardn yana biri shuki, milliy qadriyatlarimizga e'tibor qaratilmoqda.Bu milliylik va zamonaviy ta'limning uyg'unlikdagi o'zgacha shaklidir.

XULOSA.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, ta'limdagi yangi islohatlar insonlarni ilg'or fikrlashi va jamiyatdagi barcha sohalarda yuqori o'rin tutishida xizmat qiladi.Bu islohotlar ta'lim tizimini yuqori bosqichga olib chiqadi va ta'lim olishga bo'lgan qiziqiahni yanada oshiradi.

REFERENCES

1. Xudoyqulov X.J., Jumanova F.YU.Ishonch hamkor tashkiloti,Tohskent-2021,74-76-betlar.
2. F.R. Qodirova,Sh.Q.Toshpo'talovnaN.M.Kayumovna,M.N.A'zamovna Tafakkur anshriyoti,Toshkent -2019,56-bet
3. https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-yangicha-talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar. 2021 yil 11 avgust.

4. http://hfxraximov.uz/xorijiy-davlatlar-talim-tizimlari.html
5. https://lex.uz/uz/docs/-5013007

GLOBALLASHUV: TAFAKKUR VA E'TIQOD UYG'UNLIGI

Soburova Ozoda, Otaxonova Sarvinoz
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari
Ilmiy rahbar: Sunnatov Tohir

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida inson tafakkuri va e'tiqodining o'zaro uyg'unlashuvi masalalari tahlil qilinadi. Bugungi dunyoda fan, texnologiya va madaniy ta'sirlarning ortib borishi natijasida tafakkur va e'tiqod qanday o'zgarayotgani yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish muhimligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, tafakkur, e'tiqod, madaniyat, falsafa, din, texnologiya, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar.

KIRISH:

Hozirgi dunyo tobora globallashib, turli madaniy va ilmiy oqimlar bir-biriga ta'sir ko'rsatmoqda. Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi natijasida inson tafakkuri yangicha shakllanmoqda. Shu bilan birga, diniy e'tiqod va an'anaviy qadriyatlar ham jamiyatda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiyot va texnologiya sohalariga, balki inson tafakkuri va ma'naviyatiga ham chuqur ta'sir o'tkazmoqda. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida tafakkur va e'tiqod uyg'unligi qanday shakllanishi va uning zamonaviy jamiyatga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Globallashuv va inson tafakkuri

Globallashuv inson tafakkurining shakllanishida katta rol o'ynamoqda. Axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat tufayli dunyoqarash yangilanib, turli falsafiy va ilmiy yondashuvlar bir-biriga ta'sir qilmoqda. Globallashuv ilm-fan rivojiga turtki berib, yangi ilmiy yutuqlar va kashfiyotlar inson tafakkurini o'zgartirmoqda.

Ilm-fan va tafakkur: Fan yutuqlari, xususan, sun'iy intellekt, bioinjiniring va koinot tadqiqotlari inson tafakkurini kengaytirmoqda. Hozirgi kunda inson ongi va tafakkurining chegaralari sun'iy intellekt bilan sinovdan o'tkazilmoqda.

G'arb va Sharq tafakkuri sintezi: Sharqona donishmandlik va G'arb ilmiy tafakkuri uyg'unlashmoqda. Masalan, Konfutsiy ta'limoti va Aristotel falsafasi zamonaviy bilim tizimiga ta'sir qilmoqda.

Erkin fikrlash va kreativ tafakkur: Globallashuv ijodkorlik va innovatsion tafakkurning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Inson tafakkuri doimo yangi g'oyalar va yondashuvlar bilan boyib bormoqda.

Globallashuv va e'tiqod

Diniy e'tiqod har doim inson hayotining muhim qismi bo'lib kelgan. Globallashuv jarayonida diniy e'tiqod qanday o'zgarishi va yangi shakllarga ega bo'lishi dolzarb masaladir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan diniy qarashlar ham o'zgarib bormoqda.

Turli din va e'tiqodlarning yaqinlashuvi: Global jamiyatda turli konfessiyalar va dinlar o'zaro muloqot qilmoqda. Bu esa diniy bag'rikenglik va hamkorlikka asos bo'lishi mumkin.

Diniy bag'rikenglik: Turli e'tiqod vakillarining bir-birini tushunishi va hurmat qilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatdagi tinchlik va totuvlik diniy bag'rikenglikni rivojlantirish orqali mustahkamlanishi mumkin.

Yangi diniy tendensiyalar: Virtual ibodat, onlayn diniy jamoalar kabi tushunchalar shakllanmoqda. Bu esa diniy e'tiqodga yangi texnologiyalar ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

Tafakkur va e'tiqod uyg'unligi

Inson tafakkuri va e'tiqodi doimo o'zaro ta'sirda bo'lib kelgan. Tafakkur orqali inson dunyoni anglab, e'tiqod orqali esa o'z hayotining ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi. Tafakkur va e'tiqod uyg'unligi insonning axloqiy va ruhiy rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Falsafa va din uyg'unligi: Ilm-fan va e'tiqod bir-birini inkor etmay, aksincha, bir-birini to'ldirishi mumkin. Masalan, Ibn Sino va Farobiy ilmlarida bu uyg'unlik yaqqol ko'rinadi.

Ma'naviy qadriyatlarni saqlash: Globallashuv jarayonida milliy va diniy qadriyatlarni saqlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Globallashuv jarayoni inson tafakkuri va e'tiqodiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ilm-fan va texnologiya rivoji inson dunyoqarashini o'zgartirsa-da, diniy e'tiqod ham jamiyatning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Tafakkur va e'tiqod uyg'unligi esa jamiyatda muvozanat va ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.
2. Farobiy, Fozil odamlar shahri.
3. Ibn Sino, Kitob ush-shifo.

4. Aristotel, Metafizika.
5. Platon, Davlat.
6. Yuval Noah Harari, Sapiens: Insoniyat tarixi.

O'YINLAR - IJTIMOIY FAOLIYAT SIFATIDA

G'opporova Saygul
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 24/1-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSİYA.

O'yin insoniyatning eng qadimiy va universal ijtimoiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, uning mazmun-mohiyati nafaqat shaxsiy zavq yoki hordiq chiqarish bilan cheklanmaydi, balki chuqur psixologik, pedagogik va sotsiologik omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu tadqiqotda o'yinlarning ijtimoiy faoliyat sifatidagi mohiyati tahlil qilinib, ular inson hayotining turli jabhalarida qanday rol o'ynashi ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yoritiladi. O'yin jarayoni individual va kollektiv ong shakllanishida muhim omil bo'lib, shaxsiy rivojlanishdan tortib, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini shakllantirishgacha bo'lgan keng qamrovli jarayonlarni qamrab oladi. Tadqiqot doirasida o'yinlarning madaniy, iqtisodiy va kommunikativ jihatlari hamda ularning axborot texnologiyalari ta'sirida qanday evrilib borayotgani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: virtual olam, interfaol ta'lim, gallyutsinatsiya, elektron texnologiya,interaktivlik.

Kirish. N. Komilov ta'kidlaganidek: "Odam qanchalik nodon bo'lsa, u xurofotga, so'zlar sehriga, shakllarga mahliyo bo'ladi, rasm-rusumga, aqidalarga shuncha beriluvchan bo'ladi. Va, aksincha, odamning ma'rifati, bilimi oshgan sari, u ...mazhabparastlikdan, aqidaparastlikdan yuqori ko'tarilaveradi..."

Insoniyat tarixida o'yin faqat bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida muhim omil sifatida qaralgan.

O'yinlar inson tafakkurini o'stiruvchi, ijtimoiy muhitga moslashishga ko'maklashuvchi va jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ular turli yosh toifalaridagi shaxslar orasida aloqa o'rnatish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish hamda psixologik muvozanatni saqlash vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda o'yin tushunchasi an'anaviy ko'rinishdan chiqib, pedagogik, psixologik va iqtisodiy jihatlardan ham tadqiq etilmoqda. Bolalar va kattalar o'rtasidagi o'yin jarayonlar nafaqat shaxsiy tajribani boyitadi, balki jamiyatning umumiy rivojlanish tendensiyalarini ham belgilaydi. Shu bois, o'yinlarni

ijtimoiy faoliyat sifatida o'rganish, ularning turli jihatlarini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzu doirasida o'yinlarning ijtimoiy funksiyalari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va inson faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. O'yinlarning psixologik va sotsiologik jihatlari, ularning madaniy meros bilan bog'liqligi hamda zamonaviy texnologiyalar ta'sirida qanday shakllanayotgani atroflicha tahlil qilinadi. Kompyuter avval maxsus zallarda paydo bo'ldi, ularda yuqori malakali mutaxassislar ishlay boshladilar. Asosan mudofaa va boshqa tadqiqotchilik masalalari bilan shug'ullandilar. Ko'pincha hisoblash texnikasi matematika, mantiq, ratsional g'oyalar bilan bog'liq masalalar ustida ish yuritdilar. Insonlar undan umuman oddiy maqsadlarda (masalan, o'yinlar uchun) foydalanishlari mumkinligi hech kimning xayoliga ham kelmagan. "Kompyuter o'yinlari" iborasi esa bema'ni hayoldek tuyulishi mumkin edi. Shunday bo'lsa ham monitor oldidagi jiddiy, zavqsiz, sovuqqon olimlarning o'rinlarini zavqli, qiziquvchan o'yinchi bolalar egalladi.Bugungi kunda kompyuter o'yinlari faqatgina o'yin emas, balki madaniyat, bilim, ta'lim va tarbiya masalalari targ'ibotchisiga aylandi. O'yinlar sahnaga, kartinalar ko'rgazmasiga yoki kitob sahifasiga o'xshamaydi, ammo xuddi shular kabi zamonaviy ma'naviyatni, axloqiy xususiyatlar, hayollar, orzu va tasavvurlarni ifoda etadi. Har qanday madaniy ijod kabi o'zini ifoda etish uchun ba'zi imkoniyatlarni yaratadi, boshqalarini cheklaydi. Ilgari yozuvchi yoki ssenariy mualliflari syujet rivojlanishining bir variantini yaratgan bo'lsalar — endilikda kompyuter vositasida uni turli yo'nalishlarda yaratish mumkin. Ilgari kompozitor kuy ijrosining bir variantini yozib olgan — bugungi kunda esa prodyuserlar bir mavzuning 5-6 turli variantlarini bajarishi mumkin. Ilgari rassom harakatsiz kartina bilan cheklangan — hozirga kelib, kartinada bulutlar suzib yurishi, daryolar oqishi, harakat ifoda etilishi mumkin. Kompyuter va axborot texnologiyalari tufayli barcha sohalarda texnik cheklanishlar asta kamayib bormoqda.

Kompyuterdan tashqari virtual olamda mavjudlik hissini yaratishning boshqa usullari ham mavjud. Ular juda ham ko'p bo'lib, ba'zi mamlakatlarda milliy muammoga aylangan. Bugungi kunda aynan kompyuterning ongga ta'sir etish xavfi yuzaga kelishining oldini oluvchi hamda undan o'sib kelayotgan avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir etuvchi ta'limiy kompyuter o'yinlari ham mavjuddir.

Kompyuter hayollari inson organizmini kamroq buzadi, biroq ko'zning charchashi va kam harakatli hayot tarzi zarari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Uni boshqarish osonroq — o'yinchi xohlagan paytida monitorga qaramasligi yoki ko'zini yumishi mumkin.O'yinlar rivojlanishi davom etmoqda. Texnika qanchalik mukammal bo'lsa, u shunchalik kam cheklanishlarga ega bo'ladi —mashhur o'yinlar insonning ehtiyojlarini va qalbi xususiyatlarini shunchalik aniqroq aks ettiradi. Yangi o'yinlar hozircha hech kim e'tibor bermayotgan ong va beixtiyorlik nisbatlari

to'g'risida, ko'rib idrok etish, inson psixikasidagi tushunarsiz va yaqqol holatlar to'g'risida yanada aniqroq fikr yuritishga imkon berishiga shubha yo'q. Nima bo'lganda ham bugungi kunda kompyuter o'yinlari —psixologik xususiyatdagi eng yangi axborot manbai hisoblanadi.Kompyuter o'yinlari pedagogikaning interfaol ta'lim texnologiyalari va psixologiyani amaliy qo'llash eng katta va rivojlangan sohalaridan biri bo'lib qoldi: ularda psixologik bilimlar hamda metodlardan jadal foydalanilgan, zamonaviy inson esa siyosiy saylovlarda ishtirok etish yoki psixoterapevtga murojaat etishdan ko'ra ko'proq o'yin o'ynamoqda. O'yinlarning mashhurligi elektron texnologiya yutuqlaridan ko'ra ko'p jihatdan ularning "psixologik jihatiga" bog'liq bo'lmoqda. Shuning uchun insoniyat madaniyat taraqqiyotining ushbu yangi sohasida interfaol ta'lim texnologiyalari va psixologiyadan foydalanish hajmi ham, darajasi ham va foydalanish sifati ham uzluksiz o'sib bormoqda. Qachondir bu mehnat psixologiyasi yoki klinik psixologiya paydo bo'lgani kabi "Kompyuter o'yinlari psixologiyasi" paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, inson bolalikdan o'yinlar asosida tarbiyalanib, voyaga etadi. "O'yin —bu faqatgina o'ynash kerak bo'ladigan joy emas, balki unda g'alabaga erishishga harakat qilish kerak bo'ladi".

Virtual olam — bolalar ham va kattalar ham o'ynaydigan, o'ynayveradigan kompyuter o'yinlari. Bolalar juda yoshligidan o'yin o'ynay boshlaydilar: uch va to'rt yoshlaridan… Besh yoshlilarning donolarcha fikr yuritib kompyuter to'g'risida gapirishlari esa hatto g'alati tuyuladi: kompyuter oldida ular biz, kattalarga qaraganda, ancha yaxshi, xotirjam va ishonchli o'tiradilar. Bizga kitob o'qish qanchalik odatiy bo'lsa, ularga kompyuter oldida o'tirish shunchalik odatiy hisoblanadi.Kompyuter o'yinlarini o'ynaganimizda qanday xavf va qiyinchiliklar bizni kutib turadi? Birinchi navbatda, virtual olamda quyidagilarni tushunib olish muhim: bola kompyuter muhitida bo'lib qolganida bu o'yin uni qay tomonlarga olib ketishi mumkin? U tajovus maktabi bo'ladimi yoki dunyoga insonparvarlik munosabati maktabi bo'ladimi? Ba'zan ota-onalar bolalariga qo'shni xonada, deyarli virtual olam yaratilgan xonada o'ynashni taqiqlaydilar. U yerdan, bolalar xonasidan har kuni ota-onalarga juda tanish bo'lgan tovushlar, baqirishlar, jo'shqin hayqiriqlar eshitiladi. Ularga bu miyalariga o'tirib qolgan gallyutsinatsiya kabi tuyula boshlaydi. Lekin shu paytlarda ota-onalar takrorlashda davom etadilar: "O'ynashni to'xtat… Darsing bilan shug'ullan… Boshqa ishni bajar, o'ynama!.." — va bolalar olamini ketma-ket taqiqlaydilar. Mana shunda qo'shni xonadan har kuni bolalari qanday tarbiya olayotganlarini juda kech tushunib qoladilar. Virtual olam bu avlodlar — kattalar va bolalar o'rtasidagi uzilish muhitidir, ular ortida avlodlar nizolari yotgan bo'lishi mumkin. O'sib kelayotgan avlod virtual olamlarga ketib qolmaydilarmi, ular qaytib keladilarmi yoki yo'qmi, buni tushunish qiyin. Bolalarning xayolida yer yuzini

virtual olamlar qamrab olgan. Mamlakatimiz dasturchilari oldida millatimizga xos ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda turli ta'limiy va tarbiyaviy o'yinlar dasturini yaratishdek dolzarb vazifa turibdi.

Xulosa. Chetdan kirib kelgan ma'naviyatimizga yot o'yinlar bilan farzandlarimizning ongini chalg'itmaylik. Qadimdan ota-bobolarimiz tarbiyaviy o'yinlar vositasida avlodlarimizni tarbiyalab, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik xislatlarini shaklantirganlar. Bolalarimiz sevib o'ynaydigan o'yinlari ularga zarar emas, balki bilim, ta'lim va tarbiya manbai bo'lib xizmat qilsin.

REFERENCES.

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 464.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: 2021. O'qituvchi. – B. 184
3. N.Muratova. Jurnalistika media va axborot savodxonligi. Jurnalistlar va media sohasidagi ta'lim beruvchilar uchun qo'llanma. Baktria press. T.,2019.
4. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. Extremum-press, 2015-94.b.
5. А.В. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г.
6. Suvi Tyuminen, Sirkku Kotilaynen, Anniina Lundvall., Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. Extremum-press, 2017-142.b

THE PECULIARITIES OF MODERN AMERICAN LITERATURE

Gulasal Shahobiddin qizi Tojiqoziyeva
Student, Chirchik State Pedagogical University
asaltojiqoziyeva@gmail.com
Scientific adviser: Abdullayeva Dilorom Nigmatullayevna
Teacher, Chirchik State Pedagogical University

ANNOTATION

This article explores the key characteristics of modern American literature. It examines important aspects of contemporary literature, including cultural diversity, the blurring of genre boundaries and the influence of technology. The article analyzes the contributions of authors such as Chimamanda Ngozi Adichie, Jhumpa Lahiri, Colson Whitehead, Jennifer Egan, Dave Eggers, Barbara Kingsolver, Omar El Akkad, Ocean Vuong, Tommy Orange, and Patricia Lockwood, drawing on their works to illustrate the evolution of modern literature. The article provides insight into the role and significance of modern American literature in contemporary society.

Key words: Modern American literature, Cultural diversity, Multiculturalism, Genre innovation, Technology in literature, Identity and selfhood, Contemporary authors ,Immigration and belonging.

АННОТАЦИЯ

Эта статья исследует ключевые характеристики современной американской литературы. В ней рассматриваются важные аспекты современной литературы, включая культурное разнообразие, размывание границ жанров и влияние технологий. В статье анализируются вклад таких авторов, как Чимаманда Нгози Адичи, Джумпа Лахири, Колсон Уайтхед, Дженнифер Иган, Дэйв Эггерс, Барбара Кингсолвер, Омар Эль Аккад, Оушен Вуонг, Томми Орандж и Патрисия Локвуд, и на основе их произведений иллюстрируется развитие современной литературы. Статья дает представление о роли и значении современной американской литературы в обществе.

Ключевые слова: Современная американская литература, культурное разнообразие, мультикультурализм, жанровые инновации, технологии в литературе, идентичность и самость, современные авторы, иммиграция и принадлежность.

ANOTATSIYA

Ushbu maqola zamonaviy Amerika adabiyotining asosiy xususiyatlarini o'rganadi. Unda madaniy xilma-xillik, janr chegaralarining yo'qolishi va texnologiyaning ta'siri kabi zamonaviy adabiyotning muhim jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada Chimamanda Ngozi Adichie, Jhumpa Lahiri, Colson Whitehead, Jennifer Egan, Dave Eggers, Barbara Kingsolver, Omar El Akkad, Ocean Vuong, Tommy Orange va Patricia Lockwood kabi yozuvchilarning hissalari tahlil qilinadi va ularning asarlari zamonaviy adabiyotning rivojlanishini yoritish uchun misol sifatida keltiriladi. Maqola zamonaviy Amerika adabiyotining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy Amerika adabiyoti, madaniy xilma-xillik, multikulturalizm, janr innovatsiyasi, adabiyotda texnologiya, shaxsiyat va o'zlik, zamonaviy mualliflar, immigratsiya va tegishlilik.

INTRODUCTION

Modern American literature, spanning from the late 20th century to the present, reflects the complexities of contemporary society through its diverse themes, innovative styles, and engagement with global issues. Below, we explore the key characteristics of modern American literature, supported by references to prominent authors and their works.

Emphasis on diversity and multiculturalism.

One of the defining features of modern American literature is its profound emphasis on diversity and multiculturalism. In an increasingly globalized world, literature has become a powerful platform for voices that were historically marginalized or underrepresented. Authors from diverse ethnic, racial, and cultural backgrounds have brought fresh perspectives to the forefront, enriching the literary canon with stories that reflect the multifaceted nature of American society. For instance,Chimamanda Ngozi Adichie's Americanah (2013) explores the experiences of Nigerian immigrants in the United States, delving into themes of race, identity, and cultural displacement. Adichie's work not only highlights the struggles of adapting to a new culture but also critiques the racial dynamics in America, offering a nuanced portrayal of the immigrant experience (Adichie, 2013). Moreover, contemporary literature has embraced the stories of Native Americans, Latinx communities, and other minority groups. By giving voice to underrepresented communities, modern literature challenges dominant narratives and encourages a more inclusive vision of American identity. As the United States continues to evolve as a multicultural society, its literature will undoubtedly remain a vital space for exploring and celebrating the richness of human diversity.

Blurring of Genre Boundaries

Modern American literature is increasingly breaking away from traditional genre boundaries, creating innovative and hybrid forms of storytelling. Authors are blending fiction, non-fiction, poetry, and even visual art to explore complex themes in fresh and engaging ways. For example, Jennifer Egan's "A Visit from the Goon Squad" uses unconventional structures, such as a chapter written as a PowerPoint presentation, to examine themes of time, memory, and technology. Similarly, Art Spiegelman's "Maus" combines the visual power of comics with the depth of historical narrative to tell a gripping story about the Holocaust and its lasting impact. Claudia Rankine's "Citizen" takes this a step further by mixing poetry, essays, and images to address issues of race and belonging in contemporary America. These genre-blurring works not only challenge traditional storytelling methods but also allow authors to tackle complex topics with greater creativity and emotional depth. By experimenting with form, modern literature reflects the diversity and complexity of today's world, making it more dynamic and relevant. Ultimately, this trend highlights how literature continues to evolve, offering readers new ways to connect with stories and ideas.

The Influence of Technology

Technology has become a central theme in modern American literature, reflecting its profound impact on society. Authors explore how digital advancements shape human relationships, identity, and even our understanding of reality. For example, Dave Eggers' "The Circle" critiques the dangers of a hyper-connected world, warning about the loss of privacy and the overwhelming influence of tech companies.. Social media's role in shaping modern identity is also a recurring theme, as seen in Patricia Lockwood's "No One Is Talking About This", which captures the fragmented, fast-paced nature of online life. These works highlight both the benefits and risks of technological progress, from its ability to connect people globally to its potential to isolate and manipulate. By addressing these issues, modern literature encourages readers to reflect on their own relationship with technology. Ultimately, the influence of technology in literature mirrors its pervasive role in our lives, making it a vital topic for contemporary storytelling

Exploration of Identity and Selfhood

Modern American literature deeply explores themes of identity and selfhood, reflecting the complexities of personal and cultural belonging. Authors often examine how race, gender, immigration, and heritage shape individual identities**.** For example, Ocean Vuong's "On Earth We're Briefly Gorgeous" uses a lyrical, autobiographical style to explore the struggles of a Vietnamese-American family and the narrator's journey of self-discovery. In Sandra Cisneros' "The House on Mango Street", the protagonist's coming-of-age story reflects the intersection of gender, class, and

ethnicity in shaping identity. These works emphasize the fluid and multifaceted nature of selfhood, showing how it is influenced by both personal experiences and broader societal forces. By addressing these themes, modern literature provides a platform for marginalized voices and fosters empathy among readers. Ultimately, the exploration of identity in literature helps us better understand ourselves and the diverse world we live in.

CONCLUSION

Modern American literature stands as a vibrant and evolving reflection of contemporary society. Through its emphasis on cultural diversity, experimentation with genre, and engagement with global issues, it captures the complexities of the 21st century. Authors like Chimamanda Ngozi Adichie, Jhumpa Lahiri, Colson Whitehead, and Jennifer Egan have pushed the boundaries of storytelling, addressing themes such as identity, immigration, technology, and environmental challenges. Their works not only enrich the literary landscape but also offer profound insights into the human experience. As society continues to evolve, modern American literature will undoubtedly remain a vital medium for exploring and understanding the world around us.

REFERENCES

1. Adichie, Chimamanda Ngozi. "Americanah". Alfred A. Knopf, (2013).
2. Egan, Jennifer. "A Visit from the Goon Squad". Alfred A. Knopf,(2010).
3. Spiegelman, Art. "Maus: A Survivor's Tale". Pantheon Books, (1986-1991).
4. Eggers, Dave. "The Circle". Alfred A. Knopf,(2013).
5. Vuong, Ocean. "On Earth We're Briefly Gorgeous" Penguin Press, (2019).
6. Orange, Tommy. "There There". Alfred A. Knopf, (2018).
7. Lockwood, Patricia. "No One Is Talking About This". Riverhead Books, (2021).
8. Sandra Cisneros "The House on Mango Street".
9. Claudia Rankine's "Citizen".

SHAXS TEMPERAMENTI VA UNING TURLARI

Gulmanova Aziza
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
24/10-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNOTATSIYA

Temperament insonning tug'ma psixologik xususiyatlari bo'lib, uning xissiyotlari, harakatlari va xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, temperament inson hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va uni anglash shaxs rivojlanishi uchun muhimdir. Ushbu maqolada temperament turlari va ularning inson shaxsiga ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, temperamentning to'rt asosiy turi-sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxoliklarning xususiyatlari, ularning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: temperament, shaxs, psixologiya, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik, xulq-atvor.

Kirish. Temperament shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari bo'lib, insonning xulq-atvori va emotsional reaksiyalarining dinamik jihatlarini belgilaydi. Ilk bor temperament haqida qadimgi yunon olimi Gippokrat o'z ta'rifini bergan va uni to'rt turga ajratgan. Keyinchalik I. P. Pavlov temperamentni asab tizimining individual xususiyatlari bilan bog'lab o'rgangan. Bugungi kunda temperament psixologiya va pedagogikada shaxsni tushunish va o'rganishda muhim omil hisoblanadi.

Sangvinik temperamenti. Sangviniklar optimistik foallik ijtimoiy faol va quvnoq darajasi yuqori darajasi yuqori bo'lgan, quvnoq va harakatchan insonlardir. Ular yangi sharoitlarga tez moslashadi, kuchli hissiyotlarga ega bo'lishadi va odamlar bilan yaxshi munosabat o'rnatadilar. Shu bilan birga, sangviniklar ba'zida yuzaki bo'lishi ishlarni oxirgacha yetkazmasliklari mumkin.[1]
2. Xolerik temperamenti. Xoleriklar energiyaga boy, tezkor va ehtirosli bo'lishadi. Ular o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatli, lekin hissiyotlarini boshqarish qiyin kechishi mumkin. Xoleriklar rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lib, dinamik faoliyat turlariga mos keladi. Ijobiy tomonlari: yetakchilik qobiliyati, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik. Salbiy tomonlari: sabrsizlik, agressivlik, hissiy muvozanatsizlik.
3. Flegmatik temperamenti. Flegmatiklar osoyishta, sabrli va bosiq insonlardir. Ular tez-tez hissiyotlarini ko'rsatmaydi, lekin ishonchli va mustahkam xarakterga ega bo'lishadi. Flegmatik odamlar tizimli ishlarni yaxshi bajaradi, lekin o'zgarishlarga

moslashish ularga qiyin bo'lishi mumkin. Ijobiy tomonlari: vazminlik, bardoshlilik, mehnatsevarlik. Salbiy tomonlari: sekin harakatlanish, moslashish qiyinligi.

4. Melanxolik temperamenti. Melanxoliklar sezgir, nozik va emotsional insonlar bo'lib, ular atrof-muhitni chuqur idrok etishadi. Ular ijodiy ishlarga moyil bo'lishadi, lekin tez ruhiy tushkunlikka tushishlari mumkin. Ijobiy tomonlari: chuqur fikrlash, san'atga moyillik, sezgirlik. Salbiy tomonlari: o'ziga past baho berish, o'ziga ishonchsizlik, depressiyaga moyillik.

Temperament insonning shaxsiy xususiyatlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Har bir temperament turi o'zining ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Inson o'z temperamentini bilish orqali o'zini yanada yaxshiroq tushunishi va shaxsiy rivojlanish yo'lida muhim qadam tashlashi mumkin. Zamonaviy psixologlar temperamentning tug'ma ekanligini ta'kidlaydilar, lekin shaxsning tarbiyasi va hayotiy tajribasi temperamentni ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, shaxsdagi temperament tipi uning yurak faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Xolerik va sangvinik temperament tipiga mansub odamlar jismoniy ishga dadillik bilan kirishadilar va tanaffuslar bilan bo'lsa ham uni bajaradilar. Bundan tashqari, ularda qo'rquv boshqa tiplarga nisbatan ancha past darajada bo'ladi. Flegmatik va melanxolik odamlar esa jismoniy ishga qiyinchilik bilan kirishadilar. va kamchiliklar izlashga moyil bo'lishi mumkin. Ularda xavotir va qo'rquvning darajasi ancha yuqori bo'lib, bu faoliyat natijasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Temperament shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u insonning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir temperament turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular shaxsning hayotidagi turli jihatlariga ta'sir etadi

Temperament shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u insonning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari va Temperament turlarini bilish va ularni hisobga olish shaxslararo munosabatlarni yaxshilash va samarali muloqot o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.Temperament shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u insonning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir temperament turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular shaxsning hayotidagi turli jihatlariga Temperament shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u insonning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir temperament turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular shaxsning hayotidagi turli jihatlariga Temperament shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u insonning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Temperament turlarini bilish va ularni hisobga olish shaxslararo munosabatlarni yaxshilash va samarali muloqot o'rnatishda muhim ahamiyatga ega. Temperament

shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u insonning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari aloqador . "Temperament - bu insonlarning xulqiga ongli ta'sir qiluvchi jinslari, madaniyatlari va boshqa omillari asosida genetik ta'sir qilingan merosiy qirralarning tug'ma moyilliklari, tendensiyalari, taxminlari hamda yo'llaridir."

REFERENCES

1. G'oziev E.G. "Umumiy psixologiya". Toshkent, 2002.
2. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. "Umumiy psixologiya". O'quv qo'llanma. - T.: "Barkamol fayz media", 201
3. B.M.Umarov. "Psixologiya". Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. "Voris-nashriyot", Toshkent, 2012

OILAVIY QADRIYATLAR – MUSTAHKAM OILA POYDEVORI

Jiyanova Gulzira Normuminova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi2 kurs 23/1 g uruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola oilaviy hayot sikli va avlodlar almashinuvi jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Oilaviy hayot sikli turli bosqichlarga bo'linib, har bir bosqichda oila a'zolari orasidagi munosabatlar, ijtimoiy vazifalar va majburiyatlar o'zgarib boradi.Tadqiqotda avlodlar o'rtasidagi madaniy almashinuv, oilaviy qadriyatlar, iqtisodiy va psixologik masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, oilaning zamonaviy jamiyatdagi o'rni, kichiklashuvi, katta va yosh avlod o'rtasidagi farqlar va qarilik davridagi ijtimoiy muammolar yoritilgan. Maqola oilaning jamiyat barqarorligi va rivojlanishidagi ahamiyatini namoyon etib, oilaviy qadriyatlarni saqlash va avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Oila kodeksi, tarbiya, an'ana, birdamlik, qarilik, oilaviy hayot sikli, avlodlar almashinuvi, oila qadriyatlari, madaniy almashinuv, oila va jamiyat, ijtimoiy rivojlanish.

Kirish. O'zbekistonda oila institutiga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada qabul qilingan farmon, qaror va qonunlar oilani qo'llab-quvvatlash va uning qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi **"Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi farmonida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Shuningdek, "Oila kodeksi" (1998-yil) oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi va oilaning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Ushbu qonunlar oilani barqarorlik va jamiyat farovonligining muhim asosi sifatida ko'radi.

Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini va inson hayotida muhim o'rin tutadi. Mashhur faylasuf Konfutsiyning **"Davlat – katta oila, oila – kichik davlatdir"** degan fikri bejiz aytilmagan. Oilada shaxs kamol topadi, tarbiya oladi va hayotga qadam qo'yadi. Oilaviy qadriyatlar va an'analar avloddan-avlodga o'tib, milliy madaniyatimizning ajralmas qismini tashkil etadi va oila mustahkamligining asosi hisoblanadi. Ular insonni ijtimoiy hayotga tayyorlab, ma'naviy dunyosini shakllantiradi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Oila bag'rida inson

o'zini himoyalangan his qiladi, yaqinlaridan mehr va dalda oladi. Aynan oilada bola hayotdagi dastlabki saboqlarni o'rganib, yaxshilik va yomonlik, to'g'ri va noto'g'ri tushunchalarini anglaydi. Oilaviy muhitda shakllangan qadriyatlar insonning kelajakdagi hayotiga, uning dunyoqarashi va munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi. Abdulla Avloniyning **"Oila – tarbiya bog'idir. Bu bog'da qanday gul ekilsa, shunday meva olinadi"** degan so'zlari oiladagi tarbiyaning ahamiyatini anglatadi.[14]

Oilaviy hayotning va er-xotinning bir-birlariga nisbatan munosabatlarini sifatlashda Qur'oni Karimda kelgan bayonotlar ayni mo'jizadir. Bu boradagi bir-ikki oyatni yaxshilab o'rganishning o'zi bu ulkan haqiqatni tushunib etishga kifoya qiladi, deb o'ylayman.

Alloh taolo Rum surasida shunday deb marhamat qiladi:

"Va Uning oyat-belgilaridan sizlarga sokinlik topishingiz uchun o'zingizdan juftlar yaratilganligi va oralaringizda mehru muhabbat va marhamatni solib qo'yganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavmlar uchun oyat-belgilar bordir"
Insonni erkak-ayolga ajratib, juft yaratishining o'zi Allohning biru borligi, barkamol sifatlar sohibi ekanining yorqin dalilidir. Inson har doim ko'zi tushib turgan narsalarga ko'rinib, e'tibor bermay qo'yadi, ammo e'tibor bilan, aql-zakovat bilan tafakkur qilib ko'rilsa, insonning erkak va ayol qilib, o'ziga xos sifatlar bilan yaratilishi ulkan mo'jizadir.

Forobiy bobomiz shunday degan o'zining "Fozil odamlar sharhi" asarida: "Shaxs va jamiyat munosabatlariga doir fikrlarini quyidagicha izohlagan: Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki,u yashashi va oliy darajadagi yetuklikka erishmog'i uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. Odamzod yolg'iz o'zi bunday narsalarga muhtoj bo'lganda ayol bilan bir oila bo'lib yashar ekanlar murodiga birgalikda yetadi."

To'g'ri, "inson" deb atalmish bu ikki jinsning tashqi ko'rinishida bir-biriga o'xshashlik bor. Ikkisi ham "inson" yoki"odam" deb ataladi. Ko'p a'zolari sirtidan bir-biriga o'xshash erkak va ayolning jismi alohida tahlil qilib ko'riladigan bo'lsa, turli ajoyibotlar namoyon bo'ladi.

Erkakning tanasi, suyagi, eti go'shti, payi, miyasi, aqli, his-tuyg'ulari va hattoki hujayralariham ayolnikidan farq qiladi.Uning butun vujudi kuch-quvvat ,sabr-bardosh,og'irlikni ko'tarish,mashaqqatlarga chidash kabi erkaklarga xos ishlarni adoetishi,umuman,erkaklikka xizmat qilishi uchun moslangan.

Xuddi shuningdek, ayolning tanasi, suyagi, eti, go'shti, payi, miyasi, aqli, his-tuyg'ulari va hattoki hujayralari ham erkaknikidan farq qiladi. Uning butun vujudi latofat, yumshoqlik, mehribonlik, og'irlikni ko'tara olmaslik, tez hayajonlanish, ona

[14]Roziya Matibayeva O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi"Arab tili va adabiyoti al-Azhar" kafedrasi mudiri

va xotin bo'lish kabi ayollarga xos ishlarni ado etishi, ayollikka xizmat qilishi uchun moslangan.

Chunki ayol kishi xotin, ona bo'lishi kerak bo'lganligi uchun, unga alohida latif tana,malohatli tuzilish,o'ziga xos jism va a'zolar kerak. Hatto badanidagi to'qimalar, hujayralar ham erkaknikidan o'zgacha, nafis,yumshoq, nozik bo'ladi.

Erkak va ayolni o'ziga xosliklarini tahlil qilib ko'rgan har qanday ilmli kishi ulardagi Allohning qudratini va hikmatini ko'rib, Allohning oyat-belgilariga tan bermay iloji yo'q. Bu haqiqatni anglab yetishimiz uchun birgina ilmiy tahlil to'g'risidagi ma'lumot bilan tanishib chiqaylik.

Erkak va ayol aqlidagi farq nimada.

Erkak va ayolning fikrlashlari orasidagi farqni aniqlash bo'yicha, yangi ilmiy ish olib borgan miya vazifalarini o'rganish bo'yicha mutaxassis jarrohlar o'zlari erishgan yangi natijalarni e'lon qildilar.

Ularning ta'kidlashlaricha, ayol kishining miyasi erkak kishining miyasiga qaraganda 16 % ga kichik ekan. Chunki ayol kishininh hajmi ham erkak kishining hajmidan xuddi shuncha hajmda kichikdir. Shuningdek ikkovlarining miyasi bir xil vazifani bajarganda ham turli uslubda bajarar ekan.

Mazkur ilmiy kashfiyotlarning boshqa xulosalari quyidagilardan iborat:

MRA(Magnit rezonans tahlil)nomli miyani suratga olish jihozida ayon bo'lishicha, erkak kishi fikr yuritganida uning miyasining muayyan qismigina ishlar ekan.Bu jarayon muayyan qismda magnit nurlari bo'lib ko'rinar ekan.

Ayol kishining fikr yuritganda esa magnit nurlari miyaning hammasida ko'rinar ekan. Bu holat, o'z novbatida, ekkak kishi ayol kishiga nisbatan fikrni hamlashga qudratli ekanining dalilidir.

Oilaviy qadriyatlar oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, sadoqat, ishonch va g'amxo'rlikka asoslanadi. Bu qadriyatlar farzandlarning sog'lom va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Oila a'zolari bir-birining fikri, his-tuyg'ulari va shaxsiy hududiga hurmat bilan qarashlari, bir-biriga sodiq va qiyinchiliklarda qo'llab-quvvatlovchi bo'lishlari lozim. Oilaviy qadriyatlar tizimiga halollik, adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, kamtarlik va kechirimlilik ham kiradi. Ushbu qadriyatlar yoshligidan shakllanib, insonni hayotda to'g'ri yo'ldan borishga yo'naltiradi. Oilaviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan farzandlar kelajakda jamiyatning munosib a'zolariga aylanib, o'z oilalarini qurib, bu qadriyatlarni kelgusi avlodlarga yetkazishga hissa qo'shadilar.

O'zbek oilalarida kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ko'rsatish an'anasi azaldan shakllangan bo'lib, bu yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Halol mehnat qilish va oila farovonligi yo'lida birgalikda harakat qilish ham oilada qadrlanadi. Ota-ona farzandlarining fikrini tinglab, ular bilan

maslahatlashadi, farzandlar esa ota-onaga itoat qiladi. Oila a'zolari g'amxo'rlik ko'rsatib, xursandchilik va qayg'uli kunlarda birga bo'ladi, er-xotin esa o'zaro sadoqatli bo'lib, oilasini mustahkamlash uchun harakat qiladi. Oilada adolatli munosabat saqlanib, mehnatsevarlik qadrlanadi, vatanparvarlikka esa yuksak qadriyat sifatida qaraydilar.

Oilaviy an'analar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlarni o'z ichiga oladi. Navro'z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabi bayramlarni oila davrasida nishonlash oila a'zolarini birlashtiradi. Shuningdek, to'y, ma'raka, tug'ilgan kun kabi tadbirlarni birgalikda o'tkazish, kechqurunlari dasturxon atrofida jamlanish oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi. Ba'zi oilalarda hafta oxirida qarindoshlarnikiga borish, kitob o'qish kechalari uyushtirish, birgalikda sayrga chiqish yoki sport bilan shug'ullanish kabi o'zgacha an'analar mavjud. Oilaviy an'analar oila a'zolarini birlashtirib, ular o'rtasidagi mehr-muhabbatni mustahkamlash va umumiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.[15]

Erkak kishi ayol kishiga nisbatan ko'ngilchanlikda ta'sirsizroq ekani ham ilmiy sobit bo'ldi. Ko'ngilchanlik zohir bo'lish paytida ayol kishining miyasi erkak kishining miyasiga qaraganda sakkiz marta ko'p harakat qilishini asboblar ham ilmiy isbotlab ko'rsatdi. Shunday ekan erkak ayolga har doim g'amxo'r va mas'uliyat bilan etiborli bo'lishi kerak.

Navoiy bobomiz ayol kishining oiladagi o'rniga to'xtalib shunday deganlar: Uning ozodaligi uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa-ko'ngil yozig'i. Xushmuomala bo'lsa-jon ozig'idir. Til achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi,pokiza bo'lmasa, eriga yuzi qarolig' keltiradi, agar mayxo'r bo'lsa, uy odobi yo'qoladi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi degan fikrlarni aytib o'tgan edilar.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy qadriyatlar va an'analar milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lib, oila mustahkamligi va jamiyat farovonligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga o'rgatish har birimizning burchimizdir. Mustahkam oilalar jamiyat taraqqiyotining garovidir. Zero, oila – bu kichik Vatan. Vatan esa mustahkam oilalardan tashkil topadi. Oilaviy qadriyatlar va an'analar insonni hayotga tayyorlab, uning shaxsiyatini shakllantiradigan muhim omillardir.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Baxtiyor oila, "HILOL-NASHR" .T. 2024-y, B-257-258

[15] https://www.iiau.uz/oz/news/3509

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Ijtimoiy odoblar, "HILOL-NASHR" .T. 2023-y
3. **Roziya Matibayeva O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi"Arab tili va adabiyoti al-Azhar" kafedrasi mudiri**
4. https://www.iiau.uz/oz/news/3509

MATEMATIKA FALSAFASI (SHAKLLANISHI VA ASOSIY YONDASHUVLARI)

Abdurahmonov Hasanjon Kotibjon o'g'li
CHDPU, Matematika va informatika fakulteti 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida matematika falsafasining shakllanishi va uning asosiy yondashuvlari o'rganiladi. Matematika falsafasi, matematikani qanday tushunish, uning tabiati va matematik ob'ektlarning mavjudligi masalalari bilan bog'liq bo'lib, tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Tadqiqotda, matematikani falsafiy jihatdan qanday tushunish, uning ilmiy metodologiyasini qanday aniqlash va matematik metodlarning amaliyotga tatbiqi masalalari tahlil qilinadi. Ishda falsafiy yondashuvlar va ularning matematik pedagogikada qo'llanilishi, shuningdek, matematik falsafaga oid ilmiy adabiyotlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Matematik falsafa, matematik yondashuvlar, ilmiy metodologiya, matematik pedagogika, falsafiy metodlar va matematik ob'ektlar.

Аннотация. В данном исследовании рассматривается становление философии математики и основные подходы к ней. Философия математики связана с вопросами понимания математики, ее природы и существования математических объектов, с анализом исторических и современных подходов. В исследовании анализируются философские подходы к математике, определение ее научной методологии и применение математических методов в практике. Также рассматриваются вопросы применения философских подходов в математической педагогике и представлены научные источники по философии математики.

Ключевые слова: Математическая философия, математические подходы, научная методология, математическая педагогика, философские методы и математические объекты.

Abstract. This research paper explores the development of the philosophy of mathematics and its main approaches. The philosophy of mathematics addresses questions about understanding mathematics, its nature, and the existence of mathematical objects, examining both historical and contemporary approaches. The study analyzes philosophical perspectives on mathematics, the definition of its scientific methodology, and the application of mathematical methods in practice. It also discusses the application of philosophical approaches in mathematical pedagogy and provides references to scientific literature on the philosophy of mathematics.

Key words: Mathematical philosophy, mathematical approaches, scientific methodology, mathematical pedagogy, philosophical methods, and mathematical objects.

KIRISH. Axborot texnologiyalari va boshqa fanlar rivojlanib borar ekan matematika fani ham boshqa fanlar bilan uzviy aloqada ekanligi, barcha fanlarda matematika ham alohida o'ringa ega ekanligi yana o'z isbotini topmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, matematik ijodkorlik inson faoliyatining maxsus shakli bo'lib, bu faoliyatning ob'ektlari turli darajadagi abstraktsiyalardir. Matematikaning eng oddiy tushunchalari (masalan, raqam, nuqta, to'g'ri chiziq) to'g'ridan-to'g'ri bizning hissiy tajribamizdan kelib chiqadigan tushunchalardir. Ammo matematikaning u yoki bu mavhum tushunchalar bilan shug'ullanish odatlari ham yangi mavhum tushunchalarning manbai bo'lib, hissiy sezgi bu mavhum tushunchalarga o'ziga xos tarzda o'tadi. Shunday qilib, XIX asrda turli xil matematik yo'nalishlarni birlashtirishga imkon beradigan guruhning ko'p darajali mavhumligi tug'ildi; arifmetikaning asosiy qonunlari maydonlarning algebraik nazariyasining aksiomalariga aylandi va dastlab geometriyada kosmosni hissiy idrok etishning eng oddiy idealizatsiyasi natijasida paydo bo'lgan geometrik til XX asrda funktsional tahlil muammolarini o'rganishning eng kuchli usuliga aylandi[16].

Matematika nafaqat aniq fan, balki inson tafakkuri va bilim tizimining ajralmas qismi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Uning falsafasi matematikaning mohiyati, haqiqatga bo'lgan munosabati va inson tafakkuridagi o'rnini tushunishga harakat qiladi.

Ma'lumki, insoniyat antik davrdan boshlab matematika bilan shug'ullanib keladi. O'sha davrlarda matematika, astronomiya, falsafa, geografiya va shunga o'xshash bir qancha fanlar bir fan sifatida o'rganilgan. Bunga misol o'laroq Pifagor, Aristotel va Zenon kabi buyuk mutafakkirlar ham falsafa, ham matematika va boshqa fanlar bilan shug'ullangan va o'z sohasida eng ko'zga ko'ringan shaxslardan bo'lishgan.

Matematikaning kelib chiqishi bahslar va kelishmovchiliklarga bog'liq. Matematikaning paydo bo'lishini tasodifiy hodisami yoki fizika kabi boshqa fanlarning rivojlanishi davomida zarurat tufayli yuzaga kelganmi, bu hali ham ko'p munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Matematika falsafasi – bu matematikaning taxminlari, asoslari va oqibatlarini o'rganadigan falsafa bo'limi. U matematikaning tabiati va usullarini tushunishga, matematikaning odamlar hayotidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan. Matematikaning

[16] Abdullaeva X.Sh. Matematika va falsafa (Matematikaning rivojlanish dialektikasi to'g'risida. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веки». № 17(100), част 1. Январ, 2024.

mantiqiy va strukturaviy tabiati bu tadqiqotni falsafiy hamkasblari orasida ham keng, ham noyob qiladi. Matematika falsafasi ikkita asosiy mavzuga ega: matematik realiz va matematik antirealizm.

ASOSIY QISM. Matematika falsafasi qadimgi Yunoniston davridan boshlab shakllana boshlagan. Platon va Aristotel matematikaning tabiati haqida ilk falsafiy fikrlarni ilgari surishgan. Keyinchalik, Markaziy Osiyo olimlari, Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari va zamonaviy olimlar tomonidan matematika falsafasi yanada rivojlantirilgan.

Matematika falsafasi qadimgi davrlardan boshlab rivojlangan bo'lib, uning bosqichlari quyidagi tavsiflash mumkin.

1. Qadimgi davr (Platon va Aristotel). Platon matematik tushunchalarni "G'oyalar olami"da mavjud deb hisoblagan va ularni inson tafakkuri orqali anglash mumkin deb ta'kidlagan. Aristotel esa matematik tushunchalar real olamdagi ob'ektlardan kelib chiqishini va ular tajriba orqali shakllanishini ilgari surgan.

2. O'rta asrlar va Uyg'onish davri. Islom olamining olimlari (Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Nasiriddin Tusiy) matematikaning falsafiy jihatlarini rivojlantirib, uni amaliy fanlar bilan bog'lagan. Uyg'onish davrida Galileo Galiley va Rene Dekart matematikaning tabiiy fanlar bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilgan.

3. Zamonaviy matematika falsafasi (XIX-XX asrlar) davri. D.Xilbert, G.Frege, B.Rassel va K.Gyodel kabi olimlar matematikaning mantiqiy asoslari va uning formal tuzilishini o'rganishgan. XX asrda matematika falsafasida turli yondashuvlar shakllandi.

Matematika falsafasining asosiy falsafiy yondashuvlari:

Platonizm – Matematik ob'ektlar inson ongidan tashqarida mavjud bo'lib, ularni faqat aql bilan anglash mumkin.

Nominalizm – Matematik tushunchalar inson tomonidan yaratilgan belgilar tizimidan iborat.

Formalizm – Matematika mantiqiy qoidalar va belgilardan iborat bo'lib, uning haqiqatga aloqasi yo'q.

Intuitionizm – Matematik bilim inson intuitiv tafakkurining mahsuli bo'lib, mantiqiy konstruksiyalar orqali shakllanadi.

Falsafiy zihatdan olib qaraganda matematika falsafasiga yana bir ta'rif keltirish mumkin. Umuman olganda matematika falsafasi haqida olimlar turli ta'riflar keltirgan. Matematika falsafasi – falsafaning tadqiqot sohasi bo'lib, unda matematik bilimlarning asoslari, matematikaning bilimlar tizimidagi o'rni, matematik ob'ektlarning ontologik holati va matematika usullari aniqlanadi. Shu tarzda tushuniladigan matematika falsafasi deyarli barcha falsafiy tizimlarning muhim qismi bo'lib chiqadi. Falsafada matematikadan foydalanishning eng yorqin misoli Nikola

Kuzanskiy tomonidan berilgan, u uchun geometric tasvirlar, ehtimol, falsafiy fikr yuritishning eng munosib vositasi bo'lib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Umuman olganda matematika falsafasi bilan shug'ullanish yuqorida ta'kidlanganidek, antik davrlardan boshlangan edi. Antik davr olimlaridan boshlab hozir kunga qadar tadqiqot ishlari davom etib kelmoqda. Platon (Sharqda Aflotun, mil.avv. 427-347), Aristotul (Sharqda Arastu, mill.avv. 384-322), Rene Dekard (1596-1650), Immanuel Kant (1724-1804), Gottlob Frege (1848-1925), Bertrand Rassel (1872-1970), David Hilbert (1862-1943), Kurt Gyodel (1906-1978), Luitzen Egbertus Jan Brauwer (1881-1966) va Rudolf Karnap (1891-1970) kabi dunyo hamjamiyatida ko'zga ko'ringan matematik-faylasuf olimlar tomonidan matematika falsafasining ilk tushunchalaridan boshlab hozirgi kunga qadar kelgan nazariyalari ustida tadqiqot olib borishgan. Ushbu olimlarning olib borgan ishlari har biri alohida tadqiqot ishi, alohida maqola qilib chiqshga arziydigan tadqoqitlardir. Shuning uchun, har biriga alohida to'xtalib o'tishni nojoiz deb bildik.

Islom olami olimlari tomonidan ham bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Abu Nasr Farobiy va Ibn Sino asarlarida olib borilgan tadqiqotlar Sharq va G'arb ilm-fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Qadimgi yunonistonning buyuk matematigi va faylasufi Aristotelning ham matematika falsafasi haqida o'z pozitsiyasi bor edi. Aristotel har doim mavhum dunyoda raqamlar kabi matematik ob'ektlarni amalga oshirish mumkin emasligi haqida platonizm tushunchalariga qarshi chiqdi. Aristotelning matematika falsafasiga ko'ra, matematik ob'ektlar ham jismoniy, ham mavjum dunyoda tushunilishi mumkin. Zamonaviy matematika fan falsafasini tushunish uchun manbaa bo'lib xizmat qildi. Aristotelning matematika falsafasi Platon falsafasidan juda kerakli tanaffusni beradi.

Aristotelning simmetriya g'oyasini atrofimizdagi hamma joyda ko'rish mumkin. Atrofimizdagi binolar va xonadonlardan tortib, dunyoning buyuk obidalarigacha, ularning barchasi Arastuning simmetriya asosida yaratilgan. Bizning cheksizlik haqidagi fikrimiz Aristotelning uzluksizlik va tartib haqidagi ishlari tufayli kuchaydi. Zamonaviy vaqt tizimini Aristotelning vaqt tizimi ustida ishlagandan keyin ishlab chiqish mumkin edi.

XULOSA. Ushbu tadqiqotda matematika falsafasining shakllanishi va uning asosiy yondashuvlari tahlil qilindi. Matematika falsafasi ilmiy va pedagogik jihatdan muhim bo'lib, uning asosiy masalalari matematik ob'ektlarning mavjudligi, matematik bilimlarning tabiati va amaliyotga tatbiqi haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Har doim matematika va falsafa suv o'tkazmaydigan ikkita bo'linma deb o'ylaganlar uchun yuqorida keltirilganlar shubhalarini bartaraf etish uchun yordam

beradi. Falsafa va matematika fanlari o'zaro bog'liqligi yoki matematika falsafasi haqida juda qisqacha kirish qismi bo'ldi deb bildik. Biz o'ylaymizki, ushbu soha haqida yana ko'plab milliy tadqiqotlar amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Abdullaeva X.Sh. Matematika va falsafa (Matematikaning rivojlanish dialektikasi to'g'risida. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веки». № 17(100), част 1. Январ, 2024.
2. Radjabov B.Sh., Abdurahmonov H.K. Talabalarga matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiyasining o'rni. Matematika falsafasiga kirish. "Zamonaviy analiz va matematik fizka masalalari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 416-417-b. Samarqand – 2024.
3. Вечтомов Е.М. Философия математики (Монография). Вятский государственный гуманитарный университет (ВятГГУ). Киров – 2013.
4. Benacerraf, P., & Putnam, H. (1983). *Philosophy of Mathematics: Selected Readings.* Cambridge University Press.
5. Devlin, K. (2000). *Mathematics: The Science of Patterns.* Scientific American Library.
6. Michael Otte. Mathematical history, philosophy and education. Esucational Studies in Mathematics 66(2):243-255. October – 2007. Dio: 10.1007/s10649-007-9079-z.
7. Darmonova A.B., Abdurahmonov H.K. Matematika taraqqiyoti tarixida sofizmlarning roli. Matematik sofizm va paradokslar. Международный научный журнал «Научный Фокус». № 13(100), част 1. Январ, 2024.

ISLOM KARIMOV: XOTIRA VA MEROS

Hayitova Gulmira
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
24/10-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Ilmiradova Feruza

Annotatsiya: Islom Karimov hayot yo'li ,uning qanday inson bo'lganligi, o'z yurtining mustaqilligi uchun qanday ishlar olib borganligi,ona yurtini jahonga tanitish uchun bor imkoniyatlarni ishga solganligi to'g'risida bilib olish maqsadida tuzilgan.

Kalit so'zlar: Islom Karimov,O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, zot, buyuk, mustaqil, ozod xalq, yurt, SSSR, ona yurt, ona vatan, xotira

KIRISH. Bugungi kundagi mustaqil davlat deya atalgan O'zbekistonimining asoschisi,uni butun dunyoga tanitgan inson bu Islom Abdug'aniyevich Karimovdir. U zot orqali mustaqillik nafasini his etdik.Yurtboshimiz bizga boy meros, kuchli davlatni qoldirdi.

ASOSIY QISM. Islom Karimov bugungi kunga kelib bizni mana shunday yashashimizni, kuchli qudratga ega bo'lishimizni sababchisi desak mubolog'a bo'lmaydi. Chunki, mustaqillikka birinchi qadamni qo'yish oson ish emas, albatta. Islom Karimov ana shunday vaziyatda yurtni birlashtirib boshqara olgan inson buldi.Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'iladi. Oliy ma'lumotli O'rta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo'jaligi insitutlarini tugatgan. Mehnat faoliyatini 1960-yilda Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodida boshlagan.1961-yildan 1966-yilgacha V.P.Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhadiskonstruktor bo'lib ishladi. 1966-yilda O'zbekiston SSR davlat reja komitetiga ishga o'tib, bosh mutaxasislikdan Respublika davlat reja komitetining rayisi etib tayinlandi.1989-yilning iyunidan boshlab O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteting birinchi kotibi lavozimida ishladi.1990-yil 24-mart kuni O'bekiston SSR Oliy kenggashining sessiyasida Islom Karimov O'bekiston SSR Prezidenti etib saylandi.Uning hayoti va ijodida kam ko'rinib turibdiki, yoshligidan yuqori ishlarga intilgan, baland cho'qillarni ko'zlagan deyish mumkin. Avval ish faoliyatini oddiy qishloq xo'jaligi mashinasozligida boshlab sekin-sekin rahbar lavozimlariga ko'tarilgan, harakat qilib tinmaydigan inson hisoblanadi. O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylangandan so'ng o'zining mahoratini ishga solishga kirishdi. Xalqning mustaqillikka erishishidan iborat azaliy orzusini amalga oshirishni kun tartibining bosh masalasiga aylantirdi. Va 1990-yil o'rtalarida O'zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik shakli masalasi ko'tarildi. Respublikada boshqaruvning

shunday shaklining joriy etilishi,avvalo, siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy,millatlararo va boshqa sohalardagi muommolarini hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Shu kundan boshlab Islom Karimov kata-katta ishlarga qo'l ura boshladi.SSSRdsn mustaqil davlat bo'lib chiqishga harakat qiladi. 1991-yil avgust oyiga kelib butun SSSR tarkibiga kiruvchu davlatlar o'z mustaqilligni talab qila boshlaydi. Ana shunday og'ir , sarosimali tahdid va taxminlar paytida O'zbekiston rahbariyati korxona va xo'jaliklarning rahbarlar, xalq noiblari, barcha sofdil kishilar, xalqni matonat va osoyishtalikka da'vat qiladilar. Ayniqsa, Prezident Islom Karimovning bo'layotgan voqealarga munosabati barchani qanoatlantiradi,uning xalqqa suyanganligi u bilan dardlashganligi, xalq bilan hukumat o'rtasida sog'lom munosabatning vujudga kelishiga olib keldi.1991-yil 20-avgustda O'zbekiston SSSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining respublika rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida bayonet qabul qilindi.O'sha kuni O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Respublika ahalisiga murojat bialan chiqib, O'zbekistonning mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini yana bir bor alohida uqtirdi. SHu damda, tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobilyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston mustaqilligi haqida qonun qabul qilishni talab qildi.Va 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston zamonaviy tarixning yangi davri boshlandi. O'zbekiston mustaqil va hur vatanga aylantirildi. Yuqoridagi jumlalardan ham ko'rinib turibdiki, Islom Karimov o'zining xohishlarini ham chetga surib yurti, xalqi uchun uning mustaqilligini, erkin yashashini o'yladi. Xalqiga tayanib oldinga yurdi. Oqilona siyosati, islohotlari ortidan tinchlik bilan o'z vatanining mustaqilligini e'lon qildi.1991-yil Islom Karimov Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o'ta murakkab edi. Aholining turmush darajasi bo'yicha O'zbekiston Sobiq SSSR tarkibida o'rinlardan birida turar edi;aholining 60 foizdan ko'proq asosiy qismi yashaydigan asosiy qishloq joylarida industrial rivojlanishning ahamiyatli darajada ortda qolishi sharoitida iqtisodiyotda yirik sanoat shaharlaridagi gigant korxonamonopolistlarining haddan tashqari konsentratsiyasi va ixtisoslashuvi hukm surar edi;iqtisodiyotda ma'muriy tarzdagi narxni tashkil etish va resurslarni taqsimlash bilan bog'liq kuchli nomutanosibliklar kuzatilar edi;mamlakat o'z davlatchiligining asoslarini, yaratish zaruriyati oldida turar edi; og'ir ekalogik ahvol mavjud edi. Mana shunday ahvolda ham Prezidentimiz yengilmadi. Mustaqillikdan avval bizda ishlab chiqariladigan va yetishtiriladigan mahsulotlarning barchasi SSSR tomonidan boshqarilar edi. Keyinchalik biz mustaqil bo'lganimizdan so'ng ular o'z uskuna va ashyolarini yurtimizdan olib chiqib ketdi.Shu sababli yurtimizda uzulish holati yuz

beradi.Shunday paytda yurboshimiz xalqni oldiga chiqib dalada beradi. Shu kundan boshlab Islom Karimov yurtimizda o'z islohatlarini erkin tarzda boshlaydi.Islom Karimov 1992-yil 4-yanvarda Oliy Majlisda so'zga chiqib, o'ziga bildirgan ishonch uchun butun respublika xalqiga samimiy minnadorchilik bildiradi va qasamyod qiladi.Men O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman , respublikamiz xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga , fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimzmga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman. Haqiqatdan ham Islom Karimov bu so'zlarning usridan chiqdi deb barilla aytish mumkin. U yurtimizga sadoqat bilan xizmat qildi. Yillaning og'ir sinovlaridan mardanovor yengib o'z ona tuprog'ini ozod vatanga aylantirdi. 25 yil O'bekistonni boshqarib uni dunyoga tanitdi. Yurtimizninmg mana shunday yuksak darajaga yetishida bu isonning xizmatlari beqiyosdir.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joyizki, Islom Karimov bizni o'zligizmizni tanirgan, nomimizga ya'ni o'zbekligimizni ,o'zimizga bekligimizni butun dunyoga tan oldirgan, erkin hayot kechirishimizni taminlagan buyuk zot deb qo'rqmasdan aytish mumkin. Shu o'rinda O'zbekisron Respublikasi ikkinchi Prezidenti Shavkat Miromonivich Mirziyiyev Islom Karimov haqida shunday diydi: "Islom Karimov mustaqilligimizga, xalqimizning farovon hayotiga asos slogan, ma'naviyatimizni tiklagan buyuk inson edi "deydi. Zeroki, o'z ona vatanini sevgan inson yurti uchun hamma narsaga tayyor bo'ladi. U xoh urush bo'lsin, xoh boshqa yo'l bo'lsin uning ahamiyati yo'qdir. Islom Karimov ham xuddi shunday qildi. O'zining insonparvarligi,mehnatsevarligi,oliyjanobligi, xalqparvarligi,adolatliligi bilan boshqalarga o'rnak bo'ldi. Va ona tuptog'ini sevdi. Bu xislatlari orqali o'z xalqiga biro lam meros ya'ni o'z kuchi bilan barpo etgan ozod va kuchli O'zbekistonni meros qoldirdi. O'zoning biro lam xotiralarini ham avlodlariga ravo ko'rdi. Bu buyuk siymo bizning ya'ni o'z ona tuprog'ining qalbida mangu yashaydi.

REFERENCES

1.Otabek Alimaedonov.O'zbekistonning eng yangi tarixi:Tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari.-Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti:Toshkent-2023

2.R.E.Xoliqova.O'zbekistonning eng yangi tarixi.-Toshkent-2021

3.Yu.A.Ergasheva,R.E.Xoliqova,P.Xoliqov,D.I.Vasiyeva,S.B.Murtazova,S.T.Boymurodov,B.A. Ahmedov,Q.A.Moxamonozorov,B.O'.Abdullayev.O'zbekistonning eng yangi tarixi.-Qarshi "Intellekt" nashiryoti-2021

4.R.H.Murtazayeva,D.M.Inayatova,A.A.Odilov, M.M.Xaydarov, A.A.Ermatov, K.D.Saipova, T.I.Doroshenko, S.M.Atajanova, H.Holiqulova, R.Xomitov,

D.To'xtaboyeva, O.Alimardonov. O'zbekistonning eng yangi tarixi.-Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Toshkent-2023.

TARBIYANING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Hamidova Madina
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolamizda tarbiyaning inson hayotidagi o'rni, oila va jamiyat o'rtasidagi tarbiyaning o'zaro ta'siri tahlil qilingan, shuningdek, oila muhitida olingan tarbiyaning jamiyatda ijtimoiy normalarni va qadriyatlarni qabul qilishga ko'mak berishi asoslangan.

KALIT SO'ZLAR: tarbiya , oila , jamiyat , inson , axloq , xulq- atvor, qadriyat.

Tarbiya bu – uzluksiz davom etadigan, insonning shaxsiyati va dunyoqarashini shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Tarbiya bolalarga axloqiy, madaniy ijtimoiy va intellektual qadriyatlarni o'rgatish jarayonidir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash jarayonida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatlardan biridir. Tarbiyasiz odam ham, kishilik jamiyati ham bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini bildiradi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, radio, televideniya va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda esa tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan faoliyatni anglatadi. Buni oila tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari yo'lga qo'yadi. Har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashib boradi. Tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- nizom va tartibga rioya qilish;
- shaxsiy yondashuv;
- o'z-o'zini tarbiyalash;
- ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik.

Ushbu tamoyillar tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ta'lim olish jarayonida tarbiya, shaxsiy rivojlanishga va ijtimoiy munosabatlarga yordam beradi. Tarbiyaning shaxsiy rivojlanishga ta'siri shundaki, u insonning o'zligini anglashida muhim rol o'ynaydi. Yaxshi tarbiya, o'z-o'zini baholash va maqsad qo'yish qobiliyatini oshiradi, shuningdek, shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Tarbiyaning ijtimoiy hayotdagi o'rni esa, insonning jamiyatda o'z o'rnini topishiga va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishiga ta'sir qiladi. Ijtimoiy ko'nikmalar tarbiyada shakllanadi va bu, odamlarni bir-biriga bog'laydi, hamda barqaror ijtimoiy muhit yaratadi. Tarbiyaning ijtimoiy roli va ahamiyati inson hayotida muhim o‘rin egallaydi. Tarbiya, nafaqat shaxsning shaxsiyati va xulq-atvorini shakllantirishda, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotida ham muhimdir. Yoshlarni tarbiyalashda jamoatchilik faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashda davom etadi. Ota-onalar va jamiyatning ta'siri tarbiyani yanada kuchaytiradi. Ota-onalar bolalariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi va ularning tarbiyasida faol ishtirok etishi lozim. Jamoatchilik esa tarbiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki u yoshlarni ijtimoiy qadriyatlar va an'analar bilan tanishtiradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, Tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyati juda katta hisoblanadi. Har bir insonni to'g'ri tarbiyalash, unga axloqiy qadriyatlarni o'rgatish, yoshligidan yaxshi odatlar va muomala madaniyatini shakllantirish uning kelajakdagi baxtli va muvaffaqiyatli hayotini ta'minlashga ko`mak beradi. Tarbiya nafaqat oila va maktabda, balki jamiyat ta’sirida shakllanib boradi. Tarbiyali inson jamiyatda hurmatga sazovor bo'ladi, boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatadi. Demak, tarbiya – insonning nafaqat o'z hayotini, balki atrofidagi olamni ham yaxshilashga qaratilgan muhim omillaridan biridir .

REFERENCES

1.R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007.
2. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016.
3. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma
4. Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik. Toshkent. O‘qituvchi 1996-yil.
5. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O‘qituvchi 1996-yil

YAXSHILIK-ISLOMNING MUHIM AMALI SIFATIDA

Hayitova Gulmira
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs 24/10-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNATOTSIYA: Mazkur maqolamizda Islomda yaxshilik, saxovat tushunchasi mohiyati va bu amalga dinda berilgan ajrlar, yaxshilikning iymonli kishilarning muhim amali sifatida namoyon bo`lishi Shayx Muhammmad Sodiq Muhammad Yusufning "Iymon" va "Ijtimoiy odoblar" asarlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qur'onu Karim, ehson, savob, yaxshilik, ezgu amal, yomonlik, jamiyat, saxovat

KIRISH. Bugungi qiyofadagi insonlar kishilik jamiyatining million yillar davomidagi tadrijiy rivojlanishi hosilasidir.Insonning hayvondan farqi uning axloqli va ongli mavjudot ekanligida hisoblanadi**.** Odam deya ataluvchi turdan –inson maqomiga erishilguncha uzoq tarixiy taraqqiyot yo`li bosib o`tilganligi bizga sir emas. Afsuski, bugungi texnogen sivilizatsiya, bozor iqtisodiyoti davrida kishilarning moddiy extiyojlarini qondirishga bo`lgan extiyojlarining o`sib borishi ularni insoniy qiyofadan chekinishiga sabab bo`layotganligining guvohi bo`lmoqdamiz. Insoniy qiyofani saqlay olishimizda din muhim omillardan hisoblanadi. Islom o`ziga axloq va umumbashariy qadriyatlarni chuqur singdirgan 2 milliardaga yaqin sig'inuvchisiga ega bo`lgan jaxon dinidir.

ASOSIY QISM. Inson tug'ilishi bilan yaqinlari tomonidan uning ongi va qalbiga yaxshi inson bo`lish lozimligi, yaxshilik insonning eng muhim ziynati ekanligi uqtirilib, singdirilib kelinadi. Haqiqatdan ham har bir inson ezgu ish, ezgu amal, ehson qilish, yaxshilik qilish orqali nom qoldiradi. Bu fazilat har kimning odamiylik burchi hisoblanadi. Inson qanchalik ko'p yaxshilik qilsa, Alloh ham unga o'z karamini ko'rsatishi Islomda ta'kidlangan. Yuragida ezgu amali bo'lgan shaxsdan yomon ish kutish bejoyizdir. Isro surasida "Agar yaxshilik qilsangiz, o'zingiz uchun qilasiz. Agar yomonlik qilsangiz ham, o'zingiz uchun qilasiz",deyiladi.[1] Albatta, yaxshilik qiluvchilar o'zlarida bir ruhiy hotirjamlikni sezadilarki, u narsa ulardan boshqa hech kimda bo'lmaydi. Yaxshilik qilgan kishilardagi yaxshilik qilinuvchilarga nisbatan uyg'ongan muxabbat, hurmat-ehtirom ham ularning qalblariga saodat baxsh etadi. Yomonlik esa o'z egasiga baxtsizlik keltiradi. Bunday kimsa hayotda rohat ko'rmaydi. Bu dunyoda qancha ko'p yaxshilik,muruvvat,ehtirom ko'rtsatgan har bir inson uchun u dunyoda mukofot bor deb aytib o'tiladi. Hayotda ikki xil yo'l bilan nom qoldirish mumkin. Birinchisi,barchaga qo'lidan kelguncha yaxshilik qilish, ehson berish va boshqa yaxshi hislatlar orqali nom qoldirish deb aytiladi. Ikkinchisi,

esa faqat o'zi uchun o'z manfaatlari uchun yashab, o'zgalarga nisbatan hech qanday iliq muhabbati yo'q insonlarni yomon nom qoldiradi deb aytiladi.

"Kim bir yaxshilik keltirsa, uning uchun o'n barobari bor". "Kim yaxshilik qilsa,unga undan ko'ra yaxshiroq bo'lur. Hamda ular o'sha kunning daxshatidan omondadirlar". Ya'ni bir inson kimgadir yaxshilik qilsa bu yaxshilikdan keladigan savobning eng ko'pi yaxshilik qilgan odamga tegadi.Yaxshilikni qancha ko'p qilgan insonning iymoni shuncha mustahkam bo'lib boradi. Ehson kimgadir nimadir berish bilan chegaralanib qolmaydi. Jumladan, yaxshilik qiluvchilarning sifatlari ham keltirilgan. Islomda ular kechalari namoz o'quvchilar, tunning yarimida parvardigordan mag'firat so'rovchilar, mol- mulklaridan muhtojlar uchun nasiba ajratuvchilardir,-deyiladi. Bundan tashqari dinda birovni kechirish ham ehson hisoblanishi aytilgan. Bu amallarni to'la to'kis bajargan zot dunyoda, albatta, yaxshi nom qoldiradi. Nomoz o'qish, parvardigorga mag'firat qilish, bular odamlarning yaxshi nom qoldirishi bilan birga uning iymonini mustahkamlaydi,deyiladi. Muhtojlarga yordam qilish, birovlarni kechirish esa jamiyatda insonning qanday mavqeyda ekanligini bildiradi. Ehsonni ham yaxshilikni ham kimlarga qilish kerakligi haqida alohida takidlab o'tilgan. Bunga misol qilib Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Ijtimoiy odoblar" kitobida shunday deyiladi: "ehson" deyilganda o'zgalarga biror ne'matni berish, fazl-u karam ko'rsatish tushiniladi. Lug'at kitoblarga qaralsa ehsonning ma'nosi bundan ham kengroq ekanligi ma'lum bo'ladi. U" yaxshilik qildi" degan ma'noda ham ishlatiladi. "Yaxshilik" tushunchasi dunyodagi barcha yaxshi ishlarni o'z ichiga oladi. Ko`'plar ehsonni moddiy narsa deb hisoblashadi. Bunga muomala ham, boshqa barcha yaxshi ishlar ham kirib ketadi. Qur'onu Karimda ehson masalasaining inson shaxsiyatiga ta'sir qilish omillarini ham ko'rsatib o'tgan, ehson qiluvchilarning sifatlarini bayon qilgan. Qur'on Karimda ehson insonning tabiiy vazifasi ekanligini, Alloh unga ehson qilib, o'z ne'matlarini bergani uchun u ham ana shu ne'matlardan boshqalarga ehson qilishi kerakligini tushuntirilgan" Alloh senga yaxshilik qilganidek, sen ham yaxshilik qil". Jumladan, ehsonga loyiqlardan birinchilari ota-onalardir, deyiladi. Ularning haqlari juda ham ulug' hisiblanadi. Islom insonlarni yaxshilik qilishga buyuradi. Bizni dunyoga kelishimizga sababchi bo'lgan bu ikki ulug' insonlarga qancha yaxshilik qilinsa, shuncha farzandning savobi ortib boradi. Voyaga yetgan har bir farzand ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishi, ularni asrab -avaylashi ham bir yaxshilikdir. Shunday ekan ularga qilingan yaxshiligimiz javobsiz qolmaydi. Ota-onadan tashqari yaqin qarindoshlarga, yetimlarga, miskinlarga, yaqin qo'shninga yo'qsil yo'lchiga yaxshilik qilish savoblidir deb aytib o'tiladi. Quyidagi aytib o'tilgan so'zlarga barcha birdek amal qilsa, jamiyat uchun foydali bo'lar edi. Xususan,ollohga, ota-onaga, opa-singil, aka-ukalarga va boshqalarga yaxshilik qilish jamiyat uchun foydali

hisoblanadi. Islomda yetimlarga ham yaxshilik qilish buyurilgan. Ular o'z boquvchisini yo'qotgan bo'lib, yordamga muhtoj hisoblanadi. Shuningdek dinda uzoq yaqin qo'shnilarga ham yaxshilik qilishni aytib o'tilgan. Xalqimizda bir naql bor. "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaqin" Haqiqatdan ham, qo'shniga qilingan yaxshilik yerda qolmasligi Islomda hisobga olingan.

XULOSA: Xulosa o'rnida shuni aytib mumkinki, yaxshilik insonning eng muhim ziynati, iymonlilikning muhim belgisi hisoblanadi. Yaxshilik insoniy munosbatalarni yaxshilaydi. Islomda yaxshilik qilish har kuni amalga oshirilishi lozim bo`lgan diniy talabalardan bo`lib,har bir yaxshi va ezgu ishga dinda savob va ajrlar berilishi ta'kidlanganligi bilan e'tiborga molikdir.Shunday ekan umr deb ataluvchi qisqa davrda yaxshilik qilishga ulgurishimiz lozim.

REFERENCES

1. Quroni Karim.Alouddin Mansur tarjimasi, T.:,O`qituvchi.1992 y
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Iymon". "Hilol nashr" Toshkent. 2012.-B. 352 .
3.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar.-"Hilol nashr". Toshkent-2015.-B.456/

GLOBALLASHUV: TAFAKKUR VA E'TIQOD UYG'UNLIGI

Alimova Hilola Bobonazarovna
Xolmurodova Asalxon Nurmurodova
Psixologiya ta'lim yo'nalishi Ps-24/2 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Sa'dullayeva Mahfuza Husenovna

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada fikrlash va tafakkur, "Globallashuv asoslari", dolzarb muammolar, oddiy va murakkab jarayonlar, umuminsoniy, umumsayyoraviy, SSR, G'arb va Sharq o'rtasidagi konfliktlarni yo'qolishi, Germaniyalik tadqiqotchi Ulrix Bek, etnosotsial, etnomadaniy muammolar, Marks, Robertson va boshqa olimlarning qarashlari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: SSR, Marks, Robertson, Ulrix Bek, G'arb va Sharq konfliktlari, fikrlash, tafakkur, globllashuvning boshlanishi,

Аннотация. В данной статье говорится о мышлении и мышлении, «Основах глобализации», сложных проблемах, простых и сложных процессах, общечеловеческом, общепланетарном, СССР, исчезновении конфликтов между Западом и Востоком, немецком исследователе Ульрихе Беке, этносоциальных, этнокультурных проблемах, взглядах Маркса, Робертсона и других ученых.

Ключевые слова. СССР, Маркс, Робертсон, Ульрих Бек, западные и восточные конфликты, мышление, мышление, начало глобализации,

Abstract. This article discusses thinking and contemplation, "Fundamentals of Globalization", urgent problems, simple and complex processes, universal, universal, USSR, the disappearance of conflicts between the West and the East, German researcher Ulrich Beck, ethnosocial, ethnocultural problems, the views of Marx, Robertson and other scientists.

Keywords. USSR, Marx, Robertson, Ulrich Beck, conflicts between the West and the East, thinking, contemplation, the beginning of globalization.

KIRISH. Inson tug'ilganidan boshlab toki vafot etguniga qadar fikrlash, tafakkur hamda e'tiqodi shakllanib boraveradi. Inson qanchalik Yoshi ulg'aysa, shunchalik aqlli bo'lib boraverar ekan. Tug'ilgan chaqaloqda tafakkur va bilish jarayonlari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, asosan, bola 2-3 oylikdan boshlab jadal o'sadi va bu esa o'z navbatida ularda meni va bilish jarayonlari rivojlanadi. Shunday ekan bola tug'ilganidan unga juda ham e'tiborli bo'lish muhimdir.

Asosiy qism.Fikrlash va tafakkur bir xil ma'noni anglatmaydi. Ular bir-biriga yaqin tushunchalar. Fikrlash – bu jarayon, tafakkur esa fikrlar majmuasi. Fikrlash tafakkurga qaraganda yuqori darajada dinamizmga ega. Fikrlash bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi. Tafakkur uchun fikrlash zarur. Tafakkurni amaliyotda qo'llash uchun fikrlash kerak, ya'ni fikr orqali inson ongli faoliyatini amalga oshira oladi. Fikrlash

hech qachon to'xtamaydigan jarayon. U sekinlashishi yoki kuchayishi mumkin, biroq hech qachon bir joyda qotib qolmaydi. Har qanday ongli faoliyat fikrlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, ish tugagach noutbukni yopib qo'yish, toza havoga chiqib sayr qilish, murakkab matematik ,masalalar ustida bosh qotirish, derazaga qarab hayol surish- bularning barchasini negizida fikrlash yotadi. Oddiy va murakkab masalalarning qay darajada yechilishi tafakkur darajasiga bog'liq. Inson qancha fikrlamasain, agar uning tafakkur darajasi past bo'lsa, masala yechimi ham sust bo'ladi[17]. Fikrlash va tafakkur uyg'unlashib shaxsning ongli faoliyatini yuzaga keltiradi. Fikrlash insonning mulohaza qilganida yuzaga keladi. Shuning uchun ham insonning tafakkurini va fikrlashini boyitish maqsadida ko'pgina badiiy adabiyotlar tavsiya etiladi.

"Globallashuv asoslari" tushunchasining maqsadi va vazifalari global voqelikning, globallashuv jarayonlarining o'zi kabi keng hamda globaldir.

U hal etishi zarur bo'lgan dolzarb masalalar quyidagi yo'nalishdan iborat:

- Umuminsoniy , umumsayyoraviy ,muammolar;
- Milliy , etnomadaniy, etnosotsial muammolar;

ushbu ikki yo'nalishni ijtimoiy va inson taraqqiyoti nuqtayi nazaridan uyg'unlashtirib, sinergetik jihatdan tadqiq etishdir[18].

Germaniyalik tadqiqotchi Ulrix Bek globallasguvni ikki bosqichga:

Birinchi modernva ikkinchi modernga ajratdi. Birinchi modernga ilmiy-texnik kashfiyotlar, fan rivoji, sayohatlar va o'zga davlatlarni, qit'alarni o'zlashtirish, bosib olish bilan bog'liq jarayonlarni kiritadi. Uning fikriga ko'ra, Marks va Uollerstayn bu davrni XV asr bilan bog'laydi. Kapitalistik tuzumning yuzaga kelishi, Tovar-pul munosabatlarining umumplanetar voqelikka aylanishi ushbu bosqichning xarakterli jihatidir. Ulrix Bek Robertson fikricha, globallashuvning boshlanishi 1870-1920 yillarga to'g'ri keladi. Perlmutter esa, Sharq va G'arb o'rtasidagi konfliktlarni yo'qolishi, ya'ni SSSR ning tarqatilishi globalsivilizatsiyani boshlab berdi, deb ko'rsatadi. Mazkur fikrlarni tahlil qilgan Ulrix Bek globallashuvga "hayotning ba'zan anglanmaydigan va nomuvofiq transmilliy shakllariga berilishlar o'rtasidagi masalalarni bartaraf etuvchi hodisadir"[19], -deb ta'rif beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joyizki ,globallashuv jarayoning murakkabligini ko'rsatadi va fikrlash va tafakkur orqali insonlar globallashuvni yanada boyitadi.Shunday qilib, bugungi kunda globallashuv jadallashib bormoqda.

REFERENCES

[17] www.asab.uz https//t.me.izrmed

[18] Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: – "SamDCHTI" nashriyoti, 2023. – 160 bet.

[19] Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari.T.: Ma'naviyat,2006,5-6 b

1. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: – "SamDCHTI" nashriyoti, 2023. – 160 bet.
2. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari.T.: Ma'naviyat,2006,5-6 b
Foydalanilgan saytlar.
1. Arxiv.uz
2. Google.com.uz
3.www.asab.uz

BEMORNI ZIYORAT QILISH ODOBLARI

Homidova Nilufar Abduhokim qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bemorni ko'rgani borish va unga shirin muomala qilish haqida va ochiq yuz, xush ko'ngil, shafqat bilan muomala qilinishi, uning yuziga sinchiklab qaralmasligi, ko'p va qattiq ovozda gapirilmmasi haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so`zlar: bemor, bosh-ko'zi, manglayi, oyoq-qo'lini, shifokor, xasta, Qur'oni Karim, vojib, dard, odob.

Kirish. Dinimizda har bir xayrli ishning odobi bo'lgani kabi, ulamolarimiz bemorning ziyorati bobidagi odoblarni quyidagicha sanab berganlar: Xastalangan kishining huzuriga kirganda, ochiq yuz, xush ko'ngil, shafqat bilan muomala qilinadi, uning yuziga sinchiklab qaralmaydi, ko'p va qattiq ovozda gapirilmaydi.

Kasal ko'rish chog'ida bemorga dard – Allohning bir ne'mati ekani, banda unga sabr qilsa, Alloh taolo bilib-bilmasdan qilingan gunohlarni kechirishini aytib, bemorni ko'ngli ko'tariladi. Bemorning bosh-ko'zi, manglayi, oyoq-qo'lini silab, yaxshi so'zlar bilan ko'ngli ko'tariladi, dard vaqtinchalik ekanini aytib, tasalli beriladi. Kasal kishining ziyoratiga ozroq hadya olib, salom bilan kiriladi va unga yaqin, iloji bo'lsa, bosh tomonida o'tirib, ahvoli so'raladi.

Bemorni ziyorat qilish – Alloh taoloni ziyorat qilishga tenglashtirilgan, xasta kishi garchi g'ayridin kishi bo'lsa ham, hol so'rash yaxshidir.

Kasal bo'lgan odamni borib ko'rishning savobi va fazilati juda ko'p. Bemorni ziyorat qilish, undan hol-ahvol so'rash, biror yetishmovchiligi bo'lsa, ko'maklashib yuborish – musulmon kishi zimmasidagi zarur vazifalardandir.

Uning huzurida past ovozda, tabassum bilan gapiriladi, "Ko'nglingiz nima istaydi?" – deb so'raladi. Agar u xohlagan narsasini aytsa va bu unga zarar qilmasa, xoh o'zi, xoh yaqinlari orqali topib berishga harakat qilinadi.[20]

Bemor yotgan uyda kulish, yig'lash yaxshi emas, har xil kinoyali, og'ir botadigan, ko'ngilga keladigan so'zlar aytilmaydi. Agar zarurat bo'lmasa, kasal ko'rgani kechasi bormagan ma'qul, chunki dard odatda kechga borib kuchayib, bemorning ahvoli tanglashadi yoki u charchab, oromga shaylangan bo'ladi.

[20] https://mirarab.uz/ruknlar/1998

Bemorlik sog'likning ziddidir. Bemorlikni ba'zi ulamolar "Jismning mo'tadillik chegarasidan chiqishi" deb ta'riflashgan. Ya'ni bemorlik tananing o'z vazifalarini bajarishdan zaiflashib qolishidir.

Alloh taoloning bu dunyoda joriy qilib qo'ygan qonun-qoidalarini tafakkur bilan o'ylab ko`rgan kishi turli ofat va bemorliklarning sodir bo'lishi ham borliqdagi ilohiy qonun-qoidalardan biri ekanini anglab yetadi. Bularning hammasi Alloh taolo tomonidan bandalarga bo'ladigan sinovdir.[21]

Bemor bo'lgan inson davolanishni yo'lga qo'yishga harakat qiladi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam o'zlari bemor bo'lganlarida davolanganlar va biz ummatlarini ham davolanishga amr etganlar. U zot davolanish uchun qilinadigan urinish ham Allohning taqdiri ekanini bayon qildilar.

Ya'ni bemor bo'lish Allohning taqdiri ila bo'ladi, davolanish orqali tuzalish ham o'sha Zotning taqdiridir. Bu yerda Allohning bir taqdiri ikkinchi bir taqdiri bilan qaytariladi.

Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan.

Muslimning lafzida "Har bir dardning davosi bor. Davo dardni topsa, Alloh azza va jallaning izni bilan bemor tuzaladi", deyilgan.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ushbu hadisi shariflari butun jahon tibbiyotining cheksiz ravishda rivojlanishiga asosdir. Bunda tabiblarga turli dardlarga tinim bilmay da'vo izlash da'vati mujassam. Bu hadisi sharif nafaqat tabiblarga, balki bemorlarga ham katta umid baxsh etadigan manbadir. Bemorlar ham Alloh Rasulining gaplaridan ruhlanib, dardlariga davo izlashda bardavom bo'lishgan.

İslom xastaliklarni assosan tib orqali, ba'zi ruhiy muolajaga ehtiyojlari borlarni Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning uslublari ila muolaja qilishga amr etgan. İkki holatda ham ustozaridan rasmiy ravishda shahodatnoma olgan mutaxassislarga murojaat qilish amr etilgan. Bu haqiqatni har birimiz yaxshi anglashimiz va dinimiz amriga bo'ysunishimiz vojib.

Musulmonlar tomonidan tib borasida yozilgan son-sanoqsiz kitoblar ichida bemor, tabib va bemorni ziyorat qiluvchilar odobi haqida ham ko'pgina manbalar mavjud. Kelgusi satrlarda ushbu odoblardan ba`zi namunalar keltirishga ijozat bergaysiz.

Avvalombor biz ko'rmoqchi bo'lgan bemorga Shifokor boshqa insonlar bilan ko'rishishni man qilgan yoki qilmaganini bilish lozim" chunki COVID-19, Qizamiq va boshqa yuqumli kasallikga uchragan bemorlar bilan ko'rishish mumkin emas bu Hadislarda va tibbiyotda bayon qilingan" shunday bemorlarni ko'raman deb

[21] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. "HILOL-NASHR",T, 2023-y, B-404

shifokorlarga pul, yoki qandaydir tanish-bilish, va po'psa qilish musulmon kishiga to'g'ri kelmaydigan ishlardandir.

Xastalangan kishining huzuriga kirganda, ochiq yuz, xush ko'ngil, shafqat bilan muomala qilinadi, uning yuziga sinchiklab qaralmaydi, ko'p va qattiq ovozda gapirilmaydi. Kasal ko'rish chog'ida bemorga dard – Allohning bir ne'mati ekani, banda unga sabr qilsa, Alloh taolo bilib-bilmasdan qilingan gunohlarni kechirishini aytib,bemorni ko'ngli ko'tariladi. Bemorning bosh-ko'zi, manglayi, oyoq-qo'lini silab, yaxshi so'zlar bilan ko'ngli ko'tariladi, dard vaqtinchalik ekanini aytib, tasalli beriladi. Kasal kishining ziyoratiga ozroq hadya olib, salom bilan kiriladi va unga yaqin, iloji bo'lsa, bosh tomonida o'tirib, ahvoli so'raladi.[22]

Bemorning huzuridan turayotganda, uning haqqiga duo qilib, Allohdan shifo so'raladi. Imkon bo'lsa bemorni duosi olinadi. Chunki uning duosi ijobatdir. Xayrlashishda "Xudo xohlasa, tezda tuzalib ketasiz", "Dard ham bir mehmon, hali sog'ayib ketasiz" kabi so'zlar bilan tasalli beriladi.[23]

Bemor bo'lgan shaxs aqiydaga putur yetkazadigan ma'naviy xarom narsalar bilan davolanishi mutlaqo mumkin emas.

Bunga shariatda man qilingan tumor o'sish, turli dam solingan iplar, ba'zi hayvonlarning tirnoq yoki tishlari kabi narsalarni o'zi bilan olib yurish kabilar kiradi. Ushbu ishlar shirkdir, bularni qilish ulkan gunohdir. Bunday ishlarni qilgan odam Alloh taoloni qo'yib, boshqadan shifo tilagan bo'ladi.

Xulosa. Bu ishni qilish har bir musumonning diniy burchidir. Boshqa millatlarda shu narsaga muhtojlar. Bemorlarini ko'rgani borish unchalik ko'ngildagidek bo'lmagan joylar ham bor ekan. Hatto ba'zi joylarda falon shifoxonadagi bir bemorning holidan xabar olib buncha vaqt gaplashib o'tirgan odamga manavuncha haq beramiz, degan e'lonlar ham chiqar ekan. Shundan ham bizning dinimiz qanchalik rahmat, shafqat dini ekanini bilib olsak bo'laveradi.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. "HILOL-NASHR".T. 2024-y, B-404
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. "HILOL-NASHR".T. 2023-y, B-406
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam din va ilm. "HILOL-NASHR",T, 2023-y, B-267
4. https://arroziy.uz/uz/news/452

[22] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. "HILOL-NASHR",T, 2023-y, B-406
[23] https://arroziy.uz/uz/news/452

KOMPYUTER O'YINLARI – MANQURTLIK VOSITASI

Hoshimova Nilufarxon
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti biologiya 24/2 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Ilyosov Shohrux

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada kompyuter o'yinlarining inson ongiga ta'siri va ularning manqurtlik vositasi sifatida qanday rol o'ynashi tahlil qilinadi. Manqurtlik tushunchasi Chingiz Aytmatovning asarlariga asoslanib tushuntiriladi va zamonaviy texnalogiyalar , ayniqsa, kompyuter o'yinlari orqali insonlarning o'z madaniyatidan begonalashishi masalasi yoritiladi. Maqolada kompyuter o'yinlarining yoshlar tafakkuriga , ijtimoiy va salbiy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Natijada, kompyuter o'yinlariga qaramlik jamiyat va shaxs hayotida qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi va bu jarayonda himoyalanish yo'llari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kompyuter o'yilari, manqurtlik, virtual dunyo, yoshlar ongiga ta'sir, texnalogiya va jamiyat, milliy qadriyatlar, madaniy begonalashuv, giyohvandlikka o'xshash qaramlik, psixologik ta'sir, ijtimoiy izolyatsiya.

Zamonaviy dunyoda texnalogiya rivojlanishi bilan inson hayoti keskin o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda kompyuter texnalogiyalari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida kompyuter o'yinlariga bo'lgan qiziqish juda yuqori darajaga yetgan. Kompyuter o'yinlari dastlab dam olish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va stressdan xalos bo'lish vositasi sifatida yaratilgan bo'lsada, bugungi kunda ularning inson ongiga ta'siri, jamiyat hayotidagi o'rni va yosh avlod tafakkuriga qanday tasir qilayotgani haqida ko'plab bahs-munozaralar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar o'yinlarning foydali jihatlarini ta'kidlasalar, boshqalar ularni inson ongini zaiflashtiruvchi, milliy qadriyatlardan begonalashtiruvchi manqurtlik vositasi deb baholaydilar.

Kompyuter o'yinlari bugungi yoshlar uchun nafaqat o'yin-kulgi manbai, balki hayotining muhim qismiga aylangan. Ko'pgina yoshlar real hayotdagi faoliyatdan ko'ra, virtual olamda ko'proq vaqt o'tkazishni afzal ko'radilar. Ular o'yin ichida o'zlariga yangi shaxsiyat yaratib, o'sha obraz orqali yashashni xohlashadi. Bu esa asta-sekinlik bilan ularning haqiqiy dunyodan uzoqlashishiga, ijtimoiy hayotda faoliyat yuritish qobiliyatining pasayishiga va eng muhimi, o'z milliy qadriyatlari va madaniyatidan begonalashishiga olib keladi. Aynan mana shu jihati kompyuter o'yinlarini manqurtlik vositasiga aylantirishi mumkin.

Manqurtlik tushunchasi adabiyotda, xususan, Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida keng yoritilgan. Unda manqurt inson o'z o'tmishini

eslolmaydigan, ota-onasini tanimaydigan, mustaqil fikrlash qobiliyatidan mahrum bo'lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bugungi zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, kompyuter o'yinlari orqali ham yoshlarning ongiga shunday ta'sir o'tkazilishi mumkin. Agar yoshlar kun bo'yi chet el madaniyatini targ'ib qiluvchi o'yinlarga berilib ketsa, asta-sekinlik bilan o'z ona tilidan, tarixidan va urf-odatlaridan uzoqlashib borishi ehtimoli ortadi. Shu sababli, kompyuter o'yinlari nafaqat ko'ngilochar vosita, balki ongni egallash, begona mafkurani singdirish va jamiyatni muayyan yo'nalishga yo'naltirish vositasi sifatida ham qaralishi mumkin.

Kompyuter o'yinlarining inson ongiga ta'siri turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yinlarga mukkasidan ketgan insonlarning ijtimoiy muhitdan ajralib qolish ehtimoli yuqori. Ular real hayotdagi muammolarni yechish o'rniga, virtual dunyoga qochishni afzal ko'radilar. Ba'zan bu holat shunchalik kuchayib ketadiki, inson o'zining haqiqiyligini unutib, o'yin ichidagi dunyoni haqiqat deb qabul qila boshlaydi. Bunday jarayon uzoq davom etsa, natijada jamiyatda manqurtlik holati shakllanib borishi mumkin. Yoshlar o'z milliy o'zligini yo'qota boshlaydi, chet el madaniyatiga haddan tashqari qiziqish ortadi va oxir-oqibat ular o'z jamiyatining madaniyati, an'analari va tarixidan befarq bo'lib qoladi.

Kompyuter o'yinlari inson ruhiyatiga va jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushunish uchun ularning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Bugungi kunda mavjud bo'lgan aksariyat o'yinlar kuch ishlatish, jang qilish, urush va tajovuzkorlikni targ'ib qiladi. Bunday o'yinlar orqali yosh avlodning ruhiyati o'zgarib, ular haqiqatni virtual dunyo orqali qabul qilishga moyil bo'lib qoladi. Oqibatda, jamiyatda zo'ravonlik, tajovuzkorlik va befarqlik kuchayadi. Bundan tashqari, o'yinlar orqali yoshlar chet el madaniyatiga ko'nikib, o'z milliy madaniyatiga befarq bo'lib boradi. Ayniqsa, G'arb va Sharq o'yin industriyasining kuchayishi natijasida bugungi yoshlar asosan xorijiy madaniyat mahsulotlaridan foydalanmoqda. O'z madaniyatidan uzoqlashgan yoshlar esa o'z milliy qadriyatlariga befarq bo'lib qolishadi.

Kompyuter o'yinlari inson ongini qanday shakllantirishi mumkinligi haqida fikr yuritganda, psixologik va pedagogik tadqiqotlarga ham e'tibor qaratish lozim. Psixologlarning ta'kidlashicha, inson ongiga eng katta ta'sir bolalik va o'smirlik davrida o'tkaziladi.

Agar yosh bola yoki o'smir virtual dunyo mahsulotlariga haddan tashqari bog'lanib qolsa, bu uning kelajakdagi shaxsiyati va dunyoqarashiga katta ta'sir qiladi. Masalan, bolalikdan boshlab chet el o'yinlarini o'ynab kelgan inson asta-sekinlik bilan o'sha o'yinlardagi madaniyatni o'zlashtiradi va o'z milliy qadriyatlaridan uzoqlashadi. Bu jarayon sekin, lekin davomiy sodir bo'ladi. Oqibatda, bir necha yil

o'tgach, yoshlar o'z madaniyatiga befarq, o'z tarixidan bexabar va o'z milliy manfaatlarini himoya qila olmaydigan shaxslarga aylanadi.

Kompyuter o'yinlarining milliy qadriyatlarga ta'sirini tahlil qilish uchun ushbu mavzuga doir muhim savollarni o'rganish zarur:

Kompyuter o'yinlari orqali yoshlar qanday qadriyatlarni o'zlashtiradi?

Ularning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi?

O'yinlar yosh avlodning milliy madaniyatdan uzoqlashishiga qanday hissa qo'shadi?

Manqurtlik tushunchasi kompyuter o'yinlari bilan qanday bog'liq?

Ushbu savollar asosida olib boriladigan tahlil kompyuter o'yinlarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni va inson ongiga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Kompyuter o'yinlari faqatgina bo'sh vaqtni o'tkazish vositasi emas, balki ulkan mafkuraviy qurol sifatida ham qaralishi mumkin. Agar jamiyat bu jarayonga e'tibor bermasa, kelajak avlod o'z madaniyatidan butunlay begonalashishi va global texnologiyalar orqali shakllangan yangi mafkuraga to'liq bog'lanib qolishi mumkin.

Kompyuter o'yinlari bugungi kunda yoshlar orasida juda ommalashgan bo'lib, ularning ta'siri haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar o'yinlarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam berishini ta'kidlashsa, boshqalar ularni inson ongini zaiflashtiruvchi va milliy qadriyatlardan begonalashtiruvchi vosita sifatida baholaydilar. Ayniqsa, chet el madaniyatini targ'ib qiluvchi o'yinlar yoshlarning o'z milliy madaniyatiga befarq bo'lishiga olib kelishi mumkin. Virtual dunyoga haddan tashqari bog'lanish ijtimoiy faollikning kamayishiga, psixologik va jismoniy muammolarning ortishiga sabab bo'ladi.

Kompyuter o'yinlari zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, ularning salbiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Haddan tashqari ko'p o'yin o'ynash yoshlarning milliy qadriyatlardan uzoqlashishiga, ijtimoiy ajralishga va real hayotdan begonalashishga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'yinlar ustidan nazorat o'rnatish, yoshlarni milliy madaniyatga asoslangan ta'limiy o'yinlarga yo'naltirish va ularga vaqtni samarali boshqarishni o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Aytmatov, Ch. (1980). Asrga tatigulik kun. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
2. Tojiev, S. (2019). Axborot texnologiyalari va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Karimov, I. A. (1998). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
4. Psixologiya va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy maqolalar (turli manbalar).

INTERNET, VIRTUAL VA VIZUAL OLAMNING SHAXSGA TA'SIRI

Qo'chqorova Hulkar G'ayrat qizi, Qurbonboyeva Hulkaroy Anvar qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti, biologiya yo'lanilishi1-kurs t alabalari
Ilmiy rahbar:**Umarova Shaxlo Baxtiyorovna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar "kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar – internet, virtual hamda vizual olamning inson shaxsiga ko'rsatayotgan psixologik, ijtimoiy va ma'naviy ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Texnologiyalar taraqqiyoti bilan birga inson ongining bu o'zgarishlarga moslashuvi, shaxsiy rivojlanishdagi imkoniyatlar va xavf-xatarlar yoritiladi. Internet va vizual vositalarning yosh avlodga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, ijtimoiy munosabatlarga va qadriyatlarga qanday ta'sir qilayotgani muhokama qilinadi. Kalit so'zlar:Internet, virtual olam, vizual muhit, shaxs taraqqiyoti, ruhiy salomatlik, ijtimoiy psixologiya, raqamli axborot, zamonaviy texnologiyalar.

KIRISH:

Bugungi kunda insoniyat ilgari tasavvur qilib bo'lmaydigan texnologik taraqqiyot davrida yashamoqda. Axborot texnologiyalari, xususan, internet hayotimizning ajralmas bir qismiga aylangan. Har kuni milliardlab odamlar ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, videolar tomosha qiladi, yangiliklarni o'qiydi, fikr bildiradi va o'z hayotini virtual tarzda boshqalarga namoyish etadi. Bularning barchasi, shubhasiz, inson hayotiga, shaxsiy rivojlanishiga va ruhiy holatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Virtual olam – bu real hayotdan tamoman farqli bo'lgan, inson istaklariga moslab yaratilgan muhitdir. Unda inson o'z istagiga ko'ra kim bo'lishi, qanday ko'rinishda bo'lishi, qanday munosabatda bo'lishi mumkin. Bu esa insonlarda real hayotdan uzoqlashish, muammolardan qochish, sun'iy muloqotga o'rganib qolish kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Virtual hayotdagi muvaffaqiyat, mashhurlik yoki "like"lar soni ko'plab insonlar, ayniqsa, o'smirlar uchun o'zini qadrlash mezoniga aylanmoqda.

Vizual kontentning ustunligi esa alohida e'tiborga loyiq. Inson miyasi ko'rgan tasvirni eshitilgan so'zga qaraganda tezroq va chuqurroq qabul qiladi. Shu bois, bugungi internet olamida vizual axborot – video, surat, grafik tasvirlar – eng kuchli ta'sir vositasi sifatida faol ishlatilmoqda. Reklama, yangiliklar, ijtimoiy tarmoq postlari va hatto ta'lim materiallari ham asosan vizual shaklda taqdim etiladi. Biroq bu holat insonni chuqur fikrlashdan, o'qish va mulohaza qilishdan yiroqlashtirishi

mumkin. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida tez va soddalashtirilgan axborotlarga o'rganib qolish holatlari uchramoqda. Bu esa tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini zaiflashtiradi. Shu bilan birga, internetda tarqalayotgan turli vizual tasvirlar, ba'zida tajovuzkor, salbiy, yolg'on yoki haddan ortiq idealizatsiyalangan obrazlar inson psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlar o'zlarini boshqalar bilan solishtirib, o'z qadrqimmatini pasaytirishi, komplekslarga tushib qolishi mumkin. Internetdagi "mukammal hayot" tasvirlari ko'plab foydalanuvchilarda tushkunlik, xavotir, o'zidan norozilik kabi salbiy hissiyotlarni paydo qilmoqda. Shuningdek, odamlar orasidagi jonli muloqot o'rnini virtual yozishmalar egallab bormoqda. Bu esa ijtimoiy ko'nikmalarning, empatiya – ya'ni boshqani tushunish, unga hamdardlik bildirish kabi insoniy fazilatlarning zaiflashuviga olib kelishi mumkin. Yoshlar real hayotdagi muloqotda qiynalib, o'zini yolg'iz his qilishi, ruhiy siqilish holatlariga duchor bo'lishi mumkin. Albatta, internet va vizual texnologiyalar o'zida juda katta imkoniyatlarni mujassam etgan. Ular ta'limda, tibbiyotda, fan va ishlab chiqarishda beqiyos yutuqlarga erishishga yordam bermoqda. Ammo bu imkoniyatlardan ongli, mas'uliyatli va madaniyatli tarzda foydalanish muhim. Aks holda, bu vositalar inson ongining, ma'naviyatining, ruhiyatining zaiflashishiga olib keladi.

Xulosa: Internet, virtual va vizual olamlar hayotimizga qulayliklar, tezkorlik va keng imkoniyatlar olib keldi. Biroq ularning salbiy ta'siri – ayniqsa yoshlar orasida – tobora sezilarli bo'lib bormoqda. Shaxsiy rivojlanish, ruhiy barqarorlik va sog'lom jamiyat uchun raqamli vositalardan foydalanganda ongli yondashuv, maqsadli foydalanish va raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish zarur. Har bir inson o'z hayotida internetni emas, o'zini boshqarishi, virtual emas, real hayotda o'z baxtini izlashni tanlashi lozim .

REFERENCES

1. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o'quv qo'llanma. Movarounnahr, 2016.-672 b.
2. Cynthia Vinney. „Very well mind". What Is Media Literacy? (2022-yil 12-yanvar.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Ijtimoiy odoblar''. 2024-y
4. F.Mo'minov, Sh.Barotov va boshqa. "Ochiq axbort tizimida axborot-psixologik xavfsizlik. 2013-y
5. B.S.Abdullayeva, Y.Z.Ro'ziyev, K.V.Ismoilova. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. 2024-y

VIRTUAL O'YINLARNING INSON RUHIYATI VA SOG'LIG'IGA TA'SIRI

Tohirov Husan Asqar o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar : **Mirahmedova Shohida Nusratillayevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada virtual o'yinlarning inson ruhiyati va sog'lig'iga ta'siri tahlil qilinadi. Ularning qaramlik, stress va ijtimoiy ajralish kabi salbiy hamda strategik fikrlash va diqqatni rivojlantirish kabi ijobiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sog'liqqa ta'siri va zararni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: virtual, mantiqiy fikrlsh, stress va ijtimoiy ajralish, yolg'izlik, ijtimoiy qaramlik, poklik, salbiy, ijobiy.

Kirish. Hozirgi kunda virtual o'yinlar inson hayotining ajralmas bir bo'lagiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda virtual o'yinlar faqat bolalar va o'smirlar orasida emas, balki kattalar hayotida ham muhim o'rin egallamoqda. Ba'zi insonlar virtual o'yinlarni hordiq chiqarish yoki mantiqiy fikirlashni rivojlantirish uchun foydalansa, boshqalar esa ularga ortiqcha bo'g'lanib, vaqt va energiyasini yuqotish mumkin. Shu sababli, virual o'yinklarning ta'siri va ular bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish juda muhim.

Avvalo vurtual o'yinlarning ijobiy tomonlariga e'tibor qaratamiz. Ko'pgina virtual o'yinlar kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishi, ijodkorlikni oshirishi va jamoaviy ishni rag'batlantirishi mumkin. Ba'zi ta'limiy o'yinlar yoshlar uchun bilim olish va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Biroq virtual o'yinlarning salbiy ta'sirlari ham mavjud. Haddan tashqari o'yin o'ynash natijasida real hayotdagi muhim ishlar, ma'suliyatlar va ijtimoiy munosabatlarga e'tibor kamayadi. Virtual o'yinlarni ko'p o'ynash orqali insonlarda ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir, jismoniy sog'liqqa zararlar, uyqu buzilishi va ijtimoiy ajralish yolg'izlik kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Virtual olam insonni fikran qaram etish orqali o'ziga bo'ysundirmoqda. Hozir bolalar yoki o'smirlarning internet-kafeni "ikkinchi uyi" ga aylantirib olayotgani sir emas. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, onlayn o'yinlarni o'ynovchilar ham, asosan, o'smirlar. O'smirlik shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o'ziga xos davr hisoblanadi. Agar shu davrda o'g'il yoki qiz agressiv ruhdagi onlayn o'yinlariga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi turgan gap.

Kompyuter ekranidan turli tajovuzkorona ko'rinishlar, zo'ravonlik va fahsh ishlar ochiqdan-ochiq, ko'rsatilishi bolalarning ruhiyatiga salbiy ta'sir etib, ma'naviy buzuqilikni keltirib chiqaradi.

Internet klublarda yoshlar o'ynaydigan virtual o'yinlarning 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishga ega. Ularning 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlatishlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun zo'ravonlik va yovuzliklardan foydalanadi. Bunday o'yinlarni yoshlarning ongiga tashlangan olovga qiyoslash mumkin, chunki bu o'yinlar yoshlar ongini zaharlaydi va ularning ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Farzand istiqboli, yorqin kelajagi uchun har bir kishi tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. Bola tarbiyani turli kompyuter o'yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ota-onalaridan, bobo-momolaridan, ezgulikka, poklikka va din-u diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin. Bola inson zoye qilgan vaqti, ya'ni umrini nimaga sarflagani xususida olamlar Parvardigori oldida javob berishini bilsin.

Virtual o'yinlarning jamiyatdagi o'rni.

Bugungi kunda virtual o'yinlar butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar muntazam ravishda o'ynaydigan ko'ngil ochar sanoatning muhim qismiga aylangan bo'lib, bolalar, o'smirlar va kattalar orasida keng tarqalgan. Ular nafaqat ko'ngilochar vosita, balki ta'lim, texnalogiya, iqtisodiyot va ijtimoiy muloqotda ham muhim rol o'ynamoqda. Jamiyatda kibersport jadal rivojlanib, professional o'yinchilar va homiylar uchun dsromad manbaiga aylanmoqda. Shuningdek, o'yin industiryasi katta iqtisodiy foyda keltirib, asturchilar dizaynerlar va strimerlar uchun ish o'rinlari yaratmoqda. Virtual o'yinlarning jamiyatga eng muhim ta'siridan biri ularning ijtimoiy o'zaro ta'siridir. Ushbu o'yinlar o'yinchilarga butun dunyo bo'ylab boshqalar bilan bog'lanish imkonini yaratadi. O'yinlar orqali turli madaniyatdagi odamlar bilan tanishish, o'yin davomida suhbatlashish va reja tuzish ijtimoiy ko'nikmalarni shakillantiradi. Qisqa qilib aytganda, virtual o'yinlar jamiyatda ko'p qirrali rol o'ynab, ijobiy va salbiy ta'sirlarga ega. Ularning foydalaridan unumli foydalanish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun ongli yonashuv zarur.

Iijobiy ta'sirlari.

1. Aqliy va kognitiv rivojlantirish: Virtual o'yinlar ko'pincha muammolarni yechish, strategik fikrlash va tez qaror qabul qilish ko'nikmalarini talab qiladi. Bu yoshlar ongiga foydali bulishi hamda aqliy rivojlanishini kuchaytirishi mumkin.

2. Ta'limiy va rivojlantiruvchi ahamiyati: Ko'pgina onlayn o'yinlar ingliz, yapon, koreys va boshqa tillarda bo'lib, o'yinchilar shu tillarda muloqot qilishga majbur bo'ladilar. Ba'zi o'yinlar o'yinchilarga o'z dunyolarini qurish va dizayn qilish

imkonini beradi. Bu jarayonlar o'yinchilarda ta'limiy rivojlanishga yordam berishi mumkin.

3. Stressni kamaytirish va dam olish imkoniyati: O'yinlar insonni real hayotdagi muammolaridan chalg'itib, kayfiyatini ko'tarishi mumkin.

4.Texnalogik va kasbiy rivojlanish imkoniyati: O'yin ishlab chiqarish sohasiga qiziqish uyg'otib, kelajakda dasturchilik, dizayn yoki sun'iy intellekt sohalarida ishlashga turtki bo'lishi mumkin.

Salbiy taraflari.

1. Psixalogik salbiy ta'sirlar: Virtual o'yinlar ham bir qator psixalogik ta'sirlar bilan bog'liq. Ba'zi taqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haddan tashqari o'yin giyohvandlik va ruhiy tushkunlik va tashvish kabi boshqa ruhiy muammolarga olib kelishi mukin.

2. Ijtimoiy salbiy ta'sirlar: Virtual o'yinlarga ko'p vaqt ajratish real hayotdagi ijtimoiy aloqalarning kamayishiga, do'stlar va oila bilan muloqotning cheklanishiga olib kelishi mumkin. O'yinlarga ortiqcha berilish o'quvchilarning darslariga e'tiborini kamaytirib, ularning akademik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Jismoniy salbiy ta'sirlar: Uzoq vaqt davomida o'yin o'ynash ko'z charchoqlari, bosh og'rig'i, uyqu buzilishi va jismoniy faollikning kamayishi kabi sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin.

4. Moliyaviy salbiy ta'sirlar: Ba'zi o'yinlar ichki xaridlar yoki tavakkalchilikka asoslangan bo'lib, foydalanuvchilarni ortiqcha xarajatlarga olib kelishi mumkin. Yuqori sifatli o'yinlarni o'ynash uchun kuchli kampyuterlar, konsollar yoki boshqa qurilmalar talab etiladi. Ushbu uskunalar qimmat bo'lib, ularni yangilab turish ham qo'shimcha xarajatlarga olib keladi.

Virtual o'yinlardan foydalanishda muvozanatni saqlash, vaqtni to'g'ri taqsimlash va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash orqali ularning salbiy ta'sirlarini kamaytirish mumkin. Ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat a'zolari bu jarayonda faol ishtirok etishlari lozim. Keraksiz harajatlardan qochish uchun o'yin ichidagi xaridlarni kamaytirish lozim. Kattalar va yoshlr uchun o'yin o'ynashdan tashqari, jismoniy faollik bilan shug'illanish sog'liq uchun foydalidir. Vaqtni kuproq ochiq havoda o'tqazish, tabiat qo'ynida sayir qilish va sport bilan shug'illanish ruhiy holatni yaxshilaydi. Bolalar o'yin o'ynashini cheklash va o'ynayotgan o'yinlarning mazmuni va reytingini tekshirish orqali nomaqbul kontentdan himoya qilish kerak. Bu esa albatta ota-onalarning o'z farzandlarini muntazam tekshiruvda saqlash orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Virtual o'yinlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylangan bo'lsada, ularning inson ruhiyati, jismoniy salomatligi va oijtimoiy hayotiga ta'siri turlicha bo'lishi mumkin. Ular diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash, ijodiy rivojlanish

va jamoaviy ishlash ko'nikmalrini oshirish mumkin. Biroq , ortiqcha o'yin o'ynash qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya, sog'liq muammolari va moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi ehtimoli ham mavjud. Shu sababli virtual o'yinlardan foydalanganda muvozanatni saqlash muhimdir. O'yin vaqti nazorat qilinishi, sog'lom turmush tarzi bilan uyg'unlashtiriishi va ijtimoiy hayotdan ajralmaslikka e'tibor qaratilishi kerak. Ota-onalar va pedagoglar bolalar va yoshlarning o'yinlarga bo'lgan munosabatini to'g'ri yo'naltirishlari lozim. To'g'ri yondashuv bilan virtual o'yinlardan samarali foydalanish mumkin, biroq ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun mas'uliyat bilan yondashish zarur.

REFERENCES

1."Global Games Market Report," Newzoo, 2021, https://newzoo.com/insights/articles/global-games-market-report-2021-light-version/
2. N.D. Bowman et al., "The Effects of Video Game Play on Young Children's Aggression, Fantasy, and Prosocial Behavior," Journal of Applied Developmental Psychology 23, no.
3 (2002): 374-92. 3. S. Bessière et al., "The Ideal Elf: Identity Exploration in World of Warcraft," CyberPsychology & Behavior 10, no.
4 (2007): 530-35. 4. J. Williams and Y. Guo, "The Benefits of Playing Video Games," American Psychologist 69, no. 1 (2014): 66-78.
5. Steinkuehler, C. (2006). Massively multiplayer online games (MMOs) in the new media classroom. Journal of Educational Multimedia and Hypermedia, 15(1), 5-31.
6. J. Billieux et al., "Psychological Factors Associated with Compulsive Gaming: A Cross-Cultural Validation," Journal of Behavioral Addictions 2
7. Griffiths, M. (2002). The educational benefits of videogames. Education and Health, 20(3), 47-51.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISLOM DININING OMILI

Yakubov Husniddin Muxitdinovich
CHDPU "Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
Otaqulova Muxlisa Sobir qizi
CHDPU "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti 1-bosqich talabasi

Kishilarning diniy e'tiqodi bilan bog'liq har qanday muammo, doimo, eng nozik va aholining keng etnik qatlamlarini qamrab oluvchi masalalardan biri bo'lgan. Markaziy Osiyo davlatlarining XX asr yakunidagi taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, sobiq sovetlarning ateistik nazariyalari bilan sug'orilgan mafkuraviy qarashlari o'rniga kelgan diniy e'tiqod erkinligi undan o'zlarining siyosiy maqsadlari yo'lida foydalanish istagida bo'lgan turli tashkilot va birlashmalarga yo'l ochib berdi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning bu jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini global geosiyosiy darajada tahlil qilib aytgan quyidagi so'zlari fikrimizning dalili bo'la oladi: "Markaziy Osiyodagi islomiy ma'rifat ta'qiqlab qo'yilgan sobiq sovet respublikalarida chin ma'nodagi bilimdon islom murabbiylari kamayib ketgan edi. Natijada, har xil xurofiy irim-sirimlar, ba'zan jaholatparast udumlar rivoj topdi.... Bunday chalamullalar odamlarning taqdirini hal etish huquqini da'vo qilib chiqmoqdalar".[24]

Hozirgi paytda Markaziy Osiyo davlatlari aholisining aksariyat qismini musulmonlar tashkil etadi. Shu boisdan ham mintaqada xavfsizlikni ta'minlashda islom omilining tutgan o'rni va rolini, nima sabab islomni radikal kuchlarga bog'lash sabablarini, diniy ekstremistik tashkilotlarning shakllanishidan tarixidan istiqboldagi faoliyatiga qadar o'rganish hamda ularning faoliyatini bartaraf etish yoki ushlab turish yo'llarini topish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylanib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun islom ta'limotini chuqur o'rganishni bugungi kunning dolzarb vazifasi sifatida qo'yadi. Chunki, islom dinini to'g'ri tushunmaslik uni radikal oqimlar bilan bog'lanishlarini keltirib chiqarmoqda. Nima sababdan diniy ekstremistik harakterdagi hatti-harakatlar va guruhlarning o'z maqsadlariga erishish yo'lida asosiy vositasi bo'lib qolayotganini yoritib berish zamon talabidir.

Markaziy Osiyoda, islom omili masalasi borasidagi qarashlarda O'zbekiston Respublikasi o'z pozisiyasini strategik rejalari asosida ya'ni, o'zining milliy hamda

[24] Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари., "Ўзбекистон", Т.,1997., 40-бет.

minaqaviy manfaatlaridan kelib chiqib namoyon etib kelmoqda. Xususan, yuqoridagi fikrimizning mantiqiy davomi sifatida ko'rsatish mumkinki, "Odamlarning taqdirini hal etish huquqi"- bu siyosiy hokimiyatga egalik qilish demakdir. Dasturilamal vazifasini o'tovchi ushbu asardagi fikr quyidagicha davom ettirilgan: "...islom dinidan siyosiy kurash maqsadida, ommaning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatish vositalariga ega bo'lish uchun qurol sifatida foydalaniladi. U bir tug' vazifasini bajarishga qodir. Bu tug' ostida esa aniq bir dasturiy maqsadlarni izlovchi emas, balki faqat bir ko'rsatmaga – hokimiyat uchun kurash olib borish haqidagi ko'rsatmaga amal qiluvchi kuchlar birlashadi".[25] Ko'rinib turibdiki, yurtboshimiz Markaziy Osiyo xavfsizligini ta'minlashda islom dini omili yuzasidan o'z asarlari orqali siyosiy qarashlarini juda ham aniq ifodalab berganlar.

Shu o'rinda, "Islom omili" tushunchasining mohiyatiga e'tibor qaratish ishning mazmunini kengroq yoritishga imkon yaratadi. Mazkur atamaning kelib chiqishi G'arb va Sharq manbalarida turlicha tavsif qilinadi, uning davlatlar siyosatida milliy manfaatlar nuqtai nazaridan istifoda etilgani kabi fikrlar turlicha bo'lganidek, g'oyaviy-siyosiy oqimlarga ularning munosabati masalalarida ham farqli va o'xshash tomonlar ko'p ekanligini e'tirof etish mumkin. Ularda, yuqorida ta'kidlanganidek, davlat, mintaqa manfaatlari mavjud va bugungi kun siyosatida unga tabiiy hol sifatida qaralmog'i lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu masalalarga Markaziy Osiyo Respublikalari, xususan O'zbekiston Respublikasining pozisiyasini belgilash, umuminsoniy qadriyatlarga demokratik va gumanistik qarashlar nuqtai nazaridan baho berishlikni joriy qilish barcha islomshunoslar oldida turgan muhim vazifalardandir.

Bizga ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlarining istiqlolni qo'lga kiritishlari, musulmon dunyosi bilan aloqalarini qayta rivojlantirishga yordam berdi. Bu esa o'z navbatida, sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi va Markaziy Osiyo hududida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi hamda aholining ko'pchiligini tashkil etadigan musulmonlarning ijtimoiy hayotida islom omili masalasini yanada jonlantirdi va shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari ta'sirining kuchayishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, mazkur davlatlarning ko'pchili o'z suverenitetiga erishganidan so'ng aholining an'anaviy diniy ta'limga bo'lgan munosabatlari nafaqat ommaviy tus oldi, qolaversa, qo'shni davlatlarga nisbatan munosabatlarda integratsiya harekterining shakllanishiga ham zamin yaratdi.

Markaziy Osiyo davlatlarida muborak Haj safariga borishga imkoniyatlar berildi. Din sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan ulamolarning merosini o'rganish, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat

[25] Кўрсатилган асар, 40-41-бетлар.

ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Jumladan, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Imom at-Termiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Hoja Ahror Valiy kabi yurtimiz mutafakkirlarining yubileylari o'tkazildi. Ularning bebaho merosi ilmiy tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallayotganligini alohida e'tirof mumkin. Shuningdek, ularning asarlari ilk bor o'zbek tilida nashr etila boshladi.

Lekin tez orada bu jarayonlar jiddiy muammolarga duch kelayotgani ayon bo'lib qoldi. ***Birinchidan,*** islom tuzilmalari va institutlari yaxshi rivojlanmaganligi, yaxshi tayyorlangan, bilimli din peshvolarining yo'qligi sezila boshladi. Mustaqillikka erishilgandan keyin, o'tgan davr mobaynida dindorlar va aholining ayrim toifalarining huquqiy, siyosiy va madaniy saviyasi pastligi ayon bo'ldi. Ba'zilar e'tiqod erkinligini o'ta bir tamonlama – dindor bo'lish majburiyati deb tushunishdilar o'z diniy jamoalari safini kengaytirish uchun gohida qo'ni-qo'shnilariga, mahalla ahliga tazyiq o'tkaza boshladi.

Ikkinchidan, "islomiylashuv" jarayonini tashqaridan va ichkaridan jadallashtirishga bo'lgan urinishlar Markaziy Osiyo davlatlarining dunyoviy demokratiya va milliy davlat qurishga qattiq intilishi bilan to'qnash keldi. Bu holat tabiiy ravishda dunyoviy davlat qurish yo'lini tanlagan yangi mustaqil davlatlarning siyosatiga qarshi bo'lgan kuchlarning faoliyatini boshlab yubordi.

Bu kuchlar turli fundamentalistik, ekstremistik oqimlarga birlashib dunyoviy demokratik davlat qurish g'oyasiga qarshi chiqib, muqobil ravishda xalifalik tuzumiga qaytish, o'z safdoshlaridan birini halifa qilib saylash va shu bilan hokimiyatni o'z qo'llariga olishni maqsad qilib chiqdilar. Shu o'rinda, mutaxassislar dunyo bo'ylab sodir etilgan terrorchilik harakatlarining 80 % ini muqaddas islom dini nomidan harakat qiluvchi jangarilar amalga oshirilganligini ta'kidlashmoqda.

Markaziy Osiyoda diniy aqidaparastlikning xavfliligi shunda ko'rinadiki, uning tarqalishi mamlakatlarda aholining turli guruhlari o'rtasidagi o'zaro ishonchga putur yetkazishi mumkin. Bu yerda faqat millatlararo va dinlararo keskinlik to'g'risida so'z yuritilayotgani yo'q. Bundan ham kuchliroq xavf "sof musulmonlar" va "munofiqlar", ya'ni islomning ekstremal talqiniga qo'shilmaganlar o'rtasida yangi ixtilof yo'nalishini vujudga keltirishi mumkin.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda islom aqidaparastlari mavqeining kuchayishi mintaqa mamlakatlarining halqaro aloqalariga putur yetkazishi mumkin.

Bu jahon iqtisodiy hamjamiyatining munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va chet el investisiyalarini jalb etishning kamayib ketishiga olib keladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida quyidagi uchta yo'nalish asosiy ahamiyat kasb etadi:

Birinchi yo'nalish - bu barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Ya'ni har qanday fundamentalizm jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, betartiblik natijasida vujudga keladi. Islomizm jamiyat boshiga tushayotgan barcha musibatlar ta'limot asoslaridan chekinish oqibatidir degan g'oyani ilgari suradi va muammoning yechimini eski qadriyatlarni tiklashda ko'radi. Iqtisodiy omillar fundamentalizm faol foydalanuvchi birinchi manbadir.

Ikkinchi yo'nalish - jamiyat hayotini demokratlashtirish bo'lib, bunda, davlat hokimiyatidan norozi aholi qatlamlari har qanday jamiyatda mavjud bo'ladi. Demokratiya institutlari va fuqarolik jamiyatining rivojalanishi norozilikni sublimatsiya qilish va uni oshkora ifodalashning qonuniy va jamiyat tomonidan nazorat qilinadigan kanallarini vujudga keltirish imkoniyatini beradi. Aks holda noroziliklar ixtiloflarga aylanishi mumkin.

Uchinchi yo'nalish - ta'lim tizimini mukammallashtirish lozim.

XX asr mobaynida islom, Markaziy Osiyoda kommunistlar tomonidan bosimga uchragan bo'lsa ham, aholining madaniy va diniy kundalik hayotida muhim o'rin tutgan. Bugun ushbu musulmon mamlakatlari ochilganidan keyin ularga global o'zgarishlar, turli bozor kuchlari, axborot va telekommunikatsiya sohasi yutuqlari hamda radikal islom kirib keldi. Mamlakat hukumatlari yangi sharoitga moslashish va ta'sirlarga bardosh berish uchun siyosiy va iqtisodiy institutlarni shakllantirishga urinmoqda.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining ichki va tashqi siyosatidagi islohotlari qatorida dinni chetda qoldirmasligi, uni zamon talablariga moslashtirib, dinning umumiy holatini kompleks tizimlashtirish, qolaversa, dinning sifati va darajasini modernizatsiya qilishga eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tibor berishlari kerak.

TALABALAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL TA'LIM STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGI: EMPIRIK TAHLIL VA ILMIY QARASHLAR

Imomjon Husniddin o'g'li Husniddinov
Student of the Chirchik State Pedagogical University, faculty of pedagogical, Chirchik, Uzbekistan
husnddinovimomjon@gmail.com, +998944419806

Karimboyeva Zebo Rashid qizi
Student of the Chirchik State Pedagogical University, faculty of pedagogical,Chirchik,Uzbekistan
krmbvazebo@gmail.com +998880423300

Ilmiy rahbar: **Imomova Umida Ismoil Qizi**

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada talabalar kreativligini rivojlantirish jarayonida individual ta'lim strategiyalarining samaradorligi empirik tahlil asosida o'rganiladi. Zamonaviy ta'lim paradigmalari shaxsiy yondashuvlarning ijodiy tafakkur va innovatsion qobiliyatlarni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot davomida individual ta'lim metodlarining talabalar kreativligiga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, an'anaviy yondashuvlar bilan solishtirildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, individual ta'lim strategiyalaridan foydalanish talabalar mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini oshirishga va innovatsion muammolarni hal qilishda samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar Howard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi va John Deweyning tajribaviy ta'lim konsepsiyasi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida talabalar shaxsiy ehtiyoj va qobiliyatlariga mos keluvchi metodlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimligi tasdiqlanadi.

Maqolada shuningdek, individual ta'lim strategiyalarining o'qituvchilarga ta'siri, ularning moslashuvchan pedagogik modelni shakllantirishdagi roli ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari individual yondashuvlarning zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanishi lozimligini ko'rsatadi va kelajakda kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: individual ta'lim strategiyalari, kreativlik, innovatsion ta'lim, empirik tahlil, ijodiy tafakkur, pedagogik yondashuv, shaxsiylashtirilgan ta'lim, o'quv jarayoni, innovatsion qobiliyat, zamonaviy ta'lim paradigmalari.

KIRISH:

Bugungi globallashuv va innovatsion taraqqiyot davrida oliy ta'lim tizimining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – talabalar kreativligini rivojlantirishdir. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va innovatsion yechimlarning jadal rivojlanishi zamonaviy mutaxassislar uchun nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki ijodiy tafakkur, muammolarni tahlil qilish va kreativ yondashuv qobiliyatlarini ham talab qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida individual yondashuvlardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimini jahon andozalariga moslashtirishga, uning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, **"O'zbekiston – 2030" strategiyasi**, **2020-yil 6-noyabrdagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmon** va **2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasi"** kabi hujjatlar mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini ilg'or tajribalarga asoslangan holda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu farmon va qarorlar ta'lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy qilish hamda individual o'qitish metodikasini rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratmoqda.

Oliy ta'lim tizimida individual yondashuvlarni joriy etish talabalar kreativligini rivojlantirishga, ularning intellektual salohiyatini oshirishga va innovatsion iqtisodiyot talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur mavzuni chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish oliy ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIK ASOSI

Talabalar kreativligini rivojlantirishda individual yondashuvlar samaradorligi pedagogika va psixologiya fanlari doirasida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida individual ta'lim strategiyalarining qo'llanilishi shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan o'qitish orqali kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu masala dunyoning turli olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari pedagogik innovatsiyalar, psixologik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan. So'nggi chorak asr mobaynida ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar individual yondashuvlar orqali kreativ tafakkurni rivojlantirish muhimligini ilmiy asoslab berdi. Jumladan:

Mazkur tadqiqotda individual ta'lim strategiyalarining talabalar kreativligi rivojlanishiga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik tadqiqot usullari, empirik tajribalar va statistik tahlillar asosida shakllantirildi.

1. **Nazariy tahlil** – pedagogika, psixologiya va innovatsion ta'lim sohasidagi ilmiy manbalar o'rganilib, individual yondashuvlar va kreativlik rivojlanishiga oid ilg'or ilmiy qarashlar umumlashtirildi.

2. **Eksperimental tadqiqot** – oliy ta'lim muassasalarida turli individual o'qitish metodlarining talabalar kreativ tafakkuriga ta'siri empirik usulda o'rganildi.

3. **So'rov va intervyu usuli** – pedagoglar va talabalar o'rtasida so'rovnomalar va intervyular o'tkazilib, individual ta'lim strategiyalarining real ta'siri tahlil qilindi.

4. **Taqqoslash va statistik tahlil** – individual va an'anaviy ta'lim metodlari natijalari taqqoslanib, kreativlikni rivojlantirishdagi samaradorlik darajasi baholandi.

Eksperiment natijalari

Tadqiqot davomida ikki guruh talabalarning kreativ fikrlash darajasi baholandi:

- **Birinchi guruh** – individual yondashuv asosida ta'lim olgan talabalar;
- **Ikkinchi guruh** – an'anaviy ta'lim usullari bo'yicha o'qitilgan talabalar.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, individual o'qitish usullari qo'llangan talabalar yangi g'oyalar yaratish, mustaqil fikrlash va innovatsion muammolarni hal qilishda yuqori natijalarga erishdi. Xususan:

Individual yondashuv asosida ta'lim olgan talabalar kreativlik testlarida **20-30% yuqori natijalar** qayd etdi.

✓ Ularning mustaqil ilmiy izlanishlarga moyilligi oshdi.

✓ Innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ijodiy fikrlash bo'yicha ijobiy natijalar sezilarli darajada ortdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual ta'lim strategiyalari talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida individual yondashuvlarni keng joriy qilish, raqamli texnologiyalar va interaktiv usullar bilan birlashtirish orqali nafaqat kreativ tafakkurni rivojlantirish, balki kasbiy va intellektual kompetensiyalarni ham oshirish mumkin.

Shuningdek, metodologik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki:

✓ Shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan ta'lim usullari talabalar motivatsiyasini oshiradi.

✓ Innovatsion ta'lim muhitida individual yondashuvlar samaradorligi yuqori bo'ladi.

✓ Psixologik jihatdan moslashgan ta'lim metodlari talabalar mustaqil fikrlashini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar kreativligini rivojlantirishda individual yondashuvlarni takomillashtirish pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatini beradi. Shu bois, mazkur yondashuvlar zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilishi lozim.

MUHOKAMA

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida individual yondashuvni amalga oshirish pedagogik strategiyalarning puxta ishlab chiqilishini talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar motivatsiyasini kuchaytirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, muhokama jarayonida quyidagi asosiy jihatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

1. Individual yondashuvning ta'lim samaradorligiga ta'siri. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, individual yondashuv qo'llanilganda talabalar o'z imkoniyatlariga mos o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar (Vygotsky, 1978). Masalan, Bloom (1984) tomonidan taqdim etilgan "Mastery Learning" modeli individual yondashuvning ta'lim natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. O'quv jarayonida differensial yondashuv, moslashtirilgan topshiriqlar va individual maslahatlar ta'lim jarayonini shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

2. Pedagogik strategiyalarni tanlash va ularning samaradorligi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan strategiyalar talabalarning bilim darajasi, shaxsiy qobiliyatlari va o'quv motivatsiyasiga mos ravishda tanlanishi kerak (Knowles, 1980). Konstruktivistik yondashuvga asoslangan strategiyalar, masalan, faol o'qitish metodlari, loyihaviy ishlar va aks ettirish (refleksiya) usullari individual yondashuvni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Flipped Classroom modeli orqali talabalar mustaqil ta'lim olishi, keyinchalik esa o'qituvchi bilan bevosita o'zlashtirish darajasini muhokama qilishi ta'lim samaradorligini oshiradi (Bishop & Verleger, 2013).

3. Raqamli texnologiyalarning individual yondashuvdagi o'rni. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Elektron ta'lim platformalari, masalan, Moodle, Google Classroom yoki Edmodo orqali talabalar mustaqil o'quv materiallarini o'zlashtirishi, baholash tizimlari esa o'zining bilim darajasini kuzatish imkonini beradi (Anderson, 2008). Sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlari har bir talabaga mos keladigan o'quv materiallarini taklif qilishi mumkin (Siemens, 2013).

4. O'qituvchining roli va pedagogik kompetensiyalar. O'qituvchi individual yondashuvni amalga oshirishda markaziy rol o'ynaydi. U nafaqat o'qitish jarayonini boshqaruvchi, balki motivator, maslahat beruvchi va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida ham faol ishtirok etishi lozim (Shulman, 1986). O'qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligi, kommunikativ ko'nikmalari va talabalarning ehtiyojlarini aniqlash qobiliyati ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

5. Individual yondashuvga oid amaliyotning cheklovlari va istiqbollari. Individual yondashuvni qo'llash jarayonida muayyan muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, guruhda o'qitish tizimining mavjudligi, talabalar sonining ko'pligi, vaqt va resurslarning yetishmovchiligi pedagoglar uchun qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, aralash (blended learning) va differensial yondashuv kabi kombinatsiyalangan strategiyalarni qo'llash talab etiladi. Kelajakda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga asoslangan tizimlar yordamida individual yondashuvni yanada rivojlantirish mumkin.

XULOSA

Xulosa sifatida, individual yondashuvni amalga oshirishda pedagogik strategiyalarni puxta ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoniga moslashtirilgan individual yondashuv natijasida talabalar bilim olish jarayoniga faolroq jalb etilib, ularning mustaqil fikrlash qobiliyati va amaliy ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa oliy ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

REFERENCES

1. Тохирова, Л., Абдуллаев, О. (2023). Когнитивные технологии как эффективная педагогическая технология. *Fanlararo yondashuv*, *1*(1), 6-12.
2. Abdullayev, O. (2023). On the issue of developing knowledge of future physical education teachers to have a positive influence on students'mind. *Development and innovations in science*, *2*(10), 120-128.
3. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. М., 1998. Т. 1.
4. Толковый словарь русского языка: в 4 т. / под ред. Д. Н. Ушакова. М., 1996. Т.
5. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка. М., 2002.
6. Словарь русского языка: в 4 т. / под ред. А. П. Евгеньевой. М., 1981 1984. Т. 1.
7. Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь. М., 2000.

8. Ефремова Т. Ф. Новый толково словообразовательный словарь русского языка: в 2 т. М., 2000. Т. 1.

KOREYA FALSAFASI

Aliyeva Indira Rahmon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi.
Ilmiy rahbar: Usmanov Abdumo'min Xolmo'minovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreya falsafasi va undagi asosiy yo'nalishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Koreya falsafasi asosan konfutsiychilik, buddaviylik, daosizm va mahalliy shamanizm ta'sirida rivojlangan.

Kalit so'zlar: Donolik, burch, saodat, mifologiya, tabiat, uyg`unlik, mif, rivoyatlar, choson, koryo, silla, pekche.

Kirish. Er.av. 1 asrga kelib Koreya yarim orolida uch yirik davlat shakllandi. Koryo (er. Avv. 37-668-yillar), Silla (er.avv. 57-668-yillar) va Pekche (er.avv. 18-660-yillar). Uch davlat hukmronligi davrida Yan va Im va dastlabki besh unsur haqidagi ta`limot o`zining keyingi rivojini topdi. Besh unsur ta'limoti esa bu davrga kelib dunyoning yaralishi haqidagi antologik bir ta'limot tizimiga aylandi. Har bir unsur uchun makonda aniq bir hudud va rang belgilandi: yer-markaz va sariq rang, daraxt-sharq va yashil rang, metall-g'arb va oq rang, olovga-janub va qizil, suv-shimol va qora rang. Besh unsurlik tizimga, tabiat va jamiyatda o`zgaruvchan jarayonlarni anglash, afsona, matn va xabarlarning sirli ma`nosini tushunish kalitiga aylana bordi. Bu uch davlat hukmronligi davrida keyinchalik Koreya yarimorolida hukmron ta`limotga aylangan:buddizm, shamanizm, daosizm hamda ilgari paydo bo`lgan konfutsiyachilik tizimining diniy-falsafiy ta`limotlari keng tarqala boshlandi. Shuni ta`kidlash lozimki, bu ta`limotlar koreyslarning dunyoni tushunish borasidagi qadimiy diniy-mifologik ilmlarini siqib chiqarmadi, "aksincha undan ko`pgina tushunchalar va bilimlarni mavjud davrga moslagan holda qabul qildi".

Asosiy qism. Buddaviylik aniqrog'i uning Maxayana nomli yo'nalishi, Koreyaga eramizning IV asrida Hindiston va Xitoy missionerlari tomonidan kirib kelingan. Sillada buddaviylik bayramlar sakkiz ruhga: osmon, buyuk tog`lar, buyuk daryolar, ajdarholar va boshqa ruhlarga bag`ishlangan "Phalgvanxe" bayrami bilan birgalikda nishonlanar edi. Qisqa vaqt ichida buddaviylik uchala davlatning yuqori tabaqalari orasida tarqaldi. Tez kunda esa buddaviylik hukmron dinga aylandi. Ilk davrlarda uning tarkidunyochilik g`oyasi, ya`ni dunyoviy istaklardan vos kechish va ruhni poklashga yo'naltirilgan to`g`ri axloq-odob yo`lidan borish alohida ahamiyat kasb eta boshladi.

Tarkidunyochilikni targ`ib etish Silla shohining maslahatchisi bo`lgan va davlat nazariyasiga aylangan "Sakkiz narsadan vos kechish" dasturini ishlab chiqqan

ruhoniy Xeryana nomi bilan bog`liq. Ularga quyidagilar kirar edi: "Tirik jonzotni o`ldirmaslik, o`g`rilikka qo`l urmaslik, dangasalik va bemani narsalarga qo`l urmaslik, so`zlashuvda bemulohazalik, xulqda nokamtarlik, ichkilikka berilmaslik, hushboy hidlardan foydalanmaslik, gullardan uzoq yurish, rohatlanishdan o`zini tiyish". Buddaviylikning asosiy g`oyasi hayotning azob-uqubat ekanligi va undan qutilish yo`llari borligi haqidadir. Koreyada Zen buddaviylik juda mashhur bo`lib, u meditatsiya va ichki tinchlikka urg`u beradi. Asosiy ta`sirlari quyidagicha: axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, monastir madaniyatini rivojlantirish, san`at va me`morchilikka ta`sir qilish.

Konfutsiyachilik - qadimiy Choson davrida kirib keldi. 372-yilda Koryo davlati zodagonlarioilalar ta`lim oladigan txekak nomli konfutsiyachilikning oliy maktabi tashkil etildi. Bular bilan bir qatorda oddiy xalq uchun kendan nomli konfutsiyachilik maktablari turli viloyatlarda faoliyat ko`rsatib keldi. IV asrda konfutsiyachilik Pekchega, VI asrda esa Sillaga ham kirib bordi. Bu davrda konfutsiyachilikning asosi xudoning kuch-qudrati va barcha narsa va hodisalar boshqaruvchisi sifatida osmonga sig`inish kuchayib bordi. Ota-onaga hurmat, shohga xalqining sadoqati, kichiklarning kattalarga bo`ysunishi, ayolning erini hurmat qilishiga asoslangan konfutsiyachilik bu davrga kelib davlat qurilishi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning asosiga aylandi. Hurmat tushunchasi butun jamiyatga singib bordi. Oiladan tortib butun davlat miqyosida, natijada davlat-oila degan ijtimoiy model shakllandi.

Daosizm - xitoy faylasuflari Lao-szi va Chjuanszi ta`limoti hisonlanadi. Koreya yarimoroliga VII asrdan boshlab kirib kelgan. Daosizmga ko‘ra, dunyo asosida bosh negiz sifatida Ki("Si"-xitoy daosizmida) hamda hayotning harakat va o‘zgarish qonuni Do ("Dao" - "yo‘`l" xitoy daosizmida) yotadi. Barcha narsalar doimiy o‘zgarishdadir. Pekche hukmdori Koryoga bosqinchilikni takrorlaganida uning qo‘mondoni Mak Go Xe bostirib bormasdan ilgari shu bilan chekinishni taklif etgan va bu fikrni shunday asoslagan:" Bizga qadimdan daolarning quyidagi rivoyati ma'lum:" Agar me`yorni bilsang uyat emas, vaqtida o`zingni to`xtata olsang xavf mavjud emas. Biz endi ko`p narsaga ega boldik, biz yana ham ko`p talab qilishimiz lozimmi?". Daosizm asta sekin kuchayib bordi. Unga buddaviylik va konfutsiyachilikning muhim bir tarmog`i deb qarala boshlandi. "Uch davlatning tarixiy yilnomalari" daosizmning ta`sir kuchi haqida shoh saroyi amaldorlari birining tilidan shunday munosabat bildiriladi: "...Uch muqaddas ta'limot bamisoli qozonning uch oyog‘i, uning hatto bittasi bo‘lmasa ham bilinadi".





Shamanizm-eng qadimgi diniy-falsafiy an`analari bo'lib, u tabiat, ruhlar va ajdodlarga sog'inishga asoslangan. U uzoq asrlar davomida buddaviylik, konfutsiychilik va daosizm ta`sirida rivojlangan bo'lsada, hozirgi kunda ham madaniy va diniy jihatdan muhim ro'l o'ynaydi. Tabiat hodisalari va ruhlarga ishonch asosida rivojlangan. Odamlar tog'lar, daryolar va daraxtlarning muqaddasligini tan olib, ularning ruhlari bilan aloqa qilishni shamanlar orqali amalga oshirgan. Shaman-xudodan marhamat oladigan, o'sha xudoga xizmat qiladigan va odamlarning kelajagini bashorat qiladigan odam. Xudoning marhamatini olish uchun shaman xudoning kuchini qabul qilish va Xudo bilan muloqot qilish jarayoniga ishora qiladi. Bu yerda tilga olingan Xudo odatda o'lgan ajdodlarning ruhiga ishora qiladi. Vazifasi Xudoning odamlarga aytganlarini yetkazish bo'lgan odam shaman deyiladi.

Konfutsiychilik davlat mafkurasi sifatida qabul qilinganidan keyin shamanizm rasmiy darajada siqib chiqarilgan. Biroq u xalq orasida saqlanib qolgan va ayniqsa, qishloq hududlarida keng tarqalgan. Shamanlar tabib, bashoratchi va marosim o'tkazuvchi sifatida faoliyat yuritgan. Odamlarning hayotiga ta'sir qiluvchi ruhlar bor deb hisoblanadi shamanizmda va insonlar va tabiat o'rtasida muvozanatni saqlash muhim sanaladi. Yomon energiyalarni haydash va baraka chaqirish uchun maxsus marosimlar o`tkaziladi. Shamanlar odatda ayollar bo`lgan.

Ularning asosiy vazifalari: kasalliklarni davolash, baxtsizlik va yomon energiyani haydash, ajdodlar ruhlarini xotirlash va ularni tinchlantirish, bashorat qilish va kelajak haqida maslahat berish. Gut-bu Koreya shamanizmidagi eng muhim marosim bo'lib, unda maxsus qo'shiqlar, raqslar va qurbonliklar orqali ruhlar bilan aloqa o'rnatiladi.

Mashhur shamanistik marosimlar quyidagilar:

- Naerim-gut- yangi shaman tayinlash marosimi.
- Ssitgim-gut-o'liklarning ruhini poklash.
- Dodang-gut-qishloq va shaharlarga Baraka tilash uchun o'tkaziladi.





Marosimlar davomida shamanlar an`anaviy kiyimlar kiyib, maxsus musiqa va raqslar orqali trans holatiga kirishadi. Bu orqali ular ruhlar bilan muloqotga kirishib, muammolarni hal qilishga harakat qilishadi. Hozirgi kunda Koreyada shamanism rasmiy din sifatida qabul qilinmagan bo'lsa-da u xalq orasida kebg tarqalgan. Saju yoki fol ochish Koreya jamiyatida hali ham mashhur. Shuningdek, shamanistik marosimlar turistik diqqatga sazovor joylardan biri sifatida saqlanib qolgan. Koreya kinosi va k-dramalarida shamanism keng yoritilgan. "The Wailing", "Hotel Del Luna", "Tale of nine Tailed" kabi mashhur dramalarda va filmlar shamanizmga oid syujetlarga ega.

Xulosa. Koreya falsafasi asosan Konfutsiychilik, Buddizm va Daoizm ta'sirida shakllangan bo'lib, u jamiyat hayoti, axloqiy qadriyatlar va tabiiy uyg'unlikni chuqur aks ettiradi. Ushbu falsafa insonning o'ziga, oilasiga va jamiyatga bo'lgan munosabatini tartibga solishga qaratilgan. Koreya falsafasi o'zining muvozanat va uyg'unlik tamoyillariga asoslanganligi bilan qadrlidir. Konfutsiychilik odob-axloq va ijtimoiy tartibni, Buddizm ma'naviy tinchlik va ruhiy kamolotni, Daoizm esa tabiat bilan uyg'unlikni targ'ib qiladi. Shuningdek, shamanizmning qadimiy ta'siri ham sezilarli bo'lib, Koreya madaniyatida ruhiy an'analar va marosimlarda saqlanib qolgan.

Koreya falsafasi g'arb va sharq an'analarining muvozanatini saqlagan boy ma'naviy tizim bo'lib, u zamonaviy jamiyatda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U insonning ichki tinchligi, jamiyatdagi o'rni va tabiat bilan bog'liqligini tushunishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Koreya jamiyatida hanuzgacha hurmat, odob-axloq va oilaviy qadriyatlarning yuqori o'rinda turishi ushbu falsafiy tamoyillarning uzoq yillar davomida saqlanib qolganidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. M.A.Ahmedova, V.S.Xan - "Koreya falsafasi".
2. F.Qarshiyeva "Koreys afsonalaridagi mifologik obrazlar".
3. "Korean shamanizm". (en.wikipedia.org).
4. N.Shermuhammedova "Falsafa".
5. V.S. Xan "Koreya tarixi".

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

Ibodullayev Asadbek
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat yo'nalishi
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim 1-kurs talabasi
Ilmiy rahmar:**Mirahmedova Shohida Nusratullayevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Jamiyat rivojlanishining zamonaviy davri axborotlashtirish jarayoni bilan ajralib turadi. Bugungi axborot davrida har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning tafakkuri va siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo'lib kelmoqda. Jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiya, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlarida axborotning ahamiyati, xususan, axborot erkinligi va ochiqligi masalasi shaxs, jamiyat va davlat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy axborot tizimining shakllanganligi har qanday mamlakatning salohiyati va taraqqiyotini belgilovchi omil bo'lib sanalmoqda.

Kalit so'zlar: axborot, jamiyat, mediatizatsiya, kompyuterlashtirish, intellektualizatsiya, axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat.

Kirish. "Axborotlashgan jamiyat" tushunchasi XX asrning oxiri - XXI asrning boshlarida dunyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, va tabiiy hayotda yuz berayotgan global o'zgarishlarni aks ettiradi. Bu tushuncha axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ulardan foydalanishning kengayishi natijasida paydo bo'lgan jamiyat shaklidir.

Xo'sh axborotlashgan jamiyat nima? Bu savolga o'zbek tilida nashr etilgan adabiyotlarda: "Axborotlashgan jamiyat- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga ishlov berish, saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazish bilan bog'liq bo'ladigan jamiyat", "axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishda mehnat qiluvchilarning, fan va madaniyat vakillarining axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo'lmish, dunyoviy bilimlar majmuini shakllantirish, yaratish, saqlash, qayta ishlash va xalqaro bozorda sotishni amalga oshirish bilan mashg'ul bo'lgan jamiyatdir", "Axborotlashgan jamiyat - ko'pchillik ishlovchilarning axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, kayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan jamiyatdir", - degan ta'riflar berilgan.

Axborotlashgan jamiyatni ijtimoiy fenomen tarzda tushuntirib berish masalalari D.Bell, A.Toffler, M. Kastels, U.Rostou, P.Draker, J.Gelbreyt, F.Uebster,

I.Masuda kabi olimlarning asarlarida mufassal bayon qilingan. "Axborolashgan jamiyat" atamasi dastlab Yaponiyada vujudga kelgan. Yapon faylasuf olimi Y.Xayashi 1969-yilda Yaponiya hukumatiga "Yaponiya axborotlashgan jamiyat bardamligi siyosatiga chizgilar", 1971-yili "Axborotlashgan jamiyat rejasi" kabi tadqiqotlarni taqdim qiladi. 1971-yildan boshlab mazkur tushuncha ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qo'llanila boshladi.

Demak, axborotlashgan jamiyat tushunchasini birinchi bo'lib fanga Tokio texnologik universitetining professori Y.Xayashi kiritgan. Uning fikricha, moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch qismdan tarkib topadi: mediatizatsiya (lot.mediatus - vositachi) - axborot to'plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni; kompyuterlashtirish - axborot izlash va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni intellektualizatsiya - axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni.

Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni zamonaviy axborot-texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilma va jarayonlarni takomillashtirish deb talqin qilish lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektualizatsiya jarayonlari bilan uyg'un holda bo'lishi kerak. Zotan, bu shaxs va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. Axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan moddiy omillar bilan emas, balki ma'naviy omillar - bilim va axborot birinchi o'rinda turishi bilan tubdan farq qiladi. Jamiyatni axborotlashtirishning birinchi bosqichi axborotni ishlab chiqarishdir. Bu bosqichda axborot tizimlarini, platformalarini va vositalarini rivojlantirish, axborotlarni to'plash, tahlil qilish, va qayta ishlash imkoniyatlarini yaratishni o'z ichiga oladi. Bunday bosqichda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ulardan foydalanishning kengayishi muhimdir.

Keyingi bosqich "ishlov berish"dir. Bu bosqichda axborotning ma'lumotlar bilan ishlovchi tizimlar, dasturlar yoki odamlar orqali muayyan maqsadlar uchun ishlatilishi kengayadi. Bu bosqichda avtomatlashtirilgan tizimlar, ma'lumotlar bazalari, axborot omborlari, va boshqa vositalar ishlab chiqariladi va qo'llaniladi. Saqlash bosqichi axborotning muhafaza qilinishini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda muhim ma'lumotlar, axborotlar, va ma'lumotlar bazalari maxfiy, ogohlantirilgan, yoki erkinlik huquqlariga ega bo'lgan shaklda saqlanadi. Bu saqlash jarayonida xavfsizlik, maxfiylik, va ma'lumotlarni himoyalash muhim ahamiyatga ega. Oxirgi bosqich jamiyat a'zolariga yetkazishdir. Bu bosqichda axborot va ma'lumotlar muayyan o'rgangan, ishlovchi, yoki iste'mol qiluvchilar, so'ng jamiyat a'zolariga yetkaziladi. Bu jamiyat a'zolariga axborotlarni o'rganish, ularni ma'lumotlarga

muayyan maqsadlar uchun qo'llash, va ularning qabul qilishlari va amal qilishlari uchun zarur axborotlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Xulosa. "Axborotlashgan jamiyat"ning ko'pchilik ishlovchilarning oliy shakli, ya'ni bilim ko'nikmalarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan bog'liq bo'lgan jamiyatga aylanishi bu jarayonlarni amalga oshirishga ega.

Bu jarayonlar esa axborot va bilimning o'zaro almashishini, yangi bilimlar va texnologiyalar yaratishni, ularni saqlash va ulardan foydalanishni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

REFERENCES

1. Christer Keller Der Begriff "Globale Informations gesells chaft "Dissertation zur Erlangung des Grades Dr. rer.pol. Colloqium: 11.06.1998 12-bet
2. Daphne R. Raban, Avishag Gordon , Dorit Geifman THE INFORMATION SOCIETY Article in Information Communication and Society · April 2011 5-bet 3. Мухамеджанова Л.А. (2021). РОЛЬ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ. Вестник Евразийского национального университета имени Л. Н. Гумилева. Серия: Исторические науки. Философия. Религиоведение, (2 (135)), 123-133.
4. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79).
5. Akhmedov, B. A., Eshnazarova, M. Yu., Rustamov, U. R., Xudoyberdiyev, R. F. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process.
mumkin.

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Yakubov Husniddin Muxitdinovich
CHirchiq Davlat Pedagogika Universiteti „Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi''
Ro'ziqulova Mushtariy Baxtiyor qizi
CHirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
mushtariyroziqulova0@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning hayotidagi o'rni va yoshlar ongiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy tomonlari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Internet, telegram, facebook, you tube, Instagram, media, yoshlar.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, internet va raqamli texnologiyalardan nafaqat ma'lumot olish va odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyatlarini yaratdi, balki ularning yoshlar ongiga ta'siri ham tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish, ularning fikr va dunyoqarashlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning turi juda ham ko'p. „Media'' so'zi ilovalar to'plamini bildiradi(Facebook , Twitter, Telegram, Instagram, You tube va hokazo) va ijtimoiy tarmoq orqali har qanday voqea haqida ma'lumot va xabarlarni almashish uchun odamlarni bog'laydigan web-saytlar. 21-asrning boshidan boshlab ijtimoiy media davom etmoqda. Turli yosh guruhlariga mansub odamlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Ijtimoiy tarmoqlar hayotda muhim ro'l o'ynaydi.Axborot texnologiyalari(IT) turmush darajasini o'zgartirdi. Ushbu vositalar o'zaro ta'sirning bir necha usullarini va butun dunyo bo'ylab chet tillarini o'rganish uchun turli xil imkoniyatlarni taqdim etadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyo global qishloqqa aylandi. Foydalanuvchilar bir necha soniya ichida boshqa odamlar bilan bog'lanib, o'z fikrlarini baham ko'rishlari va video-konferensiyalar orqali sharhlar berishi mumkin.

1.Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida global kommunikatsiya va axborot almashishning eng keng tarqalgan vositasi bo'lib qolmoqda. Yoshlar o'zlarining hayotlari, qiziqishlari va muammolarini boshqalar bilan fikr almashish orqali zamonaviy dunyo bilan hamohang bo'lishadi. Ijtimoiy tarmoqlar, shu bilan

birga,yoshlarning hissiy va psixologik holatiga ta'sir etib, ularning hayot tarzini shakllantiradi.

2.Ijobiy ta'sirlar. Axborot olish va o'zini rivojlantirish.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun katta axborot manbai hisoblanadi. Ular turli sohalarda yangi bilimlarga ega bo'lish, bilim va ma'lumotlarni tezda olish imkoniyatiga ega. Ilmiy maqola, ta'lim resurslari, motivatsion videolar orqali o'zlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Yangi do'stlar orttirish va ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun yangi odamlar bilan tanishish, dunyoning turli burchaklaridan do'stlar orttirish imkoniyatini yaratadi. Ular o'zlarini erkin ifoda etish, boshqa madaniyatlarni o'rganish va global jamoalarga qo'shilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Kreativlik va o'zini ifodalash:

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun kreativ fikrlarni va g'oyalarni namoyish etish, san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishni oshirish imkoniyatini yaratadi. Yoshlar o'zlarini turli platformalarda-Instagram,You tube,Tik tok kabi tarmoqlarda tanitish va o'z ijodiy ishlarini namoyish qilish orqali dunyo bo'ylab tanilishadi.

3-Salbiy ta'sirlar

Psixologik salbiy ta'sirlar:

Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda mukammal tasvirlar, "ideal" hayotlar va muvaffaqiyatlarni ko'rish yoshlarning o'zini past baholashiga olib kelishi mumkin. Yoshlar orasida o'zini qiyoslash va kamchiliklarni ko'rish holatlari keng tarqalgan. Bu esa depressiya, xavotir va o'zini izlash kabi psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Vaqtni sarflash va ijtimoiy izolyatsiya:ijtimoiy tarmoqlarga sarflanadigan vaqt yoshlarning o'qish, sport va boshqa foydali faoliyatlaridan chalg'ishiga olib kelishi mumkin. Bu o'z navbatida, ijtimoiy aloqalar va real dunyo bilan aloqalarni zaiflashtirishi mumkin.

Axborotning to'g'riligi va manipulyatsiya:ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab noto'g'ri yoki manipulyativ axborotlar tarqaladi. Yoshlar bunday axborotlardan asosan bexabar bo'lishi mumkin, bu esa ularni manipulyatsiya qilishga olib keladi. Yolg'on axborot yoki noto'g'ri fikrlarni qabul qilish yoshlarning qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqmoqlarda kiberbuli(onlayn zo'ravonlik)yoshlar orasida keng tarqalgan. Bu, o'z navbatida, ruhiy salomatlikni yomonlashtirishi, ishonchni yo'qotishga va depressiyaga olib kelishi mumkin.

Jismoniy va psixologik salomatlik:uzoq vaqt davomida ekran qarshisida vaqt o'tkazish yoshlarning jismoniy va psixologik salomatligiga ta'sir qilishi mumkin, masalan, ko'z kasalliklari, yomon uyqu va stressni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kun nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo'lsak , bugun hatto bog'cha tarbiyalanuvchisi ham mobil telefondan, undagi turli xil ilovalardan va internetdan bemalol foydalanayotganini guvohi bo'lib turganimiz hech kimga sir emas. Katta-yu kichik orasida internetdan foydalanuvchilar, vaqtini ko'proq u bilan o'tkazuvchilar ortyapti. Kelajak hayotni internet va yuqori tehnologiyalarsiz tasavvur etish juda mushkul. Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanishadi. Shu sababli, ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalalarga munosabat bildirishadi. Biroq bildirilgan fikrlarning ham hammasini saviyali deb bo'lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ongiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijtimoiy,psixologik va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, ba'zan salbiy ta'sirlar, masalan, psixologik muammolar, yolg'izlik va noto'g'ri axborotlar ta'siri ostida qolishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish, yoshlarning ma'naviy va psixologik sog'lig'iga zarar yetkazmasdan, ijobiy rivojlanishlariga yordam beradi. Bu masalada ota-onalar, ta'lim muassasalari va davlatlar ham o'z o'rnini topib, yoshlar uchun foydali va xavfsiz virtual muhit yaratishlari zarur. Yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo'yicha ongli yondashuv va nazorat qilish ta'sirning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

REFERENCES

1.Eldarov.A (2021).Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar:Psixologik ta'sirlar.
2.Yunosova.M (2022).Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar psixologiyasi.
3.Mirzayeva.L (2020) .Ijtimoiy tarmoqlar va axborot madaniyati:yoshlar orasidagi omillar.
4.Kasimov .T (2021).Axborot texnologiyalari va yoshlar ongiga ta'siri.
5.Qo'shimcha adabiyotlar.

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
maktabgacha ta'lim rus/gurpa 24/5

IJTIMOIY MEDIA SHAKLLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy media shakllarining turlari, rivojlanish tarixi va ularning jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Ijtimoiy media zamonaviy kommunikatsiya vositasi sifatida insonlarning axborot almashinuvi, fikr bildirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonidagi ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqot davomida ijtimoiy media platformalarining xususiyatlari va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri amaliy misollar asosida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy media, kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, axborot almashinuvi, media texnologiyalar.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются типы социальных сетей, история их развития и роль в обществе. Влияние социальных сетей как современного средства коммуникации на процесс обмена информацией, выражения мнений и формирования общественного мнения широко освещается. Исследование иллюстрирует характеристики социальных сетей и их влияние на общественную жизнь на практических примерах.

Ключевые слова: социальные медиа, коммуникация, социальные сети, обмен информацией, медиатехнологии.

ANNOTATION

This article analyzes the types of social media forms, the history of their development and their role in society. The impact of social media as a modern means of communication on the process of exchanging information, expressing opinions and forming public opinion is widely covered. During the study, the characteristics of social media platforms and their impact on social life are shown based on practical examples.

Keywords: social media, communication, social networks, information exchange, media technologies.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy media jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan birga, ijtimoiy media platformalari insonlarning kundalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy media vositalari axborot almashinuvi jarayonini osonlashtirib, odamlarning o'zaro muloqotini yangi bosqichga olib chiqdi.

Ijtimoiy media kommunikatsiya jarayonlarida nafaqat axborot almashish vositasi, balki fikr-mulohazalar, jamoatchilik fikri va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada ijtimoiy media shakllarining turlari, xususiyatlari va jamiyat hayotiga ta'siri keng yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy media bo'yicha tadqiqotlar so'nggi yillarda keng rivojlandi. D. McQuail[26] (2005) ommaviy axborot vositalari nazariyasida ijtimoiy media turlarini o'rganib, ularning jamiyat hayotidagi o'rnini tahlil qilgan. S. Kaplan[27] va M. Haenlein[28] (2010) ijtimoiy media platformalarining tasniflanishi va funksional xususiyatlarini taqdim etgan.

- Ijtimoiy media shakllari quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi:
- Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram);
- Mikrobloglar (Twitter);
- Video platformalar (YouTube, TikTok);
- Bloglar va forumlar (WordPress);
- Professional tarmoqlar (LinkedIn);
- Xabar almashish ilovalari (WhatsApp, Telegram).

Tahlil natijalariga ko'ra, har bir platforma o'ziga xos kommunikatsiya usullarini taqdim etadi va ularning samaradorligi foydalanuvchilarning maqsadlariga bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amaliy ish sifatida o'quvchilar va yoshlar orasida ijtimoiy media platformalaridan foydalanish bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eng ommabop platformalar Instagram, Telegram va TikTok ekani aniqlandi. Respondentlarning 60% ijtimoiy mediadan axborot olish, 30% muloqot qilish va 10% ko'ngilochar maqsadlarda foydalanadi.

- Amaliy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:
- Yoshlarning aksariyati ijtimoiy mediadan kunlik foydalanadi;
- Ijtimoiy media platformalari axborot olishning asosiy manbai hisoblanadi;

[26] McQuail D. "Mass Communication Theory" – London, 2005.

[27] Kaplan A. M., Haenlein M. "Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media" – Business Horizons, 2010.

[28] Boyd D. M., Ellison N. B. "Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship" – Journal of Computer-Mediated Communication, 2007.

- Jamoatchilik fikrini shakllantirishda ijtimoiy mediada tarqatilayotgan ma'lumotlarning ta'siri katta.

XULOSA

Ijtimoiy media zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvi va kommunikatsiya jarayonlarining muhim vositasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy media platformalari nafaqat axborot olish vositasi, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Platformalarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari foydalanuvchilarning ehtiyojlariga qarab tanlanadi.

Kelgusida ijtimoiy media ta'sirining ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. McQuail D. "Mass Communication Theory" – London, 2005.
2. Kaplan A. M., Haenlein M. "Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media" – Business Horizons, 2010.
3. Boyd D. M., Ellison N. B. "Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship" – Journal of Computer-Mediated Communication, 2007.
4. Castells M. "The Rise of the Network Society" – Oxford, 2010.
5. Jenkins H. "Convergence Culture: Where Old and New Media Collide" – New York, 2006.

IJTIMOIY O'ZGARISHLAR VA RIVOJLANISH

Komilov Abdulaziz
ToshDTU Olmaliq filiali 1k-22 MET guruh talabasi
abdulaziz03komilov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy o'zgarishlar mohiyati, sabablari va ularning ta'siri keng yoritilgan. Ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axloqiy sohalariga ta'sir etishi, insonlarning hayot tarzini shakllantirishi qayd etilgan. Maqolada texnologik rivojlanish, iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy islohotlar hamda madaniy harakatlar kabi omillar ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy sabablari sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, bu o'zgarishlarning ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirishi ta'kidlanadi. Muallif jamiyatda ijtimoiy o'zgarishlarni anglash, boshqarish va faol ishtirok orqali rivojlanishga erishish muhimligini asoslab beradi.

Jamiyat doimiy o'zgarish va rivojlanish jarayonida bo'ladi. Ijtimoiy o'zgarishlar – bu jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axloqiy sohalarida yuz beradigan o'zgarishlarni anglatadi. Bu o'zgarishlar odamlarning turmush tarzini, qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlarni, tizimlarni va institutlarni shakllantiradi. Ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatda yangi imkoniyatlar yaratadi, ammo shu bilan birga ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Jamiyatning rivojlanishi va o'zgarishi ijtimoiy tizimlarning, individual hayotning, va butun xalqning kelajagini shakllantiradi.

1. Ijtimoiy O'zgarishlar Tushunchasi

Ijtimoiy o'zgarishlar – bu jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va uning a'zolarining ijtimoiy aloqalaridagi uzluksiz o'zgarishlardir. Jamiyat doimo o'zgarishlarga duchor bo'ladi, bu o'zgarishlar kichik ijtimoiy guruhlardan tortib, butun jamiyatni qamrab oladi. Ijtimoiy o'zgarishlar odatda iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va texnologik rivojlanishlar bilan bog'liq. Ijtimoiy o'zgarishlar nafaqat jamiyatning strukturaviy o'zgarishlarini, balki uning qadriyatlarining, norma va an'analarining ham o'zgarishini anglatadi.

Ijtimoiy o'zgarishlar ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

Texnologik rivojlanish yangi imkoniyatlar yaratadi va ijtimoiy tizimlarni o'zgartiradi.

Iqtisodiy o'zgarishlar yangi ish imkoniyatlari yaratishi, iqtisodiy resurslarni taqsimlashni o'zgartirishi mumkin.

Siyosiy islohotlar demokratik jarayonlarning rivojlanishi va yangi siyosiy tizimlar, jamiyatni boshqarishning yangicha usullarini taqdim etadi.

Madaniy va ijtimoiy harakatlar qadriyatlar va urf-odatlarning o'zgarishiga olib keladi.

2. Ijtimoiy O'zgarishlar Sabablari

Ijtimoiy o'zgarishlar turli omillar tufayli yuzaga keladi. Ular quyidagicha turlanishi mumkin:

Texnologik O'zgarishlar: Texnologiyaning rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga ta'sir qiladi. Masalan, sanoat inqilobi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiyot, mehnat bozorini va odamlarning turmush tarzini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar jamiyatda yangi ijtimoiy tarmoqlarni yaratmoqda va eski mehnat bozorlari va ishlab chiqarish usullarini o'zgartirmoqda. Texnologiyaning rivoji bir tomondan samaradorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan, yangi ijtimoiy tengsizliklarni va muammolarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy O'zgarishlar: Iqtisodiy tizimlar o'zgarganda, bu jamiyatdagi resurslarni taqsimlashga ta'sir qiladi. Masalan, sanoat inqilobi yoki globalizatsiya kabi iqtisodiy o'zgarishlar, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, ammo shu bilan birga mavjud iqtisodiy tengsizliklarni ham kuchaytiradi. Xususan, kapitalizmning rivojlanishi shaxsiy erkinliklar va bozorlar orqali ijtimoiy munosabatlarni shakllantirgan, ammo bu tizimda ijtimoiy adolatni ta'minlash ko'pincha muammo bo'lib qolgan.

Siyosiy Islohotlar: Siyosiy o'zgarishlar jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmani va boshqaruv tizimini qayta shakllantirishi mumkin. Demokratik tizimlarning rivojlanishi va totalitar rejimlarning tugatilishi, hukumatning jamiyatdagi roli, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan siyosiy islohotlar jamiyatda yangi qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni yaratadi.

Madaniy O'zgarishlar: Madaniy o'zgarishlar jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlari va an'analaridagi o'zgarishlarni ifodalaydi. Madaniy inqiloblar va ijtimoiy harakatlar – bu yangi g'oyalar va dunyoqarashlarning jamiyatga kirib borishi va eski ijtimoiy tizimlarga qarshi kurashishidir. Masalan, feministik va inson huquqlari harakatlari jamiyatdagi jinsiy va ijtimoiy tenglikni targ'ib qilishga olib keldi.

3. Ijtimoiy O'zgarishlarning Ta'siri

Ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tuzilmalari, odamlarning o'zaro munosabatlari va hayot tarziga.

Iqtisodiy Ta'sirlar: Ijtimoiy o'zgarishlar iqtisodiyotda yangi bozorlar, ish o'rinlari va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratadi. Biroq, ba'zi hollarda bu o'zgarishlar ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytiradi va iqtisodiy nohaqlikni keltirib

chiqaradi. Misol uchun, globalizatsiya rivojlanishi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni yanada oshirdi.

Siyosiy Ta'sirlar: Siyosiy islohotlar jamiyatdagi hukumat tizimlari, qonunlar va siyosiy normalarni o'zgartiradi. Demokratiyaning rivojlanishi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi, ammo shuningdek, yangi siyosiy to'qnashuvlar, ijtimoiy ixtiloflar va bosimlarni ham keltirib chiqaradi.

Madaniy Ta'sirlar: Madaniy o'zgarishlar jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashlarini yangilaydi. Masalan, ijtimoiy harakatlar orqali ijtimoiy tenglik va huquqlarni himoya qilishdagi muvaffaqiyatlar madaniy muhitni o'zgartiradi, bu esa odamlarning ijtimoiy munosabatlari va hayot tarzini shakllantiradi.

Ijtimoiy Ta'sirlar: Ijtimoiy o'zgarishlar ijtimoiy strukturani, oilaviy va mehnat munosabatlarini o'zgartiradi. Mehnat bozori va oilaviy tuzilma kabi ijtimoiy tizimlar rivojlanadi va o'zgaradi. Ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatning turli qatlamlari orasidagi aloqalarni o'zgartiradi, yangi tengliklar yaratadi yoki mavjud ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytiradi.

4. Ijtimoiy O'zgarishlarni Anglash va Yuzaga Keltirish

Ijtimoiy o'zgarishlar har doim ixtiyoriy ravishda amalga oshmaydi. Ba'zi o'zgarishlar tabiiy rivojlanish natijasida yuzaga keladi, boshqalari esa ijtimoiy harakatlar, siyosiy islohotlar va jamoat faoliyati orqali keltirib chiqariladi. Jamiyatda ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun quyidagi yondashuvlar zarur bo'lishi mumkin:

Siyosiy Islohotlar: Siyosiy tizimlarni yaxshilash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni tezlashtirishi mumkin.

Ijtimoiy Harakatlar: Jamiyatdagi muammolarni hal qilish uchun ijtimoiy harakatlar zarur. Bu harakatlar, masalan, feministik harakatlar, inson huquqlari va ekologik harakatlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim va Ma'rifat: Ta'lim jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Odamlarni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha ongli qilish, yangi qadriyatlar va g'oyalarni tarqatish ijtimoiy o'zgarishlarni tezlashtiradi.

Xulosa

Ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatning kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin shu bilan birga, ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy o'zgarishlarni anglash, boshqarish va amaliyotga tatbiq etish jamiyatning doimiy ravishda rivojlanishi uchun

zarurdir. Har bir jamiyat o'zgarishga ochiq bo'lishi va yangi muammolarga yechim topish uchun yangiliklarga tayyor bo'lishi kerak.

REFERENCES

1. Giddens, A. (2013). *Sociology*. 7th ed. London: Polity Press.
2. Ritzer, G. (2011). *Sociology: A Multiple Paradigm Science*. 9th ed. New York: McGraw-Hill.
3. Ulrich Beck, (2000). *Risk Society: Towards a New Modernity*. London: Sage.
4. Kaldor, M. (2003). *Global Civil Society: An Answer to War*. Cambridge: Polity Press.
5. Bauman, Z. (2007). *Liquid Modernity*. Cambridge: Polity Press.
6. Castells, M. (1996). *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell.
7. Fukuyama, F. (1992). *The End of History and the Last Man*. New York: Free Press.
8. Marx, K., & Engels, F. (2002). *The Communist Manifesto*. London: Penguin Classics.
9. Durkheim, E. (2014). *The Division of Labour in Society*. New York: Free Press.
10. Weber, M. (2002). *The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism*. London: Routledge.

IJTIMOIY TARMOQLARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Abdurahmonova Laylo Raxmiddin qizi, Hamitova Zebiniso Bahtiyor qizi
Ilmiy rahbar: **Samarbek Eronov**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabalari
abdurahmonovalaylo289@gmail.com
hamitovazebi002@icloud.com

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ta'siri turli ilmiy nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi. Zamonaviy dunyoda internet va ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiya vositasi sifatida inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, ularning inson ruhiyati, xotira, diqqat, chuqur fikrlash va ijodiy qobiliyatga ta'siri bo'yicha bahslar davom etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish depressiya, xavotir va stress darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, internetning inson tafakkurini kengaytirishi, axborotga tezkor kirish imkoniyatini yaratishi va ta'lim jarayonida foydali bo'lishi ta'kidlanadi. Maqolada turli mutaxassislarning, jumladan, Nicholas Carr, Ramesh Sitaraman, Steven Pinker kabi olimlarning ijtimoiy tarmoqlarning inson miyasi va psixologiyasiga ta'siri haqidagi fikrlari yoritiladi. Shuningdek, turli ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, psixologik ta'sir, internet, ruhiy holat, depressiya, xavotir, stress, diqqat, xotira, tafakkur, axborot iste'moli, texnologik ta'sir, ilmiy tadqiqotlar, Nicholas Carr, Ramesh Sitaraman, Steven Pinker.

Abstract: This article analyzes the psychological impact of social networks from various scientific perspectives. In the modern world, the internet and social media have become an integral part of human life. However, debates continue regarding their effects on mental health, memory, attention, deep thinking, and creativity. Research findings indicate that excessive use of social media can increase levels of depression, anxiety, and stress. At the same time, it is highlighted that the internet can expand human cognition, provide quick access to information, and be beneficial in education. The article presents the opinions of various experts, including scholars such as Nicholas Carr, Ramesh Sitaraman, and Steven Pinker, on the effects of social networks on the human brain and psychology. Additionally, it discusses the positive and negative aspects of social networks based on various scientific research findings.

Keywords: social networks, psychological impact, internet, mental health, depression, anxiety, stress, attention, memory, cognition, information consumption, technological influence, scientific research, Nicholas Carr, Ramesh Sitaraman, Steven Pinker.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular axborot almashinuvini tezlashtirib, odamlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ta'siri ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar internet va ijtimoiy tarmoqlar chuqur fikrlash, xotira va ijodkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi, boshqalari esa ularni shaxsiy rivojlanish va o'rganish uchun samarali vosita sifatida ko'radi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ta'siri turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi, ilmiy tadqiqotlar va ekspert fikrlari asosida muhokama qilinadi.

"Kepios raqamli konsalting firmasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, qariyb besh milliard odam yoki dunyo aholisining 60 foizdan sal ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanuvchi hisoblanadi. Unda qayd etilishicha, 2022-yildan buyon ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 3,7 foizga oshgan va butun internet auditoriyasi soniga (5,19 milliard kishi) yaqinlashgan. Odamlarning ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadigan vaqti ham oshib, kuniga o'rtacha 2 soat 26 daqiqani tashkil qildi." Bu raqamlar ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy inson hayotida muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi. Lekin bu jarayon inson psixologiyasiga qanday ta'sir qilmoqda? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt foydalanish insonning ruhiy holatiga, diqqat va xotirasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Oksford universiteti tadqiqotlariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish depressiya va tashvishlanish darajasini oshirishi mumkin.

Turli tadqiqotchilar internetdan foydalanishning psixologik ta'sirini o'rganishga harakat qilishgan. Ba'zi tadqiqotlar uning salbiy oqibatlarini ta'kidlagan bo'lsa, boshqalari aksincha, ushbu o'zgarishlarning foydali jihatlari borligini qayd etishgan. Quyida ulardan ba'zilari bilan tanishib chiqamiz.

Amerikalik yozuvchi Nicholas Carr internetdan foydalanish chuqur fikrlashni kamaytirib, haqiqiy ijodkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. U, shuningdek, giperhavolalar va ortiqcha rag'batlantirish (overstimulation) sababli miya asosan qisqa muddatli qaror qabul qilishga ko'proq e'tibor qaratishi kerakligini aytadi. Carrning fikricha, Jahon tarmog'idagi *(World Wide Web)* juda ko'p ma'lumotlarning mavjudligi miyani ortiqcha yuklab, uzoq muddatli xotiraga zarar yetkazadi. U,

shuningdek, ortiqcha axborot stimullari kognitiv yukni haddan tashqari oshirib, biror narsani eslab qolishni qiyinlashtirishini ta'kidlaydi.[29]

Kompyuter olimi Ramesh Sitaraman internet foydalanuvchilari sabrsiz ekanini va vaqt o'tishi bilan ular yanada sabrsizroq bo'lishini ta'kidlagan.[30] Uning tadqiqotlariga ko'ra, foydalanuvchilar veb-sahifalar yoki videolar yuklanishi uchun atigi bir necha soniya kutishlari mumkin, aks holda ular sahifani tark etishadi. Bu esa diqqatning qisqarishiga, shoshqaloqlik va yuzaki fikrlashning ortishiga olib kelishi mumkin. Internetning tezkor axborot taqdim etish xususiyati inson miyasi tomonidan tezkor javoblar kutish odatini shakllantiradi, bu esa kundalik hayotda ham sabrsizlik va diqqat tarqoqligini oshirishi mumkin. Natijada, uzoq vaqt talab qiladigan vazifalarga yoki chuqur fikrlashni talab qiladigan muammolarga e'tibor qaratish qiyinlashadi.

Biroq, ***psixolog Stiven Pinker*** odamlar nima qilayotganlari ustidan nazoratga ega ekanliklarini va tadqiqot hamda mantiqiy fikrlash inson tabiatiga xos emasligini ta'kidlaydi. U *"tajriba miyadagi asosiy axborotni qayta ishlash qobiliyatini o'zgartirmaydi"* deb aytadi va internet aslida odamlarni aqlliroq qilayotganini ilgari suradi.[31] Pinkerning fikricha, inson tafakkuri doimiy ravishda tashqi omillar, jumladan, texnologik taraqqiyot ta'sirida rivojlanib boradi. Internet ko'plab axborot manbalariga tezkor kirish imkoniyatini yaratganligi sababli, insonlar ma'lumotga asoslangan qarorlar qabul qilishni o'rganmoqda. Uning ta'kidlashicha, internetdan oqilona foydalanish inson tafakkurini chuqurlashtirishga, ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga va mantiqiy tahlil qobiliyatini kuchaytirishga yordam beradi. Shuningdek, u internetning ta'sirini faqat yuzaki ma'lumot iste'moli bilan cheklash noto'g'ri ekanligini, chunki internet odamlarning bilim doirasini kengaytirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkinligini ilgari suradi.

Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internetdan foydalanish o'rta yoshli va katta yoshdagi insonlarning miyaviy faolligini oshirishga yordam beradi.

"Internetda izlash jarayoni murakkab miya faoliyatini ishga soladi, bu esa miyani mashq qildirish va uning funksiyalarini yaxshilashga yordam berishi mumkin."[32] Bu jarayon, ayniqsa, katta yoshdagi insonlarda kognitiv qobiliyatlarning pasayishini sekinlashtirishga yordam beradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra,

[29] "Author Nicholas Carr: The Web Shatters Focus, Rewires Brains | Magazine". Wired.com. 24 May 2010. Retrieved 4 July 2010 https://www.wired.com/magazine/2010/05/ff_nicholas_carr/all/1

[30] "NPR Morning Edition: In Video-Streaming Rat Race, Fast is Never Fast Enough, October 2012". NPR. https://www.npr.org/2013/01/10/168974423/in-video-streaming-rat-race-fast-is-never-fast-enough/

[31] Pinker, Steven (10 June 2010). "Mind Over Mass Media". The New York Times. Retrieved 4 July 2010. https://www.nytimes.com/2010/06/11/opinion/11Pinker.html

[32] "Internet use 'good for the brain'". BBC News. 14 October 2008. http://news.bbc.co.uk/2/hi/7667610.stm

internet orqali ma'lumot izlash va tahlil qilish miya faoliyatini rag'batlantirib, ***xotira, diqqat*** va ***qaror qabul qilish jarayonlarini*** yaxshilaydi. Shuningdek, internetning interaktiv tabiati insonlarni yangi bilimlarni o'rganishga undaydi, bu esa nevrologik moslashuvchanlikni oshiradi. Natijada, muntazam ravishda internetdan foydalanish miyaning muayyan qismlarini faol saqlashga yordam beradi va keksalikda aqliy qobiliyatlarning sustlashishini oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ta'siri.

Ijobiy ta'sirlari:

- Muloqot va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash
- Ta'lim va shaxsiy rivojlanishga ko'maklashish
- Ijodkorlik va o'zini ifoda etish imkoniyati
- Motivatsiya va ilhom manbai
- Tezkor axborot olish

Salbiy ta'sirlari:

- Psixologik bog'liqlik va vaqt isrofi
- Depressiya va tashvishlanish kuchayishi
- Diqqat va xotiraning zaiflashishi
- Yolg'on ma'lumot va manipulyatsiya xavfi
- Real hayotdagi muloqotning kamayishi

Quyida ijtimoiy tarmoqlarning ***stress, ruhiy holat, xavotir*** va ***depressiyaga*** ta'sirini tasdiqlovchi faktlar keltirilgan:

✓ ***2018 yil, Pensilvaniya universiteti tadqiqoti*** – Tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklagan talabalar (kuniga *30 daqiqagacha*) kamroq *depressiya va xavotir* alomatlarini namoyon qilganligini aniqlashdi. Aksincha, ko'p vaqt sarflaganlarda *stress va yolg'izlik* hissi ortgan.

✓ ***Ruhiy holat. 2017 yilda Avstriyalik*** tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tajribada *20 daqiqa* Facebookdan foydalangan foydalanuvchining ruhiy holatida *kayfiyatsizlik, tushkunlik, alamzadalik* paydo bo'lishi aniqlangan.[33] (https://zamin.uz)

✓ ***2019 yil, JAMA Pediatrics tadqiqoti*** – Yoshlar orasida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish *depressiya va o'z-o'zini past baholash* bilan bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, yosh qizlarda bu holat ko'proq kuzatilgan.

✓ ***2020 yil, Kanada ruhiy salomatlik assotsiatsiyasi (CMHA) tadqiqoti*** – Ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazish insonlarda *stress gormoni bo'lgan kortizol*

[33] Zamin. Ijtimoiy tarmoqlarning inson ruhiyati va salomatligiga ta'siri [Elektron resurs]. – 2019-yil 10-aprel. – Rejim kirish: https://zamin.uz

darajasining ortishiga sabab bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Bu esa surunkali stress va xavotirni kuchaytiradi.

✓ ***2021 yil, Britaniya Psixologiya Jamiyati tadqiqoti*** – Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi *"mukammal"* hayot tasvirlari foydalanuvchilarning o'zidan noroziligini oshirib, depressiyaga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, filtrlardan foydalangan suratlarni ko'p tomosha qilgan odamlarda ruhiy tushkunlik yuqori bo'lgan.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik va uning psixologik ta'siri. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari berilish psixologik qaramlik shaklini olishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan doimiy foydalanish dopamin ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, bu esa insonda zavq va mukofot tizimini faollashtiradi. Natijada, foydalanuvchilar muntazam ravishda *yangi xabarlar, layklar va sharhlarni* kutish odatiga o'rganib qoladi, bu esa vaqt o'tishi bilan ruhiy bog'liqlikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning asosiy belgilari quyidagilar:

- Kundalik hayot faoliyatiga halaqit berishi,
- Ish yoki o'qishga e'tibor qaratishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi,
- Ijtimoiy tarmoqlardan foydalana olmaganda bezovtalik yoki asabiylik sezilishi,
- Real hayotdagi muloqotga bo'lgan qiziqishning kamayishi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, ularning psixologik ta'siri murakkab va ziddiyatli masala bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish depressiya, xavotir va stress darajasining ortishiga olib kelishi mumkin, shuningdek, diqqat va xotira kabi kognitiv jarayonlarga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlarning inson tafakkurini kengaytirishi, axborotga tezkor kirish imkoniyatini yaratishi va ta'lim jarayonida foydali bo'lishi mumkinligi ham e'tiborga loyiq. Mutaxassislarning fikricha, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me'yorida foydalanish inson salomatligi va rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarning inson psixologiyasiga ta'sirini boshqarish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1.Daryo. Butun dunyoda besh milliardga yaqin odam ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi ma'lum qilindi [Elektron resurs]. – 2025. – Rejim kirish: https://daryo.uz

2."Author Nicholas Carr: The Web Shatters Focus, Rewires Brains | Magazine". Wired.com. 24 May 2010. Retrieved 4 July 2010 https://www.wired.com/magazine/2010/05/ff_nicholas_carr/all/1
3."NPR Morning Edition: In Video-Streaming Rat Race, Fast is Never Fast Enough, October 2012". NPR. https://www.npr.org/2013/01/10/168974423/in-video-streaming-rat-race-fast-is-never-fast-enough/
4.Pinker, Steven (10 June 2010). "Mind Over Mass Media". The New York Times. Retrieved 4 July 2010. https://www.nytimes.com/2010/06/11/opinion/11Pinker.html
5.Chivers, Tom (21 October 2009). "Internet use 'may improve brain function in adults', says UCLA study". The Telegraph UK. Archived from the original on 6 November 2014. Retrieved 3 April 2018. https://web.archive.org/web/20141106170929/http://www.telegraph.co.uk/science/science-news/6395627/Internet-use-may-improve-brain-function-in-adults-says-UCLA-study.html
6."Internet use 'good for the brain'". BBC News. 14 October 2008. http://news.bbc.co.uk/2/hi/7667610.stm
7. Zamin. Ijtimoiy tarmoqlarning inson ruhiyati va salomatligiga ta'siri [Elektron resurs]. – 2019-yil 10-aprel. – Rejim kirish: https://zamin.uz

TAFAKKUR VA E'TIQOD UYG'UNLIGI

Ikromov Umidjon Ikrom o'g'li
ikromshegaliyev@gmail.com
Orolov Donabek Ibroxim o'g'li
donabeka6@gmail.com
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San'atshunoslik fakulteti
Taviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi globallashuv jarayonlar, inson tafakkuri va e'tiqod uyg'unligi masalalari, globallashuv jarayonlari va ularga atroflicha yechimlar, diniy e'tiqod turlari va atrof muhit, ijtimoiy hodisalar va voqelikni bilish masalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, mustaqilliik, din, dinshunoslik, ta'lim, e'tiqod, tafakkur, jarayon, globallashuv, fan, falsafa

Abstract: This article covers the current globalization processes, issues of human thought and faith harmony, globalization processes and comprehensive solutions to them, types of religious beliefs and the environment, social phenomena and issues of knowledge of reality.

Keywords: Uzbekistan, independence, religion, religious studies, education, belief, thought, process, globalization, science, philosophy

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgach, dastlab milliy ma'naviy tiklanishi siyosatini amalga oshira boshladi. Xususan, demokratik va insonparvar jamiyat qurayotgan O'zbekistonda diniy e'tiqod erkinligi amalga oshirildi. Juda ko'plab masjidlar, madrasalar, diniy maktablar, uyushmalar va jamoalar vujudga keldi, ko'plab diniy adabiyotlar chop etilmoqda, diniy bayramlar, marosimlar, urf-odatlar tiklanib, amal qilmoqda. Bu ma'naviy yangiliklar xalqimizning ruhiyatiga (psixologiyasiga) ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Globallashuv natijasida ro'y berayotgan millatlar, irqlar, dinlararo muloqotning o'ziga xos ahamiyat kasb etishi, dinlarni o'rganish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, kishilik jamiyatining turli tarixiy davrlarida din jamiyatda faqat e'tiqod manbai sifatidagina emas, balki muayyan tabaqalarning boshqa insonlarga ta'sir etish, ularni dunyoga munosabati va turmush tarzini boshqarishga xizmat qiluvchi mafkuraviy vosita vazifalarini o'tab kelgan. Diniy omildan ayrim manfaatparast kuchlar siyosiy maqsadlarda foydalanishi mutaassib diniy harakatlarning vujudga kelishida sabab bo'lgan.

Bugungi zamon haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi. Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek, ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. «globus» – «Yer kurrasi») deb nomlandi. Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. Shuningdek, globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa, u amalda real shaklshamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan, «Buyuk geografik kashfiyotlar» yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda, dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar, pirovard natijada, insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof-muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Globallashuvning serqirraligi dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishida namoyon bo'ladi. Globallashuvning serqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mutlaqo yangi hodisa - jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi.

Falsafada diniy e'tiqod inson hayotining muayyan falsafiy anglash tarzda namoyon bo'lishi, insonning alohida ruhiy, m a'rifiy va hissiy holati sifatida ko'rib chiqiladi. Falsafada Xudo emas, balki u haqidagi tasavurlar asosiy obyekt hisoblanadi. Bunda Xudoning mavjudligi to'g'risidagi bilim muammoga aylantiriladi, u azaldan mavjud va shubhasiz haqiqat bo'lgan bir narsa sifatida qabul qilinmaydi, balki ochib berilishi talab etiladigan narsa sifatida ko'rib chiqiladi. Boshqacha qilib aytganda, falsafa e'tiqodning qonuniyligini yaxlit holda aniqlashga intiladi. Bunda masalaga uni yoqlash yoki betaraf qolish, nigilistik, ateistik nuqtayi nazardan yondashish mumkin. Birinchi holatda tafakkur va e'tiqod munosabatlari muammolariga, tafakkuming diniy e'tiqodlar tizimini asoslashda o'z rolini bajara oladimi yoki yo'qmi degan masalaga alohida e'tibor qaratiladi.Ushbu savollaiga javob berishda turli yondashuvlar mavjud. U yoki bu diniy e'tiqodni tafakkur uchun maqbul bo'ladigan tarzda asoslash zaruriyatini e'tirof etuvchilar keskin yondashuvga tayanadilar. Shu munosabat bilan e'tiqodni ilmiy jihatdan baholashda ratsional uslub imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga chaqiriqlar yangraydi. Bunda diniy dunyoqarashlarni tanqid qilishga yo'l qo'yiladi.

REFERENCES

1. Q. O. Maxkamov Dinshunoslik (uslubiy qo'llanma) - Namangan, 2020. - 156 b.
2. Davronov Z.Primov M.N.Sultonova A. Falsafa o'quv-uslubiy majmua 422 b
3. Z.Davronov, N.Shermuxamedova, D.Fayzixo'jayeva, M.Nurmatova Falsafa (I qism). Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2019, 648 bet
4. M.A. Ahmedova. Falsafa. Toshkent – 2006

YAPONIYADA TA`LIM TIZIMI

Ilhomboyeva Sarvinoz Ravshonbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolamizda Yaponiyadagi ta`lim tizimidagi maktab va maktabgacha ta`lim muassasalari ta'lim tizimi tajribalari tahlil qilindi.

**Kalit so`zlar:** Yaponiya ta`limi, zamonaviy metod, "Yaponiya mo`jizasi".

Yaponiya- rivojlanayotgan davlatlar orasida eng oldi o`rinlarda turadi. Har qanday soha bo`yicha boshqa davlatlarga o`rnak bo`la oladigan mamlakatdir. Jumladan, ta`lim sohasiga etibor qaratadigan bo`lsak, bugungi kunda ko`plab davlatlar yapon ta`limidan qiyos olib o`z ta`lim tizimini yaratmoqda. Mamlakat konstitutsiyasida barcha bolalar bepul ta`lim olishi shart ekanligi belgilab qo`yilgan. Hozirda yapon ta`lim tizimining tarkibi bog`chalar, boshlang`ich maktab, kichik o`rta maktab, yuqori o`rta maktab va oliy ta`lim tizimiga kiruvchi oliy o`quv yurtlaridan iborat. Yaponiya Ta`limni rivojlantirish vazirligining so`nggi e`lon qilgan ma`lumotiga ko`ra jamiyatda 59,9 foiz xususiy maktabgacha ta`lim muassasalarida mavjud bo`lib, qolgan 40,1 foizi davlatga tegishlidir. 1886-yil zamonaviy boshlang`ich maktab tizimi majburiy ta`lim sifatida boshlandi. Keyinchalik, 1908-yilga kelib boshlang`ich ta`lim olti yillikka aylantirildi. Barcha davlat maktablarida o`quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshirilishi belgilandi. Jamiyatda majburiy ta`lim olib boriladi. Boshlang`ich maktab ya`ni, shougakkou: olti yoshdan -o`n besh yoshgacha bo`lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida olti yillik boshlang`ich maktab va uch yillik "chougakkou" ya`ni o`rta maktabni o`taydilar. To`qqiz yillik bu ta`lim majburiy bo`lib, hamma bolalar bepul o`qitilib, bepul darsliklar bilan ta`minlanadilar. "Goukou" deb ataluvchi yuqori maktab o`quvchilar uchun muhim davr hisoblanib, o`zlari ta`lim tizimini tanlashadi. Bu bosqichda kunduzgi, kechki va sirtqi bo`limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqich maktablarida uch yil belgilangan. O`quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta`lim olishadi.

Maktablarning ayrimlari chet tilini o`qitishga ixtisoslashtirilgan. O`quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari kulb ishlarida, 7 soat mashg`ulot yoki repititorlar ixtiyorida bo`ladi. Ularda dars jarayonida turli o`quv texnik vositalar bilan ham ishlashadi. Bu esa ham tez, ham vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi. Elektron hisoblash mashinalari va boshqa o`quv texnik vositalar bo`lishiga qaramay, mutaxassislar fikricha, asosiy e`tabor o`qituvchi faoliyatiga va darslikka qaratilmog`i kerak. Ya`ni o`qituvchi va o`quvchi orasidagi jonli muloqot o`rnini har qancha ,

takomillashgan mashina ham bosa olmaydi deya ta`kidlashgan. Bu ta`lim tizimi o`z natijalarini ko`rsatib kelmoqda. Yaponiya iqtisodini rivojlantirish va yangi-yangi ishlab chiqarish texnologiyalari joriy etish bo`yicha ulkan yutuqlarni qo`lga kiritdi va bunga "Yaponiya mo`jizasi" deya nom berishdi. Bunga sabab, aholi malumot darajasining yuqoriligi hamda ta`lim tizimiga kata e`tibor qaratilganligidadir. Mamlakatda maktabga muhim ijtimoiy vazifani bajaruvchi, jamiyatning yuksalishini ta`minlovchi dargoh deb qaraladi. Shuningdek , Yaponiya maktablarida axloqiy va ijtimoiy ta`lim ham asosiy tamoil hisoblanadi. Masalan, barcha maktablarda tozalikka rioya qilish, jamiyatga hizmat qilish majburiydir. Ya`ni maktablarida tozalovchi ishchilar xizmat ko`rsatmaydi. Bu ishlarni o`qituvchi va o`quvchilar qilishi kerakligi aytilgan. Hozirgi paytgacha ham ko`plab maktablarida farrosh bo`lib ishga olishmaydi. Bu ham bolani yoshligidan tozalikka, e`tiborli bo`lishga chorlaydi. Ya`ni qiz bola yoki o`g`il bola qilishi belgilanmagan. Hamma tozalishi lozimligi aytilgan.

Dars jarayoniga kelsak, ularda o`zgacha dars mashgulotlari bo`lib o`tadi. Boshlang`ich sinfda o`quvchilarni qiziqtirmagan mavzuga majburlashmaydi. O`quvchi o`zi qiziqqan soha bo`yicha ko`proq ta`lim olishadi. Darslar ham oldindan beriladi. Ya`ni o`quvchilar darslarni oldindan mustaqil ravishda o`rganadilar ( video darslar, onlayn materiallar orqali) . Dars jarayonida esa ularni amaliy qo`llashga e`tibor qaratiladi. Ularda texnologiyalar rivojlanganligi sababli, dars jarayonini oldindan o`zlashtirish va darslarda faol bo`lish qiyinchilik tug`dirmaydi. Yaponiya ta`lim tizimining asosiy xususiyati shundaki , u o`quvchilarda nafaqat bilim , balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va jamiyatga foydali bo`lish ko`nikmalarini shakllantirishga intiladi.

XULOSA. Yaponiya ta'lim tizimi tajribasi bugungi kunda dunyo xalqlariga o`zining ijobiy jixatlari bilan o`rnak bo`lib kelmoqda.Yapon xalqining o`qituvchi shaxsiga bo`lgan munosabati, o`quvchilarni mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo`yicha tajribalari e'tiborga molikdir.

REFERENCES

1. N.Bakoev,Sh.Yuldasheva Yaponiya ta'lim tizimi.// Interpretation and researches.Volume 1.2023.
2. Sardorbek J.Mirzakhalov, State policy in the field of youth entrepreneurship in independent Uzbekistan. Look to thepast.2020, special issue 2, pp.244-249

XITOYDA BOSHLANG'ICH TA'LIM:ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TARIXIY ILDIZLAR.

Ilhomjonova Xurshida
Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar:**Ilmurodova Feruza Shakirovna**

ANNOTASIYA:

Ushbu maqola Xitoyda boshlang'ich ta'lim tizimining tarixiy ildizlari, tuzilishi va zamonaviy innovatsion yondashuvlarini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot davomida Xitoyning qat'iy pedagogik an'analari, raqamli ta'lim platformalari va malaka oshirish metodlari yoritilgan. Maqola shuningdek, ushbu tajribani kelgusida O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari va islohotlar asosida keltiriladigan natijalarga ham e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Xitoy, boshlang'ich ta'lim, pedagogika, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, intizom.

Tarixiy Kontekst va Boshlang'ich Ta'limning shakllanishi:

Xitoyda ta'limga bo'lgan e'tibor qadimgi davrlardan boshlab shakllana boshlagan. Xalqaro va ichki urf-odatlar, qadimgi konfutsiylik an'analari orqali bolalarning tarbiyasi har doim jamiyatning asosiy ustuvorliklaridan biri hisoblangan. 20-asr boshlarida, mustaqillik va islohotlar davrida Xitoy ta'lim tizimi tezda modernizatsiya qilinib, majburiy ta'lim qonunlari asosida boshlang'ich ta'lim bosqichi 6 yoshdan 12 yoshgacha belgilangan.

Bu bosqichda o'quvchilarga ona tili, matematika, tabiatshunoslik va axloqiy tarbiya kabi asosiy fanlar o'rgatiladi. Davlat tomonidan taqdim etilayotgan ta'lim sifati va rejalashtirish an'anaviy me'yorlarga asoslangan holda qat'iy nazorat ostida amalga oshiriladi.

Zamonaviy innovatsion yondashuvlar:

Bugungi kunda Xitoy boshlang'ich ta'lim tizimi o'zida raqamli texnologiyalarni keng qo'llaydi. Sinf xonalari interaktiv doskalar, mobil qurilmalar va onlayn platformalar bilan jihozlangan bo'lib, bu o'quvchilarga mavzularni yanada interaktiv va qiziqarli shaklda o'zlashtirish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar va interaktiv darsliklar yordamida bolalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishadi.

Shuningdek, o'qituvchilar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashib, eng so'nggi pedagogik metodlarni o'zlashtiradi. Bu yondashuv Xitoyning

ta'lim tizimini global miqyosda yetakchi darajaga olib chiqishda muhim omil hisoblanadi.

Xitoy ta'lim tizimida intizom va nazorat muhim o'rinni egallaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kundalik faoliyati qat'iy rejalashtirilgan va har bir dars, qo'shimcha mashg'ulot va ijodiy faoliyat belgilangan tartibda o'tkaziladi. O'qituvchilar bolalarning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadilar, bu esa ularning kelgusidagi akademik yutuqlariga asos bo'ladi.

Bu tizim orqali har bir o'quvchi o'z salohiyatini maksimal darajada ochib berishga intiladi va natijada barcha talabalar bilim olish jarayonida teng imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Xitoyning boshlang'ich ta'lim tizimi dunyoda PISA sinovlari va boshqa xalqaro baholashlarda yuqori natijalarga erishmoqda. Qat'iy intizom, zamonaviy texnologiyalar va doimiy malaka oshirish siyosati o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi. Bu muvaffaqiyat modeli nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham tan olingan.

Xitoyning ta'lim tizimi orqali tayyorlangan yoshlar global mehnat bozori va ilmiy tadqiqotlar sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari, davlatning kelajak strategiyasida ta'limga ajratilayotgan mablag'lar va ilg'or metodlarni qo'llash asosida aniqlanmoqda.

Xitoy tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari:

O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Xitoyning muvaffaqiyatli tajribasidan ilhom olish mumkin. Xitoyning qat'iy pedagogik yondashuvi va raqamli ta'lim platformalarini o'zlashtirish orqali O'zbekiston ham o'z boshlang'ich ta'lim tizimining sifatini oshirishi va yosh avlodning intellektual salohiyatini yanada rivojlantirishi mumkin.

Xitoy tajribasining asosiy jihatlari – ta'limga qat'iy intizom, malakali o'qituvchilar tayyorlash, raqamli innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik – O'zbekiston sharoitiga moslashtirilib, davlat islohotlari va strategik investitsiyalar orqali amalga oshirilishi lozim. Shu yo'l bilan, O'zbekiston ham xalqaro raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishi mumkin.

Xulosa:

Xitoyda boshlang'ich ta'lim tizimi qat'iy intizom, raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik metodlar asosida rivojlanmoqda. Ushbu tizim bolalarning nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarni ham mustahkamlaydi va ularni global miqyosda raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalaydi. Xitoy tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash orqali mamlakatimiz ta'lim tizimida zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish va yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida yetishtirish mumkinligi aniq

dalillangan. Kelajakda, ta'lim sohasidagi islohotlar va raqamli innovatsiyalar yordamida O'zbekistonning ta'lim tizimi yanada kuchli va global raqobatbardosh bo'lishiga erishish mumkin.

REFERENCE

1. Xitoy Ta'lim Vazirligi (2022). Xitoy ta'lim tizimi: Tuzilishi va rivojlanishi. Beijing: Xitoy Ta'lim Vazirligi nashriyoti.
2. Xitoy Ta'limi va Innovatsiyalari (2021). Xitoy ta'limining muvaffaqiyatli omillari va dunyo miqyosidagi ta'siri. Xitoy Ta'lim.
3. Jahon Banki (2020). Xitoy va boshqa mamlakatlar ta'lim tizimlari: Tajriba va muvaffaqiyat omillari. Jahon Banki.
4. UNESCO (2021). Xalqaro Ta'lim Tahlillari: Xitoyning Yondashuvi. UNESCO Ta'lim va Ilmiy Tadqiqotlar Bo'limi.
5. Pekin Universiteti (2020). Xitoy oliy ta'limining global rivojlanishdagi roli. Pekin Universiteti nashriyoti.
6. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi (2022). Ta'lim tizimida islohotlar: O'zbekistonning yangi yo'nalishlari. Toshkent: O'zbekiston Ta'limni Rivojlantirish Markazi.
7. Boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuvlar (2023). Boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsiyalar va o'qituvchilarning malaka oshirish kurslari. Kokand Universiteti ilmiy jurnali.
8. Xitoy ta'lim tizimi va uning global muvaffaqiyati (2022). Xitoyning raqamli ta'lim platformalari va pedagogik yondashuvi. UNESCO maqolasi.
9. Jahon Banki. "Ta'lim va Innovatsiya: Xitoy Tajribasi."
10. O'zbekiston Ta'lim Tizimi Islohotlari (2023). 2030-yilga qadar ta'lim strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi.

SHARQ VA G'ARBNING UYG'ONISH DAVRIDA MEDIAGA BO'LGAN MUNOSABAT

Qo'ldoshev Ilhom O'tkirjon o'g'li.
Chirchiq davlat pedagogika universtiteti Jismoniy madaniyat fakulteti
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yonalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar : **Mirahmedova Shohida Nusratillayevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq uyg'onish davri, media savodxonlik fani rivojlanish ahmiyat haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Axborot, media, uyg'onish davri, ilm-fan, siyosat, propaganda, buyuk shaxslar,diniy qarashlar.

Kirish. Sharq Uyg'onish davri vakillari o'z xalqlarining madaniyat bilan birga, yunon va hind xalqlari merosidan ham foydalanishgan. Yunon olimlarining asarlari 8—9-asrlarda arab tiliga tarjima qilibi, sharxlandi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Plotin qarashlari Ibn alArabiyga ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi. Biroq yunonlar ko'p fikrlarni qadimgi osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati; Abu Rayhon Beruniyning "Kitob attafhim li avoil sinoat attanjim" asari qo'lyozmasi yuksalishga shaylangan xalq o'z madaniyati va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tariladi.

Uyg'onish davrida (XIV–XVI asrlar) media tushunchasi hozirgi ma'noda mavjud bo'lmasa ham, axborot tarqatish va ommaviy kommunikatsiya vositalari jadal rivojlangan. Ushbu davrda mediaga bo'lgan munosabatni quyidagi jihatlarda ko'rib chiqish mumkin. Bosma nashrlarning paydo bo'lishi va tarqalishi Uyg'onish davrida Johannes Gutenbergning (taxminan 1440-yillar) bosma dastgohni ixtiro qilishi axborot tarqatishda inqilob yasadi. Natijada, kitoblar arzonlashdi va keng ommaga tarqala boshladi. Ilm-fan, san'at va falsafiy qarashlarning ommalashishiga zamin yaratildi. Matbuotga bo'lgan ehtiyoj ortib, ijtimoiy fikr shakllanishida muhim rol o'ynadi.Ilmiy va madaniy erkinlikning oshishi. Uyg'onish davrida media vositalari orqali tarqatilgan bilimlar diniy mutaassiblikka qarshi yangi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirishga yordam berdi.

Galileo Galilei, Nikolay Kopernik va boshqa olimlarning asarlari bosma nashrlar tufayli keng tarqaldi va ularning g'oyalari ommalashdi.

San'at va adabiyotdagi ta'siri.

Matbuotning rivojlanishi natijasida Dante, Petrarka, Boccaccio, Shakespeare va Erasmus kabi ijodkorlarning asarlari ko'proq odamga yetib bordi. San'at asarlari va

madaniy qadriyatlar haqida ommaviy axborot vositalari (qo'lyozmalar, gravüralar, risolalar) orqali ma'lumot berildi. Diniy islohotlar va axborot tarqalishi

Martin Lyuterning 1517-yilda bosilgan "95 tezisi" bosma texnologiyaning kuchini ko'rsatdi. U bosma nashrlar orqali katolik cherkoviga qarshi islohotlarni targ'ib qildi va bu protestantlik harakatining boshlanishiga sabab bo'ldi. Media axborot tarqatish vositasi sifatida diniy mafkuralarning shakllanishida katta rol o'ynadi.

Siyosat va propaganda.

Hukmdorlar, qirollar va cherkov rahbarlari bosma materiallarni propaganda sifatida ishlatishdi. Qirol farmonlari, qonunlar va e'lonlar bosma nashrlar orqali xalq orasida tarqatildi.

Axborotni tarqatish usullari:

Ushbu davrda media hozirgi darajada rivojlanmagan bo'lsa-da, axborot tarqatishning turli usullari mavjud edi:

Qo'lyozmalar – Kitoblar va ilmiy asarlar qo'lda ko'chirilgan va cheklangan miqdorda tarqatilgan.Bosma nashrlar – Gutenbergning bosmaxonasi paydo bo'lgach, kitoblar, risolalar va gazetalar kengroq tarqala boshladi.San'at va arxitektura– Chizilgan suratlar, freskalar va haykallar orqali ma'lumot yetkazilgan.Jamoat chiqishlari va targ'ibot – Hukmdorlar va olimlar ommaga o'z fikrlarini yetkazish uchun jamoat joylarida nutq so'zlashgan.

Leonardo da Vinchi va Rafael kabi rassomlar – O'z asarlari orqali ilmiy va falsafiy g'oyalarni yetkazishgan.

Shekisper va Dante kabi yozuvchilar – Ularning asarlari matbaa tufayli keng tarqalib, omma orasida mashhur bo'ldi.

Madaniyatning xalqchillashishi – Avval faqat zodagonlar uchun bo'lgan bilim va san'at endi kengroq ommaga yetib bordi.

Xulosa. Uyg'onish davrida media jamiyatda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bosma texnologiyaning rivojlanishi axborot tarqatish jarayonini tezlashtirdi, natijada ilm-fan, san'at va diniy islohotlar rivojlandi. Media vositalari hukumatlar, cherkov va olimlar uchun kuchli qurolga aylandi. Shu bilan birga, bu davr ommaviy axborot vositalarining kuchini anglash va undan turli maqsadlarda foydalanishning boshlanishi bo'ldi. Hozirgi kunga kelib media mahsulotlarisiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin bo'lgan davrga keldik. Kundalik vaqtimiz shu vositalar bilan birga…

REFERENCES

1.httsp:// uz.wikipedia.org
2.O'zME:Birinchi jild.Toshkent 2000-yil
3."O'zbekiston media ta'lim yo'lida" Y.Mamatov, S.Sulaymonova
4. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. 2020-y. B-59.

ILM-AQL ZIYOSI

Olimova Zamira Mingyasharovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 23/1-guruh 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlaridan biri hisoblanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: lm, inson, ustoz, din, farz, hurmat, vatanparvar, yoshlar, jamiyat, olim, kitob, o'g'il-qiz, baxt.

Kirish. Ilm-farovonlikka yetaklovchi yo'ldir. U insonlarga baxt keltiradi, yaxshilik va yomonliklarni anglab yetishiga ko'maklashadi va uning nuri ila o'z yo'lini yoritadi. Ilm huddi dengiz kabidirki, inson qalbini halovatga to'ldirib, ikki dunyo saodatiga eltuvchi bir vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir qilinadigan amal ilm asosida bo'lsa maqsadga muvofiqdir.

Ilm olish insonga hurmat, ehtirom va obro'-e'tibor olib keladi. Xalqimizda "Olim bo'lsang, olam seniki" degan ibora bejiz aytilmagan. Inson qanchalik ilm olishda davom etar ekan, uning bilim doirasi kengayib boradi, tafakkuri ochiladi, teran fikrlaydi. Shuning bilan birga har qanday ishning yechimini topadi. Hatto dinimizda ham ilm ulug'lanadi.

Qushning uchishi uchun ikki qanot lozim bo'lganidek, insonning darajasiko'tarilishi uchun ham ikki qanot -iymon va ilm kerak. Iymonsiz ilm, ilmsiz iymon bo'lmasligi kerak. Zamonaning ulug' olimlaridan, Nobel mukofati sohibi Albert Eynshteyin:"Dinsiz fan o'likdir, fansiz din cho'loqdir",degan.

Islomda ilm, uning savobi va yaxshiligi haqida so'z ketganida, iymonning hamrohi bo'lgan ilm haqida so'z yuritiladi. Iymonli kishi xalqqa manfaatli ilmni o'rgatsa, ilmi bilan kishilarga, jamiyatga xizmat qilsa, oyat va hadislarda va'da qilingan darajalarga erishadi, ajr-savob oladi.

Talabi ilm ibodatdir. Ilm talab qilish savob ishdir. Talabi ilm ba'zi o'tgan gunohlarning yuvilishiga sababdir. Shuning uchun ham musulmonlar doimo ilm talabida bo'lishlari kerak. Shuning uchun ham shariatda ilm talab qilish har bir musulmonga farz qilingan.

Islomda ilm talab qilish har bir musulmon uchun beshikdan to qabrgacha farz qilingan. Farz ikki qismga bo'linadi: birinchisi-farzi ayn, ikkinchisi-farzi kifoya. Ilm talab qilish borasida esa farzning ikkala qismi ham ishga tushadi.

Har bir musulmon uchun o'ziga kerakli, hayoti uchun zarur ilmni, dinu diyonatni, halol-haromni bilish, buning uchun zarur bo'lgan narsalarni o'rganish farzi ayndir.

Musulmonlar jamoasi uchun kerakli bo'lgan hunar va ilmlarni talab qilish esa farzi kifoyadir. Hayotning har bir sohasida yetarli mutaxassislarni tayyorlab olish Islom jamiyatining barcha a'zolariga farz bo'ladi. Bu farzlarni bajarishda mutaxassislar, ya'ni ustozlar kerak bo'ladi. Ustoz tanlashda adashmaslik muhimdir. Yod g'oyalarga aldanib qolmaslik uchun ustozlardan ilm o'rganishning ahamiyati juda katta bo'lib, buni tarix isbotlagan. Ulamolarimiz ilm olish, ilm talab qilish odoblari haqida so'z yuritar ekanlar, bu borada ustozga bo' lgan ehtirom katta ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlaydilar.Talabaning bilim olayotgan ustoziga bo'lgan hurmati bois ham unga ilm nuri singib boraveradi. Muborak dinimizning manbalarida ham ustozga hurmat ko'rsatishga chaqirilgan, olimlarning darajasi yuqori maqomga ko'tarilgan. Hozirgi kunda insonlarda, ayniqsa yoshlarda ustozlarni ortidan quvib, ilm izlash sustlashib, zamonaviy telefonlarga, har xil o'yinlarga mukkasidan ketish kuzatilmoqda. Kitoblarni varaqlab, ustozlarga murojat etish, ilm izlashga bo'lgan qiziqish kamayib ketganligi natijasida chalasavodlik yuzaga kelmoqda. Buning oqibati yaxshi emasligi hammaga ma'lum.

Darhaqiqat, dunyoda sodir bo'layotgan ko'plab urush va nizolar, jaholat va razolatlarga bilimsizlik, to'g'ri fikr yurita olmaslik, faqat o'z manfaatini o'ylash sabab bo'lmoqda. O'zlarini ilmli ko'rsatib, bilimdon sanovchi ayrim chalasovod kimsalarni harakatlari ayanchli oqibatlarga sabab bo'lmoqda. Bunday kimsalar dinni niqob qilib olib, yoshlar ongiga yod g'oyalarni singdirishga harakat qilishmoqda. Shuning uchun ham ularni domiga tushib o'z dinimizni, o'zligimizni, ma'rifatimiz va madaniyatimizni unutib qo'ymaslik uchun ham to'g'ri ilm olish shart. Chunki ilmli kishi to'g'ri yo'lni tanlay oladi, razolat botqog'iga botmaydi, yaxshilik va yomonlikni farqlay biladi, axborotlar oqimidan o'zi uchun foydalisini oladi, telefondan oqilona faydalanadi. Qolaversa ilmsizlikka qarshi kurashadi va insonlarni ilm olishga undaydi. Bir so'z bilan aytganda Vatanparvar inson bo'ladi.

Bizning yurtimiz – ilm-fanning o'chog'i bo'lib, butun dunyo tan olgan allomalar Vatanidir. Ilm ma'rifatga bo'lgan ishtiyoq azaldan xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Buyuk bobokalonlarimiz hayotdagi barcha qiyinchiliklarni yengib, ilm olishga harakat qilishgan. O'tmishga qarasak, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy, butun olam tan olgan hadis ilmining xoqoni Imom Buxoriy, tibbiyot ilmining dahosi Abu Ali ibn Sino,"Tarixda eng ulkan aql egasi" deya tan olingan Abu Rayxon Beruniy kabi bobokalonlarimiz har bir o'g'il -qiz uchun yuksak darajadagi namuna deb ayta olamiz.

Xulosa. Biz ulug' ajdodlar avlodimiz, ularning qoldirib ketgan ulkan xazinaning, bitmas-tuganmas ilmiy merosning vorislaridirmiz.Yurtimizda biz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarning qadriga yetib, buyuk bobokalonlarimizga loyiq avlod bo'lish bizning burchimizdir. Bugun fan-texnika rivojlanib taraqqiy etib bormoqda, biz ham zamon bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy bilimlarni egallab yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shmog'imiz lozim. Zero Islom dini ikki dunyo saodatiga erishish uchun manfaatli bo'lgan har bilimni ilm deb hisoblaydi.

Mustaqilligimizni mustahkamlashning eng muhim vazifasi har bir sohada o'z mutaxassislarimizni, olimlarimizni yetishtirishimiz zarur. Shundagina buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lamiz.

REFERENCES

1.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Ijtimoiy odoblar,"HILOL-NASHR'',T,2024-y,B-357
2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila.''HILOL-NASHR'', T,2024-y,B-365

GLOBALLASHUV:TAFAKKUR VA E'TIQOD UYG'UNLIGI.

Diyorova Kumush Bobonazar qizi
Qo'shnazarova Muxlisa Muxiddin qizi
Psixologiya ta'lim yo'nalishi Ps-24/2 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Sa'dullayeva Mahfuza Husenovna**

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv:tafakkur va e'tiqod, bozor iqtisodiyoti,bugungi kundagi texnalogiyalar,geoiqtisodiyot tushunchalariga ta'rif berilgan va ularning uyg'unligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, e'tiqod, tafakkur, bozor iqtisodiyoti, geoiqtisodiyot, ong, sezgi, idrok

Аннотация. В этой статье определяются понятия глобализации: мышление и убеждения, рыночная экономика, современные технологии, геоэкономика и обсуждается их гармония.

Ключевые слова. Глобализация, вера, мысль, рыночная экономика, геоэкономика, сознание, интуиция, восприятие

Abstract. This article defines the concepts of globalization: thought and belief,market economy,today's technologies,and geoeconomics,and discusses their compatibility.

Keywords. Globalization, belief, thought, market economy, geoeconomics, consciousness, intuition, perception

KIRISH. Rivojlanib borayotgan davrda globallashuv yanada ortib bormoqda.Bu degani kundan kunga yangidan yangi texnalogiyalarning tez fursatda o'sib borishi va bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi vadavlatlararo hamkorlikni yanada yaxshilashga imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.Bu jarayonda tafakkur(ilmiy izlanish) va e'tiqod(urf-odatlar,qadriyatlatlar)orasidagi uyg'unlikni yo'qotmaslik juda ham zarurdir.

Asosiy qism. Globallashuv – bu butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir[34] Globallashuv bu xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar tizimi. Transmilliylashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog'liqligi hisoblanadi. Shu asosida yagona jahon tarmog'i, bozor iqtisodiyoti, geoiqtisodiyot va uning infratuzilmalari shakllanmoqda, ko'p asrlar davomida xalqaro munosabatlarning asosiy xarakteri bo'lib kelgan davlat suvereniteti[35] bugungi kunda yanada

[34] Izd. Penz. gos. universiteta
[35] .Суверенитет в эпоху глобализации: теория и практика

pastlamoqda. Globallashuv jarayoni bu davlat tomonidan shakllantirilgan bozor tizimlari evolyutsiyasining natijasidir[36]. Bu jarayon bozorlarda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalarning yangilanishi yoki eskirishidir. Shuni aytib o'tish lozimki, bugungi texnalogiyalar insonlar hayotida yanada yengilliklarga sababchi bo'lmoqda. Insonlar boshqa bir davlatda turib, yaqin qarindoshlari bilan aloqalarni o'rnatmoqda va yangiliklarni almashmoqda.Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi texnalogiyalarning ham afzalligi va zararlari mavjud ya'ni insonlarning ma'naviy qadriyatlarini unutishi yoki chetlab o'tishiga ham sabab bo'lib qolishi mumkin.

E'tiqod - ajratib turuvchi tur yoki toifaga bo'lishda qatnashadi. Har bir mavjudot o'z hududi maydonida boshqa hududdan farq etish uchun turli belgilarni shakllantirishadi. Misol tariqasida odamlarni umumiylashtirish xizmat ko'rsatishga uringan diniy e'tiqod: Odamlarni ezgulikga da'vat etuvchi Xristian e'tiqodi insoniylikga — mexribon, tushunishni biladigan, hamdard, tabiatni sevuvchi qalb egasi. Hudojo'ylik. Xristian e'tiqodi ya'ni Isus Xrista bilan bog'liq bo'lgani uchun Hudoga ishonish Xristos deyiladi. Xristianlar hochga qoqilgan Isus Xristning o'limida sodir bo'lgan zilzilada qirollik taxtiga ikkiga bo'lingandan so'ng ishonch uyg'onib sig'inadilar. Ma'lum vaqtga hayvonlar insoniylikga chorlagan Iso Masixning Hudoga ishonish davati boshqa turli dinlarda raqobatga aylanib odamlar orasida dinlar yanada jiddiy tarzdagi niqoblar ko'rinishida "Troya oti" bo'lib xizmat qilishni boshladi. Isus Xrist yaxshi odamlar uchun Inson ko'zgusi xisoblanadi va shu sababli hoch ramzida dini ko'rsatiladi.

Ikkinchi e'tiqod O'rta Osiyoda Isus Xrist tarixidan so'ng yangi e'tiqod turi Islom dini Muhammad payg'ambar ostida boshlanadi. Arab podshohlari Xristian e'tiqodi kirib kelmasligi uchun Islom dinini butun Osiyoga yoyishadi. Xristian va Islom dini bir-biriga o'xshash har ikki din ham Hudo borligiga ishonishadi. Lekin Buyuk Britaniya ilmiy axborot jurnali "Scinise" 2008-yilda Islom dini vakillari Xristian e'tiqodi odamlarini ko'p qoralashlarini yozib o'tilgan. Bu holat aynan Hudo o'g'li va hochga qoqilgan Isus Xrista bilan bog'liqligi gapirilgan. Unga ko'ra: Xristianlar Hudoga emas Isus Xristga sig'inishadi. Jon MakArtur shu savolga shunday javob bergan: Isus Xrist Hudoga ishonish nima ekanligini anglatib berdi va Isus Xrist insonlarning inson ekanligimizni ko'rsatuvchi yuzimizdur. Hudo bizga o'z elchilarini payg'ambarlarni yubordi, Hudo bizni shu payg'ambarlardek bo'lishimizni istaydi hayvonga o'xshab bir-birimizga raqib bo'lishmizni emas, deb javob beradi[37]. Dunyoda bir qancha millat,elat ,xalqlar mavjud.Hozirgi kunda insonlar jamiyat taraqqiyoti uchun muhim qismlardan biri bo'lmoqda.Dunyoda zamonaviy taraqqiyot

[36] Академия управления при Президенте Республики Беларусь
[37] uz.wikipedia.org/wiki/E.CABCtiqod

va an'anaviy e'tiqodlar orasida muvozanatsizlik kuzatilmoqda. Tafakkur—inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Tafakkur — inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi (ong). Tafakkur insonlarni bilim salohiyatini oshirsa, e'tiqod esa uning ma'naviy olamini yanada boyitishga sababchi bo'ladi. Ikkalasining uyg'unlashishi insonni komillikka sari boshlaydi. Rivojlanib borayotgan bugungi kunda bu ikkita omilning o'rni juda ham o'rni katta va rivojlanishga xizmat ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Globallashuv insonlar uchun jiddiy va tahlikali muommolarni va yangiliklarni ham yuzaga chiqarmoqda.Tafakkur va e'tiqodning uyg'unligini saqlab qolish va uni rivojlantirish har bir insonning burchlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy va ma'naviy e'tiqodlarni mujassamlashtirsak yanada jamiyat yetuklikka va kamolotga erishamiz.

REFERENCES

1. Glebov.G.I., Milaeva O.V.Sovremennie mejdunarodnie otnosheniya. Uchebnoe posobie.– Penza: 2010.– 98 s.
2. Коренюшкина Светлана Ильинична, Соловьев Кирилл Анатольевич. // Общество. Среда. Развитие (Terra Humana).— 2015.—№ 1 (34).
3. Novikova I.V. Globalizatsiya, gosudarstvo i rinok: retrospektiva i perspektiva vzaimodeystviya.– Mn.: 2009
4. Google https://uz.wikipedia.org/wiki/E.CA.BCtiqod
5. Google "Tafakkur"Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

Internet saytlar:

1.Ziyouz.com.internet sayti.

2.Google.com.sayti.

ARISTOTEL, FOROBIY, KANTNING FALSAFA ILMIGA OID QARASHLARI

Mumtoza Soxibjon qizi Ma'rufjonova
Email: mumtozamarufjonova6@gmail.com
CHDPU Turizm XTA 1-kurs talabasi
Munojat Qudrat qizi Ismailova
Email: ismailovamunojat1802@gmail.com
CHDPU Turizm XTA 1-kurs talabasi
Shaxzoda Muxtarova
Email: shaxzodamuxtarova24@gmail.com
CHDPU Turizm XTA 1-kurs talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada Sharq va G'arb tamaddunining buyuk mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Arastu (Aristotel) va Demokritning ilmiy merosi, falsafiy qarashlari va jamiyat haqidagi ta'limotlari yoritilgan. Forobiyning bilish nazariyasi, mantiq ilmi, axloqiy va siyosiy qarashlari, shuningdek, uning fozil jamiyat haqidagi g'oyalari keng yoritiladi. Arastuning falsafa, mantiq, tabiiy fanlar va davlat boshqaruvi borasidagi ishlari tahlil qilinib, uning Aleksandr Makedonskiy tarbiyasidagi o'rni ham ko'rib chiqiladi. Demokritning atomistik nazariyasi, deterministik dunyoqarashi va siyosiy qarashlari o'rganiladi. Maqolada ushbu faylasuflarning ilmiy merosi hozirgi zamon fani va tafakkurining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar.Abu Nasr Forobiy, Arastu, Aristotel, Demokrit, falsafa, mantiq, bilish nazariyasi, axloq, siyosat, jamiyat, fozil shahar, johil shahar, ilm-fan, davlat boshqaruvi, yunon falsafasi, Sharq mutafakkirlari, Annotation

Annotation: This article explores the scientific legacy, philosophical views, and social teachings of the great thinkers of Eastern and Western civilizations—Abu Nasr Al-Farabi, Aristotle, and Democritus. It provides an in-depth analysis of Al-Farabi's theory of knowledge, logic, ethical and political views, as well as his ideas on the virtuous society. Aristotle's contributions to philosophy, logic, natural sciences, and state governance are examined, along with his role in the education of Alexander the Great. Democritus's atomic theory, deterministic worldview, and political views are also studied. The article discusses how the intellectual heritage of these philosophers has influenced the development of modern science and thought.

Keywords: Abu Nasr Al-Farabi, Aristotle, Democritus, philosophy, logic, theory of knowledge, ethics, politics, society, virtuous city, ignorant city, science, state governance, Greek philosophy, Eastern thinkers.

Аннотация: В данной статье рассматривается научное наследие, философские взгляды и учения о обществе великих мыслителей Восточной и Западной цивилизации — Абу Насра аль-Фараби, Аристотеля и Демокрита. Подробно анализируются теория познания, логика, этические и политические взгляды аль-Фараби, а также его идеи о добродетельном обществе. Исследуются работы Аристотеля в области философии, логики, естественных наук и государственного управления, а также его роль в воспитании Александра Македонского. Рассматриваются атомистическая теория Демокрита, его детерминистический взгляд на мир и политические взгляды. В статье обсуждается влияние научного наследия этих философов на развитие современной науки и мысли.

Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, Аристотель, Демокрит, философия, логика, теория познания, этика, политика, общество, добродетельный город, невежественный город, наука, государственное управление, греческая философия, восточные мыслители.

KIRISH.

Abu Nasr Forobiy – Sharqning Buyuk Mutafakkiri. Abu Nasr Forobiy – Sharqning buyuk allomalaridan biri bo'lib, falsafa, mantiq, axloq, davlat boshqaruvi va musiqa sohalarida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U o'zining ilmiy merosi bilan Sharq va G'arb tamaddunining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Forobiyning ta'limoti inson ma'naviy va ilmiy kamoloti uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzluğ Tarxon Forobiy 873-yilda Farob (hozirgi Qozog'iston) shahrida tug'ilgan. Yoshligidan ilmga qiziqqan Forobiy Bag'dod, Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi o'sha davrning yirik ilmiy markazlarida tahsil olgan. U falsafa, mantiq, matematika, astronomiya, musiqa va tabiiy fanlar bilan shug'ullangan. Yunon falsafasini, ayniqsa, Aristotel ta'limotini chuqur o'rganib, uni keng targ'ib qilgan. Shu sababli u "Muallimi soniy" – ya'ni "Ikkinchi muallim" degan unvonga sazovor bo'lgan.Manbalarga ko'ra, Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan, bu esa uning ilmiy izlanishlarida muhim rol o'ynagan. U nafaqat Sharq, balki Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurining rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.Forobiy 950-yilda vafot etgan va Damashq shahridagi "Bob as-Sag'ir" qabristoniga dafn etilgan. Forobiy bilish jarayonini hissiy va aqliy bilishga ajratgan.1. Hissiy bilish – insonning tashqi olamni sezgi organlari orqali anglashidir. Bunda ko'rish, eshitish, hid bilish, tatib ko'rish va ushlab ko'rish orqali ma'lumotlar olinadi.2. Aqliy bilish – bu tafakkur, mantiq va nutq orqali olingan bilimdir. Inson voqelikni sezgi, xotira, tafakkur va nutq vositasida idrok qiladi.Forobiyning fikricha, aql insonni bilim va tushunishga yetaklaydi. Bilim insonni yuksak darajaga ko'taradi

va uning ruhiy kamolotini ta'minlaydi.Forobiy mantiq ilmini fikrlashdagi xatolarni oldini oluvchi fan sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, to'g'ri xulosa chiqarish va haqiqatni aniqlash uchun inson mantiqiy tafakkur qilishni o'rganishi kerak.U mantiq ilmidagi induksiya, deduksiya va sillogizm tushunchalarini o'rganib, ilmiy izlanishlar olib borgan:Induksiya – xususiy holatlardan umumiy xulosaga kelish.Deduksiya – umumiy qonuniyatlardan kelib chiqib, xususiy holatlar haqida xulosa chiqarish.Sillogizm – ikki yoki undan ortiq mulohazalar asosida yangi bilimga erishish usuli.Forobiy bilimlarni to'rt guruhga ajratgan: 1. Maqbulot – shaxsiy tajribaga asoslangan bilimlar.2. Mashhurot – hammaga mashhur va tanilgan bilimlar.3. Mahsulot – tajriba va ilmiy isbot orqali olingan bilimlar.4. Boshlang'ich ma'qulot – shubhasiz haqiqatlar (masalan, matematika qonunlari).Forobiy jamiyat haqida chuqur fikrlar yuritib, uni fozil va johil shaharlarga ajratgan:

1. Fozil shahar – bu adolat va bilim asosida qurilgan jamiyat bo'lib, unda barcha insonlar baxt-saodatga erishish uchun ilm va donishmandlikka intiladi.2. Johil shahar – bu moddiy boylik va shaxsiy manfaatni asosiy maqsad deb bilgan jamiyat bo'lib, unda adolat va ilmga e'tibor berilmaydi.Forobiy ideal davlat rahbari olti asosiy fazilatga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlagan:1. Adolat – barcha fuqarolarga teng munosabatda bo'lish.2. Donoqlik – bilim va tafakkurga ega bo'lish.3. G'amxo'rlik – xalqqa mehribon va xizmat qilishga tayyor bo'lish.4. Qonunlarga rioya qilish – qonun ustuvorligini ta'minlash.5. Qonun yaratish qobiliyati – jamiyat manfaatlariga mos qonunlarni ishlab chiqish.6. Kelajakni oldindan ko'ra bilish – uzoq muddatli strategik rejalarga ega bo'lish.Forobiy inson axloqiy fazilatlarni hayot davomida egallaydi, deb hisoblagan. Unga ko'ra, dangasalik, bilimsizlik va bekorchilik insonning axloqiy kamolotiga xalal beradi.Inson baxt-saodatga erishishi uchun aql, ilm va ma'rifat muhim omillardan biri hisoblanadi.Forobiy musiqaning inson ruhiy olamini tarbiyalashdagi rolini juda yuqori baholagan. U musiqaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan, kuy va ritmlarni tahlil qilgan, hatto yangi musiqa asboblarini yaratgan va kuylar bastalagan. Uning "Musiqa haqida katta kitob" asari musiqa fani bo'yicha eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Forobiy yunon falsafasini o'rganib, Aristotel asarlarini keng targ'ib qilgan. U nafaqat Sharq, balki G'arb ilm-fani rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.Uning g'oyalari Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Ibn Rushd, Ibn Tufayl va boshqa buyuk mutafakkirlar tomonidan davom ettirilgan. Abu Nasr Forobiy ilm-fan, falsafa, axloq, davlat boshqaruvi va musiqa sohalarida buyuk ishlarni amalga oshirgan. Uning ilmiy qarashlari nafaqat o'z davrida, balki hozirgi zamon uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.Forobiy insoniyat tafakkurining yuksalishiga katta hissa qo'shgan mutafakkir bo'lib, uning asarlari bugungi ilmiy-madaniy taraqqiyot uchun ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.Arastu (Aristotel) – qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, fanlarning turli

sohalarida betakror ilmiy meros qoldirgan mutafakkir. U faqat falsafa bilan shug'ullanib qolmay, balki mantiq, psixologiya, axloq, tabiiy fanlar, davlat boshqaruvi va notiqlik san'ati bo'yicha ham bebaho asarlar yozgan. Uning ta'limoti nafaqat yunon falsafasida, balki Sharq va G'arb tamaddunining shakllanishida ham katta o'rin tutgan.Arastu o'zidan oldingi buyuk faylasuflar – Suqrot va Afrotun (Platon) g'oyalarini rivojlantirgan bo'lsa-da, u o'z qarashlari bilan falsafaga yangi yo'nalish olib kirgan. U bilimlarni tizimli ravishda ajratgan va ularni ilmiy asoslashga harakat qilgan. Shu sababli, Arastu ko'pincha "Ilmiy tafakkurning otasi" deb ham e'tirof etiladi. Arastu miloddan avvalgi 384-yilda Yunonistonning Stageyra shahrida tug'ilgan. Otasi Nikomax shifokor bo'lib, Arastuni ilm-fanga bo'lgan qiziqishga yo'naltirgan. O'n yetti yoshida u Afina shahriga kelib, buyuk faylasuf Afrotun asos solgan Akademiya maktabida ta'lim oldi. Bu yerda 20 yil davomida (Afrotunning vafotiga qadar) ilmiy izlanishlar bilan shug'ullandi. Keyinchalik, Makedoniya podshosi Filipp II Arastuni o'z o'g'li Iskandarga (keyinchalik Aleksandr Makedonskiy) ustozlik qilishga taklif etdi. Arastu uch yil davomida kelajakdagi buyuk sarkardaga falsafa, mantiq, axloq, siyosat va boshqa fanlarni o'rgatdi. Shubhasiz, Aleksandr Makedonskiyning dunyo hukmronligiga erishishida Arastuning hissasi katta bo'lgan. Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida "Likey" maktabiga asos solgan. Ushbu maktabda u o'z ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. Ammo Aleksandr vafotidan so'ng, Afinada unga qarshi kuchlar harakat boshladi. Arastu dahriylikda ayblanib, sudga tortilishi mumkin edi. Shuning uchun u Afinani tark etib, Evbeya oroliga ko'chib ketdi va oradan ko'p o'tmay, miloddan avvalgi 322-yilda vafot etdi. Arastu fanning turli sohalarida qimmatli asarlar yozib qoldirdi. Uning ilmiy merosi quyidagi sohalarni qamrab oladi: 1. Falsafa – mavjudlik, borliq va voqelikning tub mohiyatini o'rganish.2. Mantiq – to'g'ri fikrlash usullari, xatolardan xoli bo'lish yo'llari. 3. Psixologiya – inson tafakkuri va ruhiy jarayonlari.4. Axloq – insonning ma'naviy fazilatlari va hayotiy qadriyatlari.5. Siyosat – davlat boshqaruvi, qonunlar va ideal jamiyat tamoyillari.6. Tabiiy fanlar – biologiya, fizika, geometriya, astronomiya.7. Notiqlik san'ati – ta'sirchan nutq va ta'lim usullari.Arastu falsafani nazariy, amaliy va ijodiy fanlarga ajratgan. Unga ko'ra: Nazariy fanlar – falsafa, matematika va tabiiy fanlar.Amaliy fanlar – axloq, siyosat va iqtisod.Ijodiy fanlar – san'at, musiqa va adabiyot.Arastu mantiq fanining asoschisi sifatida tanilgan. U mantiqni "to'g'ri fikrlash san'ati" deb atagan va xatolarning oldini olish uchun qoidalar ishlab chiqqan.Arastu tomonidan ishlab chiqilgan sillogizm (mantiqiy xulosa chiqarish usuli) hali ham fan va falsafada qo'llaniladi. Masalan:1. Barcha insonlar o'limli. 2. Sokrat inson.3. Demak, Sokrat ham o'limli.Bu oddiy ko'rinishga ega bo'lsa-da, mantiqning rivojlanishi uchun juda muhim asos bo'lgan. Davlat va Jamiyat Haqidagi QarashlariArastu davlat

boshqaruvini uch asosiy shaklga ajratgan:1. Monarxiya – bir shaxs tomonidan boshqariladigan davlat. Agar u adolatli bo'lsa, foydali bo'lishi mumkin, aks holda zulmga aylanadi.2. Oligarxiya – oz sonli kishilar tomonidan boshqariladigan davlat. Bu shakl boylik ustuvor bo'lgan jamiyatlarda keng tarqaladi.3. Demokratiya – xalq tomonidan boshqariladigan davlat. Bu eng yaxshi boshqaruv shakli bo'lishi mumkin, ammo noto'g'ri qo'llanganda tartibsizlik keltirib chiqaradi.Ideal jamiyat haqida gapirar ekan, u "oltin o'rtalik" prinsipiga tayanib, haddan tashqari boy yoki qashshoq qatlamlar bo'lmasligi kerakligini ta'kidlagan.Arastu insonning eng oliy maqsadi baxt-saodatga erishish deb hisoblagan. Unga ko'ra, inson quyidagi fazilatlarni rivojlantirishi kerak: Adolat – inson va jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi. Donoqlik – to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Sabrlilik – insonning ichki uyg'unligini saqlaydi.Do'stlik va mehribonlik – jamiyatda totuvlik va hamkorlikni mustahkamlaydi.Demokritning Falsafiy Qarashlar.Arastu bilan bir qatorda qadimgi Yunon falsafasida Demokrit ham muhim o'rin tutadi. U atomistik nazariya asoschisi bo'lib, borliq mayda zarrachalardan – atomlardan iborat deb hisoblagan.Demokritning fikricha: Moddiy dunyo abadiy va cheksizdir.Atomlar ajralmas va o'zgarmas bo'lib, ularning harakati olamning asosiy qonunidir.Tabiatda hech narsa tasodifan sodir bo'lmaydi, hamma narsa sabab va oqibatga asoslanadi.Uning siyosiy qarashlariga ko'ra, yaxshi boshqariladigan davlat xalq uchun mustahkam qo'rg'on bo'lishi kerak va davlat manfaatlari doimo birinchi o'rinda turishi lozim. Arastu va Demokrit yunon falsafasining eng yirik vakillaridan bo'lib, ularning qarashlari keyinchalik Sharq va G'arb falsafasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Arastu fan va falsafaning deyarli barcha sohalarida iz qoldirgan bo'lsa, Demokrit moddiy dunyo haqida chuqur ilmiy tushunchalar yaratgan. Ularning ta'limotlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va inson tafakkurining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., "O'zbekiston",
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., "O'zbekiston", 2011. – 440 bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.,"Ma'naviyat", 2008. –175 bet.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T., O'zbekiston, 2006.–121
5.Abdullayeva M.N., Abdurashidov M. va boshqalar. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. –T.: Sharq, 2004. –345
6 .Falsafa Nazarov Taxriri ostida T 2008.

7. Falsafa ensiklopedik lug'at. –T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, –344 b.
8. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy Toshkent "A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi"-2002.
9. JaxKirish . Ilim uchun sarflangan har qanday invistitsiyalar ortig'i bilan qoplanishiga shubha yo'q .SH.M.Mirziyoyev.on falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob T-2004.

FALSAFIY MEROS TUSHUNCHASI: RATSIONALIZM VA IRRATSIONALIZM TAHLILIY ASOSIDA

Asqarova Lobar Ortiqjon qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang'ich ta`lim fakulteti
Boshlang'ich ta`lim yo'nalishi
1-kurs 24\4-guruh talabasi
Ilmiy rahbar:**G'ofur Xolmo'mionov**

Annotatsiya: Mazkur maqolada falsafiy meros tushunchasi ratsionalizm va irratsionalizm nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ratsionalizm aql va mantiq asosida bilim olish yo'li sifatida ko'rib chiqilsa, irratsionalizm esa sezgi va intuitsiyaning muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu ikki yondashuvning tarixiy ildizlari, asosiy vakillari va ularning o'zaro ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, falsafiy merosning bugungi kun ilmiy va madaniy rivojlanishiga ta'siri ham yoritiladi.

Kalit so'zlar:falsafiy meros, ratsionalizm, irratsionalizm, aql, sezgi, intuitsiya, bilish nazariyasi, falsafiy tafakkur, ilmiy meros.

Falsafiy meros insoniyat tafakkurining asrlar davomida shakllangan va rivojlangan nazariy qarashlar yig'indisidir. Har bir davr falsafasi o'zidan keyingi avlodlarga muhim g'oyalarni qoldiradi. Bu jarayonda ratsionalizm va irratsionalizm yondashuvlari muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqola bu ikki yondashuvning falsafiy merosdagi o'rnini tahlil qiladi.

Falsafiy meros qadimdan rivojlanib kelgan bo'lib, Sharq va G'arb falsafasi bu merosni turli yo'nalishlarda shakllantirgan. Sharq falsafasida Forobiy, Ibn Sino va Moturidiy inson ma'naviy kamoloti haqida fikr yuritgan bo'lsa, G'arb falsafasida Platon, Aristotel va Dekart ilmiy va mantiqiy tafakkurga e'tibor qaratgan.

Ratsionalizm (lotincha ratio — aql, aql-idrok) — aqlni bilishning va kishilar xulq-atvorining asosi deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish. Ratsionalizm bilish jarayonida aql va mantiq asosiy manba ekanligini ilgari suradi. Masalan, Rene Dekart "Cogito, ergo sum" (Men fikrlayapman, demak, mavjudman) tamoyili bilan mashhur bo'lib, aql orqali haqiqatni anglash mumkinligini ta'kidlagan. Baruch Spinoza esa determinizm tamoyillarini rivojlantirib, hamma narsa oldindan belgilangan degan g'oyani ilgari surgan. Gottfried Wilhelm Leibniz esa Monadologiya nazariyasi orqali borliqning tarkibiy tuzilishini izohlashga harakat qilgan.

Irratsionalizm (lotincha: *irrationalis* - aqlga zid, g'ayrishuuriy) — bilish jarayonida aqlning imkoniyatlarini cheklaydigan yoki inkor etadigan falsafiy oqim hisoblanadi. Irratsionalizm inson haqiqatni anglashda sezgi va intuitsiyaning muhimligini ta'kidlaydi. Arthur Schopenhauer insonni boshqaruvchi asosiy kuch

iroda ekanligini ilgari surib, haqiqatni anglash sezgiga bog'liq deb hisoblagan. Friedrich Nietzsche o'zining "Iroda va kuch" nazariyasi orqali tafakkurning tuzilishini tushuntirgan va insonning o'z taqdirini yaratishdagi erkinligini ta'kidlagan. Henri Bergson esa intuitsiya va vaqt tushunchasini o'rgangan bo'lib, faqat mantiqiy fikrlash emas, balki bevosita tajriba orqali ham bilim olish mumkinligini ilgari surgan.

Ratsionalizm va irratsionalizm o'rtasidagi qarama-qarshilik falsafiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ratsionalizm ilmiy tafakkur va texnologik taraqqiyot uchun asos bo'lsa, irratsionalizm san'at, diniy qarashlar va axloqiy tushunchalar rivojlanishiga ta'sir qilgan. XX asr falsafasida ushbu yondashuvlarning bir-birini to'ldirishi kuzatiladi. Masalan, ekzistensializm oqimi irratsionalizmning insoniy tajriba va erkinlikka urg'u beruvchi jihatlaridan foydalanib, ratsional tahlil bilan uyg'unlashgan. Shuningdek, Karl Popperning falsafiy qarashlarida ilmiy bilishning ratsional tamoyillari va insoniyat tajribasi birgalikda o'rganiladi.

Bugungi kunda ko'plab sohalarda ratsional va irratsional yondashuvlar uyg'unlashib borayotganini kuzatish mumkin. Masalan, sun'iy intellekt sohasida ratsional algoritmlar muhim o'rin tutsa, inson sezgilari va intuitiv qaror qabul qilish mexanizmlarini o'rganish ham dolzarb masala sifatida ko'rilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ratsionalizm va irratsionalizm falsafiy merosning ajralmas qismlari bo'lib, bilim va tafakkur shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ratsionalizm inson tafakkurining analitik va tizimli yondashuvini ifodalasa, irratsionalizm inson ichki kechinmalari, sezgi va intuitiv idrok orqali haqiqatni tushunishga imkon yaratadi. Ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi farqlar ularning falsafiy merosdagi o'rnini yanada aniqroq ko'rsatib beradi.

Zamonaviy ilmiy va falsafiy tadqiqotlarda ratsional va irratsional yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida baholanmoqda. Bugungi kunda ko'plab sohalar, jumladan, psixologiya, san'at, falsafa va ilm-fan ushbu yondashuvlarning uyg'unlashuvi asosida rivojlanyapti. Inson tafakkuri va madaniyatining rivojlanishi uchun ham ratsional, ham irratsional yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, falsafiy merosni to'g'ri tushunish va baholash uchun ratsional va irratsional yondashuvlarni chuqur anglash talab etiladi. Ushbu yondashuvlarning uyg'unlashuvi falsafiy tafakkurning yanada boyishiga va insoniyat tafakkurining yangi bosqichlarga chiqishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. Descartes, R. (1641). *Birinchi falsafiy mulohazalar*.

3. Spinoza, B. (1677). *Ethica*.
4. Leibniz, G. W. (1714). *Monadology*.
5. Schopenhauer, A. (1818). *The World as Will and Representation*.
6. Nietzsche, F. (1886). *Beyond Good and Evil*.
7. Bergson, H. (1907). *Creative Evolution*.
8. Forobiy, A. N. (X asr). *Fozil odamlar shahri*.
9. Ibn Sino (XI asr). *Kitob ash-Shifo*.
10. Russell, B. (1945). *A History of Western Philosophy*.
11. Popper, K. (1959). *The Logic of Scientific Discovery*.

INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Mamatova Madina Nizomiddin qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Ilmurodova Feruza Shakirovna

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar onggiga ta'siri tahlil qilinadi.Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo'lib,ayniqsa yosh avlod ularning asosiy foydalanuvchisi hisoblanadi.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi,psixologik holati va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.Bu maqolada internetning ijobiy va salbiy jihatlari,jumladan yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishga undash va ularning salbiy oqibatlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar beriladi

Kalit so'zlar: internet, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, ong, psixologik ta'sir, ta'lim, axborot xavfsizligi

Hozirgi kunda globallashuv jarayonida butun jamiyat hayotida o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining yana biri ijtimoiy tarmoqlardir. Ayniqsa, yosh avlod, ijtimoiy tarmoqlarni juda ham yaxshi ko'radi.Albatta, ko'pchilik bu tarmoqlarni ma'qullaydi va unga ijobiy baho beradi. Chunki, hozir ijtimoiy tarmoqlar bo'sh vaqtni o'tkazishning eng yaxshi vositasi hisoblanadi.Endi ijtimoiy tarmoqlarning bizning hayotimizga, dunyoqarashimizga ongimizga, aql-u shuurimizga va sog'ligimizga salbiy ta'siri borligini unutmasligimiz kerak.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlari ham mavjud.Ta'lim va bilim olish imkoniyatini yaratadi.Ya'ni bu internet yoshlar uchun cheksiz bilim manbai hisoblanadi.Elektron darsliklar, ilmiy maqolalar, onlayn kurslar va interaktiv o'quv platformalar orqali ular yangi bilimlari o'zlashtirishlari mumkin.Masalan,hozirgi kunda yoshlar ko'proq tillarni o'rganishlari kerak.Tillarni o'rganishlari uchun juda qulay platforma bu IBRAT ACADEMY platformasidir.Shu bilan birga YOU TUBE, COURSERA GOOGLE kabi platformalar xohlagan mavzudagi ma'lumotlarni chiqarib beradi.

Ijodiy fikrlash va o'zini rivojlantirishi ham mumkin.Ijtimoiy tarmoqlar ijodiy yoshlar uchun o'z iste'dodlarini namoyish etish imkoniyatini beradi.Blog yuritish,video va podkastlar yaratish,grafik dizayn va boshqa sohalar bo'yicha tajriba orttirish uchun turli platformalar mavjud.Internet yoshlarning dunyoqarashini

kengaytirishga yordam beradi.Ular boshqa mamlakatlar madaniyati, urf-odatlari, bilan tanishish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, turli millat vakillari bilan do'stlashish orqali xalqaro tajriba orttirishi mumkin.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga salbiy ta'sirlari ham bor. Ruhiy va psixologik muammolar keltirib chiqaradi.Ijtimoiy tarmoqlardagi doimiy muloqot ba'zan yoshlarni strees, depressiya va yolg'izlikka olib kelishi mumkin.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,doimiy ravishda boshqalarning hayotini kuzatish o'zini past baholash va norozilik hissini kuchaytiradi.Ideal hayot hayot tasviri yaratish tendentsiyasi tufayli ko'plab yoshlar o'zlarini boshqalar bilan solishtirib, o'z hayotidan qoniqmaslikni his qilishadi.Ijtimoiy tarmoqlar diqqatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.Ya'ni ulardan ortiqcha foydalanganligi tufayli diqqati buziladi.Ular uzoq muddatli o'qishga yoki ishga e'tibor qaratishda qiynalishlari mumkin.

Xususan, qisqa formatdagi kontentlar Tik tok,Reels,Shorts kabi qisqa kontentli vidiolar diqqatning qisqa muddatli bo'lishiga olib kelishi mumkin.Hozirda shu Instagram platformasidagi qisqa reelslar ko'payib ketdi.Ularni uzoq kuztishmaslik kerak.Faqatgina foydali vidiolarini ko'rish muhim.Ta'lim va kasbga oid vidiolarni kuzatishimiz zarur.

Ko'pchilik yoshlar internet orqali muloqot qilishga odatlanib,real hayotda yuzma-yuz suhbatlashish ko'nikmalarni yo'qotib qo'yishlari mumkin.Bu esa ularning jamiyat bilan muomala qilish qobiliyatini pasaytirishi va ijtimoiy tashvishlarni kuchaytirishi mumkin.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar turli xil tarmoqlarda yoshlar turli xil axborot oqimlariga duch kelishadi.Biroq,ushbu axborotning barchasi ishonchli emas.Soxta ma'lumotlar,manipulyativ content, va yolg'on xabarlar yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z shaxsiy ma'lumotlarini ochiq e'lon qiladilar, bu esa ularning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Masalan, firibgarlar, kiberjinoyatchilar shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlashi va noqonuniy maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Yoshlar o'z fotosuratlarini yoki maxfiy ma'lumotlarini notanish odamlar bilan bo'lishganda,bu kelajakda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.Masalan ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar o'rtasida tanishuvlar ko'payib ketdi.Bular ,albatta,yaxshilikka olib kelmaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar va intenetdan yoshlarimiz samarali foydalanishi kerak.Ya'ni 3 ta aniq maqsadni qo'yib olish zarur.

1.Ta'lim va o'qish- onlayn kurslar,ilmiy maqolalar va darsliklarni o'qishni

2.Shaxsiy rivojlanish-kasbiy ko'nikmalarni oshirish,xorijiy tillarni o'rganish,ijodiy loyihalar bilan shug'ullanish.

3.Muhim yangiliklardan xabardor bo'lish-rasmiy va ishonchli manbalardan ma'lumot olish.

Ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari ko'p vaqt o'tkazish vaqtni isrof qilishga olib keladi.Bunga yo'l qo'ymaslik uchun, kun davomida qancha vaqt internetga ajratilishlarini oldindan belgilash,o'qish yoki ish vaqtida ijtimoiy tarmoqlardan yoki internetdan foydalanishni cheklash,maxsus ilovalardan foydalanish vaqtimizni monitoring qilish uchun "StayFocusd","Forest" kabi ilovalardan foydalanishimiz kerak. Bu tavsiyalar yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ularning ongiga ta'sir ko'rsatmasligi uchun keltirildi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanilganda ulkan imkoniyatlar yaratadi.Muhimi,vaqtni to'g'ri boshqarish faqat ishonchli manbalarga tayanish va shaxsiy xavfsizlikni saqlashdir.Internetdan samarali foydalanish nafaqat bilim va tajribani oshiradi,balki insonning ruhiy salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Arakulov G. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga psixologik ta'siri masalalari. "Bola va Zamon" ilmiy-ommabop jurnali, 3/2023, 28-30-betlar.
2. Kushakova Nargiza Islambaevna. (2022). Yoshlarning ijtimoiylashuviga internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnali, 4/2022.
3. Amonova Munisa Shavkat qizi, Xo'jageldiyeva M. (2023). Insoniyatni qamrab olgan internet tarmoqlarining yoshlar ongiga salbiy ta'siri. "Obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire" jurnali, 29(1), 173–178.

INSONLAR HAYOTIDA VAQTNING QADRI.

Eronov Samarbek
dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
Abdujabarova Malika
talaba, Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali,

ANNOTATSIYA.

Insonlar hayotida vaqtning qadri turlicha taqlimlanadi va har kim o`z vaqtini o`zi bilgan ishlar bilan o`tkazadi, ya`ni oddiy inson bilan biznesmenlar, olimlar va boshqa buyuk insonlar vaqtni turlicha taqsimlashadi. Oddiy insonlardan ko`ra olimlarning vaqti mazmunliroq va foydali ishlari ko`proq hisoblanadi. Buning asl sababi esa ularning vaqtni to`g`ri taqsimlay olishi va ularga beriladigan vaqtda baraka borligida. Oddiy insonlar vaqtni qadriga olimlar kabi yetishmaydi yoki bunga unchalik ahamiyat berishmaydi.

Kalit so`zlar: Iqtiboslar, faylasuflar fikrlari, turli madaniyarlardagi qarashlar.

Hozirgi kungacha ko`plab olimlarimiz vaqtni naqadar qadrli ekanligini va unga e`tiborli bo`lishimiz haqida o`zlarining asarlarida bayon qilib ketishgan ulardan bir nechtasini ko`rib chiqamiz. Rim faylasufi Seneka vaqtning qadrini falsafiy nuqtai nazardan yoritadi va uning so`zlari insonlarni chuqur ta`sirlantiradi. Iqtiboslari:

"Hayot yetarlicha uzun, agar uni oqilona sarf qilsang, eng buyuk va eng sharafli ishlarni bajarishga yetadi. Lekin agar u beparvolik va maqsadsizlikda o`tsa, oxirida birdaniga hayotning o`tib ketganini anglaysan".

"Odamlar boshqalarga vaqtini berib, o`z hayotlarini qisqartiradi, lekin o`zlari uchun bir daqiqa ham ajratmaydi". Bu fikr insonning o`z vaqtini boshqalar uchun sarflab, o`ziga e`tibor bermasligini tanqid qiladi va shaxsiy maqsadlarga e`tibor qaratishni eslatadi.

Stiven Kovi – vaqtni samarali boshqarish bo`yicha amaliy maslahatlar beradi. Fikrlari: "Agar siz vaqtni boshqarmasangiz, u sizni boshqaradi". "Muhimlik va shoshilinchlikni ajratish kerak. Ko`p insonlar shoshilinch, lekin ahamiyatsiz ishlarga berilib ketadi".

Viktor Frankl – hayotning ma`nosi va vaqtning qadrini chuqur falsafiy nuqtai nazardan ochib beradi. Iqtiboslar: "Hayotning ma`nosi shundaki, har bir inson o`ziga xos maqsad va vazifaga ega. Vaqtni mazmunli o`tkazish uchun bu maqsadni topish va unga intilish kerak". "Har bir lahza o`ziga xos imkoniyatni yashiradi va bu imkoniyatni qo`ldan boy bersangiz, u abadiy yo`qoladi".

Amerikalik faylasuf Ralph Waldo Emerson o`zining "O`z – o`ziga ishonch" esseysida vaqtning qadrini quyidagicha ta`riflaydi: "Har bir kun – yangi hayot. Har

tong yangi imkoniyatlar olib keladi. Vaqtni hozirgi paytda yashash va undan to`liq foylanish kerak". "O`tmishga qaramang, kelajak haqida ortiqcha o`ylamang. Hozirgi lahza – sizning qo`lingizdagi yagona boylik".

Brazil yozuvchisi Paulo Koelo o`zining mashhur "Alkimyogar" asarida vaqt va hayot ma`nosi haqida quyidagi fikrlarni aytadi: "Har bir insonning o`z yo`li bor va bu yo`lda har bir lahza muhim. Vatni to`g`ri ishlatish – o`z yo`lingni topish demakdir". "O`tmish va kelajak – faqat hayol. Haqiqiy hayot hozirgi paytda kechmoqda".

Alisher Navoiy o`z asarlarida vaqtning qadrini bilish va undan unumli foydalanish haqida ko`p yozgan. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida quyidagi misralar bor: "Vaqt oltindan qimmat, har bir nafasni g`animat bil ey do`st".

Turli madaniyatlardagi qarashlar:

1. Sharq madaniyati (Buddist ta`limotlari) Buddizmda vaqt "hozirgi lahza" sifatida qadrlanadi. Har bir inson o`tgan va kelajak haqida o`ylashdan ko`ra, hozirgi vaqtni to`la his qilish kerak, chunki faqat shu lahza haqiqiy.
2. G`arb madaniyati (Xristianlik) Xristianlikda vaqt chiziqli jarayon sifatida qaraladi. Hayot vaqtinchalik sinov sifatida ko`riladi va inson uni oxiratga tayyorgarlik uchun sarflashi sarflashi lozim.
3. Hind madaniyati (Hinduizm) Hinduizmda vaqt siklikdir. "Samsara" tushunchasi orqali hayot va o`limning cheksiz davomi tasvirlanadi. Vaqt bu jarayonda abadiy oqim sifatida qaralari.
4. Islom madaniyatida "Vaqtning o`ziga xos o`rni va qadri bor, chunki u inson hayotining eng muhim boyligi sifatida qaraladi. Islom ta`limotlariga ko`ra, vaqtni to`g`ri boshqarish va uni foydali ishlar, ibodat va yaxshi amallar uchun sarflash orqali inson o`z dunyosi hamda oxiratini obod qilishi mumkin".
5. Afrika madaniyati (Ubuntu falsafasi) Afrikada vaqt ko`pincha jamoaviy hayot bilan bog`liq. "Men borligim sababli biz bormiz" degan falsafada vaqt birgalikda o`tkazilgan lahzalarda qadrlanadi.

Vaqt degan ne`matdan juda kam kishilargina to`g`ri foydalanadi. Imom Shofe`iy rohmatullohi alayh vaqtning qadri haqida bunday deganlar: "Men so`fiylar bilsn birga yurib, ulardan ikki narsani o`rgandim: Biri vaqt qilichidir, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi. Ikkinchisi nafsingni haq bilan mashg`ul qilmasang, u seni botil bilan mashg`ul qiladi". Inson har tong yangi kunni qarshi olar ekan, uning ixtiyoriga 24 soat vaqt beriladi. Bu unga har kuni beriladigan 1440 daqiqa yoki 86400 soniyalik fursatdir. O`tayotgan vaqtimiz haqida o`ylab ko`radigan bo`lsak, soat millarining "chiq – chiq" lari, aslida aziz umrimizning to`xtovsiz parchalanib ketayotgan onlari ekanini his etamiz. Ushbu onlar bizning yaxshi yoki yomon amallarimizga guvoh bo`lib o`tib bormoqda. O`tayotgan har bir lahza inson hayoti va

umrining bir qismidir. U qiyomat kuni insonning foydasiga yoki zarariga guvohlik beradi. Shuning uchun musulmon kishi o`tkazayotgan vaqtini ziyrak tijoratchi kabi har doim sarhisob qilib borishi lozim. Har kun, hafta, oy va yilda musulmon kishi o`tayotgan vaqtida nimadan foyda ko`rgani, nimadan zarar ko`rgani, foyda qancha bo`lgani, zarar qancha bo`lgani, foyda nima sababli bo`lgani, nima sababli zarar ko`rganini sarhisob qilib, foydani oshirib, zararni yo`qotishga urinib borishi lozim. Chunki tijoratchi yo`qotgan molini yana ortig`i bilan qo`lga kiritishi mumkin. Ammo vaqtini yo`qotgan inson esa uni qayta qo`lga kiritishi aslo mumkin emas. Umar ibn Abdulaziz rohmatullohi alayh ish ko`pligidan sal horg`in ko`ringanlarida yaqinlaridan biri achinib: "Bu ishingizni ertaga qoldira qoling", debdi. Shunda u zot: "Bir kunning ishi og`ir kelmoqda – ku, ikki kunning ishi to`planib qolsa, qanday bajaraman", deb javob bergan ekan.

Inson gohida sog`lom bo`lsa – da, og`ir mehnat bilan band bo`lganligi sababli fazilatli amallarni o`zlashtirish uchun fursat topa olmaydi. Ba`zida esa og`ir mehnatlardan qutulgan bo`lsa ham, uning sog`lig`i yo`q bo`ladi. Agar bir insonning sog`lig`i ham, bo`sh vaqti ham bo`lsa – yu, fazilatlarga erishib qolishga harakat qilmasa, uning ana shu dangasaligi ulardagi ulushdan mahrumlikdir. Zero, har xil to`siqlarga to`la va qisqagina umrdan imkon qadar foydalanib qolmasdan behuda o`tkazib yuborish eng qimmatli ulushdan benasib qolishdir. Bungungi kunda vaqtni behuda amallarga sarflash oddiy hol bo`lib qolgani hech kimga sir emas. "Falon joyda yangi oshxona ochilbdi", deyilsa, vaqtini isrof qilayotganiga parvo ham qilmay yangi oshxona sari otlanadiganlar, hatto ovqatlanib kelish uchun shahar tashqarisiga yoki boshqa shaharlarga ham borib keladiganlar borligi haqiqatdir. "Bir marta keladigan dunyoda o`ynab – kulib yurib qolish" ni aytib, shu "tashvish" bilan yashayotganlarga ulamolar quyidagicha nasihat qilganlar: "Aslida dunyoga bir marta keladigan bo`lganimiz uchun amal qilib qolishimiz lozim. Chunki bizga abadiy rohat farog`atni qo`lga kiritish uchun faqat bir marta dunyoda turish muddatigina imkoniyat qilib berilgan. Ana shu bir martalik imkoniyatni vaqtinchalik narsalarga chalg`ib qo`ldan boy berish aqlli insonlarning ishi emas".

Vaqtga e`tiborli bo`lish muhimligi bayon etilar ekan, o`rtacha yetmish besh yillik umr tahlil qilib ko`riladigan bo`lsa, asosiy vaqt nimalarga sarflanishi yaqqol namoyon bo`ladi:

- O`n besh yil atrofidagi vaqt bolalik va o`smirlik bilan o`tadi;
- Qolgan oltmish yilda agar bir sutkada sakkiz soat uxlasa, yigirma yil umr uyqu bilan o`tadi;
- Agar bir sutkada sakkiz soat kasb – kor bilan mashg`ul bo`lsa, yigirma yil umr ishlashga sarflangan bo`ladi;

- Agar bir sutkada uch mahal ovqatlansa, har ovqatlanishiga yarim soatdan vaqt sarflasa, uch yilu to`qqiz oy umr ovqatlanishga ketadi;
- Qolgan o`n olti yil umr ibodat, oil ava shu kabi hammaning o`zi yaxshi ko`rgan mashg`ulotlariga sarflanadi.

O`tgan ulamolarimiz ilmga va vaqtga shu qadar e`tiborli bo`lganlarki, hatto o`z farzandlari bu olamni tark etganda ham ularni o`zlari dafn qilishdan ko`ra, o`sha vaqtda ilm olib qolishni avfzal bilishgan.

REFERENCES

1. Paulo Koelo "Alkimyogar" 1998y (asl nashr), o`zbek tilida 2015y 45-47-betlar, 112-114-betlar. Nashriyot: "Yangi Asr Avlodi" ISBN 978-9943-27-123-4.
2. Stiven Kovi "Yuqori samarali odamlarning 7 odati" 1989y (asl nashr), o`zbek tilida 2018y 150-155-betlar, 160-162-betlar. Nashriyot: "Nihol" ISBN 978-9943-10-123-4.
3. Viktor Frankl "Inson ma`no izlab" 1946y (asl nashr), o`zbek tilida 2019y 80-82-betlar, 120-125-betlar. Nashriyot: "Akademnashr" ISBN 978-9943-15-123-4.
4. Ralph Waldo Emerson "O`z-o`ziga ishonch" essey 1841y (asl nashr), o`zbek tilida 2005y 10-12-betlar, 20-25-betlar. Nashriyot: "Sharq" ISBN 978-9943-00-123-4.
5. Alisher Navoiy "Xamsa" "Hayrat ul-Abror" 2010y 50-52-betlar. Nashriyot: "O`zbekiston" ISBN 978-9943-01-123-4.
6. Abdulfattoh Abu G`udda "Ulamolar nazdida vaqtning qadri 2021y 4-19-betlar. Nashriyot: "Munir" ISBN 978-9943-7161-3-1.

INTERNETDAN FOYDALANISH ODOBLARI

Normurodova Sabina Laziz qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim pedagogika 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada internet, uning paydo bo'lishi, maqsadi va vazifalari, ijobiy va salbiy tomonlari, axborot asri davrida yoshlarni axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog`lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerakligi, ota-onalar va pedagoglarning ma`naviy-ruhiy holatiga ta'siri, yoshlarga sog`lom axborot muhitini yaratib, ular ma`naviy olamining boyitish haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so`zlar:** Internet, xalqaro ma`lumotlar, AKRA, kompyuter, elektron liniyalar, matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa.

Kirish. "Internet" so`zining ajnabiy tildagi qisqartirilgan jumla bo'lib, tilimizda "xalqaro ma`lumotlar to'ri" degan ma`noni anglatadi. Ammo bu nom ixtiyor qilinganidan keyin internetning tinmay rivojlanishi oqibatida u faqat ma'lumotlar taqdim va qabul bilan cheklanib qolmay, bundan ham katta hajmdagi ishlarni olib borishga xizmat qiladigan bo`lib ketdi. Hayotning barcha sohalarida internet yordamida osonlik, arzonlik va tezlik foydalari ko'zlanadigan bo'ldi.[38]

Internetdan foydalanmoqchi bo'lgan odam niyatni yaxshi qilgan bo'lishi kerak**.** Albatta inson har bir narsada bo'lgani kabi, internetdan foydalanishda ham faqat yaxshilikni, ruxsat berilgan narsalarga muvofiq ish qilishni niyat qilishi lozimdir. Ana shundagina bu ishidan foyda topadi, ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Internet tizimi XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. O'sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi bilan kompyuterlar telefon tarmoqlariga ulana boshladi. Dastlab, bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi (AKRA) tadqiqotlari doirasida olib borildi. Bu tadqiqotlar sovuq urush avj olgan davrga to'g'ri keldi. AQSH mudofaa departamenti urush bo'lib qolgan taqdirda oddiy kommunikatsiya vositalari ishdan chiqqudek bo'lsa, o'rniga yangi qo'shimcha kommunikatsiya vositalarini izlash bilan faol shug'ullandi. 60-yillar oxiri va 70-yillarda Internet tarmog'i uncha keng rivojlanmadi. Dastlabki o'n yillik xalqaro tarmoq, asosan, harbiylar va yirik olimlarning shaxsiy elektron liniyalari faoliyati doirasi bilan cheklandi. Internetning beqiyos rivojlanish sur'ati davlat, ta'lim,

[38] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Ijtimoiy odoblar, "HILOL-NaSHR" ,T, 2024-y, B-248

akademik va ijtimoiy tuzilmalarning o'ziga xos umumiy moliyaviy va intellektual ulushiga bog'liq bo'ld

[39]Internet uy, biznes va boshqa foydalanuvchilar tomonidan kompyuter va mobil qurilmalarning sotib olinishiga birgina sabab bu internetdan foydalanish imkoniyatidir. Internet butun dunyo tarmoqlarining tutashgan shakli bo'lib millionlab vazifalarni, hukumat agentliklari, ta'lim muassasalari va shaxslarni bir biri bilan aloqa qilishlarini ta'minlaydi. Internet provider manbalaridagi har bir tarmoq internet orqali foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar, xizmatlar va resurslarning mo'lligini ta'minlaydi.

Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o'rni, zamon va makondan qat'iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o'zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste'molchilarga ma'lumotni saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko'rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi.

[40]Internetda foydali ma'lumotlar bilan bir qatorda zararli, buzuq ma'lumotlar ham tarqalmoqda. Aqiydaga putur yetkazuvchi behayolikni targib qiluvchi, axloqsizlikni tarqatuvchi va shunga o'xshash inson zotiga or keltiruvchi ishlarni targ'ib qiladigan saytlar ko'payib bormoqda. Ba'zi odamlar internet orqali bir-birigatuxmat qilmoqda, haqoratlab bir-birini sharmanda qilmoqda.

Albatta internetdan foydalanganda barcha inson yahshi niyatda, yaxshi amallarda foydalanishi kerak.

Abdulqodir Rahoviy rivoyat qilgan:

[41]Internetda ko'riladigan, o'qiladigan va eshitiladigan narsalarning barchasi shariat ruxsat bergan narsalar bo'lishi shart.

Zotan, musulmon insonning hamma yerda, barcha zamonlarda va barcha vaziyatlarda qiladigan gap-so'zlari-yu, ish va faoliyati shariatga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Ammo, ming afsuslar bo`lsinki, saytga kiradigan ba`zi odamlar hayotda o'zlariga ravo ko'rmaydigan narsalarni saytda bemalol ep ko`rishadi. Ular o'zlaricha, "bu ish hayotdagi saviyada emasku", degan hayolga borishlari mumkin. Aslida esa bu nosha'riy ishlarni ravo ko'rganlarning axloqiy saviyasida nuqson bor. Hayotda

[39] Discovering Computers:Tools,Apps,Devices,and the Impact of Technology, Cengage Learning 20 Channel Center Street Boston, MA 02210 USA (2 bob 56 bet)
[40] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Ijtimoiy odoblar, "HILOL-NaSHR" ,T, 2024-y, B-249
[41] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Ijtimoiy odoblar, "HILOL-NaSHR" ,T, 2024-y, B-252

odamlar uni ko'rib-bilib turgani uchun o'zgalar gapirmasin deya o'zini yomonlikdan tiygan bo'ladi. Saytda esa odamlar ko'rmaydi ham, bilmaydi ham. Buning ustiga, saytda ismini ham o'zgartirib, tamoman biror kishi tanimaydigan bo'lib oladi. Demak, uning shariat talablariga amal qilishi xo'ja ko'rsinga, to'g 'riroq aytganda, munofiqlikka asoslangan bo'ladi.

Ko'pchilik ota-onalar farzandlarining ineternetda vaqtlarini o'tkazishlaridan aziyat chekmoqdalar. Dastlab katta yoshdagilar tarmoqni yangi bilimlarning cheksiz manbai sifatida ijobiy qabul qilgan edilar. Ko'p o'tmay Internetdan o'smirlar uy vaziflarini bajarish yoki foydali manbalarni izlash uchun emas, balki chatda so'zlashish va onlayn o'yinlarini o'ynash bilan cheklanayotganligi aniq bo'ldi.

Bolalarni o'yin bilan boshqa mashg'ulotlari orasida muvozanatini saqlash ota-onalar uchun doimiy yumush bo'lib kelgan. Internetning paydo bo'lishi bu vazifani yanada murakkablashtirib yubordi. Internetdagi muloqot va interaktiv o'yinlar bolalarni vaqtni sezish idrokini susayishiga olib kelmoqda. Quyida keltiriladigan bir necha maslahatlar farzandingizni Internet-tobeligidan xalos bo'lishiga yordam beradi.

Xulosa. Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik borasida ham muammolar kamaygani yo'q. Barcha kerakli avtiviris va boshqa axborot xavfsizligini ta'minlovchi dasturlarga ega bo'lsangiz ham, sizning internetdagi faoliyatingiz hech qachon 100 foiz xavfsiz bo'lmaydi. Parolni kuchli tanlash yoki zararli saytlarga kirmaslik orqali sizga bo'ladigan xavf darajasini minimumga tushirishingiz mumkin, ammo agar xakkerlar shaxsan sizini hujumga olishni qasd qilsa, ular tahdididan omon chiqishingiz ehtimoli juda kam. Albatta, oddiy odamlarning qasddan qilingan xakkerlar hujumiga duch kelishi deyarli uchramaydi.

Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma'naviy-ruhiy ko`magiga muhtoj. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero, yoshlar ma'naviyatiga daxldor yumushlarda beparvolikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Ijtimoiy odoblar, "HILOL-NASHR" ,T, 2024-y, B-248-252
2. Discovering Computers:Tools, Apps,Devices, and the Impact of Technology, Cengage Learning 20 Channel Center Street Boston, MA 02210 USA (2 bob 56 bet)

3. Yahyo Muhammad Amin, Internetdagi tahdidlardan himoya, T, 2020-y, B-224
4. https://izoh.uz/word/internet

ROMANTIK DAVRNING VIRTUOZ PIANINOCHISI

Xoltoyeva Iroda Asad qizi.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 1 bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: **Arslon Komilovich Nafasov.**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Romantik davrning virtuoz pianinochisi va Polshalik bastakor Frederik Fransua Shopenning hayoti va ijodi, o'z maqsadlariga to'xtovsiz harakati orqali erishganligi haqida keng yoritilgan. U o'z davrining yetakchi musiqachisi sifatida jahon miqyosida shuxrat qozondi, uning «poetik» ijodi o'z avlodida tengi bo'lmagan professional texnikaga asoslangan.

Kalit so'zi: Romantik, virtuoz pianinochi, poetik janr, professional texnika, to'xtovsiz harakat.

АННОТАЦИЯ

Аннотация: В данной научной статье рассказывается о жизни и творчестве Фредерика Франсуа Шопена, пианистика виртуоза эпохи романизма и польсково композитора, добившегося своих целей непрестанним действием. Он получил мировую известность как ведущий музикант своего времени, его « поетический» творчество основано на не имеюшей себе равных в его поколении профессиональной технике.

Ключевые слова: Романтический, пианист виртуоз, поетический, профессиональная техника безастановочной действие.

ANNOTATION

This scholarly article explores the life and work of Frederc Francois Chopin a virtuoso pianist of the Romantic era and Polish composer, and how he achieved his goals through relentess effort. He gained wordwide fame as the leading musician of his time, his poetic work based on a professional technique unmatched by his generation.

Keywords: Romantic, virtuoso pianist, poetic, professional technique, continuous movement.

KIRISH.

Frederik Shopen Varshavadan 46 kilometr g'arbda, o'sha paytda Napoleon tomonidan tashkil etilgan Polsha davlati, Varshava gersogligi bo'lgan Zelozava Volada tavallud topgan. Aslida 1810 yil 23 aprel sanasi bo'lgan uning tug'ilgan kuni cherkov cho'qintirish yozuvida 1810 yil 22 fevralda ko'rsatilgan va uning ismlari lotincha Frederik Fransua shaklida keltirilgan.

Uning otasi Nikolas Shopen 1787 yilda o'n olti yoshida Polshaga hijrat qilgan Lotaringiyalik fransuz edi. U o'zi ishlagan oilalardan biri bo'lgan Skarbeklarning kambag'al qarindoshi Justina Krzyzanovskaga uylandi. Shopen ota onasi turmushga chiqqan Broxovdagi cherkovda cho'qintirilgan. Uning o'n sakkiz yoshli cho'qintirgan otasi Nikolas Shopenning shogirdi Fryderyh Skarbek edi. Shopen Nikolas va Justinaning ikkinchi farzandi va ularning yagona o'g'li edi. Uning katta opasi Ludvika va ikkita kichik singlisi Izabella va Emilia bor edi, ular 14 yoshida sil kasalligdan vafot etgan.

1810- yil oktyabr oyida, Shopen tug'ilgandan so'ng olti oy o'tgach, oila Varshavaga ko'chib o'tdi, u yerda otasi Varshava litseyida fransuz tili o'qituvchisi lavozimini egalladi. Shopen oilasi bilan saroy hududida yashagan. Otasi nay va skripka chalardi, onasi pianino chalar va Shopenlar yashaydigan pansionatda o'g'il bolalarga dars berardi. Shopenning tanasi yengil edi va hatto erta bolalikdan ham kasalliklarga moyil edi.

ASOSIY QISM

Shopen oilasidan pianoni chalishni o'rgangan bo'lsa-da, lekin uning birinchi professional musiqa o'qituvchisi 1816- yildan 1821- yilgacha Chexiyalik pianinochi Vojiech Jivniy edi. Uning katta opsi Ludvika ham Jivniydan saboq olgan va vaqti-vaqti bilan ukase bilan duet ijro etgan. Yetti yoshida Shopen ommaviy konsertlar berishni boshladi va 1817- yilda "g-minor va B- flat major"da ikkita plonez yaratdi. Uning navbatdagi asari, 1821- yilda Jivniyga bag'ishlangan "A-flat major"dagi plonez uning saqlanib qolgan eng qadimgi musiqiy qo'lyozmasi hisoblanadi.

Shopen 1829-yilda Varshava konservatoriyasini yugatgach, imtihon ro'yhatida quyidagi izoh paydo bo'ladi: "Frederik Shopen- musiqa dahosi." Bu vaqtda u orkestrli fortepiano uchun ikkita konsert yozib ulgurgandi. Hozir ular butun dunyoga mashhur va odamlar haligacha sevib tinglaydi.

Shopen Polshani yaxshi ko'rardi, ammo kasb taqazosi bilan sayohat qilishga majbur edi. 1830-yilda ilk konsert sayohati uchun Yevropaga yo'l oladi. U endi hech qachon ona vatanini ko'ra olmasligini bilmasdi. 1830-1831-yillarning qish oylarini Venada o'tkazadi, keyin Parijga ko'chadi. Bastakor u yerda qisqa umrining ikkinchi yarmini yashaydi. Ijodkor ko'p, sermahsul ishlardi va tez orada nafaqat o'z asarlari, balki fortepianodagi ajoyib ijrosi bilan ham e'tirofga tushadi. U boshqa

bastakorlardan farqli o'laroq, asosan asilzodalar toplanadigan joylarda ijro qilar va zaif sog'ligi sabab omma oldiga ko'p chiqmas edi.

Shopen zamonasining taniqli musiqachilari, jumladan, Ferens List, Gektor Berlioz, Vinchento Bellini, yozuvchi va shoirlardan Adam Mitskevich, Genrix Geyne, Onorede Balzak, Ivan Turgenev kabilar bilan uchrashgan edi. Fransuz rassomi-Ejen Delakrua fransuz revolyutsiyasi detallariga oid suratida Shopenning ijro vaqtidagi ilhomlangan yuzini tasvirlagan edi. Ferens List uni mashhur fransuz yozuvchisi Jorj Sand bilan tanishtiradi. Ayol esa 1838-yilda Shopenning mashuqasiga aylanadi. Ular birgalikda Mayorka oroliga sayohat qiladi, Shopen u yerda sil kasalidan davolanadi.

Avrora Dyudeven (yozuvchi Jorj Sandning haqiqiy ismi) uyida Shopen ko'plab ajoyib ijod namunalarini yaratadi. Lekin bastakor hayoti yurt sog'inchi va kuchayib borayotgan o'pka xastaligidan zulmatga cho'mgan edi. U 1849-yil 17-oktyabrda vafot etadi. Shopen Parijdagi Pyer-Lasher qabristonida dafn etiladi. Uning yuragini esa kumush idishda vataniga olib borib, Varshavada, o'zi bir paytlar yashagan hudud yaqinidagi Ilohiy Xoch cherkovi devoriga qotirib qo'yiladi.

Shopen kam sonli cholg'ular uchun asar yozadigan bastakorlar turiga kirar edi. U o'zining barcha asosiy asarlarini fortepiano uchun yozgan. Uning ijodida bu cholg'u asbobi avval takrorlanmagan yorqin ohang bilan jaranglardi. Shopen yozgan musiqa ajoyib, tantanali polonyez, tezkor, jonli mazurka va orzumand balladalar-polshacha ruhiyatga yo'g'rilgan. Bu kuylar polshaliklarni Rossiya, Prussiya va Avstriyaga qarshi ozodlik kurashi uchun ilhomlantirardi. Vals va romantic noktyurnlarida Shopen royalni so'zlash, hatto kuylashga majbur qilib yuborardi.

XULOSA

Varshavada har 5 yilda bastakor nomi bilan xaqaro tanlov o'tkazilishi ham bejiz emas. Unda yosh ijodkorlar Shopen musiqalari bo'yicha bellashadi. Ijrochining virtuoz (ijroning eng yuqori cho'qq'siga chiqish) texnikasi tan olinishi g'alaba hisoblanadi. Ferens List: "Shopenning polonezini tinglab turib, tubanlik va adolatsizlikka qarshi jasorat bilan qadam tashlayotgan odomlarning og'ir qadamlarini ko'rgandek bo'lasiz",- degan edi. Shu sabab ham uning musiqasi barchaga qadrli va tushunarlidir. Bastakor ijodi musiqachilarga ham, havaskorlarga ham qiziqarli bo'lib, har kim undan o'z qalbiga yaqinini topadi. O'zbekistonda Shopenning barcha asarlari pedagogik va konsert repertuaridan o'rin olgan, Navoiy teatrida "Shopeniana" baleti sahnalashtirilgan.

REFERENCES

1. Галущенкот И.Г. История музыка народов мира. Вып.3. Т., 2008.
2. История зарубежной музыки. Выпуск 1-6, М.-СПб., 1986- 2001.

MOL DUNYO VA BOYLIK ODOBLARI

Qo'shoqova Iroda Parda qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2 kurs 23/6 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ota-onaning vazifasi farzandini dunyoga keltirishdangina iborat emas. Farzand tarbiyasida muhim qoidalardan biri bolani yoshligidan jamiyat orasida o'zini chiroyli tutish, barchaga barobar samimiy, kamtarin bo'lish kabi odoblarga o'rgatish, mol-dunyo to'plashdagi odoblar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boylik, o'qish, o'rganish, sarmoya, ishga solish, ruhni charxlash, fikrni komillashtirish, tafakkurni yangilash, talon-taroj, kambag'al, kumush, tillo.

Kirish. Odamlarda boy va kambag'allik mezonlari turlicha. Xalqimizda bir naql bor: "Puli ko'p inson boy emas, nafsi to'q inson boydir". Kimdir qorni to'yib ovqatlanganiga yoki mebel, avtomobil sotib olganiga qanoat qiladi, o'zini boylar qatoriga qo'shadi. Boshqasi qo'sha-qo'sha uy-joy, muqim daromadga ega bo'lsa-da, kambag'alligi va yetishmovchilikdan noliydi.

Xalqaro matbuotda dunyoda boylar va kambag'allar o'rtasida tafovut oshib borayotgani mavzusi ko'p yozilmoqda. Keltirilishicha, jahondagi 26 ta boy insonning daromadi dunyo aholisi yarmining daromadidan ortiqdir. So'nggi yillar mobaynida boylar yanada boyidi va qashshoqlar undan-da qashshoqlashdi.

"Boy bo'lib tug'ilmaydilar, boy bo'lib yetishadilar", degan gap ham bor. Bu yerda asosiy gap "yetishish"da. Bu harakatlanish, takomillashish demakdir. Ishni maosh olish uchun bajarish odamni boy qilmaydi. Ishni sevib, sidqidildan bajargan kishiga daromad o'zi keladi. Boylikka erishish uchun oldiga maqsad qo'yish va harakat qilish, o'qish-o'rganish, sarmoyani to'plamay, ishga solish, ruhni charxlash, fikrni komillashtirish, tafakkurni yangilash talab etiladi.

Sobiq ittifoq mafkurasi sovet xalqi shuuriga boylarni zolim, ovsar, ma'naviyatsiz kishilar, kambag'allarni esa mazlum, oqil va qahramon sifatida singdirishni uddalagandi (afsuski, hamon jamiyatimizda bu asorat o'zining ayrim unsurlarini saqlab turibdi). Boshqacha aytganda, hukumat 1917-yil oktyabr inqilobi (to'ntarishi)ning bosh g'oyasi–"Yo'qolsin boylar, yashasin kambag'allar!" da'vatini hayotga tatbiq qila oldi. Uzoq yillar mobaynida boylarsiz kambag'allar (kambag'allik) gullab-yashnagan davlat dunyo siyosiy xaritasini "bezab" keldi.

Natijada ne-ne xalqlarning boylari – xalq koriga yarayotgan tadbirkorlar, ilg'or fikrli ishbilarmonlar, ziyoli ijodkorlar, siyosiy boshqaruvning elita vakillari jismonan

badnom etilib, boyliklari talon-taroj qilindi, oila a'zolari ko'chaga quvildi, boshpanasiz qoldirildi. Bu esa yoppasiga qashshoqlik va ma'naviy tanazzulga olib keldi, ko'plab xalq va millat vakillari qiynaldi, oyoqqa turib olish murakkab va uzoq kechdi.[42]

Boylik insoning o'z eshtiyojidan va oilasi extiyojidan orqit pul, maskan, ulov asbob - anjom va turli nematlarga ega bo'lishidir. U kambag'alikning ziddidir.

Mol so'zi arabcha "mola-yamilu" fe'lining o'zagi bo'lib qiymatga ega va ko'ngil mayli tortadigan narsani anglatadi. Ko'ngil mayli tortadigan qimmatli narsalarning hammasi - pul, tilla, kumush, ko'chmas va ko'char mulk va boshqalar mol dunyo deyaveradi. Bu narsalar ko'ngil tortishi ishtaxa qilishi deydila. Ishtaxa esa shahvat ma'nosini anglatadi. Shuning uchun Qur'oni Karimda bunday narsalarning borchasi shahvatlar deb atalagan.

Alloh taolo oliy imron surasida marhamat qiladi.

"Odamlarga ayollardan, farzandlardan, ko'p – ko'p tilla va kumushdan, boqilgan otlardan, chorvalardan, ekin, tekindan iborat shahvatlarning muhabbati chiroyli ko'rsatildi. Bular dunyo hayoting matoxidor. Va alloh - huzurida go'zal qaytar Joy bor zotdir."[43]

Islom boshqa dinlardan farq qilgan holda, ruhiy va moddiy talablarga adolat bilan qaraydi. U insonga moddiy manfaatlardan va lazzatlardan to'g'ri yo'l bilan foydalanishni man qilmaydi. Qur'oni Karimning ko'pgina oyatlariruhiy va moddiy manfaatlarni birdek ko'rishga chaqiradi.[44]

Har qanday zamonda ham yashash uchun harakat qilish kerak. Har holda harakat qilib boyish ham, boyimaslik ham mumkin, ammo harakat qilmasdan boyish ilojsizdir. Bugun moddiy va ma'naviy boylik, boylar va kambag'allar ma'naviyati haqida muxtasar fikr yuritmoqchimiz. Demak, avvalo moddiyat haqida...

Hozir mamlakatimizda boshqa muammolar qatori qashshoqlikka ham barham berishga qaratilgan islohotlar kechmoqda. Joriy yil 11-sentyabr kuni Prezidentimiz raisligida kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda kambag'allikni faqat pul tarqatish, nafaqa to'lash bilan hal qilib bo'lmasligi, buning uchun kambag'al oila a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhim ekaniga e'tibor qaratilib, mavjud vaziyat tahlil qilindi. Bu maqsad juda keng ko'lamli ekani, unga barcha hissa qo'shishi kerakligi ta'kidlandi.

"Tirishmoq rizq eshigining kalitidir", degan ekan mavlono Rumiy. Boqsangiz, aksariyat boy insonlarda ana shu fazilatni ko'rasiz. Bir-ikki merosxo'rni inobatga

[42] https://yuz.uz/uz/news/moddiy-va-manaviy-boylik-qay-biri-birlamchi
[43] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Ijtimoiy odoblar, "HILOL-NASHR" ,T, 2024-y, B-284
[44] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila, "HILOL-NASHR" ,T, 2023-y, B-151

olmasa, o'ziga to'qlikning zamirida tinimsiz mehnat, mashaqqat, maqsad sari intilish, tirishqoqlik jo. Nima uchun kimdir qo'liga katta mablag' tushib qolsa, bir-ikki kunda sovurib yuboradi? Boshqa birov esa o'sha pulni biror ishga tikib ko'paytiradi? Hamma gap pulga munosabatda! Deyl Karnegi "Boy bo'lishni istagan odam pulga oqilona munosabatda bo'lishi shart. Bu uni boshqalarga qaram qilmaydi. G'oliblar bilishadiki, insonni pul emas, undan oqilona foydalanish baxtli qila oladi. Pul ham shunga loyiq insonlarning qo'liga borib tushadi", degan edi.

Ko'hna rivoyatda keltirilishicha, qadimda qashshoqlikda arang kun kechiradigan bir kishining bisotidagi bittayu bitta tovug'i qo'qqisdan tilla tuxum tug'ibdi. U avvaliga birov hazillashgan, deb o'ylabdi. Lekin har ehtimolga qarshi tuxumni zargar huzuriga eltibdi. Zargar tuxum asl tilladan ekanini tasdiqlabdi va katta pul evaziga sotib olibdi.

O'sha kuni kechqurun kambag'al kishi katta bazm uyushtiribdi. Ertasiga katakka yo'l olsa, tovuq yana bitta tilla tuxum bosib yotibdi. Bu holat bir necha kun davom etibdi. Keyin esa nafsi hakalak otibdi. Kuniga bitta tilla tuxum kamlik qila boshlabdi. U tovuqni so'yib, hamma tuxumga birdan egalik qilmoqchi bo'libdi. Biroq tovuq tanasidan no'xatdek keladigan, hali homila holatidagi tuxumga duch kelibdi, xolos. Qissadan hissa: tuxum berayotgan tovuqni so'ymaslik kerak.

Boyib ketish – huquq! Hali hech qachon boyish bizning zamonamizdagidek oson bo'lmagan. "Unda nega hamma inson boy emas?" degan savolning javobi juda oddiy: insonlarning ko'pchiligi tilla tuxum qo'yayotgan tovuqni so'yib yuborishadi.

Pul – qo'lning kiri, deyishadi. Afsuski, qo'llarimiz top-toza, deguvchilar ham bor. Pul hayotdagi eng muhim narsa emas. U faqat qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi. Inson boyigani sari atrofidagilar oldida mas'uliyati shunchalik ortib boraveradi.

Azaldan boylik haqida gap ketganda, boylarning puli ko'plari emas, balki ular orasida saxovatlilari, ya'ni ehtiyojmand odamlarga qiladigan muruvvatlari, xayr-ehson, sadaqai joriyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki qadriyatimizda saxiylik eng yaxshi insoniy xulqlardan sanalib kelgan. Shukrki, davrimizda ham ana shunday olijanob boylar bor. Saxovat sohiblarining sa'y-harakati bilan qanchadan qancha ko'ngillar shod, g'amlar barbod, buning samarasi esa boylikka boylik qo'shilishida namoyon.

"Bizning pullarimiz hech qachon to'laligicha bizga tegishli bo'lmagan. Agar yaqinlarimizning muhtojligidan yuz o'girar ekanmiz, hech qachon to'la-to'kis baxtli bo'la olmaymiz. Biz butunning bir qismimiz, shu sababli atrofimizdagilardan

minnatdor bo'lishimiz, ular bilan bo'lishib, minnatdorligimizni namoyish qilishimiz kerak".[45]

Alloh taolo Jum'a surasida marhamat qiladi:

Bas, namoz tugaganidan so'ng yer yuzi bo'ylab tarqaling va Allohning fazlidan talab qiling hamda Allohni ko'p zikr qiling. Shoyadki, zafar topsangiz (10-oyat).

Namozdan keyin kim savdosiga, kim kasal ko'rgani, kim ilm talabiga va hokazo-hamma o'z ishiga qaytishi mumkin.

...va Allohning fazlidan talab qiling...

Allohning fazlini talab qilish davomida dunyoga haddan tashqari berilib ketib, yo'ldan adashish ham mumkin. Shuning uchun oyatning oxirida:

...hamda Allohni ko'p zikr qiling. Shoyadki, zafar topsangiz , deyilmoqda.

Mol-dunyoga muhabbat qo'yish insonning tabiatida bor. Bu muhabbat bo'lmasa, dunyo obod bo'lmaydi. Alloh taolo Fajr surasida marhamat qiladi:

Va molni ko'p yaxshi ko'rasizlar (20-oyat).

Islom inson mol jamlash orqali erishadigan turli foydalarni inkor qilmaydi. Balki Qur'oni karim bir necha o'rinda molni xayr - yaxshilik deb atagan.

Mol jamlash odoblariga rioya qilish.

Mol Alloh taolonikidir.

Alloh taoloning roziligi uchun mol ne'matiga shukr keltirish shartdir.

Mulkdor bo'lish og'ir mas'uliyatdir.

Mol-dunyo topish yo'llariga va manbalariga ahamiyat berish o'ta zarurdir.

Molu dunyo va boylik odoblaridan biri oila a'zolari va qaramog'idagilarga nisbatan qizg'anchiq bo'lmaslikdir.

Davlatmand kishilarning ziynati saxiylik va yaxshilik qilishdir.

Mol-mulk egasi zimmasida ado etilishi zarur bo'lgan ko'p haqlar bor.

Mol-dunyoda Alloh taoloning bir qancha haqqi bor:

- Mazkur haqlarning birinchisi Alloh taoloning haqlaridan bo'lmish zakotdir.
- Molu mulkdagi Alloh taoloning haqlaridan biri fitr sadaqasidir.
- Mol-mulkdagi Alloh taoloning haqlari ichida turli kafforotlar ham bor.
- Mol-mulkdagi Alloh taoloning haqlaridan biri nazrlardir.
- Molu mulkdagi Alloh taoloning haqlaridan biri haj ibodatining sarf-xarajatidir.
- Mol-mulkdagi bandalarning haqqiga oila a'zolarining, ota-onasining, opa-singlisining va qo'l ostidagilarning vojib nafaqasi ham kiradi.
- Mol-mulkda kambag'al bandalarning ham mustahab haqlari bor.
- Molu mulkdagi bandalarning haqlaridan biri qarz egasining haqqini qaytarib berishdir.

[45] https://yuz.uz/uz/news/moddiy-va-manaviy-boylik-qay-biri-birlamchi

- Mol-dunyodagi bandalarning haqlaridan biri birovga moliyaviy talofat yetkazilganda, o'sha yetkazilgan talofatni to'lab berishidir.
- Molu dunyodagi bandalarning haqlaridan biri birovlarga bergan va'daga vafo qilishdir.
- Saxiylik, muruvvat ko'rsatish va xayr-ehson ma'nosida, savob umidida mol sarflash ham bandalarning mol-dunyodagi haqlaridandir.
- Mol-mulk egalarining eng yuksak odoblaridan biri tavozeli bo'lish va berganini minnat qilmaslikdir.
- Mol-dunyo va unga bog'liq turli dabdaba-shuhratlar inson qadrining o'lchovi bo'lolmaydi.
- Insonning ixtiyoridagi mol-dunyo - omonat, inson bir xalifa (vakil), xolos.
- Taqvodor mo'min-musulmon odamning e'tiqodi bo'yicha uning qo'lidagi mol-dunyo Alloh bergan rizqdir, o'zi yaratgan narsa emas.
- Islom dini ta'limoti bo'yicha, insonning qo'lidagi mol unga Alloh O'z fazlidan bergan omonatdir.
- Yakka musulmonlar qo'lidagi mol-mulk ayni vaqtda musulmon jamoasining ham mol-mulki hisoblanadi.[46]

Ha, mol-mulkka shunday nazar bilan qaraydi. Musulmonlardan har biri qo'lidagi molning muhofazasini jamoa a'zolariga topshiradi.

Xulosa.

Yurtimiz tinch, turmushimiz farovon ekani bilan faxrlanamiz. Biroq bu ne'matlarning qadriga yetmay, yanada ko'proq daromad topish maqsadida farzandlar, yaqinlarni ham unutib qo'yayozgan millatdoshlarimiz yaxshi tushunib olishlari lozimki, ota-ona, farzandlar bilan birga boriga shukr, yo'g'iga sabr qilib, chiroyli tarzda umrguzaronlik qilish, farzandlarini o'z yurti, xalqi taraqqiyoti xizmatidagi avlod qilib tarbiyalash millatimiz ma'naviy xazinasini yanada boyitishdir aslida.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Ijtimoiy odoblar, "HILOL-NASHR" .T. 2024-y, B-284
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila, "HILOL-NASHR" ,T, 2023-y, B-151
3. "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2024-yil 23-noyabr, 238-soni
4. https://yuz.uz/uz/news/moddiy-va-manaviy-boylik-qay-biri-birlamchi
5. https://yuz.uz/uz/news/moddiy-va-manaviy-boylik-qay-biri-birlamchi

[46] "*Yangi O'zbekiston" gazetasining 2024-yil 23-noyabr, 238-soni*

OILA-INSON KAMOLOTINING BOSH BO`G'INI

Isakova Farida Amirgaliyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: *Koshanova Nilufar Maxsudovna*

Annotatsiya. Inson kamolotining bosh bo'g'ini, davlat tizimining eng muhim instituti, jamiyatimiz o'zagi va negizi – oila haqida Shayx Muhammad Sodiq Muxammad Yusufning durdona asarlaridan biri "Baxtiyor oila" kitobida juda muhim ma'lumotlar berilgan. Asarda insonga ikki dunyo saodati yo'lini ko'rsatib bergan Islom dinining baxtli,saodatli oila qurish, er-xotinning huquqlari, burch va majburiyatlari, ota-onaga hurmat, qaynota – qaynonaga munosabat, kelin va kuyov tanlash, farzand tarbiyasi, farzandlik burch, silai rahm, taloq va idda kabi ko'plab mavzular muhokama qilinadi. Maqolada, Shayx Muhammad Sodiqning mustahkam va baxtiyor oila haqidagi ta'limotlari tahlil qilinib, uning jamiyat uchun muhim ahamiyatlari talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Shayx Muhammad Sodiq**,** bahtiyor oila, ota-onaga hurmat, silai-rahm, farzand tarbiyasi, taloq, idda, xalqaro oila kuni, islom shariati, nikoh, konsepsiya, Quro'ni Karim, Prezident, Munammad salallohu alayhis vassalom, istig'for, ahd, savob.

Аннотация.Одна из выдающихся работ Шайха Мухаммада Содика Мухаммада Юсуфа — книга «Счастливая семья» — содержит важнейшую информацию о семье, которая является основой совершенствования человека, важнейшим институтом государственной системы и ядром нашего общества. В этом труде изложены наставления Ислама, указывающего путь к счастью в обоих мирах, о построении счастливой и благополучной семьи, правах, обязанностях и ответственности супругов, уважении к родителям, отношении к свекру и свекрови, выборе невестки и жениха, воспитании детей, долге детей, поддержании родственных связей (силаи рахм), а также о разводе и выжидательном сроке (идда).

В статье анализируются учения Шайха Мухаммада Содика о крепкой и счастливой семье и их важное значение для общества.

Ключевые слова: Шайх Мухаммад Содик, счастливая семья, уважение к родителям, силаи рахм, воспитание детей, развод, идда, Международный день семьи, шариат, брак, концепция, Коран, Президент, Мухаммад (мир ему), истигфар, завет, благодеяние.

Annotation. One of the outstanding works of Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, "A Happy Family", provides essential insights about the family — the foundation of human perfection, the most important institution in the state system, and the core of our society. This book presents the teachings of Islam that guide people toward happiness in both worlds, focusing on building a joyful and prosperous family. It covers the rights, duties, and responsibilities of spouses, respect for parents, relationships with in-laws, choosing a bride or groom, child upbringing, filial duties, maintaining family ties (silat ar-rahm), as well as topics such as divorce and the waiting period (‘iddah).

Keywords: Shaykh Muhammad Sodiq, happy family, respect for parents, silat ar-rahm, child upbringing, divorce, ‘iddah, International Family Day, Islamic Sharia, marriage, concept, Qur’an, President, Prophet Muhammad (peace be upon him), istighfar, covenant, good deeds.

“Odamni tuproqdan yaratgan va sokinlik topishi uchun undan o’z juftini yaratgan hamda ularning nikoh orqali oila qurib yashashlarini iroda qilgan Qodir va Hakiym Allohga U Zotning jaloliga yarasha hamdu sanolar bo’lsin!”
Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.

Yer yuzidagi eng go’zal maskanlardan biri, bu foniy dunyoning jannati – oila davrasidir. Oila hayotning abadiyligini ta’minlovchi maskan. Bu maskan borki har bir inson unga intiladi. Ishdan, o’qishdan va boshqa mehnat jarayonlaridan shu muqaddas dargoh sari shoshilamiz.Chunki u dargohda bizni chorlaydigan, biz tufayli to’kis bo’ladigan yaqinlarimiz mehri, umrimiz mazmuni bo’lgan farzandlarimizning tafti mujassam. Har bir inson baxtli bo’lishga va bu baxtni oila davrasida topishga intiladi. Insonlar baxtli bo’lsa, oila baxtli bo’ladi. Oilalar baxtli bo’sa, jamiyat baxtli bo’ladi. Oilani mustaxkamlash nafaqat mamlakat butun dunyo miqyosidagi oliy darajadadi masala hisoblanandi.

Darhaqiqat, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambliyasi 1993 -yil 20-sentyabrda har yili 15-mayni “Xalqaro Oila kuni” sifatida nishonlash to’g’risida qaror qabul qildi. Bundan ko’zda tutilgan asosiy maqsadlardan bir ham, oilalar ahillagi va mustahkamligiga erishishdir. Jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida mamlakatimizda ham xalqaro me’yorlarni jamiyatimiz hayotiga to’iq tadbiq etilishi yo’lga qo’yilgan. Bunda oila tushunchasi, uning mazmun mohiyati, jamiyatdagi o’rniga alohida e’tibor qaratilgan. Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanib, u tarbiya o’chog’i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Zero, oila har bir shaxsning ilk yoshligidan boshlab shakllanadiganinsoniy fazilatlar, ezgu istaklar, qadriyatlar takomil topadigan tarbiya maskanidir. Halollik, rostgo’ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar avvalo oilada shakllangan.

Oila haqida so'z yuritar ekanmiz, muxtaram yurtboshimizning oila va oila tarbiyasi to'g'risidagi quyidagi gaplariga alohida nazar solishimiz kerek. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: " Hech bir inson, hech bir oila davlatimia va jamiyatimizning e'tibori va g'amho'rligidan chetda qolmasligi kerak" . Bu jumlaning tub zaminida chuqur ma'no mujassam. Chunki, oiladagi har bir shaxs vatanimizning bir zarrasi hizoblanadi. Darhaqiqat, yurtboshimiz so'zlagan nutqida: " Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimiz kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin.

Mamlakatimizda oila mustahkamligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar va qabul qilinayotgan Prezidet qarorlarini aytib otish joiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PQ 3808 – sonli " O'zbekiston Respublikasida Oila Instituni mustahkamlash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Unda "Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda, mustahkam oilalarni shakllantirishda, sog'lom farzandlar tug'ilishida, sog'lom turmush tarziga amal qilishda, bolaning oilada yashash va tarbiya olish huquqini ta'minlashda, barkamol avlodni tarbiyalashda, munosib keksalikni ta'minlashda oilaning o'rnini va rolini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bundan tashqari Prezidentimiz: " Har qanday inson uchun muhim va muqaddas qadriyat – bu uning oilasidir. Sog'lom va mustahkam oila – davlat tayanchi va jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, odamiylik , mehr-oqibat, ona Vatanga muhabbat va sadoqat kabi olijanob fazilatlar, avvalo oilada qaror topadi" deb ta'kidlagan.

Oilaning muqaddasligi, baxt qasri, farog'at qo'rg'oniva jamiyatning asosi ekanligi haqida nafaqat, prezidentimiz balki, ulug' shoirlar, buyuk olimlar va shayhlarning asarlarida ham ko'rishimiz va ma'naviy bilim olishimiz mumkin. Shu jumladan, buyuk shayxlardan biri Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning shoh asarlaridan biri "Baxtiyor oila" nomli asaridagi har bir mavzuda oila jamiyatning muqaddas tayanchi va uni asrash jamiyatni asrash ekani ta'kidlangan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning quyidagi so'zlari ham buning yaqqol namunasidir : " Inson jamiyatlari qadimdan tortib doimiy ravishda oila masalasiga alohida e'tibor berib kelganlar, chunki barcha jamiyatlarning asosini oila tashkil qiladi. Shuning uchuh insoniyat o'zining tarixi davomida doimo oila masalasiga asosiy e'tibirini berib kelgan. Oilalar ahil-inoq, baxtli-saodatli bo'lsa, ularning qo'shilishidan tarkib topgan jamiyat ham ahil-inoq, baxtli-saodatli bo'ladi. Aksinch, oilalar urush-janjallarga ko'milgan bo'lsa, oradagi aloqalariga putur etgan

bo'lsa, parokanda bo'ladigan bo'lsa uni qo'shilishidan tashkil topgan jamiyat ham noahil bo'ladi, parokanda bo'ladi, tanazzulga yuz tutadi.

Hammamizga ma'lumki, avvalo muqaddas dinimiz va Islom ta'limotiga ko'ra, oila Yaratganning roziligini topish, payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayhis vassalomning ahloq-odoblari, islomni odob bilan ziynatlash va pok yo'l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi.Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikohni insoniy aloqalarning eng muhimi sifatida yuksak qadrlaydi. Zero, oila katta jamiyatning kichik bir bo'lagi hisoblanadi. "Nikoh mening sunnatimdir. Kimki sunnatimdan yuz o'girsa, Mendan emasdir" degan Rasuli Akram Muhammad Mustafoga bitmas-tuganmas salovotu salomlar bo'lsin! Deya boshlanadigan ushbu kitobning inson uchun, insonlardan tashkil topgan jamiyat uchun muhimligining cheki yo'q. Ushbu kitobdagi kamtarona satrlarning har birida yaxshilikka undovchi, yomonlikdan yiroqlashtiruvchi fazilatlar, oilaning bunyod bo'lib, jamiyatga qo'shilishidagi muhim vazifalar belgilab qo'yilgan. Kitobda ta'kidlangan har bir so'zni Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf chin dilidan, qalbidan, yurak-yuragidan his qilib qog'ozga tushirgan, yani insonni dunyoga kelib yashashining o'zi ulkan baxt ekanligini aks ettirgan. " Alloh Taolo inson zotini juft qilib, erkak va ayoldan iborat qilib yaratganda ularning har biriga o'ziga xos xususiyatlarni berdi va ularning nikoh orqali halol-pok yashab, o'zlaridan zurriyot qoldirishini hamda ana shu yo'l bilan dunyoning obod bo'lishinin va odam sulolasini qiyomat-qoyim bo'lguncha halol, pok yo'l bilan davom etib borishini iroda qildi ". Bundan bizga ma'lumki, Islom shariati yengillik ustiga bino qilingan, erkak va ayolni pok yashashga amr qilgan. Ya'ni, boshqa dinlarga nisbatan juda yengil, inson zoti bajara oladigan darajada ishlab chiqilgan. Bu haqda hadislar va oyatlarda ham bilishimiz mumkin.

Shuning uchun, sog'lom oila sog'lom jamiyat ekanligini unutmagan holda, oila qurishdagi erkak va ayolning burchlari, vazifalari, iffat va poklik, sevgi va muhabbat asosida, o'zaro ishonch va hurmat ila bo'lishi uchun nikohga amr etgan. Nikoh insonlarni balo-qazolardan, ifloslanishdan saqlaydi. Nikoh masalasida har xil fikrlar, nikohning muqaddasligi, ikki sofdil, qalbi toza insonlarning juftligi asosida quriladi. Nikohlashdan oldin ularning nasl-nasabi, kelib chiqishi surishtiriladi. Erkak kishi o'ziga munosib ayolni tanlaydi, so'ng kelin o'aiga munosib umr yo'ldoshini tanlaydi. Bu amal ularning roziligi asosida, hech kimning bosimi ostida bo'lmasligi muhim.ular o'zaro kelishishgahidan so'ng sovchilikka boriladi, yaxni niyatlar ila unashtiriladi. Har kim o'z istagi bilan nikohlanadi. Xattoki bu kitobda kelinga beriladigan mahr haqida ham ajoyib ma'lumotlar keltirilgan. Kelinning sepi qanday bo'lishi, to'yni o'tkazish, quda-andachilik munosabatlari' qaynota-qaynonaning vazifalari, qarindosh urug'chilik rishtalari va eng asosiysi oilada erkak va ayol

kishining muhim vazifalari, bir-birlarining oldidagi huquq va burchlariga alohida urg'u berilgan. Erkak kishi buni ma'suliyat deb his qilishi, o'ziga berilgan ishonch deb bilishi haqida bayon etilgan. Demak, oila rahbarligida Alloh erkakni ayoldan afzal yaratibdi. Haqiqtdan ham, erkak kishining tashqi qiyofasi, sabri, asabiy, ruhiy holati rahbarlikka mos qilib yaratilgan. Xattoki ayolni eriga itoatli bo'lishi va bir qancha burchlarni bajarish kerakligi ta'kidlangan. Oilaviy munosabatlarda er-xotin jirsligi, hamfikrligi, bir-birlarini tushunish, eshitish va erkalashlari natijasida erishiladigan savoblar haqida go'zal tarzda yoritilgan. Er-xotinning juft qilib yaratilishining asosiy vazifalaridan biri bu – farzandli bo'lishdir

Halol rizq bilan yedirish, kiydirish lozimligi ta'kidlangan. Bolaga mehribonlik ko'rsatish, uni erkalap suyush, boshini silashda ham ota-onaga ajr-savob berilishi hamda tarbiyalash bilan birgalikda ta'lim berish ham ushbu kitobda zarhar harflar bilan bitilgan. Balog'atga yetkazib uni oilali qilish ham ota-onaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu kitobda eng muhuim va qiziq mavzulardan biri bu – ota-onani hurmat qilish, e'zozlash, xizmatini to'lig'icha, beminnat ado etish, betob bo'lganida da'volatish, har kuni salomini berib, holidan habar oilsh farzand oldidagi muqdaddas burch ekanligini uqtirgan. Farzandlarning dunyoga kelishining sababchisi bo'lgan ota-onalariga minnatdorchilik bildirish, duolarini va eng asosiysi roziliklarini olish kabi fazilatlar juda teran, tushunarli, chuqur ma'noli tarzda ifadalangan. Ota-onalarning obro'sini himoya qilish, raxmat eshittirish, hularning fikrlarini tinglash, maslahatlariga rioya qilish, g'azabini keltirmaslik, doimo ochiq chehra bilan muomalada bo'lshkerakligi haqida yozilgan. Chunki, Alloh Taoloning roziligi ota-onaning roziligiga bog'liq. Bu haqiqatni hech qachon unutmaslik lozimligini aytgan.

Ota-onaning nafaqat hayotligida, balki bu dunyodan o'tgandan keyin ham ular uchun to'rt xil yaxshilik qilish haqida bayon etilgan. Bular:

1) Duo qilish – ya'ni ota-onalarning haqqiga Alloh Taolodan yaxshiliklar, xayr-barokatlar so'rash.

2) Istig'for aytish – ota-onalarning gunohidan kechishidan so'rab Alloh Taologa istig'for aytish.

3) Ota-onanig ahdiga vafo qilish. Ota-ona kim bilandar ahd tuzgan bo'lib va majburiyatlaru bo'lsa – shularni hammasini o'rniga qo'yib vasiyatlarini bajarish.

4) Ota-onaning do'stlari, yaqin kishilari va qarindoshlarini ikrom qilish.

Bu to'rt amallarni bajarishda ota-onalarning ruhi shod bo'ladi, farzandi ularga o'tganlaridan keyin ham yaxshilik qilgan bo'ladi. Hadislarda berilgan yaxshiliklardan yana biri bu ota-onamizning qarindoshlari bilan ham silai-rahm qilish zikr etilgan.

Inson vafotidan so'ng davom etuvchi savoblar, ya'ni ota-onani yo'qlab taom ulashish, ehson qilish, muhtojlarga yordam berish. Bu kabi amallarni eng avvalo o'z

yaqinlaridan boshlash muhimligi aytilgan. Bundan tashqari, bu shoh asarda erkak va ayolning bir-biriga bolgan munosabatlarining ibtidosi bilan intiqosigacha bo'lgan davr aks ettirilgan.

Hattoki, er-xotinning o'zaro oilaviy sirlari bilan bog'liq bo'lgan "Taloq" masalasida ham ma'lumotlar berilgan. Taloq qo'yishning ham bir qancha turlari borligi, uni er kishiga ruxsat etilganligi va buni yaxshilab oylab keyin qaror chiqarish kerakligini uqtirgan. Zero, taloq inson tabiatini e'tiborga olishdan kelib chiqqan ilohiy yechimdir. Lekin shariat taloq qilishdan avval yengilroq choralarni ko'rib ajralishning oldini olishga da'vat etadi. Taloqning turlari, undan saqlanish va shu darajagacha kelmaslik choralarini ko'rish lozimligi haqida nasihatlar berilgan. Qolaversa, bu kitobda "Idda" haqida so'z yuritiladi. Idda so'zi "Sanash" , "Hisoblash" ma'nolarini bildiradi. Shariatda esa ayol kishi erining vafotidan keyin yoki eri bilan ajrashganidan so'ng saqlashi lozim bo'lgan muddat hisoblanadi. Ushbu keltirilgan ma'lumotlarning barchasi su birgina kitobda shunday tasvirlangan-ki, uni mutoola qilgan odam nechi yoshga to'lgan bo'lsa, o'tgan umriga achinishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, bu kitob shunday bilim bulog'i, ilm chashmasi-ki unda inson yaratilganidan boshlab, eydigan taomlari, kiyadigan kiyimlari, bajaradigan amallari, utoatu-ibodatlari to hayoti tugab, vafoit etganda orqasidan borib turadigan yaxshiliklari-yu savoblari haqida juda keng ma'noda go'zal tarzda bitilgan. Bu kitobni o'qigan talabgor o'z hayotini tubdan o'zgartirib, yaxshilik tomonga o'zgarishiga harakat qiladi. Chunki, bu kitobdagi har bir jumlaning ma'nolari, hadislardan berilgan namunalar, keltirilgan misollar, xatto tinish belgilarining o'z o'rnida qo'llanilganligi o'quvchining ongiga hech bir to'siqlarsiz yetib boradi. Insonni shunday yo'lga boshlaydi-ki, tug'ilganinning o'zi bir mo'jiza ekanligini, shunchaki bilim olib uni ulashish ham ibodat ekanligini tushunib yetadi. Hech qachon yomonlik qilmaydi va har doim yaxshilikka intiladi. Nafaqat inson jismini poklaydi, balki ma'naviyatini ham boyitadi. Kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. To'g'ri, bilim olish, hayotda yaxshi inson bo'lish haqida bir qancha olimlar, yozuvchilar, shoirlar fikr bildirishgan. Biroq, bu kitob bizning muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'liqligi ayniqsa, undagi Alloh Taolo buyurgan ishlarni, amallarni hadislarda yoritilgani muhin o'rin egallaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PQ 3808 – sonli " O'zbekiston Respublikasida Oila Instituni mustahkamlash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Bahtiyor oila" "Hilol nashr" 2002 –yil.

3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Ijtimoiy odoblar"
"Hilol - Nashr" 2024 yil.-B.614.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Hadis va Hayot"
" Nikoh, taloq va idda" "Hilol - Nashr" 2024 yil
5. Shayx Abdulaziz Mansur " Baxtli oila" "Islomda oila va nikoh masalalari" "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqogt markazi" 2020.

ISLOM DINIDA GENDER TENGLIK MASALALARI.

Abduraximova Farangiz
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
24/3-guruh talabasi
farangizbahtiyorovna@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Umarova Shaxlo Baxtıyorovna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Islom dinida gender tengligi masalalarini chuqur o'rganish, ularning tarixiy, diniy va ijtimoiy kontekstini tahlil qilishga qaratilgan. Mavzu, muammolarni hal qilish va gender tengligini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlar va yechimlarni o'ylab topishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Islom, din, dunyo, tarix, gender, bilim, ko'nikma, malaka, ilm, tajriba

Annotation: The study of gender equality issues in Islam is aimed at exploring their historical, religious, and social contexts. The topic allows for the identification of modern approaches and solutions to address problems and ensure gender equality.

Keywords: Islam, religion, world, history, gender, knowledge, skills, competence, science, experience.

Аннотация: Изучение вопросов гендерного равенства в исламе направлено на анализ их исторического, религиозного и социального контекста. Тема позволяет находить современные подходы и решения для решения проблем и обеспечения гендерного равенства.

Ключевые слова: ислам, религия, мир, история, гендер, знания, навыки, компетенции, наука, опыт.

Kirish. Islom dini erkak va ayol o'rtasidagi tenglik masalasiga adolat va mas'uliyat nuqtayi nazaridan yondashadi. Islomda insonlarning sha'ni va qadr-qimmati jinsidan qat'i nazar hurmat qilinadi. Qur'on va Hadislar erkak va ayolning inson sifatidagi tengligini ta'kidlaydi va har ikkisi ham Alloh oldida taqvosi bilan farqlanishini bildiradi.

Islomda ayol va erkakning huquqlari hamda majburiyatlari tabiiy farqlar va jamiyatning umumiy manfaatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Ayollar va erkaklar bir-birini to'ldiruvchi juftlik sifatida tasvirlanadi. Islomda ayollarga ilm olish, mulk orttirish, mehnat qilish, meros olish va shaxsiy huquqlarga ega bo'lish imkoniyati berilgan. Erkak esa oilaning rahbari va ta'minotchisi sifatida ko'riladi, bu esa uni o'z oilasi va jamiyat oldida mas'ul qiladi.

Qur'onda ayollarga bo'lgan munosabat haqida ko'plab oyatlar mavjud bo'lib, ularda ayollarning huquqlarini hurmat qilish, ularga yaxshi muomala qilish va adolatli bo'lish buyuriladi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ham ayollarga mehribon bo'lish, ularni ta'lim olishga rag'batlantirish va ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishni targ'ib qilganlar.

Islom jamiyatida gender tenglik tushunchasi erkak va ayolning tabiiy imkoniyatlariga mos keladigan teng huquqlar va vazifalar asosida shakllangan. Islom ayolga ham, erkakka ham adolat bilan yondashadi va ularning jamiyatdagi o'rnini tabiiy xususiyatlari, qobiliyatlari va oilaviy mas'uliyatlariga muvofiq belgilaydi. Shu bois gender tenglik tushunchasi Islom doirasida adolat tamoyili asosida tushuniladi. Islom dinida gender tengligi masalalari, qadim zamonlardan boshlab, ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutgan. Qur'on va hadislar erkaklar va ayollar o'r tasidagi munosabatlarni belgilab, ularning huquqlari va mas'uliyatlarini aniqlaydi.

Islomda ayollarning huquqlari, erkinliklari va jamiyatdagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Qur'onda ayollarga meros, ta'lim va ish faoliyatida ishtirok etish huquqi berilgan, bu esa ularning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini ta'minlaydi. Biroq, gender tengligi masalalari ba'zan madaniy va ijtimoiy kontekstlarda chalkashliklarga olib keladi. Ayrim jamiyatlarda an'anaviy qarashlar ayollarning o'z huquqlarini talab qilishini cheklaydi, bu esa gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Islomda gender tengligini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlar va yechimlarni ishlab chiqish zarur. Bu yondashuvlar, ayollarning jamiyatdagi o'rnini kuchaytirish, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy faoliyatda ishtirokini oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, Islom dini voqealarini va tarixiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, gender tengligi masalalarini yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqish zarur. Diniy liderlar va jamiyatning har bir a'zosi gender tengligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shishi lozim. Faqatgina diniy tushunchalar emas, balki zamonaviy bilim va ko'nikmalar ham gender tengligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, Islom dinida gender tengligi masalalari, nafaqat diniy, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim elementidir. Gender tenglik deganda ko'pchilik ayol va erkak kishining huquq jihatdan teng bo'lishini tushunadi. Buni xolis yoritadigan bo'lsak, Alloh taolo erkakni ham, ayolni ham O'zi yaratgan va Odam bolalari sifatida ularni mukarram aylagan. Qur'oni Karimda "Odam bolalarini batahqiq qildik, mukarram qildik, hurmatli qildik", deyilgan. Dinimizda biror jins tahqirlanib, biror jins vakili yuqori sanalmagan. Alloh taolo o'z bandalarini ikki jinsda yaratishida hikmat bor. Jinsiga, xususiyatlariga va imkoniyatlariga qarab ularga vazifa yuklatadi. Har bir shaxsning huquqlariga qarab burchlari yoki aksincha, burchlariga qarab huquqlari bo'ladi. Biz bilamizki, ayolga va erkakka shar'an bir xil imkoniyat berilmagan. Shuning uchun

huquqlar orasida ham biroz farq bo'ladi. Agar ikkalasi bir xil huquqqa ega bo'lsa, ikkalasiga bir xil vazifa yuklanadigan bo'lsa, ularni ikki jinsga ajratishdan ma'no qolmaydi.

Islom dini paydo bo'lishidan oldin ayollarga zulm qilish, ularni odam o'rnida ko'rmaslik, ularni meros qilib kimgadir berib yuborish, turmush qurishdan cheklash va moliyaviy huquqlaridan mahrum qilish kabi holatlar bor edi. Islom dini kelganidan keyin ayolga insoniylik huquqlari qaytarib berildi. Ba'zi o'rinlarda ayollarni erkaklardan ham yuqori darajaga ko'tarilganini ko'ramiz. Masalan, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ayol kishini o'z erining dinini yarmi deya e'tirof etganlar va jannatni onalar oyog'i ostida deya keltirib o'tganlar. Ayol kishining farzand dunyoga keltirishda tortadigan azoblari, uni tarbiya qilishdagi zahmatlariga mukofot o'laroq aytganlar.

Xulosa. Ba'zi jihatlarda, masalan moliyaviy tomonlama ayol kishining huquqlari biroz pastroq. Buning ham o'z hikmati bor. Masalan, meros masalasida ayollarga kamroq taqsim qilinadi. Nima uchun deganda, ayol kishining moliyaviy sarf-xarajati kamroq bo'ladi. Shuningdek ayol kishi ko'proq uyga mas'ul qilingan. Doim uyda bo'lishi, turmush o'rtog'ining xizmatida bo'lishi va farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerakligi aytiladi. Chunki ayol kishi shunga munosib qilib yaratilgan. Alloh taoling har bir taqsimotida hikmat bor. Ayol kishi zohiran ko'p narsalardan mahrum qilingandek ko'rinadi. Lekin bu aslida ayolning muhofazasi uchundir. "Erkaklar bilan huquqlarimiz teng ekan", deb ayollar erkaklardan ustun bo'lib, ularga o'z gapini o'tkazmoqchi bo'lishsa, avvalo, o'zlariga ziyon yetishi mumkin. Mutaxassislarning o'rganishicha stressga tushadigan va ruhiy xastaliklarga chalinadigan ayollarning ko'p qismi erkaklardan ustun bo'lishga uringan hamda buni bajara olmagan ayollardir.

REFERENCES

1. Abdurahmonov, A. (2021). Islomda gender tengligi nazariya va amaliyot. Toshkent: Ma'rifat nashriyoti.
2. Qodirov, I. (2022). **Ayollarning huquqlari va Islom gender masalalari.** Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Rasulov, S. (2023). **Islom va gender tengligi tarixiy kontekstlar.** Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
4. Rahmonova, D. (2021). **Islomda ayolning o'rni gender yondashuvlari.** Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Tursunov, M. (2020). **Diniy va ijtimoiy kontekstda gender tengligi.** Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti.

6. Karimova, N. (2022). **Islomda gender tengligi muammolar va yechimlar.** Qoraqalpog'iston: Qoraqalpog'iston davlat universiteti nashriyoti.
7. Murodov, A. (2023). **Islom va ayollar gender tengligi masalalarida zamonaviy yondashuvlar.** Namangan: Namangan davlat universiteti nashriyoti.
8. Xodjayev, R. (2021). **Ayollar va Islom gender masalalari.** Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti nashriyoti.
9. Yusupova, L. (2020). **Gender va Islom o'zaro munosabatlar.** Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
10. Sohibov, E. (2022). **Islom dinida gender tengligi nazariy va amaliy jihatlar.** Jizzax: Jizzax davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

ISLOM DINIDA MUSIQAGA BO'LGAN MUNOSABAT

Negmatillayeva Dilbegim Nematilla qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 23-1 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Dilorom Negmatullayevna**

ANNOTATSIYA

Islomda musiqa va uning o'rni haqidagi fikrlar turli manbalarda va islom olamidagi tafakkur asosida shakllangan. Musiqa haqida Islomdagi qarashlar asosan Qur'on va Hadislarga tayanadi. Ba'zi ulamolar musiqa va musiqa asboblarini taqiqlashni ma'qullagan bo'lsa, boshqalari esa musiqaning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini tan olgan. Ushbu maqolada musiqaning Islomdagi ahamiyati, shuningdek, ulamolarning bu masaladagi turli yondoshuvlari tahlil qilinadi. Musiqa bilan bog'liq bo'lgan muammolar, uning musulmon jamiyatidagi o'rni va uning ruhiy hamda ma'naviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Islom dini, musiqa, Hadis, Qur'on, ulamolar, musiqaning taqiqlanishi, madaniyat, ma'naviyat, ruhiy ahamiyat, musulmon jamiyati.

ATTITUDE TOWARDS MUSIC IN ISLAM

ANNOTATION

Opinions on music and its place in Islam were formed on the basis of various sources and the thinking of the Islamic world. Views on music in Islam are mainly based on the Quran and Hadith. Some scholars have approved the prohibition of music and musical instruments, while others have recognized the cultural and social importance of music. This article analyzes the importance of music in Islam, as well as the different approaches of scholars to this issue. The problems associated with music, its place in Muslim society, and its spiritual and moral significance are discussed.

Keywords: Islam, music, Hadith, Quran, scholars, prohibition of music, culture, spirituality, spiritual significance, Muslim society.

KIRISH

Musiqa insoniyatning qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, turli shakllari va janrlari jamiyatda muhim o'rin egallagan. Biroq, Islomda musiqa va uning jamiyatdagi roli alohida e'tiborga olinadi. Islom dini har bir faoliyatni ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatdan baholashga qaratilgan, shu jumladan musiqa ham. Qur'on va Hadislarda musiqa haqida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lib,

ularning talqini va tushunilishi musulmon jamiyatida musiqa va uning ta'siri haqida turli fikrlar va baholarni yuzaga keltirgan. Ba'zi ulamolar musiqaning ruhiy va axloqiy zararlariga olib kelishini ta'kidlashadi, boshqalari esa musiqa va san'atning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini qabul qilishadi. Shuning uchun, Islomda musiqa va uning o'rni har doim muhokama qilinadigan va bahs-munozarali mavzu bo'lib qolgan.[1]

Ushbu maqolada musiqaning Islomdagi baholanishi, uning musulmonlarning ma'naviy hayotiga ta'siri va bu boradagi turli qarashlar tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islom dinida musiqa masalasi turli tarixiy davrlarda turlicha talqin etilgan. Bu mavzuga bo'lgan munosabat, asosan, Qur'on va Hadislarda musiqa haqida to'g'ridan-to'g'ri keltirilgan ma'lumotlarga, shuningdek, islom ulamolarining tafsiriga asoslanadi. Musiqaning ta'siri haqida so'z yuritganda, uning ijtimoiy va ma'naviy rolini, inson ruhiyatiga ta'sirini, shuningdek, uning ma'naviy jihatdan foydali yoki zararli ekanligini tahlil qilish lozim.[2]

Islomda musiqaga bo'lgan munosabatni tahlil qilishda uning axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini hisobga olish muhimdir. Qur'on va Hadislarda musiqaning ta'siri haqida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, bu mavzu bo'yicha ulamolar orasida turli fikrlar mavjud. Ba'zi ulamolar musiqaning salbiy ta'sirini, uning insonni axloqsiz va noto'g'ri xulq-atvorga undashini ta'kidlashgan. Ularning fikricha, musiqa shaytonning vositasi sifatida qaralgan, chunki u inson ruhiyatiga ta'sir etib, ijtimoiy va axloqiy zarar keltirishi mumkin.[3]

Boshqa tomondan, ba'zi islom ulamolari musiqaning jamiyatdagi madaniy va ma'naviy ahamiyatini tan olishadi. Ularning fikriga ko'ra, musiqa qalbni tinchlantirish, yengillik berish va odamlar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlashda yordam beradi. Masalan, diniy musiqalar, naatlar yoki kasidalar musulmonlarning diniy hissiyotlarini ifodalash va ularni birlashtirish uchun vosita sifatida ishlatiladi.

Musiqa, uning maqsadi va mazmuniga qarab, turli ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Agar musiqa axloqiy jihatdan to'g'ri va ma'naviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, u ijtimoiy va ruhiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin. Ammo, agar musiqaning mazmuni axloqsiz yoki nojo'ya bo'lsa, uning salbiy ta'siriga e'tibor berish kerak. Islomda umumiy fikr shundan iboratki, har qanday faoliyat, shu jumladan musiqa, maqsadi va mazmuni ijtimoiy barqarorlik, ma'naviyat va axloqiy yaxshilanishni ko'zda tutishi zarur.[4]

Islomda musiqaning o'rni va ta'siri haqidagi fikrlar turlicha bo'lishiga qaramay, uning jamiyatda ahamiyati tan olingan. Musiqa, agar diniy va ma'naviy maqsadlarda ishlatilsa, insonlarni tinchlantirish va birlashtirishga yordam beradi.

Ayniqsa, diniy musiqalar va kasidalar musulmonlar orasida bir maqsad yo'lida yig'uvchi kuch sifatida xizmat qiladi.[5]

Bundan tashqari, musiqa orqali jamiyatda ahloqiy va ijtimoiy yuksalishga erishish mumkin, ammo uning tarkibi va mazmunining to'g'riligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Musiqaning noxush ta'siri bo'lishi mumkin bo'lgan turlaridan va ularning ijtimoiy salbiy oqibatlaridan ogoh bo'lish lozim. Shuning uchun, musiqaning Islomda qabul qilinishi uning ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini tan olishga va uni to'g'ri yo'nalishda ishlatishga bog'liq.[6]

Musiqa va uning ta'siri haqidagi turli qarashlarni hisobga olgan holda, jamiyatda musiqaning ahamiyatini yaxshilash uchun uni to'g'ri va ma'naviy yo'llar bilan ishlatish zarur. Musiqaning tarbiyaviy rolini kuchaytirish, axloqiy jihatdan to'g'ri mazmun yaratish va uni ijtimoiy hayotda faol qo'llash muhimdir.

Shunday qilib, musiqaning Islomdagi roli uning to'g'ri va ma'naviy jihatdan asoslangan tarzda ishlatilishiga bog'liq. Musiqa jamiyatda ahloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, insonning ruhiy holatini yaxshilashda foydali bo'lishi mumkin. Shuning uchun musiqaning ijtimoiy ahamiyatini inkor etmasdan, uni faqat ma'naviy jihatdan to'g'ri yo'nalishda ishlatish zarur.

XULOSA

Islom dinida musiqa va uning jamiyatdagi o'rni haqidagi qarashlar turli ulamolar va ilmiy manbalarda ifodalangan. Qur'on va Hadislarda musiqa haqida aniq taqiqlar bo'lmasa-da, uning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi ulamolar musiqa va uning axloqiy, ruhiy zararlarini ta'kidlashgan, boshqalar esa musiqaning diniy va madaniy ahamiyatini tan olishgan. Musiqa, agar uning mazmuni va maqsadi to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa, insonning ruhiy holatini yengillashtirish va jamiyatda hamjihatlikni ta'minlashda ijobiy rol o'ynashi mumkin. Bundan tashqari, musiqaning ijtimoiy ahamiyatini ham inobatga olish zarur, chunki u jamiyatni birlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Musiqa, ayniqsa, diniy musiqalar va kasidalar musulmonlarning diniy his-tuyg'ularini ifodalash va ularni ma'naviy jihatdan yuksaltirishda foydalidir. Biroq, musiqaning salbiy ta'siridan ham ehtiyot bo'lish zarur, chunki ba'zi musiqalar axloqsiz xulq-atvor, noto'g'ri fikrlar va hissiyotlarni keltirib chiqarishi mumkin. Islomda musiqa va uning ijtimoiy, axloqiy jihatlari haqidagi qarashlar ko'p hollarda musiqaning mazmuni va maqsadiga bog'liq.

REFERENCES

1. Al-Muhallabiy, M. (2015). Islomda musiqa va uning axloqiy ahamiyati. Tashkent: Zamonaviy nashrlar.

2. Zohir, A. (2003). Islomda musiqaning diniy va ijtimoiy roli. Madaniyat va ta'lim jamiyati.
3. Ibn Teymiyya, A. (2002). Musiqa va uning shariatdagi taqiqlanishi haqida. Riyad: Dar al-Salam.
4. Al-Qurtubi, M. (2007). Tafsiri al-Qurtubi: Qur'on va Hadislarda musiqaning o'rni. Cairo: Al-Azhar Universiteti nashri.
5. Shahrastani, M. (1999). Musiqa va madaniyat: Islomga oid tafsiyalar. Qahiradagi Madaniyat nashriyoti.
6. Xojaev, M. (2012). O'zbekistonda musiqa va uning madaniy ahamiyati. Tashkent: Sharq nashriyoti.

ISLOM DINING RIVOJLANISHI VA AHAMIYATI

Yusupova Zulayho Abdinazar qizi
CHDPU Boshlang`ich ta`lim fakulteti Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 23/4-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Nurmanov Sherzod**

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom dining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi, uning madaniy va ilmiy yuksalishi, shuningdek, zamonaviy dunyodagi ahamiyati keng yoritilgan. Islomning asosiy tamoyillari, uning tarqalish jarayoni va цивилизацияга qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Maqola islomning tinchliksevar din ekanligini va jamiyatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qodirligini ta'kidlaydi.

**Kalit so`zlar:** islom dini, Muhammad payg`ambar, Qur`on, hadis, din va siyosat, ijtimoiy hayot,dinning rivojlanishi

Аннотатция:В данной статье широко освещается возникновение и история развития ислама, его культурный и научный подъем, а также значение в современном мире. Проанализированы основные принципы ислама, процесс его распространения и вклад в цивилизацию. Статья подчеркивает, что ислам является миролюбивой религией и способен укреплять сотрудничество между обществами.

Ключевые слова:ислам, пророк, Мухаммед, Коран, хадис, религия и политика, социальная жизнь, развитие религии

Annotation: This article provides a comprehensive overview of the emergence and historical development of Islam, its cultural and scientific advancement, and its significance in the modern world. It analyzes the core principles of Islam, its spread, and its contribution to civilization. The article emphasizes that Islam is a religion of peace and has the potential to strengthen cooperation between societies.

Keywords: Islam, prophet Muhammad, Quran, hadith, religion and politics, social life, development of religion

Islom dini — dunyodagi eng katta dinlardan biri bo‘lib, Muhammad payg‘ambar (s.a.v) orqali VII asrda Arabistonda vahiy qilinib, Qur'on kitobi asosida yoyilgan. Islom so‘zi arab tilidan "tinchlik", "bo‘ysunish" degan ma’nolarni anglatadi va Allohga bo‘ysunish g‘oyasini bildiradi.Islom dinining asosiy e’tiqodlari quyidagilardan iborat:

1. Tavhid – Allohning yagona va tengsiz ekaniga ishonish.
2. Namoz – kuniga 5 mahal ibodat qilish.
3. Ro‘za – Ramazon oyida ro‘za tutish.

4. Zakat – mol-dunyosining ma'lum qismini ehson qilish.
5. Haj – imkon bo'lsa, Makka shahriga borib ibodat qilish.

Muhammad payg'ambar (s.a.v) — Islom dinining so'nggi va eng buyuk payg'ambari hisoblanadi. U 571-yilda Makka shahrida tug'ilgan, nasabi Quraysh qabilasiga borib taqaladi. Otasi Abdulloh, onasi Omina edi. Yetimlikda o'sgan va yoshlik chog'idan halolligi, rostgo'yligi bilan tanilgan – odamlar uni "Al-Amin" (ishonchli) deb atashgan.Muhammad (s.a.v) hayotining asosiy bosqichlari:610-yil: 40 yoshida u Zotga Hiro g'orida vahiy keladi. Jabroil (farishta) orqali Allohdan birinchi vahiy yetkaziladi. Shu vaqtdan u payg'ambar sifatida da'vatga kirishadi.Makkaliklar qarshiligi: Islom dini avval boshda kuchli qarshiliklarga duch keladi. Muhammad (s.a.v) va sahobalar tazyiqlarga uchraydi.622-yil – Hijrat: Muhammad (s.a.v) Madinaga hijrat qiladi. Bu voqea islomiy taqvim — Hijriy sananing boshlanishi bo'lgan.Madinada davlat tuzilishi: Madinada Islom jamiyati va davlat asoslari yaratiladi. Diniy va fuqarolik qonunlar joriy etiladi.Makka fath etilishi (630-yil): Muhammad (s.a.v) Makkani qon to'kmasdan fath qiladi va butlarni yo'q qiladi. Makka yana islomning markaziga aylanadi.632-yil: Muhammad (s.a.v) vafot etadi. O'zidan so'ng Qur'on va hadislarni qoldirgan, ummatga yo'l ko'rsatgan.U Zotning hayoti musulmonlar uchun eng yuksak namuna hisoblanadi. Qur'onda ham u Zot haqida:"Darhaqiqat, siz buyuk xulq egasisiz" (Qalam surasi, 4-oyat) deyilgan.

Qur'on — Islom dinining asosiy va muqaddas kitobi bo'lib, u Alloh taoloning kalomi sifatida Muhammad (s.a.v) ga 23 yil davomida vahiy orqali nozil qilingan. Qur'on arab tilida tushgan va bugungi kungacha o'zgartirilmagan holda saqlanib kelmoqda.Qur'on haqida asosiy ma'lumotlar:
1. Tuzilishi:114 sura (bo'lim) dan iborat, 6236 oyat (oyat – Qur'ondagi har bir jumla yoki ibora), eng katta sura — Baqara surasi, eng kichik sura — Kavsar surasi.
2. Nozil bo'lishi: Qur'on bosqichma-bosqich, ya'ni tadrijiy ravishda 23 yil mobaynida nozil bo'lgan:13 yili Makka davrida,10 yili Madina davrida; Vahiylar Jabroil farishta orqali keltirilgan.
3. Asosiy mavzulari:Tavhid – Allohning yagona ekanligi; nubuvvat – Payg'ambarlik; oxirat – Oxirat hayoti va qayta tirilish; ibodat – Namoz, ro'za, zakot, haj; axloq va odoblar – halollik, sabr, rahm-shafqat, adolat; o'tmishdagi payg'ambarlar va qavmlar haqidagi qissalar: Nuh, Ibrohim, Muso, Iso va boshqalar.
4. Qur'on tilovat qilishning fazilati: Har bir harfiga ajr (savob) beriladi. Masalan, Rasulullоh (s.a.v) dedilar: "Kim Qur'ondan bir harf o'qisa, unga bir savob yoziladi. Bu savob o'n barobar ko'paytiriladi." (Termiziy)
5. Hifz qilish (yodlash): Qur'on yod olish musulmonlar orasida keng tarqalgan. Hofiz Qur'on – Qur'onni to'liq yod olgan kishiga aytiladi. Hozirgi kungacha minglab

odamlar Qur'onni yod olgan va bu Qur'onning saqlanib qolishida muhim rol o'ynaydi.

6. Tafsir (Qur'on tafsiri): Qur'on oyatlarini chuqur tushunish uchun ularning tafsiri (izohi) qilinadi. Mashhur mufassirlar: Ibn Kasir, Jalalayn, Zamahshari, Tabari va boshqalar.

Hadis — Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari, sukut bilan rozilik bildirgan holatlari yoki sifati haqida rivoyat qilingan ma'lumotdir. Islom dinida hadislar Qur'ondan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Ular shariat qonunlari, axloqiy me'yorlar va diniy ta'limotlarning muhim asosidir.

Hadis tarkibi: 1. Sanad (Isnod) — hadis kimlar orqali rivoyat qilinganini bildiradi, ya'ni rivoyatchilar zanjiri; 2. Matn — hadisning asosiy mazmuni, ya'ni Payg'ambar (s.a.v.) aytgan so'z yoki qilgan ishining bayoni.

Din va siyosat – bu murakkab va ko'p qirrali munosabat bo'lib, insoniyat tarixida muhim rol o'ynab kelgan. Din va siyosatning o'zaro ta'siri turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:Din va siyosat munosabatlarining asosiy muammolari:

Diniy ekstremizm: Diniy ekstremistik guruhlar siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlik va terrorizmga murojaat qilishlari mumkin.

Diniy kamsitish: Ba'zi mamlakatlarda diniy ozchiliklar kamsitishga va ta'qibga uchrashi mumkin.

Diniy fundamentalizm: Diniy fundamentalistlar jamiyatni an'anaviy diniy qadriyatlarga qaytarishga harakat qiladilar va zamonaviy dunyoqarashga qarshi chiqadilar.

Din va davlat munosabatlaridagi ziddiyatlar: Din va davlatning ajralishi tamoyili har doim ham osonlikcha amalga oshirilmaydi va turli jamiyatlarda turli xil talqin qilinishi mumkin.

Ijtimoiy hayot - bu insonlarning o'zaro ta'siri, munosabatlari, tashkilotlari va institutlaridan iborat bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Ijtimoiy hayot har bir insonning kundalik turmush tarzidan tortib, global miqyosdagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlargacha bo'lgan ko'plab sohalarni qamrab oladi.Ijtimoiy hayotning ahamiyati: Ijtimoiy hayot har bir insonning shaxs sifatida shakllanishi, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi va jamiyatga foyda keltirishi uchun zarurdir. Ijtimoiy aloqalar, qo'llab-quvvatlash va hamkorlik insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy faollik va fuqarolik ishtiroki jamiyatning rivojlanishi va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Xulosa shuki, islom dinining rivojlanishi va ahamiyatini tahlil qilish, uning nafaqat diniy, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga ta'sirini anglash muhimligini ko'rsatadi. Islom o'zining boy tarixi davomida sivilizatsiyaga katta hissa qo'shdi, ilmu fan, san'at va falsafani rivojlantirishga turtki berdi. Hozirgi zamonda

ham islom millionlab odamlar uchun ma'naviy yo'l-yo'riq bo'lib qolmoqda, lekin shu bilan birga ekstremizm va noto'g'ri talqin kabi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Islom dinining haqiqiy qadriyatlarini tushunish, tolerantlik va o'zaro hurmatni targ'ib qilish global miqyosda tinchlik va hamjihatlikka erishish uchun zarurdir.

REFERENCES

1. Buxoriy, M. Islom dini asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 1991.
2. Muslim, M. Sahih Muslim. Bayrut: Dor al-Kitob al-Arabiy, 2000.
3. Ibn Hishom. Siyrat ibn Hishom. Qohira: Mustafo al-Bobiy al-Halabiy, 1955.
4. Armstrong, K. Islom: Qisqacha tarix. London: Phoenix, 2000.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. Toshkent: Sharq, 2007.

"TARMOQ ODOB-AXLOQI"

Allamuradov Islom Allamurad o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Maqola tarmoq odob-axloqi tushunchasi, uning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi o'rni va ahamiyatini o'rganadi. Tarmoqda hurmatli va ma'suliyatli munosabatning yo'qolishi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Internetda sog'lom muloqot madaniyatini targ'ib qilish va foydalanuvchilarni tarmoqdagi axloqiy tamoyillar haqida habardor qilish hisoblanadi.

KALIT SO'ZLAR: Mediasavodxonlik, tarmoq odob-axloqi, ijtimoiy tarmoq, netiket, dezinformatsiya, ommaviy muloqot, platforma, kiber hujumlar va trolling.

KIRISH: Tarmoq odob-axloqi (netiket) internetdagi muloqot madaniyati bo'lib, axborot tarqatish, fikr almashish va shaxsiy munosabatlarni yo'lga qo'yish jarayonida axloqiy tamoyillarni saqlashni anglatadi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayin platformalarning ommalashuvi bilan odob-axloq qoidalariga rioya qilish zaruriyati oshib bormoqda. Ushbu maqola tarmoq odob-axloqi masalalarini tahlil qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda mediasavodxonlikning o'rnini yoritishni maqsad qiladi.

ADABIYOT TAHLILI: Tarmoq odob axloqi mavzusida bir qator tadqiqotlar mavjud. Ko'pgina ilmiy ishlar odob-axloq qoidalariga rioya qilinmasligi tarmoqda keng tarqalgan ziddiyatlar, trolling va dezinformatsiyaga sabab bo'lishini ko'rsatadi. M.R.Shervud va A. Xolining tadqiqotlari netiketning o'rganish muhitida kommunikatsiya sifatini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga tarmoq madaniyati ham rivojlanib borishi va unda yangi axloqiy tamoyillar shakllanishi lozimligi aytiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarmoqdagi odob-axloq qoidalariga rioya qilinmasligi turli xil sabablarni chiqarishi mumkin. Bu mavzuda olib borilgan izlanishlar netiket tamoyillari rivojlanib borishi kerakligini va yangi axloqiy qoidalarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Tarmoq odob-axloqi tushunchasi internet rivojlanishi bilan birgalikda shakllanadi va bu sohada olib borilgan tadqiqotlar 1990-yillardan boshlanadi. O'sha paytda, netiket qoidalarini ishlab chiqarishning ilk urinishlari Internetda odob-axloq qoidalariga rioya qilish zaruratini keltirib chiqargan edi. Virgima Shea (1994) o'zining "Netiquitte" hisobida odob-axloqning asosiy

tamoyillarini taqdim etgan bo'lib, boshqa foydalanuvchilarga hurmat, shaxsiy hujumlardan saqlanish, va axborotni ma'suliyat bilan tarqatishni tavsiya etgan. Keyingi yillarda, ayniqsa 2000-yil o'rtalaridan boshlab ijtimoiy tarmoqlar keng ommalashishi natijasida tarmoqdagi odob-axloq oqidalarining o'rganilishi kuchaydi.

2006- yilda HENRY JENKENS tomonidan "lanvergencelulture" hisobida internet madaniyati va netiket qoidalari ayniqsa, yoshlar o'rtasida Internetda muloqot qilishda asosiy e'tibor qaratilgan. Jenkins axborot texnologiyalari orqali yangi muloqot shakllari paydo bo'lishi bilan, Tarmoq odob-axloqining o'rni va ahamiyati ortib borayotganini ta'kidlaydi. 2010-yillarda olib borilgan izlanishlar jumladan, danahboyd va Alice Marwich tomonidan 2011-yilda chop etilgan "Social steganograply": Privoey in Networked Publics" maqolasi, tarmoq madaniyatida maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasiga e'tibor qaratgan, ular internetdagi ijtimoiy me'yorlarning an'anaviy axloqiy tamoyillardan farqli ekanligini va ular tez- tez o'zgarishiji ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotlar tarmoq odob-axloqining rivojlanishi uchun yangi qoidalar va tamoyillarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar tarmoq odob-axloqining ijtimoiy muhitiga katta ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi. 2020-yilda olib borilgan izlanishlar natijalari, internet foydalanuvchilarining netiket qoidalariga rioya qilishlari tarmoqdagi salbiy hodisalarni, masalan, kiber hujumlar va trolling sezilarli darajda kamaytirishni aniqlagan. Nancy Baym (2015) o'zining "Personal Connections in the Digital Age" kitobida online muloqotda axloqiy tamoyillar va me'yorlarga rioya qilish sog'lom va konstruktiv aloqalarni saqlash uchun muhim ekanini ta'kidladi. Bundan tashqari, mediasavkdxonlik darjasini oshirish orqali odamlarni yolg'on axborot va dezinformatsiyani aniqlashga o'rgatish foydalanuvchilarni tarmoq odob-axloqiga rioya qilishga rag'batlantiradi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, tarmoq odob-axloqiga e'tibor qaratish va mediasavodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish foydalanuvchilarga sog'lom muloqot muhitini yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, kelajakda olib borilishi kerak bo'lgan izlanishlar netiketning rivojlanish yo'nalishlarini, yangi axloqiy qoidalarni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etishni chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

XULOSA: Tarmoq odob-axloqi zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida muhim o'rin tutadi, chunki bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va boshqa online platformalarda muloqot qilish eng asosiy axborot almashish vositasiga aylangan. Internet foydalanuvchilarining soni ko'payib borayotgani sari online muloqotda axloqiy tamoyillar va madaniyatga rioya qilish dolzarb masalaga aylandi. Menimcha mediasavodxonlik tarmoq odob axloqining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, chunki u foydalanuvchilarga axborotni Tanqidiy abholash, manbalarni

tekshirish va online muloqotni tekshirish va online muloqotda ma'suliyatni o'z zimasiga olish qobilyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga texnologiyalarning rivojlanishi va tarmoq madaniyatining o'zgarishi va yangi axloqiy tamoyillarining shakllanishini kuzatish va ularga moslashish zarur. Shunday qilib, tarmoq odob-axloqi nafaqat shaxsiy axborot almashish jarayonida, balki, ijtimoiy muammolarni hal qilish va raqamli madaniyatni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarmoqdagi sog'lom muloqotni ta'minlash har bir foydalanuvchining ma'suliyatli va axloqiy yondashuviga bog'liq bo'lib, bu orqali nafaqat internetdagi muloqot sifatini yaxshilash balki jamiyatdagi umumiy madaniyatni ham ko'tarish mumkin.

REFERENCES

1. Jo'rayev. S, Usmonov. Z(2009) axborot texnologiyalari asoslari(110-120)
2. Mediasavodxonlik va ommaviy axborot vositalari "Saidov. A, G'ulomov.M (2018)
3. Karimov . S (2019) " ijtimoiy tarmoqlarda muloqot madaniyati".
4. Sh. Qodirov, N .Nurmurodov(2017)" Internet va axborot xavfsizligi".
5. Axborot kammunikatsiya texnologiyalari O'zb Res Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashri (2016)
6. Maxmutjonova A. N (2023). Zamonaviy axborot muhitdir yoshlar ta'lim tarbiyasi va muammosi.

ISLOMDA AXLOQIY QADRIYATLAR

Matyaqubova Soxiba Dilshodovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ilmiy rahbar:Nurmanov Sherzod
sohiba20040711@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqola asosan dinning tarixiy shakllari, dinimizning o'ziga xos bo'lganxususiyatlari,undagi asosiy g'oyalar to'g'risida aytib o 'tiladi.

Kalit so'zlar: din, figh, insonparvarlik, dunyoviy, diniy, iymon, insoniy qadriyatlar.

Аннотация: Эта статья посвящена главным образом историческим формам религии, которые характерны для нашей религии. Расскажу о его особенностях и основных идеях.

Ключевые слова: религия, вера, гуманизм, светское, религиозное, вера, гуманность.

Abstract: This article mainly discusses the historical forms of religion, the unique characteristics of our religion, and its main ideas.
Keywords: religion, fiqh, humanism, secular, religious, faith, human values.

KIRISH

Islom dini g'oyalari va qadriyatlari, unga e'tiqod qiluvchi xalqlar milliy ongning rivojlanishida bir turtki bòlib asta-sekin ma'naviy ruhiy jihatdan jipslasha borib, yagona maslakdoshlar jamiyati vujudga kela boshladi. Zero, bu gadriyatlar va ruhiy bilimlar mohiyatini ezgulik vapoklikka da'vat etuvchi g'oyalar tashkil etgan. Zardushtiylik dinining ezgulik yovuzlik ustidan pirovardida tantana gilish to'g'risidagi g'oya bilan tarbiyalanib kelgan xalqlar uchun islomdagi insonparvarlik va ma'rifatpvarvarlik g'oyalari bir-birini to'Idirgandi. Diniy qadriyatlar, marosim va an'analarning shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib tagaladi. Ibtidoiy din shakllaridan boshlangan bu jarayon milliy va jahon dinlari shakllanib, keng yoyila boshlagan paytlarda ancha rivojlangan. Hozirgi diniy qadriyatlaring mavjudligi diniy ta limotlarga asoslansa-da uning rivojlanishi jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy taraqgiyot bilan mustahkamlangan. Ular xalqimizning turmush tarzi va jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda Milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari, shu jumladan islomiy qadriyatlari, noyob va betakror namunalarini tadqiq etish, ularni bugungi kun talablari bilan bog'liq holda boyitib targ'ib etishning yangi bunyod etilayotgan fuqarolik jamiyati uchun ahamiyati kattadir. Istiqlol yillarida buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosini tadqiq etish, asarlarini nashr

qilish, yubileylarini nishonlash mamlakatimizda odat tusiga kirib, millatimizning har tomonlama uyg'onib, kamol topishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Xususan islom falsafasi asarlarini, diniy ulamo va allomalaming merosini nashr qilish, o'rganish,targ'ib etish xalqimizni islomiy qadriyatlardan baramand qilishga katta yo'1 ochdi. Insonning chin ma'nodagi insonligi- uning imoni, diyonati, mehr-oqibati,pokligi va halolligi, katarligi va boshqalar bilan o'Ichanadi. Bu umumiy tarzda insoniylik tushunchasi bilan ifodalanadi. Insoniylik esa faqat imonli insonlardagina bo ladi.Bu o'rinda hamma kishilar uchun umumiy tarza tegishli bo'lgan masalalar ustida baholi qurat fikr yuritamiz.Har birimiz imon tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglab, tushunib olsak, imonni izohlovchisi bo'lgan diyonat, vijdonlilik, insof, mehr-oqibat, sahovat, adolatlilik, poklik va halollik, kamtarlik va boshqa ma' naviylik fazilatlarining ham mohiyatini bilib olamiz. Faqat imonli kishilargina poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat, sahovat, muruvvat yo'lida bo' ladilar. Shuning uchun imon tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli asosa bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Imon arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ishonch demakdir. U inson ruhiy olamining botiniy tomonini tashkil etadi Imon shaxsning o'z e'tiqodiga tayangan holda boshqalarning niyati, gilmish-gidirmishiga, o'zining ishlariga, hatolariga munosabat bildirishdir. Imon hayotda to'g'ri yo'l topishning mezoni hisoblanadi. Imonli kishilar Allohdan qo'rqish, bandadan uyalish nima ekanligini chuqur idrok etganlar. Allohni bir, Payg'ambarimizni (sallallohu alayhi vasallam) uning elchisi deb bilish-imonning bosh belgisi hisoblanadi. Imonli bo'lgan kishilar butun hayotlarida, ishlarida, faoliyatlarida, uyda, ko'chada birovga, o'z oilasiga munosabatlarida hamisha to'g'ri va halol yo'l tutishga intiladilar. Muomala va munosabatlarida g'araz bo'lmaydi., ta madan va xaromdan hazar qiladilar. Har ishlarida faqat bu dunyoni emas, oxiratni ham o'ylab ish tutadilar. Barcha amallari va hatti-harakatlarini shunga bo' ysundirishga harakat qiladilar. Imonni faqatgina tarixiy qadriyatgina emas, balki hozirgi kunimizda ham inson kamolotiga bevosita daldor bo'lgan ma'naviyat deb qarashimiz lozim.O'zbeksiton mustaqilligini mustahkamlashga hissa qo'shayotgan fuqarolaring imoni mustaqillik ishiga fidoyilik, millatparvarlik, vatanparvarlik, baynalminalchilik, porloq kelajakka ishonch, davlatimiz ramzlariga sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini o'zida tarbiyalash, ishbilarmonlik, tadbirkorlik singari yangi ahloqiy qadriyatlarni o'zida namoyon etishidan iborat

Demak, insoniylikning muhim shartlari - diyonatlilik, mehr-shafqatlilik, poklik va halollilikni imon tushunchasi o'z ichiga oladi. Chunki, faqat imon sohibi bo'lgan insondagina diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik bo'ladi. Imonsiz kishilardan uni utish mumkin emas. Ana shu va boshq fazilatlar bo'lmagani uchun ham ba'zi odamlarga nisbatan imonsiz so'zini ishlatamiz.Endi shaxs ma'naviy fazilati

imonlilikning ba'zi tushunchalarini izohlashga o'tamiz. Ularning mazmuni, mohiyati amaliy ahamiyatini chuqur anglab olmoqlik va o'zimizning kundalik hatti-harakatimizda amal qilmoqlik bizni har damda yuksak insoniylikka, komillikka tomon eltadi, demakki imonimiz mustahkamlana boradi.

XULOSA

Din kirib kelishi bilan qadriyatlar tizimiga ta'sir qiladi va yangi qadriyatlar yangi an'analar shakllanadi.Qadriyatlar tizimida o'zaro yangi insoniylik g'oyalartolerantlik g'oyalari shakllanadi.Islom axloqining o'ziga xos xususiyati uning har tomonlama ekanligidir. U insonning Alloh bilan, o'zi bilan va boshqa insonlar bilan munosabatlarini tartibga soladi. Shu bilan birga, islom axloqi faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, musulmon lardan har doim yaxshi amallarni qilishni va yomonlikdan saqlanishni talab qiladi.

REFERENCES

1. Abdikadirova, N. S., Nurillaeva, D. S., Ganijanovna, M., Azamova, S. R. J., Bobomuradov, B. K., & Kutlimuratov, I. K. (2021). Football in Uzbekistan: Law, Leisure and Sociology. PSYCHOLOGY AND EDUCATION, 58(1), 1995-2002.
2. Тангриев, А. Т., & Дачев, О. В. (2019). Национальный спорт в вузе. Наука, техника и образование, (11 (64)), 69-71.
3. Игамбердиев, О. Р. (2021). Футбол тугаракларида шугулланувчи 4-5 синф укувчиларини жисмоний тайёргарлигини ошириш. Фан-спортга, 54-56.|
4. Дачев, О. В., & Ирисбоев, М. Т. (2021). Уровень подготовки специалистов по футболу в узбекистане. Проблемы педагогики, (1 (52)), 85-87.
5. Нурматов, М. Х. (2021). Эффективность и надежность тактической деятелности квалифицированных футболистов. Фан-спортга, 16-17.
6. ШУКУРОВА, Ш. (2019). Мини-футбол буйича аёллар жамоаларида амалга

ISLOMDA FARZAND TARBIYASI

Rahimova Anabibi Ruslonbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs
talabasi
Ilmiy rahbar: Nilufar Koshanova

ANNOTASIYA.

Ushbu maqolada oilada tarbiyaning asoslari, bola tarbiyasi va oilaning jamiyatdagi o'rni haqida malumotlar berilgan. Shuningdek, farzand tarbiyasining nozik jixatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. farzand, ota-ona, omonat, odob, burch, tarbiya, axloq, kamolot, ma'suliyat, qadriyat.

KIRISH. Tarbiya - bu shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy, sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo`lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisidir.Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Farzand Alloh tomonidan bandalariga berilgan eng ulug' ne'mat bo'lishi barobarida Allohning omonati hamdir. Shunday ekan ota-ona buni qadriga yetmoqlari, shukrlar aytib, farzand oldidagi ota-onalik burchlarini chuqur his qilishlari kerak bo'ladi. Zero payg'ambarimiz marhamat qilib aytadilar "Ota bolaga go'zal odobdan yaxshiroq narsani bera olmaydi". Shunday ekan har bir ota-ona farzandlarini odobi - axloqi, ta'lim tarbiyasiga jiddiy yondoshmoqlari lozim.

Farzand misoli bir nihol bolib, nihol parvarishga muhtoj bo'lgani kabi bola ham tarbiyaga muhtojdir. Farzand tarbiyalayotgan, ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Shuning uchun ham ota-ona farzandlariga har doim yaxshi va go'zal o'rnak boloshlari darkor. Islomda ham bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya ma'sulayati bardavom bo'ladi. Zotan,

ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Farzand tarbiyasida ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobida shunday keltirilgan: **"Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar".**

Bola ota-onasi huzuridagi omonat bolib, uning qalbi pokiza gavhardir. Bolani kichikligidan, umrining avvalgi kunlaridan ehhtiyotkorlik bilan kuzatib borishi kerak. Ota-ona bolaga hamma vaqt ham doq-po'pisa qilinavermaydi, chunki koyish eshitish, xunuk ishlarni qilish unga yengil tuyilib qoladi, qalbidan gapning ta'siri tushib ketadi. Ota bolasi bilan birga bo'ladigan so'zlashish xaybatini saqlasin va bolasini doim emas, balki bazi vaqtlarda koyib tursin. Bola ota-onasiga, muallimiga, odob orgatuvchiga, o'zidan katta yoshdagi kishilarga, xoh qarindosh bo'lsin, xoh yot bolsin, itoat qilishni, ularga ehtirom va ta'zim ko'zi bilan qarashni, oldilarida o'ynashni tark qilishni o'rgatish lozim. Oq-qorani ajratish yoshiga yetganda namozni va tahoratni tark qilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Ramazon oyining ba'zi kunlarida ro'za tutishga buyurish, ipak liboslardan va tilladan uzoq qilish, shariatdan unga kerakli har bir narsani o'rgatish og'irlik harom yeyish, xiyonat, yolg'onchilik, fahsh va bolalarga qiziq tuyilgan har bir yomon ishlardan qo'rqitish lozim. Agar uning ulgayishi mana shunday tarzda bo'lsa, balog'at yoshiga yaqinlashganida bu ishlarning sirini bilishga qodir boladi.

Abdulatif Fitrat "Oila" asarining "Farzand Tarbiyasi" bo'limida "**Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bolishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgargan tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq", deb keltirilgan.** Shak shubhasiz farzand tarbiyasi oilada ota-ona tomonidan berilgan tarbiyaga bog'liq. Boladan yaxshi xulq va maqtovga sazovor ish sodir bo'lsa, uni taqdirlash va xursand bo'ladigan narsa bilan mukofotlash hamda odamlar huzurida maqtash lozim. Bazi holatlarda mazkur ishlarga xilof narsani sodir qilsa, o'zini bilmaganga solib uning aybini oshkor qilmaslik kerak. Agar o'sha nomaqul narsani qaytadan qilsa, hech kimga bildirmay, jazolash va odamlar bilib qolsa, uyat qilishlarini uqtirish lozim.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, farzandlar o'z ota-bobolariga, Vataniga, ona-tiliga, o'z milliy siymolariga, muqaddas Islom dini an'analariga, sodiq, bilimli, ma'rifatli , haqiqiy fidoyi insonlar bo'lib yetishishlarida ota-onalarning doimiy harakatlari juda ham ahamiyatlidir va har bir ota-ona o'z farzandining to'g'ri tarbiyasi, sog'lom o'sishiga e'tibor qaratishi, ta'lim tarbiyasining

mazmun mohiyatiga e'tibor bermog'i muhimdir. Bu borada ular butun g'ayratu shijoatlarini ishga solmoqlari lozimdir. Zero, mamlakatning, millatning ertasi qanday bolishi bizning bugun farzandlarga bergan tarbiyamizga bog'liq.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Baxtiyor oila" "Hilol nashr" Toshkent – 2024, 527 b

2. A. Fitrat " Oila yoki oila boshqarish tartiblari 2-nashr, -Toshkent: „Ma'naviyat" .2000. - B.112. 55.

3. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" T.:O`zbelikson Milliy ensiklopediyasi,2004.-96b.

ISLOM- GIYOHVANDLIKKA QARSHI DIN

Davletova Ozoda Shuhrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Koshanova Nilufar Maxsudovna

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda giyohvandlikning kishilar so'g'lig'iga, umuman inson hayotining barcha sohalariga solayotgan tahdidi haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, tahdid, vojib, "gerion bombasi", xarom, ma'suliyat, kufr, jamiyat.

Islom dini insoniyatni ezgulikga, poklikga chorlovchi jaxon dinlaridan biridir. Islom musulmon kishi uchun insonning jismi, aqli va ruhiyatiga ta'sir qiladigan va zarar beradigan turli zararli ichimliklardan saqlanmoqlikni vojib hisoblasa, ularni ite'mol qilishni esa harom deb hisoblaydi. Giyohvandlik – bu insoniyatni qiynab kelayotgan global muammolardan hisoblanadi. Giyohvandlikning kishilar sog'lig'iga, oilalarga, iqtisodga, odob-axloq, umuman, inson hayotining barcha sohalariga solayotgan tahdidi soat sayin ortib bormoqda. Bazi mutaxassislar endilikda dunyoni halokatga soluvchi narsa vodorod bombasi emas "gerion bombasi" bo'lib qolganini ta'kidlamoqdalar.

Buning sababi nima? Islomda buning sababi sifatida Xudoning amriga yurmaslik, qiyomat va oxiratdagi so'roq-savoldan qo'rqmaslik deyiladi. Inson nafsini jilovlay olmayapti. Demak bu borada bizga eng katta yordam beradigan muolaja ruhiy tarbiyadir. Jamiyatning har bir a'zosi, kattayu kichik, erkaku ayol, yoshi qari, oddiy fuqaro-hamma –hamma giyohvandlikka qarshi kurashda ishtirok etmog'i kechiktirib bo'lmas zaruriyatdir. Giyohvandlikga qarshi kurashdek savobli ishga har kim qo'lidan kelganicha hissa qo'shmog'i lozim. Albatta, mas'ul taraflar bu kurashni yo'lga solib, muvofiqlashtirib borishi kerak. Ummu Salama roziyollohu anhodan rivoyat qilinadi:

"Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam har bir mast qiluvchi va bo'shashtiruvchidan qaytadilar ".

Abu Dovud rivoyat qilgan.

Bundan iste'mol qilinganda tanani, a'zolarni, asabni va boshqa joylarni bo'shashtiruvchi har qanday narsa haromligi kelib chiqadi. Xuddi shu hadisi sharifdagi aytilayotgan "bo'shashtiruvchi"lik sifati ajnabiy tillarida narkotik deb nomlanayotgan giyohvandlik moddalarining alohida vasfidir Shayx Sanoniy o'zlarining "Subulus-Salam " nomli mashhur kitoblarida: "Nima bo'lsa ham, mast qiluvchi narsa haromdir.Agar nashaga o'xshash ichilmaydigan narsa bo'lsa ham " deganlar.Uchinchi hijriy asrdan boshlab kitoblarimizda "giyohvandlik moddalari "

degan istiloh ishlatila boshlandi. O'sha vaqtlarda barcha mazg'ablarning fuqarolari giyohvandlik moddalarining harom ekanligiga, ularni halol sanagan kishi kofir bo'lishiga ittifoq qilganlar. Shuningdek, ularni yeyish, ishish, hidlash va igna orqali qabul qilish mutlaqo mumkin emasligini qattiq ta'kidlaganlar.

Ular : "Giyohvandlik moddalari orqali qilingan kasb haromdir. Ularning ta'siri ostida namoz o'qigan odamning namozi qabul emas. Ulardan kelgan foyda haromdir, uni sadaqa ham qilib bo'lmaydi, yaxshiliklarga ham ishlatib bo'lmaydi", deganlar. Shunday ekan bu masalada barchamiz nihoyatda hushyor bo'lmog'imiz lozim.

Giyohvandlik munkarini qaytarishning yana bir yo'li til bilan bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, ushbu baloga qarshi targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishdir. Bu ish bilan shug'ullanadiganlar qatoriga axborot vositalari ma'sullari va xodimlari va shu kabi sohalarning vakillarini kiritish mumkin. Albatta musulmon ulamolari bu ro'yxatning eng avvalida turadilar. Ularning bu ish bo'yicha mas'uliyatlari hammanikidan kattadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har birimiz o'zimizning farzandlarimizning ruhiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishimiz kerak, chunki inson o'z nafsini jilovlay olsagina bunday yomon odatlardan qutula oladi.

REFERENCES

1.Qur'oni Karim .T.: Hilol Nashr. 2022-yil, 632bet.
2.Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Iymon" Hilol Nashr 2024-yil 324-bet.

MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI BEHBUDIY IJODIDAN

Ismatova Soliha Mamarajab qizi.
Chiqchiq daavlat pedagogika universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti, O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi, 1-bosqich 24/3-guruh talabasi,
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar
kafedrasi" t.f.f.d.(PhD) dots H.A. Jo'rayev

Аннотация. В данной статье драма «Падаркуш» (Убийца отца), написанная Махмудходжей Бехбуди, анализируется с использованием структуры IMRAD (Введение, Метод, Результаты и Обсуждение). Это произведение является одним из первых образцов узбекской джадидской литературы и освещает такие вопросы, как социальная критика, значение просвещения и нравственно-этическое воспитание. В методологическом плане применён научный подход к содержанию произведения, системе образов и драматической структуре. Результаты исследования показывают, что драма Бехбуди сыграла важную роль в раскрытии социальных проблем в Узбекистане конца XIX — начала XX века. Статья основана на научных источниках и доказывает, что произведение сохраняет свою актуальность и в современном контексте.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" nomli dramasi IMRAD (Kirish, Metod, Natija va Muhokama) usulida tahlil etiladi. Mazkur asar o'zbek jadidchilik adabiyotining ilk namunalaridan biri sifatida ijtimoiy tanqid, ilm-ma'rifatga intilish va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini yoritadi. Tadqiqot metodologiyasida asarning mazmuni, obrazlar tizimi hamda dramatik qurilishi chuqur ilmiy tahlil qilinadi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, "Padarkush" dramasi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi O'zbekiston ijtimoiy muammolarini ochib berishda muhim adabiy vosita bo'lgan. Maqola tegishli ilmiy manbalarga tayanilgan holda yozilgan bo'lib, asarning bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotganini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Padarkush, jadidchilik, ijtimoiy tanqid, ma'rifatparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, teatr, dramatik asar

KIRISH.

Mahmudxo'ja Behbudiy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lib, o'zining ma'rifatchilik g'oyalari bilan o'zbek milliy uyg'onish harakatiga katta hissa qo'shgan. U xalqni ilm-ma'rifatga chorlab, teatr, matbuot va ta'lim vositasida ijtimoiy muammolarni yoritishga intilgan. Behbudiy 1911-yilda yozgan Padarkush

dramasi orqali o'z davrining eng og'riqli masalalarini yoritib, jaholat va ilm o'rtasidagi kurashni sahna orqali xalq e'tiboriga havola etdi. Ushbu drama O'zbekiston teatr san'atining dastlabki namunalaridan biri bo'lib, unda oilaviy tarbiya, avlodlar o'rtasidagi tafovut va ma'naviy qadriyatlarning yo'qolishi kabi mavzular asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu maqolada Padarkush dramasi ilmiy nuqtayi nazardan IMRAD usulida tahlil qilinib, uning jamiyatdagi dolzarbligi va bugungi kun uchun ahamiyati yoritiladi.

Metodologiya va usullar.

Tadqiqot sifat tahlili (qualitative analysis) metodiga asoslangan bo'lib, turli ilmiy yondashuvlar qo'llanilgan. Avvalo, tarixiy kontekstual tahlil yordamida Behbudiy dramasi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganildi. Shuningdek, asarning syujeti, xarakterlar tizimi va dramatik qurilishi adabiy tahlil orqali yoritildi. Dramada ilgari surilgan asosiy g'oyalar, ya'ni jaholatga qarshi kurash, ilm-ma'rifat va yosh avlod tarbiyasining ahamiyati chuqur tahlil qilindi. Zamonaviy kontekstda esa asarning bugungi jamiyat uchun qanday dolzarblikka ega ekani muhokama qilindi. Manbalar sifatida Behbudiy asarlari, zamonaviy tadqiqotlar va tarixiy hujjatlardan foydalanildi.

Natijalar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Padarkush dramasi o'z davrida innovatsion yondashuv bo'lib, jadidchilik harakatining asosiy tamoyillarini sahna orqali ifoda etgan. Dramada avlodlar o'rtasidagi tafovut yaqqol aks ettirilgan bo'lib, jaholat va ma'rifat o'rtasidagi ziddiyat o'g'il va ota munosabatlari orqali ko'rsatib berilgan. Asarda ilm-ma'rifatga chaqiriq ustuvor bo'lib, bilimning ahamiyati va tarbiyaning jamiyat rivojidagi roli alohida ta'kidlangan. Behbudiy ushbu drama orqali teatr san'atini ijtimoiy tanqid vositasi sifatida qo'llagan bo'lib, bu uslub o'sha davr uchun yangi edi. Shuningdek, asardagi obrazlar tizimi ham o'ziga xos bo'lib, bosh qahramon Rustam ilmga e'tiborsizligi va tarbiyasizligi tufayli fojiali yo'lga kiradi. Uning otasi esa an'anaviy qarashlarga ega bo'lsa-da, farzandining fojiasi orqali o'z xatolarini tushunadi. Ushbu xarakterlar orqali Behbudiy yosh avlodning tarbiyasi muhim ekanini, ilm-ma'rifatsiz jamiyat inqirozga yuz tutishini ko'rsatadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Padarkush dramasi o'z davrida innovatsion yondashuv bo'lib, jadidchilik harakatining asosiy tamoyillarini sahna orqali ifoda etgan. Dramada avlodlar o'rtasidagi tafovut yaqqol aks ettirilgan bo'lib, jaholat va ma'rifat o'rtasidagi ziddiyat o'g'il va ota munosabatlari orqali ko'rsatib berilgan. Asarda ilm-ma'rifatga chaqiriq ustuvor bo'lib, bilimning ahamiyati va tarbiyaning jamiyat rivojidagi roli alohida ta'kidlangan. Behbudiy ushbu drama orqali teatr san'atini ijtimoiy tanqid vositasi sifatida qo'llagan bo'lib, bu uslub o'sha davr uchun yangi edi. Shuningdek, asardagi obrazlar tizimi ham o'ziga xos bo'lib, bosh qahramon Rustam

ilmga e'tiborsizligi va tarbiyasizligi tufayli fojiali yo'lga kiradi. Uning otasi esa an'anaviy qarashlarga ega bo'lsa-da, farzandining fojiasi orqali o'z xatolarini tushunadi. Ushbu xarakterlar orqali Behbudiy yosh avlodning tarbiyasi muhim ekanini, ilm-ma'rifatsiz jamiyat inqirozga yuz tutishini ko'rsatadi.

Munozara.

Padarkush dramasi bugungi jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega. Ilm va jaholat masalasi XXI asrda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ta'lim tizimi rivojlanishining muhim omili bo'lib qolmoqda. Oilaviy tarbiya muammolari esa hozirgi kunda ham jamiyat oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning tarbiyasiga befarqlik, oiladagi e'tiborsizlik ularning noto'g'ri yo'lga kirishiga sabab bo'lishi mumkinligi Behbudiy tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kun realiyalari bilan ham uyg'un keladi. O'zbek teatr san'atida esa jadidchilik g'oyalarining sahnaga chiqarilishi hamon dolzarb bo'lib, bu kabi asarlarning zamonaviy talqini jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining Padarkush dramasi orqali XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyatining murakkab muammolarini tasvirlagan. Ushbu drama nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Unda ilgari surilgan ilm-ma'rifat, tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari har qanday davrda ham muhim bo'lib qoladi. Behbudiyning sahna orqali xalqni ogoh qilishga bo'lgan intilishi bugungi kunda ham o'zbek teatrining vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Padarkush dramasi o'zbek adabiyoti va san'ati rivojida muhim o'rin egallagan bo'lib, uning bugungi jamiyat uchun ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmaganligi isbotlanmoqda.

REFERENCES

1. Gulboyev, H. (2023). Jadidchilik faoliyatida teatrning o'rni va ahamiyati (Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati). Yevroosiyo ijtimoiy fanlar, falsafa va madaniyat jurnali, 3(4), 33–35.
2. Kamolovna, M. R. (2022). Mahmudxo'ja Behbudiyning Padarkush dramasida odob-axloq masalalari. PEDAGOGS jurnali, 19(1), 137–138.
3. Hamrayeva, N., & Norkulova, S. (2025). Behbudiy asarlarida jadidchilik g'oyalarining badiiy-poetik talqini. National Research Journal (NRJ), 2(1).

ISMOIL GASPRALI. JADIDCHILIK HARAKATI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONIDAGI O'RNI.

Haytboyeva Fazilat Qurolboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti 1-kurs talabalari
haytboyevafazilat67@gmail.com
O'rolova Mashhura Sherali qizi
morolova6@gmail.com
Ilmiy rahbar: Jo'rayev Hamza Atoyevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ismoil Gasprali XX asr boshlarida nafaqat Rossiya musulmonlari, balki butun Sharqda mashhur va nomi chiqqan shaxslardan biri bo'lib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning boshida turganligi, jadidchilik harakatida Gaspraliyning Turkistonga safarlaridan va mahalliy amaldorlarni yangi usul maktabi ishiga jalb qilishini maqsad qilganligi kabi uning bir qancha fidokorona ishlari yoritib beriladi.

Аннотация: В данной статье Исмаил Гаспринский был одним из известных и известных личностей не только среди российских мусульман, но и на всем Востоке начала XX века. Он стоял во главе общественно-политических процессов конца XIX - начала XX века. В период радикального движения поездка Гаспринского в Туркестан имела целью привлечь русских и местных чиновников к работе школы нового метода.

Abstract: This article highlights the fact that Ismail Gasprinsky was one of the most famous and prominent figures not only among Russian Muslims but also throughout the East at the beginning of the 20th century, and that he was at the forefront of socio-political processes in the late 19th and early 20th centuries. He also highlights Gasprinsky's selfless work.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, taraqqiyparvarlik, ma'rifatparvarlik, turkiy birlik. Tarjimon, "Tilda, fikrda va ishda birlik".

Ключевые слова: модернистское движение, прогрессизм, просвещение, турецкое единство. Тарджимон, «Тильда, фикрда ва ишда бирлик».

Keywords: Jadid movement, progressiveness, enlightenment, Turkic unity. Translator, "Unity in language, thought and work."

Gasprinskiy (G'asprali) Ismoilbek (1851.21.3, Boqchasaroy yaqinidagi Ajiko'y qishlog'i — 1914.11.9, Boqchasaroy) — jadidchilik harakatining asoschisi, yozuvchi va publitsist. Gasprinskiyning otasi Mustafo Gasprinskiy Rossiya harbiy dvoryani (praporshchik) bo'lib, Yalta shahri yaqinidagi Gaspra qishlog'idan edi. Gasprinskiy

qishloq musulmon maktabi, Oqmachit (hozirgi Simferopol) gimnaziyasi va Voronejda, Moskva kadetlik korpusida o'qidi (1864—67).Qrimga qaytgach, rus tili o'qituvchisi bo'lib ishladi (1867—70). Istanbul va Sorbonna (Parij) universitetlarida o'qidi (1871—75). Jazoir, Tunis, Misr, Gretsiyada bo'ldi. Parijda frantsuz sotsialistlari va liberallariga yaqinlashdi. Turkiyada Yosh turklar harakati rahbarlari bilan tanishdi (1875—77). Boqchasaroy shahri meri qilib saylandi (1877).Gasprinskiy turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o'rganib, Sharq bilan G'arb olamini taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi.Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. Gasprinskiy «Rusiya musulmonligi» (Simferopol, 1881) ilk risolasida Yevropa tsivilizatsiyasidan ko'r-ko'rona andoza olishga qarshi chiqib, uni tanqidiy qabul qilishga, musulmonlarni ilm-fanni egallashga, texnika yutuqlaridan foydalanishga da'vat etdi. «Ovrupo madaniyatiga bir nazar muvozini» (Istanbul, 1885) asarida esa sotsializm g'oyalari bilan bahsga kirishib, uning asosiy tamoyillarini shubha ostiga oldi.Gasprinskiy Rossiya mustamlakasidagi barcha musulmon xalqlar maorifini tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor berdi. Boqchasaroyda dastlabki «usuli jadid» (yangi usul) maktabini ochdi (1884). Turkiston general-gubernatori N. O. Rozenbaxga musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyihasini yubordi. Rad javobini olgach, 1893 yili Turkistonga o'zi keldi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazdi.Gasprinskiy jadidchilik g'oyalarini kengroq yoyish uchun «Tarjimon» (1883 yil 10 apreldan), «Millat»

(1908), «Bolalar olami» (1908—15), «Uyg'onish» (Qohira, 1908, arab tilida) gazetalari, «Ayollar olami» jurnali (1908—10), «Xa-xa-xa!» hajviy haftanomasini chiqardi. Jadid maktablari uchun «Xo'jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini, «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh» (1898) kitobini yozdi.Gasprinskiy musulmon milliy ozodlik harakatining yo'lboshchisi sifatida tanildi.Ismoil Gaspirali nomi islom Sharqi xalqlarining ma'rifatparvarlik harakati — jadidchilikning (ta'limning yangi, dunyoviy usuli) asos solishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u ko'plab musulmon mamlakatlarida boshlang'ich ta'limga unga ko'proq dunyoviy xususiyat beradi. Odatiy ta'lim mohiyati va tuzilishini tubdan o'zgartirdi. Ismoil Gaspirali ma'rifatparvar ta'limning kelib chiqishi va maktabda jadidchilik deb nomlangan dunyoviy o'qitish usulining rivojlanishida turdi. U musulmon mamlakatlaridagi boshlang'ich maktabning allaqachon tanish bo'lgan qonunlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Aynan Gasprinskiy etno-konfessional tizimni o'zgartirish asoslarini ishlab chiqdi. Ismoil o'z tamoyillarini jamiyat taraqqiyotidagi taraqqiyot va konfessional bag'rikenglikka asoslagan. Tarjimon" gazetasi1883 yilda u Rossiyada birinchi "Terjuman" (Tarjimon) turk gazetasini chiqara boshladi, 30 yildan ortiq vaqt mobaynida bu nafaqat Qrim, balki Kavkaz, Tatariston, Boshqirdiston, butun musulmon aholi orasida bilim va madaniyatni tarqatishda muhim rol o'ynadi. Misr, Eron, Iroq, Sharqiy Xitoy va boshqa mamlakatlarga tarqaldi. Rossiyaning chekkasidagi turli xalqlarning urf-odatlari va hayoti, shuningdek, Hindiston, Misr, Turkiya, Fransiya, Angliya va boshqa mamlakatlar hayoti, iqtisodiyoti va madaniyati to'g'risida ma'lumotlar muntazam ravishda nashr etilardi."Terjuman" Qrimdagi tatar tilidagi birinchi gazeta edi. Bu Rossiyadagi uchinchi turkiy gazeta.U musulmon maktablari va madrasalarida o'qitish mazmunini o'zgartirib, matematika, geografiya, tarix va biologiya kabi fanlarni din bilan birga arab yozuviga asoslangan holda o'z tillarida o'qitish zarurligini ta'kidladi. U arab harflarini turkiy tillarning fonetik xususiyatlariga moslashtirishni taklif qildi. 1888 yil Birinchi darslik "Bola o'qituvchisi" 1894 yilda jadid maktablari va madrasalari uchun nashr etilgan. "Turk antologiyasi" 1894 yil yangi usul jadid maktabi o'qituvchilari uchun pedagogik qo'llanma sifatida nashr etildi.Gasprinskiy Qrim va boshqa musulmon mamlakatlarida Xotin-qizlar ta'limi tashabbusini boshlab berdi va amalga oshirdi. U ayollar uchun maxsus kitob, "Ayollar", "Arslon qizi" va "Ayollar dunyosi" jurnalini nashr etdi.U "Sharq va G'arb ayollari" nomli uzun maqolasida ayollar turmush tarzi to'g'risidagi o'z fikrlarini bildirdi. Shuningdek, u "Der el Rakhatskie Musulmane" romanida ayollar ta'limi masalasiga to'xtalib, "sirli mamlakatda" ayollar hayotini tasvirlab berdi. Shu yillarda buyuk ma'rifatparvarlar harakati boshlandi, ayollar ta'limi uchun qariyb 3 million dollar yig'ildi va o'nlab yangi maktablar ochildi. 300 ga yaqin turli xil darsliklar va o'quv qo'llanmalar chop etildi va Pomir, O'sh, Sharqiy

Xitoy va boshqa joylarda sakkizta xayriya jamg'armalari tashkil etildi. U bir necha bor Turkistonga tashrif buyurgan, Samarqand, Toshkent, Buxoro va Qorako'lda yangi maktablar ochgan va ilk darslarni o'zi o'tkazgan. "Tilda, fikrda va ishda birdamlik" shiori 1911 yildan beri "Terjuman" gazetasining birinchi sahifasida nashr etilgan. O'shandan beri bir asr o'tdi, ammo shior o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Gasprinskiy o'z gazeta-varaqalarini nashr qilar ekan, birinchi o'rinda o'quvchi va obunachi masalasini hal qilishi kerak edi. 1881-yilning avgust oyida u Butunrossiyadan musulmon savdogarlar va ishlab chiqaruvchilar yig'iladigan Nijniy Novgorod ko'rgazma-bozoriga bordi. Bu ko'rgazma-bozorda turkistonlik savdogarlar ham ishtirok etishgan. O'z safari davomida Gasprinskiy ko'p savdogarlar bilan milliy ta'lim va matbuot borasida muzokaralar olib boradi va izdoshlar topishga muvaffaq bo'ladi. Muzokaralar natijasida ushbu savdogarlar pochta orqali yuboriladigan gazeta sonlarini o'zlari istiqomat qiladigan viloyatlarda tarqatishni o'z zimmalariga oldilar. Gasprinskiy Nijniy Novgoroddan Bog'chasaroyga 250 obunachi ro'yxati bilan qaytib keldi. Bu obunachilar keyinroq "Tarjimon" gazetasining birinchi o'quvchilari ham bo'ldilar. Ismoilbek Gasprinskiy Usmonli ziyolilari bilan yaqin hamkorlik qilgan. Gasprinskiy, ayniqsa, "usuli jadid" ta'lim tizimi bilan mashhur bo'lib, bu tizim eski usuldagi maktablarning ta'lim metodlarini zamonaviylashtirishni maqsad qilgan. U o'z ta'lim modelida fanlar, matematikalar, til va ilmiy bilimlarni o'rgatishga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, bolalarga o'z ona tilida samarali o'qish va yozish imkonini yaratgan. Tarjimon gazetasi, Rossiya imperiyasidagi turkiy xalqlar orasida birinchi bo'lib o'zining yangiliklari, siyosiy va ijtimoiy tahlillari bilan mashhur bo'lgan. "Tercüman" gazetasi, muslima jamiyatlarida yangilanish va bilim olishning asosiy manbai bo'lib, Gasprinskiyning g'oyalarini keng tarqatishga yordam berdi.Gasprinskiy, shuningdek, musulmon xalqlari o'rtasida pan-turkizm g'oyalarini ilgari surgan. Uning fikricha, turkiy xalqlar birlashib, bir-birining madaniy va ijtimoiy yutuqlaridan foydalangan holda, Rossiya imperiyasidagi siyosiy tahdidlarga qarshi turishi mumkin edi. U bu ideani ta'lim orqali amalga oshirishga harakat qildi va xalqlarni birlashtiruvchi ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etdi.Gasprinskiyning islohotlari bugungi kunda ham jadal davom etmoqda. Uning yaratgan "usuli jadid" ta'lim tizimi musulmon jamiyatlarida o'qitishning zamonaviy usullarini asoslab berdi. Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarni ilmiy yondashuv, ijodkorlik va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, asosan, Gasprinskiy kabi jadidchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarning natijasidir. Shuningdek, uning matbuotdagi ishtiroki va siyosiy faoliyati bugungi kunning o'quvchilari va ilm-fan sohasidagi yetakchilari uchun katta ahamiyatga ega. «Ovrupo madaniyatiga bir nazar muvozini» (Istanbul, 1885) asarida esa sotsializm g'oyalari bilan bahsga kirishib, uning asosiy tamoyillarini shubha ostiga oldi. Gasprinskiy Rossiya mustamlakasidagi barcha musulmon xalqlar

maorifini tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor berdi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki,jadidchilik asoschilari qatorida Ismoil Gaspiraliskiy ilgari surgan g'oyalar xalqni ma'rifatli qilishda dasturi amal bo'lib xizmat qildi va qanchadan-qancha yoshlar savod chiqardi, jadidchilik harakati siyosiy ma'rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarila oldi va chin ma'noda ilm fan bo'yicha yetarli natijalarga erishishdir,adidlarimiz har bir ilgari surgan islohatlarida yoshlar ilmiturganligi va ularning ong-u tafakkurini yetuk qilib tarbiyalashda dunyoviy bilimlarni o'rgatishdagi harakatlari zoye ketmadi, ammo Chor Rossiya buni to'xtab qo'yganli bizning yuksalishimizni orqaga surdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki jadidchilik harakati va tarixiy tafakkuri xalqimiz ongiga singib ketdi va hozirgi davrda ham ularning asarlari orqali ko'plab ilm o'rganishmoqda.

REFERENCES

1.https://daryo.uz/2021/03/21/ismoil-gasprinskiy-jadidchilik-harakatining-asoschisi.
2. https://kh-davron.uz/sitemap
3. https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/ismoil-gaspirali-sultonlar-suhbati-mukolamai-salotin-rosti-rasti.htmGasprali, I. (1905). Tercüman gazetasidagi maqolalar. Istanbul: Matbaa-i Amire.
4.Sharipov, A. (2002). Jadidchilik va Ismoil Gasprali: O'zbekistondagi rivojlanish. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
5.Ayniyev, R. (2010). Ismoil Gasprali va uning ta'lim sohasidagi islohotlari. Baku: Elm.
6.Xoshimov, T. (2008). Ismoil Gaspirali: Hayoti va Faoliyati. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
7.A'zamov, M. (2005). Ismoil Gaspirali va Tarixiy Tadbirlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.Yusupov, Z. (2011). Ismoil Gaspirali: Yangi Tasavvurlar. Samarqand: Sharq nashriyoti.
8.Suyunov, F. (2014). Gaspirali Ismoilning Ma'naviy Merosi. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti
9.Shamsutdinov, R. (2010). Ismoil Gaspirali: Bir Davrning Siyosiy Fiqqasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti.
10.Nazarov, A. (2012). Gaspirali va Turkiston. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

ISLOM DINIDA ODOB-AXLOQ QOIDALARI

Isroilova Umida
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar:**Nurmanov Sherzod**

Annontatsiya: Mazkur maqola islom dinida odob-axloq qoidalarining ahamiyati, manbalari va kundalik hayotdagi o'rni haqida so'z yuritadi. Islom axloqi Qur'oni karim va Hadislarga asoslanib, insonning jamiyatda o'zini qanday tutishi, boshqalar bilan muomala madaniyati, halollik, adolat, sabr-toqat, hurmat-ehtirom kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Mavzuda musulmon kishining oila, qo'shnichilik, do'stlik va jamiyatdagi boshqa munosabatlardagi axloqiy majburiyatlari ko'rib chiqiladi. Bu qoidalar inson kamoloti va jamiyat tinchligiga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida ta'riflanadi.

Kalit so'zlar:Islom odobi, axloqiy fazilatlar, Qur'on va Hadis, halollik, sabr-toqat, hurmat, muomala madaniyati, musulmon axloqi, jamiyatda odob, oila axloqi, islomiy tarbiya, yaxshi xulq, axloqiy qadriyatlar, adolat, qonun va axloq.

Аннотация:В этой статье рассматриваются важность, источники и роль этикета в исламе, а также его применение в повседневной жизни. Исламская этика, основанная на Священном Коране и хадисах, включает в себя такие качества, как поведение человека в обществе, культуру общения с другими, честность, справедливость, терпение и уважение. В теме рассматриваются моральные обязательства мусульманина в семье, соседстве, дружбе и других отношениях в обществе. Эти правила описываются как важные факторы, способствующие совершенствованию человека и социальному миру.

Ключевые слова: исламский этикет, моральные качества, Коран и хадисы, честность, терпение, уважение, культура поведения, мусульманская этика, социальная порядочность, семейная этика, исламское воспитание, хорошее поведение, моральные ценности, справедливость, закон и мораль.

Abstract: This article discusses the importance, sources, and role of ethics in Islam. Islamic ethics, based on the Holy Quran and Hadith, includes qualities such as how a person behaves in society, the culture of dealing with others, honesty, justice, patience, and respect. The topic examines the moral effectiveness of a Muslim person in family, neighborhood, friendship, and other relationships in society. This organization is described as important for human perfection and social peace.

Keywords: Islamic etiquette, moral qualities, Quran and Hadith, honesty, patience, respect, culture of interaction, Muslim ethics, etiquette in society, family ethics, Islamic upbringing, good behavior, moral values, justice, law and ethics.

KIRISH

Islom dini nafaqat ibodat va e'tiqod, balki mukammal axloqiy tizim hamdir. U odamlarning o'zaro munosabatlarini, jamiyatdagi muomalalarini, shuningdek, shaxsiy odob-axloqini tartibga soluvchi aniq qoidalarni o'z ichiga oladi. Musulmon kishining go'zal hulq-odobli bo'lishi Qur'on va Hadis ta'limotlarida ko'p bor ta'kidlangan.Birinchidan, Allohga bo'lgan e'tiqod va sadoqat eng muhim axloqiy asoslardan biridir. Bu — har bir musulmonning qalbida chuqur ildiz otgan tavhid, ya'ni yagona Allohga ishongan holda, Unga itoat etish va Payg'ambar Muhammad (s.a.v) sunnatiga amal qilishdir. Payg'ambarimiz (s.a.v): "Men go'zal axloqni mukammal qilish uchun yuborildim" — deya marhamat qilganlar. Bu esa islom axloqining muhim o'rnini ko'rsatadi.Ikkinchidan, musulmon inson ota-onaga hurmat bilan muomala qilishi shart. Qur'oni Karimda bu haqda shunday deyilgan: "Rabbing faqat Unga ibodat qilishingizni va ota-onangizga yaxshilik qilishingizni buyurdi…" (Isro surasi, 23-oyat).

Ota-onaning duosini olish, ularning xizmatida bo'lish – bu dunyo va oxirat saodatining kalitidir.Uchinchidan, halollik va rostgo'ylik har qanday musulmonning ajralmas fazilatidir. Yolg'on gapirish, aldash, g'iybat qilish kabi illatlar islomda qattiq qoralanadi. Halol mehnat qilib rizq topish, vadasiga sodiq bo'lish, insonlar orasida adolatli bo'lish musulmonning asl qiyofasini aks ettiradi.O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiyfazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohidata'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Islom dini inson hayotining har bir jabhasida odobli va axloqli bo'lishni targ'ib qiladi. Musulmon kishi o'zining kundalik hayotida, jamiyatda va ibodatda har doim yaxshi axloq qoidalariga amal qilishi kerak. Islomiy axloq insonning o'zini qanday tutishi, boshqalar bilan qanday muomala qilishi, oilaviy hayotda qanday yo'l tutishi

va ibodat paytida qanday tartibga rioya qilishi kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Quyida islom dinidagi asosiy odob-axloq tamoyillari haqida batafsil bayon qilinadi.

Har bir musulmon inson avvalo o'ziga nisbatan hurmat va mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Bu degani, inson o'zini jismonan va ruhan pok tutishi, hayotda halol yo'lni tanlashi va doimo yaxshilikka intilishi kerak. Islom dini poklikka katta e'tibor qaratadi. Musulmon inson o'z tanasini, kiyimini va atrof-muhitini har doim toza tutishi lozim. Tozalik nafaqat jismoniy, balki ruhiy poklikni ham anglatadi. Tahorat olish, g'usl qilish, misvok ishlatish va toza kiyim kiyish – bular musulmonning shaxsiy odobining ajralmas qismidir. Musulmon odam halol yo'l bilan pul topishi, harom narsalardan tiyilishi va har doim pok rizq yeyishi kerak. Halol daromad inson hayotiga baraka keltiradi, harom esa insonni baxtsizlik va gunohga olib boradi. Hayot doimo bir tekis kechmaydi, inson turli sinovlarga duch kelishi mumkin.Bunday hollarda sabrli bo'lish va har qanday vaziyatda Allohga shukrona aytish musulmonning muhim xususiyatlaridan biridir. Musulmon inson vaqtdan unumli foydalanishi, bo'sh vaqtini foydali ishlar bilan o'tkazishi lozim. Ilm olish, ibodat qilish, jamiyatga foydali bo'lish – bularning barchasi vaqtni qadrlashning belgilaridir. Har qanday inson o'zini boshqalardan ustun deb hisoblamasligi kerak. Kamtarlik va tavozelik musulmon kishining eng go'zal fazilatlaridan biridir. Kibr va manmanlik esa insonni yomon yo'lga boshlaydi.Musulmon kishi nafaqat o'ziga, balki atrofidagi odamlarga ham hurmat va mehribonlik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Jamiyatda yaxshi muomala va go'zal axloq asosiy tamoyillardan biridir. Musulmonlar bir-biri bilan "Assalomu alaykum" deb salomlashishi va salomga "Va alaykum assalom" deb javob berishi lozim. Salomlashish insonlar orasida mehr-oqibatni kuchaytiradi. Boshqalar haqida yomon gapirish, ularning orqasidan g'iybat qilish yoki yolg'on gaplar tarqatish Islomda qat'iy man qilingan. G'iybat insonlar orasidagi ishonchni yo'qotadi va yomonlikka olib keladi.Islom dini odob va axloq dini bo'lib, musulmon inson har qanday holatda ham go'zal xulq-atvor bilan yashashi kerak. O'ziga, oilasiga, jamiyatga va ibodatlariga nisbatan hurmat bilan yondashish – musulmonning asosiy burchlaridan biridir. Yaxshi axloq va odob bilan yashagan inson dunyoda ham, oxiratda ham muvaffaqiyat topadi.

XULOSA

Islom dini odob-axloqni inson hayotining ajralmas qismi deb biladi. Musulmon kishi nafaqat o'ziga, balki atrofidagilarga, oilasiga va butun jamiyatga nisbatan mehr-shafqat, hurmat va halollik bilan yashashi kerak. Tozalik, sabr, shukr, kamtarlik, salomlashish, g'iybatdan tiyilish, ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi va ibodatdagi tartib – bularning barchasi musulmon kishining go'zal odobi va axloqini

shakllantiradi. Demak, yaxshi axloq – bu nafaqat insoniylik belgisi, balki Allohning roziligiga erishish vositasidir. Yaxshi axloq bilan yashagan inson dunyoda ham, oxiratda ham baxtli bo'ladi.

REFERENCES

1. Qur'oni karim. Tarjimasi va tafsiri – Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol nashriyoti, 2012
2. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih (Sahih Buxoriy). Hadislar to'plami.
3. Imom Muslim. Sahih Muslim. Hadislar to'plami.
4. Imom G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din (Dinning jonlantiruvchi ilmlari). Qohira: Dar al-Fikr, 2005.

JALOLIDDIN RUMIY HIKMATLARI

Ismoilov Jasurbek Faxriddin o'g'li
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti
Tojik tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) dots H.A. Jo'rayev

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk fors-tojik shoiri Mavlono Jaloliddin Rumiy hayotiga bag'ishlanadi. Jaloliddin Rumiy adabiyotda o'chmas iz qoldirgan. Ushbu maqola fors-tojik adabiyotini maqomini ko'tarishga xizmat qiladi. Uning fikrlari juda keng tarqalgan bo'lib, nafaqat islom dunyosida, balki butun jahonda e'tirof etilgan. Uning so'zlari ko'plab tillarga tarjima qilingan va g'oyalari turli madaniyatlarda o'z aksini topgan. Rumiy yozuvchi sifatida tanilibgina qolmay, balki u sufi tariqatining asoschilaridan biri hisoblanadi. U "Mevleviya" tariqati deb ataladigan sufi jamoasini tashkil etdi. Bu jamoa o'zining raqs qilishi (sama) orqali ruhni parvoz ettirishga intiladi.

Kalit so'zlar: g'azal, nasihat, so'z, hikmat, raqs, adabiyot, ishq, fors-tojik, ustoz, devon, masnaviy.

Аннотация: Статья посвящена жизни великого персидско-таджикского поэта Мевлана Джалалуддина Руми. Джалалуддин Руми оставил неизгладимый след в литературе. Данная статья призвана повысить статус персидско-таджикской литературы. Его идеи широко распространены и признаны не только в исламском мире, но и во всем мире. Слова Руми были переведены на многие языки, а его идеи нашли выражение в различных культурах. Руми известен не только как писатель, но и считается одним из основателей суфийского ордена. Он основал суфийскую общину под названием «Орден Мевлеви». Эта группа стремится возвысить дух посредством своего танца (сама).

Ключевые слова: газель, совет, слово, мудрость, танец, литература, любовь, персидско-таджикский, учитель, диван, маснави.

Abstract: This article is dedicated to the life of the great Persian-Tajik poet Mevlana Jalaluddin Rumi. Jalaluddin Rumi left an indelible mark on literature. This article serves to raise the status of Persian-Tajik literature. His thoughts are very widespread and are recognized not only in the Islamic world, but also throughout the world. Jalaluddin Rumi's words have been translated into many languages, and his ideas have found their reflection in different cultures. Rumi is known not only as a writer, but also as one of the founders of the Sufi order. He founded a Sufi

community called the "Mevlevi" order. This community seeks to elevate the soul through its dance (sama).

Keywords: ghazal, nasih, word, wisdom, dance, literature, love, Persian-Tajik, teacher, divan, masnavi.

Jaloliddin Rumiy (1207-1273) — o'z zamonining eng buyuk mutafakkirlaridan biri, shoir va tasavvuf faylasufi. U 1207-yil 30-sentabrda hozirgi Afg'oniston hududida joylashgan Balx shahrida tug'ilgan. Uning oilasi siyosiy sabablar bilan Movarounnahrga ko'chib o'tadi va u erda Jaloliddin Rumiyning hayoti davom etadi. Mashhur shoir va orif Jaloliddin Muhammad Rumiyning teran andishalari tarovishi bo'lgan "Masnaviy" kitobi insoniy haqiqat va maorifning purgavhar daryosidir. Jaloliddin ularni o'zining pok qalbi va olovli fikrlari hamohangligida kashf etmishdir. Mavlaviy ushbu asarda bir musobih mutakallim, ammo tamsiliy qiyoslar va shoirona tashbihlar vositasida Qur'on va shariat ahli aqidalarini isbot etadi, tavhid haqiqati, ruh voqiyoti, hashr va nashr, jabr va ixtiyor hududlarini shariat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Shariat mag'zini "ishq" deb, mazhabni oliy vasila, ilohiy muloqotning eng to'g'ri yo'li deb biladi. "Masnaviy"ning biror-bir o'rnida dinga nisbatan e'tiborsizlik yoxud uni avomning qarashlari bilan cheklash holatlariga duch kelmaymiz. Harchand ba'zi tafsir va ta'villar diniy nuqtayi nazardan g'oyat shaxsiy, yoxud ayrimlarga nomaqbul bo'lishi mumkin, ammo bu hol "Masnaviy"ning azamat va shavkatiga zarracha putur yetkazmaydi, shuningdek, bu buyuk asar islomiy farhangning yorqin va g'oyat qadrli merosi bo'lib qoladi. Jaloliddin Rumiy bu bebaho asarida yuzlab zaruriy masalalar silsilasi, jumladan, umumiy ma'rifat, ilohiyot va inson mavjudiyatining xilma-xil qirralari xususida bahs yuritadi. Shoirning bundan maqsadi pok ruhga ilohiy sayr, Olloh visoliga yetmoq yo'llarini ko'rsatishdir. Darvoqe, "Masnaviy" kitobi eng oliy go'zallik va irfon manbayi bo'lmish insonlar jamoasi manfaati yo'lida ezgu ishlar bilan shug'ullanishga tashviq etadi.

Mard g'arqa ter ichinda jon uzar,
Ilkini har bir giyoh, o'tga cho'zar.
Yor suygay bul kabi mardlarni cho'x,
G'ayrati behuda bo'lsin, bok yo'q.
Aylamish amr, ey o'g'il, Rahmonimiz,
Har kuning Uldir, ki Uldir shonimiz.
Sa'y qil, yo'l bo'lsa-da to qaygacha,
Forig' o'lma, bir dam oxir damgacha.

Mavlaviyda Shams Tabriziy bilan muloqot tufayli sodir bo'lgan ruhiy inqilobning ko'plab sabablari bor, biroq Shams Tabriziy yolg'iz Jaloliddin bilan suhbatda bo'lmay, balki juda ko'plab kishilar bilan muloqot qilgan. Ammo ilohiy-ruhiy iste'dodi va tug'ma azaliy tayyorgarligi bo'lgan Jaloliddin buyuk bir junbish va

talotumni boshdan kechirdi. Mavlono hali Shams Tabriziyga oshiq bo'lmasdan burun o'zining pokiza zamirida yuz ko'rsatgan ma'naviy-ruhoniy javohirlar, nurlar va tilsimlarning oshig'i edi. Shamsga duch kelgandan so'ng o'z botinida o'zi oshiq bo'lgan hodisalarning tirik mujassamini topdi va unga oshiq-shaydo bo'lib qoldi. Mavlononing Shams bilan robitasi muxlis muridning o'z murodi bilan robitasidir. Ma'lumdirki, ma'naviy jozibalar va botiniy iste'dodlar qanchalik mo'l bo'lsa, ishq va muhabbat rishtalari, rizo va taslimiyat mezoni shu qadar mustahkam bo'ladi. Mavlononing bu qadar yuksak hayajon va ishqining boisi teran ma'naviy va ruhiy haqoyiq, buyuk shoirona iste'dod edikim, bu oxir-oqibat Shams Tabriziy devoniga aylandi va "Masnaviy" kitobida ham bu yondirguvchi ishq nurining alangasi porilladi. Mavlaviy o'z she'riyatida aks ettirgan urfoniy, ilmiy va ruhiy qiyofa qat'iy va favqulodda mumtoz chehralardandir. Uning inson haqoyiqi va oliy haqiqatga nisbatan nigohi kengliklari besaranjom ummondir. Bu haqiqatlar bayoni shu qadar qisqaki, uning o'zi bu haqda yozadi.

Lab, desam daryo labi deb anglangiz,
Lo, desam Olloh g'ami deb anglangiz.

"Masnaviy" kitobi Qur'on maorifiga, dinning tamsiliy tafsiriga eltguvchi yo'l karvoni. Bu butun musulmon olami madaniyatiga tavajjuh. Zero, Mavlono andishalari Islom binosi va usullari asosiga qurilgan. Bu muhtasham Islom farhangi yagona Islom ummatining hamdilligi va yakdilligi yo'lida qo'yilgan qadamdir.

Buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmoni Jomiy Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy va ma'naviy" asari haqida o'z fikrlarini bildirgan:

Ul Fariydundir ma'no dunyosiga,
"Masnaviy" burhondir asli zotiga.
Men ne dey olijanob vasfida, bas,
Bor kitobi, lek payg'ambar emas.

Masnaviy:

Siyna xoham sharha-sharha az firoq,
To bigo'yam sharhi dardi ishtiyoq.

Tarjima:

Siyna istarmen firoqdan poralar,
Shavs dardidan desam afsonalar.

Lisoniy tarjima:

Firoqdan pora-pora bo'lgan bir siyna (ko'ngil ma'nosida) istayman. Toki ul ko'ngil sohibiga (ahli dil) shavq-ishtiyoqim dardini sharh aylayin.

Sharh:

Ma'naviy oshiq deydi: Haqiqiy do'st liqosini bu dunyoda mushohada eta oluvchi va yoxud olami ruhoniyning firoqida ko'ksi pora bo'lgan bir mard istayman. Toki ishtiyoqim dardi his aylagan olam va o'z ahvolimdan unga bir-bir so'ylasam, faryod etsam. Ma'naviy oshiq Vojibul vujud bo'lgan olamlar Rabbiga nuroniy va ruhoniy rishtalar vositasida bog'langan zotdir. Nuroniy va ruhoniy rishtalar oshiqning ko'nglidagi ma'sum va pokiza tuyg'ulardir. Bu tuyg'ularni ko'rib yoxud his qilib bo'lmaydi. Zero ayni shu dardli ishtiyoqqa mubtalo kishilargina bu holni mushohada eta oladilar. Aks holda, so'ylangan dard g'ayri oqil some'ga og'irlik qiladi. Ma'naviy oshiqning ma'naviy ishqi ma'naviyat, bilxossa, Rabboniy ma'naviyat sohiblariga xosdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jaloliddin Rumiy - o'zining chuqur ma'naviy qarashlari, ilohiy ishqqa yo'g'rilgan she'rlari bilan insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va shoirdir. Uning asarlari nafaqat adabiyot durdonasi, balki inson qalbiga yo'l topadigan, uni ezgulikka, mehr-muhabbatga chorlaydigan ma'naviy ozuqadir. Jaloliddin Rumiy - insoniyatga sevgi, tinchlik va ma'naviy yuksalishni meros qilib qoldirgan bebaho xazinadir. Uning asarlari har doim o'z qadrini yo'qotmaydi va kelajak avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Rumiyning "Men tirik ekanman, Qur'onning quliman. Muhammad alayhissalomning yo'lining changiman" degan so'zlari uning kimligini to'liq aks ettiradi.

REFERENCES

1. Avazxonov SHohnazar Gulnazarzoda. "Farhangi adabiyotshinosiy" T..,2023
2. HIKMATLAR SHODASI. T.., 2016.
3. Xliq Mirzozoda. "Tarixi adabiyoti tojik". D., 1984.
4. Ishq daftari [ruboiylar], T., 2000.
5. Ichindagi ichindadir, T., 1997-yil.

JAMIYATDA DINLARARO BAGRIKENGLIKNING AXLOQIY TA'LIMOTI.

Malikova Feruza
ToshDTU Olmaliq filiali 1k-22 MET guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola dolzarb muammolaridan biri dinlararo bag'rikenglik va axloqiy tamoillar tushunchalarining o'rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, dinni ijtimoiy-madaniy hodisa, vijdon erkinligi, din va davlat o'rtasidagi munosabatlar, millatlararo munosabatlarning holati va istiqbollari, mamlakatda dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni shakllantirish va mustahkamlash uchun Qonunchilik-huquqiy bazani tizimli tahlil qildi, mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish shartlari va omillari sifatida.

Jamiyatda dinlararo bag'rikenglik — turli dinlarga mansub kishilarning bir-biriga hurmat ko'rsatish, o'zaro inoq va hamjihat yashash madaniyatidir. Bu tushuncha, ayniqsa, dunyo bo'ylab globalizatsiya va madaniyatlararo o'zaro aloqalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir davrda katta ahamiyat kasb etmoqda. Dinlararo bag'rikenglik nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, balki axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari, adolat va erkinlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Dinlararo bag'rikenglikning axloqiy ta'limoti o'zida barcha dinlar va ularning ta'limotlaridan kelib chiqqan insoniyatning umumiy axloqiy prinsiplari va qadriyatlarini aks ettiradi. Bu maqolada dinlararo bag'rikenglikning axloqiy ta'limotiga oid asosiy jihatlar, uning jamiyatdagi roli, ahamiyati va uning ilgari surilayotgan tamoyillari haqida so'z yuritamiz.

Dinlararo bag'rikenglikning asoslari tarixan insoniyatning diniy va madaniy rivojlanishida ko'zga ko'ringan. Tarixda ko'plab yirik dinlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lib o'tgan bo'lsa-da, oxir-oqibat, ular orasida bag'rikenglik va hurmatni o'rnatishga qaratilgan g'oyalar shakllandi. Masalan, Islomda "Ahl al-Kitab" (Kitob ahli) degan tushuncha mavjud bo'lib, unda yahudiylar, nasroniylar va boshqa kitob ahlilari bilan hurmat va bag'rikenglikda yashash zarurligi ta'kidlanadi.

Xristianlikda esa "O'z yaqinini o'zingni kabi sev" degan qadriyat mavjud bo'lib, bu prinsip barcha odamlar bir-birini hurmat qilishga va o'zaro bag'rikeng yashashga chaqiradi. Buddizmda esa, insonning asosiy axloqiy burchi — boshqalarga zarar yetkazmaslik, barcha jonli mavjudotlarga rahm-shafqat ko'rsatishdir.

-Insonning o'zaro hurmati – barcha odamlar teng huquqlidir va o'zaro hurmatda yashashlari kerak.

-Adolat – barcha dinlar o'rtasida adolatni ta'minlash, hech kimni diniy qarashlari tufayli kamsitmaslik.

-Tolerantlik – har bir inson o'z e'tiqodini erkin ifoda etish huquqiga ega bo'lishi kerak.
-Xayrixohlik – boshqalarga yordam berish, insoniyatning umumiy yaxshiligiga xizmat qilish.

Dinlararo bag'rikenglikning axloqiy ta'limoti jamiyatda o'zaro tushunish, tinchlik va barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday ta'limot jamiyatdagi diniy va madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda, odamlarni bir-birini tushunishga va hurmat qilishga undaydi.

Bugungi kunda, dinlararo bag'rikenglik nafaqat dinlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan mexanizm sifatida, balki global muammolarga qarshi kurashishda ham ahamiyatli hisoblanadi. Misol uchun, diniy ekstremizm va ter-rorizmga qarshi kurashishda bag'rikenglikning axloqiy ta'limoti asosida amalga oshirilgan ta'lim va targ'ibot ishlari muhim ahamiyatga ega.Shuningdek, dinlararo bag'rikenglik jamiyatda erkinlik, tenglik va o'z-o'zini ifoda etish huquqlarini ta'minlashda katta yordam beradi. Odamlar o'z e'tiqodlarini erkin ravishda ifoda etishlari, boshqalar bilan to'qnashmasliklari va jamiyatda tinch-totuv yashashlari mumkin bo'ladi. Bu, ayniqsa, ko'p millatli va ko'p dinli jamiyatlarda zarurdir.

Dinlararo Bag'rikenglikni Rivojlantirishning Zamonaviy Yo'nalishlari bugungi kunda dunyo bo'ylab diniy va madaniy farqlar mavjud. Shuning uchun dinlararo bag'rikenglikni rivojlantirishning bir nechta zamonaviy yo'nalishlari mavjud:
-Ta'lim sohasida targ'ibot – diniy bag'rikenglikni o'qitish va yosh avlodni bu borada tarbiyalash. Bu, dinlararo aloqalarni rivojlantirishda asosiy vosita bo'lishi mumkin.
-Mehmondo'stlik va madaniyatlararo muloqot – turli dinlarga mansub insonlar o'rtasida dialogni rivojlantirish, ularning madaniyatlari va diniy qarashlarini o'rganish va hurmat qilish.

-Xalqaro diplomatiya va qonunchilik – dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash uchun xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va huquqshunoslar tomonidan qonunlarni takomillashtirish va amaliy targ'ibot ishlari olib borish.
-Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish – diniy adovat va ekstremizmga qarshi kurashish, shuningdek, diniy bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro tashkilotlar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda dinlararo bag'rikenglikning axloqiy ta'limoti nafaqat insonlar o'rtasidagi tinchlikni saqlash, balki jamiyatda haqiqiy adolat, tenglik va erkinlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Dinlararo hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirish — jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar o'rtasida inqirozlarni oldini olish, odamlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytirish va tinchlikni ta'minlashga yordam beradi. Shunday qilib, dinlararo bag'rikenglik axloqiy ta'limoti dunyo miqyosida tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

REFERENCES

1.Taylor, Ch. (1992). Ko'p madaniyatlilik va "Tan olish siyosati". Princeton Universiteti Nashriyoti.
2.Smit, J. (2007). Diniy Bag'rikenglik va Umumiy Yaxshilik. Oksford Universiteti Nashriyoti.
3.Lutz, D. (2015). Global Axloq: Kirish. Routledge.
4.BMTning Inson Huquqlari To'g'risidagi Umumjahon Deklaratsiyasi (1948). Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

JAMIYATDA ONG VA E'TIQOD

Shoqosimova Nihola Mansurovna
Nishanboyeva Umida Nurlan qizi

Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Matematika va informatika fakulteti
Matematika yo'nalishi 24/2- guruh talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida tafakkur va e'tiqodning qanday uyg'unlashishi, ular o'rtasidagi muvozanat qanday saqlanishi va bu jarayonning insoniyatga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, taraqqiyot, iqtisodiy integratsiya, inson tafakkuri, e'tiqod, falsafiy, diniy asoslar.

Annotatsiya. В данной статье рассматривается, как сочетаются мышление и вера в условиях глобализации, как сохранить баланс между ними и влияние этого процесса на человечество.

Ключевые слова: глобализация, развитие, экономическая интеграция, человеческое мышление, вера, философские, религиозные основы.

Annotation. This article examines how thinking and faith are combined in the context of globalization, how to maintain a balance between them, and the impact of this process on humanity.

Key words: globalization, development, economic integration, human thinking, faith, philosophical, religious foundations.

Globallashuv tufayli tafakkur erkinligi kengayib, turli madaniyatlar va g'oyalar bilan tanishish imkoniyati ortmoqda. Biroq, ayni paytda, e'tiqodga bo'lgan hurmat va an'anaviy qadriyatlarni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologik taraqqiyot, iqtisodiy integratsiya va madaniy almashinuv inson tafakkuri va e'tiqodi uyg'unligini yangicha shakllantirmoqda. Tafakkur – insonning atrof-muhitni anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati bo'lsa, e'tiqod – ma'lum bir qadriyatlar, an'analar va diniy tushunchalar tizimiga asoslangan ishonchdir. Ushbu ikki tushuncha bir-biriga zid emas, aksincha, uyg'unlikda bo'lsa, inson va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev o'zining 2017-yil 18-20 sentyabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi nutqi orqali mamlakatimizni taraqqiyparvar davlat ekanini ta'kidladi va jahonga tanitdi. Prezidentimiz ushbu sessiyada "Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan

O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shni- chilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo'yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz".[47] SH.Mirziyoyev o'z nutqida BMT tomonidan qabul qilingan XXI asrda barqaror rivojlanish strategiyasini, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan gumanistik g'oyani, bu borada davlatning xalqqa xizmat qildirish zarurligini qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Globallashuv tafakkur erkinligini rag'batlantiruvchi omillardan biridir. Internet va ommaviy axborot vositalari insonlarga turli falsafiy, ilmiy va diniy qarashlar bilan tanishish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon ba'zan insonlarning an'anaviy e'tiqodlariga ta'sir ko'rsatib, ularning o'ziga xosligini yo'qotish xavfini tug'dirishi mumkin. Tafakkur erkinligi insonni fikrlashga, yangiliklarni o'rganishga va rivojlanishga undaydi. Ammo bu erkinlik beqarorlik va ma'naviy yo'qotishlarga sabab bo'lmasligi uchun, e'tiqod bilan uyg'un holda bo'lishi zarur.

Globallashuv sharoitida e'tiqod va an'anaviy qadriyatlarni himoya qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Turli millatlar va dinlar o'rtasida tushunmovchiliklar va kelishmovchiliklar yuzaga kelmasligi uchun o'zaro hurmat va muloqot madaniyatini rivojlantirish lozim.

Shuningdek, zamonaviy tafakkur bilan an'anaviy e'tiqod o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash uchun quyidagi yo'llar taklif etiladi:

- Ta'lim tizimini rivojlantirish – yosh avlodga an'analar va zamonaviy tafakkur uyg'unligini tushuntirish.
- Madaniy muloqotni kengaytirish – turli millat va e'tiqod vakillari o'rtasida tushunish va hamkorlikni mustahkamlash.
- Globallashuvning ijobiy jihatlaridan foydalanish – texnologiya va ilm-fan taraqqiyotidan ma'naviy yuksalish yo'lida foydalanish.

Bugungi globallashgan dunyoda turli millat va din vakillari o'zaro aloqada bo'lib, birgalikda yashashga majburdirlar. Shu sababli, tolerantlik tushunchasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Millatlararo va dinlararo tolerantlik jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir. Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasi, uning falsafiy va diniy asoslari, shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi roli haqida fikr yuritamiz. "Jahon xalqlari integratsiya va globalizatsiya yo'lidan borayotgan ekan, ushbu jarayonlarni pozitiv voqelikka aylantirish uchun

[47] Sh.Mirziyoev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017 yil 18-20 sentabr

etnomadaniyatlar va milliy madaniyatlar oldidagi muammolarni ham hal etish talab qilinadi".[48]

Falsafa nuqtayi nazaridan tolerantlik – bu boshqalarning e'tiqodi, qarashlari va turmush tarziga hurmat bilan munosabatda bo'lish tamoyilidir. Buyuk faylasuflar Platon, Aristotel, Kant va Jon Lokk tolerantlik g'oyasiga alohida e'tibor qaratib, inson erkinligi va hurmatning ahamiyatini ta'kidlaganlar.

Kantning axloqiy imperativi tolerantlikni axloqiy burch sifatida qaraydi. Unga ko'ra, inson boshqalarga shunday muomalada bo'lishi kerakki, ular ham unga nisbatan xuddi shunday munosabatda bo'lsin. Jon Lokk esa tolerantlikni jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart deb hisoblagan.

Ko'pgina dinlar o'z ta'limotlarida tolerantlikni qo'llab-quvvatlaydi. Islom, xristianlik, buddizm va boshqa dinlarda tinch-totuv yashash, bir-birini tushunish va hurmat qilish tamoyillari mavjud.

O'zbek olimi B.Umarovning yozishicha, "XX asrning oxiri - XXI asrning boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartib, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida batamom yangicha vaziyatning yuzaga kelishi, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, xullas, jamiyat hayotining barcha sohalari - iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog'lanmoqda"[49].

Hozirgi dunyoda millatlararo va dinlararo tolerantlik tinchlik va barqarorlikning asosi sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va YUNESKO tolerantlikni targ'ib qilishga katta e'tibor qaratmoqda.

Millatlararo va dinlararo tolerantlik – zamonaviy jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biri bo'lib, tinchlik va barqaror rivojlanishning garovidir. Tolerantlik falsafiy va diniy nuqtayi nazardan inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish bilan bog'liq bo'lib, u turli millat va din vakillarining hamjihatlikda yashashiga xizmat qiladi. Shu sababli, jamiyatda tolerantlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish har bir insonning vazifasidir. "Globallashuv ayrimlar odamlar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o'zgarishi va moliyaviy munosabatlar bilan bog'liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo'ladigan muayyan tahdidlarga ega bo'lishdan

[48] Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2013-15-16b
[49] Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari.T.: Ma'naviyat,2006,5-6 b

iborat"[50] . Globallashuv jarayonida tafakkur va e'tiqod uyg'unligi jamiyat barqarorligi va rivojlanishining muhim shartlaridan biridir. Tafakkur erkinligi insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak bo'lsa, e'tiqod ma'naviy asoslarni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ikki tushuncha uyg'unlashgan taqdirda, inson va jamiyat yanada barqaror va rivojlangan bo'lishi mumkin.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017 yil 18-20 sentabr
2. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2013-15-16b.
3. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari.T.: Ma'naviyat,2006,5-6 b.
4. Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari.-Toshkent: Navro`z, 2015.12-13b.

[50] Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari.-Toshkent: Navro`z, 2015.12-13b.

JAMOATCHILIKKA NISBATAN ODOBLAR

Abduqahhorova Dinora
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim pedagogika yo'nalishi 23/6-guruh 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna**
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Ijtimoiy odoblar" kitobida keltirib o'tilgan "Jamoatchilikka nisbatan odoblar" haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Masjid, jixoz, marosim, telefon, tinglovchi, nomozxona, intellektual, odob-axloq, qo'ng'iroq.

Kirish. Jamoat joylarida odobga amal qilinmagani tufayli masjidlarda rasmiy ogoxlantirish e'lonlari turishiga qaramay, namoz paytida turli telefonlarning qo'ng'iroq ovozlari namozxonlarni bezovta qilmoqda. Turli yig'in va majlislarda ham bunga bog'liq noqulayliklar tug'ilmoqda. Marosim va yig'inlarda boshqalar bilan gaplashib yoki to'planganlarga gapirib o'tirgan kishilarning telefoni jiringlab qolsa, darxol unda gaplashishga o'tishadi yoki telefonni qulog'iga tutib gaplashgan holda bir yo'la tashqariga chiqib ketishadi. Bunday holatni o'sha odam bilan majlis ko'rib, ko'ziga tushib suhbatlashib o'tirgan aziz insonlarga nisabat hurmat deb bo'ladimi? Bu o'ta ketgan hurmatsizlikdir! Bunday kishilarni odobli, deyish ham qiyin. Bir odam bilan gaplashib turib ikkinchi odam bilan muomila qilishi odobdan emas.

Masjidlar, jamoat yig'inlari va ilmiy masjidlar – insonning ruxiy va intelektual dunyosini boyituvchi muhim joylardir. Bu muhitlarda e'tibor, hurmat va jimjitlikni saqlash har bir kishining vazifasi bo'lib, uyali aloqa jihozlarini o'chirib qo'yish ana shu tartibning muhim qismidir. Telefonning jiringlashi yoki foydalanish istagi esa insonning e'tiborini bo'lib, muhitning samaradorligini pasaytiradi. Bu kabi holatlar nafaqat shaxsiy, balki umumiy ishtirokni ham buzadi.

Masjid va boshqa jamoat joylarida uyali aloqa jihozni o'chirish- bu shunchaki texnik choradan ko'ra, odob-axloq va hurmatning yuksak namunasidir. Bu kichik amal jamiyatdagi totuvlik, ilmiy yoki diniy muhitning muqaddasligini saqlashga hizmat qiladi . Shu sababli, har bir inson bu talabni bajarib, o'z mas'ulyatini namoyon qilishi lozim.

Uyali aloqa jixoziga chalinganda atrofdagi kishilarga malollik keltiradigan musiqa yoki tovushlarni qo'ng'iroq sifatida o'rnatmaslik odobdandir.

Ba'zi kishilar odamlarni ajablantirish, o'zini ko'rsatish maqsadida kishilarni cho'chitib yuboradigan, qo'pol, yomon ta'sir qiladigan va malol keladigan ovozlarni

o'rnatib olishadi. Albatta, bunday ish obro' keltirmaydi. Qo'l telefonlaridagi qo'ng'iroq o'rnida xizmat qiladigan ovozlar telefon egasining didi, madniyati va odobing o'lchovidir desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Uyali aloqa vositasida imkon qadar suxbatni tezroq tamomlashga harakat qilish ham odobdandir. Aks holda, suhbatdoshga ovoz berilgan, vaqti o'g'irlangan bo'ladi. U shilib turgan yoki boshqa biro rishi bo'lishi mumkin.

Uyali aloqa vositasi orqali suhbatlashayotganda hurmatli va e'zozlash lozim bo'lgan kishi kelib qolsa, suhbatdoshga uzr aytib, haligi insonga yuzlanishingiz zarur. Avval ham aytib o'tilganidek, ko'zi ko'ziga tushib turgan kishi uzoqda turgan kishidan ko'ra muomalaga haqlidir. Bu haqida Yurtboshimizning jamoatchilik nazorati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma'qullangan.[51] Fuqarolar jamoat joylarida tartibni saqlash uchun beshta muhim qoidani yodda tutishlari lozim.

1-qoida — Jamoat joylaridagi barcha qonun va qoidalarga amal qilish. Bunda jamoat joylarida tamaki chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish yoki ovozni balandlatish kabi taqiqlangan harakatlardan tiyilish nazarda tutiladi. 2-qoida — Boshqa fuqarolarga nisbatan hurmat va odobni saqlash. Ushbu qoida navbatda turish, boshqalarga yo'l berish va jamoat transportida o'rin berish kabi odob-axloq qoidalariga amal qilishni o'z ichiga oladi.

3-qoida — Tozalikka rioya qilish. Jumladan, har bir shaxs jamoat joylarini toza saqlash uchun chiqindilarni maxsus belgi qo'yilgan joylarga tashlash shart. Bu bilan u atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam berish bilan birga o'z burchini ham bajargan bo'ladi.

4-qoida — Xavfsizlik qoidalariga amal qilish. Fuqarolar jamoat joylarida xavfsizlik qoidalariga amal qilishi lozim. Bunga yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, xavfsizlik belgi va ko'rsatmalariga amal qilish kabilar kiradi.

5-qoida — Jamoat mulkini muhofaza qilish, uni ehtiyotlash va buzmaslik. Masalan, har bir shaxs xiyobonlar, o'rindiqlar, fontanlar va boshqa jamoat joylarini muhofaza qilishni o'zlarining burchi va vazifasi deb bilishi lozim.

Mazkur 5 ta qoidadan tashqari jamoat joyida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirish ham taqiqlanadi:

▪ tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, shuningdek chilim va elektron sigaretalar chekish;

[51] Jamoatchilik nazorati to'g'risida, Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma'qullangan

▪ uyatli so'zlar bilan so'kinish, haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarni sodir etish;

▪ *alkogol mahsulotini iste'mol qilish;*

▪ *tilanchilik qilish;*

▪ *ro'yxatdan o'tkazilmagan bayroqlar va vimpellardan foydalanish;*

▪ *it va mushuklarni tumshuqbog'siz va yetovsiz olib yurish.*[52]

Bugungi zamon texnologiyalar asri bo'lib, uyali aloqa jihozlari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Biroq bu texnologiyalardan foydalanishda odob-axloq qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Telefon uchun odobli va atrofdagilarga malollik keltirmaydigan ovozlarni tanlash muhimdir. Bu ovozlar yumshoq va jarangsiz bo'lishi kerak, shunda boshqalarning e'tiborini bo'lmaydi. Masjidlar, yig'inlar yoki ilmiy muhokamlar kabi joylarda telefonning ovozini umuman o'chirib qo'yish eng yaxshi amaldir. Odamlar diniy yoki milliy qadriyatlarni hisobga olib, qo'ng'iroq ovozlarini tanlashi kerak. Qur'on oyatlari yoki azonni qong'iroq ovozi sifatida ishlatish bazi joylarda hurmat belgisi hisoblangan bo'lsa-da, bu ovozlar boshqa hollarda noto'g'ri tushunilishi mukin. Yaxshisi bu ovozlarni telefon qo'ng'irog'iga qo'yish kerak emas.

Suhbatdoshga nisbatan odoblar. Birovga qo'ng'iroq qilishdan, qisqa ham yozishdan oldin uning raqamini aniqlab olish lozim. Sinash uchun ayrim raqamlarni terib, o'ynash joiz emas. Kim bilan muomala qilayotganini aniq bilish kerak. Bo'lmasa, o'zgani noo'rin bezovta qilishi, o'zini xijolatga qo'yishi yuzga keladi.

Bugungi kun texnologiyalari insonlar orasidagi muloqotni osonlashtirdi, lekin bu osonlik ba'zan odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslikka olib kelishi mumkin. Telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoki habar yozish- oddiy ko'rinadigan harakat bo'lsa-da, unda ham o'ziga xos odob qoidalari bor. Agar raqam noto'g'ri aniqlangan bo'lsa, bu bir qator noqulayliklarga olib kelishi mumkin. Notanish odamga murojaat qilish ko'pincha noqulay vaziyatga tushiradi. Yaqin insoningizga murojaat qilmoqchi bo'lib, raqamni adashtirsangiz, bu ularning sizga bo'lgan ishonchini kamaytirishi mumkin. Noto'g'ri murojaat boshqa odamlarning vaqti va asabini bekorga sarflashga olib keladi. Qo'ng'iroqdan oldin nima sababdan murojaat qilayotganingizni aniqlab olish lozim. Keraksiz cho'zilishlar yoki mavhum gaplar suhbatdoshni charchatishi va vaqtni behuda sarflashiga olib keladi. Suhbatdosh uchun noqulay bo'lishi mumkin bo'lgan paytlarda qo'ng'iroq qilmaslik zarur. Erta tongda, kechki soatlarda yoki tushlik vaqtida odamlarning band bo'lishi ehtimoli yuqori bo'ladi.Qo'ng'iroqdan oldin qisqa xabar yozib, qulay vaqtni so'rash yanada odobli yondashuvdir.

[52] https://oyina.uz/uz/posts/25290

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:
Nabiy sollallohu alayhi vasallam:" Kishiga gunoh uchun eshitgan har narsasini gapirmoqning o'zi kifoya qiladi", dedilar ".

Abu Dovud va Muslim rivoyat qilgan.

Muslimning lafzida:

"Har bir eshitgan narsasini gapiraverish kishining yolg'onchiligiga kifoya qiladi", deyilgan. Kishilarga uyali aloqa vositasi orqali ham yozishda ham odob-axloq, shari'at chegaralariga rioya qilish lozim.[53]

Xulosa. Telefon orqali suhbatda suhbatni xushmuomalalik bilan boshlash muhimdir.Salomlashish va o'zini tanishtirish, ayniqsa, suhbatdosh bilan avvaldan tanish bo'lmasangiz, odobning asosiy belgisi hisoblanadi. Telefon muloqotida suhbatdoshning gapini oxirigacha tinglash muhimdir. Gapni bo'lmaslik, sabr bilan tinglash va kerak bo'lsa, javob qaytarish muloqot madaniyatining asosiy qismi sanaladi. Bundan tashqari suhbat davomida ovoz va ohangni boshqarish, qulay vaqtni tanlash, hushmuomalalik va minnatdorchilik bildirish, shaxsiy masalalarni oshkor qilmaslik, atrof-muhitni hisobga olish lozim.

REFERENCES

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. "HILOL-NASHR".T. 2024-y, B-49-243
2. Jamoatchilik nazorati to'g'risida, Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-noyabrda qabul qilingan.Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma'qullangan.
3. https://oyina.uz/uz/posts/25290

[53] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. "HILOL-NASHR".T. 2024-y, B-49-236

ARISTOTEL, EPIKUR QARASHLARIDA BAXT FALSAFASI

Guljahon Ozod qizi Jangaboyeva
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maqsudovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada baxt falsafasining tarixiy va zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Aristotelning evdimoniya tushunchasi, Epikurning baxt va zavq haqidagi qarashlari hamda zamonaviy falsafa va psixologiyadagi yondashuvlar o'rganiladi. Baxtning axloqiy, psixologik va hayotiy omillarga bog'liqligi tahlil qilinib, inson hayotida baxtga erishish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: baxt falsafasi, evdimoniya, Epikur, Aristotel, zamonaviy yondashuvlar, hayot mazmuni, farovonlik, axloq, zavq, ijobiy psixologiya.

Baxt falsafasi ko'pincha axloq tushunchasi bilan bog'liq tushunchasidir. Baxt esa axloq falsafasi uchun qiyin atama bo'lib qolmoqda. Axloqiy falsafa tarixi davomida axloqni baxtga olib keladigan oqibatlar nuqtai nazaridan aniqlashga urinishlar va axloqni umuman baxt bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan jihatlar bilan aniqlash urinishlari o'rtasida ziddiyatli qarash mavjud edi. Baxt inson hayotining eng muhim maqsadlaridan biri bo'lib, qadimdan faylasuflar bu tushunchaning mohiyatini tahlil qilib kelgan. Ba'zi faylasuflar baxtni hayotning axloqiy maqsadi yoki tasodifning bir jihati sifatida tushunish mumkin deb hisoblashadi, haqiqatan ham aksariyat Yevropa tillarida baxt atamasi omad bilan sinonimdir. Shunday qilib, faylasuflar odatda baxtni yoki ruhiy holat, yoki uni boshqarayotgan odam uchun yaxshi hayot deb tushuntiradilar. Baxtga erishish uchun amaliy g'amxo'rlikni hisobga olgan holda, psixologiyada olib borilgan tadqiqotlar ko'plab zamonaviy faylasuflarga o'z nazariyalarini ishlab chiqishda rahbarlik qildi. Aristotel uni "evdimoniya" (gullab-yashnash, mukammallik) bilan bog'lagan bo'lsa, Epikur baxtni zavq va og'riqning yo'qligi deb talqin qilgan. Zamonaviy falsafa va psixologiya esa baxtni shaxsiy farovonlik, ma'naviy qoniqish va hayotdan qoniqish nuqtai nazaridan o'rganadi. Baxt falsafasi turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, uning mohiyati doimo inson hayotining eng muhim maqsadi sifatida qaralgan. Aristotel baxtni insonning eng yuqori intilishi deb bilgan va uni **eudaimonia** tushunchasi orqali ifodalagan. Unga ko'ra, baxt shunchaki hissiy holat emas, balki insonning aqliy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish natijasida erishiladigan mukammallikdir. Aristotel inson hayotini uch turga ajratadi: zavqga asoslangan hayot, siyosiy hayot va falsafiy hayot. Uning fikricha, haqiqiy baxt faqatgina inson aqliy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish orqali erishiladigan mukammallik holatidir. Unga ko'ra, inson o'z hayotini ma'naviy

jihatdan mukammal qilishga intilishi lozim. Epikur esa baxtni zavq va xotirjamlik bilan bog'lagan. Uning fikricha, inson hayotining asosiy maqsadi og'riq va bezovtalikdan qutulib, ichki osoyishtalikni topishdir. Epikur baxtga erishish uchun "Tetrafarmakos" (to'rt karra davo) tamoyilini ilgari surgan bo'lib, unga ko'ra, inson Xudodan va o'limdan qo'rqmasligi, yaxshilik qilish osonligini tushunishi va og'riqlarga chidash mumkinligini bilishi kerak. Garchi Epikur falsafasi hedonizm (zavqparastlik) bilan bog'langan bo'lsa-da, u jismoniy zavqlarga emas, balki ma'naviy va aqliy tinchlikka asoslangan hayotni afzal ko'rgan. U insonni ortiqcha istaklardan voz kechishga, oddiy va kamtar hayot kechirishga chaqirgan. Zamonaviy yondashuvlar esa baxtni faqatgina falsafiy nuqtai nazardan emas, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham bog'laydi. Masalan, **ijobiy psixologiya** olimi Martin Seligman baxtni shaxsiy farovonlik va hayotdan qoniqish orqali o'lchaydi. Maslow piramidasida esa baxt inson ehtiyojlarining qondirilish darajasi bilan bog'liq deb tushuntiriladi. Baxtni o'rganish miqdoriy va nazariy jihatdan o'rganishdir baxt, ijobiy va salbiy ta'sir qilish, farovonlik, hayot sifati, hayotdan qoniqish va tegishli tushunchalar. Bunga ayniqsa ta'sir qiladi psixologlar, Biroq shu bilan birga sotsiologlar va iqtisodchilar hissa qo'shdi. Kuzatish Yalpi milliy baxt yoki hayotdan qoniqish tobora ommalashib boradi, chunki baxt iqtisodiyoti an'anaviy iqtisodiy maqsadlarni taqozo etadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson baxtining asosiy omillari moddiy boylikdan tashqari, insoniy munosabatlar, ijtimoiy hamjihatlik va shaxsiy o'sish bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, **baxt iqtisodiyoti** sohasi ham rivojlanib, jamiyatdagi iqtisodiy sharoitlar va baxt o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilmoqda. Umuman olganda, baxt falsafasi turli yondashuvlarni o'z ichiga olsa-da, umumiy xulosa shuki, inson baxtga erishish uchun o'zining aqliy, axloqiy va hissiy uyg'unligini topishi lozim. Aristotel uni axloqiy mukammallik bilan bog'lasa, Epikur baxtni zavq va xotirjamlikda ko'rgan. Zamonaviy yondashuvlar esa baxtni inson farovonligi va hayot mazmuni bilan bog'liq holda o'rganadi.

Baxt falsafasi qadimdan inson tafakkurining asosiy mavzularidan biri bo'lib kelgan. Aristotel baxtni **fazilatli hayot** deb ko'rgan bo'lsa, Epikur uni **zavq va xotirjamlik** bilan bog'lagan. Zamonaviy yondashuvlar esa baxtni **psixologik va sotsial omillar bilan** tushuntiradi. Umuman olganda, baxtga erishish uchun inson **aqliy, axloqiy va hissiy uyg'unlikni** topishi lozim.

REFERENCES

1. Aristotel. **Nikomax axloqi**. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
2. Epikur. **Tabiat va zavq haqida risolalar**. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2018.
3. Seligman M. **Authentic Happiness**. – New York: Free Press, 2002.

4. Layard R. **Happiness: Lessons from a New Science**. – London: Penguin Books, 2005.
5. Maslow A. **Motivation and Personality**. – New York: Harper & Row, 1954.

ILMNING DINIY VA DUNYOVIY DEYA AJRATILISHI QANCHALIK TO'G'RI?

Norboyeva Jasmena
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Ilmurodova Feruza Shakirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ilmlarni dunyoviy va diniyga ajratish, bu ikki ilmni bir-biridan ayro holda talqin qilish va ular o'rtasida go'yoki mantiqiy muvozanatni o'rnatishga bo'lgan intilishlar oqibati o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va shuurida o'zining salbiy natijalarini namoyon qilayotgani va avval ham bu bilimlar bir-biridan ajratilganmi yo'qmi shu haqida gap yuritiladi.

Kalit so'zlar: Diniy bilim, dunvoviy bilim, Islom dini, diniy qadriyatlar, ta'lim, ajdodlarimiz,tarbiya.

Mamlakatimizda so'ngim yillarda har bir sohada shu jumladan ta'lim sohasida islohotlar olib borilayotgani, o'sib kelayotgan yosh avlodni kelajakda inson degan sharafli nomga munosib ravishda tarbiya va ta'lim olib kamol topishlariga mamlakatimizning oqil insonlari jon kuydirayotgani va bu borada ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan amaliy ishlar va tadbirlar tahsinga sazovardir. Ushbu jarayonda bugungi o'zbek jamiyatining mutlaq ko'pchiligi insonning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirib, axloqini tarbiyalashdagi dinning yuksak axloqini, inson ruhiyatida insoniy fazilatlarni yaratuvchanligini qo'llab-quvvatlanmoqda. Milliy va diniy qadriyatlarni anglatish yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini yuksaltirishga xizmat qilishi bugungi hech kimga sir emas.

Yosh avlodning ta'lim va tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish nafaqat hukumatimizning yoki maktablarni vazifasi, balki har bir ota-onaning ham muqaddas burchlaridan hisoblanadi. Albatta, farzandlarimizni komil inson qilib, ilmli qilib tarbiyalshimiz kerak. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasb-u hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham o'sib borishi zarur. Shu jumladan, yoshlarimizning ta'lm-tarbiyasini asriy va azaliy sharqona qadriyatlarimiz va mamlakatimizning milliy mafkurasi bilan uyg'unlashtirishimiz,aynan mana shu o'rinda yoshlarga diniy-axloqiy bilimlarni ta'lim berish bugungi kunda kechiktirib bo'lmas dolzar vazifalardan biri ekamligini kurib turibmiz ammo, shu holda ham bu ikki ilmni bir-biridan ajratishga harakat qilyapmiz.

"Tarixga teran nazar solsak, bizlarning yeti avlodlarimiz kim ekanini ko'ramiz. Ne-ne buyuk daholar, mutafakkiru allomalar aynan shu siz va biz

yashayotgan muqaddas Vatanda yashab o'tganlar. Huddi shu singari ularning zuriyyotlari ham hali dunyo tamaddumiga o'z hissalarini hech kim shubha qilmaydi. Chunki yoshalrimiz tomirida ajdodlarimizning qomlari oqib turibdi".

Shu bilan birga dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan allomalarimizning ilmida komillik sari yetmoqlarida Islom dinining ta'sirini ham alohida ta'kidlash zarur. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Imom Moturidiy, Abu Mumin Nasafiy kabi allomalar bilan bir qatorda al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, al-Farg'oniy, Mzhmud Zamaxshariy, al-Farobiy kabi o'z ilmi va tafakkuri bilan dunyoni lol qoldirgan allomalarimizning yetukligi zamirida Islom dini turganligi barchamizga ma'lum.

Musulmon olimlarning ilmiy merosini o'rganishda xususan ta'lim sohasida diniylik bilan dunyoviylik o'rtasidagi mantiqsiz mantiqiy nisbatning shakllanishi bizning asrimizda ro'y berdi, desak yangilishmaymiz. Chunki,Islom dini nozil qilingandan davrdan to bizning asrimizga qadar ta'limda bu diniy ta'lim, bu dunyoviy ta'lim deb ajratilmagan.

Jamiyatning ijtmoiy-siyosiy hayotida ilmlarni dunyoviy va diniyga ajratish , bu ikki ilmni bir-biridan ayro holda talqin qilish va ular o'rtasida go'yoki mantiqiy nisbatning shakllanishi bizning asrimizda ro'y berdi, desak yanglishmaymiz. Chunki, islom dini nozil qilingan davrdan to shu bizning asrimizga qadar ta'limda bu diniy ta'lim, bu dunyoviy ta'lim deb ajratilmagan.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ilmlarni dunyoviy va diniyga ajratish, bu ikki ilmni bir-biridan ayro holda talqin qilish va ular o'rtasida go'yoki mantiqiy muvozanatni o'rnatishga bo'lgan intilishlar oqibati o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va shuurida o'zining salbiy natijalarini nomoyon qilib bormoqda. Bu holatni zamonamizning har bir aqli raso insoni anglab yetgan. Bugungi kunda diniy va dunyoviy ta'lim uyg'unligini tiklash zarurati, hech bir mubolag'asiz, mamlakatning ma'naviy taqdirini hal qiluvchi omillardan biridir. Diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim jarayonini amaliyotga tatbiq etish kechiktirib bo'lmas dolzarb muammolardan biri ekanligi jamiyatning aksar qismiga kunday ravshan. Voqe'likda aks etib turgan shunga bog'liq yetarli salbiy natijalar borligiga qaramasdan hamon ta'lim-tarbiyada diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'un ravishda yosh avlodga yetkazish ota-onalar va murabbiylar orzusi bo'lib turibdi.

Oliy maqsad yosh avlodni iymon e'tiqodini Vatan ravnaqi uchun ruhan va ma'nan komil inson etib tarbiyalash har bir ota –ona va ustoz murabbiylarimiz burchidir. Farzandlarimiz, ya'ni yosh avlod uchun sharqona – diniy va dunyoviy bilimlarni o'zida uyg'unlashtirgan ta'lim-tarbiyani jahon andozalariga mos, fan taraqqiyoti omilari orqali yetkazish bunda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

[1] U. Alimov "Yoshlar – kelajagimiz", "Movarounnahr" Toshkent 2008, 74-75-betlar.

XXI ASR: YANGI FALSAFIY TENDENSIYALAR

Ruziqulova Jasmina Yuldosh qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi.
E-mail: ruziqulovajasmina5@gmail.com
O'qituvchi :Sunnatov Tohir

Annotatsiya.Mazkur maqola XXI-asr falsafasining yangi tendensiyalari, postmodernizm, transhumanizm, texnologik rivojlanish va global madaniy almashinuv kontekstida falsafiy fikrning zamonaviy yo'nalishlarini tahlil qiladi. Maqola nazariy va amaliy falsafa o'rtasidagi o'zaro ta'sir, axloqiy dilemmlar, va kelajak istiqbollari masalalariga urg'u beradi.

Abstract: This article examines the new trends in XXI-century philosophy within the context of postmodernism, transhumanism, technological advancement, and global cultural exchange. It analyzes the interplay between theoretical and practical philosophy, highlighting ethical dilemmas and future prospects.

Аннотация:В данной статье рассматриваются новые тенденции философии XXI века в контексте постмодернизма, трансгуманизма, технологического прогресса и глобального культурного обмена. Анализируется взаимодействие теоретической и практической философии с акцентом на этические дилеммы и перспективы будущего.

Kalit so'zlar:XXI-asr, yangi falsafiy tendensiyalar, postmodernizm, transhumanizm, texnologik rivojlanish, madaniy almashinuv

Keywords: XXI century, new philosophical trends, postmodernism, transhumanism, technological advancement, cultural exchange

Ключевые слова:XXI век, новые философские тенденции, постмодернизм, трансгуманизм, технологический прогресс, культурный обмен

Kirish. XXI-asr falsafasi tez o'zgaruvchan global sharoit, texnologik inqilob va madaniy pluralizm ta'siri ostida yangi yo'nalishlar va muammolarni yuzaga keltirdi. An'anaviy falsafa tushunchalari qayta ko'rib chiqilmoqda, shu bilan birga yangi nazariyalar, konseptlar va metodologiyalar rivojlanmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy falsafa tendensiyalarining asosiy jihatlari, ularning tarixiy ildizlari va bugungi kunda yuzaga kelayotgan yangi muammolar tahlil qilinadi.

Postmodernizm va Ko'plik . Postmodernizm falsafasi XX-asr oxiridan boshlab dominant tendensiyalardan biriga aylandi. Uning asosiy g'oyalari – haqiqatning nisbiyligi, ko'plik va pluralizm – XXI-asr sharoitida yanada chuqurlashdi. Postmodernizm kontekstida mavjud nazariyalar va metodlar yangi madaniy va

ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda qo'llanilmoqda.1.2 *Transhumanizm va Texnologik InqilobTranshumanizm* falsafasi inson imkoniyatlarini sun'iy intellekt, bioinjiniring va raqamli texnologiyalar yordamida kengaytirishni maqsad qilgan. Bu yo'nalish insoniyatning kelajagi, shaxsiy identitet va axloqiy savollarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Texnologik inqilob shuningdek, inson va mashina o'rtasidagi chegaralarni muhokama qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

Digital Falsafa Raqamli davr falsafasi yangi axborot texnologiyalari va internet orqali yuzaga kelayotgan axloqiy, epistemologik va ontologik masalalarni o'z ichiga oladi. Virtual haqiqat, sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik kabi sohalar falsafiy muhokamaga sabab bo'lmoqda *Ekofalsafa va Atrof-Muhit Axloqi* Global iqlim o'zgarishi va ekologik inqirozlar kontekstida ekofalsafa inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Ushbu yo'nalish ekosistemaning murakkabligi, barqaror rivojlanish va atrof-muhit etikasiga qaratilgan yangi nazariyalarni ishlab chiqadi. *Interkulturalizm va Global Falsafa Globalizatsiya* va madaniy almashinuv falsafiy nazariyalar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Turli madaniyatlar va falsafiy an'analar o'rtasidagi dialog yangi nazariy yondoshuvlarni shakllantiradi, bu esa falsafiy pluralizm va universalizm masalalarini ko'taradi.

Axloqiy Dilemmlar va Kelajak Perspektivalari. Yangi falsafiy tendensiyalar texnologiya, globalizatsiya va madaniy o'zgarishlar kontekstida ko'plab axloqiy dilemmalarni yuzaga keltiradi. Transhumanizmning inson tanasini va ruhiyatini sun'iy yo'l bilan kengaytirish savollari, raqamli dunyoda shaxsiy maxfiylik va axloqiy javobgarlik kabi masalalar zamonaviy falsafa uchun dolzarb mavzular hisoblanadi. Shuningdek, global madaniy almashinuv natijasida yuzaga kelayotgan g'ayrioddiy axloqiy va ijtimoiy sharoitlar ham chuqur tahlil qilinmoqda.

Xulosa. XXI-asr falsafasi o'zgarishlar va innovatsiyalar davrida yangi yo'nalishlar va nazariy konseptlarni shakllantirdi. Postmodernizm, transhumanizm, digital falsafa, ekofalsafa va interkulturalizm kabi tendensiyalar falsafiy nazariya va amaliyotda yangi ufqlarni ochmoqda. Ushbu maqola zamonaviy falsafa masalalarini ko'rib chiqish orqali insoniyatning kelajagi, axloqiy qiyinchiliklar va madaniy identitet mavzulariga yanada kengroq yondoshuvni taqdim etadi. Kelajakda falsafa nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy yechimlar va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida yanada ahamiyatli bo'lib qolishi kutilmoqda.

REFERENCES

1.Alixanov B. Samoylev S. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish va tubdan yaxshilashni ta'minlash. 09.06.2015// www.eco.uz

2. Davletov S.R. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida O'zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari.Dissertatsiya. Urgench, 2018. - B.21
3.Nig'maltov A. O'zbekiston Respublikasi ekologiya huquqi.-Toshkent:TDYI,2004.-B.248.

JIZZAX QO'ZG'ALONINING KELIB CHIQISH SABABLARI,OQIBATLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI

Abdunodirova Charosxon.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Muhammadiyeva Mushtariy.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar:**Nafasov Arslon Komilovich.**
Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada 1916-yilgi Jizzax qo'zg'alonining kelib chiqish sabablari,uning asosiy oqibatlari va qozg'alonga qarshi ko'rilgan chora tadbirlar tahlil qilinadi.Maqolada qo'zg'alonning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlari yoritilib uning hududiy tarqalishi va bosib tashlanish jarayoni haqida ma'lumotlar beriladi.Shunindek qo'zg'alonning mahalliy aholiga ta'siri, Rossiya hukumati tomonidan ko'rilgan jazolov choralarining natijalari va bunday qo'zg'alonlarning oldini olish bo'yicha muqobil yondashuvlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar:qo'zg'alon ,davlat,kurash,mudofaa,g'alayon,mardikor,farmon ,qurol.

Аннотация: В статье рассматриваются истоки Джиззахкого восстания 1916 года.причины его основные последствия и меры принятые против восстания события.В статье анализируются экономические социальные и политические последствия восстания.аспекты выделены о его территориальном распространении и процессе завоевания информация предостовлена. Также влияние восстания на местное население российское правительство к результаты принятых карательных мер и последствия таких воостаний профилактика Альтернативные подходы обсуждаются на

Ключевые слова:воостание.государство.борьба.оборона.бунт. рабочий

Annotation: This article analyzes the causes of the Jizzakh uprising of 1916, its main consequences, and the measures taken to counter the uprising. The article highlights the economic, social, and political aspects of the uprising, provides information on its territorial spread and the process of its suppression. It also discusses the impact of the uprising on the local population, the result of the punitive measures taken by the Russian government, and alternative approaches to preventing such uprisings.

Keywords:uprising, state, struggle, defense,riot, laborer, decree, weapon

Jizzax qo'zg'aloni-Turkiston o'lkasida chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi yo'naltirilgan yirik xalq harakatlaridan biri hisoblanadi.Ushbu qo'zg'alon 1916-yilgi mardikorlikka olish haqidagi farmonga qarsgi yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning ildizi ancha chuqur tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq.

Jizzax qo'zg'aloni bir qancha muhim sabablarga ko'ra yuzaga kelgan.Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasini zabt etgach, mahalliy aholining iqtisodiy va siyosiy huquqlarini chekladi. Soliqlar oshirildi, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'z yer-mulklaridan mahrum qilindi. Qo'zg'alon arafasida Jizzaxda ham butun o'lkadagi kabi zulm-zo'ravonlik,adolatsizlik cheksiz edi.Aholi , asosan,don,g'alla yetishtirish bilan mashg'ul edi. Mahalliy aholi yerlari tortib olinib, temir yo'l, o'rmon xo'jaligida band bo'lgan rus oilalariga berilgan, yaylovlar qisqartirilgan, o'rmonlar qattiq nazoratda bo'lib, hatto o'tin olishga ruxsat berilmasdi,sug'orish inshooatlari ham ma'muriyat qo'lida bo'lib,yer,suv soliqlari tobora oshirilmoqda edi. Jizzax uyezdi boshlig'ining ma'lumotnomasida qayd etilishicha "aholining iqtisodiy ahvoli shu darajada og'ir bo'lganki, ular qishdan bahorga chiqquncha ,gadoylar darajasiga tushib qolgan, sadaqa bilan kun ko'rib,bir burda non u yoqda tursin, tariqqa ham zor edi". Ana shunday ahvolda kun kechirayotgan aholidan 1-jahon urishi yillarida Rossiyaga harbiy ehtiyojlar uchun juda ko'p mahsulotlar majburan tashib ketildi. Mardikorlikka olish haqidagi farmon e'lon qilingach (3-iyul),norozilik keskin g'alayonlarga aylandi.Ma'muriyat taqsimotiga ko'ra,Jizzax uyezdi 11 ming mardikor, butun Samarqand viloyati 38 ming mardikor berishi kerak edi. Busiz ham halokat yoqasiga kelib qolgan aholi orasidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar noma'lum muddatga , ayni qishloq xo'jaligining ishlari qizigan mavsumda olib ketilishi minglab oilalarning boquvchisidan ayirib,halok etishi turgan gap edi.5-iyul kuniyoq dastlabki g'alayonlar boshlandi.Aholi farmonni bekor etishni, ro'yxat tuzishni to'xtatishni talab eta boshladi.Eng oddiy qurollar –ketmon,kaltak,pichoq,to'qmoqlar bilan qurollangan xaloyiq Jizzaxning yangi shahar qismiga yo'l oladi.Bundan habar topgan uyezd boshligi palkovnik Rukin o'z yordamchilari bilan g'alayonchilar qarshisidan chiqib,ularni aldab,tinchitmoqchi bo'ladi. Biroq, g'alayonchilar unga ishonmay, yonidagi sheriklari bilan qo'shib jazolaydilar, qurollarini tortib oladilar. Bu orada yetib kelgan palkovnik Afanasyev boshliq harbiy kuchlar ham qo'zg'alonchilarni qaytara olmadi. O'zaro to'qnashuvdan so'ng g'alayonchilar bir necha o'n kishini yo'qotib chekindilar va shaharning eski qismida g'alayonga tayyorgarlik boshlandi,atrof qishloqlarga choparlar yuborildi.Temirchilar qurol-aslaha tayyorlashga kirishdilar.Toshkentdan Abdurahmon jevachining oldiga vakil

kelib,"Siz Jizzaxda odamlarni kurashga boshlang,biz Toshkentdan temir yo'lni qirqamiz, rus askarlari kelolmaydi,hamma yoqni egallaymiz",deb ogohlantirgan.Yuz berayotgan voqealar hukumatni sarosimaga solib qo'yadi.18-iyul kuni Turkistonda harbiy holat e'lon qilinadi.15-iyul kuniyoq Jizzaxga palkovnik Ivanov boshchiligidagi jazo otryadi yuboriladi. Butun qo'zg'alonchilar qirib tashlanishi , ularning mol mulki xazinaga o'tkazilishi ta'kidlanadi.Mustabid hukumat uyezdga 13 ta rota saldat, 2 t artilleriya qismi, kazak otryadlari, sapyorlar qismi yuboriladi.Jazo otryadi shafqatsizlik bilan deyarli qurolsiz bo'lgan qo'zg'alonchilarga qarshi jangga kirishadi.Qo'zg'alonchilar "Yo'qolsin oq podshoh", deb hayqirib, kurashga kirishadilar.Bu voqealar shohidi O'zbekiston yozuvchisi Nazir Safarovning ta'kidlashicha, Jizzax shahri 1,5 kun qo'zg'alonchilar qo'lida bo'lgan.Jazo otryadi pulemyotlarni ishga solib, avval Jizzaxni keyin Zominni egallaydi,so'ngra Sangzorga yurish qiladi.Tengsiz janglarda deyarli qurolsiz g'alayonchilar ommasi tutdek to'kib tashlanadi,omon qolganlar quvg'in etiladi.21-iyun kuni jazo otryadi "Kuya boshi" da to'planangan qo'zg'alonchilar hujumiga uchraydi.Jangda qo'zg'alonchilar 1 soat davomida pulimyotdan o'qqa tutiladi.Qozg'alonchilar bu jangda yengiladilar, ularning sardorlari Abdurahmon jevachi ,Nazir hoji eshonlar qo'lga olinadi , mustabid hukumat qo'zg'alon ko'targan xalqdan vahshiyona o'ch olishga kirishadi.Qo'zg'alonni uyishtirgan rahbarlar:Abdurahmon jevachi,Nazir hoji eshon,aka-uka Toraqul va Eshonqul Torabekovlar, Qosim hoji eshonlar o'lim jazosiga hukm etiladi.Jizzax shahri va yana bir necha qishloqqa o't qo'yilib yakson etiladi.Minglab kishilar boshpanasiz, uy-joysiz qoladi. Ushbu qozg'alonni bostirish uchun turli ishlar amalga oshiriladi. Jumladan qayta nazorat o'rnatildi:Jizzax va uning atrofidagi axoli joylarida kuchli harbiy bosim o'tkazildi.Qozg'alonchilar rus harbiylari tomonidan og'ir to'qnashuvlarda tor-mor etildi. Shafqatsiz jazolar qo'zg'alon bostirilgach minglab odamlar o'ldirildi yoki qatl etildi,qolganlari esa qamoqqa tashlandi.Va qattiq nazoratga olindi.Qozg'alonning qayta boshlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun Jizzax va unga yaqin hududlarda harbiy holat e'lon qilindi.

Xulosa: Jizzax qo'zg'aloni mustamlakachilik zulmiga qarshi bo'lgan tarixiy voqealardan biridir.U xalqning erkinlik va mustaqillikka bo'lgan intilishining yorqin timsoli bo'lib,bugungi kunda ham tarixiy saboq sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.Ushbu qo'zg'alon bizda adolat ,erkinlik va milliy birdamlikning naqadar muhim ekanligini eslatadi.Biz bugun XXI asr mustaqillik sharoitida turib, buni o'rganib, tahlil qilib,xulosa chiqarib yashasak, albatta o'qishimiz ,ilmimiz ,tarbiyamizga ijobiy ta'sir o'tkazamiz.

REFERENCES

1.Shavkat Mirziyoyev.Yangi O'zbekiston strategiyasi.O'zbekiston nashriyoti.T.2021

2.Shavkat Mirziyoyev.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.O'zbekiston nashriyoti.T.2017
3.Ziyoyev H .Turkistonda mustaqillik uchun kurashlar tarixi.T.2001
4.Safarov N. Unutilmas kun.Toshkent.Boku.1932
5.O'zbekistonning eng yangi tarixi,1-kitob.Toshkent.2000.

TURKIYA VA O'ZBEKISTONNING BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI

Jo'ldibaeva Qarlig'ash Adilboy qizi
Chirchiq Davlat Pedogogika Universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Ilmuradova Feruza Shakirovna**

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Turkiya va O'zbekistonning boshlang'ich ta'lim tizimi taqqosiy tahlillar qilamiz va har ikki mamlakatning o'quv dasturlarini, baholash tizimini va o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari o'rganamiz. Shuningdek, ta'lim tizimidagi o'xshashliklarni va farqlarni aniqlaymiz va har ikki mamlakatning ta'lim sifatini oshirish yo'llari ko'zlaymiz va muhokama qilamiz.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, Turkiya ta'lim tizimi, O'zbekiston ta'lim tizimi, o'quv dasturi, baholash tizimi, o'qituvchilarni tayyorlash, majburiy ta'lim, pedagogika, chet tili o'qitish, ta'lim islohotlari, ta'lim sifatini oshirish.

Har bir davlatning ta'lim tizimi uning madaniyati, tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq. Turkiya va O'zbekiston ta'lim tizimlari umumiy jihatlarga ega bo'lishiga qaramay, ularning boshlang'ich ta'limdagi yondashuvi, metodlari va tashkil etilishida muayyan farqlar mavjud.

Turkiyada boshlang'ich ta'lim "4+4+4" tizimi asosida shakllangan bo'lib, unda dastlabki to'rt yil bolalarning umumiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu tizim o'quvchilarga dastlabki yillardan boshlab o'z qiziqishlariga mos yo'nalishni tanlash imkonini beradi. Bundan tashqari, Turkiyada dars jarayonida innovatsion texnologiyalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar keng qo'llaniladi.

Ta'lim 3 bosqichga bo'linadi va ularning har biri 4 yildan iborat. 4+4+4 sistemasiga 5 yildan oshiq vaqt mobaynida amal qilib kelinmoqda. Bular:

– boshlang'ich maktab
– o'rta maktab
– litsey

Boshlang'ich va o'rta maktablarni tugatish o'quvchiga boshlang'ich bilimlarni beradi. Majburiy o'rta ta'lim ega bo'lish uchun litseyni ham tugatish kerak.

Boshlang'ich ta'lim-Maktab hayoti 6 yoshdan boshlanadi. Bu yoshda har bir bola maktabga borishni boshlashi kerak. Ushbu tizim davlatning barcha aholisi uchun amal qiladi. O'quv yilining boshlanishi 10-sentyabrga to'g'ri keladi, ammo bu sana har yili o'zgarishi mumkin. Bu ko'pincha sentyabr oyining boshiga to'g'ri keladigan Qurbon hayiti bayrami bilan bog'liq, bu bayramda barcha dam oladi.

O'quv yili 4 oydan tashkil topadigan 2 ta semestrga bo'lingan (jami 8 oy), semestrlar yanvar oyining oxirida ikki haftalik ta'til bilan ajratiladi. Har semestr oxirida imtihonlar o'tkazilib umumiy ballar hisoblanadi: testlar, nazorat ishi ballari, uy vazifalari, xulq-atvori va boshqa vazifalar hisobga olinadi.

Mahalliy maktablarda o'quvchilar vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi. Har safar dars madhiya kuylashdan boshlanadi, darsliklarda esa yurtning buyukligiga, Mustafo Kamol Otaturk kabi qahramonlarga katta e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinflarda bolalarda chiroyli husnixatni shakllantirish uchun ruchka o'rniga qalamdan foydalaniladi. Uy vazifalari mavjud, ammo kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ular odatda ijodiy, fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

O'zbekistonda esa boshlang'ich ta'lim mustahkam akademik bilim va asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, davlat tomonidan yagona o'quv dasturi asosida olib boriladi. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilib, ilg'or xorijiy tajribalar tatbiq etilmoqda. Jumladan, o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullar joriy qilinib, tarbiyaviy jihatga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Farqlardan biri – darslik va o'quv dasturlarining mazmunida namoyon bo'ladi. Turkiyada ta'lim jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga o'rgatilsa, O'zbekiston boshlang'ich ta'limida tizimli bilim berish va an'anaviy yondashuv yetakchilik qiladi. Shuningdek, Turkiyada xorijiy tillarga alohida urg'u berilib, o'quvchilar kichik sinflardan boshlab ingliz tilini o'rganadilar. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda, biroq hali to'liq isloh qilinmagan jihatlar mavjud.

Ikki davlat o'rtasidagi yana bir muhim tafovut o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasida namoyon bo'ladi. Turkiyada o'qituvchilar universitet darajasida maxsus pedagogik ta'lim olgan holda maktabga kelishadi. O'zbekistonda esa bu jarayon ham o'zgarish arafasida bo'lib, hozirda o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Turkiya ta'lim tizimini O'zbekiston boshlang'ich ta'limiga tatbiq etish zamonaviy ta'lim standartlariga moslashish, innovatsion usullarni kengroq qo'llash va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Turkiya tajribasidan foydalanish orqali ta'lim jarayoni yanada interfaol va samarali bo'lishi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortishi mumkin. Shu bilan birga, Turkiya modelini to'liq ko'chirib olish emas, balki O'zbekistonning milliy ta'lim an'analari va sharoitlariga mos holda tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda, milliy o'ziga xoslikni saqlashga ham xizmat qiladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov hamda Turkiya Respublikasi Oliy ta'lim kengashi raisi Erol O'zvar boshchiligidagi delegatsiya a'zolari o'rtasida ikki davlat oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish doirasida ishchi uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv davomida O'zbekiston va Turkiya oliy ta'lim tizimi rahbarlari ikki tomonlama hamkorlik aloqalarning bugungi holati va uni yangi bosqichga ko'tarish imkoniyatlarini muhokama etishdi.

Jumladan, yurtimizda hamkorlikda universitet tashkil etish, o'zbekistonlik o'quvchi va talabalarning Turkiya oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish uchun grantlar ajratish, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, texnika va muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash, matematika, fizika, ximiya, geologiya kabi yo'nalishlardagi hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan fikr almashildi.

Suhbat chog'ida tomonlar oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik aloqalarini jadallashtirish hamda yangi bosqichga olib chiqishga kelishib olishdi.

Uchrashuv so'ngida Turkiya Oliy ta'lim kengashi raisi Erol O'zvar iliq qabul hamda ko'rsatilgan yuqori darajadagi mehmondo'stlik uchun Abduqodir Toshqulovga samimiy minnatdorlik bildirdi hamda uni Turkiyaga taklif qildi

Shunday qilib, Turkiya va O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimi o'rtasidagi farqlar har ikki mamlakatning ta'limga bo'lgan yondashuvi va ustuvor maqsadlariga bog'liq. Har ikki tizimning ijobiy jihatlari va kamchiliklarini tahlil qilish orqali o'zaro tajriba almashish va ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin.

Turkiya ta'lim tizimini O'zbekiston boshlang'ich ta'limiga tatbiq etish zamonaviy ta'lim standartlariga moslashish, innovatsion usullarni kengroq qo'llash va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Turkiya tajribasidan foydalanish orqali ta'lim jarayoni yanada interfaol va samarali bo'lishi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortishi mumkin. Shu bilan birga, Turkiya modelini to'liq ko'chirib olish emas, balki O'zbekistonning milliy ta'lim an'analari va sharoitlariga mos holda tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda, milliy o'ziga xoslikni saqlashga ham xizmat qiladi.Ikkala mamlakat o'zaro tajriba almashish oqali ta'lim sifatini yanada oshirishi mumkin.

Turkiya ta'lim tizimini O'zbekiston boshlang'ich ta'limiga tatbiq etish zamonaviy ta'lim standartlariga moslashish, innovatsion usullarni kengroq qo'llash va o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Turkiya tajribasidan foydalanish orqali ta'lim jarayoni yanada interfaol va samarali bo'lishi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortishi mumkin. Shu bilan birga, Turkiya modelini to'liq ko'chirib olish emas, balki O'zbekistonning

milliy ta'lim an'analari va sharoitlariga mos holda tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda, milliy o'ziga xoslikni saqlashga ham xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Turkiya Respublikasi Milliy Ta'lim Vazirligi (MEB). Turkiya ta'lim tizimi va o'quv dasturlari haqida rasmiy ma'lumotlar. – www.meb.gov.tr
2. Rashidova N. X., Usmonov A. B. O'zbekiston va xorijiy davlatlar ta'lim tizimining qiyosiy tahlili. – T.: Fan, 2023.
3. Turkiyada va O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari // www.unesco.org
4. Ismoilov M. H. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va zamonaviy yondashuvlar – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi, 2022.
5. Turkiya va O'zbekiston ta'lim tizimining umumiy ko'rinishi. – uz.wikipedia.org

HAQIQAT TUSHUNCHASI VA UNING TALQINLARI

Jorabaeva Tursinay Tayir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti I kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: **Duysabaeva Dilbar Uskanovna**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqola haqiqat tushunchasi va uning turli falsafiy talqinlariga bag'ishlangan. Haqiqatning mohiyati, uni aniqlash yo'llari, ob'yektiv va sub'yektiv haqiqat tushunchalari muhokama qilinadi. Muallif haqiqatning nisbiyligi va mutlaq haqiqatga erishish masalalariga to'xtalib, turli falsafiy maktablar va faylasuflarning qarashlarini tahlil qiladi. Ushbu maqolada haqiqatning nazariy va amaliy yondashuvlari orqali haqiqatni bilishning inson hayoti va ilm-fan rivojiga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: haqiqat, ob'yektiv haqiqat, sub'yektiv haqiqat, relativizm, mutlot haqiqat, epistemologiya , falsafiy talqinlar.

ANNOTATION:

This article is dedicated to the concept of truth and its various philosophical interpretations. It discusses the essence of truth, ways to identify it, and examines objective and subjective truth. The author explores issues of the relativity of truth and the possibility of reaching absolute truth, analyzing the views of different philosophical schools and thinkers. The article also investigates how theoretical and practical approaches to truth impact human life and the development of science.
Keywords: truth, objective truth,subjective truth, relativizm, absolute truth, epistemology, philosophical interpretations.

Haqiqat tushunchasi insoniyatning eng qadimiy savollaridan biri bo'lib, u falsafaning turli yo'nalishlari orqali ko'p asrlardan beri o'rganilib kelinmoqda. Haqiqat deganda odatda, insonning atrof-muhitni yoki voqe'likni to'g'ri aks ettiruvchi bilim va qarashlar tushuniladi. Ammo haqiqatning mohiyati va unga yetishish yo'llari haqida aniq va universal fikr birligi mavjud emas. Haqiqatning nisbiyligi, mutlaq haqiqatga erishish imkoniyatlari, ob'yektiv va sub'yektiv haqiqat tushunchalari ko'plab faylasuflar tomonidan muhokama qilingan.

Ushbu maqola haqiqatning ushbu turli xil yondashuvlarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Haqiqatni aniqlash yo'llari va uni bilishning falsafiy, ilmiy va amaliy jihatlari qanday ekanligi, shuningdek, turli falsafiy maktablar va faylasuflarning haqiqatga nisbatan yondashuvlari muhokama qilinadi.

Ob'yektiv va Sub'yektiv Haqiqat

Falsafada haqiqat odatda ikki asosiy turkumga – ob'yektiv va sub'yektiv haqiqat tushunchalariga bo'linadi.

Ob'yektiv Haqiqat

Ob'yektiv haqiqat insonning shaxsiy qarashlari va tajribasidan mustaqil holda mavjud bo'lgan haqiqat sifatida tushuniladi. Aristotel tomonidan ilgari surilgan moslik nazariyasiga ko'ra, ob'yektiv haqiqat – bu voqe'lik va inson fikri yoki tasavvurlari o'rtasidagi moslik natijasidir. Boshqacha qilib aytganda, insonning fikr yoki qarashlari real haqiqatga qanchalik yaqin bo'lsa, bu haqiqat ob'yektiv haqiqat deb hisoblanadi. Ob'yektiv haqiqatga ko'ra, voqe'lik insonning uni qanday idrok qilishidan qat'i nazar mavjud va unga yaqinlashish mumkin.

Sub'yektiv Haqiqat

Sub'yektiv haqiqat insonning individual tajribasi, his-tuyg'ulari va shaxsiy qarashlari orqali shakllanadi. Bu tushuncha Niche kabi faylasuflar tomonidan keng o'rganilgan. Niche sub'yektiv haqiqatni inson fikri va qadriyatlariga bog'lab tushuntiradi va har bir insonning haqiqatni o'ziga xos tarzda anglashini ilgari suradi. Sub'yektiv yondashuvda haqiqat har bir shaxs uchun alohida talqin qilinadi, ya'ni haqiqat nisbiy bo'lib, har bir odamning ichki dunyosi bilan bog'liqdir.

Haqiqatning nisbiy yoki mutlaq xarakteri haqida ham turli qarashlar mavjud.

Relativizm tarafdorlari haqiqat nisbiy ekanligini va u turli madaniyatlar, shaxslar yoki zamonlar uchun o'zgarishi mumkinligini ta'kidlashadi. Relativizmga ko'ra, haqiqatni universal tarzda belgilash qiyin, chunki har bir shaxs yoki jamiyatning haqiqatga bo'lgan qarashlari o'ziga xos va boshqalardan farq qiladi. Maykl Fuko kabi faylasuflar haqiqatni ijtimoiy konstruktsiya sifatida tushunib, uning ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar. Unga ko'ra, haqiqat hokimiyat va bilim o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq bo'lib, uni absolyut narsa sifatida qabul qilish qiyin.

Mutlaq haqiqat esa universallik va o'zgarmaslikka asoslanadi. Mutlaq haqiqat tushunchasiga ko'ra, haqiqat vaqt va sharoitlardan qat'i nazar mavjud bo'lgan, o'zgarmas va universal qoidalar orqali aniqlanadi. Immanuil Kant mutlaq haqiqatga erishishni inson aqlining cheklovlari orqali izohlaydi. U ob'yektiv haqiqat mavjudligini tan oladi, lekin inson aqli va idrok cheklanganligi sababli bu haqiqatga to'liq erishish mumkin emasligini qayd etadi.

Haqiqatning ilmiy talqinida Karl Popperning falsifikatsiya nazariyasi alohida o'rin tutadi.

Popperga ko'ra, ilmiy haqiqatga erishish faqatgina nazariyalarni rad qilish orqali mumkin. Unga ko'ra, ilmiy nazariyalar va gipotezalar haqiqatni ochib berishning eng samarali usuli, biroq ilmiy bilim mutlaq emas, balki doimo

yangilanish va rivojlanish jarayonida. Shunday qilib, Popper haqiqatni mutlaq narsa emas, balki bilimga yaqinlashish jarayoni sifatida ko'radi.

Pragmatizm falsafasi orqali haqiqatni amaliy natijalar bilan bog'lashga intilish kuzatiladi. Pragmatizm tarafdorlari, jumladan Uilyam Jeyms va Jon Dyui, haqiqatni inson uchun amaliy va foydali natijalar keltirgan taqdirda haqiqat deb qabul qilish mumkinligini aytadilar. Bunda haqiqat hayotdagi real natijalar va tajribalar orqali sinab ko'riladi va inson uchun foydali bo'lgan bilim sifatida tan olinadi.

Haqiqat va Muloqot

Yurgen Habermas haqiqat tushunchasini jamiyatdagi muloqot jarayoni bilan bog'laydi. U haqiqatni ijtimoiy kelishuv natijasi deb hisoblaydi va insonlar o'rtasidagi muloqot orqali kelishilgan bilimlar haqiqat deb qabul qilinadi. Habermasga ko'ra, jamiyatdagi har bir shaxs o'zining bilim va tajribasi orqali muloqotda ishtirok etib, haqiqatni shakllantiradi.

Haqiqat tushunchasi falsafada turli yondashuvlar orqali izohlangan murakkab masala bo'lib, har bir yondashuv haqiqatni o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Ob'yektiv va sub'yektiv haqiqat, relativizm va mutlaq haqiqat, ilmiy va amaliy talqinlar orqali haqiqatning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Haqiqatning murakkabligi uning bilish nazariyasidagi o'rnini ko'rsatadi va insonning bilishga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi.

Haqiqatga bo'lgan turli falsafiy yondashuvlar ilm-fan, jamiyat va shaxsiy tajribalar orqali rivojlanib boradi. Bu esa haqiqatning universalligi va nisbiyligi, shuningdek, uning inson bilimiga qo'shgan hissasini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. T.:OzMU, 2004.
2. Karimov I.A. Asarlari to'plami 24 jildda – T.: "O'zbekiston", 1996-2016 y.y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil.

DINSHUNOSLIK SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLAR

Jo'raboyeva Sabrina Ilhom qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiqa ta'limi yõnalishi 2- bosqich talabalari
sabrinajuravayeva@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Dilorom Nig'matullayevna**

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola zamonaviy dinshunoslik sohasidagi asosiy tadqiqot yo'nalishlari, muammolar va istiqbollarga bag'ishlangan. Tadqiqotda dinshunoslikning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy-antropologik va taqqosloviy usullari, shuningdek ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy jamiyatda dinning o'rni, globalizatsiya va sekulyarizm ta'siri, dinlararo muloqot masalalari hamda diniy ekstremizm kabi muammolar yoritilgan. Asarda dinshunoslik sohasida qo'llanilayotgan yangi metodologik yondashuvlar, jumladan manbalarga tanqidiy tahlil, diniy matnlarning interpretatsiyasi va zamonaviy texnologiyalarning tadqiqot jarayonida qo'llanilishi haqida so'z boradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dinshunoslik sohasining rivoji uchun fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish zarur.

Kalit so'zlar: dinshunoslik, dinlar tarixi, dinlararo muloqot, diniy tadqiqotlar metodologiyasi, sekulyarizm, globalizatsiya, diniy ekstremizm, ilmiy tadqiqotlar**.**

АННОТАЦИЯ

Эта научная статья посвящена ключевым направлениям исследования, проблемам и перспективам в области современного присутствия. В исследовании анализируются исторические, философские, социально-антропологические методы и сравнения, а также их практическое значение. Статья вводит роль религии в современном обществе, влияние религии, такого как секуляризм, взаимозависимые проблемы и религиозный экстремизм. В пьесе говорится, что новые методологические подходы, используемые в области религии, включая источники, интерпретацию религиозных текстов и современные технологии в области исследований. Результаты исследования показывают, что необходимо разработать исследования метаба, для развития богословия, укрепление международного сотрудничества и содействия религиозной терпимости.

Ключевые слова: богословие, история религии, методология религии, религиозные исследования, секуляризм, глобализация, религиозный экстремизм, религиозный экстремизм, религиозный экстремизм.

ABSTRACT

This scientific article is dedicated to key research directions, problems and prospects in the field of modern presence. The study analyzes the historical, philosophical, socio-anthropological and comparison methods, as well as their practical significance. The article introduces the role of religion in the modern society, the impact of religion, such as secularism, interdependent issues and religious extremism. The play says new methodological approaches used in the field of religion, including sources, interpreting of religious texts, and modern technologies in the field of research. The results of the study show that it is necessary to develop metaba studies for the development of theology, strengthening international cooperation and promoting religious tolerance.

Keywords*:* theology, the history of religion, methodology of religion, religious research, secularism, globalization, religious extremism, religious extremism, religious extremism.

KIRISH

Dinshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar: fan, din va zamonaviylik chorrahasida. Dinshunoslik insoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biridir. U diniy qarashlar, e'tiqodlar va amaliyotlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning jamiyat hayotiga ta'sirini tahlil qilish va turli diniy an'analar o'rtasidagi o'zaro bog‘liqlikni anglashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Dinshunoslik nafaqat diniy an’analarni o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tarix va antropologiya kabi fanlar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Din - insoniyat tarixini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, u insoniyatning madaniy merosi, dunyoqarashi va ijtimoiy tuzilmalarini chuqur ta'sir etgan global hodisadir. XXI asr boshlarida dinning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati kutilmaganda kuchayib, uning ilmiy tadqiqotlari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy dinshunoslik - bu nafaqat an'anaviy diniy matnlarni o'rganish, balki dinning ijtimoiy psixologiyasi, siyosiy dinamikasi, iqtisodiy ta'siri va madaniyatlararo o'zaro ta'sirini tushunishga qaratilgan kompleks fanlararo sohadir. Bugungi global dunyoda dinshunoslik tadqiqotlarining ahamiyati bir qator omillar bilan izohlanishi mumkin:

- Dinlararo munosabatlarning keskinlashuvi va madaniyatlararo dialogning zarurati
- Diniy ekstremizm va terrorizm kabi global tahdidlarning kuchayishi

- Sekulyar jamiyatlarda diniy qayta tug'ilish fenomeni
- Migratsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelgan diniy mozaik jamiyatlarning shakllanishi
- Virtual muhitda diniy amaliyotlarning yangi shakllarining paydo bo'lishi
- Zamonaviy dinshunoslik metodologiyasi an'anaviy filologik-tarixiy tadqiqotlardan tortib, zamonaviy kvantitativ va kvalitativ usullargacha bo'lgan keng spektrni qamrab oladi. Xususan:

- Matnshunoslik va hermeneutika usullari
- Maydon tadqiqotlari va etnografik kuzatishlar
- Sotsiologik so'rovlar va statistik tahlillar
- Kognitiv psixologiya va nevrologiya usullari
- Raqamli gumanitar fanlar texnologiyalari

Ushbu maqola zamonaviy dinshunoslikning asosiy yo'nalishlarini, metodologik yondashuvlarni va ularning amaliy ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi asosiy masalalar yoritiladi:

1) Globalizatsiya sharoitida diniy g'oyalarning transformatsiyasi
2) Diniy fundamentalizm va modernizm o'rtasidagi dialektik munosabatlar
3) Ko'p madaniyatli jamiyatlarda diniy tolerantlikni shakllantirish mexanizmlari
4) Raqamli tsivilizatsiya sharoitida diniy amaliyotlarning evolyutsiyasi
5) Dinshunoslik tadqiqotlarining yangi fanlararo yo'nalishlari

Dinshunoslikning rivojlanishi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, u insoniyatning global muammolariga diniy omil nuqtai nazaridan yondashish imkonini beradi. Fanlararo yondashuv esa din hodisasini yangicha tushunish va uning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini aniqlash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda dinshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar bir qator muhim yo'nalishlarni qamrab olmoqda:

- Dinlarning tarixiy evolyutsiyasi va ularning madaniyatlararo o'zaro ta'siri
- Zamonaviy jamiyatda diniy e'tiqodlarning o'zgarishi va transformatsiyasi
- Din va modernizatsiya o'rtasidagi munosabatlar
- Dinlararo dialog va madaniyatlararo muloqot muammolari
- Diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi ijtimoiy xavfli hodisalar

Dinshunoslikning zamonaviy metodologiyasi an'anaviy tarixiy-filologik usullardan tashqari, sotsiologik, psixologik, antropologik va hatto kognitiv fanlar usullaridan ham foydalanmoqda. Bu esa din hodisasini ko'p qirrali va interdisiplinar o'rganish imkonini beradi. Zamonaviy dunyoda dinning roli tobora o'zgarib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, texnologik rivojlanish va madaniyatlararo

aloqalarning kuchayishi dinshunoslik tadqiqotlarini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Bugungi kunda din nafaqat an'anaviy ibodat va e'tiqod tizimi sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi omil sifatida ham ko'rilmoqda. Shu sababli, dinshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlar din va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Zamonaviy dinshunoslik tadqiqotlari turli metodologik yondashuvlar asosida olib boriladi. Bu sohada tarixiy, fenomenologik, komparativ va sotsiologik tahlil usullari keng qo'llaniladi. Tadqiqotchilar diniy matnlarni tahlil qilish, diniy an'analarni taqqoslash va diniy e'tiqodlarning inson psixologiyasiga hamda ijtimoiy institutlarga ta'sirini o'rganish orqali muhim ilmiy natijalarga erishmoqdalar. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va axborot kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi dinshunoslik tadqiqotlariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili yordamida diniy matnlarning chuqur o'rganilishi, diniy axborotning tarqalish tezligi va ommaviy madaniyatga ta'siri kabi masalalar bo'yicha yangi tadqiqotlar olib borilmoqda. Dinshunoslik sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning nazariy va amaliy asoslari, metodologik yondashuvlari hamda ularning jamiyat hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, dinshunoslik fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, uning ilmiy muammolari va istiqbolli yo'nalishlari xususida fikr yuritiladi. Dinshunoslikning global va mahalliy kontekstdagi ahamiyati, turli diniy oqimlarning ijtimoiy hayotdagi roli hamda zamonaviy diniy muammolarni hal qilishda ilmiy yondashuvlarning o'rni batafsil ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy dinshunoslik sohasi an'anaviy tadqiqot metodlaridan yangi fanlararo yondashuvlargacha bo'lgan keng spektrni qamrab olgan holda jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda bu soha nafaqat diniy matnlar va tarixiy jarayonlarni o'rganish bilan chegaralanmay, balki dinning ijtimoiy-siyosiy, psixologik, madaniy va hatno iqtisodiy jihatlarini kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Asosiy natijalar va takliflar:

1. Globalizatsiya sharoitida dinshunoslik tadqiqotlarining ahamiyati ortib bormoqda, chunki din zamonaviy jamiyatdagi eng muhim identifikatsiya omillaridan biriga aylanmoqda.
2. Diniy ekstremizm, fundamentalizm va terrorizm kabi global muammolarga ilmiy yondashuv faqat dinshunoslikning fanlararo metodologiyasi asosida samarali hal etilishi mumkin.
3. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi virtual muhitda yangi diniy amaliyotlar shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi, bu esa dinshunoslikning yangi tadqiqot yo'nalishlarini shakllantirishni talab qilmoqda.

4. Zamonaviy dinshunoslikda an'anaviy usullarni zamonaviy kvantitativ va kvalitativ metodlar bilan uyg'unlashtirish tadqiqotlarning sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

5. Dinlararo va madaniyatlararo dialogni rivojlantirish, diniy bag'rikenglikni shakllantirish dinshunoslik tadqiqotlarining amaliy ahamiyatini oshirmoqda.

Kelajakda dinshunoslik tadqiqotlarining rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda davom ettirilishi lozim:

- Din va modernizatsiya o'rtasidagi dialektik munosabatni chuqurroq o'rganish
- Diniy qarashlarning psixologik asoslarini tadqiq etish
- Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarini diniy tadqiqotlarda qo'llash
- Global migratsiya jarayonlari natijasida shakllanayotgan yangi diniy landshaftlarni o'rganish

Dinshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar

Dinshunoslik (religiovedenie) – dinlarni ilmiy, tarixiy, falsafiy, sotsiologik va psixologik jihatlardan o‘rganadigan fanlararo soha. Ushbu sohadagi tadqiqotlar dinlarning kelib chiqishi, taraqqiyoti, tuzilishi, ta’siri va zamonaviy jamiyatdagi o‘rni haqida chuqur tushuncha beradi.

Asosiy tadqiqot yo‘nalishlari

- Dinlar tarixi (Comparative Religion)
  - Dunyo dinlarining (Islom, Xristianlik, Buddizm, Hinduizm, Yahudiylik va b.) paydo bo‘lishi va tarqalishi.
  - Diniy matnlar (Qur’on, Bible, Vedalar, Tripitaka) ning tahlili.
  - Dinlararo o‘zaro ta’sir va dialoglar (masalan, Islom va G‘arb madaniyati).

- Din falsafasi (Philosophy of Religion)
  - Xudoning mavjudligi haqidagi dalillar (ontologik, kosmologik, teleologik).
  - Din va aql (masalan, Islomda aql va naql munosabati).
  - Diniy e’tiqodlarning mantiqiy asoslari.

- Din sotsiologiyasi (Sociology of Religion)
  - Din va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar (Max Weberning "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi").
  - Sekulyarizm (dinni davlatdan ajratish) va postsekulyar tendensiyalar.
  - Diniy ekstremizm va terrorizmning ildizlari.

- Din psixologiyasi (Psychology of Religion)
  - Diniy tajriba va ong (William Jamesning "Diniy tajriba turlari").

- Din va shaxsiyat (masalan, dindorlik va psixologik barqarorlik).

➢ Dinlararo tadqiqotlar (Interfaith Studies)
- Turli dinlar vakillari o'rtasidagi hamkorlik (Islom-Xristian dialogi).
- Din va madaniyatlararo muloqot.

O'zbekistonda dinshunoslik

O'zbekistonda dinshunoslikning rivojlanishi:

- O'zRFA Sharqshunoslik instituti, ToshDU sharqshunoslik fakulteti kabi markazlarda dinlar tarixi o'rganiladi.
- Islomshunoslik (qadimgi va zamonaviy islom olimlari asarlarini o'rganish).
- Mahalliy diniy an'analar (sufizm, marvaridlar) tadqiq qilinadi.

Xulosa

Xulosa tariqasida, dinshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar nafaqat akademik ahamiyatga ega, balki zamonaviy jamiyatning eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarini hal etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Fanlararo yondashuv va yangi metodologiyalardan foydalanish bu sohani yanada rivojlantirish va uning amaliy ahamiyatini oshirish imkoniyatlarini beradi.

REFERENCES

1. Қўзиев Р. "Ислом маданияти ва замонавийлик" (Т., 2018)
2. Ҳакимов Н. "Ўзбекистонда диний тўлқинлар" (Т., 2020)
3. Abdullaev R. "Religious Tolerance in Uzbekistan" (Springer, 2021)
4. Karimov I.A. "High Spirituality is an Invincible Power" (T., 2008)

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING FALSAFIY ILDIZLARI

Jumaboyeva Munisa Madrahim qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari va ularning falsafiy ildizlari tahlil etiladi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish jarayoni, antropotsentrizm va ekonsentrizm kabi asosiy falsafiy yondashuvlarning ekologik inqirozga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, texnosentrizm, iste'molchilik madaniyati va ilmiy-texnik taraqqiyotning ekologik muammolari chuqurlashtirishdagi roli yoritiladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ekologik ongni shakllantirishi zarurati muhokama qilinib, ekologik muammolarga yechim sifatida insoniyatning axloqiy mas'uliyati va falsafiy qarashlarini qayta ko'rib chiqish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, falsafiy ildizlar, antropotsentrizm, ekotsentrizm, texnosentrizm, ekologik ong, barqaror rivojlanish, iste'molchilik madaniyati, ekologik inqiroz, axloqiy mas'uliyat.

Ekologik muammolar zamonaviy dunyoning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ularning kelib chiqish sabablari turli omillarga bog'liq. Birinchidan, antropotsentrik dunyoqarash insonning tabiatga hukmronlik qilishga intilishi va uni faqat o'z manfaatlari uchun ekspluatatsiya qilishi ekologik muammolarning asosiy falsafiy ildizlaridan biridir. Bu yondashuv tabiatni faqat resurs sifatida ko'rishga olib keladi. Ikkinchidan, tezkor sanoatlashuv va urbanizatsiya sanoat inqilobidan so'ng insoniyatning ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi, bu esa atrof-muhitga katta zarar yetkazmoqda. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi, chiqindilar miqdorining ortishi ekologik muammolarni chuqurlashtirmoqda. Uchinchidan, iste'molchilik madaniyati zamonaviy jamiyatda haddan tashqari iste'molchilik va tabiiy resurslarning chegarasiz ishlatilishi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish va isrof ekologik muvozanatni buzadi. Tabiiy resurslarning cheksiz ekspluatatsiyasi ham ekologik muammoga olib keladi. Ya'ni yer osti va yer usti resurslarining haddan tashqari qazib olinishi, o'rmonlarning kesilishi, tuproqning degradatsiyaga uchrashi ekologik inqirozga sabab bo'lmoqda. Texnologik taraqqiyotning ekologik oqibatlari fan va texnika taraqqiyoti inson hayotini osonlashtirgan bo'lsa-da, ko'plab ekologik muammolarni ham yuzaga keltirdi. Masalan, plastik chiqindilar, kimyoviy moddalarning tarqalishi va sanoat chiqindilari

ekologik tizimlarga zarar yetkazmoqda. Aholi sonining o'sishi ham misol bo'ladi. Yer aholisining tez o'sishi natijasida yashash joylari va resurslarga talab ortmoqda. Bu esa tabiiy resurslarning kamayishiga, chiqindilar ko'payishiga va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib kelmoqda. Ekologik ongning yetishmasligi ko'p hollarda insoniyat atrof-muhitga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'ladi. Har tarafga axlat tashlashishi natijasida havoni buzadi. Bular bir-biriga bog'liq bo'lib, global ekologik inqirozni kuchaytiradi. Ularning oldini olish uchun insoniyat ekologik ongni rivojlantirish, barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'lida harakat qilishi lozim.

Antropotsentrizm yunonchadan olingan bo'lib "insonni tabiatning podshosi" deb hisoblaydigan falsafiy yondashuvdir. Ushbu qarashga ko'ra, tabiat inson manfaatlari uchun mavjud bo'lib, u inson ehtiyojlarini qondirish vositasida ko'riladi. Ekotsentrizm yunoncha tabiat va inson o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga intiluvchi yondashuv bo'lib, bu qarash tabiatni alohida qadriyat sifatida ko'radi. Ekologik muammolar insonning tabiat bilan bo'lgan munosabatini axloqiy va falsafiy jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Inson o'z axloqiy mas'uliyatini anglab, ekologik ong va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi falsafiy qarashlarni shakllantirishi zarur. Faqat shu yo'l bilan global ekologik muammolarni hal qilish va kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit yaratish mumkin.

REFERENCES

1. Orolov, U. Ekologik falsafa va barqaror rivojlanish. Toshkent, "O'zbekiston Milliy Universiteti" nashriyoti. 2009.
2. Girusov, E. V. Философия и экология. Москва, Юнити-дана. 2003.
3. Kerimov, A. A. Ekologiya va insoniyatning axloqiy mas'uliyati. Toshkent, "Fan nashriyoti". 2012.
4. Frolov, I. T. Глобальные проблемы и будущее человечества. Москва, "Прогресс", 1984.

FALSAFA VA DIN: MILLATLARARO VA DINLARARO TOLERANTLIK.

Karimjonova Nigina Nozimjon qizi, Usmonaliyeva Naima Botirjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San'atshunoslik fakulteti
Taviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlari hamda bu borasida olib borilayotgan keng islohotlar, qolaversa, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millati, irqi va dinidan qat'iy nazar o'zbek xalqini tashkil etishi hamda barcha millatlar hamjihatlikda respublika taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shayotganligi bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, jamiyat, bag'rikenglik, tolerantlik, millat, xalq, millatlararo, davlat, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, xavfsizlik, diniy ma'rifat.

Abstract: This article focuses on the historical roots of tolerance and interethnic relations in Uzbekistan and the extensive reforms being carried out in this regard, as well as on the fact that the Uzbek people living in Uzbekistan, regardless of their nationality, race, and religion, constitute a united Uzbek people, and that all nationalities are making their due contribution to the development of the republic in unity.

Keywords: Uzbekistan, society, tolerance, nation, people, interethnic, state, religious tolerance, interethnic harmony, security, religious enlightenment.

O'zbekiston hukumati turli millat va dinlarga mansub mamlakat fuqarolari uchun o'z e'tiqodlarini amalga oshirish borasida zarur shartsharoitlarni yaratib berishga diniy qadriyatlarni asrab-avaylashga, jamiyatimizda dinlar va ular millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga va ular o'rtasidagi do'stlikni rivojlanishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yul qo'yilmaydi" deb qat'iy belgilab quyilgan.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etishda millatlararo munosabatlarning takomillashuvi muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilmoqda. Ular o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi, mamlakatda tinchlik, barqarorlik jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Tolerantlik, bag'rikenglik munosabati barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar orasida amalga oshirilgan taqdirdagina dunyoviy davlat va jamiyat barpo etilishi mumkin. Shu sababli inson huquq va erkinliklari, o'zligini anglashi va namoyon qilishini ta'minlash dunyoviy demokratik davlat qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, dunyoviy davlatni o'z ideali tarkibiga asos qilib, qabul qilmaydigan ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar davlat hokimiyatiga erishish uchun bo'ladigan demokratik, ko'ppartiyaviy raqobatda qatnashish huquqiga ega bo'lmasligi kerak.

Diniy tolerantlik har bir fuqaroning konstitutsion huquqi bo'lib, ko'p millatli davlatimizda yashab, mehnat qilayotgan 130 dan ortiq millatning tili, dini, irqi va millatidan qat'iy nazar ularga qonunlar talablari asosida diniy erkinlik berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy holat tolerantlik talablari bilan uzviy mujassamlashib ketganligini, bu mujassamlik istiqlol davrida shakllanib, rivojlanib kelayotgan yangicha tafakkur bilan bevosita bog'liqligini har bir fuqaro va yoshning tafakkuriga etkazish barcha muallim, murabbiy va ziyolilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sobiq mustabid tuzum davrida dinsiz, xudosiz jamiyat qurish g'oyalarini ilgari surilishi oqibatida bir tomonlama, chala, kemtik tafakkur shakllantirildi. Natijada shaxs tafakkuri uchun eng dolzarb bo'lgan diniy va ruhiy olamdan batamom mahrum etilgan dinga ham, yaratuvchi Ollohga ham e'tiqodsiz jamiyat baro etilishi ko'zda tutildi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak unda turli dinlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar to'qnashuvlar bo'lib o'tganligiga guvoh bo'lamiz. Ming afsus bilan shuni ta'kidlash lozimki, bizning har turli mintaqalarda diniy adovatlarga asoslangan qonli to'qnashuvlar davom etmoqda. Bu jarayon ko'pgina siyosatshunoslar tomonidan Sharq va G'arb kurashi yoki "Islom taraqqiyoti" bilan Xristian olami o'rtasidagi ziddiyat sifatida baholanmoqda. Shu fikrlarga qisman qo'shilgan holda yana shuni ham aytish lozimki hozirda bo'layotgan urushlarning aksariyati rivojlangan davlatlarning arzon yoki tekin xom ashyoga ega bo'lish uchun qilayotgan hatti-harakatlar natijasidir.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki haqiqiy islom boshqa dinlarning rivojiga va ularga nisbatan doimo bag'rikenglik asosida munosabatda bo'lib kelgan. Islom dini doimiy ravishda terrorizmni qoralab kelgan. Chunki islom dininig asosi bo'lgan Qur'onda insonga jon ato etish va uni qaytarib olish faqat xudoning ishi ekanligi e'tirof etilgan. Islom dinida birovning hayotiga qasd qilish og'ir gunoh hisoblanadi. Bu tamoyil faqatgina islom dinidagina emas, balki dunyodagi barcha dinlarga xosdir. Lekin shunga qaramay er sayyorasining turli burchaklarida din niqobi ostida yirik to'qnashuvlar, xalqaro terrozimning faollashuvi, diniy ekstremizm,

narkotik moddalar bilan savdo-sotiq qilish hollari kuchayayotganini kuzatishimiz mumkin. Bular insoniyat kelajagi uchun jiddiy xavf-xatar tug'dirmoqda. Uchinchi ming yillik boshi millatlararo, konfessiyalararo nizolarni, turli xil madaniyatdar, xalqlar va davlatlar o'rtasida yuzaga kelayotgan muammolarni echish yullarini topishni taqazo etmoqda. Bizningcha diniy, madaniy, siyosiy, harbiy va boshqa ziddiyatni faqatgina o'zaro kelishuvlar hamda muzokaralar yuli bilan bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Chunki zo'ravonlik, zulm, adolatsizlik, qarama-qarshilik va urushni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, bag'rikenglik tamoyili shaxslar, turli sivilizatsiyalarga mansub jamiyatlar, erkaklar va ayollar, katta yoshdagilar va bolalar, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmatni bildiradi. Turli nizolar sharoitida bag'rikenglik – atrofdagilarga zarar etkazmagan holda o'zini qaror toptirishdir. Bag'rikenglik – insoniy his-hayajonni jilovlaydigan, ongli va sergak nuqtai nazardir. Hozirgi dunyo globallashuv, o'zaro bog'liqlik va integratsiya, ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishi, ijtimoiy hayot faoliyati shakllarining tobora bir xillashuvi, keng miqyosli migratsiya va urbanizatsiya sharoitida yashab turibdi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. // www.lex.uz.
2. Qo'chqorov, R., & Tojiboyeva, D. (2016). Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. *T.: TDYU*.
3. Rashidov Oybek. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik [Matn]: o'quv qo'llanma / O.Rashidov. — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022.- 200b
4. Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. – Тошкент:Hamkornashr, 2021. –Б.206-225.
5. Мадаева Ш. Миллий тараққиётда диний толерантлик омили. "Ёшларда толерантликни юксалтириш – фуқаролик жаиятни қуриш омили" мавзусидаги Республика илмийназарий конференция материаллари. – Тошкент,Бухоро. 2007.15-17 ноябрь. –Б.165-168.

SAXIYLIK –BUYUK INSONIY FAZILAT

Karimova Orzigul
Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo`nalishi
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolamizda saxiylikning insoniy fazilat sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan, hamda saxiylikning teskari tomoni bo`lgan baxillikning salbiy jixatlari o`rganilgan.

KALIT SO`ZLAR: saxiylik, baxillik, saxovat, yaxshilik, muruvvat, munosabat, yomon nazar , harom ish, himmat, ehson.

KIRISH. Dunyo yaralibdiki, hayot turli xil qarama-qarshiliklardan iborat.Yaxshilik-yomonlik, kamtarlik-manmanlik va shu qatorda saxiylik va baxillik.Saxovat hech kimdan narsasini,y axshiligini ayamaslik, hotamlik xislarini anglatuvchi tushuncha. Baxillik saxovatning ziddi bo`lib, mol-dunyoni sarflanishi zarur o`rinlardan man qilishdir. Bu o`ziga sarflamaslik, birovga bermaslik, so`ralganda rad etish kabilarni o`z ichiga oladi.

Diniy bag'rikenglik O'zbekiston siyosatining ajaralmas qismi hisoblanadi. Aslini olganda tarixiy davrlarga nazar soladigan bo'lsak bag'rikenglik va o'zaro hamjihatlik masalalari qadm davrlardan beri ya'ni islom dini vujudga kelganidan buyon barhayot bo'lib kelayotgan tushunchadir.Bu tushunchaning mazmuni bir joyda yoki mamlakatda istiqomat qilib kelayotgan shaxslar bir-birining diniga hurmat bilan qarashi va bir-birining diniy e'tiqodini va qadriyatlarini poymol qilmasligidir. E'tiqodidagi aqidaviy farq va tafovutlarga qaramay bir biri bilan tinch totuv yashash,har kim o'z huquq va majburiyatlariga amal qilishi diniy totuvlikning asosiy tayanchidir. Islom dini ilk davrda bag'rikenglik dini sifatida e'tirof etilgan bulib bu xususida shu ma'lumotni keltirib o'rish joizdir.Ankabut surasi 46-oyatda shunday deyiladi: "Sizlar ahli kitoblar bilan chiroyli uslubda munozara qilinglar". Bunda inson ochiq yuzli bo'lishlik boshqa din vakillariga chiroyli muomala qilishi haqida aytiladi.[1] Hozirgi globallashuv jarayonida insonlar orasida media maydonining ta'siri kuchayib borayotganini inobatga olsak diniy bag'rikenglikka rahna solish qo'rqinchli oqibatlarga olib kelishini anglashimiz qiyin emas.Chunki hozirgi kunda insonlar orasida davlatga,davlat boshliqlariga yoki butun bir din vakillariga nisbatan turli xil aqidaviy va to'g'ri bo'lmagan qarashlarni targ'ib qilib yoshlar ongini zararlovchi va ularni o'z izmiga solib turli xil targ'ibot ishlarini olib borib fuqarolik urushlarini keltirib chiqarish,siyosiy harakatlarni va niyatlarini din soyasida amalga oshiruvchi shaxs va tashkilotlar mavjud. Afsuski bu harakatni amalga oshiruvchi shaxs yoki tashkilotlar o'zlarining harakatlarini dinga ayniqsa ko'p hollarda Islom diniga bog'lashi mumkin.Lekin ayni damda shuni ham hisobga olish kerakki terrorizm tushunchasi aslida 1960-yilning oxirida vujudga kelga va bu harakatlarning asosi siyosiy raqiblarni yo'q qilish, biror bir davlatning iqtisodiy-ijtimoiy va hattoki siyosiy barqarorligini izdan chiqarishga qaratilgan hisoblanadi.

Bularga yaqqol misol 2001-yil 11-sentyabr hurujlaridir. Xalq orasida 9/11 nomini olgan huruj bo'lib, 2001-yili Al-Qoida Amerika qo'shma shtatlariga

uyushtirgan hujumi hisoblanadi. 11-sentyabr kuni 19 nafar terrorchi yo'lovchi samolyotlarini qo'lga olgan, birinchi ikkita samolyot Nyu-Yorkdagi Jahon savdo markazi binosining ikkita burchagiga kelib urilgan. Qolgan samolyotlar Washington tomon harakatni davom ettirgan. Uchinchi guruh AQSh Mudofaa vazirligi qarorgohi bo'lgan Pentagon Virjiniyaning Arlington okrugiga hujum qilgan, to'rtinchi samolyot bortdagi to'z-to'polon sababli boshqaruvni yo'qotib Pensilvaniyadagi qishloqlardan biriga qulagan. 11-sentyabrdagi hujumlar oqibatida 2 ming 977 kishini o'ldirgan va bu tarixdagi eng halokatli terror hujumi sifatida tarixga kirgan. Qo'shma Shtatlar hujumlarga javoban, Afg'oniston, Iroq, Suriya va boshqa bir necha mamlakatlarda terroristik tashkilot deb hisoblangan dushman guruhlarini hamda ularni qo'llab-quvvatlayotgan xorijiy hukumatlarni yo'q qilish uchun terrorizmga qarshi global urush olib e'lon qilgan.Al-Qoida tashkiloti sardori Muhammad Atta tongi soat 8:46 atrofida American Airlines samolyotini 11-reys bilan Manheptondagi butunjahon savdo kompleksiga yo'naltirgan. 17 daqiqadan so'ng tongi soat 9:03 da butunjahon savdo kompleksining janubiy binosiga borib urilgan. 110 qavatli egzak minora 1 soatu 41 daqiqada qulagan va qulash WTC ning qolgan beshta binosiga ham vayron qilgan. Vashing tomon uchgan 77-reys bilan American Airlines samolyoti soat tongi soat 9:37 da Pentagon binosiga borib urilgan va binoga zarar yetkazgan. To'rtinchi oxirgi samolyot ham yo'nalishini Vashingtonga tomon o'zgartirgan. Ilgarigi hujumlar haqida xabar topgan to'rtinchi samolyot yo'lovchilari bosh ko'tarishgan, natijada samolyot boshqaruvni yo'qotgan va Pensilvaniya shtatining qishloqlaridan biriga soat 10:03 qulagan. Federal avia boshqaru hizmati hujum boshlanganidan 59 daqiqa o'tib barcha reyslarni bekor qilgan va havoda bo'lgan samolyotlardan zudlik bilan qaytish yoki Kanadaga qo'nishni talab qilgan. 13-senytabrga qadar Amerikada barcha avioreyslar bekor qilingan. Kanada hukumati Amerikadan kelgan barcha samolyot yo'lovchilarini kutib olib joylashtirishda yordam bergan.O'sha paytdagi AQSH prezidenti Jorj Bushga terrorizmga qarshi kurashish markazi hujumni Al-Qoida mujohidlar tashkiloti amalga oshirgani aytilgan. Terakt sodir etilganidan so'ng Amerika qo'shma shtatlari zudlik bilan terrorizmga qarshi kurashish choralarini qo'llagan va AQSH talablariga bo'ysunmasdan Al-Qoida tashkilotini tutib berishdan bosh tortgan Tolibon tashkilotiga qarshi urush ochgan. AQSH Shimoliy atlantika kelishuvining 5-bandiga asoslanib Al-Qoidaga qarshi birlashishga chorlagan. AQSH va NATO tashkiloti Avg'onistonga kirib borishgan ammo Layden ulardan qochib oq tog'lar hududiga berkingan. 2004-yilga qadar Layden teraktga hech qanday aloqasi yo'qligini ta'kidlagan, keyinchalik o'z ayblarini tan olib bergan audiobayonoti yozuvlari e'lon qilingan. Teraktga Al-Qoidaining aloqadorligi Isroilni Amerikaga yordam berishiga olib kelgan va Iroq sanksiyaga tortilishiga olib kelgan. Deyarli 10 yillik taqibdan so'ng Layden 2011-yili 2-may sanasida Amerikaning Pokistondagi

reydlari jarayonida o'ldirilgan. Avg'onistondagi urush yana 8 yil davom etgan. 2020-yili Avg'oniston hududini AQSH va NATO askarlari tark etilishi haqidagi kelishuvga erishilganidan so'ng 2021-yili davlat hududidan harbiylar chiqib ketgan. AQSH o'z askarlarini Avg'onistondan olib chiqib ketganidan so'ng Tolibon Avg'onistonda o'z boshqaruvini o'rnatgan. Laydendan keyingi Al-Qoida rahbariga aylangan Ayman Al-Zavahiri ham terakt tashkilotchilaridan bo'lgan, shu sababdan 2022-yil 31-iyul sanasida AQSh boshqaruvchisiz samolyoti bilan Avg'onistonning Kobul shaxrida o'ldirilgan.Terakt natijasida 2977 nafar inson halok bo'lgan, mingdan ortiq inson tan jarohatlari bilan shifoxonalarga yotqizilgan, ko'plab infrastrukturalar zarar ko'rgan. AQSH hujum oqibatida ko'rgan talofati 10 mlrd Aqsh dollarini tashkil qilgan. Bu statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak terrorizm nafaqat bitta davlatga emas balki ko'plab davlatlarga xalqaro doirada talofat yetkazadi va bu raqamlardan biz diniy bag'rikenglik va uni targ'ib qalish masalasi jiddiy ekanligini anglashimiz mumkin..

REFERENCES

1.A.Ochildiyev va boshqalar. Dinshunoslik asoslari. T. Islom universiteti nashriyoti, 2015. –B.312.
2.A.Narbekov . Dinshunoslik asoslari. T. Ishki ishlar akademiyasi. 2015. –B.312.

KIBER MAKON, KIBER TERRORIZM TUSHUNCHALARINING AHAMIYATI VA UNGA QARSHI KURASH CHORA TADBIRLARI.

Husniddin Muhiddinovich Yakubov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar"
kafedrasi o'qituvchisi.
Cho'liyeva Xurshidabonu Shokir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tabiiy fanlar fakulteti"biologiya yo'nalishi 1-kurs 24/2-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kiber terrorizm,kiberzo'ravonlik tushunchalarini o'rganish,kibermakonning globallashuvi zamonida talaba yoshlarga yangicha qo'yiladigan talablar,ularning ongida mediasavodxonlik sifatini oshirish orqali ahborot xurujlaridan himoya qilish vositalarini mazmun va mohiyatini ochib berish,hamda ayni vaqtda O'zbekistondagi kiberjinoyatlar va muammolar,kiberjinoyatlar turlari va ularga qarshi kurash chora tadbirlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: internet,vizual olam,kiberterrozim,kiberzo'ravonlik tushunchasi, internet auksion,elektron pochta,ahborot urushi,virtual diniy ekstremizm,vizuallik,kiberxavfsizlik,to'lov protetsor,operatsion tizimlar

Kirish:

Hozirgi globallashuv davrda texnologiyalar bilan birga kiberxavfsizlik, internet va raqamli tehnologiyalar ham dunyo miqyosida jadal rivojlanib bormoqda.Bu o'zgarishlar bilan birga kiberterrozim, kiberzo'ravonlik kabi yangi tahdidlar ham kundan-kunga ko'paymoqda. Afsuski "elektron "turli siyosiy kuchlar, ekstremizm,terrorizm va ularning g'oyalarini targ'ib qiluvchi asosiy qirol bo'lib bormoqda.Sir emas internetdan foydalanuvchilar soni yildan yilga ortmoqda, yer yuzining istalgan nuqtasida internetga ulanish imkoni mavjud va dunyoning 200 dan ortiq davlatlarida internet mavjud.Bu esa turli davlatlarda kiberterrozim,kiberjinoyatlarning sodir bo'lishiga zamin yaratyapti desam adashmagan bo'laman. Kiberterrorizm aslida axborot texnologiyalari ichki faoliyatiga noqonuniy aralashish, kompyuterda mavjud dasturlar yoki ma`lumotlarni maqsadli ravishda yo`q qilish, zarar keltirish, davlat organlarining muhim qismlari faoliyatini izdan chiqarish bilan birga insonlar hayotiga xavf solish, moddiy zarar keltirish yoki ommaviy qo`rqitish, harbiy nizolar kabi turli zararli oqibatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatdir.

Asosiy qism:

Kibermakon internet tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot sifatida 1990-yildan boshlab keng miqyosda rivojlanib va takomillashib bormoqda.Kibermakon tushunchasini birinchi marta kanadalik yozuvchi Uilyam Gilson 1982-yilda "Sojjenie Xrom"nomli hikoyasida yozadi.Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub'ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.Kibermakon — bu informatsion texnologiyalar yordamida yaratilgan va global tarmoq orqali ulanish imkonini beruvchi virtual muhitdir. Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi. Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda. «Kibermakon»da din niqobidagi «kiberhujum»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi.Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidi to'g'risida Aydarbek Tulepov o'zining "ISHID fitnasi" kitobida quyidagi ma'lumotlarni beradi. ISHID o'zining internet orqali go'yo Islom yo'lida "qurbon" bo'layotgani aks etgan videolavhalari va fotosuratlari "al-Hayot" media studiyasida tayyorlanadi va internetga joylashtiriladi."Kiberterrorizm " tushunchasi aslida axborot texnologiyalari ichki faoliyatiga noqonuniy aralashish, kompyuterda mavjud dasturlar yoki ma`lumotlarni maqsadli ravishda yo`q qilish, zarar keltirish, davlat organlarining muhim qismlari faoliyatini izdan chiqarish bilan birga insonlar hayotiga xavf solish, moddiy zarar keltirish yoki ommaviy qo`rqitish, harbiy nizolar kabi turli zararli oqibatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatdir.Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", "VKontakte" ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga

kiritishdir. Kitobda din niqobi ostidagi "rahnamolar" haqida ham yoziladi.Tabiiyki, tarmoqning barcha foydalanuvchilari kabi ekstremistlar ham turli xil saytlar va forumlarga kirib ko'radi. Mudom shakllantirilib boriladigan dasturli ta'minotdan foydalanadi, tarmoqli ta'minot shu jumladan internet orqali maxfiy muloqot tarqatmoqda. "Al-Qoida"ning birinchi rasmiy sayti 2001 yil 11-sentyabr voqealarigacha ham mavjud bo'lgan. "Al-Qoida" sayti o'sha vaqtlardagi veb-resurslardan farq qilmagan, uning katta qismini statik (turg'un, muvozanat holatidagi) tasvirlar va turlicha matn, e'lonlar (asosan arab tilida), shuningdek, bir nechta qisqa videoroliklar tashkil qilgan. "Al-Qoida"ning rasmiy tashkiloti paydo bo'lishi, saytda boshqa din niqobidagi "dindor"larning o'zini oshkor qilishi tezlik bilan kengayib bordi. Yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlar kabi, ularni qo'llab-quvvatlovchi ko'plab sahifalar, turli xil ko'rinishdagi forum va ijtimoiy tarmoqlar "bolalab" ketdi. Ammo uning din niqobi ostidagi ekstremistlarning diniy mafkurasi bilan tanish bo'lgan har qanday odam, kichik detallar vositasida go'yoki "hamfikr birodarlar"i orasida ekani – bugungi kunning xavfidir. Bu o'z vaqtida "Al-Qoida" tomonidan emas, balki uning tarafdorlari tomonidan yaratilgan edi va o'z navbatida, to'laqonli ijtimoiy tarmoqlarni yaratishda "asqatadigan" zamonaviy texnologiyalar dunyosida bilim darajasini namoyish etib, bu guruhning haqiqiy a'zolari diqqatini o'ziga jalb qilgan.Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ongi va ruhiyatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi."Kiberterrozim"bu tahdid yoki qo'rqitish orqali, internetdan foydalangan holda, siyosiy yoki mafkuraviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida uyushtiriluvchi kiberhujumlardir. Kompyuter viruslari, kompyuter qurtlari, fishing, zararli dasturlar, apparat usullari, dasturlash skriptlari kabi vositalar yordamida kompyuter tarmoqlarini, xususan, internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarni qasddan, keng miqyosda buzish harakatlari internet terrorizmining ko'rinishi bo'lishi mumkin. Kiberterrorizm munozarali atamadir. Ba'zi mualliflar ma'lum terroristik tashkilotlar tomonidan signalizatsiya, vahima yoki jismoniy buzilishlarni yaratish maqsadida axborot tizimlariga qarshi hujumlarni buzish bilan bog'liq juda tor ta'rifni tanlaydilar.Boshqa mualliflar esa kiberjinoyatni o'z ichiga olgan kengroq ta'rifni afzal ko'rishadi. Kiberhujumda ishtirok etish, hatto zo'ravonlik bilan amalga oshirilmagan bo'lsa ham, terror tahdidi idrokiga ta'sir qiladi. Ba'zi ta'riflarga ko'ra, onlayn faoliyatning qaysi holatlari kiberterrorizm yoki kiberjinoyat ekanligini farqlash qiyin bo'lishi mumkin.Kiberterrorizmni shaxsiy maqsadlar yo'lida vayron qilish va zarar yetkazish uchun kompyuterlar, tarmoqlar va ommaviy internetdan qasddan foydalanish sifatida ham e'tirof etish mumkin. Tajribali kiberterrorchilar, buzg'unchilik bo'yicha juda malakali bo'lganlar hukumat tizimlariga katta zarar yetkazishi va keyingi hujumlardan qo'rqib, mamlakatni tark etishi mumkin. Bunday

terrorchilarning maqsadlari siyosiy yoki mafkuraviy bo'lishi, bu esa terrorning bir ko'rinishi deb hisoblanishi mumkin.Kiberterrorizmni shaxsiy maqsadlar yo'lida vayron qilish va zarar yetkazish uchun kompyuterlar, tarmoqlar va ommaviy internetdan qasddan foydalanish sifatida ham e'tirof etish mumkin. Tajribali kiberterrorchilar, buzg'unchilik bo'yicha juda malakali bo'lganlar hukumat tizimlariga katta zarar yetkazishi va keyingi hujumlardan qo'rqib, mamlakatni tark etishi mumkin. Bunday terrorchilarning maqsadlari siyosiy yoki mafkuraviy bo'lishi, bu esa terrorning bir ko'rinishi deb hisoblanishi mumkin.Kiberterrorizmning shiddat bilan o`sib borishining yana bir sababi, u qurol-yarog` yordamida amalga oshiriladigan terrorchilik harakatidan arzonga tushadi, jangovar harakatlar, portlashlar, xunrezliklar bo`lmaydi. Buzg`unchi harakatlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda oshiradilar.Kiberjinoyatlarni turlari shunaqa ko'pki ularni hozirgi kunda turli davlatlarda bo'layotgan kiberjinoyatlar misolida ko'rishimiz mumkin.Tahlillarga ko'ra, dunyo bo'ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Luksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko'payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan. Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o'zgalarning plastik kartadagi mablag'larini o'zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko'payib bormoqda. Masalan yurtimiz O'zbekistonda ham bugungi kunda kiberjinoyatlar soni ortib bormoqda.Biz buni telvedeniya yoki internet tarmoqlari orqali deyarli har kuni eshityapmiz ko'ryapmiz guvoh bo'lyapmiz.Misol uchun O'zbekistonda so'nggi 3 yilda kiberjinoyatlar keskin oshgan.Firibgarlar plastik karta foydalanuvchilariga kelgan SMS-xabarnomadagi kodlarni to'lovni amalga oshirish, yutuqni berish kabi bahonalar orqali egallab, undagi mablag'larni o'zlashtirish kabi holatlar.O'zbekistonda 25 mln nafardan ortiq internet foydalanuvchilari mavjud. O'tkazilgan tahlil natijalari bugungi kunda mamlakatda kiberjinoyatchilikning o'sish tendensiyasi kuzatilayotganidan dalolat bermoqda.

IIV Kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimlarining ma'lum qilishicha, so'nggi 3 yilda kiberjinoyatlar soni bir necha baravarga oshib ketgan. Jumladan, kiberjinoyatchilikning bir qator turlari sodir bo'layotgani kuzatilmoqda.

Ular quyidagicha:

- Firibgarlar plastik karta foydalanuvchilariga kelgan SMS-xabarnomadagi kodlarni to'lovni amalga oshirish, yutuqni berish kabi bahonalar orqali egallab, undagi mablag'larni o'zlashtirishi;
- Shaxsiy ma'lumotlarni egallash va ularni oshkor qilish bilan qo'rqitib tovlamachilik qilishi (kibertovlamachilik);

Ijtimoiy tarmoqda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishi, haqorat, suitsid holatlari (kiberbulling) va boshqalar.2022 yilda Toshkentda axborot texnologiyalari yordamida 4332 ta yoki 2021 yilga (2281 ta) nisbatan qariyb 2 baravar, 2020 yil bilan (106 ta) taqqoslaganda esa 40 baravar ko'p kiberjinoyat sodir etildi. Bu haqda Toshkent IIBB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi vakillari ishtirokida o'tkazilgan brifingda ma'lum qilindi.2023_2024yillarda esa bu son ko'rsatkichlari yanada ko'paygan.

Firibgarlar kibermakonda qanday usullardan foydalanyapti?

Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazi mas'ul xodimi Saidkamol Sodiqov so'zlariga ko'ra, hozirda quyidagi usullardan foydalanib, kiberjinoyat sodir etilyapti:

- Moddiy yordam, onlayn kredit, yutuqli o'yin g'olibi kabi aldovlar bilan yuborilgan soxta havola orqali bank karta maxfiy kodni qo'lga kiritish yo'li bilan (34 foizi),
- Oldindan to'lovlarni amalga oshirishga erishib, pullarni qaytarmasdan va kelishuvni bajarmasdan jabrlanuvchi mablag'ini qo'lga kiritish yo'li bilan (22 foizi),
- Telefon qo'ng'iroqlari davomida o'zini to'lov kompaniyasi (Click va boshqalar) yoki bank xavfsizlik xizmati xodimi deb tanishtirib, karta raqami va maxfiy kodini qo'lga kiritish orqali (17 foizi),
- Onlayn savdo platformalari orqali karta raqami va kodining oshkorlashtirilishi natijasida (14 foizi),
- Soxta onlayn moliyaviy birjalar orqali (Binance va boshqalar) sodir etilgani aniqlangan (9 foizi).

Kiberjinoyatlarni butunlay yo'q qilish va internet xavfsizligini butunlay ta'minlash imkoni bo'lmasa-da,korxona tizimlari,tarmoqlar va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda chuqur mudofaa yondashuvidan foydalangan holda samarali kiberxavfsizlik strategiyasini qo'llab quvvatlash orqali uning ta'sirini kamaytirishga erishish mumkin.Kiberjinoyat xavfini quyidagi qadamlar orqali kamaytirishimiz mumkin.

- Biznes va xodimlar uchun aniq siyosat tartibini ishlab chiqish.Ushbu siyosat va protseduralarni qo'llab-quvvatlash uchun kiberxavfsizlik hodisalariga javob reaksiyasini yaratish.
- Tizimlar va korporativ ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha amaldagi xavfsizlik choralarini belgilash

- Ikki faktorli autenfikatsiya (2F) ilovalari yoki jismoniy xavfsizlik kalitlaridan foydalanish.Imkoni bo'lganda har bir onlayn hisobingizda 2F ni faollashtiring
- Moliyaviy menejer bilan gaplashish orqali pul jo'natish so'rovlarini haqiqiyligini og'zaki tekshirish
- Kompaniya elektron pochta xabarlariga o'xshash kengaytmali elektron pochta habarlarini belgilovchi tajovuzlar tizimini aniqlash (IDS) qoidalarini yaratish
- Ma'lumotlar buzilgan taqdirda zararni kamaytirish maqsadida hamma shaxsiy ma'lumotlarni zahiralash

Xulosa qilib aytganda kasallikni davolagandan uni oldini olish zarur.Ma'lumki, bola tarbiyasi ota-ona, mahalla, maktab gardaniga tushadi. Bunda yoshlarni keskinlik yoki tazyiq o'tkazib to'g'ri yo'lga solib bo'lmaydi. Hech bir zo'ravonliksiz va asosli fikr-mulohazalar bilan tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. "Kontrpropaganda" ishlari bosh tezisi – inson olamni o'zgartirish uchun mukammal bilim va chuqur mulohaza yuritsa, jamiyatda mutaxassis va avtoritetga aylansa, uning ergashuvchilari tabiiyki ko'proq bo'ladi. Shunda yaxshi maqsadlarga erishishi muqarrarligi ta'minlangan bo'ladi, deb bosim o'tkazmay, qalban yondashib bolaning ongiga "yetkazish" lozim. Bolaning xatti-harakatlarini mutlaqo qoralash kerak emas. Bu uning qarshi reaksiya – himoya pozitsiyasini qo'llashiga olib keladi.Hech qachon ekstremizm – ijtimoiy xastalik ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun unga jarrohning emas, psixolog qurollari bilan yondashish kerak. Bunday "romantika"ga asosan yoshlar ishonib, bu ular energiyasini destruktiv yo'nalishga burib yuboradi. Shunday targ'ibot va tashviqot asosida shakllanish bosqichidagi yoshlar va ta'sirchan ijtimoiy qatlam vakillarida tabiiy ravishda olamni adolatliroq qilish (masalan elitalar shakllanishi, nochorlik, mehnat haqqi va karyera o'sishidagi adolatsizlik, jinoyatchilikning yuqori darajadaligi, oddiy fuqaro huquqini himoyalashda adolatsizlik, ishsizlik, qonuniy idoralar tomonidan siyosiy tizimga ta'sir sustligi kabi masalalar yuzasidan) xohishi yuzaga kelib, umuminsoniy qadriyatlarni rad qila boshlaydi, o'zini ijtimoiy fikrga qarshi tuta boshlaydi, ta'lim olishda mutaxassis sifatida shakllanish o'rniga, kelajagi yo'q yo'nalishga tushib qoladi.Kiberjinoyatlar kundan-kunda ortib borayotdan davrda biz uni oldini olishimiz va uni eng avvalo o'zimizdan boshlashimiz kerak deb o'ylayman.Biz internetdan foydalanishda muayyan ehtiyot choralarini ko'rishimiz va kiberjinoyatlarga qarshi ishlab chiqilgan profilaktika choralariga qat'iy rivoya qilishimiz kerak.Xususan,elektron pochta yoki internet suhbatlari orqali shaxsiy ma'lumotlarimizni begonalarga oshkor qilmasklik va internet xavfsizligini kuchaytirishimiz kerak.Shahsiy ma'lumotlarni zahiralab qo'yishimiz ham zarar qilmaydi.Ayollar va yosh bolalar kirishi mumkin bo'lmagan saytlarni ochmaslikari va asosan telegram, instagram, fasebook va shunga o'xshash

internet ilovalari orqali begonalar bilan suhbatlashmasliklarini tavsiya qilaman.Internetdan keladigan yolg'on ma'lumotlarga ishonib hisob karta raqamizni hech kim bilan bo'lishmang.Hozir psixologik jihatdan ishlov berilgan, jangarilarning jihodiy nashidalar bilan yo`g`rilgan videoroliklari bilan bir qatorda mobil ilova-yu, terrorchilar belgisi aks ettirilgan buyumlarni sotib olish imkonini beruvchi internet do'konlar ko`payib borayotgani ham kiberjinoyatlarning tarkibiy unsurlariga aylangan. Biz ana shu xavfdan har doim ogoh bo'lishimiz, farzandlarimizni ularning ta`siridan har tomonlama himoya qilishimiz lozim.

REFERENCES

1.Kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlik. – T.: O'zbekiston. 2022.
2.S.K.G'aniyev,A.A.G'aniyev T.Z.Xudoyqulov Kiberxavfsizlik asoslari "O'quv qo'llanma"_T "Toshkent-2020"
3.A.V.Sokolov O.M.Stupanyuk Kompyuter terrorizmidan himoya
4.N.S.Salayev R.N.Ro'ziyev kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga milliy va xalqaro standartlar.Monografiya_T.
5.Kiberjinoyatchilikka qarshi kiberxavfsizlik. – T.: O'zbekiston. 2022.
6.Darakchi_uz va Kun_uz saytlari.
7.You tobe ilovasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

KIBERTERRORIZM

Sharipova Zulxumor Otabek qizi, Qorjovova Marjona Shuhrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi
1-kurs talabalari
Ilmiy rahbar: Umarova Shaxlo Baxtiyorovna
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolani o'qish davomida jamiyatdagi axloqiy muhitga Kiberterrorizmning ta'siri va bunga qay yo'sinda qarshi turish kerakligi, agar qarshi turilmasa qanday oqibatlarga olib kelishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz**.**

Kalit so'zlar. Kiberterrorizm, kiberhujumlar, kompyuter qurtlari, fishing, terror tahdidi, kiberjinoyat.

Kirish. Kiberterrorizm zamonaviy dunyoda jiddiy tahdiddir. Bu internet va boshqa kompyuter texnologiyalaridan terroristik hujumlarni amalga oshirish uchun foydalanishdir. Bu hujumlar veb-saytlarni buzish kabi kichik xatolardan tortib, elektr tarmoqlari yoki moliyaviy tizimlar kabi muhim infratuzilmaga qaratilgan keng ko'lamli hujumlargacha bo'lishi mumkin**.**

Kiberterrorizm. Ing.-cyberterrorism,rus.-кибертерроризм. Submilliy guruhlar yoki maxfiy agentlar tomonidan noharbiy nishonlarga nisbatan kuch ishlatilishida ifodalangan, axborot, kompyuter tizimlariga, kompyuter dasturlari va ma'lumotlarga siyosiy asoslangan qasddan qilinadigan hujumlar**.**

Kiberterrorchilik bu tahdid yoki qo'rqitish orqali, internetdan foydalangan holda,siyosiy yoki mafkuraviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida uyushtiriluvchi kiberhujumlardir. Kompyuter viruslari, kompyuter qurtlari, fishing, zararli dasturlar, apparat usullari, dasturlash skriptlari kabi vositalar yordamida kompyuter tarmoqlarini, xususan, Internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarni qasddan, keng miqyosda buzish harakatlari internet terrorizmining ko'rinishi bo'lishi mumkin.

Kiberterrorizm munozarali atamadir. Ba'zi mualliflar ma'lum terroristik tashkilotlar tomonidan signalizatsiya, vahima yoki jismoniy buzilishlarni yaratish maqsadida axborot tizimlariga qarshi hujumlarni buzish bilan bog'liq juda tor ta'rifni tanlaydilar. Boshqa mualliflar esa kiberjinoyatni o'z ichiga olgan kengroq ta'rifni afzal ko'rishadi. Kiberhujumda ishtirok etish, hatto zo'ravonlik bilan amalga oshirilmagan bo'lsa ham, terror tahdidi idrokiga ta'sir qiladi.

Ba'zi ta'riflarga ko'ra, onlayn faoliyatning qaysi holatlari kiberterrorizm yoki kiberjinoyat ekanligini farqlash qiyin bo'lishi mumkin.

Kiberterrorizmni shaxsiy maqsadlar yo'lida vayron qilish va zarar yetkazish uchun kompyuterlar, tarmoqlar va ommaviy internetdan qasddan foydalanish sifatida e'tirof etish mumkin. Tajribali kiberterrorchilar, buzg'unchilik bo'yicha juda malakali bo'lganlar hukumat tizimlariga kata zarar yetkazishi va keying hujumlardan qo'rqib, mamlakatni tark etishi mumkin.

Hukumat va ommaviy axborot vositalarida kiberterrorizm yetkazilishi mumkin bo'lgan ziyon haqida xavotirlar talaygina. Bu esa Federal Qidiruv Byurosi (FQB) va Markaziy Razvetka Boshqarmasi (CIA) kabi davlat idoralarini kiberhujumlar va kiberterrorizmga chek qo'yishga unday boshladi.[6]

Kiberterrorizmning bir necha asosiy va kichik holatlari bo'lgan. Al-Qoida internetdan tarafdorlari bilan muloqot qilish va hatto yangi a'zolarni yollash uchun foydalangan. Estoniya, Boltiqbo'yi mamlakati, texnologiya jixatidan rivolanib borishmoqda, 2007-yil aprel oyida Estoniya poytaxti Tallinda joylashgan Ikkinchi Jahon urushi davridagi sovet haykali ko'chirilishi bilan bog'liq tortishuvlardan so'ng kiberterror uchun kurash maydoniga aylanib qoladi.[7]

Kiberterrorizm ko'lamining asosiy ta'rifi bo'yicha munozaralar mavjud. Ushbu ta'riflar tor bo'lishi mumkin, masalan, Internetdagi boshqa tizimlarga hujum qilish uchun Internetdan foydalanish, bu odamlar yoki mulkka nisbatan zo'ravonlikka olib keladi. Ular, shuningdek axborot texnologiyalari infratuzilmalariga odatiy hujumlar uchun terrorchilar tomonidan Internetdan foydalanishning har qanday shaklini o'z ichiga olgan keng bo'lishi mumkin. Ishda motivatsiya, maqsadlar, usullar va kompyuterdan foydalanishning markaziyligi bo'yicha malakaning o'zgarishi mavjud. AQSH davlat idoralari ham turli xil ta'riflardan foydalanadilar va ularning hech biri hozirgacha o'z ta'sir doirasidan tashqarida majburiy bo'lga sdandartni joriy etishga urinmagan.[8]

Xulosa. Kiberterrorizmga qarshi kurashish uchun davlatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy xavfsizlik choralari va texnologiyalarini joriy etish zarur. Shu bilan birga axborot xavfsizligini ta'minlahda har bir shaxsning mas'uliyati va bilimini oshirish muhim ahamiyatga ega. Yig'ilish va mutaxasislar tomonidan ishlab chiqilgan yangi strategiyalar kiberterrorizmning oldini olish va unga qarshi samarali kurashishning asosiy vositalari bo'lishi kerak. Demak, kiberterrorizmga qarshi kurashishda birgalikdagi harakatlar va axborot xavfsizligini ta'minlashning ustuvorligi nafaqat texnologik, balki axloqiy va siyosiy masala sifatida ham qaralishi kerak.

REFERENCES

1.Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati. T.:2023.282-bet
2.https://www.everycrsreport.com/reports/RL32114.html

Canetti, Daphna; Gross, Michael; Waismel-Manor, Israel; Levanon, Asaf; Cohen, Hagit (1-fevral 2017-yil). "How Cyberattacks Terrorize: Cortisol and Personal Insecurity Jump in the Wake of Cyberattacks". Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking (inglizcha). 20-jild No2. P-72-77.

[4]Hower, Sara. Cyberterrorism, 1st, Santa Barbara, CA: Greewood, 2011-140. P-149.

[5]Laqueur, Walter. Cyberterrorism. Facts on File, 2002. P-52-53.

[6]Laqueur, Walter. Cyberterrorism. Facts on File, 2002. P-52-53.

[7]Worth, Robert (25-iyun 2016-yil). "Terror on the Internet: The New Arena, The New Challenges". New York Times Book Review. 21-bet

[8]Bigdoli, Hossein. The Internet Encyclopedia, Vol. 1. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2004. P-354

FITRATNING "ARUZ HAQIDA" ASARINING O'ZBEK ARUZSHUNOSLIGIDAGI O'RNI

Begmatova Begoyim Talg'at qizi
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
abdinbayevabegayim@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning "Aruz haqida " asaridagi barmoq vazni va aruz ilmi to'g'risidagi fikrlari o'rganilgan. Keltirilgan fikrlar misollar asosida yoritilib berilgan. San'at tushunchasiga ta'riflar berilib , aruz ilmi bilan barmoq vazni bir biriga solishtirib o'rganilgan. Har tomonlama atamalarga alohida izohlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bahr, adabiyot, jadid, san'at, uslub, barmoq vazni, aruz, sochim, she'riy tizim.

Abstract. In this article, Abdurauf Fitrat's work "About Aruz". The opinions of finger weight and the science of fortune-telling have been studied. The given points are explained on the basis of examples. Definitions of the concept of art are given, and the science of fortune-telling and finger weight are compared to each other. Various terms are explained separately.

Key words: sea, literature, contemporary, art, style, finger weight, aruz, hair, poetic system.

KIRISH

Abdurau Fitrat XX asr boshining eng buyuk vakilidir. U xalqni ma'rifatli qilish uchun kurashgan jadidchilarimizdan biri hisoblanadi. Fitrat "Chig'atoy gurungi"' nomli til, adabiyot masalalari to'g'risidagi jamiyatga rahbarlik qilgan. Ko'plab ilmiy asarlar yaratgan. Har bir asarida insonni hurlikka, erkinlikka undovchi fazilatlar yotadi. Sobiq sovet tizimining nohaqliklaridan ertangi kunga bo'lgan ishonchi so'ngan xalqni umidlarini uyg'otadi. Fitratning birgina maqsadi sho'rolar davrida ezilayotgan xalqning ilm-ma'rifat bilan o'z huquqlarini bilib, o'zlari mustaqil fikrlay olsalar bas edi. Shu sababli u adabiy asarlardan tashqari bir qator ilmiy asarlar ham yaratdi. Fitratning aruz ilmi haqida yozgan asari — "Aruz haqida" (ba'zan "Aruz ilmi" deb ataladi) — o'zbek adabiyotshunosligida aruz vazni bo'yicha yozilgan ilk ilmiy-metodik risolalardan biri bo'lib, XX asr boshlarida aruzni o'rganishga, uni yangicha yondashuvda tushuntirishga qaratilgan muhim asardir. Quyida ushbu asarning tahlilini bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz. Fitrat bu asarni jadidchilik harakatining yuksalgan davrida, ya'ni 1910–1920-yillarda yozgan. O'sha davrda yangi adabiyot namoyandalari, ayniqsa yosh shoirlar aruz vaznidan keng foydalanayotgan edilar. Ammo ularning ko'pchiligi bu tizimni chuqur tushunmagan.

Fitrat ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, aruzni nazariy va amaliy jihatdan o'rgatishga harakat qilgan. Fitratning bu asari qisqa bo'lsa-da, mazmunan serqirra. Unda quyidagi bo'limlar mavjud:

*a) aruzga kirish :*Fitrat aruzning kelib chiqishi, uning fors-tojik va arab adabiyotidagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot beradi. Aruzning ilmiy asoslari haqida umumiy tushuncha beradi.

*b)tasnifi :*Aruz bahrlarining turlari, ularga xos bo'lgan vazn formulalari keltiriladi. Fitrat ularni misollar bilan tushuntiradi, har bir bahrni ohangiga qarab toifalarga ajratadi.

*c) tajziya va tatbiq :*Asarda she'rni aruz bo'yicha qanday tahlil qilish kerakligi amaliy misollar bilan ko'rsatiladi. Masalan, mashhur misralar tajziya qilinib, har bir bo'g'inning og'ir-yengilligi ko'rsatiladi.

*d) yozuvchilarga maslahatlar :*Fitrat asar oxirida shoirlarga qanday qilib aruzdan to'g'ri foydalanish, g'azal va boshqa janrlarni muvaffaqiyatli yozish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Asar soddaligi bilan ajralib turadi. Fitrat aruz kabi murakkab tizimni xalqona, sodda, o'qituvchi uslubida tushuntirishga harakat qilgan. U arabcha, forscha terminlarni o'zbekcha izoh bilan beradi, bu esa o'quvchining tushunishini osonlashtiradi. Bu asar aruzni o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchilar va yozuvchilar uchun ilk qo'llanmalardan biri bo'ldi. Fitrat aruzni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy shaklda o'rgatgan. U bu tizimni o'zbek adabiyotida o'zlashtirishga, uni xalqchillik tamoyillariga moslashtirishga uringan. Fitrat aruzga nisbatan ma'lum darajada tanqidiy yondashadi. U aruzning barcha shoirlar uchun mos emasligini, ba'zan fikrni ifodalashda cheklovlar keltirib chiqarishini ham tilga oladi. Shu boisdan ba'zi joylarda u hech bir vaznga solinmaydigan she'riyat erkinligi haqida ham ishora qiladi. Fitrat aruz haqida yozar ekan, uni oddiy xalq bolalariga, madrasadan chiqqan, ammo she'r yozmoqchi bo'lgan yoshlar uchun ham tushunarli qilishga intiladi. Bu jihatdan asar jadidlarning asosiy g'oyasi — "xalqni ilm bilan uyg'otish" tamoyiliga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotida ilmiy aruzshunoslikning bosqichi sifatida muhimdir. Aruzni soddalashtirgan va amaliy misollar bilan o'rgatgan birinchi risolalardandir; Shoir va yozuvchilar uchun nazariya va amaliyotni birlashtirgan darslik sifatida xizmat qilgan. "Tanlangan asarlari" to'plamiga kiritilgan ushbu asarda, aruz, uning qoidalari, bahrlari, vazn nazariyasi, aruz tarixidan saboq beriladi. Bu asar 1936-yilda yaratilgan. Asar boshlanishidanoq, taqqoslash, qiyoslashlar bilan boshlangan. Ya'ni aruz tizimini barmoq she'riy tizimi bilan solishtiradi, har ikkalasiga alohida izoh berib, bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarni aytib o'tadi. "Barmoq vazni shoirlari hijolarning soniga ahamiyat beradilar. Va bir misrani tashkil qilgan ma'lum bir miqdordagi hijolarni turoqlar vositasi bilan ayrim to'plamlarga ajratadilar -da,

turoqlarning joyini belgilash kerak bo'lgan ohangni ta'min etadilar. Aruz vaznida esa hijolarning ahamiyati bilan sifati ayni darajada asosiy rol o'ynaydi. Misralarda hijolarning soni e'tiborga olingani kabi qisqa va to'liq hijolarning tizilish tartibi ham o'zgargancha yangi-yangi vaznlar maydonga keladi. Mana shu xususiyat barmoq vazni sistemasida yo'q". Shu kabi jumlalar bilan Fitrat o'z fikrini qilar ekan, aruz vaznining mukammal she'riy tizim ekanligini ta'kidlaydi. Chunki aruz arab she'riyatiga xos vazndir. U Fitrat tariflaganidek, vazn turkumi deb ataluvchi 16 ta bahrdan tashkil topgan. Ushbu 16 bahrning 5 tasidan arablar deyarli foydalanmagan.(madid, tavil, basit, vofir, komil) Keyinchalik o'zlarining milliy vaznlari jadid, qarib, mushokil kabilarni arab bahrlari soniga qo'shishgan. Shu bilan arab-fors aruzi 19 bahrdan iborat bo'lgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda , har bir fikrni aniq faktlar, misollar bilan keltirib o'tgan Fitrat bu ilmni o'zi ham mukammal o'rganib chiqqan. Va albatta, o'zining mashaqqatli mehnati tufayli ushbu asari aruzshunoslik sohasidagi ilmiy kitoblar qatoridan joy olgan.

REFERENCES

1. A. Fitrat "Adabiyot qoidalari ". T: 1 995.20-b
2. A. Fitrat "Aruz haqida ". T: O'qituvchi. 1997.18-b
3. D. Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish". T: Toshkent. 2004.56-b
4. Adabiyot nazariyasi. 2tomlik 2-tom. T: Toshkent 1979. 349-b
5. A. Fitrat "Tanlangan asarlar" T: Toshkent "Ma'naviyat" 2009. 11-

MILLIY QADRIYATLAR

Klicheva Ayhan
Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24/10 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: **Koshanova Nilufar Maxsudovna**

ANNOTATSIYA: Milliy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o'rni ularning shakllanish omillari va zamonaviy dunyodagi ahamiyati yoritiladi . Milliy an'ana, urf-odat madaniy meros va ma'naviy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi roli tahlil qilinadi.Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish kerak.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, madaniy meros, urf-odatlar, an'ana, ma'naviyat, milliy o'ziga xoslik, tarbiya, tarixiy meros, milliy g'urur.

Har bir millatning o'ziga xos urf-odatlari, an'analari va madaniy merosi uning milliy qadriyatlarni tashkil etadi.Milliy qadriyatlar bu xalqning tarixi, madaniyati,tili va dini bilan bog'liq bo'lib uning kelajagini belgilovchi muhim omillardir.O'zbek xalqi azaldan o'zining bo'y ma'naviy merosi mehmondo'stligi hurmat- izzati va insoniy fazilatlari bilan ajralib Milliy qadriyatlar har qanday jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi. Ular insonlarni yagona g'oya atrofida birlashtirib,birdamlikni mustahkamlashda muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa, yosh avlodni, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rni beqiyos.Ota-bobolarimizdan qolgan odob -axloq me'yorlari, urf-odat va an'analar jamiyatda o'zaro hurmat mehr-oqibat va birdamlikni shakllantirishga xizmat mehmondo'stlik o'zbek xalqining eng yorqin fazilatlaridan biri bo'lib uyga kelgan mehmonni hurmat bilan kutib olish,dasturxonga eng yaxshi taomlarni tortish odat tusiga kirgan.Keksalarga hurmat katta yoshdagi insonlarni e'zozlash,ularga hurmat keltirish milliy an'analarimizdan biridir.Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mamalakatimizdagi olim va mutaxassislarni jalb qilgan holda "Milliy qadriyatlar" va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati mavzusida konferensiya o'tkazadi. Ushbu konferensiyada qadriyat tushunchasining ilmiy - falsafiy talqini, tarixiy negizlari bugungi kundagi ahamiyati milliy va ma'naviy muhit bilan bo'lgan tarzda muhokama etiladi.Milliy qadriyatlar bu ajdodlardan bizga meros bo'lib kelayotgan urf-odatlar an'analar ,axloqiy me'yorlar , san'at hunarmandchilik, milliy taomlar va boshqa ma'naviy hamda moddiy boyliklardir.Ular xalqning ma'naviy qiyofasini belgilaydi va milliy o'zligining muhim qismi hisoblanadi.O'zbek xalqining milliy qadriyatlari juda boy va rang- barang . Mehmondo'stlik oilaviy, an'analar qadimiy hunarmandchilik turlari bularning barchasi bizning madaniyatimizning ajralmas qismi.Ayniqsa Navro'z,

Qurbon hayiti, Ramazon hayiti kabi bayramlar xalqimizning qadriyatlaridir. Hozirgi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish juda muhim.Tehbologiyalar rivojlanayotgan bugungi kunda ham o'zligimizni saqlash, o'z qadriyatlarimizga sodiq qolish bizning asosiy vazifalarimizdan Insonning qadr-qimmati, sha'ni or- nomusi, milliy g'ururi-milliy qadriyatlar bilan bevosit bo'g'liq.Milliy qadriyatlar har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari xossalari,belgilari,alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib,osha millat bo'sib otgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini,ulushini ifodalaydi.Milliy qadriyatlar shubhasiz , millatning ravnaqi yorqin qirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.Boshqacha aytganimizda milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashib borayotganligini , mustaqillik yillarida O'zbekiston vujudga kelgan fuqarolarini tinch,totuv yashashga barqarorlikka intilishida ham yaqqol ko'rish mumkin Endilikda tinchlik millatlararo totuvlik barqarorlik. O'zbekiston yashovchi barcha xalqlarni , millatlarni ,elatlarni buyuk Ijtimoiy siyosiy qadritatiga aylanmoqda.Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy iqtisodiy, madaniy ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir.Shuning uchun ham qqadriyatlarda zamonning ruhi imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu - umidlari, istaklari va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi.Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib Milliy urf-odatlar,elat va etnik guruhlarning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyat.Masalan millatimizning xos bo'lgan qudachilik urf-odatlari muhim ahamiyat kasb etadi.Masalan sho'rolar davrida "Beshik to'yi" eskilik sarqiti deb tahrirlangan edi.Beshik to'y bilan bog'liq urf - odatlar , milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Milliy urf-odatlar va an'analar har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil etadi,xalq tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi.

Milliy urf-odatlarga befarq kishini, millatni o'zligidan uzoqlashtiradi. Milliy urf-odatlarda Vatanga, millatiga bo'lgan hurmat – e'tibor va sadoqat tajassum topadi.Mamalakatimizda istiqlol tufayli 130 dan ortiq millat vakillari urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.Bu hol millatlararo munosabatlarning rishtalarining mustahkamlashiga xizmat Milliy urf-odatlar millatning turmush tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan, ijtimoiy madaniy hayotida o'z aksini topgan doim takrorlanib turadigan xatti-harakat ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq atvor qoidalari va ko'nikmalaridir.Milliy urf-odatlar bizning xalqimizda o'ziga xos O'zbekona tarixiy xususiyatlarga ega bo'lib, an'anaviy va 421arsi421viy ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.Milliy urf-odatlar alohida olingan shaxs va millat doirasida shakllanib boradi.Masalan O'zbeklarda kichiklarning kattalariga salom

berishi erta turib uy hovlini supurib – sidirib, mehmonlarga alohida izzat ikrom ko'rsatish, bayram arafasida betob va qiynalganlar, yordamga muhtojlar ,qariyalar holidan xabar olish shulat jumlasidandir.Milliy urf-odatlar millat va elatning tarixi, an'analari ,xalq og'zaki ijodi, san'at va adabiyoti ,turmush 422arsi va boshqa omillar ta'sirida shakllanib takomillashib Milliy kiyimlar, xalq o'yinlari, urf-odatlari, milliy hunarmandchilik, qo'shiq va raqslar bunga misol bo'la oladi. Masalan atlas, adras matolari, do'ppi va chust to'n milliy kiyimlarimizni ajralmas qismi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch Toshkent Ma'naviyat 2008
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent, "O'zbekiston" 2023
3. BoyqobilovN. Yoldoshev N. O'zbek xalqining urf-odat va an'analari Toshkent. O`qituvchi 2005

KOREYADA MAKTABGACHA TA'LIM

Xasanova Norimxol , O'rinboyeva Sarvinoz
CHDPU "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar:**Ilmuradova Feruza Shokirovna**

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqola Koreya Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimini o'rganadi. Koreyada maktabgacha ta'lim yosh avlodni ilmiy, ijtimoiy, emosional va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tizim sifatida yuksak ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim ikki asosiy shaklga bo'linadi: bolalar bog'chalari va nursery markazlari. Ushbu tizimda bolalarga kognitiv, san'at, musiqa, jismoniy rivojlanish kabi sohalarda ta'lim beriladi. Koreyada ta'lim sifatining yuqori darajasi va o'qituvchilarning malakasi, shuningdek, bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga e'tibor berilishi tizimning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi. Bu maqola Koreyada maktabgacha ta'limning rivojlanishi, tuzilishi va uning afzalliklarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, Koreya Respublikasi, bolalar bog'chalari, nursery markazlari, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, emosional rivojlanish, jismoniy tarbiya, pedagogika, ta'lim tizimi.

Koreya Respublikasi, ta'lim sohasida o'zining ilg'or tizimi bilan dunyoda tanilgan mamlakatlardan biridir. Maktabgacha ta'lim (pre-school education) Koreyada katta ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodni ta'lim olishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Koreyada maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bu davrda bolalarga nafaqat bilim, balki ijtimoiy, emosional va jismoniy rivojlanish imkoniyatlari ham taqdim etiladi.

Koreyada maktabgacha ta'lim tizimi ancha rivojlangan va uning asosiy qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladi. 1970-yillardan boshlab maktabgacha ta'limning rivojlanishiga katta e'tibor qaratila boshlandi. 1990-yillarda, Koreya hukumati bu sohada sezilarli islohotlar amalga oshirdi va maktabgacha ta'lim dasturlarini normativ asosda tashkil etdi. Bugungi kunda Koreyada maktabgacha ta'lim davlat va xususiy sektor tomonidan taqdim etiladi, ammo davlat ta'lim dasturlarining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Koreyada maktabgacha ta'lim ikki asosiy turga bo'linadi: bolalar bog'chalari va nursery (bolalar parvarishi) markazlari.

1. Bolalar bog'chalari (유치원, yuchiwon): Bu ta'lim muassasalari 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. Bolalar bog'chalari davlat va xususiy

sektor tomonidan taqdim etiladi. Davlat maktabgacha ta'limning sifatini ta'minlash maqsadida barcha bolalar bog'chalarini akkreditatsiyadan o'tkazadi. Ushbu muassasalar bolalarga ilmiy, san'at, sport va axloqiy tarbiya sohalarida o'quv dasturlarini taqdim etadi.

2. Nursery markazlari (어린이집, eorini jip): Bu markazlar ko'proq bolalar parvarishiga mo'ljallangan bo'lib, asosan ota-onalar ishga chiqishlari sababli bolalarni qabul qilishadi. Bu markazlar ko'pincha 0-5 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan va ularning asosiy vazifasi bolalarga parvarish, sog'liqni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashdir.

Ta'lim dasturlari va metodlari Koreyada maktabgacha ta'lim dasturlari bolalarning umumiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, ular o'qituvchilar tomonidan qulay va o'ziga xos tarzda o'qitiladi. Dasturlar quyidagi sohalarni qamrab oladi:

1. Kognitiv rivojlanish: Maktabgacha ta'limda bolalarga hisoblash, o'qish va yozish kabi asosiy kognitiv ko'nikmalarni o'rgatish uchun turli xil o'yinlar, mashqlar va materiallar ishlatiladi.
2. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish: Bolalarga jamoada ishlash, boshqalar bilan hamkorlik qilish, o'zaro hurmat va empatiya ko'nikmalarini o'rgatish juda muhim hisoblanadi.
3. San'at va musiqiy ta'lim: Koreyada bolalarga san'at va musiqa bilan tanishtirish orqali ijodiy va estetik rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish kabi faoliyatlar o'qish jarayoniga kiritiladi.
4. Jismoniy rivojlanish: Bolalarga jismoniy mashqlar, o'yinlar va sport turlari orqali sog'lom hayot tarzini o'rgatish, motorika va tana harakatlarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

